Abdurauf
FITRAT

TANLANGAN
ASARLAR



Abdurauf FITRAT

TANLANGAN ASARLAR

DARSLIK VA O'QUV QO'LLANMALARI,
ILMIY MAQOLA VA TADQIQOTLAR

TOSHKENT «MA'NAVIYAT» 2009

Abdurauf Fitrat badiiy ijod va ilmning juda ko'p sohalari bo'yicha tadqiqotlar olib bordi. Sizga havola qilinayotgan ushbu saylanmadan uning «Adabiyot qoidalari», «Eng eski turk adabiyoti namunalari» kabi adabiyotshunoslikka, «Tilimiz», «Sarf», «Nahv» singari tilshunoslikka oid hamda ijtimoiy-ma'rifiy yo'nalishdagi «Oila» asari o'rin olgan.

Mas'ul muharrir: f.f.d., prof. ***Begali Qosimov***

Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi
filologiya fanlari doktori, professor
Hamidulla BOLTABOYEV

F $\frac{\textbf{4702620204–19}}{\textbf{M25(04)–09}}$

ISBN 978-9943-04-099-1

© «Ma'naviyat», 2009

SHE'R VA SHOIRLIQ
(Adabiy mubohasa)

I

She'r va shoirliq degan so'zlar bizda yangig'ina bir narsa emas. Turk ulusi o'z borlig'ini ochung'a ko'rsatkali she'r va shoirliqni bilibg'ina kelganlar. Har kim ishonadirkim, turk ulusining borlig'i va madaniylig'i arab kelgach boshlanmagan. Turklar Oltoy tegrasinda madaniyat qurub, hukumat yasab, tinchgina yashab turg'anda arablarning Arabistondag'i hollarini, ehtimolkim, o'zlari ham bilmas edilar. Madaniy bir ulusning she'rsizlig'in so'ylamak esa, gapurub turg'an bir kishining jonsizlig'ina ishonmoq kabi kulunchdir. «Turklar musulmonliqdan burun ham buyuk madaniy dong'li bir kun kechirganlar». Mana bu so'zni qabul qildikmi, «Turklarning musulmonliqdan burun ham she'rlari, shoirlari, adabiyotlari bor edi» demakdan o'z boshimizni qutqara olmaymiz. O'zbek, totor, qirg'iz, turkman orasinda turk odi kabi unutilmas bir yo'sunda bu kungacha yashab kelgan cho'bchaklar, matallar, ertaklar, o'lan va laparlarning har birini eshitib yuramiz. Turkman, qirg'iz ellarindag'i navras[1] kishilari, kichkina bolalar, o'quv, yozuv bilmag'an xalqning qizlarining so'z ustaliqlari borlig'ini bilib turamiz. Mana shunlarning har biri turk eski adabiyot madrasasindan tushub qolg'an baholi toshlardan boshqa narsa emasdir. Ulus ora og'izdan og'izg'a aylanib yurg'an cho'bchaklardan yaxshig'ina onglashilurkim, turk eski adabiyot madrasasinda sevgi va oshiqdan boshqa falsafa, hikmat va axloqdan ham ko'b narsalar bor ekan.

Esiz, minglarcha esizkim, arab kelgani sababli eski turk adabiyotining buyuk va baholi izlari so'lindi, yo'qoldi-ketdi. Ziyrak, tirishg'an, chidamli, ongli har ishning ketini tushungan arablar qaysi o'lkani bosib olg'anda eng ko'p shul o'lkaning eski dini, eski tili, eski bitiklari, eski asarlarini

[1] Izohlar kitobning oxirida berilgan.

bitirurg'a tushar edilar. Biz turklar arab bosqini bilan o'z harflarimiz va o'z yozuvimizni yo'qotg'andan keyin o'z adabiyot va she'rlarimizdan ham ayrilishimiz tabiiy edi. Mana shul ayrilish sababli ko'b kerakli narsalarimizni yo'qotdik. Eski adiblarimizning she'r va shoirliq to'g'rusuda qanday yo'llari, qanday qarashlari bor edi, bunlarni bilmaymiz. Bunlar yo'qolg'an, qo'limizdan chiqg'andir. Eski turk adabiyoti to'g'rusuda ochiq va yetarlik bilgilarimiz yo'qdir.

Adabiyotimizning ikinchi bo'limi musulmonliqdan boshlanadir. Adabiyotimizning bu bo'limi uchun kerak bo'lg'an negizlar va tamallarni bizga Eron orqali arablar yuborg'anlar. Biz musulmonliqdan so'ng adabiyot yo'llarini iyaruchiliq-dan[2] sira qutultira olmag'anmiz, adabiyot yo'llarinda eng katta hunarimiz ko'prak eronlilarg'a, undan keyin arablarg'a iyarmak bo'lg'an. Adabiyot yo'llarindag'i bu iyaruchilig'i-mizning ko'zga ko'rinur yerlarini chizib o'taylik.

So'nggi arab adiblari she'rni «kalamu muvazzanin muqaffanin» deya ta'rif qila(r) edilarkim, «vaznli, qofiyali gap» demakdir. Bizning shoirlarimiz ham she'rni shul bino qabul etdilar. Shuning uchundirkim, «vazn» va «qofiya»si bo'lg'an turli ma'nisiz so'zlarning sharafina ishong'an sayin she'rning haqiqatindan uzoqlashib qoldilar. Yetti-sakkiz so'zni bilgili bir vaznda tizib, ketinda bilgili bir so'zni qofiya qo'ymoq bilan she'r orasinda yerdan ko'kkacha ayirma bordir. She'rda kishilarning qonini qaynatg'uchi, singirlarini[3] o'ynatg'uchi, miyasini titratkuchi, sezgusini qo'zg'atg'uchi bir kuch, ma'naviy bir kuch bor. Shunday bir kuchi bo'lmag'an so'z vazn va qofiyasi bo'lsun she'r bo'la olmaydir.

Yuqorida dedikkim, she'rni «vaznli, qofiyali so'z» deb ta'rif etkanlar. Arabning so'ng adiblari deydirlar: bu so'z to'g'ridir. Arabning yasama shoirlari bo'lg'an mantiq ilmlisi she'rni yanglish yo'lda ta'rif qilg'anlar. Arablarning chin va tabiiy shoirlari bo'lg'an johiliyat shoirlari[4] esalar, she'rni bu ma'no bilan onglamag'an edilar. Tarixi islomni o'qug'an maktab bolalari ham bilarkim, arablar Qur'on oyatlarina qarshi «huva qovlu shoir» (va shoir so'zidir, she'rdir) degan edilar. Qur'on «Va ma huva biqovli shoir» (bu shoir so'zi emas, she'r emas) deb so'zlarini qaytarg'an edi. Tabiiy shoir bo'lg'an johiliyat shoirlari she'rni «vazn» va «qofiya»li so'z deb bilg'an bo'lsa edilar, «vazn» va «qofiya»si bo'lmag'an Qur'on oyatlarini «she'r» demas

edilar. Biz ham she'rni «vazn» va «qofiya»dan iborat (deb) bilib turg'ancha chin she'rg'a yaqinlasha olmaymiz. Talabimiz qilg'an kabi «sharob, jom, xumor, hol, xat, qosh, ko'z, gul, bulbul» singari o'n-o'n besh so'zni bilgili vazn tizib, «ol, hol, xol» kabi so'zlarni «qofiya» qilarmiz-da, o'zlarimizni she'r yozg'an atab o'tub ketarmiz. Holbukim, she'r boshqa, «qofiya» bilan «vazn» boshqadir. O'yla esa «she'r» nadur?

Bilasizkim, har birimizda jon va ongimizni tegramizdag'i narsalar va hodisalardan chorlandurub turg'uchi «besh sezgich» (havvosi xamsa) bordir. Jonimiz shul besh sezgich orqali dunyoning o'z tegramizga erishkan narsa va hodisalarni bilib tura(r) va har birisindan qayg'i, sevinch, qo'rquv, qizish, qaynash kabi sezgi va tuyg'ilar oladir. Qishning qorli sovuq bir kunida yirtiq choponli, ko'k betli, oq soqolli bir tilanchi boboning o'rnida yiqilib qolg'anini ko'rganda yuragimiz sezgisiz qolarmi? Shundayoq yop-yolg'uz bu yo'lda bir kishining yaralarig'a o'ralib, qonlarig'a belangan o'lukni qo'yub qochar; biri o'lukning boshig'a tutub, uning bo'yalib yotqon gavdasini ko'rganda har kim o'zig'a yarasha bir narsa sezar: biri buyuk bir qo'rquv bilan holig'a yig'lar; biri chuqur qozib ko'mar; biri esa ul yarali gavdani ko'rgach, qoni qaynab ketar. Bu ishni qilg'an vijdonsiz yirtqichlarni topub o'ldirmak uchun har yon chopar. «She'r» yurakimizda hosil bo'lg'an ana shunday sezgilarni hunarlicha so'zlar bilan boshqalarning yuragiga o'tkarmakdir. Shoir tegrasindag'i narsa va hodisalardan oldig'i sezgilarni hunarlicha (xidmatkorona) so'zlar bilan boshqalarg'a o'tkarmakchi bo'ladir. Kishining yuragi qancha «sezag'on» (mutaxassis) esa, shuncha yaxshi shoir bo'lar. Shoirliq uchun yurakda bir sezgi va u sezgini hunarlicha so'zlar bilan boshqalarg'a o'tkarguchi bir kuch kerakdir. «Qofiya» bilan «vazn»-ning esa, she'rning haqiqatig'a ta'siri yo'qdir. Bir necha kishilar she'r uchun «hunarlicha so'zlar»ning ham teyishligini inkor qilalar. «She'r yurakdagi sezgi to'lqunlarini so'z orqali tashqarig'a to'kmakdir» deydilar. Bu qarash biroz ifrotdir[5]. She'rning bir san'at bo'lg'anligini qabul etkandan keyin bu qarashning ahamiyati qolmas, ayniqsa, biz kabi «chin she'r va san'at» ochunindan uzoqlashg'anlar esimizga kelgan har bir so'zni «yurakimizdagi sezgi to'lqunlari» gumon qilib tashqarig'a ota bersak, Tangri ko'rsatmasun, o'quchilarimiz qocharg'a yo'l topolmay qolarlar..!

She'r iki turlidir: *manzum she'rlar (tizim she'rlari), mansur she'rlar (sochim she'rlar).* Tizma so'zlar bilan she'r so'ylamak bo'lg'ani kabi sochiq so'zlar bilan ham she'r so'ylamak bo'lar. *Sochiq she'rlar (mansur she'rlar)* uchun «vazn» va «qofiya»ning teyishligi bo'lmasa ham so'zlarning hunarlicha (san'atkorona) bo'lishi teyishdir[6].

II

O'tkan maqolamizda she'rning «nimaligi»ni (mohiyatini) aytkandan keyin iki turliligini ko'rsatdik. Iki turli she'rdan sochim she'r to'g'rusida qisqag'ina gapurub, tizim she'r to'g'rusindag'i so'zni ikinchi maqolag'a qo'yg'an edik. Tizim she'rlarining oydin va ochiq bir sifati «vazn» bilan «qofiya»-dir. Birinchi maqolada «vazn bilan qofiyaning she'rni o'qiturg'a ta'sirlari yo'qdir» degan edik. Bu yerda esa, tizim she'rda vazn va qofiyaning kerakligini so'ylarmiz. Vazn bilan qofiyaning she'rg'a ta'siri yo'qdir, vazn va qofiyasi bo'lmag'an ko'p she'rlar bo'lg'ani kabi «she'r» bo'la olmag'an vaznli, qofiyali so'zlar ham ko'pdir. She'r yurak sezgilarini ko'rsatmakdir. Vazn va qofiya esa so'zning «bezagi» (ziynati)dir. Yurakimizdagi sezgilarni to'g'ri bermakchi bo'lsoq, qofiyasiz, vaznsiz bir she'r (sochim she'r) yoziladir. She'rimizni bezamakchi esak, vaznli, qofiyali she'r (tizim she'r) yozarmiz. Vazn va qofiya yurakimizdagi sezgilarimizni tasvirlay olmaydir; sezgilarimizni tasvir etuchi so'zlarimizni bezaydir (ziynat beradir); sezgilarimizni boshqalarg'a o'tkarmak uchun aytilg'usi so'zlar vaznli, qofiyali bo'lg'anda musiqa ohangini berib turadir, shuning uchun quloqqa yoqimliroq keladir.

Qop-qorong'u bir kechada boshqa birisining puchmog'inda sevgilisini ko'zlab turg'an bir kishi shamolning esishi bilan yaproq va butoq tebranishlarindan chiqqan mungli musiqaga iyarib bir she'r aytadir. Bu she'rning yetti-sakkiz so'zi bir vaznda tizilgan, bir vaznda ko'ringan har so'z turkumining og'ir nido – quloqg'a bir turligina ta'sir beruchi so'zlar qo'yilsa, ul she'rning ta'siri, albatta, yaxshiroq bo'lar. Mana she'rda vazn va qofiya bezagi (ziynati) shudir.

Endi musulmonliqdan so'ngra turk shoirlarining qabul etdigi vazng'a boqaylik. Turk shoirlarining musulmonliqdan so'ngra qabul qilg'an vaznlari tubda arab vaznidir. Eronlilar bu vaznni arablardan qabul etib olg'andan keyin o'z she'rlarini o'ynoqi va nazm ruhig'a ko'ra o'zgartkanlar, isloh etkanlar.

Bu kun bizning oramizdag'i «vazn» shul eronlilar tomonidan o'zgartirilgan vazndirkim, arab vaznindan biroz ayirmasi bordir. Dunyo sahnasinda «iyaruv-taqlid»ning ro'lini hech bir millat biz turklar kabi ado eta olmag'andir! Biz qaysi bir millatning qaysi bir narsasiga taqlid etmakchi bo'lsak, o'zimizning milliy ruhimizg'a qaramasdan taqlid etamiz. Arablar qaysi bir ulusdan qaysi bir so'zni olg'anda o'z shevalarig'a ko'ra buzub olg'anlar. Bir arabni o'ldirsangiz (ham) «Petrog'rad-Petrasburg'» demaydir. «Bitrojrad-Bitrasburj» deydir. «Fransik» demaydir, «afranj» deydir va, shunday qilib, o'z tilining istiqlolini saqlag'an bo'ladir. Arablarg'a iyarmak bilan maxtanib yurgan bizlar esak, arabning bu yaxshi qilig'ina butun qarshi ketamiz. Tilimizg'a ko'b qofiyali arab so'zini emas, uning imlosini ham o'z so'zimizning imlosiga qarab o'zgartmakni «farz» deb bilamiz! Eronlilar arab so'zini o'z tillarig'a qarab o'zgartkan ekanlar, biz eronlilardan she'r vazni ostida o'z ruhini emas-da, tilimizdan chiqarg'an yerinda she'r vazni-da bo'lsa; biz she'rning o'zini olganmiz (yashasun taqlid!). Holbukim, eron vazni bilan turkcha she'r yozub turk ulusig'a o'qutmoq mumkin emasdir.

Forsi(y)cha dunyoning eng o'ynoqi va nozli so'zlaridandir. «Vazn» chanbarinda teatru sahnasindag'i qizlar kabi o'ynab turadir. Turk so'zi esa, og'ir, viqorli, gavdalidir. «Mafo'iylun, mafo'iylun» chanbarinda o'ynab turmoq nari tursin, vazngа kira olmaydir, sig'maydir. Eron vaznida turkcha she'r yozg'anlar iki turli ishka majbur qolalar. Birinchisi, she'r orasinda ko'brak arabcha so'zlar kirguzalar. «Mafo'iylun» vaznini turkcha so'zlardang'ina to'ldura olmaylar. Ikinchisi, vazn raiyasi bilan turkcha so'zlarning gavdasini buzarlar, eron vaznida she'r aytqon butun turk shoirlari shul iki kasalga tutilg'anlar, birortasi ham qutula olmag'an. Turkcha she'rda arabcha, forscha so'zlar kirguzgan turk shoirlarimizning har holda bilgili bir yo'llari bor edi. Undan ham so'zning ma'nisini anglab o'z yerinda qo'ya(r) edilar. Hozirg'i shoirlarimiz esalar, bus-butun yo'lsiz va qoidasiz keta(r)lar. Netaykim, nurli shoirlarimizdan biri «yozuvchilar uyushmasi»ga bir she'r yozmish. She'rning birinchi misra'(s)i shudir:

Kuch bilan bosg'an yo'ling-u millata «rohi alhamdu».

Shu she'rdagi «rohi alhamdu» so'zig'a ko'nmasak mumkin bo'lmaydir, «roh» forsi(y)cha bir so'z, «hamd»

arabcha so‘zdir. «Al» so‘zi arabcha «izofa» qoidasig‘a qarshi birlashdirishdir. O‘z tillarini «aslan anglash sharqiyada matlabdir» degan bir qism isloh shoirlari ham bo‘yla bir ishka kulibgina qaraydir.

Turkcha so‘zlarning gavdasini buzmay olmoqg‘a ko‘b tirishkan shoir Navoyidir. Navoyining she’rlarinda gavdasi buzilg‘an so‘z oz ko‘rinadir. Demak, Navoyi hazratlari bu ishning sovuqlig‘ini onglamish, biroq o‘zini butun qutqara olmamishdir. Misol aytib, Navoyining shul she’rini ko‘rsatamiz:

Yuzingni ko‘rib, meni ramida[7]
Ishq o‘tig‘a bo‘lg‘ali giriftor.

Shul baytdagi «yuz» so‘zini buzub «yuzz» qilmag‘uncha vazn to‘g‘ri kelmaydir.

Emdi shul iki ishka she’rlarni, baytlarni oxtaraylik. Yuqorida so‘ylag‘an edikkim: zohiran o‘z yurakindagi ezgu tuyg‘ularini so‘zlar vositasi bilan boshqalarg‘a berib o‘tkarmakchi bo‘ladir. Boshqa turli aytkanda: shoir so‘z orqali boshqalarg‘a ta’sir etmakchi bo‘ladir. Buning uchun shoirg‘a kerakdirkim: so‘zlarining yaxshi qabul bo‘lishig‘a tirishsun, she’rni buzg‘uchi so‘zlardan uzoqlashib tursun.

Bilamizkim, har ulus o‘zining milliy musiqasini, milliy tilini ko‘brak sevar, bunlardan ko‘brak ta’sir oladir. Bir turk ko‘b yillar Ovro‘paning muzika maktabida o‘qug‘an bo‘lsun. Ovro‘paning muzikasini necha yillar quloq solg‘an, necha yillar tinglagan bo‘lsun. Bir kun Turkistonga kelib eski turk musiqasini eshitkanda boshqa holg‘a tushar. Ovro‘pa muzikasida ko‘ra olmadig‘i ta’mni-da kelib eski turk musiqasida ko‘radir.

Mana shu hol til to‘g‘risida ochiqroq va buyukrakdir. Negakim, til ulusning eski bir narsasidir. Usmonli hukumatining askariy xidmatiga kirgan dong‘li nemis jineroli «Fundurg‘ruhich» poshoning usmonli cheriklari (nafarlari) to‘g‘risida shuyla bir mutolaasi bor. «Fundurg‘ruhich»[8] posho derkim: «Usmonli nafarlari asru urushg‘an erurlar, buni har kim biladir. Bunlarning bir urushga kelishlari «din» ko‘lkasindandir, bunlarda «din» sezgisi kuchlidir. Biroq bunlarg‘a «vazn» sezgisi bermak bo‘lmaydir. Negakim: «vazn» so‘zining turkchasi yo‘qdir. «Vazn» arabchadir, turk oldida yot so‘zdir. Yot so‘z nima bo‘lsa ham safo istag‘an ta’sirni bera olmaydir».

Yaxshig'ina pishirilg'an palovdan bir og'iz olib hordiq bilan chaynab turishlik kishining tishig'a tosh tekib qolsa kayfi qanday qochar? Yot bu so'zg'a uchrag'an turkning ham kayfi shuyla qochadir. «Turkniki» deb o'qub turgan she'rida yot so'zg'a uchrab, kayfini qochirg'an boyaqish turk turkcha so'zlardan ham bir-ikisining gavdasini buzuq ko'rgach, u she'rdan bezadir. Ikinchi yo'la uni o'qumoqchi bo'lmas.

Mana shuning uchundirkim: turk shoirlari o'z she'rlarini turk ko'bchiligiga ma'qul qila olmag'anlar. O'zlari turkcha aytg'ach, she'rlarining sovuqlig'ini ko'rgach, forsiycha yoza boshlag'anlar.

Forsi(y)cha she'r so'ylarg'a berilg'an ko'b turk shoirlari bor. Ularning bu ishlari uchun ko'b sabablar ko'rsatiladir. Biroq menga ul sabablarning birinchisi, Eron vaznidan tug'ilgan shul qabohatlardir. Turkcha she'rning o'ziga ko'ra bir uzri bor. Eron vaznida so'ylamak fikriy shul tonuqlar ila churutilgach, turk vaznining oliy (sufati) qolib ketadir. Uni boshqa bir maqolada so'ylarmiz[9].

ADABIYOT QOIDALARI

Adabiyot muallimlari ham havaslilari uchun qo'llanma

SAN'AT

Adabiyot so'zini tuzukgina onglamoq uchun boshlab san'at ham go'zal san'atlar degan so'zni ta'rif qilib o'tish lozimdir. San'at lug'atda hunar demakdirkim: bir narsani yaxshi ishlab chiqarishdan iboratdir. Bir kishi bir ishni o'ziga kasb qilib olib, shunga berilib, yaxshi ishlab chiqaraturg'an bo'lsa, shu ish uning san'ati bo'ladir. Bir kishi toboqchilikda[1], bir kishi tikguchilikda yaxshi ishlasa, shu ish uning san'ati bo'ladir. Bu san'atkorlardagi yaxshilikdan maqsad ishga yaramoqdir. Tanbur, dutor yasamoqqa san'atli bo'lg'an bir kishining tanbur, dutori shunga yaxshiroq yaraydir.

Bu ma'nodagi «san'at»dan tilakda boshqacha bo'lg'an bir turli san'atlar ham bor. Olaylik, san'ati tanbur cholish bo'lg'an bir kishini yaxshilab chaling'an bir «Iroq»[2] kuyi bu kishining san'atidir. Biroq yaxshilab chaling'an «Iroq» kuyining tilagi bilan yaxshilab yasalg'an bir tanbur, bir tanburning tilagi orasida kattakan ayirma bordir. Boshqacha aytganda, «Iroq» kuyining yaxshilig'i bilan toboq, tanburning yaxshiligi bir emasdir. Toboq, tanburning yaxshiliqlari

bularning ishqa yarag‘anliklaridir. «Iroq» kuyining yaxshilig‘i esa kishiga ma’naviy ta’sir etmak, uning miyasini to‘l-qinlantirmoqdir. Shuning uchun buning yaxshilig‘iga, yaxshiliq emas, go‘zallik deyiladir. Bunday san’atlarga esa «go‘zal san’atlar» deyiladir.

GO‘ZAL SAN’ATLAR

Tirik bir kishining bir ko‘b tilaklari, istaklari, umidlari, ehtiyojlari bo‘ladir. Shularga erishsa sevinadir, erishmasa qayg‘uradir. Odam o‘zining tegrasidaki turli voqealardan, bo‘lub turg‘an ishlardan, turli ko‘rinishlardan, boshqa kishilarning boshlariga tushkan baxtli-baxtsiz voqealardan ham ta’sirlanadir: shodlanadir yo qayg‘uradir.

Har kim o‘zining shodliqli-qayg‘uli tuyg‘ularini bosh-qalarg‘a bildirmak, ularni ham shu tuyg‘ular bilan tuyg‘u-lantirmoq istaydir. Buyuk bir shodliq ko‘rgan kishi o‘zi-ning shod tuyg‘ularini boshqalarg‘a bildirib, shodlig‘ini orttiradir. Ulug‘ bir qayg‘uga uchragan esa o‘z dardini bosh-qalarg‘a o‘tkarib, o‘zini ovuntirg‘an bo‘ladir. Miyasi yuk-salmagan bolalar, san’atdan xabarsiz kishilar shodliqli-qayg‘uli tuyg‘ularini sakrab, o‘ynab, kulub, yig‘lab, tal-pinib jonlantiradirlar, ochiqqa chiqarib boshqalarg‘a ong-latadirlar-da, shu yo‘l bilan ovuntirilg‘an bo‘ladirlar, san’at egalari esa turli tovar (materiyol)lar yordami bilan o‘zla-rining tuyg‘ularini jonlantirib maydong‘a chiqaradir. Shu yo‘lda boshqalarni o‘z tuyg‘ulari bilan tuyg‘ulantirishga tirishadir. Mana shunday yurak, fikr, tuyg‘u to‘lqunlarini so‘z, tovush, bo‘yov, shakl, harf, harakat kabi tovar (materiyollar) yordami bilan jonlantira chiqarib, bosh-qalarda ham shu to‘lqunni yaratmoq hunariga go‘zal san’atlar deyiladir.

Go‘zal san’atlarda tovar (materiyol) tovush, ohang bo‘lsa, go‘zal san’at *musiqiy* bo‘ladir; bo‘yovlar, chiziqlar bo‘lsa, *rasm* bo‘ladir; tosh yo boshqa turli ma’danlar esa, *haykal-chilik* bo‘ladir; tosh, yog‘och, kirpich, ganj, turpoq bo‘lsa, *me’morliq* bo‘ladir; tan, mug‘a harakatlari[3] esa *o‘yun* (*tans*) bo‘ladir; gap, so‘z esa *adabiyot* bo‘ladir.

1. Musiqiy.
2. Rasm.
3. Haykalchilik.

4. Me'morliq.
5. O'yun (tans).
6. Adabiyot.

Go'zal san'atlarning mana shu olti turlari bir-birlarig'a yaqinlashmoq e'tibori bilan iki turkumga ayriladi. Adabiyot, musiqa, o'yun (tans) bir turkum; rasm, haykalchilik, me'morliq bir turkum bo'ladir.

ADABIYOT

Mana, yuqoridag'i ma'lumotdan so'ng adabiyotni shu yo'lda ta'rif etishimizga yo'l ochilg'an bo'ldi: *adabiyot* – fikr, tuyg'ularimizdag'i to'lqunlarni so'zlar, gaplar yordami bilan tasvir qilib, boshqalarda ham xuddi shu to'lqunlarni yaratmoqdir. Bu ta'rif adabiyotning to'g'ri ta'rifidir. Shul bilan yozilg'an asarlarga *adabiy* asar deyiladir.

Adabiyotning ikinchi bir ta'rifi, bir turli tartibg'a solinib yozilg'an butun asarlardir. Bu ta'rifg'a qaraganda, bir tilda yozilg'an butun asarlar shu tilning adabiyoti bo'ladir. Ham shunday ishlatadirlar: *Rus adabiyoti boydir. O'zbek adabiyoti kambag'aldir* kabi.

Biroq bu ta'rifning bizning darsimizg'a boylanishi yo'qdir. Bizning adabiyotimizg'a kirgan «adabiyot» so'zi birinchi ta'rifdagi «adabiyot»dir.

Birinchi ta'rifg'a ko'ra adabiyot sanalg'an asarlar yozmoq uchun ko'zda tutilishi lozim bo'lg'an tuzuklar, qonunlarg'a *adabiyot qoidalari* deyiladir.

Bizning bu darsda ko'rganimiz shu «adabiyot tuzuklari»dir.

SHE'R

Bizda eski madrasadan qolg'an yanglish bir fikr bor. Vazn, qofiyasi bo'lg'an har bir so'z to'dasig'a «she'r» deymiz. Chunki burung'i fors-arab adabiyotchilari she'rni «qofiyasi, vazni bo'lg'an gapdir» deb ta'rif qilar edilar. Vazn va qofiyasi bo'lg'an har bir so'zni she'r deganimizda So'fi Olloyorning:

Yozildi forsi(y) til birla maktub,
Aqida tu, furug'u qurbi mahbub[4],

Onikim ko'rdilar turkiy yoronlar,
Dedilar gar duo qilsa eranlar.

Bitilsa turki(y) til birla aqida,
Ko'ngullar bo'lsa ondin oramida, –

deb yozg'an tizmalariga ham «she'r» deyish kerak bo'ladir, holbuki, shu she'r emas, bir nazm parchasidir.

She'rning she'r bo'lishiga vazn va qofiyaning hech daxli yo'qdir. Vazn-u qofiyasi bo'lub, she'r bo'lmag'an parchalar bo'(l)g'ani kabi vazn-u qofiyasiz (sochim) she'r parchalari-da ko'bdir.

Cho'lponning «Kle'o'patra»si sochim yo'sunida yozilg'an; vazn, qofiya yo'q, biroq bir she'rdir. Holbuki, So'fi Olloyorning «Sabot ul-ojizin» degan vaznli, qofiyali ko'b parchalari bordirkim, she'r deyishqa yaramaydir.

Cho'lponning «Kle'o'patra»sidan:

Oydin kechalarda sirli Nilning bo'ylarida uzun etaklaringni
Maysalar, gullar ustidan sudrab yurub, yangi
Ochilg'an, vafo hidli nilufar chechagi uzubsan.
O'zingni yelpib turg'uchi qo'lg'a chechakning fazilatlaridan
Gapirganingni eshitdim...

So'fi Olloyorning «Sabot ul-ojizin» degan asaridan:

Bitibdir jome'i mushkot ichinda,
Nabidin so'rdi bir so'rguchi banda.

Yomonlarning yomoni qaysi inson,
Javobin bermadi onda o'shal on.

YOZISH QOIDALARI

Ta'lif: belgili bir narsa to'g'risida bo'lg'an fikrlar, muhokamalar, sezgilar, tuyg'ularni tartibga solib, so'z bilan ifoda qilishga *ta'lif yo tasnif* deyiladir.

Ta'lif yo tasnif atalg'an adabiy yumush bilan maydong'a chiqqan narsaga *asar* deyiladir. Bir asarni yozg'anda zehnimizning yumushi (xizmati) turli tuslarga kiradi: yozuvchi-adib boshda shul to'g'rida yozilaturg'an bir narsani topadir. So'ngra shu narsa to'g'risidag'i o'ylar, tuyg'ularni oxtarib, topib yig'adir. «Zehniy yumush»ning shu bo'limiga *ijod* (bor etish – yarotish) deyiladir.

«Ijodning birinchi natijasi asarning *mavzu'i*, ikinchi natijasi asarning *mundarijasi* bo'ladir. Ondan keyin yozg'uchi mavzu' to'g'risida yig'ilg'an ma'lumotni (asarning mundarijasini) o'z zehnida belgili bir tartibg'a soladir. Bu esa asarning *tartibi* bo'ladi.

Mana shu yumushlar bilan yozg'uchi-adibning zehnida mavzu' ham u to'g'rida ma'lumot belgili bir tilning so'zlari, gaplari bilan *ifoda* etilishi kerakdir. Shul ifoda etish bilan asar maydong'a keladir. Yozg'uchining zehnida yig'ilg'an mavzu' ham u to'g'rida tartibga soling'an ma'lumot, so'zlar, gaplar bilan ifoda etilmaganga asar sanalmaydir.

Bu kun Elbek, Cho'lpon, Botu, Qodiriy, Sh. Sulaymon kabi o'zbek adib-shoirlari bor. Bularning ifodalari, albatta, o'zbekchadir. Biroq, u adib-shoirlarimizning asarlari o'qulg'anda ifodalarining bir-biridan o'zgacharak bo'lg'ani ko'runib turadir. Demak, bulardan har birining o'ziga maxsus bir *ifoda yo'suni* bor. Mana shul ifoda yo'sunig'a *uslub* deyiladir.

Demak, har asarda tekshirarlik bir narsa bor: mavzu', mundarija, tartib, ifoda, uslub. Mana emdi bularni bittadan tekshiraylik.

MAVZU'

Adabiyotning mavzu'i butun tabiat, borliq dunyosi, insonning o'z ichki-tashqi dunyosida sezib onglag'anlaridir.

Bir tomchi suvdan tengizgacha, bir uchqundan buyuk bir yong'ingacha, kichkina bir yaproqdan ulug' o'rmonlargacha nima bor esa, hammasi adib-yozg'uchi uchun mavzu' bo'larlik narsalardir.

Biroq adib-yozg'uchi o'z asarining *tilagiga* (g'oyasiga) ko'ra mavzu' tollaydir; qanday bir tilakni ko'zda tutib, qanday bir fikr bermakchi bo'lib asar yozar esa, shunga kuchlirak boylangan bir mavzu'ni oladir.

Yozg'uvchi-adib tomonidan tollab oling'an mavzu' asarning tilagi bilan munosabatsiz esa, yozg'uchi mavzu'ni tollashga yanglishg'an bo'ladir.

MUNDARIJA

Adib asarning mavzu'ini, asarning tilagini bera olarliq qilib tollag'andan so'ng uning to'g'risida ma'lumot yig'adir. Mavzu' tegrasidagi fikrlar, sezgilar, tuyg'ularini to'playdir. Biroq, ularning hammasini yozabermaydir. Asarda mundarijaning to'g'rilig'i, tabiiyligi lozimdir. Mundarija g'ayritabiiy, noto'g'ri bo'lsa, asar o'zining ta'sirini yo'qotadir:

a) mavzu' tegrasidagi fikrlar, ma'lumotlar, voqealarning asar tilagiga muvofiq, asarning tilagini ochiq qilib bera olurlik bo'lg'anlarini oladir;

b) mundarijadag'i asosiy qismlarning bir-biridan uzun, bir-biriga munosabatisiz bo'lmag'anlarini oladir;

j)[5] mundarija qismlarining bir-biriga qarshi bo'lmasliqlari, ya'ni birtasining bergan ta'siriga qarshi bo'lmaslig'ini eng katta bir shart qilib ko'zda tutadir.

Mana shul uch shartni ko'zda tutub yozilg'an asarda «birlik» bordir deyiladir. Bir asarning mundarijasi mavzu' bilan munosabatsiz yo bir-biridan hech turli boylanish bo'lmasa yo mundarijadan bir qismining ta'siri boshqa bir qismining ta'siriga qarshi, teskari bo'lsa, u asarda birlik yo'qdir deyiladir. Asarda mundarijaning to'g'riligi, tabiiyligi lozimdir. Mundarija g'ayritabiiy, noto'g'ri bo'lsa, o'zining ta'sirini yo'qotadir. Eski shoirlarimiz o'zlarining kecha qayg'ulari to'g'risida she'r yozg'anda «*Ohim alangasidan falaklar yondi, Ko'z yoshimdan yer yuzini suv bosti*» deb ingramakchi bo'ladir. Mana bunday so'zlar g'ayritabiiy, noto'g'ri bo'lg'ani uchun kulunch bo'lub chiqadir.

Eski yozg'uchilarimiz asarning birligini saqlamoqchi bo'lib, juda ifrotga tushar edilar: bir hikoya yozg'anda «*ammor uyyoni axbor va noqiloni osor andoq rivoyat qilurlarkim*»[6] deb hikoya qahramonlarining tug'ilish kunidan boshlab o'lishiga qadar bo'lib o'tgan voqealarni bir yo'sunda, bir turli qilib qatorlab tizar edilar. Bu turli yozilg'an hikoyalar, dostonlar bir turli, bir tusda, o'zgarishsiz, harakatsiz yurub borg'ani uchun o'quvchilarni bezdirar, miyaga og'irlik qiladir. Bundan qochmoq uchun hikoya, ro'mon, dostonlarni turli ko'rinishlar, yangi-yangi fasllarda tuzish lozimdir. Misol uchun Cho'lponning («Qor qo'ynida lola» degan) hikoyasini olingiz. Buni eski shaklda yozmoqchi bo'lg'anda, «*Andoq rivoya(t) qilurlarkim» deb boshlab, «Samandar aka bor edi, uning qizi bor edi, biri qiziga sovchi yubordi...*» deb voqealarni qatorlab tizib, asarni bitirgan bo'lar edi. Biroq, Cho'lpon bunday qilmag'an. Mundarijani yangi-yangi to'rt faslg'a, to'rt ko'rinishga bo'lgan:

To'b o'yuni, shayx, to'y, odamlarning bu to'y to'g'risida fikrlari. Hamda hikoyaning Samandar akaning qizi to'g'risida bo'lg'anini sezdirmasdan qizlarning to'b o'yunlarini juda ustalik bilan tasvir etishga kirishgan...

TARTIB

Mundarija yaxshi tartib etilgan sayi(n) asarning qimmati ortadir, yozg'uchini muvaffaq bo'lishg'a yaqinlashtiradir. Tartib mundarija uzra yurguziladir. Shuning uchun mundarija yetarliq darajada yig'ilib tollang'andan keyingina tartibga kirish kerak. Tartib yolg'uz asar yozishda emas, so'z so'ylashda ham muhimdir. Bir notiq aytmoqchi bo'lg'ani so'zlarni qisqacha tartib qilmasdan minbarga chiqub gapursa, hech bir maqsadg'a yoqinlasha olmay(dir), so'zinda qayoqqa borishni bilmay gapura beradir, hech bitira olmaydir.

Tartibsiz asar yoza boshlag'anlarning ham shu balog'a yo'liqishlari andoqdir. Cho'lponning yuqoridag'i hikoyasidag'i to'rtinchi ko'rinish, ya'ni: iki yigitning ko'chada to'y to'g'risida gapurishlari, qorovulning-da ularga qo'shilishi ortiqcha bir fasldir. Hikoya uchunchi faslda bitirilsa edi, qorovul tilida onglashilmoq istanilg'an edi. So'zlar ochiq onglashilg'an bo'lar edi. Hikoyaning ta'siri ham ortg'an bo'la(r) edi. Mana bunday ortiqcha fasllari bo'lmag'an asarlar «yaxshi tartib etilg'an» sanaladir.

USLUB

Yuqorida so'yladik: butun o'zbek yozg'uchilarining ifodalari o'zbekcha bo'lg'ani holda har birining o'ziga maxsus bir *uslubi* bordir. Biroq, uslubdag'i bu hol tuban, kuchsiz adib-yozg'uchining asarlarida o'zini ochiq ko'rsata olmaydir. Kuchsiz yozg'uchilarning uslublari bir-biriga o'xshab qoladir. Ular oddiy uslubda, umumiy til uslubida yozadir. Shoir-yozg'uchi san'atkorlikda ko'tarila borg'an sayi(n) o'ziga maxsus bir uslub yarata boshlaydir.

Shoirning xayol, o'y, tushunish shakllari tugal, komil bo'lg'ach, o'ziga yarasha bir uslub borliqqa chiqqan bo'ladir.

Uslubning adabiyotdagi o'rni juda katta, juda muhimdir. Bir asardagi fikrlar, ma'lumotlarning eski, boshqa shoirlar tomonidan aytilg'an bo'lishi mumkindir. Ularning eskiligini bizga sezdirmasdan, bildirmasdan ifoda qilib, uni bizga o'quta olg'an kuch uslubdadir.

Eski adabiyotimizda «Layli-Majnun» dostoni bor. Buni fors shoirlari, turk shoirlari necha daf'alar yozg'anlardir. Hammasida hikoya birdir va voqea bir tu(r)lidir. Biroq forscha-turkcha bilg'an bir kishi ularning forsi(y)laridan Nizomiyni, undan keyin

923850

Nizomiy nomli
TDPU
kutubxonasi

Jomiyni o'qiydir. Xusravg'a[7] kelgach, Navoyini albatta ularga tarji' qiladir[8]. Fuzuliyni ko'rgach, Navoyining[9] «Layli-Majnun»ini tokchaga qo'yub, Fuzuliyni o'qishg'a majbur kabi bo'ladir. Mana bular uslubning ishidir.

Eski-yangi shoirlarimiz orasida ishq, hijron (sevgi, ayriliq) yo'lida ko'p narsa yozilg'an, olardag'i fikrlarning bir-biriga o'xshag'anlari ochiq ko'rinadir. Biroq bu yo'lda Cho'lponning:

Ketdingmi manguga tashlab,
Qoldimmi qayg'ularim-la?
Hijroning kuyini boshlab,
Yig'lovchi cholg'ularim-la!
Sevgimdan so'nggi malaklar
To'b-to'g'ri ko'kkami uchdi?
Ko'nglimdan toza tilaklar
Yovningmi bag'riga tushdi?
Ortiq sen mendan uzoqda
Ko'zlarni o'ynatasanmi?
Ortiq sen boshqa buloqda
Dillarni qaynatasanmi?
Ortiq sen undagi bog'da...
Ortiq men yakkami qoldim?
Faryod yo'q... barcha jahon jim
Yer yutsa yaxshi shu choqda!..
Ketdingmi sen meni tashlab,
Qoldimmi qayg'uni boshlab? –

deb yig'lagani butunlay yangi narsa kabi sevilib o'qiladir. Bu-da uslubning hunaridir. Go'zal san'atlarda har *millatning o'ziga maxsus uslubi* bo'lg'ani kabi har *zamonning o'ziga maxsus uslubi* bordir.

She'rda fors uslubig'a berilib qolg'an Alisher Navoyi o'zining «Majolis» degan[10] kitobida ba'zi shoirlarning tarjimayi holini yozg'anda «turkona» yozadir, «turkona she'rlari bor» deb ko'rsatadirkim, bu «*turk uslubida yozadir*» demakdan boshqa narsa emas.

Ovro'pa san'atkorlarining-da ba'zi bir asarlarida ruhimizda yaqinlik sezilganda «bu sharq uslubiga yaqinlashibdir» deb maqtaymiz.

Mana bunlar har millatning ayricha bir uslubi borlig'ini ko'rsatadir. O'zimizning o'zbek-chig'atoy adabiyotini olib qarag'anda juda ochiq ko'rinadirkim: Navoyi, Bobir, Boy-

qarolar zamonidag'i uslub bilan Umarxon, Fazliylar zamonidag'i uslub bir emasdir.

Umarxon zamonining uslubi bilan Muqimiy, Avloniy zamonidag'i uslub ham bu kungi yangi adabiyotimizning uslubi boshqa-boshqa uslublardir.

Navoyi, Bobir, Boyqaroning uch g'azalini bir yonda, Botu, Cho'lpon, Elbekning uch she'rini bir yonda qo'yub qarasak, oralaridag'i uslub boshqalig'i ochiq ko'rinadir. Shuning bilan Navoyi, Boyqaro, Bobirdan har birining o'ziga maxsus bir uslubi bo'lg'ani kabi Botu, Cho'lpon, Elbeklarning ham o'zlariga maxsus uslublari bordir. Demak, uslub zamon bilan o'zgargani kabi shaxs bilan ham o'zgaradir. Hatto, yana biroz chuqurroq borib, bir kishining sochimtizim[11] yozg'anida ham uslubning o'zgarib qolg'anini ko'ramiz. Navoyining uslubi tizimda hashamatli bir ohang bilan yuradir, sochimda esa og'irlashib qoladir. Yana biroz ingichkarak qarag'anda, bir shoir uslubining asarning mavzu'iga ko'ra o'zgarganini ham ko'ramiz. Navoyining «Layli-Majnun»idag'i o'ynab qaynag'an uslubini uning «Lison ut-tayr»ida ko'rib bo'lmaydir. Biroq, bu o'zgarishlar (ya'ni: asarning shakli yo mavzu'iga ko'ra bo'lg'an o'zgarishlar) asosiy emasdir. Navoyi ham Cho'lponning uslublari tizim-sochimda yo mavzu'iga ko'ra o'zgarmak bilan ularning «o'zlik»larini (shaxsiyatlarini) yo'qotmaydir. Cho'lponning Cho'lponligi, Navoyining Navoyiligi bu shoirlarning tizim-sochim asarlarida mavzu' o'zgarishiga qaramasdan ko'runib turadir.

Bulardan boshqa uslubning sinfiga ko'ra o'zgarishi bor. Bizning O'rta Osiyo hijriy to'rtinchi asrning[12] so'nglaridan boshlab islom-eron madaniyati ta'siriga qattig' berilgan. Islom madaniyati bilan oziqlanuvchi bir madrasa-saroy guruhi paydo bo'la boshlag'an. Bu sinfning eng hashamatli kunlari, oltun davri mashhur jahongir Temur ham uning bolalari zamonida bo'lg'an, hijriy to'qqizinchi asrning[13] boshlaridag'ina «Yusuf-Zulayho»sini yozg'an Durbekdan Navoyi, Bobir, Umarxon, Fazliylargacha, o(n)lardan zamondoshimiz bo'lg'an Muqimiy, Kamiylargacha yetishkan bir turli shoirlar bor. Bular haligi eron-islom ta'siri ostida qolib, sirtdagina qurilg'an dabdabalar, hashamatlarni sevguchi saroy-madrasa sinfiga qaratib, shularg'a o'qutg'ali yozar edilar. Bular

o'zlarini yuqori sinf atag'an aristo'krat shoirlarimiz edilar. Shular bilan birlikda bularni sirtdagi dabdabalariga qarshi o'zining yolg'uzg'ina samiymiyligi bilan o'zini saqlashg'a tirishqon bir adabiyotimiz bor.

Bular xalq orasidan chiqqan, xalqqa, ko'pchilikka qaratib yozg'an, so'ylag'an shoirlarimiz, baxshilarimizning asarlaridir.

Ahmad Yassaviy, Qul Sulaymon hikmatlari, Mashrab she'rlari, kim tomonidan to'qilg'ani onglashilmag'an «Ahmadbek», «Zufunun» dostonlari, Xivada Andalib ismli bir xalq shoiri tomonidan yozilg'an «Yusuf-Zulayho» shu qatorg'a kiradir. Bular hamki sinfga, saroy-madrasa sinflarig'a qaratib yozmag'anlar. Ko'pchilikka sirtdag'i dabdabaga ko'ra samiymiylikni sevgan elga qaratib yozg'anlar. Shuning uchun bularning uslublari bilan yuqori darajada shoirlarimizning uslublari orasida ham tog'lar qadar ayirma, boshqaliq bordir.

Navoyining tizim asaridan:

Sahar xovar shahi charx uzra kim xayl-u hasham chekti,
Shio'i xat bila ko'hsor uza oltun olam chekti.

Qazo farroshi chekti subhi siymin bir supurgisin[14]*,*
Muzahhab parlarin andoqki tovusi haram chekti.

Muazzin kabi toki kul uzra bong samad urdi,
Barahman dayr ayvonida ohang sanam chekti.

Yaqo chok etti gohi subh ul motamgakim oshiq,
Bu muhlik shomi hijron ichra yuz humoni g'am chekti.

Zamoni kuldi ul g'ofilgakim, davron sitam tig'in
Ango urmoqni onglab o'zgaga tig'i sitam chekti.

Xusho ulkim, muningdek chog', vafosi umrni onglab,
Sabuhi jomini ahbob birla damodam chekti.

Navoyining sochim asarlaridan[15]:

Tog', tog' niyoz raf'idan so'ngra fof, fof ixlos yuzidan ma'zur ulkim: bu fasldakim navro'z nasimining mushkbezligi bulut mizojin havoyi qilibtur; loladek savdoyiliqdan tog' havosi, bulutdek havoyiliqdan qiyo savdosi boshg'a tushti.

Bobirning tizim asarlaridan[16]:

Dahrning men ko'rmagan javr-u jafosi qoldimu?
Xasta ko'nglim chekmagan dard-u balosi qoldimu?

Meni xor et(t)i-yu qildi muddaiyni parvarish,
Dahri dunparvarning o'zga muddaosi qoldimu?

Meni o'lturdi jafou javr birla ul quyosh,
Emdi tirguzmak uchun mehr-u vafosi qoldimu?

Oshiq o'lg'ach ko'rdim o'lumni o'zimga, ey rafiq,
O'zga ko'nglimning bu olamda harosi qoldimu?

Ey ko'ngil, gar Bobir ul olamni istar, qilma ayb,
Tengri uchun de, bu olamning safosi qoldimu?

Bobirning sochim asarlaridan («Bobirnoma»dan):

Yana Husayn Udiy edi. Udni mazaliq cholib, mazaliq narsalar aytur edi. Udning torini iki qilib bir cholibdur. Aybi bu ediki, bisyor noz ila cholur edi. Shayboniyxon bir navbat soz buyurur. Takalluf qilib ham yomon-yomon cholur: ham sozini kelturmay, yaramas soz keltirur.

Shayboniy fahmlar. Buyururkim: suhbatda-o'q g'alaba «gardani» urar. Shayboniyxonning olamda bir yaxshi ishikim bor, budur...

Umarxondan[17]:

Ey ko'ngul, holingni yoshurmoqqa imkon qoldimu?
Fosh bo'lmay ishq sirri hech pinhon qoldimu?

Furqati shomida ahvolimni so'rma, ey rafiq,
Kim: «Senga La'lidan ayru tushkani jon qoldimu?»

Dema sunbul: «Man kibi holing nadan oshiftadir?»
Zulfiga nisbat topan bo'lmay parishon qoldimu?

Chatr urmish jism oro ko'nglim qushi tovusdek,
Ko'nglima, bilmamki, asri dog'i pinhon qoldimu?

Ko'zgu izhori tahayyur aylamish mendek, Amir,
Bir boqish birla oning yuziga hayron qoldimu?

Cho'lponning tizim asarlaridan[18]:

Tola yo'llaridan...

Tola yo'llaridan yurib boramen:
Har yaproq boshimda bitta yelpig'ich,
Yumshoq yel...
Yuzimni burib yuramen,

Hislarim yel kabi yengil o'ynag'ich...
Kichkina ariqning pastak shovvasi
Mayin tovush bilan «shov»lab turadir.
«Ay, qo'pol shaharning janjal-g'ovg'asi,
Tola yo'llarida men boramen!» deydir.
Tola yo'llarida telbalar kabi
Ertadan kechgacha men ham chopamen.
Afsonalardagi darbadar kabi
Kimsasiz yerlarga qo'yun ochamen.
Kimsasiz yerlarda sirlar aytildi,
G'aflat uyqusidan uyg'onib ketdim.
Yangi nashidalar dilga betladi,
Ularda tuganmas ma'ni darj etdim.
Shovva tovushlari erkin she'rimga
Oltun qanot toqti afsonalardan:
Olqishlar qo'zg'aldi gul-lolalardan,
O'zlik yot ko'rindi turg'an yerimga...
O'zlikdan tashqari bir dunyo ko'rdim...
Ikkimiz o'shanda oqib boramiz,
Foniy qirg'oqlarni yiqib boramiz,
Haqiqiy «birlik»ga shunda yo'l bo'ldim!
Shu on... «o'zlik»larni urub boramen,
Tola yo'llaridan yurub boramen!..

Cho'lponning sochim asarlaridan[19]:

Samandar aka uyiga kelguncha ko'nglidagi tuyg'u bilan tortishib keldi. O'zining piri-ustoziga tuzukgina, kattagina, iloji bo'lsa, boshqa muridlar bera olmag'an bir narsa bermakchi edi. Biroq, uyida arzigudek bir narsa yo'q. Arziyturg'an narsalari bo'lsa, barchasi qarzga ketgan...

Ko'b o'yladi. Biroq, hech bir narsaga ko'ngli harf topmadi, agar ilgarigi vaqt bo'lsa olaqashqani tutar edim...

Ko'ngli og'ridi: bir zamongi boyliklari, davlatlari esiga tushdi. Olaqashqasi, to'riq yo'rg'asi, bo'yi tevadek Maskovzovut oti... uch faytun, yer-suvi... uncha-muncha berishni o'ziga ep bilmadi. Boshqa narsalarni bosib ketgundek bir narsa berishka o'ylar edi.

Elbekning tizim asarlaridan:

Bibixonim madrasasi
«O'tmishdan estalik» dedim buni men,
Chindan-da estalik uchun yashar:
Quv-quvlab raqs urg'an bir ko'b ko'karchin

Menga o'tmishlardan ertak aytishar.
Bir zamon ko'klarga qanot yozg'an bu
Sevikli, muhtasham, haybatli bino
Yemirilish soatini kutganday bo'lub,
Ko'runur ko'zlarga qayg'ilig'ina.

Yer yuzin titratgan zo'r botirlarning
O'lgach qoldirg'uchi suyaklariday,
Yer uzra to'plang'an kirpich yig'ini
Yurakka uradir alam tig'ini.
Netayin, bilmaymen men hech yig'ini!
Bilsaydim boshlardim yig'i-sig'ini!

Ko'zim yosh o'rniga olov sochadir,
Yimrik o'rinlarg'a qo'ynim ochadir.
Oltin-la yozilg'an ta'rix betiga
Qaraydir, o'ziga boblar ochadir.
O'qiydir: bul bobda bundayin ma'ni:
«Har bir ish bir holda qolmag'ay», ya'ni:
Har bir kamchilik qolmas mangulik,
Bir kun chiqqusi yana yangilik...

El shoiri Andalibning «Yusuf-Zulayho»sidan:

Ko'rmasam bir zamon toqatim yo'qdir,
Meni zor ingratib, qo'zim, ayrilma.
Sen ketarsan, men qolurman zor yig'lab,
Hijron o'ti birlan bag'rimni dog'lab,
Qaysi bir oshnodin seni so'rog'lab,
Shunqorim, lochinim, qo'zim, ayrilma.

Mana shu o'rnaklar[20] Navoyi zamoni, Umarxon zamoni ham bu kunning uslublari orasidag'i ayirmani ko'rsatgani kabi bu shoirlardan har birining o'ziga maxsus bir uslubini ham ko'rsatadir, ham olarning tizim-sochim asarlaridag'i o'zgarish ko'rinib turadir.

SOCHIM, TIZIM

So'zlar, gaplarni uyushtirib tuzulgan asarlar adabiy bo'lsun-bo'lmasun, bitta yo'sundan birida tuzuladir: sochim, tizim (nazm, nasr).

Bir asarda so'zlar, gaplar belgili bir ohangga boylanmasdan, belgili bir o'lchov bilan o'lchanmasdan tarqalib, sochilib tuzilgan esa ul asar *sochim* yo'sunida tuzilgan bo'la-

dir. Misol: *Kampirning qarig'an, qurug'an ko'zlaridan yiroq-yiroq yerlardan iki tomchi yosh keldi. Butun tanini, muchalarini bosib, ezib, sindirib kelgan u iki tomchi yoshni yengi bilan artg'andan so'ng otasi ham shunday qizim... deydi. (Cho'lpon)*[21].

Bir asarda so'zlar, gaplar belgili bir ohangga boylanib, belgili bir o'lchov bilan o'lchanib tuzilgan bo'lsa, u asar *tizim* yo'sunida tuzilgan bo'ladir.

Yurakda umidlar, alamlar,
To'zimsiz qarog'ni bosarkan,
Nega men chaqmoqdek yugurmay?!
Eskigan, churugan tamallar
Yo'qlikka egri yo'l bosarkan,
Nega men undan yuz o'gurmay?! *(Botu)*

Tizimning har bir kesigi bir *misra'* bo'lub, har iki misra'i bir *bayt* ataladir. Botuning yuqoridag'i tizim she'ri olti misra' yoki uch baytdir[22].

Tillarning ohang e'tibori bilan bir-birida bo'lmag'an hollari bordir. Rus tilida «bosim» (udareniye) bor[23]. Buning so'z orasidag'i o'rnini qoida bilan bilib bo'lmaydir. So'zning oxirida, o'rtasida o'rinlashadir. Butun turk tillarida esa «bosim» so'zning oxirida bo'ladir. Bosimi oxirida bo'lmag'an so'zlar juda ozdir.

Forsi(y)cha yo arabchada qay bir cho'zg'ini «to'rt cho'zg'i» kabi cho'zish mumkindir. Har tilning o'ziga maxsus bo'lg'an bu hollari bu tilning tizim (nasr) usullariga kuchli ta'sir qiladir. Shuning uchun har tilning shu hollariga uyg'un bo'lg'an tizim o'lchovi *barmoq vazni* atalg'an o'lchovdir.

Barmoq vazni butun turklar uchun-da, biz o'zbeklar uchun-da milliy vazndir, musulmonliqdan burun butun turk shoirlari shul barmoq vazni bilan tizimlar, 'she'rlar yozar edilar.

Musulmonliqdan so'ngra turklar orasida, shaharlarda, saroy tegralarida arab-fors madaniyatiga berilgan, shuning ta'siri bilan yetishkan bir sinf (xos sinfi) turadir (paydo bo'ladir). Bu sinfdan yetishkan madrasa-saroy shoirlarimiz arab-fors adabiyot maktablaridan yetishkan kishilar edilar, bular arab-fors tillarining haligi «madd»lik[24] ohangiga uyg'un bo'lg'an *aruz* vaznini qabul qildilar hamda o'z she'rlarini, o'z tizimlarini shul vaznda yozdilar. Shunday bo'lub, arab-forsning aruz vazni biz turklarning-da bir sinf shoirlarimiz uchun tizim o'lchovi bo'ldi.

Milliy vaznimiz bo'lg'an barmoq vazni bularning orasidan chiqdi. Milliy vazn, barmoq vazni bu san'atkor shoirlarimiz orasidan chiqqan bo'lsa ham yo'qolmadi, o'lmadi. El-ulus aro yoyilib qoldi, el-ulusimiz o'zining qo'shuqlarini, ashulalarini shul vaznda ayttilar, dostonlarini shul vaznda o'qudilar, tingladilar. Arab-fors madaniyati ta'siri ostig'a kirgandan zamonamizgacha (o'n iki mulchar – asr chamasida) bizning tizim o'lchovimiz shu holda davom etti: arab-fors madrasasida yetishkan saroy shoirlari, xos sinfiga maxsus shoirlar aruz vaznida yozub-o'qudilar. Arab-fors adabiy ruhiga bo'yinsinmagan el shoirlari, turk baxshilari barmoq vaznini bark tutdilar. Shu bilan yurdilar. Shunday bo'lib, o'zbeklarda-da tizim o'lchovi iki turli bo'lib qoldi: birinchisi, o'zimizning milliy vaznimiz bo'lg'an barmoq vazni, ikinchisi, arab-fors o'lchovi bo'lg'an aruz vazni.

BARMOQ VAZNI

Milliy vaznimizda asos so'z bo'g'umlarining sanog'idir. Bir baytning birinchi misra'i necha bo'g'um esa, ikinchi misra'i ham shuncha bo'g'um bo'ladir.

Bo'g'umlarning harf, cho'zg'i sonlariga esa ahamiyat berilmaydir. Bir harfli bo'g'um bilan iki harfli bo'g'um baravar sanaladir.

Bir baytning vaznini ko'rmakchi bo'lg'anda, birinchi misra' bo'g'umlarini barmoq bilan sanab o'qiymiz. So'ngra ikinchi misra'i bo'g'umlarini sanaymiz, baravar kelsa, vazn tuzukdir deymiz. Bu vaznni *barmoq vazni* deyishimizga sabab shudir:

Ko'nglimda bo'lg'an sevgi tamug'i:
Dardli ko'nglimning sevgan ozug'i,
Bu tamug'dagi olovlar so'nsa,
Tirikligimning so'nar yorug'i.

Botuning mana shul iki baytining vaznini ko'rmakchi bo'lg'anda shunday qilamiz:

Ko'ng-lim-da – bo'l-g'an – sev-gi – ta-mu-g'i = 10
Dard-li – ko'ng-lim-ning – sev-gan – o-zu-g'i =10
Bu – ta-mug'-da-gi – o-lov-lar – so'n-sa = 10
Ti-rik-li-gim-ning – so'-nar – yo-ru-g'i = 10

Ko'rinadurkim, Botuning yuqoridag'i she'rining har misra'i o'nlar bo'g'umidandir. Demak, bu she'r barmoq

vaznining «o'nlik» qismidandir. Masalaga shu bilangina to'xtamaymiz. Har misra'ning o'rta yerida bir-iki turish o'rni bo'ladirkim, biz munga *turoq* deymiz.

Bir misra'ning bo'g'umlarini, «turoq»larini sanag'anda shul «turoq»larni ko'zda tutamiz. Turoqning iki yog'ida bo'lg'an bo'g'umlarni ayri-ayri sanaymiz:

Ko'nglimda bo'lg'an — sevgi tamug'i 5+5
Dardli ko'nglimning — sevgi ozug'i 5+5

Demak, Botuning bu o'nlik tizmasi (5+5=10) shaklida ekan. Vaznda kenglik istaganlar shu turoq mas'alasiga ahamiyat bermaydilar. «Vaznda bu qadar ingichkalik shoirning ilhomini bo'g'moqdan boshqa bir foyda bermaydir», deylar. Bu so'z to'g'ridir. Biroq, biz bundag'i misollarimizni turoqlari bilan ko'rub chiqishni munosib ko'rdik. Bizda barmoq vazni to'rtlikdan o'n oltilikkacha bo'ladir. Misollari shulardir:

To'rtlik:

O'lgan kelmas,
O'chqon yonmas. *(El so'zi)*[25]

Beshlik:

Yosh qiz yuzini,
Qora ko'zini
Ko'rolmadim men. *(Botu)*

Oltilik:

Yaxshi topib so'ylar,
Yomon qopib so'ylar.

Yettilik:

a) Charxim tanob — tashlaydir, 4+3
Bir baloni — boshlaydir. 4+3
b) Suv kelar — guldir-guldir, 3+4
Sevganim — qizil guldir. 3+4
Sevganim — topilmasa, 3+4
O'lganim — o'shal kundir. 3+4

Shoirimiz Cho'lpon yettilikning iki turining og'irrog'ini oralashtirib she'r yozg'an:

Men kuchli — menda isyon, 3+4
Men to'lqun — menda tug'yon, 3+4
Ko'pturarman — tosharman. 4+3

Sakkizlik:

Kel o'tirg'il – sajda qilg'il, 4+4
«Lot, monatka» – banda bo'lg'il, 4+4
Yo joningdan – umid uzg'il, 4+4
Yosh o'g'lon – kelganing nadir? 3+5

(«Zayn ul-arab»)

To'qqizluq:

Yurakda – umidlar – alamlar, 3+3+3
To'zimsiz – qarog'ni – bosarkan, 3+3+3
Nega men – chaqmoqday – yugurmay?! 3+3+3
(Botu)
Yolg'uzliklarda – chidagandim, 5+ 4
Chunki men seni – o'ylagandim. 5+4
(?)[26]

O'nlik:

Otimdir o'g'uz – bilinglar ayon, 5+5
Nomimdir Xisrav – bilinglar yaqin. 5+5

Erka malak – achchig'lanmam senga, 4+6
Uchursang-da – ko'kka yurak kulin. 4+6

(F.)[27]

O'n birlik:

O'truk bo'yidagi – barcha tu/r/kmanlar, 6+5
Do'stim, xabar bergil – omon-esonmi? 6+5

O'n ikilik:

So'zim qattig' – tilim achchig' – o'zim zolim, 4+4+4
G'arib jonim – sarf aylaysan – yo'qdur molim.

(Yassaviy)

Uzun, uzun arg'amchi – yo'lda yotarmi?
Esizgina Mallaxon – go'rda yotarmi? 7+5

(Ashula)

Kechagi qaynashlar – pasaygan bo'lsa-da,
Kechagi hujumlar – susaygan bo'lsa-da. 6+6

(Botu)

O'n uchlik:

Salom senga, malaklarning – ulug' rahbari,
Bilim, hikmat ko'klarining – nurli hulkari. 8+5

O‘n to‘rtlik:

Dunyo, dunyo, san dunyo – kimga vafo qilibsan?
Sendan vafo kutganga – sen ko‘p jafo qilibsan. 7+7

Uqtirish: bir o‘n to‘rtlik misra’ iki (misra’lik) yettilik misra’ bo‘la olg‘ani uchun bu vaznda oz yoziladir.

O‘n beshlik:

Go‘zal yulduz – yerimizning – eng qudratli–
tuvg‘ani,
Nega bizdan – qochib muncha – uzoqlarga –
tushubsan. 4+4+4+3
(F.)[28]

O‘n oltilik:

Gasht etdim tog‘-u tuzlari – ko‘rdim ajoyib qizlari,
Bizning yerning kanizlari – hur ila g‘ilmon mani zor. 8+8

Uqtirish: o‘n oltilik vaznning misra’lari juda uzundir, hamda har bir misra’i ikita sakkizlik misra’ bo‘larlikdir. Shuning uchun bu vaznda oz yoziladir.

Emdi aruz vaznini ko‘raylik.

ARUZ

Yuqoridag‘i fasllarda so‘ylaganimiz kabi tizimda vazn mas’alasini millat o‘z tilining ba’zi xususiyatlariga ko‘ra hal qilg‘an. Bizning tilimizga uyg‘un kelaturg‘an vazn, albatta, milliy vaznimiz bo‘lg‘an barmoq vaznidir. Biroq eron-arab ta’siri ostida aruz vazni ham adabiyotimizga kirgan, muhim o‘rin olg‘an, muvaffaqiyatsiz bir shaklda keng suratda bu kungacha davom etib kelgan. So‘ng kunlarda yosh o‘zbek adabiyoti zamonida o‘z o‘rnini yana barmoq vazniga topshirib, oradan chekilmoqda.

Aruz vazni arabnikidir. Arab shu vaznlarda she’r yozg‘an. Hijriy (170 nchi) yilda o‘lg‘an imom Xalil ibn Ahmad bu vaznlarni yig‘ib, belgili qoidalar ostiga kirgizdi, aruz qoidalarini tuzdi. Arab olimi tomonidan tuzilgan aruz qoidalarini forslar ham forsi(y) she’rlar uchun qabul qildilar. Biroq, forsiy she’r uchun qabul etilgan aruz arab aruzining xuddi o‘zi emas edi. Forslar arab aruzini tuzatdilar. Kamchiliklarini to‘ldirdilar. O‘zlarining milliy vaznlarini ham shu qoidalarga ergashtirib aruzga kirgazdilar.

Mana shunday qilib, arab aruzini arab-fors aruzi holig'a keltirdilar. Bizning O'rta Osiyo turklari tomonidan qabul etilgan aruz shul arab-fors aruzidir. Bizning O'rta Osiyo xalqlari qachon qabul etgani aniq emas. Biroq hijriy 462 da Qashg'arda yozilgan mashhur «Qutadg'u bilig» kitobining shu aruz vaznida yozilg'ani e'tibor etilsa, juda eskidan qabul etilgani ma'lum bo'ladir.

ARUZ USULI

Yuqorida aytilgan edikim: bizning barmoq vaznimizda barmoq asosi so'z bo'g'umlaridir. Bizda tizim o'lchovi so'z bo'g'umlarining sanashidir. Aruz ham shundaydir. Aruz ham asos qilib so'z bo'g'umlarini oladir. Biroq u cho'zg'ilarning uzunlik, qisqalig'ini ham ko'zda tutadir. Bir necha so'z bo'g'umlidir. Har bo'g'umida necha harf, necha bo'g'um bor? Cho'zg'ilari uzunmi, qisqami? Mana, arab-fors aruzining tekshirgani shulardir. Bu tekshirish juda aylanmali yo'llarini munda chizib ko'rsatmak foydasiz, kulunch bir ish bo'ladir. Shuning uchun biz ularning tub tilaklarini o'z yo'limiz bilan onglatarg'a tirishamiz.

Aruzchilar so'z bo'g'umlarining, asosan, shu qismlarg'a ajratganini ko'zda tutadilar:

a) bir harf, bir qisqa cho'zg'ili bo'g'um: *ma, ba* kabi;

b) bir harf bir uzun cho'zg'ili bo'g'um: *yo, bu* kabi;

j) iki harf, bir qisqa cho'zg'ili bo'g'um: *gal, bul* kabi;

d) iki harf, bir uzun cho'zg'ili bo'g'um: forscha *shoh, xo'b* kabi. Aruz bilan yozilg'an bir tizimning vaznini tekshirganda har misra'ning har so'zining har bo'g'umida necha harf, qanday cho'zg'i borlig'ini tekshirib turmoq, albatta, og'irdir.

Shoirni(ng) ilhomini bo'g'ub, til tekshirishga majbur qiladir. Aruzchilar mana shu og'irliqdan qutulmoq uchun yuqoridag'i cho'zg'i taqsimni ko'zda tutub, f, l, n, t, s harflari ham uzun-qisqa cho'zg'ilardan o'lchov so'zlar tuzganlar:

Qa-ni-sen — fa-u-lun, *kel-dim* — fa'lun, *kel-dim — bukun* — mus-taf-'i-lun kabi. Mana shu o'lchov so'zlariga *aruzning usullari* deyiladir.

Aruz usullari arablarda o'ntadir. Ular bu o'n usulni turli-turli o'zgartib ko'paytirganlar. Bu o'n usul o'zgartmalari

bilan juda ko'payadir. Biz bu yerda yolg'uz o'zbek-chig'atoy tizimlarida qabul etilganlarinigina ko'rsatib o'tishni yetarlik topdik.

O'zbek-chig'atoy tizimlarida arab-fors aruzidan olingan o'lchov so'zlari – aruz usullari shulardir:

Maf'ulun-mafoiylun[29] Mufta'ilun-mufta'ilun

Fa'ulun	Foilun
Maf'ulu	Fa'ilotun
Mafoiylun	Faul
Mafoiylu	Fa'lu
Faal	Foilotu
Foilotun	Fa'-fo'
Failun-fa'lun-failun	Mustaf'ilun
	Mustaf'iylun

Bularning ma'nolari yo'qdir. Yolg'uzg'ina «o'lchov» so'zlaridir. Bir tizimni o'lchaganda shulardan bir qanchasini qatorlab qo'yub o'lchaydirlar. Misol uchun Bobirning shu baytini o'lchab ko'raylik:

Vazni: Mafoiylun, mafoiylun, fa'ulun

Seni ko'rmay yiroqdin zor bo'ldim,
Biroz yod et yiroqdin zorlarni[30].

O'lchash yo'li: *Seni ko'rmay* – mafoiylun: *yiroqdin zo* – mafoiylun – *r bo'ldum* – fa'ulun.

Biroz yod et – mafoiylun: *yiroqdan zo* – mafoiylun: – *rlarni* – fa'ulun.

Aruzchilar yuqorida ko'rganimiz o'lchov so'zlaridan turlarini turli tartibda birlashtirib, aruz «bahr»lari tuzganlar. Aruz istilohida *bahr* vazn turkumi demakdir. Har bahrda bir-biriga yaqin ko'b vaznlar bordir. Arab aruzida o'n olti bahr bordir:

1. Madid	9. Mujtass
2. Tavil	10. Muqtazab
3. Basit	11. Muzori'
4. Vofir	12. Hafif
5. Komil	13. Munsarih
6. Ramal	14. Sari'
7. Rajaz	15. Mutaqorib
8. Hajaz	16. Mutadorik

Fors shoirlari arab aruzining o'n usulidan beshtasinigina o'zgartmalari bilan qabul qilg'anlar. Arabning 16 bahridan boshdag'i beshtasida oz she'r yozg'anlar. Hamda o'z milliy vaznlarini *jadid, qarib, mushokil* ismli uch bahr ostida yig'ib, haligi 16 bahrga qo'shg'anlar[31]. Shul yo'l bilan arab-fors aruzidagi bahrlarning soni o'n to'qquzg'a erishgan.

Chig'atoy-o'zbek shoirlari esalar, bu bahrlarning hammasidagi hamma vaznlarda she'r o'qug'anlar. O'zlariga qulay qurulg'an bahrlarning ba'zi vaznlarinigina ishlatganlar.

Chig'atoy-o'zbek adabiyotida ishlatilgan aruz vaznlari shulardir.

I

Bahri komildan bir vazn

Vazni: mutafoilun mutafoilun mutafoilun (mutafoilun)

Hami zulfi, orazi davrida magar ul qamarki bu holadur,
Yurakimda furqati zo'ridin ishim oh-u dard ila noladur.

O'lchash yo'li:

Hami zulfi o – mutafoilun, – *razi davrida* – mutafoilun, *magar ul qamar* – mutafoilun, *ki bu holadur* – mutafoilun, *Yurakimda fur* – mutafoilun, *qati zo'ridin* – mutafoilun, *ishim oh-u dar* – mutafoilun, – *d ila noladur* – mutafoilun.

II

a) foilotun foilotun foilotun foilun

Bo'ldi gul vaqti-yu men dard-u g'amida mubtalo,
Ishq o'tida loladek bag'rimda yuz dog'i balo.

(Boyqaro)[32]

O'lchash yo'li:

Bo'ldi gul vaq – foilotun, – *ti-yu men dar* – foilotun, – *d-u g'amida* – foilotun, *mubtalo* – foilun: *Ishq o'tida* – foilotun, *loladek bag'* – foilotun, – *rimda yuz do* – foilotun, – *g'i balo* – foilun.

b) foilotun foilotun foilun

Nechakim qildim vafo ko'rdim jafo,
Nechakim ko'rdim jafo qildim vafo. *(Bobir)*

Nechakim qil – foilotun, – *dim vafo ko'r* – foilotun, – *dim jafo* – foilun: *nechakim ko'r* – foilotun, – *dim jafo qil* – foilotun, – *dim vafo* – foilun.

j) foilotun foilotun foilotun faulun

Yor yuzimni ko'rub dard-u g'amim bilsa kerak,
Yuz ko'rub dard-u g'amim chorasini qilsa kerak[33].

(Bundan boshlab o'lchash yo'li ko'rsatilmaydir. Yuqoridag'i o'rnaklarga qarab tildagina o'lchab borish kerak.)

d) foilotun foilotun foilotun foilotun

Guling ar qolmadi gulzorda bo'stonda nashiman,
Lekin o'lding chamanistoni fasohatda saromad.

(Komil)

x) foilotun foilotun foilun

Xon Samarqandni oldirganda,
Boyagi qal'ada o'lturg'anda.

III

Bahri rajazdan iki vazn

a) mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun mustaf'ilun

Davron g'amin barbod qil, ishrat uyin obod qil,
Jon-u ko'ngilni shod qil ovozi chang-u nay bila[34].

b) muftailun mafoilun muftailun mafoilun

Bog'i jahonki xush erur gulshani ayshxonasi,
Rohati jism-u jon erur bazmi adab nishonasi.

IV

Bahri hazajdan yetti vazn

a) vazni: mafoilun mafoilun faulun

To'kub qonim tarahhum qilmading hech,
Ko'rub holim tabassum qilmading hech.

(Bobir)

b) mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun

Kular edim burun Farhod-u Shir(in) dostonig'a,
Bu Shirindurki, oning birla-o'q hamdoston o'ldum.

(Bobir)

j) maf'ulu mafoiylu mafoiylu faulun

Ey gul, meni zor etmaki, husnung chamanida,
Bir ko'z yumub ochg'uncha bu gulzor topilmas.

(Bobir)

d) maf'ulu mafoiylun faulun

Devona bo'lub chiqib jahonda,
Ovora diyor-u xonumonda.

x) maf'ulu mafoiylun maf'ulu mafoiylun

Har yong'aki azm etsam yonimda borur mehnat,
Har soriki yuz tutsam o'trumg'a kelur qayg'u[35].

v) maf'uvlu mafoilun mafoiylu faol

Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi,
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi.
Ko'nglum bu g'aribliqda shod o'lmadi hech,
G'urbatda sevinmas ermish, albatta, kishi[36]. *(Bobir)*

z) maf'uvlu mafoiylu fa'uvlun

Tong otti, jahon zulmati bitti,
Mungli kecha ming dard ila o'tti.

V

Bahri mujtassdan iki vazn

a) mafoilun foilotun mafoilun failun

Ko'ngilga bo'ldi ajib balo, qaro soching,
Shikasta ko'nglim bo'lmish qaro, balo soching.

b) mafoilun foilotun mafoilun foilotun

Ne tong, agar seni ko'rmay fig'on qilay tun-u kun men,
Ki umr bo'yicha menga rafiqi dard-u balo sen.

VI

Bahri muzore'dan iki vazn

a) maf'ulu foilotun mafoiylu foilun

Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim,
Ko'nglumdin o'zga yori vafodor topmadim[37].

b) maf'ulu foilotun maf'ulu foilotun

Zulming aro doriq sabza ichida lola,
Ul chashmi pur xumoring loladagi g'azola.

VII

Bahri hafifdan bir vazn

Foilotun mafoilun failun

San'atim onda soz chalmoq ishi,
Qilmayin men kabi ishimni kishi.

VIII

Bahri munsarihdan iki vazn

a) muftailun foilotu muftailun fa'

Ulki menga yori dilnavoz ko'rundi,
Javrni ko'rsatti ko'b-u oz ko'rundi.

b) muftailun foilun muftailun foilun

Shohi gul-u nastaron hid berur bo'yidan,
Atrini mushki Xo'tan kasb qilur bo'yidan.

IX

Bahri sare'dan bir vazn

Muftailun muftailun failun

Eski ommaga bo'lub pech-pech,
Hechdin o'zga nima yo'q onda hech.

X

Bahri mutaqoribdan uch vazn

a) faulun faulun faulun faul

Chu Doroni dahr etti jondan sutuh,
Skandari jahondor Doro shukuh.

b) fa'ulu faulun fa'ulu faulun

Ey yuzi nasrin, qomati shamshod,
Necha qilursan jonima bedod.

j) faulu faulun, faulu faulun, faulu faulun, faulu faulun

Hamisha tubi qadingga vola, hamisha oshiq ruhingga lola,
Hamisha hayron ko'zingga abhor, hamisha oshiq labingga kavsar.

Arablar yuqoridag'i vazndan yolg'uz sakkiz ruknlik yozsalar-da, fors, turk shoirlari 16 ruknlik yozg'anlar.

Misolimiz shul 16 ruknlikdir.

XI

Bahri mutadorikdan bir vazn

Foilun foilun foilun foilun

Sen kabi ko'rmadim bir vafosizni men,
Men kabi ko'rmading bir vafoliqni sen.

Mana chig'atoy-o'zbek adabiyotida qabul etilgan aruz vaznlari shulardir. Biroq bu uzul-kesil bir gap emas. Oxtarib topqonimiz shulardir. Yana topilsa, ilova qilinadir, albatta.

ARUZNING BIZNING TILGA YARAMAG'ANLIG'I

Yuqorida so'yladikkim, arab-fors so'zlarida turkcha so'zlardag'i bosim o'rnida «madd» bor, bu «madd» ham turkchaning bosimi kabi vaznning oxirida kelmaydir. So'zning ham cho'zg'isini «maddlamak» – tortib, cho'zib aytmak mumkindir.

So'ngra arab-fors so'zlaridag'i «madd»ning bizning tildagi bosim kabi belgili bir o'lchovi yo'qdir. Uni bir uzun cho'zg'idan to'rt uzun cho'zg'igacha tortmoq mumkindir.

Shuning uchun aruz usullarini «qisqa maddli», «uzun maddli» deb ajratib, taqti' qilishga majbur bo'lamiz. Bizning tilda esa «madd» yo'qdir. Aruz vaznida asar yozg'anda aruz usulidag'i «uzun maddli» o'lchovga to'g'ri kelturmak uchun turkcha so'zlarni ham «uzun madd» bilan aytish lozim keladir, bu esa juda kulunch bo'ladir.

Aruzning eng ohangli, eng o'ynoqi bir vaznida yozilg'an turkcha bir she'rni qishloqda yashag'an, o'z tilining ohangini buzmag'an bir turkka o'qutsangiz-u tinglag'ani she'rda turkcha so'zlarning cho'zulub, tuzatib bemaza etilib aytilg'anini eshitgach, albatta, kuladir-da, tinglag'ani she'rning bir turk og'zidan chiqmag'aniga hukm qiladir. Emdi shu da'voning quruq dalilsiz bo'lmag'anini ko'rsatmak uchun misollar keltiraylik:

Durbekdan:
(muftailun muftailun foilun)

Bor edi Misr elida bir butparast,
Yurur edi Misrda payvasta mast.

Barcha oning yu...zina oldirdi ko'z,
Borchasining og'zida qolmay...di so'z.

Jumlayi nomusingg'a aylar ziyon,
Se...ni qilur ayb bu xalqi jahon.

Bobirdan:
(foilotun foilotun foilun)

O'zni, ko'ngil, aysh ila tutmoq kerak,
Bizni u...nutqonni u...nutmoq kerak.

(mafoilun 4 daf'a)

Tiyo olmon yig'i...ni ko'rgach ul yoshni, vale ul ham,
Ko'zim yoshi...ni ko'rgach asray olmas yuzni kulgu...din.

Navoiydan:
(maf'ulu mafoilun faulun)

Yo...rim kechakim nasimi gulbez,
Bo'ldi chaman ahli uzra gulrez.

Komildan:
(mafoiylun 4 daf'a)

Guli ruxsoring-u sarvi qadingning o..rzu..si..da,
Qilur qumri-yu to'ti tun-kun alxon-u nag'ma kelgil.

(foilotun foilotun foilotun fa'lun)

O'rtonib furqati o'..ti..g'a, base, zor o'ldim,
Rohatim ketti g'am-u g'ussa bila yor o'ldim.

Umarxondan:
(foilotun 4 daf'a)

Yo Rab, ul oyning nasimi subhi farroshimidur?
Yo bu g'avg'olar firoq ahlini g'avg'osimidur[38].

Mana shu misolni yetarlik ko'rub, mas'alaning boshqa tomoniga qaraylik, aruz vazni bilan she'r so'ylashga davom eta berganda bora-bora tilimiz bilan aruz vaznining bir-biriga kelishib qolishi mumkinmi?

Albatta mumkin, biroq, forsi(y), arabiy so'zlar bilan, ham forsi(y)chaning vasfi, izofiy tarkiblari bilan tilimizni to'ldirmoq sharti bilan mumkindir. Bu ishdan na foyda ko'ramiz, uni bilmayman. Aruz vaznini sevguchi usmonli adabiyotlaridan ba'zilari tabiiy hodisalarning har birida bo'lg'an o'ziga maxsus ohangini aruz vaznlaridan topmoq mumkindir. Shuning uchun qaysi mavzu'ga munosib bir vaznni topib olarmiz. Netaykim: usmonli shoir Tavfiq Fikrat «Yog'mur» otli tizmasida *faulun, faulun, faulun, faul* vaznida yozadur. Bu vaznda esa yog'murning ohangiga o'xshash

singarlarni «g'avsatg'uchi, bo'shatg'uchi bir ohang bordir» deb aytalar.

Meningcha, bu da'voning ham asosi yo'qdir. Chunki Tavfiq Fikratning «g'avsatg'uchi» vaznida fors shoiri Firdavsiy o'zining «Shohnoma»sini yozg'an. Qilich, qalqon, olov, qon maydonlarini juda yaxshi tasvir etgan «Shohnoma»ning urush maydonlarini o'qug'anda haligi «yog'murning g'avsatg'uvchi ohangi» sira esingizga kelmaydir.

Navoyi ham shul vaznda o'zining «Iskandarnoma»sini yozg'an. Onda buyuk urush maydonlarini butun foje'lari bilan ko'rsatgandir. To'g'ridir: fors she'rlaridag'i vaznlar orasida juda o'ynoqi, juda sho'x vaznlar bor. Biroq, bularning go'zalliklari shul fors tilidagina qoladir. Bizning tilimizni forsiy-arab so'zlari bilan ishlatmak mumkin emasdir.

QOFIYA

Misra'larning oxirida tovushlar bir xil turli bo'lg'an so'z bo'g'umlarig'a *qofiya* deyiladir.

Botuning:

Adam adamdir, sajdalar ortiq,
Adam so'zlari adamg'a tortiq.
Bordan tugar kuch, bunga bor shohid,
O'ylaring tubsiz, samarsiz, zohid, —

degan she'rida «tortiq» bilan «ortiq» so'zlari qofiya bo'lg'ani kabi «shohid» bilan «zohid» so'zlari ham qofiyadir. Burung'i she'rlarimizda qofiyaning juda katta o'rni bor edi. Hatto, vazn, qofiyasi bo'lmag'an asar she'r sanalmas edi.

Tizma asarlarning shakllariga ko'ra qofiyaning belguli tartibi bor edi. Masalan, asar «masnaviy» (ikilik) esa har iki misra'ning o'ziga maxsus qofiyasi bo'ladir: g'azal esa, qofiyaning birinchi iki misra'i bilan ondan keyingi har bir bayt oxirida bo'lishi ko'riladir.

Masnaviydan misol:

Toshkent eshigi ochilg'uncha,
Ondagi mastlar oyilg'uncha,

Sizni bu band ila asrarbiz,
Aylamang xavf bu ishlardan siz.

Qal'ani xoli etub chiqsunlar,
Burj-u borularini yiqsunlar.

(«Shayboniynoma»dan)

G‘azaldan misol:

G‘unchadek ko‘nglum mening gulzor mayli qilmag‘ay,
G‘am bilan butkan ko‘ngul gulgasht ila ochilmag‘ay.

Rango-rang gullaringni, bog‘bon, arz etmag‘il,
Tah-batah qonliq ko‘ngul gul orzusin qilmag‘ay.

Yo‘qtur ulkim gul yuzingdin ayri boqsam gul sari,
G‘uncha yanglig‘ ko‘ngluma yuz xori g‘am sanchilmag‘ay.

Sendin ayrildim esa bo‘ldi nasibam xori g‘am,
Sendin, ey gul, emdi Bobir bir zamon ayrilmag‘ay[39].

Ba’zi g‘azallarda har misra’dan keyin birgina so‘z qaytarilib turur. U so‘zga *radif* deyiladir. Bobirning:

Jonima o‘t soldi ul ruxsorayi zebo yana,
Ko‘ngluma ul zulf bo‘ldi moyayi savdo yana

degan baytida, «zebo», «savdo» so‘zlari radifdir[40]. El adabiyotimizda qofiya boshqacharoq bir yo‘sundadir: «Yo masnaviy yo‘sun-la har iki misra’da bir qofiya keltirilgan sanarliklarga bo‘linib, har to‘rtlikning 1-, 2-, 4- misra’larda bir qofiya qilib, uchinchi misra’ga ayricha qofiya qilib, uchinchi misra’ga ayricha qofiya berilgan yo to‘rtlikning 1-, 2- misra’ga bir qofiya, 3-, 4- misra’larida bir qofiya berilgan. El ashula ham dostonlarida ko‘rganimiz kabi. Hamda shu yo‘sunlarning har biri, albatta, lozim deb topilmagan. Ko‘b joylarda bu yo‘sunlar bir-biriga aralashtirilg‘an.

Ba’zi misra’lar qofiyasiz ham bo‘lib o‘tgan. Bizning bu kungi yangi adabiyotimiz ham qofiya to‘g‘risida el adabiyoti yo‘li bilan bormoqdadir.

FORS-ARAB ARUZIDA TIZIM SHAKLLARI

Eski tizmalarimizda mavzu’ doirasi juda tor bo‘lgani kabi shakl doirasi-da tordir. Adabiyot, she’r torliqni istamaydir, torliqda o‘smaydir. Bizning adabiyotimiz taqlidchiliqdan chiqolmay bo‘g‘ulib qolg‘anig‘a sabab mana shu mavzu’da, shaklda torliqdir. Bizda fors, arab aruzidag‘i tizmalarning shakllari tubandagichadir:

G‘AZAL

Birinchi baytning har iki misra’ida, ondan keyin har baytning oxirida qofiya bir turli bo‘lg‘an tizmalar 12 baytdan

ortuq bo'lmasa *g'azal* bo'ladi. Yurak «lirizmi» she'rlari ko'brak g'azal shaklida aytiladi.

Misol:

Kimga qildim bir vafokim, ming jafosin ko'rmadim,
Ko'rguzub yuz mehr, ming dard-u balosin ko'rmadim.

Kimg'a boshimni fido qildimki, boshim qasdig'a
Har tarafdan yuz tuman tig'i jafosin ko'rmadim.

Kimga ko'nglum ayladi mehr-u muhabbat foshkim,
Har vafog'a yuz jafo oning jazosin ko'rmadim[41].

QASIDA

G'azal yo'sunida tuzulib, o'n iki baytdan ortuq bo'lg'an tizmalarg'a *qasida* deyiladir. Qasida g'azaldan kengrakdir. Maxtashlar, maxtanishlar, tabiat tasvirlari, axloqiy fikrlar qasida yo'sunli aytiladir. Bizning o'zbek-chig'atoy adabiyotimizda qasida yo'li judayam kengaymagan, chiroylik o'rnaklari ozdir.

QIT'A

G'azalning birinchi bayti bo'lmasa, qolg'ani *qit'a* bo'ladi. Boshqacha aytganda, qofiyasi har baytning oxirida bo'lub, birinchi misra'i qofiyasiz bo'lg'an tizmalarga qit'a deyiladir. Ko'brak talabnomalar, chaqirish bitiklari, nasihatlar qit'a shaklida yozilg'andir.

MASNAVIY

Har baytning iki misra'i o'ziga maxsus qofiyasi bo'lg'an tizmalarga *masnaviy* (ikilik) deyiladir. Dostonlar, maktublar (ko'brak sevgi maktublari) masnaviy yo'sunli yoziladir.

Misol:

Men qaribman, meni xud netg'usidir,
Meni bu yerda muqim etg'usidir.

Na qo'lum bor, na oyog'im, na belim,
Bu qadar evriladir so'zga tilim.

RUBOYI

To'rt misra'ligina bo'lub, 1-, 2-, 4- misra'i qofiyadosh, uchinchi misra'i qofiyasiz bo'lg'an tizmalarga *ruboyi* deyiladir. Ruboyi forsi(y)ga maxsus bir tizim shaklidir. Bizga

forslardan kelgandir. Buning maxsus vazni bordir. Arab-fors aruzini chig'atoychada yozg'an Navoyi ruboiy uchun «hazaj» bahridan yigirma to'rt vazn borligini so'ylaydir. Biroq bu yigirma to'rt vazn bir-biriga shuncha yoqindirkim, Navoyining o'zi ham, misollarini ko'rsatganda aralashtirib yuboradir.

Mening fikrimcha, bu yigirma to'rt vaznni bir vazn sanamoq mumkindir. Ozgina o'rganib turg'an ruboyiga misol:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonliq hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur[42].

Turk adabiyotida ruboyining yana ikinchi bir shakli bordir. Bunga *tuyuq* deyiladir. Tuyuq qofiya e'tibori bilan fors ruboyisi kabidir. Vazn boshqa, Navoyi tuyuqni ramal bahridan deb ko'rsatadir. Ham shu vaznda shu misolni ko'rsatadir:

Yo Rab, ul shahd-u shakar yo labmudur,
Yo magar shahd-u shakar yolabmudur,
Jonima payvasta o'qin otg'ali,
G'amza o'qin qoshig'a yolabmidur.

Ko'riladurkim, buning qofiyasida so'z o'yunlaridan tajnis[43] bordir. Shunga tayanib, «tuyuq to'rt misra'li, qofiyasi tajnisli tizmalardir», deb ta'rif qiladilar. Holbuki, Navoyining «Mezon ul-avzon»ida ko'rsatilg'aniga ko'ra, tuyuq uchun tajnis albatta lozim emas. Navoyi bu haqida mana shunday deydir: «Birisi tuyuqdurkim, iki baytg'a muqarrardir. Va sa'y qilurlarkim, tajnis etilg'ay» («Mezon ul-avzon»).

Mening fikrimcha, barmoq vaznimiz bilan yozilg'an to'rtlik tizmalarning oti bo'lg'an, so'ngralari arab-fors aruzi bilan yozib boshlag'an shoirlarimiz uning vaznig'a yaqin bir aruz vaznig'a aylantirib, jinsli qilurg'a ham tirishkan bo'lsalar kerak.

MUSTAZOD

Bir g'azal yoziladir. Har misra' har baytidan keyin shul misra'ning bir bo'lagi vaznida so'z orttiriladir. Bunga *mustazod* deyiladir.

Misol:

Ne o'sma-yu, ne kesmadur ul zulfi sumansoy,
ne g'amzai jodu,
Mashshota senga zolim falakdur magar, ey oy,
xurshid anga ko'zgu.
Qosh yosi bila kirpik o'qin har sori otsoq,
imkoni xato yo'q,
Har kimsaki, bo'lg'ay unga bu nav' o'q-u yoy,
tuz bo'lg'usi qobu[44].

Navoyi «Mezon ul-avzon»da mustazod to'g'risida degan: «Va yana xalq orasida bir surud (ashula) borkim, hazaji musamman vaznida unga bayt bog'lab, har misra'idin so'ngra ham ul bahrning iki rukinini bir qilib surud (ashula) nag'maotiga (kuyiga) rost keltirarlar ermish» («Mezon ul-avzon»). Navoyining shu so'zlaridan mustazod shaklining turk kuylariga to'g'ri keltirib o'qumoq uchun so'ngra tuzulg'an bir shakl ekani onglashiladi.

MUSAMMAT

Uzun bir tizmani to'rtlik, beshlik, oltilik parchalariga ajratadilar. Birinchi parchasining hamma misra'lari qofiyadosh bo'ladir. Qolg'an parchalarining so'ng misra'lari ayricha qofiyadosh bo'lub, so'ng misralar esa birinchi parchaning qofiyasig'a boylanadir.

Musammat necha turlik bo'ladi: 1) to'rt misra'liq bo'lsa murabba' (to'rtlik); 2) besh misra'liq bo'lsa muxammas (beshlik); 3) olti misra'liq esa musaddas (oltiliq) deyiladir...

Navoyi, Lutfiy, Husayniy, Komil, Rojiy, Amiriy kabi ko'b chig'atoy-o'zbek shoirlarining musammatlari (muxammas, musaddas, murabba'lari) bordir.

Ba'zan bir shoir hurmat qilg'ani bir shoirning bir g'azalini oladi. Uning har iki misra'ining ustiga uch yoki to'rt misra' boylab, bir muxammas (beshlik) yoki musaddas (oltiliq) tuzadir. Bu adabiy yo'ldoshlikka *muxammas yo musaddas bog'lamoq* deyiladir. «Musammat»ga misol uchun Husayniyning Navoyi g'azaliga bog'lang'a(n) muxammasini yozamiz:

Husayniyning Navoyiga muxammasi

La'li jonbaxshingdin[1] *ayru obi hayvonni*[2] *netay,*
Har dam ar[3] *yuz jon berur jononasiz jonni netay,*
Gar emas manzur husnung, hur-u g'ilmonni netay,
Gulshani ko'yingdan ayru bog'i rizvonni[4] *netay,*
Boshim gar gul sochar, sonsiz gulafshonni[5] *netay?*

Hajr[6] *anduhida*[7] *to gulshan aro qildim guzar*[8],
Sarv bo'yi qomatingni nahlidan[9] *berdi xabar,*
Lek[10] *oning vaslidin ne bahra topdim ne samar*[11],
Nahl qadding chun emas giryon ko'zimda jilvagar,
Jo'ybor[12] *atrofida sarvi xiromonni*[13] *netay?*[45] — deb boshlang'an.

Ha(r) bir bo'lagida:

Xarobot[14] *aro kirdim oshuftahol,*
May istarg'a ilkimda singan safol

misra'lari qaytarilg'an go'zal bir tarji'bandi[46] bor. Shuning bir bandini yozib ko'rsatamiz:

Ketur, soqiyo, mujdai jomdin
Ki, pajmurda[15] *bo'lmishmen ayyomdin.*
Bu gulshan guliga chu yo'qtur vafo,
Ne parhez etay jomi gulfomdin[16].

Chu yo'q shomi hijron xumorig'a[17] *subh,*
Ichib onglamay subhni shomdin.
Xalos aylay o'zni may-u nuqlning[18]
Suv-u donasi birla bu domdin[19].

---

[1] **La'lbaxsh** — jon bag'ishlovchi lab.
[2] **Obi hayvon** — hayot suvi.
[3] **Ar** — (forscha) asar.
[4] **Bog'i rizvon** — jannat.
[5] **Gulafshon** — buyuk bayramlarda qilinaturg'an bir turli o't o'yuni.
[6] **Hajr** — ayriliq.
[7] **Anduh** — qayg'u.
[8] **Guzar qilmoq** — o'tmoq.
[9] **Nahl** — nihol.
[10] **Lek** — lekin.
[11] **Samar** — meva.
[12] **Jo'ybor** — ariqlar orasi.
[13] **Sarvi xiromon** — mang'ib (xirom qilib) yurg'uchi sarv bo'yli go'zallarga berilgan sifat.
[14] **Xarobot** — mayxona.
[15] **Pajmurda** — ruhsiz, so'lg'in.
[16] **Gulfom** — gul rangli.
[17] **Xumor** — bosh og'rig'i.
[18] **Nuql** — gazak.
[19] **Dom** — tuzoq.

Bo'lay dayr[20] pirig'a andoq murid,
Ki yod etmayin shayxulislomdin.
Kiray dayr aro o'yla majnun-u mast
Ki, ketsun xirad[21] xos ila omdin.
Solay bir alolo[22] xarobotda,
Ki chiqsun fig'on[23] ahli ayyomdin.
Xarobotiy o'lmoqlig'im, zohido,
Savol etma, men zor-u badnomdin.
Garav qilg'ali mayg'a chun qolmadi
Ne tasbeh-u ne xirqa[24], nokomdin.
Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarg'a ilkimda singan safol[47].

Bir dam, ey ahbob, har sori qoshindin ketmangiz,
Harnakim derman muvajjah[25] bo'lmasa, eshitmangiz!

Bu, ki derman chehradin[26] qonli yoshni ortmangiz,
La'lgun[27] ashkim labi hijronida[28] ayb etmangiz!

Ko'z yo'lidin to'kmayin bag'rimdag'i qonni netay,
To ayridi mendin ul mahvashni[29] charxi kajnihol[30].

Ey Husayniy, telba ko'nglum bo'lmadi bir lahza[31] shod,
Oqibat chun topmadim ul sho'x vaslidin murod.

Yordin ayru buzuq ko'nglumga qildim xayrbot[32],
Ey Navoyi, o'yla ganj[33] o'lmay chu vayronni netay.

TARJI'BAND, TARKIBBAND

Uzun bir tizma bir necha qismga ayriladir. Har bir qismning o'ziga maxsus qofiyasi bo'ladir. Biroq har qismning oxirgisini butunlari boshqa qofiyada yo bir necha

---

[20] **Dayr** – butxona.
[21] **Xirad** – ong.
[22] **Alolo** – shovqin.
[23] **Fig'on** – qichqirish.
[24] **Xirqa** – shayxlar choponi.
[25] **Muvajjah** – maqbul.
[26] **Chehra** – yuz.
[27] **La'lgun** – qizil.
[28] **Hijron** – ayriliq.
[29] **Mahvash** – oy yuzli.
[30] **Charxi kajnihol** – egri tabiatli falak.
[31] **Lahza** – zamon.
[32] **Xayrbot** – vido.
[33] **Ganj** – xazina.

qism bilan bir qancha qofiyada bo'ladi. Bunga *tarkibband* derlar. Birinchi qismining oxirgi ikki misra'si har qismning oxiriga qaytarilib tursa, *tarji'band* ataladi.

Navoyining:

Ketur, soqiy, ul mayki subhi alast[1],
Oning nash'asidin ko'nglum edi mast.

USLUBNING UMUMIY, XUSUSIY HOLLARI

Yuqorida uslubning sinfga, zamong'a, millatga, shaxsga, hatto, bir shaxsning sochim, tizimiga ko'ra o'zgarib turg'ani ko'ruldi. Shuncha o'zgarishgan, bir holda turmag'ur bo'lg'an uslubning xususiy, umumiy hollarini ajratib, aniqlab qo'ida shaklida ko'rsatmak mumkin bo'lmag'an bir ishdir, og'irdir. Shunday bo'lsa ham adabiyot saboqlarida davom etgan talabaga fikr berish tilagi bilan uslublar orasida bo'lg'an o'rtoq sifatlarni ajratib olib qo'ida shaklida ko'rsatmak foydasi bo'lmaydir.

Umuman, jug'rofiyo, hisob, handasa kabi ilmiy, fanniy mas'alalar to'g'risida yozilg'an asarlarning uslubi bilan adabiy, she'riy parchalarning uslubi orasida ko'zga ko'rinarlik ayirma bor. Fanniy, ilmiy asarlardan maqsad tuyg'ularimizni o'quvchilarga o'tkarib, ularda bir turli hayajon (ruhiy to'lqun) qo'zg'atmoq emas, ilmiy bir haqiqatni onglatishdir. Bu maqsad uchun sodda uslub yetarli ko'rilgan hamda bunday asarlar tutash shu sodda uslub bilan yozila kelgandir.

Adabiy, she'riy asarlardan esa maqsad o'quvchini qaynatmoq, unda ruhiy bir to'lqun yaratmoqdir. Buning uchun xayol yordami bilan uslubni bezatish lozim ko'rilgan hamda adabiy, she'riy asarlar har vaqt mana shunday bezalgan uslubda yozila kelgandir. Mana shu ayirmani ko'zda tutub, adabiyot kitoblarida uslubni *sodda uslub*, *bezalgan yo tasviriy uslub* deb ikiga ajratadirlar.

Uslubning hollarini ham shul asosga ko'ra ikiga ajratib ko'rsatamiz, sodda ham she'riy uslublarning hammasida topilishi matlub[48] bo'lg'an hollarg'a uslubning *umumiy hollari* deyiladir.

[1] **Subhi alast** – azaldan.

Tasviriy uslublarda topilishi matlub bo'lg'an hollarg'a *uslubning xususiy hollari* deyiladi.

Endi uslubning umumiy hollarini, ya'ni har uslubda topilishi matlub bo'lg'an hollarni ko'ramiz:

TUZUKLIK

U asardagi so'zlar ham gaplari sarf, nahv ham shevaga ko'ra tuzuk bo'lsa, shul asarning uslubida *tuzuklik* bor deyiladir.

Tuzuklik har uslub uchun juda zarur, juda keraklik bir holdir. Bir fikr qanday go'zal, qanday foydaliq, qanday ochiq bo'lsa bo'lsun, uni ifoda qilg'animizda so'zlarimizning, gaplarimizning sarf, nahv, shevaga ko'ra buzuqlig'i u fikrning ta'sirini yo'qotadir. O'zbekchani yaxshi bilmagan kishi bilan gapirishib turg'anda qanday bir holda qolsangiz, buzuq bir uslubni o'qug'anda ham xuddi shu holatda qolurmiz.

O'zbek shoiri Fanoning:

Ushshoqlarg'a bo'lmasa shavqin chu rahnamo, –

degan misra'ida sarf yanglishi bor. Oshiqlar o'rnida «ushshoqlar» degan. Holbuki, «ushshoq» so'zining o'zi oshiqlar demakdir. Ruschadan tilimizga tarjima qilinib, Elbekning «Go'zal yozg'ichlar»ida bostirilg'an «Qush qo'shig'i» hikoyasida[49] shu: *«Beshikdagi bolang menga qarab yorug' chiroyday katta ko'zlarini ochib, mening qo'shug'imni ham tinglab, «onam qani?» dedi»*, – iborasidan *«katta ko'zlarini ochib»* parcha(si) nahvga ko'ra yanglishdir. Chunki bundagi *«katta»* so'zi ko'zga emas, *«ochib»*ga baylanadir. Bolaning ko'zi katta emas, bola ko'zini katta ochg'an. Buning nahvga ko'ra to'g'risi: *«ko'zlarini katta ochib»* shaklidadir.

Yana shul «Go'zal yozg'ichlar»dag'i «Binafsha» hikoyasining shu: *«Gulzor ichidagi gullar hech bir binafshaning borlig'ini sezmaydirlar, bilmaydir»* degan parchasida nahviy yanglishiq bor. *«Hech bir»* degandan keyin *«sezmaydurlar» «bilmaydurlar»* emas, *«sezmaydur, bilmaydur»* demak kerak edi.

Burung'u shoirlarimizdan Fanoning:

Voy gul bir shavqida qon bo'ldi ko'nglum g'am ishi,
Bulbuli sho'ridadek yuz rang nolondur bukun,–

degan baytida nahviy yanglishiq bor. Bu baytda *«ko'nglum ishi»* ega, *«nolondur»* so'z kesimdir. *«Ko'nglum ishi nolondur»* degan gap nahvga ko'ra yanglishdir. Ko'ngulni ishi «nola»dir, «nolon» emas. Navoyining «Layli va Majnun»idan shu:

Gulshan aro qaysi xushdin fard,
«Yotib» edi yerda o'ylakim gard.

Ham mag'zida xushdin xabar yo'q,
Ham jismida ruhdin asar yo'q.

Yorim necha kim nasimi gulbez,
Bo'ldi chaman ahli uzra gulrez,—

degan parchada «yotib», «yorim» so'zlarining birinchi bo'g'umlari juda cho'zulub, «madd» bilan aytiladir. Bu esa bizning shevamizda yo'qdir.

SOFLIK

Uslubda *soflik* so'z tuzushda, gap tuzushda yotchilik ko'r-satmaslik, asarda yot so'zlar yo eski onglashilmas so'zlarni kirgizmaslik, yot tillarning nahviy qo'idalarig'a qarab gap tuzmaslikdir.

O'qig'uchilarning qaysilarikim, tirishmaylar o'z bilimlarini ortdira olmaslar deganimizda gapning tuzulishi o'rus-chaning gap tuzulishiga ergashgan, uning ta'siri bilan bo'lgandir. Buning to'g'risi: *Tirishmayturg'an o'qig'uchilar o'z bilimlarini orttira olmaydilar*, shaklida bo'ladir.

Eski shoirlarimizdan Balxiy Durbekning «Yusuf-Zulayho» kitobidan shu:

Bor edi bir bog' «bamisli Eram»,
Misr azizi sob erdi haram.

Qoldi taajjubda «z-sun'i iloh»,
Yusuf o'shal tevaga aylab nigoh.

«Oqibatul amr zirohi talab»,
«Hittayi Kan'onga» yetishti arab,—

parchasini *«bamisli Eram», «z-sun'i iloh», «oqibatul amr», «zirohi talab», «Hittayi Kan'on»* degan so'z uyushmalari yotchilik bilan tuzilgandir.

Muqimiyning:

To o'zingni mahfilaro qilmading,
Oshiqlarni zor-u shaydo qilmading,

G'ayr az diling sangi xoro qilmading,
Bo'ldi dedim, hargiz parvo qilmading,–

deganida *«mahfilaro»*, *«g'ayr az diling»*, *«sangi xoro»*, *«hargiz»* so'zlarida yotchilik bordir.

Asarda yot so'zlarni kirgizmak, yangidan so'zlar yasamoq ham uslubning sofligiga zarar beradir. Biroq, bu mas'alada ko'b ifrotg'a bormaslik kerak. Bizda adabiyot, ilmiy bir til yangidan yasalmoqdadir. Dunyo o'zgarib turadir. Hayot kundan yangilashib boradir. Yuz yil burung'i ota-bobolarimizning tushlariga ham kirmag'an bir ko'b hodisalar, narsalar maydong'a chiqib turadir. Bular uchun yangi-yangi otlar taqash lozim bo'ladir. Biz bularning otlarini yo yangidan yasaymiz *(uchg'ich, uyushma, boshqarma kabi)*, yoxud yotlardan olarmiz (*elektrik, telefon, poyizd* kabi), yo unitilib ketgan eski so'zlarimizni yangidan tirgizamiz *(quriltoy* kabi). Shul uch yo'l bilan tilimizga yangi so'zlar kirgizishni (soflikni saqlash uchun) qabul etmasak, tilimizni boyimoqdan to'xtatg'an bo'lamiz.

Zamonimizning ilmiy, adabiy maydonig'a kirmak uchun intilmakda bo'lg'an tilimizni boyitmoq uchun o'z sarf, nahvimizga qarab yangi so'zlar yasamoq, burung'i so'zlarimizni oxtarib topib, ishga solmoq lozimdir. Bularning uslub sofligiga zarar berishlari vaqtligina bir ishdir. Bora-bora yangi so'zlar el zamonidan qabul etilib, hayotg'a oshadir, o'zlashadir, uslubga zarari ham yo'qolg'an bo'ladir. Biroq, bularning ba'zilari borkim: bizning shuncha ishlatganimiz bilan-da hayotg'a oshmaydir, ko'bchilik tomonidan qabul etilmaydir.

Mana mundaylarig'a bizning har qing'irliq qilib o'turishimiz yaramaydir. Dunyo o'rnida *ochun*, shahar o'rnida *boliq*, askar o'rnida *cherik* mana shunday so'zlardandir.

OHANG

Yozuvchi-adib so'zlarining musiqiylig'ini ko'zda tutib, eshitishimizda chiroylik ham mavzu'ga munosiblarini tollab quloqqa og'ir kelmayturgan bir tartibda tizishdir.

Navoyining «Layli-Majnun»ida Laylining o'lim kuni onasining yig'lashini tasvir etmak uchun aytilgan shu:

Ko'ksini yoqodek etdi pora,
Kim ko'nglidan urdi o't sharora.

Tirnog'larin chu yuziga qo'ydi,
Tirnoq-tirnog'cha yerni o'ydi.

Deb navha bilan chu tortibon voy,
Kim na og'ir uyqudir, bo'tam, hoy! –

parchasi chindan motam kunlaridagi yig'lash ohangini bergani uchun mavzu'ga munosibdir.

Uslubning ohangini buzaturg'an sabablar:

a) bir tovushning bir gapda daf'alarcha kelishidir: Elbekning shu:

Qor qarshusida qarg'a qag'irlab quvonishda,
Qoqar qanotin qayg'uli, qolmas qaro qishda.
Qot-qot qorinni qayg'usida qolmasa qarg'a,
Qoqmasdi qanotini quruq qo'rquli qarg'a.

b) nahvda qarash belgisi atalg'an[50] «ning»dan uchto'rttasining bir gapda ketma-ket kelishidir: *Uning otasining bog'chasining yog'ochlarini kesganlar. U sening daftaringning qog'ozlarining anchasini yirtqon.*

j) bir so'zning bir gapda necha qatla kelishidir:

Uning so'ziga quloq solmay, so'zini qaytarar edi. Bir qarg'a bir patirni tishlab bir yog'ochga qo'ndi.

OCHIQLIQ

Uslubda *ochiqliq*[51] fikrlar, tuyg'ularni qulay onglasharliq etib ifoda qilmoqdir. Yozmoqdan maqsad fikrlar, tuyg'ularimizni boshqalarga so'z bilan onglatmoq bo'lgach, onglashilmas bir ifodaning maqsadga xilof bo'lg'ani, albatta, aniqdir.

Uslubning ochiqlig'i uchun zararlik bo'lgan hollar shular:

a) uslubning sofligiga zarar bergan hollar (yuqorida o'tti) uning ochiqlig'i uchun-da zararlikdir.

b) necha ma'nosi bo'lg'an bir so'zni eng uzoq ma'nosiga ko'ra ishlatmak ham uslubning ochiqlig'ini buzadir. Navoyining bir maktubidan shu: *«Duoyikim, shito qalbida shito qalbidin dilso'zroq va niyoziykim qish aynida qish aynidin dilpuzroq bo'lg'ay...»* Parchada birinchi *shito qalbi* «qish o'rtasi» demakdir. Ikinchi *shito qalbi* esa «shito» so'zining teskarisi bo'lg'an «otash» demakdir.

Birinchi *qish ayni* «qishning yuzi», ikinchi *qish ayni*

«quyosh» demakdir. Demak, bu parchada soflik bo'lmag'ani kabi ochiqliq-da yo'qdir.

j) to'ldirg'ichlarni ko'paytirib, gapni judayam uzaytib yuborishda uslubning ochiqlig'i uchun ochiq emasdir:

Buyuk inqilobdan burun elimizning bilimsizligini, taassubini, maktabga qarshilig'ini, beglar, boylar, mullolar, xonlar, hokimlarning zulmlarini, gunohsiz urush, sababsiz o'ldirishlarini, elga erkli bir yo'l qo'ymag'anlarini, inqilobdan keyin elda uyg'onish, o'qish, bilim havaslarini, ochilg'an maktablarga kirmak uchun navbat kutib turganlarini, zulm, haqsizliq, taassub egalariga nafrat e'lon qilg'anini, o'z ishlarini idora qilishga iste'dod ko'rsatishlarini bir-biriga qarshilashtirib ko'rganda, ko'ngul shodliklarini qanday qilib tasvir etishdan ojiz qolamiz.

UYG'UNLIK

Uslubda *uyg'unlik* ifoda qilmoqchi bo'lg'animiz tuyg'ular, ma'nolarga ega uyg'un bo'lg'an so'zlarni tollab olmoq, gapni-da fikrimizning ifoda(s)idan ortuqcha uzaytib yubormaslikdir. Bobirning shu ruboyi (to'rtlik)sida uyg'unlik bordir:

Ko'ngli tilagan murodg'a yetsa kishi,
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi,
Bu iki ish muyassar o'lmasa olamda,
Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi.

Fikrning ifodasi uchun kerakligidan ortuq gaplar tizishga misol:

Bu asar shayx Sulaymonningdir,
Bu kitob-u bu lug'ot oningdir.

«Lug'ati Chig'atoy» egasi buxoroli Shayx Sulaymonning shu baytida birinchi misra'dan keyin ikinchi misra'ning hech kerakligi yo'qdir.

Navoyi «ziyofat majlislari tartib et» demoqchi bo'lg'anda:

Unda takalluf bila ahbobni
Chorlar talattuf bila as'hobni,–

deydirkim, ikinchi misra'i ortuqdir.

V. Mahmudiyning «Go'zal yozg'ichlar»dagi «Ko'klam kuni» degan tizimining shu:

Qishning oppoq o'rtukidan iz yo'qdir,
Yozning qizg'in quruq chog'i uzoqdir,
Yurtimizning sevikli chog'i bu chog'dir,
Yozning issiq, qishning sovug'i uzoqdir,—

parchasida to'rtinchi misra' birinchi, ikinchi misra'ning aytganini qaytib aytmak istagani uchun ortuqchadir, keraksizdir. Sevikli shoirimiz Cho'lponning «Navro'z kunida» unvonli she'rining shu:

Xira, uchqon, kirli, kuchsiz dillarga,
Yorug', yog'du turmish sepgan yangi kun,—

degan parchasida *yorug'* so'zidan keyin *yog'du* so'zi ortuqchadir. Uyg'un so'zlikning ortuqchalik qismini hikoyalar, ro'monlarda ham uchratmoq mumkindir. Negakim: sevgili shoirimiz Cho'lponning «Qor qo'ynida lola» degan go'zal bir hikoyasi bor. Bu hikoyada uch ko'rinish bilan anglatmog'i kerak bo'lg'an narsalarni onglatg'an, tilak hosil bo'lg'an, har kim «Qor qo'ynida lola»ning nima ekanini bilib olgan ekan, yana bir to'rtinchi ko'rinish orttirib iki yigitni ko'chaga chiqarib, qorovul tilidan ularga qaratib «Qor qo'ynida lola»ning ma'nosini onglatmoq ortuqcha bir ish bo'lg'andir.

USLUBNING XUSUSIY HOLLARI

Adabiy-she'riy uslublarda ishlatilgan, uslubni bezatishga xizmat qilg'an hollarg'a *uslubning xususiy hollari* deymiz. Uslubning xususiy hollari shulardir:

SUFATLASH

Tasvir etmak istaganingiz bir narsaning suratini ko'z oldiga keltirmak uchun u narsaning sufatlarini, hollarini qatorlab tizish *sufatlash* bo'ladir.

Yumshoq maysalar ichida kichginagina, pakanagina, yumshoqqina bo'lib gul (binafsha) o'sgan («Binafsha»ning ruschadan tarjimasi).

Kuchsiz, titrak, oppoq, kichik tomchilar
Turmay, tinmay tuproq uzra yog'adir[52]. *(F.)*

O'XSHATISH

Bir sufatda, bir holda o'rtoq bo'lg'an iki narsani birbiriga cholishtirish adabiyot tilida o'xshatish bo'ladir: *Ahmat arslon kabi boturdir, uning so'zi olovdek* deganimizda Ahmat-

ning botirlik sufatida arslon bilan o'rtoqlig'ini: uning so'zini o'tkirlikda olov bilan o'rtoqlig'ini bilgan bo'lamiz. Har o'xshatish aytimida to'rt narsa bor[53]: *o'xshag'an (Ahmat), o'xshatilg'an (arslon), o'xshatish qaydi (kabi, -dek...), o'xshash (boturdir)*. Bizning tilimizda o'xshatish qaydlari shulardir: *kabi, -dek, -day, yanglig', o'xshash, singari.*

Arslonday yurakli,
Tog' kabi gavdasi,
Olovdek so'zi,
Temir o'xshash qo'li,
Ko'zgu singari ko'ngli bordir.

O'xshatish aytimining to'rt turli aytilishi bor:

1. *Ahmat arslon kabi boturdir* (to'rt narsasi bordir).
2. *Ahmat botirlikda arslondir* (o'xshatish qaydi yo'q).
3. *Ahmat arslon kabidir* (o'xshashi yo'q).
4. *Ahmat arslondir* (o'xshash ham, o'xshatish qaydi ham yo'q).

Mana shul to'rtinchi yo'suni o'xshatish aytimining eng kuchlisidir. Tubandagi tizmalarda turli o'xshatishlarning o'rnaklari bordir:

Qul yanglig' o'g'ullig'ingni qilsam,
O'g'ul kabi qullug'ingni qilsam.

Rasta kabi pech-u tobing o'lg'ay,
Parvonadek iztirobing o'lg'ay.

Mandaki, ichim g'amingda qondur,
Sengaki, g'aming tanamda jondur. *(Navoyi)*

Toshqariyi garchi palangi edilar,
Lek suv ichra nahangi edilar.

Dedikim, ubi kabi o'lgumdur,
Dahring shohidin kulgumdir.

O'zlari so'zlari yanglig' bori rost,
So'zlari o'zlari yanglig' bori rost.

(«Shayboniynoma»dan)

O'xshatishning chiroyli chiqishi uchun zo'raki, yasama o'xshatishlardan qochinma qo'llanishdir.

Xorazmlik Komilning:

Alifdek tuz qad-u nundek qoshing hijronidin har dam
Tafakkur birla gah nundir qadim, gah o'ylakim yodur.

Jonbaxsh la'ling ustida ul xoli hindularmidur,
Yo chashmai hayvon uza zog' siyah mu(g')larmidur? –

degan baytlarida sevgilining qadini alifg'a, qoshini nung'a, og'zini buloqqa, xolini qarg'aga o'xshatish odamning tabiatini aynitg'uchi o'xshatishlardandir.

Bizning burung'i shoirlarimizning hammalari bu baloga yo'liqqonlar, hatto eng buyuk sanag'an san'atkor shoirlarimizdan Navoyi ham:

Ermas uchuq, shakarga yopishmas chibin biri,
Iki labim bila oni olsam dudog'ingdan,–

deb o'runsiz bir o'xshatish natijasida ko'ngul aynitg'uchi bir fikr beradi.

O'xshatishning yolg'uz bir narsa bilan bir narsa orasida bo'lishi lozim emas, bir hay'at bilan bir hay'at orasida ham bo'la beradi. Cho'lponning Rabindranat Tago'rdan tarjima qilgani «So'ba» otli hikoyaning shu bo'lagiga bir hay'at bir hay'atga o'xshatilg'andir: *Lekin otasi o'z bo'ynida sovuq bir tosh bo'lsa-yu o'shandan qanday jirkansa, o'zining shu qizidan ham shunday jirkanar edi.*

Tago'r munda tilsiz bir qizidan otaning jirkanishini uning *ziynat uchun o'z bo'yniga osilg'ani sovuq toshdek jirkanish*ga o'xshatg'andir.

ISTIORA

Bir so'zning o'z ma'nosidan boshqa bir ma'no uchun ishlatilmakidir. Shul shart bilankim, u so'zning o'z ma'nosi bilan yangi ma'nosi orasida bir turli o'xshashlik bo'lsun. Ko'chada juda botur bir yigit bilan gaplashib qaytg'an kishi *Bukun men bir arslon bilan gaplashib qaytdim,* desa uning shu aytg'anida *istiora* bordir. Chunki, arslon so'zidan o'z ma'nosi emas, orada o'xshatish borlig'i uchun botur yigit onglashiladir.

Istiorada ham asos o'xshatishdir. Biroq, istiorada o'xshag'an va o'xshatilg'an aytilmaydir. Mana shunga ko'ra istiorani ikiga taqsim qiladirlar. Biri ochiq istiora, ikinchisi yopiq istiora. Ochiq istiora o'xshag'an o'rnida o'xshatilg'an aytiladir. Oldov-

chi bir kishi bilan ko'rushmak istaganimizda *U shayton bilan menim hech ishim yo'q* desangiz, ochiq istiora qilg'an bo'lursiz, so'ngra o'xshag'an kishi o'rnida «shayton»ning o'zini qoldirasiz.

Kechagi «qaynashlar» pasaygan bo'lsa-da,
Kechagi hujumlar susaygan bo'lsa-da.

Borliqning chokini so'kma,
Og'uli ko'z yoshi to'kma,
«Yosh gul»ni yerga bukma,
Kel, emdi yashnab o'saylik,
Kel, emdi birga kulaylik.

Botuning yuqoridag'i she'rlarida qaynashlar, tebranishlar uchun, «yosh gul» do'stining bo'yi uchun ochiq istiora yo'li bilan ishlatilg'andir.

«Yopiq istiora»da o'xshatilg'an o'rnida o'xshag'an qoldiriladir-da, o'xshatilg'anning ba'zi hollari bunga taqiladir: *Bundan o'n-o'n besh yil yurtimiz, elimiz istibdodning qonli panjalari ostida inglardi,* deganimizda istibdodni yirtg'uvchi hayvonning qonli tirnoqlarini istibdodga taqab qo'yamiz. Mana bu yopiq istioradir.

Yoqimli shamol meni sevib, yumshoqqina «o'padir».

Borliqning chokini so'kma,
Kel, emdi «yashnab» o'saylik.

Mana bu gaplarda *shamol* bir kishiga o'xshatilg'an, yana shamolning o'zi gapda qoldirilg'anda kishi ishlaridan bo'lg'an *sevib o'pmoq* holi unga taqilg'an.

Borliq bir kiyimga o'xshatilg'an, shoir o'zi bilan o'rtog'ini yulduzg'a o'xshatg'an. Biroq, o'xshag'anlarni o'zlarini gapda qoldirg'anda o'xshatilg'anlarning hollarini ularga taqab qo'yg'an.

Istiora ham o'xshatish kabi bir so'zdagina emas, bir hay'atda ham bo'ladir. Cho'lponning go'zal bir hikoyasi boshida yozilg'an «Qor qo'ynida lola» aytimi mana shundaydir. Munda «eshon», «qiz» ham «nigoh» uchun, «qor», «lola», «qo'yin» so'zlari istiora etilgandir. Istioraning bulardan boshqa yana bir turlisi bor, «o'xshag'an» bilan «o'xshatilg'an»ni yondashtirib qo'yamiz. Go'yo o'xshatilg'an qarashliq bir narsa ekan kabi ikisidan bir qarash uyushmasi (izofiy jumla) yasaymiz: *Inqilob quyoshi, umid yulduzi* kabi aytimlarning hammasi nahvga ko'ra qarash uyushmasi (izofiy jumla)dir.

Inqilobni «quyosh»g'a, *umid*ni «yulduz»g'a o'xshatg'andan so'ng o'xshag'an bilan o'xshatilg'anni «qarash uyushmasi» shaklida bir-biriga boylab aytganimiz uchun bularga «qarash istiorasi»[54] deymiz. Qarash istiorasida o'xshatilg'anning o'zi emas, uning bir sufati, bir holi qoldirilsa bo'ladir: *Inqilob nuri, umid yog'dusi, zulm tirnog'i, o'lum panjasi* kabi tubandagi o'rnaklarda qarash istiorasi bordir:

Qora o'tmish changalidan qutulib,
«Erk chechagi» taqa olg'an kuchli qiz.

Tengsizman degan «zulmat tirnog'i»,
Bo'g'uq faryodlar yiqa olg'animi?
«Turmush dengizin» shamol qo'zg'atsa,
Sen ham ko'zingga yosh to'ldirmag'il.

Yana yig'i, o'luklarga sajda qilish boshlandi,
Yana «umid yuragi»ga nishtar uchi tashlandi.

«Umid buyrug'in» ijro etaman,
«Tilag yurtiga» tezdan yetaman.
Biz «borliq bag'ri»da qarshi kuch, unutma.
(Botu)

Istioraning turli o'rnaklarini Saydalining «Tabiatda bahor»idan oling'an shu parchada ko'rmak mumkindir: *Tabiat chechaklar bilan bezanadir, bayram qiladir. Turli chechaklar quyoshg'a qarab quvonch bilan lablarini jilmaytiradirlar. Biroq, mening ustimga esa qo'rqunch, qora bulutlar har nafasda guldurlab, olov chaqnatadirlar. Bag'rimda yoqqon o'tli yog'murlar iki ko'zimdan iki vulqon kabi qaynab chiqadir, meni botiradir, eritadir. Borlig'im qo'rqunch bo'ronlar orasida qolmish izla(r)dir.*

KINOYA

Kinoya shunday bir so'z yo bir gapdirkim, yozuvdan yaqin onglashilg'an ma'no yo fikrdan boshqa yana bir ma'no va fikrni onglatadir-da, maqsad ham shul ikinchi onglatg'ani ma'no va fikr bo'ladir.

Sinalmag'an otning sirtidan o'tma deganimiz gap bir kinoyadir. Chunki, buning o'zidan yaqin onglashilg'an fikrdan boshqa «sinalmag'an kishilar bilan ishlama» degan fikrni ham bildiradirkim, maqsad ham shudir.

El gaplari (matallari) orasidan:

Bo'zchi belboqqa yolchimas.

Eshak bir tanga, to'qum ming tanga.

Chumchuqni ham qassob so'ysun,—

kabi ko'blari kinoyali gaplardir.

Saydalining «Qarg'alarning zori» degan sochimi kinoyaning eng chiroylik bir o'rnakidir. Elbekning ham hikoyalari orasida go'zal kinoyalar bordir.

Arabcha *ta'riz*[55], o'zbekcha *nisham-piching-uchuruq* atalg'an bir yo'sun gaplashish (tosh otib gapirmak kabi) borkim, adabiyotda kinoyaning bir bo'lagi sanaladir.

O'zbek xoni Shayboniyxonning O'rta Osiyoni chig'atoylardan tortib olg'ani to'g'risida «Shayboniynoma» otli bir doston yozilg'an. Muhammad Solih o'zining dostonida Sulton Husayn Boyqaroning o'z o'g'illarini Hirot shahriga chaqirib, Shayboniyg'a qarshi kengash majlisi qilg'anini yozg'anda ko'b usta pichinglar otib o'tadir:

Bu kunlarda chig'atoylarning eng ulug'l bo'lg'an Sulton Husayn Boyqaro o'zbek xoniga qarshi birlikda harakat qilishni lozim ko'rub, o'g'ullariga kishi yuboradir:

Chun bu so'zlarni dedi ul Mirzo[1]*,*
Soldi o'g'lonlari ichra g'avg'o.

Bordilar begonalari bu so'z ila,
Choptilar ot bori bu so'z ila.

Dedilar so'zini o'g'lonlarig'a,
Yetkurub borchalarin jonlarig'a.

Borcha so'zini qabul ayladilar,
Otlarining sirtidan siyladilar[57]*.*

Chopibon borcha Hiriy[2] *bordilar,*
Otaning ko'nglini oxtardilar.

Balxdan «Shoh Zamon»i keldi,
Munisi, ruhi ravoni keldi...

Ham Abul Muhsiniy Marviy keldi,
Marvning arar-u[3] *sarvari keldi.*

Bordi Mashhaddan anga Shoh Ko'pak,
Kim, bo'lay, «Chin So'fi»ga[4] *banda ko'mak...*

[1] **Mirzo** – Husayn Boyqaro.
[2] **Hiriy** – Hirot demakdir.
[3] **Arar** – oq tol, sarv, bir yog'och.
[4] **So'fi** – shul zamonlarda Xiva hokimi bo'lg'an bir kishi.

Yig'ilib keldi, base, yaxshi-yomon,
Kepag-u arpo-yu bug'doy-u somon!..

MAJOZ

Bir so'zni o'z ma'nosidan boshqa bir ma'no uchun ishlatmagidir. Shul shart bilankim, bu iki ma'no orasida o'xshatishdan boshqa bir turli yaqinlik, baylanish bo'lsun. Bir kimsaki *Boshing omon bo'lg'ay* deganda tilagimiz uning o'zining omon bo'lishidir. Boshi uning bir muchasi (a'zosi) bo'lg'ani uchun *bosh* so'zidan uning o'zini onglaymiz.

Botuning qalami yaxshi. Navoyini ko'b o'qiyman. Majlis so'ngida qaror bergan. Inqilob Ivan bilan Karimni o'rtoqlashtirdi deganimiz gaplarning hammasi majoz bilan aytiladir.

Adabiyot muallimlaridan ba'zilari majozning chin ma'nosi bilan yangi ma'nosi orasida bo'lg'an yaqinliqning nima ekanini ko'zda tutib, majozning turlarini ko'rsatmakchi bo'ladir. Bu ortiqcha bir ishdir, mas'alaning muhim jihati mana budir:

1. Iki so'zning har birini o'z ma'nosida qoldirib, birbirlariga o'xshatilib aytilsa, o'xshatish bo'ladir.

2. Bir so'z o'zining chin ma'nosidan olinib, shunga o'xshag'an boshqa bir ma'noda ishlatilsa, istiora bo'ladir.

3. Bir so'z o'zining chin ma'nosidan olinmay shunga o'xshag'on bir ma'noda ishlatilsa, kinoya bo'ladir.

4. Bir so'z o'zining ma'nosidan olinib, shunga o'xshatishdan boshqa nima bo'lsa mayli, biroq onglashilarlik bo'lsun.

JONLASHTIRISH

Insondagi darajada tirikligi bo'lmag'an narsalarga, jonivorlarga insondag'i tiriklikning hollarini, sufatlarini taqmoqdir. Jonsiz narsalarni jonli ko'rmak, qushlar, jonivorlarni kimsalar o'rnida tushunib, o(n)lar bilan gaplashmak, og'ir qayg'ular, kuchli tuyg'ular, dengiz to'lquni, qon qaynashi zamonlarida bo'laturg'an bir ruhiy holatdir. Mana shu ruhiy holatlarni tasvir etmak istagan qalamlar, samimiylikdan chiqmasalar ifodalarig'a kuchli ta'sir bergan bo'ladilar.

Elbekning shu she'rida:

Bir zamon ko'klarga qanot qoqqan bu
Sevgili, muhtasham haybatli bino,
Yemrilish soatin kutganday bo'lub,
Ko'runur ko'zga qayg'ulig'ina[57].

Cho'lponning shu she'rida:

Kichkina ariqning pastak shovvasi
Mana, tovush bilan shovlab turadir.
«Ey, qo'pol shaharning janjal, g'ovg'asi,
Tola bo'ylarida men bormen» deydir.

Bibixonim madrasasining xarobalarida *ko'klarga qanot qoqqan kuchli bir qushning yemirilish, yiqilish daqiqalarini kutub turg'anidag'i qayg'ularini* ko'rmak...

Dalada oqib turg'an kichkina bir oriqchaning tovushidan *shaharning qo'polliklarig'a, janjal, g'avg'olariga qarshi ko'tarilgan ma'sum bir ruhning mayin tovushlarini* eshitmak jonlashtirish san'atining chiroylik o'rnaklaridir.

Navoyi «Layli-Majnun» dostonida bir bog'da Laylining oyog'i ostiga essiz yiqilg'an Majnunning, Layli ketgandan keyin esa o'ziga kelib ko'z ochqonin, bog'dagi gul, bulbul, yog'ochlarining unga qayg'udoshliq qilg'uchilar kabi ko'rgan tasvir qiladirkim, bu jonlashtirish san'atining jonli bir o'rnakidir:

Gulshan aro Qays[1] *hushidan fard*[2],
Yotib edi yerda o'ylakim gard[3].

Ham mag'zida[4] *hushdin xabar yo'q,*
Ham jismida ruhidin asar yo'q.

Yorim kecha kim nasima gulbez[5],
Bo'ldi chaman ahli uzra gulrez[6].

Gul atri[7] *dimog'iga solib xush,*
Ochti ko'zin ul g'aribi madhush[8].

Ko'rdi o'zini chaman ichinda,
Sarv-u gul-u yosuman ichinda[9].

---

[1] **(Qays)** – Majnun ismi.
[2] **(Fard)** – hushdan ayrilg'an.
[3] **(Gard)** – to'zon.
[4] **(Mag'zi)** – miya.
[5] **(Gulbez)** – gul hidli shamol.
[6] **(Gulrez)** – gul sochguchi.
[7] **(Atr)** – hid.
[8] **(Madhush)** – essiz.
[9] **(Sarv)** – bir yog'och.

Bulbul boshi uzra nag'mapardoz[10],
Ahvolig'a navha[11] *aylab og'oz.*

Gul holig'a chun nazora[12] *aylab,*
Gulgun yoqosini pora aylab.

Chun ko'ksida hajrdan ko'rub dog',
Ko'ksi uzra lola kuydurub dog'.

Topib chu vuquf[13] *bu azog'a,*
Ashjor[14] *alam*[15] *chekib havog'a.*

Sunbul qilibon qaro uzorin[16],
Ochib qaro zulfi mushkborin[17].

Dardig'a oqan su(v) zor yig'lab,
Un tortibu so'g'vor[18] *yig'lab.*

SO'RASH

Shoir-adib umidsizlik, shoshqinlik, qizg'inlik, kuchli bir qayg'u kabi hollarga tushg'anda o'zining tuyg'ularini uzil-kesil qilib onglata olmaydur-da, «umidir?», «bumidir?», «nechun bunday?» kabi so'rog'larni qatorlab o'tadir. Bu ustalik bilan chinlikni yo'qotmasdan ishlansa, kuchli tuyg'ularni onglatish uchun chiroylik bir yo'ldir:

Boqmas menga janona, ajab holat emasmu?
Bo'ldi yana begona, ajab holat emasmu? *(Lutfiy)*

Adabiyot muallimlari uslubning xususiy bezaklari qatorida «bilmaslikka solish» (tajohuli orif) deb ayricha bir bezatishdan gapuradirlar. «Bunday shoir bilgani bir narsani go'yo hech bilmas emish kabi u to'g'rida so'rog'lab qotarlab ketadir», deylar. Cho'lponning mana shu she'ri «bilmaslikka solish» uchun kuchli bir o'rnakdir:

Bir-iki yaxshi so'z aytdik,
Holimni onglag'aningmi?

---

[10] **(Nag'mapardoz)** – musiqiy cholg'uchi, ashulachi.
[11] **(Navha)** – yig'i-sig'i.
[12] **(Nazora)** – qaramoq.
[13] **(Vuquf)** – onglamoq.
[14] **(Ashjor)** – yog'ochlar.
[15] **(Alam)** – bayroq.
[16] **(Uzor)** – yuz.
[17] **(Mushkborin)** – mushk sochuvchi.
[18] **(So'g'vor)** – motam tutmoq.

Ko'zlarni qayg'uli artdik,
Holimg'a yig'laganingmi?
Yotliklar bitdimi endi?
Ortuq men senga yaqinmi?
Qarg'ashlar kettimi endi,
Oldimmi eski haqimni?
To'ydirg'ich qop-qora tunlar
Yopqichni oldimi bizdan.
Yurgaymi yog'duli kunlar,
Sen bosqon sevginimi izdan?..
Ko'klamning oldini to'sqon
Zulmatlik qishmi yiqildi?
Bo'ynig'a lolalar osqon
Ko'klamni o'rniga keldi?
Ko'nglimga sirli qoqilg'an
Ko'nglimning sharpasidirmi?
Yo ko'kda yanglish otilg'an
Bir yulduz kurrasidirmi?

Bir so'zla, birgina so'zla,
Qoldirma shubha ko'ngulda!

(1922-yil 22-iyul)

Biroq, mening fikrimcha, bu so'rashdan boshqa narsa emas. Buni uslubning ayri bir bezagi deb ko'rsatish to'g'ri bo'lmaydir.

MUBOLAG'A

Tuyg'ularimizdan birining juda kuchli ekanin bildirmak, uni bo'lg'anidan biroz orttirib ko'rsatmakka *mubolag'a* deymiz.

Mubolag'a chin (samimiy) bo'lsa, judayam oshirilib yuborilmasa, zo'raki, yasama bo'lmasa, tuyg'ulardag'i kuchlilik-o'tkirlikni onglatishga katta yordam qiladir. Katta bir baxtsizlikka uchragan kishining «Oh, yondim, bittim!» deyishi mana shunday chiroyli mubolag'alardandir.

Navoyining:

Tirnoqlarin chu yuzga urdi,
Tirnoq-tirnoqcha yerlar o'ydi,—

baytida ham chiroyli mubolag'a bor. Eski adabiyotimizda «falaklar yondi ohimdan... ko'z yoshim sel bo'lub dunyoni bosti...» ruhida yozilg'an she'rlar zo'raki, yasama, sovuq mubolag'alardandir.

Ko'z yoshim chu daryo, har taraf obi ravonim bor.
(Zaliliy)

G'am tuni bilmam shafaqdir[1] yo falak mir'otida[2]
Aks ko'rgazgan ko'zimning la'lgun[3] yoshimidur.
(Navoyi)

Qayg'uli kechalarda, ko'kda qizorg'an bulutni ko'rgan, *bu mening ko'zimdan oqqan yoshning aksidir, onda ko'rinadir,* demak yanglish mubolag'alardandir.

UNDASH

Tuyg'ulardag'i to'lqunlarni ko'rsatib, o'quvchini qaynatmak uchun bo'lg'an qichqirib undamaklarga adabiyotda *undash* deyiladir.

Navoyi «Layli-Majnun» dostonida Majnunning qayg'uli bir holini tasvir qilib bo'lg'andan so'ng o'zi qaynab ketadirda zamonga qarshi:

Ey zoli zamona[4], dod, faryod,
Atfolingg'a[5] necha zulmi bedod.

Bu haynikim halok etarsan,
O'z bag'ring erurki, chok etarsan, –

deb qichqiradirkim, bu undashning go'zal bir o'rnakidir. Saidalining «Tabiatda bahor»ida undash, so'rash bezaklari juda yaxshi ishlatilgan: *Ey, tabiat, bu nechun?! Nega sen kulasan-da, men yig'layman?! Men-da sening bir uchquning, men ham sening bir bo'laging emasmi?! Yo'q... Sen zolim! Sening qiynog'ingga mening borlig'im chiday olmaydir! Ey, mehrsiz ona, bolalaring qayg'u tengiziga botg'an ekan, sen bayrammi qilasan?! Onaning ishimidir?! Bolalaring ezilsun, bir tizim non topolmasdan zor-zor yig'lasun, turli balolarg'a uchrasun-da, sen kul! Ona uchun bu ish mumkinmi?! Sen bularning holini bilmaysanmi? O'z quchog'ingdag'i hollardan xabarsizmisan?!..*

QARSHILIK

Qarshi bo'lg'an fikrlar ma'nolarini ustalik bilan bir-biriga boylab yondashtirishga *qarshilik* deyiladir:

[1] **Shafaq** – quyosh botarda qizorib ko'rungan bulut.
[2] **Mir'ot** – ko'zgu.
[3] **La'lgun** – qizil.
[4] **Zoli zamona** – kampirga o'xshagan zamona.
[5] **Atfol** – bolalar.

Yorug'likni sevaturg'an bizning tinuq ko'nglimiz
Qachong'acha qorong'ular ichra qolar bo'g'ulub.
(Botu)

Yuz yomonlig' ko'rib ondin telba bo'ldung, ey ko'ngul,
Yaxshiliqni ko'z tutarsan ul parivash[6] *din yana.*

Men necha jafo-yu javringga sabr etay,
Bir zarra vafo-yu mehr yo'q senda, netay.
Chun boshim oyog'ingg'a qo'yarg'a yaramas,
Boshimni olib oyoq yetkuncha ketay.
(Bobir)

Mana bu yuqoridag'i she'rlardagi *yorug'li-qorong'u, yomonlig'-yaxshilik, jafo-vafo, javr-mehr, bosh-oyoq* so'zlari orasida qarshilik bor. Bularni yondashtirmoq adabiyotda qarshilik bo'ladir. Biroq, bu ko'rganlarimiz so'zdagina qarshilikdir. Holbuki, qarshilikning eng yaxshisi «fikr»lararo qarshilik yasashdir. Cho'lponning «Men va boshqalar»ida (shunday) qarshiliklar bor:

Men va boshqalar

Kulgan boshqalardir, yig'lagan menman,
O'ynag'an boshqalar, ingrag'an menman,
Erk ertaklarin eshitgan boshqa,
Qullik qo'shug'un tinglag'an menman...
Boshqada qanot bor, ko'kka uchadir,
Shoxlarg'a qo'nadir, bog'da yayraydir.
So'zlari sadafdek, tovushi naydek –
Kuyini ham har yerda, elga sayraydir.
Menda-da qanot bor, biroq bog'lang'an...
Bog' yo'qdir, shox yo'qdir, qalin devor bor.
So'zlari sadafdek, tovushi naydek
Kuyim bor... uni-da devor tinglaydir.
Erkin boshqalardir, qamalg'an menman,
Jonivor qatorida sanalg'an menman. *(Cho'lpon)*

Bobir Mirzoning:

El borcha pushaymon bo'lar, tavba qilar,
Men tavba qilibman, pushaymondirman,–

degan baytida ham fikriy qarshilik bordir.

Qarshilikning o'rtog'i bo'lg'an boshqa bir uslub bezagi

[6] **Parivash** – pariga o'xshagan, chiroylik.

borkim, *yaqinlik (tanosib)* ataladir. Bu gapda bir-biriga yaqinlig'i (munosabati) bo'lg'an so'zlar tuziladir. Saidaliningning «Tabiatda bahor»ida bahor bilan yaqin bo'lgan *chechak, quyosh, bulut, guldirlash, chaqnatish, yog'mur, bo'ron* kabi so'zlarni tizgani adabiyot istilohicha yaqinlik (tanosib)dir.

QAYTISH (RUJU')

Shoir-adib o'z tuyg'ularini onglatib turg'an chog'da, go'yo birdan ifodalashning yetishsizligini bilgan bo'lub, burung'i so'zidan qaytadir-da, undan kuchlirak bir ifoda bilan so'ylaydir. Bunga *qaytish* deyiladir:

Yig'lab turdim, yig'lab turdim emas, unda tiyrak o'ldim.
(Elbek)

Qiz o'zining poyonsiz yolg'uzligining eng oxirli hadlarig'acha yitib qolg'an, yo'q, balki u haddan oshib o'tib ketgan.
(«So'ba», Cho'lpon tarjimasi)

Ko'ngil aro hushdin xabar yo'q,
Ne hushki, ko'ngildin asar yo'q.

Har bir mong'ishida bir latofat,
Yo'q, yo'qki, sochib jahonga ofat. *(Navoyi)*

Azm ayla, sabo, ul guli xandonimg'a,
Ne gulki, quyoshdek mohi tabonimg'a. *(Navoyi)*

Ko'rilarkim, qaytishda so'ngrag'i fikrning burung'i fikrdan kuchli bo'lishi lozim. Shunday bo'lmag'ach, qaytishning ma'nosi qolmaydir.

Navoyining:

Bo'lmasa ishq, iki jahon bo'lmasun,
Iki jahon demaki, jon bo'lmasun,—

deganidag'i qaytish mana shunday keraksiz qaytishlardandir. Chunki, bu *iki jahon bo'lmasun* deganiga rozi bo'lmay, *yo'q, jon bo'lmasun*, deydir. Holbuki, ikinchi fikri birinchi fikridan kuchsizdir.

KESISH

Insonda ba'zi fikrlar, tuyg'ular bo'ladikim, ularni bildirmak uchun so'zlagan so'zlar haligilarning ta'sirini yo'qotmoqdan boshqa bir foyda bera olmaydi. Odatda ham

«men bu fikrimni onglata olmayman, buni onglatmoq uchun so‘z yetishmaydir», deganimizda shunday fikrlar, tuyg‘ulardan xabar beramiz. Mana shunday fikrlar, tuyg‘ular to‘g‘risida ortuqcha so‘zlamakning foydasiz bo‘lg‘anini sezgan shoir birdan so‘zini kesadir, o‘zini so‘ylashdan ojiz qolg‘anin onglatmoq yo‘li bilan tuyg‘ularning kuchini ko‘rsatmak istaydir. Bunga adabiyot tilida *kesish (qati')* deyiladir.

Yana bir kun ko‘k ko‘kragini ochib,
Kula-kula bunlar sori boqqanda.
Yana bir kun qizlar kabi tabiat,
Qulog‘iga oltin halqa toqqanda.
Bular butun muchmoqlardan ayrilib,
Ko‘klar sori qarab, uchib ketalar.
Yana uchish, yana o‘yun, yana erk...
Oh, u kunlar...

BURILISH

Bir narsaga undab yo uni tasvir qilib, o‘z tuyg‘ularini yozib turg‘an shoir birdan so‘zning borishini boshqa tomonga burub qo‘ysa, munga *burilish* deyiladir.

Saidali o‘zining «Tabiatda bahor»ida: *Tabiat chechaklar bilan bezanadir, bayram qiladir. Turli chechaklar quyoshg‘a qarab quvonch bilan lablarini jilmaytiradirlar. Biroq, mening ustimga esa qo‘rqunch, qora bulutlar har nafasda guldurlab olov chaqnatadirlar. Bag‘rimda yoqqon o‘tli yog‘murlar iki ko‘zimda iki vulqon kabi qaynab chiqadir, meni botiradir, eritadir. Borlig‘im qo‘rqunch bo‘ronlar orasida qolmish izla(r)dir* degandan so‘ng birdan so‘zini burib: *Ey, tabiat, bu nechun, nega sen kulasan...* deb qichqiradir, undaydir-da, bizga burilishning go‘zal bir namunasini beradi. Navoyi «Layli-Majnun» dostonida Majnunning foji'ali hollaridan birini tasvir qilg‘andan keyin birdan so‘zini tabiatga, zamonga qarab buradir-da:

Ey zoli zamona, dod, faryod,
Afoling‘a necha zulmi bedod!

SO‘Z O‘YUNLARI

Arab-eron adabiyotidan ta'sirlanib maydong‘a chiqqan burung‘i adabiyotimizning juda ahamiyat bergani *so‘z o‘yunlari (lafziy san'atlar)*dir. Bularga «san'at» demakdan «o‘yun» demak

to‘g‘riroqdir. Fors shoirlarining buyuk bir qismi adabiyotdan, she’rdan maqsadlari tuyg‘ularni, voqealarni, ruhiy hollarni tasvir etmak, chizib ko‘rsatmak emas edi. Aqlsiz mubolag‘alar, tabiatdan tashqari o‘xshatishlar, bir so‘zni iki ma’noda, iki so‘zni bir ma’noda ishlatishlar, so‘kushdanda qabohatli bo‘lg‘an maxtashlar bilan ovora bo‘lmoq ular uchun ulug‘ adiblik, buyuk shoirliq sanalar edi. Bir kishining bolasi o‘lsa yo xotuni tuqsa, bir kishi bir mansabga erishsa, uy, madrasa, saroy, havuz, hammom yasasa, zamonning eng katta shoirlari shunga ta’rix yozib taqdim qiladirlar edi. Bularning adabiyot bilan, she’r bilan munosabati bo‘lmag‘an so‘z o‘yunlari ekanini onglamoq istamaganlar bor kuchlari bilan shularg‘a berilganlar. Bizning o‘zbek-chig‘atoy shoirlari fors adabiyotining mana shu yasama san’at o‘yunlariga berilgan fors shoirlarini taqlid etib, ko‘b asarlar yozg‘anlar. Biroq, bu yo‘lda fors shoirlari darajasiga erisha olmag‘anlar. O‘zlarining adabiy kuchlarini, adabiy iste’dodlarini tekingina sovurub qo‘yg‘anlar! Bu so‘z o‘yunlarining bu kungi adabiy qarashga ko‘ra yarim chaqali ahamiyati yo‘qdir. Shunday bo‘lsa ham burung‘i adabiyotimiz tanishmoq istaganlarga, albatta, yarag‘anini bilganimiz uchun kitobxonimizga bulardan ham biroz gapurub o‘tmakchi bo‘ldum:

Tajnis

Ma’noda boshqa bo‘lub, yozilishda, aytilishda bir-biriga o‘xshag‘an iki so‘zning bir misra’da yo bir baytda sig‘dirishga *tajnis* derlar.

Bobirning:

Yoz bo‘ldi-yu bo‘ldi yana jannat kabi yozi,
Xush ul kishi kim aysh ila o‘tgan qish-u yozi[58].

Do‘stlar, ko‘nglumdag‘i qabrim toshiga yozg‘aysiz!
Toki birdek bo‘lgay ul oy ishqida ich-u toshim,—

degan baytlarida *yozi, tosh* so‘zlari tajnis o‘yuni bilan aytilgandir. Navoyining shu tuyug‘ida ham tajnis o‘yuni bor:

Yo Rab, ul shahd-u shakar yo labmidur?
Yo magar shahd-u shakar yolabmidur?
Jonima payvasta o‘qin otqali
G‘amza o‘qin qoshig‘a yolabmidur?

Laffu nashr[59] (Yig'ib tarqatish)

Bir gapda, bir baytda iki-uch narsaning ismlarini qator tizib, andin keyin ularga bog'li hollarni shu tartib bilan qatorlamoqqa *laffu nashr (yig'ib tarqatish)* derlar: *Gullar, bulbullarning bog'chani to'ldirgan hid, tovushlari meni qayg'i dunyosidan uzoqlashtirg'an edi*, deganimizda *gullarning hidi, bulbullarning tovushi* demasdan, «gullar, bulbullar» degandan so'ng ularning «hid, tovushlari»ni qatorlaymiz.

Amirning:

Lab o'gur takallumga, zulfingni parishon qil,
Qand qiymatin sindir, narxi anbar arzon qil[60],—

degan baytida yig'ib tarqatish bor.

Fazliyning:

Orazing bila zulfing bog' aro namoyon qil,
Lola birla sunbulni dog' etib parishon qil,—

baytida iki qabatliq yig'ib tarqatish bor. Fazliy boshlab *oraz* (yuz) bilan *zulf*ni qatorlab tizadir, so'ngra *oraz* to'g'risida *lola, zulf* to'g'risida *sunbul*ni tizadir, ondin keyin *dog' etib parishon qilishni lola bilan sunbul*ga bog'laydir-da, *lolani dog' etib* gapini *oraz*g'a, *sunbulni parishon qil* gapini *zulf*g'a bog'laydir.

Saj'

Tizimda qofiya nima esa, sochimda *saj'* shudir. Bir maqola, bir hikoyada gaplarning oxirlaridag'i so'zlarning bir turli ohangli bo'lishlaridir. Arab adabiyotida saj'ning e'tibori juda kattadir. Qur'onda oyat oxirlaridag'i *mubayyan, muayyan; karim, alim; halak, falak*lar. Mana shul saj' deganimiz so'z o'yunidir. Arabcha yozilg'an bir ko'p adabiy sochim asarlar saj'li qilib yozilg'andir.

Bizning adabiyotimizda buni kirgizishga tirishganlar ko'p bo'lg'an. Ulardan bir-iki namuna ko'rsataylik.

Navoyining «Mahbub ul-qulub»idan:

Ammo ba'd, fuqaroning gadoyi va g'aroyib masturlari chehra kushoyishi, al-faqiri haqir Alisher Navoyi mundog' arz qilur va adosin o'ziga farz bilurkim, bu xokisor, parishonro'zg'or...

Amir Umarxondan:

Taaddi ahlidin fuqaro va masokin xotirlari jam' va

muhofazatim tahqiqidin, shomdin to subh rasta va do'konlarda sham', himmatim sahobining rashahotidin muflislar g'ami va kafi, kifoyatim qatorotidan muhtojlar mustag'ni bo'ldilar[61].

Ko'rilarkim, xuddi arab-fors sochmalarida bo'lg'ani kabi saj'li yozishqa tirishmakni uslubimizni buzushdan boshqa bir foydasi yo'qdir. Bir asarni butunlay saj'li yozmoq emas, so'z orasida bir-iki saj'li jumlalar aytib ketishga bizning xalq shoirlarimiz bo'lg'an baxshilar(dan) muvaffaq yozilib oling'an «Alpomish» dostonida ora-sira mana shunday o'runli saj'larga uchramoq mumkindir:

O'n olti urug' Qo'ng'irot elida bir cho'pon to'y bo'ldi. Biylar to'yga keldi, biylarni otini ushlamadi, ko'nglini xushlamadi...

Jortiboy oqsoqol degan bir zot bor edi. Majlisli kun bo'lsa, to'rdan joy tegmas, piyoladan choy ichmas. Buzog'ining oldinda kavish bilan oralashib, it chag'ish bo'lub yotar edi...

Murnas ko'rsang derman novuday, kallalari sayt otning tovuday...

Mana bizda ham saj' bor. Biroq, arab saj'i kabi zo'rlab bir maqolani to'ldirub yubormaydir. Maqolaning, hikoyatning jonli o'runlarida ifodaning tabiiyligini buzmasdan, bir-iki yo'la ko'runib, yana yo'qoladir. Bu yo'sunda saj' esa, albatta, maqbuldir.

Ta'rix

Burung'i madrasalarimizda o'qug'an hisob ilmida «Abjad hisobi» bor edi. «Abjad hisobi»ga ko'ra, harflarning har biriga bir son belgilangan bo'ladir. Mana shunday:

ا	ب	ج	د	ه	و	ز	ح	ط	ى
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

ك	ل	م	ن	س	ع	ف	ص
20	30	40	50	60	70	80	90

ق	ر	ش	ت	ث	خ	ذ
100	200	300	400	500	600	700

ض	ظ	غ
800	900	1000

Tug‘ulish, o‘lim, to‘y, taxtga chiqish, bino solish kabi voqealar to‘g‘risida bir tizim yozib, oxirg‘i misra’ida shu voqe’a ta’rixini abjad hisobi bilan ko‘rsatishga *ta’rix* derlar.

Qo‘qon xoni Amir Umarxonning «Zafar ko‘k» degan oti o‘lganda «Bihjat» degan shoir mana shu ta’rixli marsiyani yozg‘an:

Qaysi gulbun gulining g‘unchalari to‘kulmas,
Qaysi gulbargkim, ul bodi xazondin so‘lmas.

Qaysi xumdirki, qazo toshi oni sindirmas,
Qaysi jomeki, qadar sharbati anga turmas.

Ne kelur davri falakdin boshingga, rozi bo‘l,
Hech jondor ajalning ilkidan qo‘rqilmas.

Bo‘ldi nobud zafar ko‘k to‘kulgan su(v)dek,
El aro ushbu masaldirki, «to‘kilgan to‘lmas» –

Dedi ta’rixi uchun aql: «Zafar ko‘k o‘ldi»,
To miroxur boshini olmasa hargiz bo‘lmas.

Bunda eski imlo bilan yozilg‘an «Zafar ko‘k o‘ldi» aytimining harflari yuqoridag‘i abjad hisobi bilan (1277) bo‘ladir. Bundan «miroxur»ning boshi bo‘lg‘an (م) harfi soni bo‘lg‘an 40 ni chiqarg‘anda 1237 qoladirkim, oning o‘lgan yili shudir.

Xorazmning mashhur shoirlaridan Polvonniyoz Komil Xorazm shahzodalaridan birisining tug‘ilishiga shu ta’rixni aytgan:

Dedi ta’rixini duo birla,
Komil xoksor besomon.
Avj izzat uza muqim o‘lsun
«نور عين سيد محمد خان»

(Nuri ayni Said Muhammadxon)

Eski imlo bilan yozilg‘anda to‘rtinchi misra’ning abjad hisobiga ko‘ra soni 1203 bo‘ladi. Munga izzat (عز ه ت) so‘zining yuqorisi (avji) bo‘lg‘an « ع » harfining soni 70 ni qo‘shsak, 1273 bo‘ladir.

Muammo

Burung‘i shoirlarimizni bo‘sh-bo‘shiga mashg‘ul qilib charchatg‘an o‘yunlarning birtasi muammodir... Shoirlarning biri bir bayt yozadir shul yo‘sindakim, unda bir «ism»

maxsus qo'idalar bilan yashirilg'an bo'lsun. So'ngra muammo qo'idalarini bilganlarga haligi yashurun aslini bildirmay, shu baytni o'quydir. Ular tirishib, jon chekishib bilgan qo'idalari yuzasidan haligi ismni topib aytadirlar.

Bu o'yunning she'r, adabiyot bilan olish-berishi bo'lmag'ani ma'lum. Biroq, bizning burung'i shoirlarimiz she'rdan, adabiyotdan sanag'anlar-da, uning yo'lida miyalarini churutganlar. Hatto buni o'z boshicha bir «fan» (muammo fani) atag'anlar. Qo'idalarini ko'rsatib, kitoblar yozg'anlar, madrasada dars etib o'qug'anlar..!

«Muammo» o'yunining eng ko'tarilgan zamoni Navoyi zamonidir. Navoyi zamonida forsi(y)cha, o'zbekcha muammo birlikda ko'tarilgan, forsiy muammog'a ko'brak ahamiyat berilgan desak-da, Bobirning ancha muammolari bordir.

Navoyi «muammo fani»(!)da ayricha bir risola ham yozg'an[62]. Biz Bobir ham Navoyi muammolaridan bir-iki o'rnak ko'rsatamiz:

Navoyidan (Boqir / با قر / ismig'a):

Jannat gul-u nasriniga[1] bo'lsang mushtoq,
Goh «yor» yuzig'a, goh kafi poyig'a «boq».

Boq so'zi *yor* so'zining yuzi bo'lg'an «i – ی»ga qo'shulsa, *yoki* ismi chiqar, oyog'i bo'lg'an «ر» qo'shulsa, *yoqir* bo'ladir. *Yoqir* yozilishda *Boqir* kabidir.

(Junayid ismig'a).

«Oh» o'qin «jon»din chekarsam ul parivash «yod»idin,
Qolmas ul yodimda ham faryod oning bedodidin.

«Jon» so'zidan «oh»ning o'qi bo'lg'an (ا) harfi *Yod* so'zida ham qolmasa, «y, d» harflari qoladir. «j, n, y, d» harflari birlashgach, eski imloda «Junayid» (جنيد) ismi chiqadir.

Fors-arab adabiyotidagi so'z o'yunlarining turlari ko'bdir. Biroq, bizning adabiyotimizda muhim o'rin tutqonlari shularginadir.

Zotan, bularning-da, qolg'anlarining adabiyotga ahamiyati yo'qdir. Shuning uchun bu to'g'rida so'zni uzaytish lozim ko'rilmadi.

[1] **Nasrin** – bir chechak ismi.

EL ADABIYOTI

Yozma adabiyot, el adabiyoti deb adabiyotni ikiga ajratadirlar. Bu ajratish to'g'risida yosh adabiyotchilarimizdan V. Mahmudning shu ahamiyatli fikrini tinglaymiz: «... lekin yozma, el adabiyotini ayirmoq va bularni jomi', moni' ta'rif qilmoq qiyindir, hatto mumkin emasdir. Yozma adabiyotning bir xususiyati yozmaligi, ikinchisi, asar egasining ma'lum bo'lishidir, el adabiyotining xususiyati-da, shu sufatlarning bo'lmasligi va og'izdan og'izga ko'chib yurishidir. Endi tahlil qilaylik:

Birinchi: bir vaqtlar yozma o'laroq tasbit etilgan (maydong'a chiqqon) bir adabiy asar yo'qoldi deylik va so'ngra uning parchalari og'izdan og'izga ko'chub yurdi va asar egasining oti ham unutildi deylik.

Ikinchi: og'izdan og'izga ko'chib, asrlarclia yurg'an doston, maqollar yozilib bir majmua holiga keltirildi deylik (qandayki, bu kun har yerda qilinadir).

Bu ikovini qanday qilib ajratish kerak va qaysini qaysisig'a kirgizish kerak?»[63]

V. Mahmud «El adabiyotining egasi ma'lum bir kishi emas. Uning egasi xalqdir» degan fikrni ham mana shunday yurutadir: «Hech bir doston, maqol, topishmoq, ashula yo'qki, yigirma kishi o'ylashib to'qug'an yoki «basta»lagan (bog'lag'an) bo'lsun.

Har bir doston, maqol, topishmoq, ashula, asosan, bir kishi tomonidan chiqoriladir-da, so'ngra umumiylashib ketadir. Turkistonning so'ng shoirlaridan Muqimiy, Furqat, Haziniy parchalaridan shundaylari borki, agar allaqaysi tokchalarda churub, qorayib ketgan bayozlardan ko'rub egalarini bilgan bo'lmasoq, ularni el adabiyotidan ajrata olmas edik...»

V. Mahmudning gapi juda to'g'ri. Bu iki turli adabiyot orasidag'i farqni yozmoq, yozilmag'anliqda yoki egasining belgili-belgisiz bo'lg'anida ko'rmak yanglishdir. Shunday bo'lsa ham bizning san'atkor adabiyotimizga qarshi o'zining samimiyligi, soddaligi bilan o'z borlig'ini saqlab kelgan bir adabiyotning borligi-da ma'lumdir. Biroq, buning ayirmasi yozma bo'lmasligida, yo egasining ma'lum emasligida emas, o'zining ruhidadir. Shaharlarda, saroy, madrasa tegralarida yig'ilib, madaniyatcha ilgari bosqon, iqtisobcha ko'tarilg'an,

tuyg'ucha-zavqcha ingichkalangan bir «ko'ma» (zumra)[64]dan keyinga qarasangiz, madaniyat, e'tiqod, tuyg'u, zavq ham tushunchada tubanda qolg'an buyuk bir ko'bchilikni ko'rishingiz aniqdir. Mana shu ketda qolg'an ko'bchilikning tushunishiga, zavqiga, tuyg'usiga, ruhiga qaratib yoritilg'an keng bir adabiy maydon, judayam ko'p adabiy asarlar bor. Mana shu asarlarga biz *el adabiyoti* deymiz[1]. Bundag'i ifoda, uslub, o'xshatishlar, sufatlashlar, majozlar, istioralar, qaynashlar hammasi elniki, el tushunishiga mos keltirilgandir. Haligi san'atkor «ko'ma» (zumra) shoirlarining hech-da yoqtirmag'anlari ta'birlar, o'xshatishlar el adabiyotining eng chiroylik qismidir. Buni misollari bilan ko'rsataylik:

Lapar aytsang to'yda aytg'il,
suluv qizlar qocharo,
Ochilmag'an gulg'unchani
bulbul sayrab ocharo.

Ko'zam olib su(v)ga chiqsam oh uradir bir yigit,
Ko'zam qo'yub quloq solsam, yordan ayrilg'an yigit,
Yordan ayrilg'an yigitning yori men bo'lsammukin?
Qo'liga qirg'iy berib, ko'ksida jon bersammukin?

(El lapari)

Ko'rmasam bir zamon toqatim yo'qtur,
Meni zor ingratib, qo'zim, ayrilma.

Sen ketarsan, men qolurman zor yig'lab,
Hijron o'ti birla bag'rimni dog'lab,
Qaysi bir oshnodin seni so'roqlab,
Shunqorim, lochinim, qo'zim, ayrilma.

(Urganjlik Andalibning «Yusuf-Zulayho»sidan)

Mana bu she'rlarda: *Ochilmag'an gulg'unchaning bulbul sayrashi bilan ochilishi* kabi chiroylik kinoya, *ko'za olib su(v)ga chiqmoq, qo'lga qirg'iy berib, ko'kragida jon bermak,* sezgiga *qo'zi, shunqor, lochin* deb undamak «ko'ma» (zumra) shoirlarimizg'a yoqaturg'an ta'birlar emasdir. Mana el adabiyotini «adabiyot»dan (tor san'atkorona adabiyotdan) ayirg'an narsa, uning yozilmag'anligi emas, uning ruhidir. U soddadir, tabiiydir, ko'bchilikning zavqiga yararliqdir! Ko'ruladirkim, bu

[1] Mana shu mulohazaga topinib, A. Sa'diyning «El adabiyoti»ni omma adabiyoti deyishiga haq bergum keladir (*Fitrat*).

mas'alani, to'g'risi, bu adabiy hodisani yozish bilan emas, sinf mas'alasi bilan izoh etmak tuzukrak bo'ladir.

El adabiyotidan sanalg'an asarlarning egalari ko'bchilikning «ko'ma» (zumra) shoirlari tomonidan yozilg'an asarlar orasida ko'bchilikning tuyg'u, zavqiga yoqib, el adabiyoti qatorig'a kirganlar ham bordir. Vadud Mahmudning aytg'ani Furqat, Muqimiy, Haziniy «parcha»lari shu qatordandir. El adabiyotidan sanalg'an asarlar ko'bchilikning tuyg'usiga, zavqiga shunday mos keladirkim, u bularning egalariga ahamiyat bermaydir-da, asarni o'ziniki qilib oladir.

Bizda el adabiyotining turlari shulardir: *ashula, ertak, maqol, topishmoq, lapar, doston.* Endi bularni birtadan ko'rub o'taylik.

Kuy, ohang bilan o'qilaturg'an she'rlar, tizmalarga *ashula* deyiladir. Ashulalarimiz ko'brak milliy vazn (barmoq vazni)-da bo'ladir.

Ashula, she'rlarimizdan eng ko'bi to'rtliklardir. Bir ashulada o'qilaturg'an she'rlar olti-yetti to'rtlikdan iboratdir. Biroq, bir-iki misra' «naqarot» har to'rtlikda aylanib turadir.

Har to'rtlikning o'ziga maxsus qofiyasi bo'ladir. Har to'rtlikda birinchi, ikinchi, to'rtinchi misra'ining qofiyalanishi bir turli bo'lub, uchunchi misra' qofiyasiz, boshqa bo'ladir:

Bekijon ukam —
Jo'xori ekdim kechki,
Yonidan qildim bachki,
Yorginam eson kelsa,
Bekijon ukam, yorlaram
Har mozorga beh echki.

(bu naqarotdir)
Suv kelar guldir-guldir,
Sevganim qizil guldir.
Sevganim topilmasa,
O'lganim o'shal kundir.

Ariq to'la suv oqar,
Suv tagida qum oqar,
Sevganim tashlab ketsa,
Menga kulib kim boqar?

Shu ashulaning to'rtinchi bandiga kelgan qofiya yo'suni birdan o'zgarib qoladir. Yuqoridag'i bandlarda 1-, 2-, 4-misra' qofiyasiz ekan, to'rtinchi bandda 1-, 3- misra'lar qofiyasiz, 1-, 4- misra'lar qofiyali bo'ladir.

Bog' aylanib shaftoli,
Uchgan kimning kaptari,
Aytsam ado bo'lmaydir
Bevafoning daftari.

Yana beshinchi bandda esa qofiya burung'i yo'sung'a qaytadir:

Bog'ing bo'lsa qo'ra qil,
O'g'lung bo'lsa mulla qil.
Mullalikka ko'nmasa,
Satanglarga jo'ra qil.

«Andijon boray» ashulasi:

Qoshingni qorasiga,
Xol bo'lay orasiga,
Aslo rahming kelmaydir
Musulmon bolasiga.

(Naqarot)
Andijon boray dedim, borolmadim,
Rohatlik qilay dedim, qilolmadim.

Ot minsam ham o'ynayman,
Minmasam ham o'ynayman.
Sevib olg'an yorimga,
Ming boqsam ham to'ymayman.

Bundan so'ng yana yuqoridag'i naqarot aytiladir. Ondan keyin yana to'rtlik, yana naqarot davom etadir. Naqarotsiz to'rtliklar bilangina yurg'an ashulalar ham bordir. Ba'zi ashulalardag'i to'rtliklarda qofiya birinchi, ikinchi, uchinchi misra'larda bir turli bo'lib, to'rtinchi misra'ning o'zi har bandni to'rtinchi bo'lib takror etadir:

Endi sendek, jono, jonon qaydadir,
Ko'rub gul yuzingni bog'da bandadir,
Saqlay ishqim toki jonim tandadir,
O'zim har joydaman, ko'nglim sandadir.

Mehring o'ti tushub nogoh jonlarga,
Parvoyim yo'q zarra xonumonlarga,
Lola yanglig' to'lub bag'rim qonlarga,
O'zim har joydaman, ko'nglim sandadir.

Hosili shulkim: el ashulalarida she'r ko'brak to'rtlik bo'ladi. Har to'rtlikda bir-iki misra' naqarot bo'ladir:

bo'lmaganlari ham bor. Qofiya bordir, biroq o'rni belgili emasdir. To'rt misra'da qofiya bo'lg'ani kabi 1-, 2-, 3- da ham bo'ladir. Bir-iki misra' qofiyasiz ham o'tib keta beradir.

El adabiyotidag'i hikoyalarg'a *ertak* deyiladir. Ertak el shoirlarining xayollari yordami bilan tuziladir. Bulardan biri Abubakr Divayev imzosi bilan nashr etilgan «Erksiz folchi» ertagidir. O'lkamizning eng zararlik qurtlaridan bo'lg'an folchi-duoxonlarga juda chiroylik etib kulgani uchun muhimdir[1]. Bu chiroylik ertakning qisqacha mazmuni mana shundaydir: *Bir cholning xotuni hammomg'a boradir. Hali o'zini yuvub bo'lmag'an ekan, «podshoh folchisining xotuni keladir» deb hammomni bo'shatadirlar. Yarim yuvung'an holda kampirni ham chiqaradirlar.*

Kampir uyiga kelgach, «sen nega podshohning folchisi bo'lmading», deb eri bilan urushadir.

Chol, hoy unday bo'lsa folchi bo'layin, deydir-da, folchilik asboblari topib, bozor boshida o'turadir. Podshohning odamlari uzoq bir viloyatning solug'ini yig'ib, xachirlariga yuklab kelayotganda yo'lda bir xachir oltunni yo'qotib, podshohga xabar beradirlar. Podshoh haligi cholni chaqiradir. Bir xachir oltunni topib berishini so'raydir. Umrida hech folchilik qilmag'an chol nima desun!

Xachirning yo'qolg'an joyini so'raydir. Og'ir yuki bo'lg'an hayvonning shu joydan uzoqqa bora olmag'anin o'ylab, «shul yo'qolg'an xachiringiz qo'shnilardan bo'lg'an bir bog'da yotibdir» (deb) javob beradir. Podshoh odamlari ot chopib boradirlar va xachirni topib keltiradirlar.

Bir kun podshohning xazinasini o'g'irlaydirlar. Podshohning folchilari topolmaylar. Bizning yolg'on folchimizning bilmay qilg'an bir ishi natijasida bu ham topiladir. Chol folchi butun folchilarning boshlig'i bo'ladir. Chol folchi sirining ochilishidan qo'rqadir. Bir kun hammomda shu misra'larni o'ylab turadir-da, eng so'ng o'zini devona qilib qutilishg'a qaror beradir. Hammomdan yap-yalang'och chiqib, podshoh saroyiga yugurib keladir, taxtga o'tirgan podshohni yoqasidan tortib yerga yiqitadir. Podshoh taxtdan uzoqlashg'ach, taxt ustidag'i ayvoncha birdan cho'kadir. Buni hiylakor chol darrov boshqa yoqqa buradir. «Taqsir, hammomda edim. Shu ayvonchaning yiqilishi menga ma'lum bo'ldi. Sizni qutqarish uchun mana shunday yap-yalang'och kelishga majbur

[1] «Bilim o'chog'i» jurnali, 1-son, 99-bet.

bo'ldim» deb yana anchagina in'om oladir. Bir kun podshoh bir chigirtkani tutmoqchi bo'ladir, iki yo'la qochirib, uchinchi yo'li tutadir. Cholni chaqirib, qo'limda nima bor? – deb so'raydir. Chol endi bu gal qo'lga tushganiga aniq ishonadir. Hech bir hiyla topolmaydir. O'zining iki yo'la podshohni aldab, endi qo'lga tushkaniga hasratlanib, «bir sakrading qutulding, iki sakrading qutulding, uchinchisida tutilding», deydir. Podshoh esa «Bale, chol, topding» deb qo'lini ochadir.

Mana shunday bo'lub o'zining folchi emasligini yaxshi bilgan chol ahmoq xonlar saroyida ulug' folchi atalib yuradir».

Doston – bu, asosan, ertakdir. Biroq, o'zining qahramonlarining bo'lushi, uzun ham kengligi, sof tizim yoki tizim-sochim aralashligi, baxshilar tomonidan cholg'i bilan aytilishi bilan ertaklardan ayriladir. Doston ulug' voqealarga aralashkan qahramonlarning qilg'an ishlarini tasvir qiladir. Tartib etkuchilari, aytib berguchilari «baxshi» atalg'an el shoirlaridirlar. Doston nuqul tizim bo'lg'ani kabi tizim-sochim aralash ham bo'ladir.

Bu dostonlardan biri – el adabiyoti yo'lida tirishguchilarimizdan o'rtoq G'ozi Olimning 1922-yilda Toshkent va Samarqand uyezdlarida yashayturg'an o'zbeklarning mashhur oqinlari – Hamroqul baxshi va Fozil jirov Yo'ldosh o'g'lining og'zidan yozib olg'ani «Alpomish» dostonidir.

O'n olti uruq Qo'ng'irot elida Dovonbiy degan o'tdi. Dovonbiydan Olpinbiy degan paydo bo'ldi... deb qisqa, jumlasi ochiq, fasih bir sochim bilan boshlang'an bu doston sochim, tizim aralash dostonlardandir. *Dostonning qahramonlari Boybo'rining o'g'li Alpomish, Olpon bilan Boysari qizi Barchinoydir. Alpomishning musulmoncha oti Hakimbekdir. O'zi madrasada tahsil ko'radir. Bir kun otasiga zakotdan ma'lumot beradir. Otasi Boybo'ri Boysarining molidan zakot talab qiladir. Boysari akasiga zakot bermaydir. Qo'ng'irot elidan ko'chadir. Musulmon bo'lmagan qalmoq yurtiga borib, qo'nadir. Ondag'i boturlardan Qorajon bilan Ko'kaldosh uning qizi Barchinoyga oshiq bo'ladirlar, uni olmoq istaydir: bu xabarni eshitkan Alpomish o'zining sevgilisini qutqarmoq uchun otlanib chiqadir. Voqea shuning tegrasida yuradir.*

Dostonda qahramonlarning o'zaro so'zlari tizim bilan boradir. Baxshi bularning qayoqqa borg'anlarini, nimalar qilg'anlarini sochim bilan aytadir. Sochimlari yengil, ochiq,

qulay onglashilarliqdir. So'zning tabiiy borishini buzmasdan, ora-sira saj'lar yasaydir. Ba'zi joylarda sochimlar yarim tizim shaklini oladir: *To'qson otni Yo'qson botur minadi. Jarashiga jiyak sovut kiyadi. Erta bilan namoz vaqti bo'lg'anda Boysarining ovulina keladi.*

Tizimlari barmoq vaznidadir. Qofiya to'g'risida erkli bir yo'l tutilg'an. Qofiyasi bo'lsa ham belgili bir tartib bilan emas. Qofiyasiz misra'lari ham bor:

Ko'kaldosh:

— Boysari aka, eshit menim so'zimdi,
To'qson polvon eng kattasi o'zimdi.
Barchinoyni to'qson polvon taladi,
Olib chiqqin Barchin degan qizingdi,
Barchinoy saylasin, bo'lsun anga bosh.

Boysari:

— Aytkaningga, ey Ko'kaldosh, ko'nmayman.
Mol emasman, hayvoningga yurmayman.
Barchinoyning Alpomishday eri bor,
Ul turganda senga qizim bermayman.
Alpomishim bu chog'da yoshdir,
Yosh bo'lsa ham Qo'ng'irot eliga boshdir,
Bu so'zning eshitsa Olpon keladi,
Qasd aylasa Olpon eling oladi.
To'qsoningga qirq kun qirg'in soladi.
Bir Barchin deb solsa boshingga baloni,
Bir Barchin deb qir(q) Barchining oladi.

Bundan burun ham yozishga o'tkarilgan el dostonlari bizda ko'bdir: «Sanavbar», «Tohir-Zuhra», «Bahrom-Gulandom». Xivalik Nurmuhammad Andalibning «Yusuf-Zulayho» hikoyasi shu yo'sunda yozilg'an, hatto bosilg'an el dostonlarimizdandir[1].

Bularning eng muhimi «Ahmadbek», «Yusufbek» dostonlaridir. Shu dostonlarning-da hammasi sochim-tizim aralashdir. Sochimlarida «Alpomish» dostonida bo'lg'an fasihlik yo'qdir. Sababi bular(ni) baxshilar aytqoncha yozilmay, u zamongi yozish yo'llariga ergashtirilgani bo'lsa kerak. Tizimlari yuqorida ashula shaklida ko'rganimiz to'rtliklardan tuzulgan:

[1] Bularning hammasi sariq qog'ozda, yomon yanglish, o'qulmas yoziy (yozuv) birla toshbosmada bosilg'an, tekshirishka yaramaydir. Ilmiy markazimiz himmat qilsa-da, shularning hammasini yig'ib, tuzatib, ihlay bostirsa...

Yazidlardin og'ir lashkar kelibdir,
Yusufbekka yo'q savdolar solibdir,
«Valloh a'lam» Yusufbek qul bo'lubdur,
Turing, beklar, ayrib olay jonimni.

Bizni yo'qlab ko'zdin yoshni to'kmasun,
Bandi bo'lub, mardning ko'ngli cho'kmasun,
Ey yigitlar, bizning[1] *bo'lmasun,*
Turing, beklar, ayrib olay jonimni.

Amirbekning onglang endi so'zini,
Aqlingizga kelib onglang to'g'rini,
Xudo yor bo'lsa bir qirsoq kofirni,
Turing, beklar, ayrib olay yorimni.

Bu yo'sundan boshqa, eski g'azal shaklida qator qofiya bila yozilg'an (el) tizmalari ham bor.

Lapar

El adabiyotining eng muhim turlaridan biri *lapar*dir. Bu to'g'rida shoirimiz Elbek mana bunday deydir[2]: «Burunlarda bobolarimiz tomonidan to'y-to'yga ko'churilib, buyuk havas bilan aytilib kelgan bu «adabiyot» bukun so'nar holga yetmishdir. Lapar «opera»ga yaltiroq (yaqinroq bo'lishi kerak — *H. B.*) bir ruhda aytilgan asar bo'lib, buni qizning nikohidan bir-iki kun burun o'yun kechasida «kuy» bilan aytib o'qiydirlar. Munda kelin bo'lguchi qiz o'zining yaqin o'rtoqlarini chaqirib, «bazm kechasi» yasaydir. Buning bir kechasiga qizlardan tashqari xotunlar, kuyov tomonidan yigitlar ham keladirlar. Bu ko'ngulli kechani boshqarish ishi qari xotunlarga topshirilg'anlikdan ular tartib saqlab, kechani juda yaxshi o'tkazadirlar. Bu yasalg'usi bazm kechasida qizlar va yigitlar o'zlarining ko'nglidagi narsalarini lapar yo'li bilan bir-birlariga onglatadirlar. Laparni boshlash oldida qizlar bilan yigitlar orasida turg'usi xotunlardan biri laparning boshlang'ichi bo'lg'an quyidagi laparni aytib, ularni laparga undaydir.

Boshlang'ich lapar:

Laparning avvali boshi — marmar toshi,
Chit ro'molni ho'l qilg'an ko'zimning yoshi.
Chit ro'molim xosaye,
Qo'limda chinni kosaye,

[1] Bir so'z tushib qolg'an.

[2] «Bilim o'chog'i» jurnali, 1-son, 97-bet, 1922-yil. Elbek maqolasi.

Qizlar lapar aytganda
Yigitlar quloq solsaye[1].

Bundan so'ng yigitlar tartib bilan ushbu yo'lda laparni boshlaydir ham bir gal qizlar va bir gal yigitlar aytib, tong otdiradilar:

– Lapar aytsang to'yda aytgil, suluv qizlar qocharo,
Ochilmag'an gulg'unchani bulbul sayrab ocharo.
Ey bulbul, muncha sayraysan tog'-u toshni o'ydurub,
Issiq-sovuq suv icharsan moy yurakni kuydurub...

– Ko'zam olib suvga chiqsam oh urodur bir yigit,
Ko'zam qo'yib quloq solsam, yordan ayrilg'an yigit.
Yordan ayrilg'an yigitning yori men bo'lsammukin,
Qo'liga qirg'iy berib, ko'ksida jon bersammukin?

– Daryoning naryog'ida bir tub g'o'za,
Ul g'o'zaning taguda oltun ko'za.
Jon yanga, jonim yanga, arzim sizga,
Bir kecha qo'shub qo'ying qaro ko'zga.

– Daryoning naryog'iga qo'y beramiz,
To'tiqush bolasig'a to'y beramiz,
To'tiqush bolasig'a ipak kerak,
Yor bilan o'ynashmoqqa yurak kerak.

– Qizlarjon, qaynar buloqqa boshlamang,
«Moli ko'b» deb boy bolasin xushlamang,
Mol degani qo'lning kiri, yuvsa ketar,
Tirik qo'lga mol yetar, o'lgan ketar.

– Subhidamning salqini so'ldirdi gullar bargini,
Kimga aytib, kimga yig'lay bevafo yor dardini?

Bevafo hargiz vafodor o'lmadi,
Tol yog'och asta mevador o'lmadi.

Topishmoq

Ba'zi narsalarning otini aytmasdan sufatlarini, belgilarini aytib, boshqalarga toptirishga *topishma* deyiladir. El orasida adabiy o'yunlardan sanaladir:

[1] Bu olti misra'ni o'rtoq Elbek to'rt misra' qilib ko'rsatkan. Men uning so'ng iki misra'ini ohangiga qarab to'rt misra' qildim. Hammasi olti misra' bo'ladi.

Qishda kelar,
Yozda ketadir. *(Bug‘)*

Eshik orqasida beli bog‘li qul yotadir.
(Supurgi)

Pak-pakana bo‘yi bor,
Yetti qabat to‘ni bor. *(Sug‘on)*

Oltita oyog‘i bor,
Ikita tuyog‘i bor. *(Tarozi)*

Maqol

Elning kun ko‘rgan, ish o‘tkargan sinalishli qarilari tomonidan aytilgan hikmatli, qisqa, ma’noli gaplardirkim, el orasida «yashash qonunlari» kabi hukm surub, tildan tilga yuruydir: *Sinamag‘an otning sirtidan o‘tma. Otang bolasi bo‘lma, odam bolasi bo‘l. Chumchuqni (ham) qassob so‘ysin. Chumchuqdan qo‘rqqan tariq ekmas. Och qornim – tinch qulog‘im. O‘z uyim – o‘lan to‘shagim. Bo‘zchi belboqqa yolchimas. Mulla bilganin o‘qur, tovuq ko‘rganin cho‘qur. Yotib qolguncha otib qol. Og‘zi qiyshiq bo‘lsa-da, boy bolasi so‘ylasun.*

ADABIY ASARLARNING TURLARI

Adabiy asarlarda she’riy ijodlarni[65] uchka ajratadirlar:

1. Yurakchilik–lirika.
2. Rivoya–epos.
3. Tomosha[1].

Lirika: shoir o‘zining qayg‘i-armonlarini, tilak-orzularini, tuyg‘u-sezgilarini tasvir etmak tilagi bilan to‘lqunli, hayajonli shakllarda yaratilg‘an asarlarga *lirika* deyiladir. «Yurakchilik–lirika» she’rlarning rivoya, tomosha asarlaridan ayirmasi kattadir.

Rivoya: tomosha asarlari onglatish yo‘li bilan yuradir.

[1] Adabiyotchilar bunday «tomosha» o‘rnida «drama» deydilar. Ondan keyin bu dramani fojia, kulgu, drama deb uchka bo‘ladirlar, boshdag‘i dramani keng ma’nosi bilan drama, so‘nggisida esa tor ma’nosi bilan drama deb ajratadirlar. Men mana shu qiyinchilikdan qochib keng ma’no bilan dramani *tomosha* dedim-da, *drama* so‘zini tor ma’nosida qoldirdim.

«Yurakchilik–lirika» esa sezdirish, tuyg'ulantirish, to'lqunlashtirish tilaklari bilan maydonga kiradirlar.

Rivoya, tomosha asarlari voqeadagi xayoldan[66] bir voqeani tasvir qilish yo'li bilan maqsadlariga qarab borsalar, «yurakchilik–lirika» she'rlarida eng katta ro'lni ohanglar, xayollar, to'lqunlar, tuyg'ular o'ynaydirlar.

Bizda burung'ilardan Navoyi, Boyqaro, Bobir, Lutfiy, Mashrab kabilarni «lirizm»ning eng katta kishilari sanaydirlar. Ularning g'azallari «yurakchilik–lirika» she'rlarining eng go'zal namunalaridir.

Yangilardan esa «lirika»ning eng yaxshi namunalarini bizga Cho'lpon bilan Botu beradir. Cho'lponning «Kel beri», «Vijdon erki», «Nima», «Ketganingda» degan she'rlari bilan, Botuning «To'lqunim», «Umid so'zlari», «Yurak to'lquni» degan she'rlari «yurakchilik–lirika»ning chiroylik mevalaridir.

TOMOSHA

Agar voqeadagi yo xayoldagi bir ishni, bir voqeani tasvir etish yo'li bilan yurg'anda tasvirlar shoirning, yozuvchining tilidan emas, shul voqeaga aralashqon kishilar tilidan tasvir etilsa, *tomosha* ataladi.

Bir voqeani shunga aralashqon kishilarning so'zlari, harakatlari bilan amalda tasvir etib, tamsil, ya'ni sahnada xuddi o'zi kabi ko'rsatish tilagi bilan yozilg'an asarlarga *tomosha asarlari* deyiladir.

Tomosha asarida sahnada ko'rsatish (tamsil) tilagi borlig'i sababli muning go'zal chiqishi uchun yozg'uvchiningda ahamiyati kattadir. Adib-yozg'uvchi chiroyliq qilib yozsa, o'ynovchilar chiroyliq qilib o'ynasalargina asar muvaffaqiyat bilan chiqadir. Biroq, eng muhim ro'l adib-yozg'uvchining o'zidadir. Yomon bir yozg'uchi tomonidan yozilg'an, san'atga tuban bir asarni usta artistlar o'ynamaylar, o'ynasalar-da yaxshi chiqara olmaylar. Yaxshi yozilg'an bir asar yomon o'ynovchilarga uchrasa, shul birgina o'yundag'i qiymatini yo'qotadir. Biroq, o'zidag'i adabiy qiymatini ikinchi yo'li yaxshi o'ynovchilar tomonidan muvaffaqiyatli chiqmoq haqini saqlaydir.

Tomosha asari bir yoki bir necha bo'lakdan iborat bo'lib, har bo'lagiga *parda* deyiladir. Tomosha asarining mundarijasi uch asos bo'lakka tartib etiladir: 1) bog'lanish; 2) borish;

3) bitish. *Bog'lanish* voqeaning boshlang'ichi hukmida bo'ladir. Bunday voqeadag'i kimsalarni birlashtirib, voqeaga to'g'ri surmak uchun yo'llar izlanadir, shul kimsalarning voqeag'a voqeani tug'dirish uchun o'zaro bog'lanishlari ko'rsatiladir.

Borish voqeaning borishini, *bitish* voqeaning natijasini ko'rsatadir, bu uch asos bo'lakni necha pardaga yozish to'g'risida qat'iy bir so'z deb bo'lmaydir: uch pardada, besh pardada, birgina pardada ko'rsatish mumkindir.

Tomosha asarining muhim qismi voqea kimsalari tilidan yozilg'an so'zlardir. Orada kimsalarning kelib-ketishlarini, so'zlash chog'idagi turmushlarini, harakatlarini yozg'uchi o'z tilidan onglatib o'tadir. Bu so'z yoy ishorati atalg'an ishoratlar[67] orasida yoziladir. Bu so'zlarning vazifasi sahnada o'ynovchilarg'a rahbarlik qilmoqdir. Tomosha asarida voqeaga aralashqon kimsalarning o'zaro gaplashmaklariga *dio'lo'g*, yolg'uzcha gaplashmaklariga *mo'no'lo'g* deyiladir.

Tomosha asarlaridag'i aralashqon kimsalar orasidan birtasi shul voqeada katta o'run oladir, voqea markazi bo'ladir. Bunga voqeaning yoki asarning qahramoni deyiladir. Tomosha asarining muvaffaqiyatli bo'lub chiqishi uchun ko'zda tutilmog'i lozim bo'lg'an shartlar shulardir:

1. *To'laliq:* voqeaga aralashqon kimsalarning xarakterlari, ruhiy holatlari butunlay ochilg'an bo'lsun. Asar nima maqsad bilan yozilg'an esa, tomoshalarni shu maqsad sari tortib, eltib erishtursun. Kimsalarning xarakterlari, ruhiy holatlari butkul ochilmay qolsa, o'z tomoshachilarini tub tilagiga erishtira olmasa, asar to'la ochilmag'an sanaladir.

2. *Birlik*[68]*: tub tilakning*[69] ochilishiga kerak bo'lmag'an kimsalar, ko'runishlar, dio'lo'g, mo'no'lo'glar asarga kirguzilmasun. Tub tilakning ochilishiga xizmat qilmag'an kimsalar, ko'runishlar, voqeaga sira boylanmagan dio'lo'g, mo'no'lo'glar asarning birligini buzadir. Biroq, asarda birlik bo'lsun deb bir turlilik qilmoq, ya'ni ondag'i kimsalarni, ko'runishlarni, voqealarni, so'zlarni bir turliroq olib bormoq ham to'g'ri emasdir. Bunga birlik emas, *bir turlilik* deyiladi. Umuman, adabiy asarlar uchun birlik qancha foydalik esa bir turlilik shuncha zararlikdir, yaramaydir. Tomosha asarlarida kimsalarning, ko'runushlarning tez-tez o'zgarib turishlari yaxshidir. Biroq bu o'zgarishlar asarning tub tilagidan uzoqlashib birligini buzmasun.

3. *To'g'rilik:* asardag'i kimsalarning xarakterlari to'g'ri ko'rsatulsun. Voqealar, gaplar xarakterlariga mos kelsun. Dio'lo'g, mo'no'lo'glar tabiiylikdan, hayotiylikdan ayrilmasun. Dio'lo'g, mo'no'lo'glar o'z egalarining ilmiy, adabiy kuchlariga mos kelarlik bo'lsun.

«Tomosha asarlaridag'i voqeada aralashqon kishilarning birtasi voqeaning markazi bo'ladir, voqeada katta o'rin oladir. Bu kishi voqeaning qahramonidir» degan edim. Shul qahramonning hayotda bir tilagi bo'ladir. U shul tilak yo'lida tirishadir, to'suqlarg'a qarshi kurash ochadir. Mana shu asar qahramoni tomonidan ochilg'an kurashning shakliga ko'ra tomosha asarlari uchka bo'linadir. Asar qahramonining kurashi kichik, tuban, kulunch, masqara bo'lsa, tomosha asari *komediya* ataladir. Uyg'unning «Turkiston tabibi» degan bir tomosha asari bor. Onda «Turkiston tabibi» bo'lg'an kishining tilagi yolg'ondan tabiblikka ot chiqarib, o'zining tirikchiligini ta'min etishdir. Bu tuban tilak yo'lida uning ko'rgan ishlari, qilg'an kurashlari kulunch, mayda, masqaradir. Shuning uchun «Turkiston tabibi»ga biz komediya (kulgu) deymiz.

Asar qahramonining tilak yo'lidagi kurashlari dramadag'i kurashdan kuchli bo'lsa, halokatlarga, qonli voqealarga borib to'xtasa, *tragediya (fojia)* bo'ladir. Behbudiyning «Padarkush»i ham «Abulfayzxon», «Abu Muslim» kabi tomosha asarlari tragediya (fojia)lardir.

Bu uch turli tomosha asarlari ko'brak sochim yo'sunda yoziladir. Tizim bilan yozilg'anlari ham bo'ladir. Tizim yo'sunda yozilib, kuylarga bog'lanib, sahnada musiqa bilan ijro etilsa, unga *opera* deyiladir. Opera go'zal san'atlardan musiqa bilan adabiyotni sahnada birlashtirgani uchun tomosha asarlari orasida muhim o'rin tutadir. Ovro'pa go'zal san'atlar dunyosi operaga juda katta ahamiyat beradir. Bizda operachilik yo'lida otilg'an birinchi odim G'ulom Zafariyning «Halima»sidir.

RIVOYA

Voqeada, yo xayolda bo'lgan voqealarni yozg'uvchi-adib tilidan tasvir etib yozilg'an asarlarga *rivoya* deyiladir. Rivoya: masal, doston, hikoya, ro'mon otlari bilan to'rt asos qismga ajraladir.

Masal: hayvonlarga, ba'zan jonsiz narsalarga nisbat berib yozilg'an kinoyatli, ibratli hikoyalardir.

Masallardag'i voqealar ko'brak hayvonlar orasida tasvir etiladir. Biroq, bu judayam lozim emas; voqeani jonsiz narsalar orasida tasvir etish ham mumkindir. Chunki, u voqeaga aralashtirg'on hayvonlarning-da, jonsiz narsalarning o'zlari maqsad bo'lub olinmaylar. Ular odamlardan kinoya qilinub, odamlar o'rnida olinadirlar. Masallar o'quvchilarga qanday bo'lsa-da, bir ibrat berish tilagi bilan yoziladirlar. Masalning maqsadi bo'lg'an «ibrat» ba'zan masalning oxirida uning bir natijasi qilib, ochib ko'rsatiladir. Bizda bunga «qissadan hissa» deyiladir. Ba'zan-da masalning ibrati ochilib ko'rsatilmaydir. Masalning borishidan onglashilib qolg'an bo'ladir. Eng yaxshisi ham shudir.

Bizning adabiyotimizda Navoyining forsiydan ko'chirgani «Lison ut-tayr» kitobi kattakon bir masal bo'lg'ani kabi Gulxaniy shoirning «Zarbulmasal»ida bir masal, zamonamizda esa masalchilik yo'lida shoirimiz Elbekning oncha xizmatlari bo'lib turadir.

Biz uning masallaridan birtasini tubanda yozib ko'rsatamiz:

Iki tulki

Bor edi bir o'rmonda iki tulki,
Ularning tirikligi edi turli.
Biri har kun to'qayliqqa tomon ketib,
Ovqatini o'tkazardi emgaklanib.
Ikinchisi ovlar edi bog'chalarni,
Yerdi undan o'g'irlab ko'b yemishlarni.
Bir kun bular yo'l ustida ko'rushdilar,
Bir-biridan hol-ahvol so'rushdilar.
Har ikisi o'z turmushin so'zlab o'tdi,
Bu orada bir ko'b so'zlar bo'lub ketdi.
So'z ichida o'g'ri tulki o'z turmushin,
Ko'b maqtadi unda yegan bor yemishin.
Go'yo uning aytishicha bog' yemishi,
Hech mehnatsiz, butun uning qo'lida edi.
Bu so'zlarga u tulkining aqli shoshdi,
To'xtamadi ul-da shundan og'iz ochdi.
O'z ishining mashaqqatsiz bo'lmag'anin,
Mehnat bilan sira qorni to'ymag'anin
Aytdi, qo'ymay, barchasini kuyub-yonib,
O'g'ri tulki tinglab turdi quloq solib,

So'zlar bitgach iki yoqdan, o'g'ri tulki
Dedi, qarab o'rtog'iga: «Kel, buni ye,
Bundan so'ngra mening ila birga bo'lgil,
Qorning to'yib, mendek sen ham o'ynab kulgil
Deb, ul tulki o'zi bilan olib ketdi,
Uzoq bormay, bular bitta boqqa yetti.
Har ikovi bog' ichiga kirishdilar,
Bog'da bo'lg'an yemishlardan yeyishdilar.
Shul choq bog'bon bulardan tez xabar topdi,
Hoy-hoy bilan bular tomon qarab chopdi.
O'g'ri tulki tez-tezgina ko'rgan yo'ldan,
Yashirinib, bildirmasdan chiqib qochdi.
Haligi tulki yo'l bilmayin tutulib qoldi,
Qo'rqushidan titrab-qaqshab, voy-voyladi,
Buning tovushin eshitgach ul o'g'ri tulki
Qattig' tovush bilan chaqirib buni dedi:
– Endi qachon ko'rushamiz, ham qayerda?!
Ikinchisi javob berdi yig'labg'ina:
– Erta bilan ko'rushamiz teri bozorda. *(Elbek)*

DOSTON

El adabiyoti faslida aytkan edik: buyuk voqealarga aralashqon qahramonlarning boshidan o'tkazganlarini tasvir etib yozilg'an shoirona asarlarg'a *doston* deyiladir.

Dostonlarni to'rtka ajratmoq mumkindir:

1) qahramon dostonlari; 2) klassik dostonlar; 3) taqlidiy-klassik dostonlar; 4) yangi zamon dostonlari.

Qahramon dostonlari: xalq qahramonlari aralashqon buyuk voqealarni tasvir qilib, xalq baxshilari tomonidan xalq cholg'ulari bilan o'qilg'an dostonlardir. O'zbekcha «Alpomish» dostoni va boshqalar kabi. Kitobimizning el adabiyoti faslida bu to'g'rida ancha so'zlandi.

Klassik dostonlar: xalq orasidag'i qahramon ashulalari, qahramon dostonlari ham shularg'a oid ertaklar talantliiste'dodli san'atkor bir shoir tomonidan to'planib, bir-biriga boylanib, bezanib, to'la, ulug' bir doston shaklida tuzulgan bo'ladir. Forslarning «Shohnoma» degan kitoblari shunday bo'lub tuzilgan. Mashhur Eron shoiri Firdavsiy Eronning tarixi, afsonaviy qahramonlari to'g'risida bo'lg'an xalq ashulalari, xalq dostonlari, xalq ertaklarini yig'ib, o'ttuz yil tirishib, shul «Shohnoma»sini yozg'an. Bunday dostonlarga

klassik dostonlar deyiladir. Yunonlarning mashhur «Iliada» degan dostonlari shunday dostonlarning birinchisi ham atoqlisi hisoblanadir. Bunday dostonlar bizda yo'qdir. Yolg'uz biz emas, butun turk adabiyoti bunday klassik dostonlardan mahrumdir.

Taqlidiy-klassik dostonlar: otidan onglashilg'andir: yuqorida ko'rulg'an klassik dostonlarga ergashib (taqlidiy qilib) yozilg'an asarlarga *taqlidiy-klassik dostonlar* deyiladir.

Navoyining fors klassik shoirlarig'a ergashib yozg'ani «Layli-Majnun», «Farhod-Shirin», «Haft manzar»[70], «Iskandarnoma»[71] otlari bilan mashhur bo'lg'an dostonlari hamda balxlik Durbekning «Yusuf-Zulayho»si shunday dostonlardandir.

Yangi zamon dostonlari: shoir-adib el adabiyotiga murojaat qilmay, o'z ma'lumoti yo o'z xayolining yordami bilan voqeiy, xayoliy bir qahramon to'g'risida doston yozsa, uning asari «yangi zamon dostoni» ataladir. Mashhur chig'atoy-o'zbek shoiri Muhammad Solihning «Shayboniynoma»si bilan bukun o'zbek shoiri G'ulom Zafariyning «Cho'lpon temir», «Vonnaycha» degan dostonlari shul yangi zamon dostonlaridir.

HIKOYA

Bir kimsaning hollarini, bir voqeani tasvir etib, rivoya yo'sunli yozilg'an asarlarga *hikoya* deyiladir. Hikoya o'z qahramonining ruhiy hollarini ochib beradir: tirikchiligimizda bo'lub turg'an ko'b voqealarning qorong'u puchmoqlarini oydinlatib ko'rsatadir. Yomonlig'i tuzukkina sezilmagan ko'b odatlarimizni butun foje' natijalari bilan gavdalantirib, o'zimizga ko'rsatadir. Shuning uchun hikoya hayotda muhim o'rin tutadir. Cho'lponning «Qor qo'ynida lola», «Oydin kechalarda»si hayotimizning foje' lavhalarini tasvir qilg'ani uchun muhim hikoyalardandir. Abdulla Qodiriyning «Tinch ishi»i, «Uloqda»si adabiyotimizdag'i go'zal hikoya namunalaridir. Shoir Elbekning «Qo'shchi Turg'un»i uzun hikoyadir.

RO'MON

Hayotning belgili bir davrini keng suratda tasvir etib yozilg'an asarga *ro'mon* deyiladir. Dostonda qahramonning qilg'an ulug', favqulodda ishlari tasvir etiladir.

Hikoyada bir voqea, bir-iki kishi, hayotning birgina hodisasi butun ingichkaligi bilan ochiladir. Ro'monlarda esa asarning qahramoni yo qahramonlari qaysi zamonda, qaysi

muhitda, qaysi jamiyatda yashag'an bo'lsalar, shularning urf-odat, qonun, tilak, havas, orzu, kamchilik, axloq, e'tiqodlari ingichka ham keng suratda tasvir etiladir.

Tomosha asarlarida ko'rganimiz to'lalik, birlik, to'g'rilik kabi shartlarning ro'mon bilan hikoyada ham bo'lishlari lozimdir.

Rivoya asarlari orasida eng muhim o'rin ro'monlarg'a berilgandir; biroq adabiyotning eng og'ir, eng qiyin sho'basi ham ro'mon yozmoqdir. Bizning adabiyotda Abdulla Qodiriyning «O'tkan kunlar»idan boshqa ro'mon hali maydonga chiqmag'andir.

ADABIYOTDA OQIM ISTILOHLARI

Klassitsizm. Taqlidiy klassitsizm. Soxta klassitsizm. Ratsionalizm. Sentimentalizm. Ro'mantizm. Simvo'lizm. Mo'dernizm. Realizm. Naturalizm. Futurizm.

Klassitsizm: Miloddan burun mashhur bir yunon tanqidchisi[72] tomonidan yunon shoirlari ham alarning asarlari tekshirilib, tanqid etilib, darajalarg'a ajralg'an. Mana shul vaqtda darajalarg'a ajralg'an shoirlarga *klassik shoirlar,* asarlariga-da *klassik asarlar* deyilgankim, boshqalarga o'rnak bo'larlik *mumtoz asarlar* demakdir. So'ngralar bu atama butun adabiyot dunyosiga umumiy bir atama shaklida qabul etilgan, har millatning adabiyotida bo'lg'an mumtoz asarlarga, mumtoz shoirlarga klassik deyishgan. Fors adabiyotida Sa'diyning «Guliston»i, Firdavsiyning «Shohnoma»si, Nizomiyning «Xamsa»si klassik asarlardan. O'zlari-da klassik shoirlar sanaladirlar.

Taqlidiy klassitsizm: klassik asarlarni taqlid qilib yozilg'an asarlarga *taqlidiy klassik asarlar* deyiladir. Fors klassiklaridan Nizomiyning «Xamsa»sini taqlid qilib yozilg'an Navoyining «Xamsa»si, fors klassik devonlarini taqlid qilib yozilg'an she'r devonlarimiz taqlidiy klassik asarlar sanaladirlar.

Soxta klassitsizm: yunonning klassitsizm davri miloddan burun edi. Oning asarlari miloddan burung'i Yunonistonning hayot, tabiat, axloq, iqtisodiy vaziyati ta'siri ostida maydong'a chiqqan edi. Ondag'i ta'birlar, so'zlar atamalar, sufatlash ham o'xshatishlarning hammasi shul miloddan burung'u yunon hayotining yumushlari edilar. Miloddan 15 asrdan keyin Ovro'paning turli o'rinlarida shul yunon klassik asarlarini taqlid qilish havasi uyg'onadir. Ular o'z hayotlari-

dag'i voqealarni miloddan burung'i shakllarda ifoda qilmoqqa tirishkanlar. Hech tushunmay, o'ylamay, oradag'i 15–16 asrlik bir zamon ayirmasini hisobga olmay, yunon klassiklarini taqlid qila berganlar. Mana shularning asarlariga *soxta klassitsizm* asarlari deyilgan. Bizda ham Eron adabiyotini o'ylamasdan taqlid qilib maydong'a chiqarilg'an soxta klassik asarlari ko'bdir.

Ratsionalizm: bu har mas'alada, har xususda aqlni ustun ko'rgan, aqlg'a juda yuqori o'run bergan bir falsafa (aqliyun falsafasi)ning atamasidir. Adabiyotda ham shul falsafaga boylanib, xalqni oqartish, odamlarga fikriy tarbiya berishni asos qilib olg'an adib-shoirlarga shul atama berilgandir. Bu oqimdag'i asarning eng ochiq namunalari burung'i turk adabiyotida Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig»i, Ahmad binni Mahmudning «Hibat ul-haqoyiq»idir. Bizning chig'atoy-o'zbek adabiyotida Navoyi ham o'zining «Mahbub ul-qulub», «Hayrat ul-abror» kabi asarlari bilan bu oqimga xizmat qilg'an. So'fi Olloyor, Ahmad Yassaviy kabi shoirlarimizga kelganda bular «diniy oqartish» shoirlaridirlar. Bularga har narsadan yuqori, ustun bo'lg'an aql emas, dindir! Oqartish oqimining ochiq o'rnaklari bizning jadidizm davrimizning adib-shoirlari bo'lg'an Behbudiy, Avloniy, Tavallo, Hoji Muinlardir.

Sentimentalizm: bu aqliyun oqimig'a qarshi bo'lg'an falsafa (hissiyun falsafasi) oqimining atamasidir, mana shul falsafa oqimiga yondoshqon adabiy oqim *sentimentalizm* oqimidir, bu oqimdag'i shoir-adiblar bu jismoniy, moddiy dunyomizdan boshqa ma'naviy, ruhoniy bir dunyoning borlig'iga ishonadir. Ko'zimiz oldida op-ochiq, yap-yalang'och turg'an mana shul moddiy haqiqatdan boshqa bir an'anaviy haqiqat bor deb o'ylaydir. Biroq «Qani bu haqiqat?», «Qani bu ma'naviy olam?» desangiz, unga aql bilan, fan bilan, tajriba bilan erishib bo'lmaydir. Unga birdan bir yo'l – tuyg'udir, hisdir, deyiladir. «Ular gumon qiladirlarkim, dohiy shoirlar va san'atkorlar-da bu ma'naviy olamga qarab ko'rmak iste'dodi kattadir. Mana shu iste'dod ko'magida ular ba'zi haqiqatlarni aqlg'a, ilmg'a qarag'anda burunroq xabar beradirlar». Ko'riladirkim, bu oqim asos-e'tibori bilan ro'montizm oqimining o'rtog'idir. Bizning adabiyotda bu oqimning namoyandalari tasavvuf maslakida bo'lg'an shoirlardir. Eng

buyuk tasavvufchi shoirlarimiz Ahmad Yassaviyni shu oqimning kishisi deb ko'rsatmak mumkindir.

Ro'montizm: san'at har turli qayddan ozoddir degan; ko'ngil, tuyg'uni ongdan, tajribadan yuqori tutqon, idealizm ketidan yugurgan adabiy bir oqimdir. Bu oqimdag'i shoir-adiblarning fikrlariga ko'ra she'r falsafa bilan dinning aralashmasidan iboratdir. Bular ham ma'naviy olam, ichki dunyolarg'a ishonadirlar, o'zlarini sevadirlar, o'z tuyg'ulariga eng katta ahamiyat beradilar. Bizning inqilobgacha adabiyotimiz boshdan oyoq bir ro'montizm tengizidir. Ro'montik fors adabiyotidan ozuqlanib, shunga ergashib borg'an chig'atoy-o'zbek shoirlarimizning hamalari ro'montizm oqimining kishilari. Ularning boshqa adabiy oqimlarga asar berishlari yolg'uz shu oqimg'a bir-iki asar bermak uchungina bo'lg'an. Asl san'atlarini, tub hunarlarini esa ro'montizm maydonida ko'rsatkanlar. Yangi shoirlarimizdan ro'montizmning ulug' namoyandasi Cho'lpondir.

Realizm: turmushni, hayotni bo'lg'ani kabi, xayol bo'yovlari bilan bo'yag'an adabiy oqimg'a realizm (haqiqiylik) deyiladir. Bu oqim shoirlarining asos yo'llari hayotni, turmushni butun inkichkaliklari bilan o'rganib o'rgatishdir. Bizning yangi adibimizda Botu ham uning o'rtoqlari bilan birga ro'montizmdan qutulib, realizm maydoniga kirmakdadir.

Simvolizm: ramzchilik demakdir. Bizning tasavvufchi shoirlarimiz orasida bu oqim juda maqbul edi. Forsiy tasavvuf adabiyotidag'i ramzchilik bizning so'fiy shoirlarimiz tomonidan ayrim qabul etilgan. Ularning aytkanicha, sharob, ishq, muhabbat ham ma'rifatning ramzi. Sharob berguchi (soqiy) tasavvufdag'i pir-ustodning ramzi bo'ladir. Bulardan biri «men bu kecha soqiy qo'lidan bir piyola may ichdim» desa, uning bu so'zidan «men pirimdan maslakimizg'a oid yangi bir narsa o'rgandim» fikrini onglash kerak. *Simvolistlar* asos-e'tibori bilan ro'montizm oqimining kishilaridirlar.

Mo'dernizm: bu oqim yangi ro'montizm oqimidir. Bu oqim ijtimoiy harakatlarga, fanniy tushunishga qarshi bir oqimdir.

Naturalizm: bu oqim realizmdan ayrilg'an bir oqim kabidir, realizm oqimi hayotni, turmushni tasvir etishka berilsa, bu oqim yolg'uz tabiatnigina, oning yaxshi o'rmonlarini, yuksak tog'larini, oqar suvlarinigina tasvir etishka beriladir.

Futurizm: bu oqim yigirmanchi asrning boshlarida Italiyada maydong'a chiqqan bir oqimdir, futuristlarning asoslari harakat ham tezlikdir. Bular yangi go'zallik, mashina go'zalliklarini maqtaylar. Vaznda ozodlik tarafdori bo'lg'an futuristlar jumla tuzishni ham nahv qoidalaridan «ozod qilmoq» istaylar. Sufatlar, tinish belgilari, ko'makchi so'zlarni ishlatmaylar. Fe'llarni hech ishlatmaylar, fe'l o'rnida «ish ismlari»dan «yozish», «o'qush», «kelish...» kabilarnigina ishlatadirlar. She'rda raqam ishlatmakni maqbul ko'radirlar. O'zlaricha yangi so'zlar yasaydirlar. Bizda bu oqimning namoyandasi Oltoydir.

O' Q U V

(Birinchi bo'lak. Ibtidoyi maktablarning so'ng sinflari uchun)

PILLA URUG'I

Marg'ilon shahrida Sevar bibi denilgan (deb tanilgan) bir xotun bor edi. Bir kuni meni ko'rub dedikim:

– Bundan besh yil burun man ko'p qashshoq edim. Erim o'lgan, undan iki kichkina qiz qolgan edi. Uningbuning uyini supirib, kiyimini tikub, kun o'tkazardim. Bir kun ish topolmadim. Yonimdag'i chaqalarg'a non olib yedik. Ertasi kun yana ish topolmadim. Qopchiqimda[1] oqcha ham yo'qdi. Tun yaqinlashdi, kichik qizlarim ochliqdan yig'laya boshladilar. Ko'p garang bo'lib qoldum. O'ramimizning[2] nari boshinda bir boy xotun bor edi. Shuning yoniga keldim, holimni aytdim. Xotun ojurg'andi[3], dedikim:

– Yangajon, sizga bir-iki oqcha[4] bersam, shu kun yeb bitirarsiz. Yana ertaga yana shu holga tusharsiz. Sizni shu yamon kundan qutqarurg'a kerakdir. Bu oshni olib bolalaringizga eltib bering. Mana uch oltunni ham sizga burj[5] berayin. Bir oltung'a pilla urug'i sotun oling[6]. Issiq uyda saqlang, qurt chiqarar. Qurtlarg'a tut yaprog'i bera buyuting (katta qiling). Qurtlar oz vaqtda g'o'za[7] qo'yarlar. G'o'zalarini ipakchilarga sotarsiz. Qolg'an iki oltunini u kungacha ozuq qiling. G'o'zalarni sotgach, manim uch oltunimni berarsiz.

– U yaxshi xotunning uch oltunini olub chiqdim. Bergan oshi bilan shu kechani o'tkazdik. Ertasi kun bozordan pilla urug'i olib, boy xotunning aytganicha boqdim. G'o'zalarini o'n oltung'a sotdim. Xotunning uch oltunini

qulluqlar bilan berdim. Shundan beri har yili pilla urug'i olaman. Oqcham ko'paydi, Tangriga shukur. Kunimiz yaxshi kechib borotibdir.

TAMRIN[8]:

Sevar bibi qanday kun o'tkara edi? Qayerg'a ketdi? Nima oldi? Nima qildi?

KO'RULMAGAN NARSAGA ISHONMA

Bir kuni maktabimizning bog'chasinda muallim afandimizning ko'rsatishi bo'yincha o'ynaya edik. Shogirdlardan Tuyg'unbek kelib muallim afandiga dedikim:

– Afandim! Yarashning uyida uch kumush tovushqon[9] bor ekan.

Muallim: – Qanday tovushqonlar ekan onlar?

Tuyg'un: – Jonli ham kumushdan yaratilg'an!

Muallim: – Kim dedi sanga?

Tuyg'un: – Ergashboy dedi.

Muallim: – Ergashni ketur!

Tuyg'un Ergashni ergashtirib keldi.

Muallim: – Yarashning uch kumush tovushqoni bor ekanin sanmi ko'rding?

Ergash: – Uch emas afandim, iki.

Muallim: – Sen ko'rdingmi shunlarni?

Ergash: – Yo'q afandim, To'g'onboy dedi.

Muallim: – Ketur To'g'onni.

To'g'onni keturdilar.

Muallim: – Yarashning iki tovushqoni bor?

To'g'on: – Ha!

Muallim: – Joni ham bormi?

To'g'on: – Bor, afandim.

Muallim: – San ko'rdingmi?

To'g'on: – Yo'q afandim, Yarashning o'zi aytdi.

Muallim: – Ketur Yarashni.

Yarash keldi.

Muallim: – Sening kumushdan tovushqonlaringmi bor?

Yarash: – Yo'q!

Muallim: – O'zing aytgansan-ku!

Yarash: – Kimga?

Muallim: – To'g'onga.

Yarash: – Yo‘q, afandim! Man uyimizda oppoq tovushqon bor. Tuklari kumush kabi degandim.

Muallim: – O‘rtog‘lar! Ko‘rmaganingiz narsalarga sira ishona bermanglar, so‘ngrasi uyot bo‘lur.

TAMRIN:

Tuyg‘un nima dedi? Muallim nega bolalarni keturib so‘radi? So‘zning tubi nima ekan?

TURSUN QANDAY BOY BO‘LG‘AN

O‘g‘lum ish seni izlab ketmas, sen ishni izlab ket.

Tursun o‘n besh yashar bir yigit edi. Maktabni biturib chiqdi. Uch-to‘rt kun uyiga kelib o‘turdi. Ko‘rdikim, otasining qo‘lindan ish kelmaydir. Singlisi kasal bo‘lub yotkan. Yolg‘iz onasining uni(ng)-buni(ng) ishini qilib topdig‘i ozg‘ina oqcha bilan to‘rt kishining kun o‘tkarmagi qiyin.

Tursun himmatsiz yaramaslardan emasdi. Tog‘dek bir yigit onasining emganib keturdig‘i nonga ko‘z tikib tursunmi? Mana shunga rozi bo‘lolmazdi. Biror ish topilarmikan, deb uydan chiqdi. Uning-buning do‘konlariga borib qaradi. Kimsa: «Kel, o‘g‘lum, shu ishni qil, oqchani ol», demadi. Tursun shoshib qoldi, o‘z holig‘a yig‘lab keldi. Uyga ketayin dedi, uyolib oyog‘larini yerdan ko‘tarolmadi. Bir devorga tayanib o‘turdi. Boshini qo‘liga olib o‘yladi... o‘yladi. Birdan sevinib tura qoldi. Esiga Ergashboyning zovuti kelgan edi. Zovutga qarab yugurdi. To‘g‘ri Ergashboyning yoniga borib, salom berdi. Ergashboy javob berdi:

– Ha o‘g‘lum, nima ishing bor? – dedi.

Tursun: – Zovutingizda ishlamoq uchun keldim, boy bobo, – dedi.

Ergashboyga ko‘p ishchi kerakdi:

– Yaxshi qilibsan, o‘g‘lum! Mana shu arobalardagi momuq qanorlarini ko‘tarib omborga eltib tashlayber. Oqshom shu ishchilarga qancha oqcha bersam, senga ham berarman, – dedi.

Tursun suyindi. Yugurub arobalar sari ketdi. Qanorlarni toshib, omborga beraberdi. Boshqa ishchilardan ko‘proq tirishdi. Oqshom bo‘ldi. Ergashboy Tursunga iki tanga oshiqroq berdi. Tursun sevina-sevina uyga kelub, oqchalarni onasiga berdi va ishni onglatdi. Bundan so‘ng ham har kuni erta bilan zovutga borib, oqshom kunligini olib qayta(r) edi. Oqcha ko‘paydi.

Kasal bo'lib yotgan singlisi uchun do'qtur chaqirib davolatdi. U daxi sog'oldi.

Bir kun Ergashboy Tursunni chaqirib, dedikim:

– O'g'lum! Ko'b to'g'ri va ishonchli yigit ekansan. O'quv bilan yozuving daxi bor ekan. O'zingga yarasha bir ish berayin sanga. Undan keyin yuk tashimoqni qo'y. Mana shu daftarni ol, zovutdagi ishchilarning cho'tini saqlag'il.

Tursun qabul qildi. Bugun Tursun o'shal zovutning mirzasidir.

TAMRIN:

Tursun qanday holda edi? Nega ish arar (oxtarar)g'a chiqdi? Qay ishga kirdi? Ishchilarning orasindan chiqub mirza bo'lurg'a sabab nima?

TIRISHKANLAR OCHUNI

Yaxshiboy kentning[10] oqsoqolidir. O'g'uz denilgan[11] bir kichik o'g'li bor. Bir kuni namozdan chiqub, boqqa kirdilar. Yaxshiboy O'g'uzning qo'lini oldi. Og'ochlar[12] uzra uchushib yurgan bolarilarni ko'rsatdi. Dedikim:

– O'g'lum mana bularni ko'r. Bizga bol yasab bermak uchun kerak bo'laturg'an narsalarni oxtarib yurub(di)lar. Mana bu qushlarni ko'r. Bola-chaqalari uchun yem oxtararlar. Biroz yuqoriroqqa ko'z sol. Yellar bulutlarni haydab keturalar. Bulutlar ekinlarimizni sug'ormoq uchun yog'mur[13] yog'alar. Bu yondan yerimizni isitmoq uchun quyosh daxi[14] chiqdi. Shu yo'lga ham qaragil! Bu ho'kuzlar yerlarimizni surarg'a[15] ketalar. Bu otlar yuklarimizni tashiylar. Bu kishi ekinchidir[16]. Yerlarimizni ekarga keta(r). Bu kimsa tegirmonchidir. Bug'doyimizni un qilurg'a boradir. Oyoq ostiga ham ozgina boq! Shu qumursqalarni ko'r. Qish ozuqlarini to'plab tururlar. Man daxi yarim soatdan keyin o'z ishimga ketarman. O'g'lum! Ochun tirishkanlar ochunidir. Shuncha odamlar, ho'kuzlar, otlar, yellar, bulutlar, arilar, qumursqalar tirishkandan keyin san tirishmay o'tirsang tuzukmi?!

Yaxshiboyning bu yaxshi so'zlarundan O'g'uzning o'ktamligi qo'zg'aldi, dedikim:

– Yo'q, otajonim! Man ham tirishurman. Buyuring, qanday tirishayin?! Yo'l ko'rsating!

– Yaxshi o'qurg'a tirish, o'g'lum! O'qurg'a!

O'g'uz chopib uyiga kirdi va kitoblarini olib ketdi. Qayerga ketdi, bilasizmi? Maktabga.

TAMRIN:

Bol nimadan bo'lur? Bulutlarni havoda nima haydab yurar? Yaxshiboy boshqa ishlarni qo'yub nega O'g'uzni o'qurg'a buyurdi?

IMOM G'AZZOLIY

Burung'i musulmonlarning ulug' xoqonlari bilan, o'ktam boturlari bo'ldig'i kabi yuzlarcha kitob yozaturg'an katta mullalari daxi bor ekan. O'shal mullalarning buyukroqlaridan biri Imom G'azzoliy[17] Bag'dod shahrindag'i ulug' bir madrasada o'qub, o'z o'lkasiga qaytmoqchi bo'ldi. Kitoblarini xurjunga solib, otga yukladi. O'zi otga minub, o'lkasiga qarab jo'nadi. Iki kundan so'ng katta bir tog'ning etagiga borib qo'ndi. Kechani shu yerda o'tkarib, tong otarda yerindan qalqdi. Shu toqqa chiqmoq uchun otlandi. Tog'ning teppasiga chiqg'ach, bir necha qaroqchiga yo'luqdi. Qaroqchilar Imom G'azzoliyning otini, oqchasini, kitoblarini oldilar. O'zini yapyalang'och qilib ketdilar. Imom daxi o'z yo'lini qo'yub shunlarning ketidan ketaberdi. Bosh qaroqchi orqag'a qarab, Imomni ko'rgach qizub ketdi[18]. Qichqurib dedikim:

– O'y, mulla kishi! Orqamizdan kelma, yo'qsa, boshingni ham olaqolurmiz.

Imom G'azzoliy yolborib dedikim:

– Tog'olarim! Birgina arzim bor, shuni aytgani kelotibman. Yomon ishim yo'q.

Bosh qaroqchi: – Nima arzing bor?

Imom: – Oqchalar bilan kiyimlarim va otim halolingiz bo'lsun, yolg'iz shu xurjunimdag'i narsalarni qaytarib beringlar, ularning sizlarga kerakligi yo'qdir.

Bosh qaroqchi: – Nima bor xurjunda?

Imom: – Kitoblar bordir. Bog'dod shahrinda o'n yil tirishub, emganib, o'qug'an va o'rgangan narsalarim shu kitoblardadir. Bunlarni olib ketsangiz, menim emgaklarim kuyub ketar, burung'i kabi keyin bilgusiz bo'lub qolurman.

Bosh qaroqchi imomning bu so'zlariga kuldi va dedikim:

– O'n yil tirishib o'qug'anlaringni nega ko'nglingga yerlashdirmading. O'rgangan narsalaringni ko'nglungda saqlasayding, bu kitoblaring yo'qalmasindan sanga bir zarar kelmas edi. Mana ol, kitoblaringni! Lekin yo'ldan yana biri chiqub qo'lingdan olirsa, san yana bilgusiz bo'lub qolursan.

Imom G'azzoliy bosh qaroqchining bu so'zlaridan ibrat oldi. Kitoblarini olib, yo'lindan qaytdi. Yana Bog'dodga keldi, darslarini qayta boshdan o'qudi. Biroq bu daf'a o'qudiqlari yurakinda saqladi.

TAMRIN:

Imom G'azzoliy kimdir? Bog'dod shahri qayerdadir? Imom nechun qaroqchilarning orqasidan ketdi? Qayta Bog'dodga kelub nima qildi?

XURUS[19]NING SO'ZI

Bir kun muallim afandi dars uchun kirdilar. Oybekdan boshqa butun bolalar kelgandilar. Besh daqiqa so'ngra Oybek daxi kirib keldi. Uyqudan yangig'ina qalqib keldigi qaboqlarindan bilinub tura edi. Muallim afandi Oybekka qarab dedilarkim:

– Oybek! Uyingizda xurus yo'qmi?

Oybek: – Bor afandim. Bir qizil xurus bor.

Muallim: – Tongotardan burunroq qichqirmaydirmi?

Oybek: – Qichquradir, afandim.

Muallim: – Nima deydir?

Oybek: – Qu... qu... qu... qu..! – deydir, afandim.

Muallim: – Ofarin, o'g'lum! Ma'nosini ongladingizmi, o'g'lum?

Oybek: – Man xurus tilini bilmayman-ku!

Muallim: – Unday bo'lsa man bildirayin sizga. Xurus deydirkim: qu... qu... qu... qu..! Yaxshi bolalar! Tun kechdi, quyosh chiqa boshladi, uyqu chog'i tugandi, ish soati kelub qoldi, yotoqdan turing endi. Qu... qu... qu... qu..! Kichik qo'zilar! Ekinchilar yer-suvlarg'a, mullo bobo azon o'qurg'a, temirchilar cho'kich urarg'a, qushlar sayrab-uchushurga chiqdilar. Siz yotoqda qolmang, uyotdir, turinglar endi.

Mana, o'g'lum! Kichkina xurusning so'zi shudir. Uning u o'gratulariga quloq bermak, erta bilan yotoqdan qalqmoq kerakdir.

TAMRIN:

Afandi, yeringizdan turub, xurusning so'zlarini bizga onglating.

SEVARNING YARAMASLIG'I

Sevar kechkina bir qiz edi. Akasi Temurning yaxshi so'zlarini tinglamas edi. Bir kuni ikala qardosh boqqa chiqdilar.

Sevar chechaklar ustinda uchub yurgan bir kapalak(ni) ko'rib, olmoqchi bo'ldi. Temur qo'ymadi. Dedikim:

– Shu bechorani olib nima qilursan? Shuning daxi ota-onasi bordir. Sen buni tutsang, unlar bolalaridan ayrilib qolurlar. Sani qarg'ab yig'larlar. Yoziqdir[20], olma shuni. Qo'y, ozgina o'ynab, uyiga ketsun.

Sevar akasining bu yaxshi so'zlarini tinglamadi. Kapalakni olib, qanotini uzdi. Biroz o'tgandan keyin u bechorani qo'l-oyog'i kesilgan kishilarga o'xshatib, yerga tashladi.

Shu yerdan uchub boraturg'an bir qizil ari kapalakka ojirg'an kabi bo'lib, ustiga keldi va bir-iki aylandiqdan so'ng qo'ndi. Kapalakning u yon, bu yonini ko'rarga boshladi. Sevar bu arini daxi olmoqchi bo'lib yugurdi.

Temur dedikim:

– Endi bunga tegma, ho!

Sevar kulib so'rdi:

– Tegsam nima bo'lur?

Temur: – Tegsang parmog'ingdan chaqib, seni ertagacha yig'latar.

Sevar Temurning bu so'zlarini ham tinglamadi. Yavoshgina[21] qo'lini uzatib arini olg'ach «A.. a.. onajon» deb qo'lini tortdi. Ari bechora Sevarning kichkina parmog'ini chaqib qochmish edi. Parmog'i qizarib, shisha boshladi. Temur bir ip topib bechoraning parmog'ini bo'g'umidan bog'ladi. Sevar yig'lab uyiga keldi. Onasi yotog'iga yopib berdi. Sevar uzanib yarim kechagacha ingradi. Ondan keyin uyqusi keldi. So'ngra uxladi. Erta bilan yotoqdan qalqib, akasini ko'rgach uyoldi:

– Akajonim! Sening so'zingni tinglamay yoziq etdim, – dedi.

Temur og'irliq bilan shu javobni berdi:

– Yaxshi so'zni tinglamasdan yaramaslar yomon kunga tushgandan so'ngra uyolib qolurlar.

TAMRIN:

Sevar kimdir? Qayerg'a ketdi? Nima qilmoqchi bo'ldi? Kapalakni tutmasi yaxshimi bo'ldi? Qanday zarar ko'rdi? Akasi nima dedi?

FANNIY BILGULARDAN: YER

Muallim afandi bir kuni darsga kirgach, bolalarni ko'zdan kechirdi va To'xtamish afandini turg'uzub so'radi:

– O'g'lum! Jo'g'rofiyo o'qudingizmi?

To'xtamish: – O'qudum, afandim.

M.: – Ustinda yashadig'imiz va kezdigimiz narsaga nima deylar?

T.: – Yer deylar. Arz deyaturg'anlar ham bor.

M.: – Ofarin, o'g'lum! Yerning shakli qalaydir?

T.: – Tarbus kabi lo'ndadir[22], afandim.

M.: – Ko'b yaxshi. Butun yer yuzi shu bizim o'lka kabi quruqmidir?

T.: – Yo'q, afandim! Yerning uchdan biri quruqlik bo'lib, uchdan ikisi suvdir.

M.: – Yerdan uchdan ikisini qoplab olg'an o'shal suvlarga nima deylar?

T.: – Bahri muhit[23] deylar, afandim.

M.: – Ofarin, o'g'lum! Siz o'turing endi. Aynoq afandi siz turing. Aynoq afandi yerindan qalqar.

M.: – Yerning quruqlik bo'lgan uchdan birida ham suv bormi?

Aynoq: – Bor, afandim.

M.: – Necha turli suv bor?

A.: – Iki turli suv bor: biri oqaturg'an suvlardirki, kichkinasiga ariq, kattasiga nahr[24] derlar. Ikinchisi, oqmayturg'an suvdirki, ko'l deylar.

M.: – Boshqa?

A.: – Bizim o'lkada har shaharning har mahallasida bir suv ko'lmagi bordir. Bunlar ham kichkina ko'llarga o'xshayur. Bunlarg'a hovuz deyarlar.

M.: – Ko'b yaxshi! Bizim o'lkamizdagi nahrlarning otlarini ayting?

A.: – Amu, Zarafshon, Sirdaryo nahrlari.

M.: – Ofarin, o'g'lum! O'turing emdi.

TAMRIN:

Yer nimadir? Bahri muhit nimadir? Nahr nimadir? Ko'l nimadir?

OLTUN YER OSTINDADIR

To'g'onbek Esonboy denilgan bir ekinchi boyning o'g'li edi. O'quv uchun Petrog'raddaki ulug' bir maktabga kirgandi. Ta'til chog'ida ota-onasini ko'rgali Toshkentga keldi. Esonboyning o'rtog'laridan uch katta boy bir kecha To'g'onbekni ko'rarga keldilar. Ko'rushub, gapirushub o'turdilar. To'g'on-

bekning maktabindan va maktabda o'qutulaturg'an darslardan so'z ochdilar. To'g'onbek maktabining ulug'ligini, muallimlarning yaxshiligini va darslarning qay ilmlardan edukini hurmatli qo'noqlarga[25] aytib berdi. Boylarning kattasi bo'lgan To'xtamishboy dedikim:

– O'g'lum To'g'on! Bu maktabni bitirgach, qay ishga kirmakchi bo'lasan?

To'g'on: – Petrog'raddaki ekinchilik maktabiga[26] kirmakchiman.

To'xtamishboy: – Ofarin, o'g'lum! Tiriklikda ish egasi bo'lmoqdan yaxshiroq yo'l yo'qdir. Shu uyda o'turgan biz to'rt kishini ko'r: to'rtovimiz ham ish erlarimiz. Otang ekinchidir, yerdan bir-iki qarich qazib sepdig'i urug'idan botmonlab bug'doy, arpa, momuq kabi narsalar olur va bu ishdan necha ming oltunlar topubdir. Mana bu o'rtog'im Qutlug'boy yerdan ozgina chuqurroq qozib, temir o'choqlari topgan. Yildan necha ming botmon temir chiqarib, har yonga yuborib sotadir. Mana bu yo'ldoshim Berdiboy yer yog'i[27] buloqlari ochub, ustlariga zovutlar qurub, ulug' o'lkalarning butun kishilariga yer yog'i bera(r) va shu yo'ldan yuz binglarcha oqchag'a ega bo'lubdir. Men o'zim daxi yer ostidan toshko'mir o'chog'i topdim. Bu kun Rusiyadaki fabrikalar, zovutlar va temir yo'llarning ko'proq oqchalarini tortib olotibman. Mana shu to'rtimizning necha boyligimiz yer ostidan chiqarilg'an narsalardandir. O'g'lum, shunlarni esingda saqla. Unutmakim, oltun yolg'iz yer ustinda emas, ko'brog'i yer ostindadir.

TAMRIN:

To'g'on qaysi shaharda o'qiy ekan? Toshko'mir qayerdan chiqa(r)? Yer yog'i-chi?

TILANCHI BOBO

Qishning qorli bir kuni edi. Muallim afandi dars uchun kirib yerinda o'tirdi. Dedikim:

– Necha kundan beri sizlarga gapirib kelotubman, siz gapurmay o'turasiz. Bu kun sizlar gapuringlar, men tinglayman. Hayda Turg'unboy, shu kun o'ramda nima ko'rgan bo'lsang bizlarga onglat.

Turg'unboy yerindan qalqdi va muallimg'a qarab yo'qsuk[28] tovush bilan ayta boshladi. Dedikim:

– Shu erta bilan uydan maktab sari necha odim otgan, o'ramimizning boshida qorlar ichinda bukulib o'tirgan oqsoch, yirtiq choponli, uchuk tusli[29] qari bir tilanchini ko'rdim. Sovuqdan titray edi. Holig'a ojurg'andim. Yoniga borub dedim: «Bobojon! Bu yerda nechun o'turubsiz? Erta bilan bu kichik o'ramdan kim o'tib, sizga oqcha berar? Sovuqqa chidayolmay kasal bo'lasiz. Uyingizga ketib isinib o'tursangiz, yaxshiroq emasmi?». Bobo boshini qoldirub: «Oh, o'g'lum! – dedi. – Men bolaligimda sen kabi o'qumadim. Tutash maktabdan qochtim. Otam o'ldi, undan ko'p oqcha qoldi. Bir do'kon ochib o'turmadim. Oqchalarni yomon yo'llarga sepdim, sovurdim. Oqchalarim bitgandan so'ng, biron boy kishining qullig'iga kirmasdan uyimni, yerimni sotib yeya boshladim. Yer bilan uy oqchalari daxi bitdi. Egnimdagi shu kiyimlardan boshqa narsam qolmadi. O'zim daxi ishdan chiqib, qarib qoldim. Tilanchilikdan boshqa bir ish topolmadim. Uch oydan beri kunduz tilanchilik qilub, kecha(si) to'g'ri kelgan o'ramda yotib turibman. Uyim yo'qdir».

Boboning bu so'zlaridan yuragim o'rtanib ketdi. Qopchiqimda bir tanga bor edi, chiqarib berdim. Kichikliginda o'qumaganlar qariliqda o'ramda qolar ekanlar deb, chopib maktabga keldim.

Muallim afandi Turg'unga bir «ofarin»[30] berdi.

TAMRIN:

Afandi! Siz yeringizdan turub, Turg'un aytgan hikoyatni aytib bering.

FANNIY BILGULARDAN: DAVLATLAR

Bir kun muallim afandi darsga keldi va Yovuzbekni turg'uzib, dedi: – O'g'lum! O'tgan hafta orqadoshingiz To'xtamish jug'rofiyodan so'radigim so'rog'larga javob bergan edi. Bu kun siz javob bering.

Yovuz: – Bosh uza, afandim!

M.: – Yerning quruqlig'i necha bo'lakdir?

Y.: – Besh bo'lakdir.

M.: – Otlari?

Y.: – Ovro'pa, Osiyo, Afriqo, Amriqo, Avstraliyo.

M.: – Ovro'padaki davlatlar poytaxtlarini aytib bering, qani?

Y.: – Ovro'padaki davlatlar bilan poytaxtlar shunlardir:

Rusiya	poytaxti	Petro‘g‘rod
Angliz	—«»—	Lo‘ndo‘n
Fransa	—«»—	Poris
Olmoniyo	—«»—	Berlin
Avstriyo-Mojariston	—«»—	Vyona
Italiyo	—«»—	Rumo
Turkiyo	—«»—	Istanbul
Ispaniyo	—«»—	Madrid
Po‘rtqiz[31]	—«»—	Lizbun[32]
Beljiqo[33]	—«»—	Brussel
Flamank[34]	—«»—	Amsterdam
Donimarqo[35]	—«»—	Qupehof[36]
Isvich[37]	—«»—	Stakholm
Nuruch	—«»—	Kristiyoniyo
Isvichra[38]	—«»—	Bern
Serbiyo	—«»—	Belgrod
Bulg‘oriyo	—«»—	Sufiyo
Ruminiyo	—«»—	Bikrash[39]
Yunon	—«»—	Etna
Qaratog‘	—«»—	Chetina

Muallim: — Ofarin, o‘g‘lum! O‘turing emdi. Egamqul afandi, siz turing. Osiyodagi davlatlar bilan poytaxtlarini sanab bering.

Egamqul: — Osiyodagi davlatlar bilan poytaxtlari shunlardir:

Eron	poytaxti	Tehron
Afg‘on	—«»—	Kobul
Japun	—«»—	To‘kiyo
Chin	—«»—	Pekin
Buxoro xonlig‘i	—«»—	Buxoro
Xiva xonlig‘i	—«»—	Xiva

Buxoro bilan Xiva xonligi Rusiya davlatining himoyasidadir.

M.: — Ofarin, o‘g‘lum! O‘turing emdi. Siz turing, Chingizbek.

Chingizbek: — Bosh uza, afandim!

M.: — Misr xonlig‘i qayerdadir?

Ch.: — Afriqodadir.

M.: — Qo‘shma Amerikaning poytaxti qaysi shahardir?

Ch.: – Vashingtun shahridir.
M.: – Hindiston o'lkasi kimning qo'lidadir?
Ch.: – Angliz qo'lidadir.
M.: – Ofarin, o'g'lum!

TAMRIN:

Bizim o'lkamiz yerning qaysi bo'lagidadir? Hindiston qaysi bo'lakdadir? Osiyoda necha davlat bor? Ovro'pada(-chi)?

TILAVNING YOZUSI

Tilav bir kecha yonimda maktabdan oldig'i darslarni yozib o'tirgandi. Bir go'palak[40] uchub keldi va chirog' bilan o'ynab aylanib turdi. Tilav qo'lidagi yozg'uch[41] bilan uni quvmoq istadi. Go'palak ketmadi. Birozdan so'ng bechora go'palak o'zini chiroqqa urdi. Qo'l-qanotlari yondi. Yerga tushub bir-iki sakradi va o'ldi. Tilav go'palakning bu holig'a qarab turgandan so'ng qog'ozni olib, shu so'zni yozdi: «O't bilan o'ynashgan yonar».

LATIFA

Bir kecha qashshoq bir kishining uyiga iki-uch o'g'ri kirib, ko'b oxtargan, ozgina bo'lsa ham oqcha topolmagan. Uy egasi uyg'onib, o'g'rilarning bu holindan xabardor bo'lgach:

– O'rtog'lar, kecha oxtarib turganingiz narsani men kunduz oxtarib shu uydan topolmagandim. Ko'p emganmanglar,– degan.

TAMRIN:

Tilav nima yozdi? Ma'nosi nima? Uy egasi o'g'rilarga nima dedi?

ISH YOSHDA EMAS, BOSHDADIR

Xoqonlardan biri taxtga o'turgach, uni qutlamoq uchun bir necha kishi keldilar. Shunlarning o'n besh yoshli bir o'g'loni oldinroq borib, xoqonga gapurmakchi bo'ldi. Xoqon dedikim:

– O'g'lum, sen kichiksan, nariroq tur. Sendan kattalari gapursinlar.

– Xoqonim! Inson tili va ongi bilan insondir. Kimning o'tkir ongi bilan tutilmas tili bor esa, shul gapura beradir. Ish yoshda bo'lsa edi, o'lkadaki shuncha yoshlilarni qo'yub, sizni taxtga chiqarmas (edilar), – deb javob berdi bola.

HIRS YOMONDIR

Bir ko'ppak bir qassobning do'konidan bir tilim et olib qochdi. Yo'l ustidagi suvga kirib o'tmoqchi bo'ldi. Suvga boqub ko'rdikim, o'ziga o'xshagan bir ko'ppak unikidan kattaroq bir tilim etni olib borotibdir. Uni olmoq uchun og'zidagi etni tashlagach, suvda ko'rdigi daxi yo'qoldi. Tayladigi etni olmoq uchun qaytib qarasa, buni ham bir qarg'a yutibdir.

TAMRIN:

O'n besh yoshli o'g'lon xoqon oldiga nega ketgan edi? Xoqon unga nima dedi? U nima dedi? Ko'ppak nima qildi? Ishindan osig[42] ko'rdimi?

O'QUV YO'LINDA

To'xtaboy bir qassobning o'g'li edi. Maktabga ketub o'qumoqni chin ko'nguldan tilar edi. Lekin otasi bunga ko'nmas edi. «Menim shuncha ishimni qo'yub, maktabda nima qilursen», deya edi. To'xta o'z istagi bilan yurarg'a yo'l topolmadi. Maktabdan ko'ngluni uzdi. Lekin o'qumoq armoni uning yurakinda yerlashgan edi. Shuni chiqarolmadi. O'yladi, tushundi, o'quv uchun bir yo'l topdi. Otasidan olib yig'dig'i oqchalarini sanadi. Iki tanga bo'ldig'ini ko'rib suyundi. Yugurib kitob bozoriga ketdi. Bir «Alifbo» kitobi bilan bir daftar va bir yozg'ich oldi. Kelub do'konga o'turdi. Kelgan olguchilarga «Alifbo» kitobini ko'rsatib, undan kunda bir-iki harf o'rganib qoldi. Har kuni do'koniga kelaturgan oluchilar To'xtaning bu ishini yoqturib, chin ko'ngul bilan unga «Alifbo»ni o'rgata(r) edilar. «Alifbo»ni o'rgandiqdan so'ng yozarg'a boshladi. To'rt-besh oy orasinda o'qur-yozar kimsa bo'ldi. Hisobdan daxi ozroq ongladi. Do'konning cho'tini[43] saqlamoq uchun bir daftar oldi. Yaxshigina hisob bilan ish ko'rdi. Boy bo'lib qoldi. Bugun qassoblarning boyrog'i To'xtaboydir.

TAMRIN:

To'xtaboy nima qilar edi? Kim qo'ymadi? Otasining shu ishi yaxshimi edi? To'xta tilakindan qaytdimi? Qanday tirishdi? Osig'landimi?

MUSULMON SEVGISI

Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning qilg'an urushlarindan biri bitgach, bir musulmon xotun tushub qol-

g‘an yaralilarni izlab topmoqchi bo‘ldi. O‘luklar orasiga kirdi. U yon-bu yonini izlar chog‘ida «oh... suv!..» degan bir tovush eshitdi. Bir yarali musulmonning suvsadig‘ini ongladi. Ozroq suv topub, shu yarali oldig‘a keldi. Boshini yuvoshgina ko‘tarib, suvni ichirmakchi bo‘ldi. Yarali musulmon dudog‘ini suvga yetkurar chog‘da boshqa yondan «oh... suv!..» degan o‘zga bir tovush keldi. Yarali suv keturgan xotunga dedikim:

– Bu suvni mendan burun shu tovush egasiga eltib ber. Bir yo‘ldoshim yaralanib, suvsab yotar ekan, men icholmayman.

Xotungina suvni ikinchi yaraliga olib bordi. U daxi suvni ichay deb turgan chog‘da «oh... suv!..» degan yana bir tovush eshitdi, xotunga dedikim:

– Shu yo‘ldoshim suvsiz ekan, men icholmayman. Ber suvingni shunga.

Xotun suvni uchinchi yaraliga eltdi. Uchinchi yarali suvni ichayotganda birinchi yaralining «Oh... o‘ldim, ...suvsizlikdan» degan tovushi keldi. Bu daxi xotunga:

– Suvingni mendan burun shu tovush egasiga ber, dedi. O‘zi ichmadi.

Xotun yana qaytib birinchi yaralining oldiga kelsa, bechoraning o‘lib qoldig‘ini ko‘rdi. Ikinchi yaraliga ketdi. U daxi o‘lib qolgan edi. Uchinchi yarali suvsizlikdan o‘lib qolmasin debon yugura ketdi:

– E voh! Bu daxi o‘lib qolibdir, deb suvni to‘kdi. Musulmonlarning o‘lim chog‘inda daxi bir-birlarini qancha sevdiklarini o‘ylab, ko‘b yig‘ladi.

TAMRIN:

Xotun nega urush maydoniga kirdi? Nima tovush eshitdi? Birinchi yarali nega suvni ichmadi? Ikinchi nega ichmadi? Uchinchisi nega ichmadi? Musulmonlar bir-birlarini nechuk seva ekanlar?

BIR OTANING O‘GUTI

Bugun Ochilboyning uyinda qiziq bir sevinch bor edi. Oyto‘raxonim «akam maktabdan kelur», deb sakrab o‘yna(r) edi. Ergash va Ulug‘xonlar daxi maktabdan kelaturgan akalari uchun choy qaynatib, yer tuzamakda edilar. Barchalarining dudoqlarinda chuchuk bir kulish va ko‘zlarinda yorug‘ bir sevinch bor edi. Muncha sevinchlarining sababi mana shu edi:

Ochilboyning Toshxon denilgan bir o'g'li o'n kunli bir sanchig'dan qutulub shu kun maktabiga ketgan edi. Oyto'raxonning «akam kelur» degan sevindig'i akasi mana shu Toshxon edi.

Bir soatdan keyin Toshxon maktabdan keldi. Ota-onasini o'pib, qardoshlari yoniga o'turdi. Lekin Toshxon ko'b qayg'uli edi. Otasi so'rdi:

– Qalay, o'g'lum, sog'liging yerindami? Bugun nechuk kechdi?

Toshxon: – Alhamdulillah, yaxshi kechdi, otajonim!

Ochilboy: – Muallim afandini ko'rdingmi? Nega muncha qayg'uli ko'rinasan?

Toshxon: – Muallim afandini ko'rdim. Sog'aydig'imdan suyundilar. Lekin darslarimiz o'n kun olday[44] ketibdir. Bu o'n kunning darslarini tuzatmak kerakdir. Yo'qsa sinog'[45] kuninda kuchlik chekarman[46].

– O'g'lum! Sening qayg'ung shundanmidir?

Toshxon: – Albatta, shundandir. Men besh yildan beri sinfimning birinchisi bo'lib keldim. Emdi shu o'n kunlik kasallik yuzindan birinchilikdan ayrilib qolurman.

Ochilboy: – Sen kabi botur bir o'g'lon shuncha ish uchun qayg'ururmi? O'g'lum, buyuk bir chidam bilan tirishaturg'an o'g'lonlarga qiyinlik yo'qdir. O'zing daxi besh yildan beri dars yo'linda qancha tirishding va necha «ofarin»lar olding. Kasallik yuzindan o'qiyolmadig'ing o'n kunlik darslarni o'n besh kunda bo'lsun tirishib, albatta tuzata bilursan. O'tgan yili daxi hisob darsining kuchlik ayladigini aytib qayg'urg'an eding. So'ngra yaxshilab tirishuv bilan hisob sinog'ingdan «ofarin»lar olmadingmi?

Hurmatli otasining bu so'zlarindan Toshxonning ko'ngli ochildi. Yuzi kuldi, qayg'usi ketdi. Tirishuv bilan butun qiyinliqlarining qulay bo'lurig'a ishondi.

Ochilboy o'g'lining bu holini ko'rgach, yana gapura boshladi:

– O'g'lum, shu bir soatli qayg'ungga sabab nima bo'ldi?

Toshxon: – O'n kun darsdan qolmoqlig'im.

Ochilboy: – O'n kun darsdan qoldig'ingga sabab nima?

Toshxon: – Kasalligim.

Ochilboy: – Dedimkim, shu qayg'ung uchun tub sabab kasallikdir. Kasal bo'lmasa eding, darsdan qolmas eding. Shunday emasmi?

Toshxon: – Shundaydir.

Ochilboy: – Demak, kasal yomon narsa ekan. Kasal kishini darsdan qoldira(r) ekan. Kasal kishini qayg'uga sola(r) ekan. Kasallikning yomonligi yolg'iz shu emas, ko'bdir. Odam(n)ing kuchini olar, orqadoshlarindan ayirub, uyda o'tqazar. Shunday yomon narsaga uchramaslik kerakdir. Undan qochib yurmak yaxshidir.

Toshxon: – Sanchiqqa bilmasdan tutildim, yo'qsa, albatta qochardim.

Ochilboy: – Sanchiqqa nechun tutildig'ing menga bilgulidir. Sen o'tkan hafta erta bilan yotoqdan qalqib, yolg'uz bir ko'ylak bilan yotoqdan tashqariga chiqding. Sovuq oldi. Ertasi kun ozroq isitma chiqorib, sanchiqqa tutilding. Sovuqlarda yupqa kiyimlar bilan chiqmasang, sovuq suv ichmasang, albatta, sanchiqqa tutilmazsan.

Toshxon: – Bosh uzra, otajonim! So'zlaringizning barchasini yeriga keturarman. Inshoolloh, bundan so'ng sanchiqqa tutilmazman. Lekin yoz isitmasi daxi yamondir. Undan qutilish yo'li bo'lmasa kerak.

Ochilboy: – Undan daxi qutilish yo'li bordir, o'g'lum. Erta-indin muallim afandingiz yaxshilab aytsa kerak.

TAMRIN:

Toshxon nega darsindan qolg'an ekan? Shu uchun qayg'urmagi tuzukmi? Otasi nima dedi? Toshxon nega sanchig' bo'lg'an? Sanchig' bo'lmamoq[47] *uchun nima qilmoq kerak?*

O'RTOQLIQ

Yeldirim bilan Oydin uylarundan chiqub, maktabga keta edilar. Yo'lda o'zlari kabi bir bolaning valisapidga minub o'q kabi o'tub ketdigini ko'rdilar.

Yeldirim: – Orqadosh![48] Shu valisapid ko'b yaxshi narsami?

Oydin: – Qo'y, jonim, yurakdagi yarani ochma.

Yeldirim: – Nima bo'ldi senga? Nechun valisapid so'zi yoqmaydur. Uni yomon ko'rasanmi?

Oydin: – Valisapidni menday yaxshi ko'raturgan kimsa yo'qdir. Iki yil burunroq valisapidga ko'p angal[49] bo'lub qolg'andim. Otamga aytdim: «Menga bir valisapid olib bering». Otam dedilarkim: «Mendan kunda olib turdig'ing oqchalarni bo'sh yerlarga chiqorma, bir qutiga solaber, ko'paytur, so'ngra shunlar bilan bir valisapid sotub ol». Otamning bu so'zlarini to'g'ri topdim. Onamdan bir quti oldim. Otam

bergan oqchalarni shu qutiga solaverdim. Oradan bir oy o'tdi, quti ko'b og'irlashdi. Emdi oqcham ko'paygandir dedim. Eski bir g'azitani olib, uyning o'rtasinda yoydim. Qutini ochib, g'azita uzra qaytardim. Chaqalar shaldirab to'kildi. Qutidan chiqg'ach, qochib ketmak istagan bir-iki chopqunini yo'lindan qaytardum. Orqadoshlari yoninda qo'ydim. Qaradim, bir yig'in chaqa! Oh, qancha ko'payibdir, shunlarni bir sanab qo'yayin, erta bilan bir valisapid olurman, dedim. Sanay boshladim... Sanadim-sanadim, qo'llar-da hordi. Ko'rsam, barchasi to'rt so'm bo'libdi. Bir valisapidning to'qson so'm edugin eshitgan edim. Suyunjum ketdi. E voh! Valisapid ololmas ekanman, dedim. Erta chiqub to'rt so'mga bir to'ppi oldim. O'zimni shu bilan soqul qildim (ovuntirdim). Endi sen valisapid degach, shu esimga kelub, yuragim o'rtandi.

Yeldirim: – Shu ishinga nechia yil bo'ldi, qardoshim?!

Oydin: – Iki yil bo'lib o'tgandir.

Yeldirim: – E voh! Sabr qilib endigacha chaqa to'plasa eding, bugun yaxshi bir valisapid olur eding.

Oydin: – Nima deysan?! Oyda to'rt so'm to'plamoq bilan iki yilda bir valisapid olinurmi?

Yeldirim: – Albatta, olinur! Ishonmasang, cho'tini ko'rsatayin. Tingla meni. Bir yil o'n iki oydir. Oyda to'rt so'mdan, o'n iki oyda qirq sakkiz so'm bo'lur. Bir yilliq puling qirq sakkiz so'm bo'lganda, iki yilg'i to'qson olti so'm bo'lur. Mana bir valisapidning puli.

Oydin: – To'g'ri deysan, qardoshim! Yozuq qilg'anman. Ne bo'lsa, o'tib ketgan ishni qo'zg'ama endi.

Yeldirim: – Nega o'tub ketgan bo'lsun, yang'idan boshlaymiz.

Oydin: – Yana iki yil go'zlamoq[50] kerak-da?

Yeldirim: – Iki yil emas, olti oy kerakdir.

Oydin: – Nechun olti oy?

Yeldirim: – Men, sen maktabdan yana iki o'rtoq toparmiz. To'rt kishi birlashib oqcha yig'amiz. Mana olti oyda to'rttamiz bir valisapid olurmiz deya.

Oydin bu so'zdan ko'p sevindi.

– Yaxshi tushuntirding, qardoshim, – dedi.

Bu chog'da maktabga erishdilar. Dars boshlanmag'an edi. Yana iki o'rtoq topib, tilaklarini aytdilar. Ularga maqbul bo'ldi.

Yeldirimni xazinachi yasadilar. Oydinning qo'lig'a bir daftar berdilar. Haftada to'pladiqlari pullarni Yeldirimga topshirib, Oydinga yozdira berdilar. Olti oydan keyin bir yaxshi valisapid olib, bo'sh kunlarda navbat bilan mindilar, chopdirdilar. Ortiq, to'rtovining ham daxi og'zindan shu so'z chiqar edi: Yashasun, o'rtoqliq.

TAMRIN:

Afandi, siz Oydin va Yeldirimbeklarning hikoyalarini aytib bering.

FANNIY BILGULARDAN: ISITMA MIQRO'BI

Bir kun muallim afandi ketub, o'z o'rninda o'tirgach, Toshxon yerindan turub dedikim:

– Afandim, bir so'rog'im bordir?!

Muallim: Buyur, o'g'lum, nima so'rog'ing bor?!

Toshxon: – Yoz isitmasining sababi nimadir? Undan qutulish yo'li yo'qmi?

Muallim: – Tinglang meni, o'g'lum! Butun kasalliklarning ayri-ayri urug'lari bordir. Ular jonli narsalar erurlar: tug'alar, tug'diralar. Shunisi borki, ko'proq kichkina bo'ldiqlari uchun biz unlarni ko'rolmaymiz. Do'qturlar «miqro'sqo'f» denilgan narsa bilan unlarni ko'prog'ini ko'ra bilganlar. Har qanday kasallikdan qutulish yo'li, shu kasallikning miqro'bindan qochmoq bilan bo'lur.

Toshxon: – Yaxshi, emdi biz unlarni ko'rmagandan keyin qanday etib qocharmiz?

Muallim: – Mana shuni bilmak kerak, o'g'lum. Biz isitma miqro'blarini ko'rmasak ham, do'qtirlar unlarni yashadiqlari yerlarni bizga onglatganlar. Biz shu yerlarni o'rganib qo'ysak, unlardan qochmog'imiz, albatta, qulaylashar. Isitma miqro'blari ko'proq ko'llarda, botqoqlarda, hovuzlarda, tuproqlarda, isitmali kimsalarning yonlarida yashaydilar. Isitmadan qochmoqchilar uchun kerakdirkim, ko'llar va botqoqlar yoninda uy qurmasunlar. Ko'llardan chiqg'an muzlarni suvlariga solmasunlar. Hovuz suvini qaynatmasdan ichmasunlar. To'zonli kunlarda uydan chiqmasunlar. Isitmali kimsalar bilan bir yerda yeb-ichmasinlar.

Toshxon: – Bunlarning barchasi qulay ekan, afandim. Biz qilurmiz shu ishlarni.

Muallim: – Albatta qulaydir, o'g'lum!

TAMRIN:

Miqro'b nimadir? Isitmaga uchramamoq uchun nima qilish kerak? Isitma miqro'bi qay yerlarda yashar? Suvni nima qilib ichmak kerakdir?

YASHARNING O'G'RILIGI

Yashar o'n iki yoshinda bir o'g'londir. Otasi uni maktabga qo'ymaydir. Shuning uchun Yasharning butun kuni ishsizliq bilan boradir. Ishsizliq yamonliqlarning buyuk onasidir. Inson ishsiz qoldimi bir erda o'turib, pinyab[51] o'ynamakdan boshqa ne ish qilsun. Bizim Yasharboy daxi (ham) bir kun choyini ichib, uyidan chiqdi. Ko'chada ariq yonindaki bir og'ochg'a tayanib o'turdi. O'yladi, tushundi, pinyadi, uxladi, ko'b tirishdi shu kunni o'tkazolmadi. O'turmakdan ham o'sondi[52]. Yeridan sakrab qalqdi. Birdan ko'ziga qo'shnining olma og'ochlari erishdi. Biroz o'ylab turdi: «Ishim yo'q. Kecha uzoqda. Bu qurg'ur kunni o'tkarolmadim. Uyga ketsam eshak, inaklarni boqmoq kerak. Biroz shu boqqa kirub, og'ochlarga chiqayin-da iki-uch chorak[53] olma terayin. Yaxshi bo'lmasmi?» – dedi. O'ziga shu tushunchasi yaxshi ko'rindi. Hayda devorga. Yanashdi. Lekin devor ko'b yuksak edi, Yashar chiqolmadi. U yon-bu yonni qaradi, odam o'ta bilur bir teshuk topdi. Kuch bilan o'tub boqqa kirdi. Olma og'ochlarining biriga chiqub, qo'ynilarini olmadan to'ldirg'ach, «qo'yma o'g'rini!» degan bir tovush eshitdi. O'zini og'ochdan tashlab, teshuk sari qochdi. Boshini teshukdan o'tkardi. Lekin belindan buyog'ini o'tkara olmadi. Chunki qo'yunlari to'la edi. Shu chog'da bog' egasi yetishib keldi. Yasharni teshukdan tortib oldi va olmalarni qo'ynidan to'ktirdi.

Dedikim: – O'g'lum, sen Turkiston bolasi, Chig'atoy o'g'loni, turk yigiti erursan. O'zingni bilmaysanmi? Senga shundoq ishlar yarashurmi? Eshikdan qo'noq bo'lib kelsang, sanga mundan ko'broq olma bermaymanmi?

Yashar chin uyoldi. Yer yorilsa, kirmakchi bo'lib turdi. Bog' egasi Yasharni qo'lindan olib eshikdan chiqardi. To'g'ri otasining yoniga keturib, dedikim:

– Tog'a, bolangiz mana shunday ish qildi. Lekin buning yurakinda o'g'rilik o'ylavi yo'qdir. Buni bu yamon yo'lga kelturgan narsa ishsizliqdir. Siz ishqilib, bu bolani maktabga qo'ying.

Otasi qabul etdi. Ertasi kundan Yasharni maktabga qo'ydi. Yashar ham bundan so'ng yaxshi bir bola bo'ldi.

TAMRIN:

Yashar qanday bola edi? Qo'shnisining bog'iga nechuk kirdi? Yasharning o'g'rilig'iga sabab nima edi?

OG'OCHLARNING OSIG'I

Jin yotog'i berilgan kichkina bir kent bordir. U kentdagi odamlar tutash isitmaga tutilib yuralar. O'zlarindan «Nega muncha isitma bo'lasizlar» deb so'ralganda, «kentimizdagi parilar shu kentni bo'shatib olmoq uchun bizlarni shu holg'a solalar», deb javob beralar. Bir kun shu kentdan katta bir uyni ujuz[54] baho bilan sotishga qo'ydilar. Tashqaridan kimsa kelub ololmadi. Chunki parilarning isitmasindan qo'rqulur edi. Moskva shahrinda borub o'n yil o'qub kelgan Berdibek shu uyni olmoqchi bo'ldi. Kelib tevaragini yaxshilab qaradi. Ba'zi o'rtoqlari man' qilmoqchi bo'ldilar. «Parilari bor. Seni ham uralar, isitma bo'lursan, olma» dedilar. Berdiboy «parilarni(ng) manga ne ishlari bor ekan», deb kuldi. Ularning so'zlarini tinglamadi. Uyni uch yuz so'mga oldi va bozordan sakkiz yuz nihol keturib uyning tevaragiga o'tquzdi. Bir yildan keyin nihollar ko'karib, har biri yaxshi bir og'och bo'lg'ach, Berdiboy bola-chaqasi bilan kelub, yangi uyda o'turdi. Uch-to'rt yil o'tdi. Berdiboyning uyidan kimsani isitma tutmadi. Berdiboyning qo'shnisidagi uylarda daxi isitma ozayib keta boshladi. Kent kishilari «Berdiboyga parining kuchi yetmadi ekan» deb shoshib qoldilar.

Berdiboy bir kun kentning oqsoqoli, mullasi va necha ulug'larini chaqirdi. Oshdan keyin o'zi so'z ochub dediki:

– Yurtdoshlarim, ko'rib turasizki, besh yildan beri mani uyimda biror kishi isitma bo'lmaydur. Shuning sababini so'rmaysizmi?

Oqsoqol javob berdiki:

– O'zimiz ham shuni so'ramoqchi edik. Siz ajina duolarini ko'broq bilasiz chog'i. Bizga ham shu duolarni o'rgating. Shu qurg'ur isitmadan qutulib qolayluk.

Berdiboy kulub dediki:

– Bu kentda ajina yo'qdir. Isitmamizning sababini man sizga aytayin endi. Kentimizning mana shu yonindagi botqoqlikni tomga chiqsak barchamiz ko'rarmiz. Mana shu botqoqlikdan chiqg'an bug'lar og'udirlar. Odamlarni isitma qila(r)lar. Mana bu uyni olg'ach, tevaragiga og'ochlar o'tquz-

dim. Og'ochlar shu isitma og'usini yutarlar. Havoni suzuk va tinuq qilub bizga bera(r)lar. Shuning uchun bizim uydan va qo'shnilarimizning uylarindan isitma yo'qolib ketdi.

Oqsoqol hayron bo'lub turdi, dedi:

– Emdi parilar yo'qmi? Bizim isitma shu botqoqliqdanmi? Unday bo'lsa, shu qurg'urni qurutayluk. Siz bularni qayerdan bilib oldingiz?

Berdiboy: – Maktabdan.

TAMRIN:

Jin yotog'i kentining odamlari nega isitmaga tutila(r) edilar? Berdiboyning uyinda nega isitma yo'q edi? Og'ochlarning osig'i nima ekan?

OTA MUHABBATI

Toshkand boylarindan Ulug'boy denilgan biri sinub ishdan chiqdi. Bola-chaqasi ko'b edi. Unlarg'a narsa topib bermog'i kerak edi. Tilanchilik qilolmasdi, chunki o'z nomusini jonidan ortiqroq sevar edi. Yukchilikka[55] kirdi. Har kun ish qila topdigi to'rt-besh tanga bilan bola-chaqasining qorunlarini to'ydira edi. «Nima bo'lsam ham yana o'z kuchim bilan oqcha toparni, qorun to'ydirarni Egam manga nasib qildi. Tilanchilik, o'g'rilik kabi nomusning yovi bo'laturgan ishlarga kirgizmadi» deb Tangriga shukur qila(r) edi. Yozning issiqroq chog'larinda Ulug'boy iki kun ish topolmadi. Uydagi bo'lak-so'lak nonlarni yeb ham bitirdilar. Bolalari ochlig'dan yig'lay boshladilar. Uchunchi kun erta bilan ish (oxtarar)g'a chiqmoqchi bo'ldi. Bolalari «otajon, bir tishlam non» deb ko'b yig'ladilar. Katta davlat ko'rgan, yaxshi kunlar o'tkargan bechora Ulug'boy bu ko'rinishga chiday olmadi. Boshini devorga qo'ydi, yig'ladi... yig'ladi. Esiga Toshboy denilgan eski bir o'rtog'i tushdi. Toshboy Ulug'boyning davlatli chog'larinda ko'b kela(r) edi. Har oqshom Ulug'boynikiga kelub qorin to'ydira edi, desam bo'lur. Mana Ulug'boy eski o'rtog'iga ketdi. O'z holini anglatdi: «O'rtoq, ochlikdan kuchim ketgan, bola-chaqalarim o'lim yotog'inda tushganlar, manga shu kun uchun non topib ber. Erta ishga chiqarman», – dedi.

Tosh yurakli Toshboy:

– Menim uncha nonim yo'qdir! – deb javob berdi.

Bu so'zni eshitgach, Ulug'boyning yuragi ezilib ketdi. Boshi aylana boshladi. Shu yerda yiqilmoqchi bo'ldi, (biroq)

o‘zini saqladi. U kishiliksiz[56] o‘rtog‘ining eshigindan qaytdi. Bozorga kelub, bir do‘konning devoriga orqasini berdi, o‘turdi. Besh-o‘n daqiqa o‘tgach, bir kimsa kelub Ulug‘boyga dedikim:

– Tag‘o! Man qon olg‘uchi ustalardanman. Bir qazoq kelub «Manga qon olmaqni o‘rgat, o‘n so‘m beraman» deydir. Bir kishi oxtarib yururmankim, shu qazoqg‘a ko‘rsatmak uchun qo‘lindan ozroq qon olayin. Bir yarim so‘m berarman (desam ham) hech kim kelmaydur. Siz shu ishni qabul qilsangiz-chi, bir yarim so‘m olursiz.

Ulug‘boy bu so‘zni eshitgach, tirilgan o‘luk kabi irg‘ib turdi: – Haydang ketayluk, qabul qildim, – dedi.

Usta bilan do‘konga keldilar. Qo‘lin ochdi, qazoqning ko‘zi oldinda qon oldirdi va bir yarim so‘mni oldi.

Qazoq ustaga qarab dedikim:

– Tuzuk o‘rganolmadim. Yana bir kishi topib qon olsak, butun o‘rganurman. Unga ham bir yarim so‘m berarman.

Ulug‘boy bu so‘zni eshitub, ikinchi qo‘lini daxi ochib qon oldurdi. Va yana bir yarim so‘m olib, uyiga ketdi. Pulni xotuniga berdi.

– Manim kuchim ketotibdir. Sen ketub non ketur. Xotuni non keturdi. Yemak uchun Ulug‘boyni chaqirdilar. «Kuchim yo‘q, biroz yotayin», – dedi.

Katta o‘g‘il otasining qo‘linda qon ko‘rub hurkdi[57].

– Otajon, bu nimadir? – dedi.

Ulug‘boy ishni onglatdi. Xotun va bolalari otalarining bu ishini eshitub yig‘lab yubordilar.

TAMRIN:

Ulug‘boy kim edi? Ne holda qoldi? Kimga ketdi? Toshboy nima dedi? Toshboyning shu ishi yaxshimi edi? Ulug‘boy so‘ngra qayerga ketdi? Nima qildi? Nimalar bo‘ldi?

YURTIMIZ

Arslon bilan Botur tong otardan yarim soat burunroq bog‘dagi katta xurusning «qu... qu... qu... qu...» debon aytmasindan uyg‘ondilar. Bu iki qardosh yaxshigina aqlli va esli o‘g‘lonlar bo‘ldiqlarindan, yaramas bola kabi uyg‘ondiqdan so‘ng yotoq uza o‘ylab o‘tirmayub chobuk yerlarindan turdilar, qo‘l-yuzlarini yuvdilar. Machitga borib, namoz qilg‘andan keyin eshik yonindag‘i hovuzning oldinda borib o‘turdilar. Yoy[58] yelining esmasi, qo‘shni bog‘indan kela-

turgan chechak islari, og'ochlar uzra uchushub yurgan bulbul va qumrilaring sayramasi bu iki qardoshning gavdalariga kuch va ko'ngillariga ochiqlik berdi. Yarim kechadan beri qo'sh haydamak uchun yobonga ketgan sevgili otalari Hasan bobo eslariga kelib qoldi.

Arslon: – Tur, Botur!

Botur: – Nega?

Arslon: – Ketamiz?

Botur: – Qayerga?

Arslon: – Otamga salom berub, qo'lini o'pib kelamiz.

Botur: – Hayda!

Iki qardosh birdan turub, yobon sari yugurdilar, chopdilar. Hasan bobo yangigina namozini o'qig'an va qiblaga qarab, o'g'ullari uchun duo qilib o'turg'an edi. Iki katta ho'kuzi boboning duosiga «omin» deyaturgan kabi yonida boshlarini indurib turgan edilar. Shu chog'da Hasan boboning qulog'iga Arslonning «salom» tovushi bilan keldi. Boshini ko'tardi.

Hasan bobo: –Va alaykum assalom! Borakalloh o'g'lonlarim, ana shunday erta bilan uyqudan tursangiz, sizlarni duo qilurman. Tangrim ikalangizga ham uzun umr bilan katta davlat bersun.

Arslon bilan Botur sevukli otalarining qo'llarini olib o'pdilar. Hasan bobo o'g'ullarining buncha odobli bo'ldiqlarini ko'rgach, ko'zlari sevinch yoshidan to'ldi. Haqlarig'a ko'bdan ko'b duo qildi. Iki qardosh otalarining duosini oldiqdan so'ng uyga ketmakchi bo'ldilar va yana yo'lga kirdilar...

O'ng qo'ldan «voy...Tangrim» debon bir tovush keldi. Qaradilar, qurug'an (bir) og'ochning ko'lgasinda[59] yirtiq bir choponni o'muzlarigacha[60] tortib uzangan va, ehtimolki, qattig' isitma tutgan bir xotunni ko'rdilar. Yo'l uzra tushib qolg'an kimsasiz bir xotunni ko'rib, so'rashmasdan, ko'mak etmasdan o'tib ketmak o'zbek o'g'lining yuragina sig'armi? Albatta sig'mas..! Iki qardosh ketub, xotunning boshi uzra turdilar.

Arslon: – Onajon, qayerli bo'lasiz, nima bo'ldi sizga? – deb so'radi.

Bechora xotun kuch bilan boshuni ozroq ko'tarib, «oh...» – dedi. Boshini saqlayolmay yana yiqildi.

Arslon: – Onajon! Nima bo'ldi sizga? – deb (yana) so'radi.

Bechora xotun dedi:

– Ovv, bolam, ko'rmaysanmi? Yo'lda tushib qolg'an kimsasiz bir xotun erurman. So'rab nima qilasan?

Arslon: – Onajon! Biror-bir o'g'lingiz, qizingiz yo'qmidirkim, kelub qo'lingizni tutib holingizni so'rsun.

Xotun: – Bordir o'g'lum, bordir. Bir emas, ko'b o'g'ul-qizlarning onasi erurman. Lekin shundog' yomon kunimda biri daxi qo'limni tutarg'a kelmay turubdur.

Arslon: – Nechun kelmaylar? Siz(n)ing shu holingizni onglamagan bo'lsalar kerak. Bizlarga so'rog'larini beringiz, ketub xabar berayluk, kelsunlar.

Xotun: – Yo'q... kerak emas... Unlar manim shu holimni ko'rub turub(di)lar. Menga ojirg'anmaylar. O'z tinchliklarini ko'ra(r)lar. Nega kelsunlar?!

Botur bechora xotunning bu so'zlariga chidayolmadi. Yuragini olov bosib ketdi. Qichqirub dediki:

– U insofsizlar qayerda turalar, otlari nimadir? Odam o'z onasini shu holda ko'rub kelmazmi? Qanday tosh yurakli ekan ular?

Arslon: – Onajon, bolalaringizning otlarini ayting, biz borub kelturayluk.

Xotun: – Bolalarimning otlarini so'raysiz? Butun Chig'atoy ulusi manim o'g'ul-qizlarimdirlar. Manim quchog'imda yotib turdilar, manim quchog'imda ulg'aydilar, tiriklik uchun kerak bo'lgan narsalarning barchasini mandan oldilar. Oqibat mana shu holda qo'ydilar. Tirikligim bilan sog'lig'imni saqlamoq uchun tirishmadilar.

Arslon bu so'zdan shoshib qolib, yana so'radi:

– Nima! Butun o'zbeklar sizning bolalaringizmi? – dedi.

Botur: – Onajon! Siz kim bo'lasiz? Otingizni manga aytolmaysiz?

Xotun: – Man butun o'zbeklarning, chig'atoylarning onalari erurman. Otim TURKISTONDIR!

Arslon bilan Botur Turkiston so'zini eshitgach, seskanib yubordilar.

Dedilarkim:

– Oh... Onajon! Turkistonimiz sizmi! Ona yurtimiz sizmi? Biz daxi sizning bolalaringiz erurmiz. Bizlarni so'kmang, qarg'amang. Nima istasangiz biz keturamiz, nima buyursangiz

biz qilamiz. Bu holingizga sabab nima? Shu chog'da ko'nglingiz nima tilaydir? Ayting, bizga onajonim!

Xotun: – Esan bo'lung, o'g'lonlarim! Manim bu holimg'a sabab bolalarimning ishsizliqlari, bilmasliqlaridir. Bilgudan, ishdan, san'atdan boshqa tilagim yo'qdir.

Arslon bilan Botur g'ayratga keldilar. Etaklarini bellariga bog'lab:

– Onajon! Unday bo'lsa ozroq turing, biz butun tilaklaringizni topib keturamiz, – debon etaklarini bellariga bog'ladilar va iki o'q kabi chopib ketdilar.

Qayerga ketdilar bilasizmi? – M a k t a b g a!

TAMRIN:

Arslon bilan Botur qayerga ketdilar? Yo'lda nimani ko'rdilar? Nimaga o'tub ketmadilar? Xotun nima dedi? Kim ekan u xotun? Nima istadi? Uning tilagini keturmak uchun iki qardosh qayerga ketdilar? Nega?

FANNIY BILGULARDAN: YOG'MUR

Yog'murli kunda muallim afandi darsga kelub o'tirdi. Bolalarga qarab:

– Bugun sizlardan bir narsa so'rarman. Ko'rayin, qaysingiz javob berasiz, – debon shu so'rog'ni berdi: – O'g'ullarim! Yog'mur qayerdan keladur?

Ergash: – Ko'kdan keladir, afandim.

M.: – Ko'b yaxshi. Nimadan to'kuladir?

E.: – Bulutdan.

M.: – Bulut nimadir?

Ergash muallim afandining bu so'ziga javob berolmadi. Ortiq turub javob bermakchi bo'ldi.

M.: – Yaxshi, siz ayting Ortiqboy, bulut nimadir?

Ortiq: – Bulut ko'kda uchub yuraturg'an qora narsadir. Yerga enub dengizdan meshlarini to'ldurub, yana yuqoriga chiqadir va bizim boshimizga kelub shu suvlarni sepadir.

M.: – Ofarin, o'g'lum! Boshqa gapuraturgan yo'qmi?

Qo'ldosh gapurmakchi bo'ladir.

M.: – Gapur, o'g'lum, nima deysan?

Qo'ldosh: – Bulutlar yerdagi dengizdan suv olmaylar. Ko'kda katta bir dengiz bor emish, shundan suv ola emishlar.

M.: – Ofarin, o'g'lum. O'tur o'z yeringga. Yana bormi gapiraturg'an kishi?

Kimsa tovush chiqarmadi. Muallim afandi kular yuz bilan dedilarkim:

– Bir qozonda ozroq suv quyub, qaynatub, ustini boqir[61] bir qopqoq bila yopsak, besh daqiqadan so'ng shu qopqoqni ko'tarib qarasak, unga yopishib qolg'an suv tomchilarini ko'ramiz. Mana shu suv tomchilarining nechuk bo'lub qopqoqg'acha chiqdig'ini onglasak, yog'murni ham anglamish bo'lurmiz. Qo'ldosh afandi, sizdan so'rayin, suvni qaynatarsak qozondan bir narsa chiqub ketadir. Shu nimadir?

Qo'ldosh: – Bug'dir, afandim.

M.: – Ofarin, o'g'lum! Mana shu bug' dedigimiz narsa suvdan o'zga narsa emasdir. Suv isinursa, bug' bo'lur, bu bug' sovursa, suv bo'lur. Suv biroz qaynagach, bug' bo'lub yuqori chiqar, sovuq qopqag'a erishgach, yana suv bo'lub qolur. Yer yuzida daxi ko'b suv bor edigini bilasizlar. Quyoshning isitmog'i bilan shu suvlarning birozi bug' bo'lub, yuqorig'a chiqadur va uradag'i[62] sovuq havoga erishgach, yana suv bo'lub yerga to'kiladir. Bulut dedigimiz u qora narsalar suv bug'laridir. Boshqa narsa yo'qdir.

TAMRIN:

Bulut nimadir? Qayerdan chiqar? Nechuk chiqar? Bulutdan yog'mur qalay? Shuning bir o'rnagini bilasizmi?

TARIX

Bugun muallim afandi darsga keldilar va o'z yerlarinda o'turdilar. Bolalarga ko'z kezdirub To'xtaboyni turg'uzdilar va dedilarkim:

– Sen tarix o'qudingmi, o'g'lum?

To'xta: – O'qudim.

Muallim: – Tarix nimadir?

To'xta: – Insonlarning o'tgan hollar va ishlarini bizga bildiraturg'an bir bilgudir[63].

Muallim: – Tarix o'qumoqning osig'i nimadir?

To'xta: – Ibrat olmoq, afandim.

Muallim: – Nechuk ibrat oliniyur?

To'xta: – Burung'i uluslarning tarixini o'qug'an kishi unlarning hollarini, ishlarini onglar. Yamon ishlarining zararini, yaxshi ishlarining osig'ini bilur. Ular uchragan zararg'a uchramamoq uchun unlar qilgan yamon ishlarni qilmaz. Unlar ko'rgan osig'ini ko'rmak uchun, unlar tirishgan yo'lda tirishur. Ibratning ma'nosi shudir.

Muallim: – Ofarin, o'g'lum! Tarix necha turlidir?

To'xta: – Tarix iki turlidir, afandim. Umumiy tarix, xususiy tarix.

Muallim: – Umumiy tarix nimadir?

To'xta: – Umumiy tarix yer yuzinda o'tkan butun el-uluslarning hollarini yozaturg'an tarixdir. Xususiy tarix yolg'uz bir ulusning hollarini yozadir.

Muallim: – Tarixi islom umumiy tarixmi, xususiy tarixmi?

To'xta: – Xususiy tarixdir, afandim.

Muallim: – Nechuk bilasan, o'g'lum?

To'xta: – Chunki tarixi islom yolg'uz arab ulusining boshqalar bilan urushdig'ini va ularni o'z diniga kirgizdugini yozadir.

Muallim: – Ofarin, o'g'lum, o'tur yeringda. Siz turing, To'laboy.

To'laboy: – Bosh uzra, afandim!

Muallim: – Tarixi islomdaki «hijrat» nimadir?

To'la: – Hijrat payg'ambarimiz (s.a.v.)ning Makkadan Madinaga ketganlaridir.

Muallim: – Makkadan Madinaga qachon ketdilar?

To'la: – Payg'ambarliklarindan o'n iki yil o'tgach, ketdilar.

Muallim: – Payg'ambarimiz (s.a.v.) qachon ochundan o'tdilar?

To'la: – Hijratdan o'n bir yil so'ngra o'tdilar.

Muallim: – Payg'ambarimiz (s.a.v.) necha yoshda o'ldilar?

To'la: – Payg'ambarimiz (s.a.v.) oltmish uch yoshda o'ldilar.

Muallim: – Payg'ambar (s.a.v.)ning yerlariga kim o'turdi?

To'la: – Abu Bakr (r.a.) hazratlari o'turdilar.

Muallim: – Payg'ambarimiz (s.a.v.) o'runlarig'a o'turgan kimsaga nima deylar?

To'la: – Xalifa deylar.

Muallim: – Abu Bakr (r.a.) hazratlari necha yil xalifalik qildilar?

To'la: – Iki yil, uch oy, o'n kun xalifalik qildilar.

Muallim: – So'ngra kim xalifa bo'ldilar?

To'la: – Umar (r.a.) hazratlari xalifa bo'ldilar.

Muallim: – Umar (r.a.) hazratlarining xalifalik chog'inda bo'lg'an ulug'roq ish nimadir?

To'la: – Eron o'lkasining olinmog'idir.

Muallim: – Ofarin, o'g'lum! O'turing endi. Siz turung, O'zbekbey. Umar (r.a.) hazratlari necha yil xalifalik qildilar?

O'zbek: – O'n yarim yil.

Muallim: – So'ngra kim xalifa bo'ldi?

O'zbek: – Usmon (r.a.) hazratlari.

Muallim: – Bu kishining xalifalik chog'larinda nima bo'ldi?

O'zbek: – Fitna bo'ldi. Shu fitnada Usmon hazratlari shahid bo'ldilar. Musulmonlar ichra ayriliq tushti.

Muallim: – Ofarin, o'g'lum! So'ngra kim xalifa bo'ldi?

O'zbek: – Ali hazratlari xalifa bo'ldilar.

Muallim: – Ali hazratlari necha yil xalifalik qildilar?

O'zbek: – To'rt yil-u yetti oy xalifalik qildilar. So'ngra Kufada shahid bo'ldilar.

Muallim: – Ofarin, o'g'lum!

TAMRIN:

Tarixning osig'i nimadir? Xalifa kimga deylar? Eron kimning xalifaligida olindi? Fitna qachon qo'zg'aldi?

AMRIKANI KIM TOPGAN?

Italiyo o'lkasidagi Jeneva shahrida sotguchiliq qilatur-g'an birining Kristuf Qo'lumb[64] otli bir bolasi bor edi. Otasi Kristufni maktabg'a qo'yg'an edi. Kristuf maktabdan jug'rofiyo, hisob, hay'at[65] denilgan foydali ilmlarni o'qub chiqdi. Ortiq Kristuf Qo'lumb ongli, kuchli, o'ktam bir yigit bo'lg'an edi. Kemachilikka kirdi. Necha oydan sinog'li bir kemasi bo'ldi. Kemalarga minub, dengizning har yonig'a bordi. Ko'b o'lkalarga chiqub, olish-berish qildi. Bir kun kemasi dengizga botdi. O'zi kuch bilan Po'rtqiz otli o'lkaga chiqdi. Po'rtqiz o'lkasinda uylanib, qoldi. Yana kemalar yasab, kemachilik bilan kun o'tkara edi. Bir kun po'rtqizli bir kemachi bilan gapurishib o'tirganda, po'rtqizli dedikim:

– Yo'ldoshim, qir(g')oqda o'lkamizdagi kemalarga tub o'xshamagan qirriq kemalar bilan boqir tusli odam gavdalariga uchrayman.

Shu so‘zni eshitgach, Qo‘lumb(n)ing yuraginda bir tushuncha kelib yerlashdi. O‘yladi, tushundi, dedikim: «Bizim o‘lkadaki kishilar ichra boqir tuslisi yo‘qdir. Bunlarni kunbotardan suv keturub tashlagan bo‘lsa kerakdir. Unday bo‘lsa, Ovro‘pa bo‘lagining kunbotar tomonida emdigacha ko‘rolmadigimiz odamlar bilan ketolmadigimiz o‘lkalar, albatta bordir».

Mana shu tushuncha Kristufning yuraginda yigirma yil yerlashib qoldi. Keta-keta kuchlandi. O‘ktam Kristuf uzoq yerga ketub, o‘shal... ayniqsa, odamlarni ko‘rmakchi bo‘ldi. Ispaniyo o‘lkasinda xonlar va beklar ko‘rub, shu tushunchasini yurutmoq uchun ko‘mak istadi. Butun u xonlar bilan beklar Kristuf so‘zlariga kuldilar, ishonmadilar, ko‘mak etmadilar. Buyuk Kristuf bu kulushlar va ishonsizliklardan o‘sonmadi. Yana qay bir xonni ko‘rsa, shu ish uchun ko‘mak istay edi. Oqibat Ispaniyo beklarindan Izabella otli bir xotun Qo‘lumbning so‘ziga yarim-yumaloq ishondi. Ko‘mak qilmoqchi bo‘ldi. Uch eski kema bilan yuz yigirma kishi berub, Qo‘lumbni yo‘ldadi. Qo‘lumb ko‘nglindagi ishonch bilan gavdasindaki kuchga quvonib, Po‘rtqiz kunbotar qir-(g‘)og‘inda kemalarni ayirub, kunbotarg‘a yo‘naldi. Tubsiz, chetsiz dengizda iki oydin ortuqroq kema yuturdilar. Bir o‘lka, bir shahar, bir tog‘ qorasi ko‘zlariga erishmadi. Kemadaki ishchilar bu so‘ngsiz yo‘lchiliqdan o‘sonib qaytmoqchi bo‘ldilar. Kristuf Qo‘lumb qilg‘irlik[66] etub qaytmadi. Ishchilar yana bir-iki kun sabr qildilar. Ondan so‘ng Qo‘lumbning yoniga kelub dedilarkim:

— Biz butun o‘sondik, jonimizga tegdi. San bilan shundayin ketabersak, bir kun yo‘ldan adashib dengiz ichra ochliqdan o‘lurmiz. Shu kun kemalarni o‘z yurtimiz sari qaytarmasang, sani o‘ldurub, o‘zimiz qaytarmiz.

Kristuf o‘ktam kishi edi. Yo‘ldan qaytmoqni o‘ziga erishtirmadi. Ishchilarni yana uch kun yururga ko‘ndirdi. Iki kun yana yurdilar. Uchunchi kunda bir qora ko‘rub, barchasi sevindi. Kemani shul qora sari haydab, necha soatdan keyin erishdilar. Kemalarni qirg‘oqda boylab, yerga chiqdilar. Necha kun u yerda qolib, so‘ngra Po‘rtqizg‘a qaytdilar. Mana bugun Amrika atalgan ulug‘ o‘lka bir kishining, ya’ni Kristuf Qo‘lumbning g‘ayrati bilan topilmishdir. Ochunda odamning g‘ayratindan buyukroq narsa yo‘qdir.

TAMRIN:

Amrikani kim topgan? Kristuf Qo'lumb kimdir? Kim unga ko'mak ayladi? Nechuk ketdi?

OSIG'LI SO'ZLAR

Otamiz Amir Temurdan so'rabdirlarkim:
– Bir o'lkani obod qilaturg'an narsa nimadir?
Amir hazratlari debdilarkim:
– Tijoratdir.

Fransuzlarning katta xoqonlaridan bo'lg'an Napolyundan so'radilarkim:
– Urushda yovni yengmak uchun nima kerakdir?
Dedikim:
– Uch narsa kerakdir: oqcha, oqcha, oqcha.

Bir turk mullasindan:
– Tilagimga erisha bilmak uchun nima qilay, – deya so'ralg'ach: – Yo'lindan qaytma! – deb javob bergan.

Bir boy kimsadan o'g'ul so'rabdirkim:
– Muncha oqchani nuchuk tobdingiz?
Boy demishkim:
– Bir chiroq yerinda iki chiroq yoqmamoq bilan topdim.

TAMRIN:

Amir Temur nima degan? Napolyun nima degan? Turk mullasi nima degan? Boy nima degan?

ENG ESKI TURK ADABIYOTI NAMUNALARI

(Samarqand, 1927)

BIR-IKI SO'Z

Osiyo qit'asining juda keng bir qismida yoyilg'an turkiy qavmlarning siyosiy-iqtisodiy bir qancha markazlar tevaragida to'plang'anlari uchun turk tili bir qancha sho'bag'a ajralg'andir. Turkiyot bilan mashg'ul bo'lg'an Ovro'pa olimlari turk tilining bu qadar ko'b sho'balarg'a ayrilg'anin ko'rgach, bularni bir-birlariga yaqinliklari e'tibori bilan ko'malarg'a[1] ajratg'ali (tasnif qilg'ali) tirishadirlar. Turk tilining tasnifiga tirishqon olimlardan biri mashhur turkshunos mustashriqlardan pro'fesso'r Radlovdir. Bu kishi turk tilini,

asosan, to‘rt ko‘maga ajratadir: Sharq (1), G‘arb (2), O‘rta Osiyo (3), Janub (4) ko‘malari. Bulardan Sharq ko‘masiga Oltoy, Barobin, O‘bi, Yanisoy shevalari kiradir. G‘arb ko‘masiga qirg‘iz, G‘arbiy Sibir, boshqurd, Volg‘a totorlari shevasi kiradi. O‘rta Osiyo ko‘masiga sart, o‘zbek, taranji shevalari kiradir. Janub ko‘masiga esa turkman, qirm, ozariy, usmonli shevalari kiradir[2].

Pro‘f. Samoylovichning tasnifiga ko‘ra, turk tili, asosan, besh ko‘maga ajraladir. Bulg‘or ko‘masi (1), Shimoliy Sharq yoki uyg‘ur ko‘masi (2), Shimoliy G‘arb yoki qipchoq (3), Janubiy Sharq yoki Chig‘atoy ko‘masi (4), O‘rta yoki qipchoq-turkman ko‘masi (5). Bu besh ko‘maning har biriga ko‘b shevalar kiradirki, tafsili uzundir. Harholda bu tasniflarning ko‘bda asosiy narsalar bo‘lmag‘ani ma’lum. Bulardan boshqa birda tarixiy tasnif Mahmud Koshg‘ariyning «Devoni lug‘at»ida bordir. Mahmud Koshg‘ariyg‘a ko‘ra, hijriy 5 asrdan turk tili kichkina qabilaviy ayirmalarg‘a qaramay, asosan, iki muhim qo‘lg‘a ayrilg‘an[3].

O‘g‘uzcha, turkcha. Ikinchisiga yolg‘iz turkcha deyilg‘ani kabi xoqoniy turkchasi deyiladi. Mahmud Koshg‘ariy «Devoni lug‘at»da mana shu xoqoniy turkchasini asosiy qilib olg‘anda joyi kelgach, o‘g‘uzcha so‘zlarni ko‘rsatib izoh qilib borg‘an. Uning bu tasnifi aynan qabul qil(in)masa ham boshqacha tasniflarg‘a asos qilib olinishi albatta lozimdir. Bu tarixiy tasnifning bizcha muhimlig‘i bu kuncha adabiy o‘zbekchaning onasi bo‘lg‘an chig‘atoychaning mana shu xoqoniy turkchasidan tug‘ulg‘ani uchundir.

«Sarf»imning boshlang‘ichida yozg‘anim kabi xoqoniy turkchasi atalg‘an[4] mana shul adabiy shevaning besh asr keyingi shakli chig‘atoychadir. Shuning uchun biz o‘zbek adabiyotimizning tarixi uchun materiallar izlar ekan(miz), chig‘atoychag‘a borib to‘xtalmaymiz. Chig‘atoychaning onasi bo‘lg‘an haligi adabiy shevaga (xoqoniy turkchasigacha) borishg‘a majburmiz. Bu shevaning eng eski namunalarini bizga «Devoni lug‘atit-turk» kitobi beradi.

So‘ng zamonlarda Turkiyada topilib, uch jildda bayirilg‘an bu muhim kitob Mahmud ibn Husayn ibn Muhammad al-Koshg‘ariy tomonidan hijriy 464 da yozila boshlab, 466 nchi yilda bitirilganda abbosiy xalifalaridan al-Muqtadiy Biamirillohg‘a[5] taqdim etilgan.

Mahmud Koshg'ariy asarining boshlanishida mana shunday deb tanishtiradi: «Men turklarning eng to'g'ri, eng ochiq gapirgani, juda to'g'ri onglag'ani, tubchaklari, baturlari bo'laturib shaharlarini, tolalarini aylanib ko'rib chiqdim. Turkning, turkman-o'g'uzning, chigil, yag'mo, qirg'izning so'zlarini, kofiyalarini yaxshi o'rgandim[1].

«Devoni lug'at»ning uch jildini o'qub chiqqan kishi yuqoridag'i so'zlarning haqiqat ekaniga shubha qilmag'aydir. Mahmud Koshg'ariy turklarning ta'riflari, an'analari, xalq adabiyotlari, tillari, shevalari to'g'rusida juda keng ma'lumotli bo'lg'an. Mashhur tilshunoslardan pro'fesso'r Samoylovich uning ilmiy xizmatig'a qimmat berish uchun «Mahmud o'z zamonining Radlovidir. Radlov-da o'z zamonining Mahmudidir» deydir.

Mahmud Koshg'ariy o'zining turkshunoslig'i bilan birga ulug' arabiy olimlardandir. Qashqarliq hadis olimi Husayn Xaslaf o'g'lidan hadis o'rgangan. Buxoro, Nishopur shaharlarida ham tahsil bilan mashhur bo'lg'an («Devoni lug'at», j.1, b. 3). Mahmud Koshg'ariy «Devoni lug'at»da mingdan ortiq so'zlarni olib izoh qiladir. Ko'b o'rinlarda bu so'zlarning qabilaviy ayirmalarini ko'rsatadir. Kitobning joy-joyida turk sarfi to'g'risida keng ham to'la ma'lumot berib o'tadirkim, hammasini yig'ib tekshirganda tarixiy sarfimiz uchun juda qimmatli materiallar beradi.

«Devoni lug'at»ning ko'b so'zlari ostida maqollardan, she'rlardan dalillar, tonuqlar keltirilgan. Bular to'qquz-o'n asr burung'i turk adabiyotining eng qimmatll namunalaridir. Turkiyot bilan mashhur bo'lg'anlar bu she'rlarga, bu maqollarg'a shuning uchun katta ahamiyat beradir. Usmonli turkshunoslardan Najib Osim afandi «Devoni lug'at»dag'i maqollarni olib izoh qilg'an edi[6]. She'rlarni ham yig'ib sharh va izoh qilmoq fikrida ekanligi ma'lum esa-da, bu to'g'ruda qanday ishlar ko'rilganidan xabarimiz yo'q. Mashhur turkshunos pro'fesso'r Ko'prilizoda ham «Turk adabiyotining mansha'i» degan maqolasida bu she'rlardan so'z ochib, adabiyot tarixi uchun muhim ekanlarin yozg'andan keyin bularni vazn, qofiya ham mavzu' e'tibori, balki bir-birlariga bog'lab to'rt marsiya chiqarg'anini so'zlaydir. Men ham «Devo-

[1] Bu turk, o'g'uz ta'biriga biz O'rxun yozuvlarida ham uchraymiz. Baytning boshida «turk, o'g'uz beklari budun ashidek» deyiladir. Bunda turk so'zini o'g'uzning sifati qilib «turk bo'lg'an o'g'uz beklari...» ma'nosida onglamoq yanglishdir. To'g'risi «Turk va o'g'uz beklari» ma'nosida(gi) «turk o'g'uz beklari...»dir.

ni lug'at»ni(ng) bosma nusxasini olg'an kunimdan boshlab shularg'a qiziqdim. Bularni vazn, qofiya ham mavzu'lariga ko'ra bir-birlariga bog'ladim. So'zlari, tarkiblari ustida ancha ishladim. Ularni izoh qilish uchun «Qutadg'u bilig», «Hibat ul-haqoyiq», «Muqaddimat ul-adab» ham chig'atoy adabiyotiga oid ko'b kitoblardan foydalangandim. Anchagina uzoqqa cho'zilg'an mehnat natijasida qo'lingizdag'i mana shu asar maydong'a keldi. Tezdan ham aytib o'taykim: mening ishimni(ng) natijasi pro'fesso'r Ko'prilizodani aytgani kabi chiqmadi. Pro'fesso'r Ko'prilizoda bu parchalardan to'rt marsiya chiqarg'anini, bularning birinchisi Alp Erto'ng'a marsiyasi, ikinchisi «Yonqu» qabilasi bilan bo'lg'an bir voqeag'a bog'li marsiya, uchinchisi kimniki ekani bilinmagan, to'rtinchisi To'ngqut amiriga oid bir marsiya ekanini so'zlaydir (Milliy tatabbu'lar majmuasi, j.2, son 4, b. 71).

Men ham yolg'uzgina iki marsiyaga uchradim. Qolg'anlarining marsiya ekanlariga qaror bera olmadim. Fikrimcha, ularga marsiyadan boshqa unvonlar berish kerak. So'ngra Alp Erto'ng'a marsiyasini F. Ko'prilizoda o'n iki parcha deb ko'rsatadi. Menimcha, o'n parchadir. Devonni(ng) ikinchi jild, 105 nchi betidagi bir parchani esa, Erto'ng'a marsiyasiga qo'shushg'a vazn, qofiya, mavzu' musoada qilmaydir. Birinchi jildning 94 nchi betidagi bilan uchunchi jildning 31 nchi betidagi parchalar boshqa-boshqa emas, ikalasi birdir.

Emdi bu «tizma»larning qaysi zamong'a oid bo'lg'anlari to'g'rusida biroz to'xtab o'taylik: Shu kitobning birinchi qismidag'i 8 nchi asar (o'g'uzlar bilan urush)ning musulmon turklarning urushlarin tasvir qilg'anini Mahmud Koshg'ariy xabar beradir. Yana shul birinchi qismdag'i 5 nchi asarda *evriq* so'zi borkim, arabcha *ibriq*[7] demakdir. Yana shul birinchi qismidag'i birinchi asarda (Alp Erto'ng'a. marsiyasida) *za'faron* ma'nosida arabcha *ko'rkum* so'zi bordir. Mana bular mazkur asarlarning turk, arablarning birinchi uchrash zamonlarig'a oid bo'lg'anin ko'rsatadir. Demak, u asarning harholda milodiy 6—7 nchi mulchar (asr)ning adabiy yemishlari ekaniga hukm etmak mumkindir. Shunday bo'lsa ham *ko'rkum, ibriq* kabi ikita arabcha so'zni e'tiborg'a olmag'an bu asarlarni shakl ham ruh e'tibori bilan islomdan burung'i turk adabiyoti namunalari kabi qabul etishimizga hech mone' yo'qdir.

«Devoni lug'at»dan to'plab olg'anim shu tizmalarni men

iki qismg‘a ayirdim. Birinchi qism bilan ikinchi qism orasida tubandag‘icha ayirmalar bordir:

a) birinchi qismdag‘i asarlar to‘rtliklardan iborat bo‘lib, har to‘rtlikning 1-, 2-, 3 nchi qismlari bir qofiya, butun asarning to‘rtinchi misra’lari bir qofiyadadir. Ikinchi qismidag‘ilar esa, butun misra’lari qofiyadosh bo‘lg‘an ikiliklardan iboratdir;

b) birinchi qismidag‘i asarlar qisqa vaznda, ikinchi qismidag‘ilar esa aksariyat bilan uzun vazndadir;

j) birinchi qism butunlay tasviriy asarlar, ikinchi qism esa aksariyat bilan ta’limiy-axloqiy asarlardir.

Bu manzumalarning ba’zi so‘zlarini biroz izoh qilish, ba’zi so‘zlaridagi sarfiy ham savtiy ahamiyatli nuqtalarini chizib o‘tish kerak bo‘ldi, shuning uchun kitobga uchinchi qism ortdirdim.

Emdi bu tizmalarning «Devoni lug‘at»dag‘i imlolari to‘g‘rusida biroz to‘xtashg‘a to‘g‘ri keladir: «Devoni lug‘at» arabcha yozilg‘ani uchun:

a) turkcha so‘zlar arabcha cho‘zg‘ilar, harakatlar ( ) bilan yozilg‘an. Bularning eng chatog‘rog‘i ust ( ) cho‘zg‘isidir. Bu cho‘zg‘i bizning bu kungi (ا ه ا ، بـ) cho‘zg‘ilarimizning o‘rnini tutadir: tayfq (تيق) = toyoq (تاياق), san (سن) = (سەن), tar (تر) = (تبر) kabi;

b) « ا » cho‘zg‘isi ham ora-sira ishlatilgan. Biroq eski imloda bo‘lg‘anidek tovush ohangiga qaramay qalin, ingichka so‘zlarda bir turli yozilg‘an: bormoq (بار ماق), bilmak (بيلماك) kabi;

j) bizning bu kungi ng (ك) harfimiz joyida eski imlomizda bo‘lg‘ani kabi « نك » ng yozilg‘an;

d) birda «Devoni lug‘at»da F « ف » ham B « ب » tovushlari orasida bo‘lg‘an bir tovush uchun uch nuqtali « ڤ » F harfi bor. Bu kun bizning ov (اۆ) sevmak «(سيۆ مەك), teva (تيۆ ه)» degan so‘zlarimiz shul uch nuqtali f (ڤ) bilan yozilg‘an.

Mana shu imloni men qo‘lingizdag‘i kitobda tubdagi shaklda ko‘chirdim:

a) qalin so‘zda bo‘lg‘an ust ( ) cho‘zig‘ini « ا » ga aylantirdim. Ingichka so‘zlardagilarning hammasini va « بـ » o‘rnida bo‘lg‘anlarini ham « ه »ga aylantirdim;

b) ingichka so‘zlarda yozilg‘an « ا » larni « ه » qildim;

j) « ك » ng joyidagi «ng — بـ » larni o‘z holiga qo‘yib, yoy[8] orasida bugungi shakllarni ko‘rsatdim;

d) yuqorida aytkanim uch nuqtalik «ڤ» F harfi bizning matbaalarda yo'q. Tayyorlash ham mumkin emas, shuning uchun ularni o'zimizning (و) bilan ko'rsatdim. So'ngra: (namuna)lardan har bir parchasining ostiga o'zbekchasini sochim (nasr) so'zlar bilan yozdim. Undan keyin onglashilmag'an lug'atlarning barchasini yozdim.

I qism

I. Alp Erto'ng'a marsiyasi.
II. Yoz, qish munozarasi.
III. Bir urush maydoni haqida (to'rtliklar).
IV. Yoy (besh to'rtlikdir).
V. Yoz o'yinlari (hammasi olti to'rtlikdir).
VI. Ovdan urushg'a (o'n iki parchadan iboratdir).
VII. Togush begining urushi (sakkiz parchadir).
VIII. Uyg'urlar bilan urush (besh parchadir).
IX. Iki savdogar orasida (yetti parchadan iboratdir).
X. Ayriliq (hijron to'rt parcha).
XI. Yana ayriliq (to'rt parcha).
XII. Yana sevgi.
Yana sevgiga oid parchalar.
Yana sevgi.
Yana muhabbatga oid.
Yana muhabbatga oid.
Yana shu mavzuda.
XIII. Uch urush (besh parcha).
XIV. Bir urush.
XV. Tubandagi manzumaga bir unvon bera olmadim, bildimki, dostonning boshlang'ichidir (olti parcha).
XVI. Bir marsiyadan (uch parcha).

II qism

I. Nasihat.
II. Yana shu mavzuda.
III. Yana shu mavzuda.
IV. Yana shu mavzuda.
V. Mehmon tutish to'g'rusida.
VI. Tarbiya to'g'rusida.
VII. Bir go'zal haqida.
VIII. E'tiqodiy bir parcha.

IX. O‘g‘limga nasihat.
X. Dunyodan shikoyat.
XI. «Aran komug‘»[9].
XII. Parcha (shoirning qabilasi bilan urushib inglagan bu kishiga, II).
XIII. Sevgan bir kishi uchun.
XIV. Boylikni maqtaydir.
XV. O‘gut (nasihat).
XVI. Maqtanish.
XVII. Boylik to‘g‘rusida.
XVIII. Aldangan bir kishiga.
XIX. «Ilkim o‘rgut».
XX. Ayrilish.
XXI. O‘zin maqtab...
XXII. Diniy nasihat.
XXIII. Mehmon to‘g‘rusida.
XXIV. Rohat to‘g‘rusida.

III qism

(Birinchi va ikkinchi qismda ishlatilgan so‘zlarning lug‘ati alifbo tartibida beriladi — *H. B.*)

TILIMIZ

I

Dunyoning eng boy, eng baxtsiz bir tili qaysi tildir? Bilasizmi? Turkcha. Shoirlik qilmoqchi emasman, so'zning to'g'risi shudir. Dunyoning eng boy tili turkchadir, eng baxtsiz tili xud[1] turkchadir. Tillarning baxtsizligi sovet hukumati chog'inda bo'lg'an bir ishdir, bundan burun baxtli edilar deganlar tilimizni holini bilmasdan gapuralar[2].

Bir tilning boylig'i u tildag'i so'zning ko'bligi (kasrati kalimat)[3], undirik kengligi (vus'ati ishtiqoq)[4], yusup tugalligi (mukamalliyati qavoyid)[5] bilan bo'lur. Turkchada so'z ko'bligi bormi, arabchilarimizcha aytganda, kasrati kalimat mavjudmi? Bu so'z bukun emas, necha yuz yil burun orag'a chiqmish deya Navoyining «Muhokamat ul-lug'atayn» kitobindan o'z javobini olmish. Navoyining kitobi turkchaning boylig'ini ochibg'ina bildira olmasa ham turkchada so'z ko'bligini u yaxshi biladir. Navoyi yolg'iz «yig'lamoq»ning turlarini ko'rsaturgan turkcha so'zlarning shunchasini yozadir: *ingramak, singramak, ingichkirmak, yig'lamoq, yig'lamsinmoq, o'kurmak, siqtamoq...* Mana sizga bir hodisaning yetti turi uchun otkim, oralarinda ingichka ayirmalar bordir. Turkchada bu hol oz emas. Arabcha *nufuz, murur, ubur*, u to'g'rusinda *o'tmoq, kechmoq, oshmoq, ortmoq* bor. Arabcha *kand, azm, amal* qarshusinda turkcha *tilak, istov, o'rxan* bor. Arabcha *zarf* yoninda turkcha *idish* bor, *sovut* bor. Arabcha *naf', manfaat* o'rninda turkcha *tosix* bor, *unum* bor. Arabcha *qalb* o'trusinda turkcha *yurak* bilan *ko'ngul* bor. Arabcha *sadr* uchun turkcha *ko'ks* va *ko'krak* bor. Turkcha lug'at yozmoqchi bo'lganimda turkcha so'z boyligi to'g'rusinda bundan ortiq yozolmayman.

So'zni turkchada undirik kengligi (ya'ni, vus'ati ishtiqoq)g'a ko'chiraman. «Ilm» ishining – bilimning turkchasidan undirilgan[6] so'zlar shulardir: *bil, bilar, bilajak, bilg'usi, bilg'ay, bilsa, bilsa-chi, bilay, bildi, bilibdir, bilgan, bila*

boshladi, bilayozdi, bila oldi, bila turdi, bila berdi, bilib, bilg'ach, bilg'ali, bilmak, bilish, biluv, bilmov, bilim, bilgi, bilgili, bilguchi, bilmakchi, bilgur, bilmagay, bilmagan, bilmay, bilimsiz, bilmas, bilmaslik.

Mana sizga yolg'iz fe'llardan 13 fe'l, qo'shma fe'llardan 6 fe'l. Qo'shma fe'llardan har birining buyrug'i, bo'lishi[7], holi[8], kelajagi[9], sharti[10], qo'zg'avi[11] bor. 13 x 6 = 78 bo'lur. Bunlarg'a uft[12], vaqt[13] va sabab[14] fe'llari qo'shilsa, 81 ta bo'lur. Bunga ism[15] va sifat yozilg'an[16] 18 qo'shilg'anda 99 so'z bo'lur. Bu 99 tasiga-da so'z tolug'i[17] buyruqdir (ya'ni, *bil* so'zi). Demak, turkchada bir tomirdan 98 so'z undiring emish.

Emdi yusup tugalligiga (mukammaliyati qavoyidg'a) boqayliq: arab, fors, rus, nemis, fransuz tillaridan qay birining sarf[18] kitoblarini olib qarasoq ko'ramizkim, bir so'zni yasamoq uchun bir qancha yozilg'an, undan so'ng shul qoidadan tashqari qolg'an (mustasno) so'zlar deb to'rt-besh so'z ko'rsatilgan[19]. Turk so'zlarinda esa bunday hol topilmaydir. Yusupsizlik degan hollar (istisnolilik hollari) turkcha sarfda sira yo'qdir. Tilimizning ayni to'g'rusinda ham boylig'i, tugalligi bilindimi?

Emdi so'zni turkchaning baxtsizlig'ina ko'chiraman. Turk tili shuncha boylig'i, shuncha tugalligi bilan baxtsizliqdan qutula olmamishdir. Turk tili dunyoning eng baxtsiz tilidir. Turkchaning baxtsizlig'i arab bosqini bilan bog'lanmishdir. Arablar bosdiqlari o'lkaga yolg'uz hukumatlarini emas, dinlarini, yo'sunlarini-da tanitgan, oldirg'an edilar. Musulmonliqlarning tubi, tomiri Qur'on bilan Hadisdir. Shuning uchun yangi musulmonlar arabcha o'rganishni o'zlariga vojib deb bildilar, o'qidilar, o'rgandilar, sevdilar. Bundan keyin forsi(y)cha va turkcha arabcha bo'g'uviga kirib qoldilar. Fors tilining holi butunlay yomonlashdi. Forslar o'z tillarini tashladilar: kitoblarini emas, o'zaro yozuvlarini ham arabcha yoza boshladilar. Lekin, bu ish ko'b cho'zilmadi. Fors tili bir silkinish bilan o'zini arab bo'g'uvidan qutqara oldi. Fors tilining bu silkinishi Eron shoiri Firdavsiyning chiqishi edi. Firdavsiy arabchiliqqa qarshu qaynag'an, qizig'an bir millatchi edi. O'ttiz yil tirishdi, dong'li «Shohnoma» kitobini yozib chiqardi. «Shohnoma»ni yozib chiqarudan Firdavsiyning ikita tilagi bor edi: Eron ulusini arabdan sovutib, eronli tuyg'usini bermak va arab tilini Erondan surib

chiqarmak. Shuning uchun «Shohnoma»ning har bir yerinda eronlini maqtag'an shoir arabliqqa kelganda:

Zahir shutur xurdan susi mor,
Arabro ba joyi rasidast kor.
Ki taxti Kayonro ko'nad orzu,
Tfu, bar tu, Charx gardun tfu! –

deb qiyqirmishdir. Bu so'zlarning turkchasi shudir: Tuya suti bilan ilon eti yemakdan boshqa ish bilmagan arabning ishi shu yerg'a chiqmishkim, Eron imperatorining taxtini istaydir. O, shu ishga sabab bo'lg'an falak, tfu senga, tfu!

Yana shuning uchundirkim, Eronda arabcha hokim bo'lg'an bir zamonda[20] yozilg'an «Shohnoma»da arabcha so'zlar yo'q darajada ozdir. Firdavsiy bu iki tilakni bilib, onglab, ishga kirishganini bildirmakchi bo'lib, yozadirkim:

Bas, ranj burdam soli si,
Ajam zinda kardam ba dini forsiy, –

demishdir. Turkchasi: «Bu o'ttiz yil ichida ko'p emkaydim[21], Eronni forsi(y)cha yozdig'im shu kitob ila turg'izdim» demakdir. Forsi(y) ishdi shunday qilib yoqasini qutqarmish. Lekin, bizning baxtsiz turkchamiz bir Firdavsiyni yetishtira olmamish.

Dunyoning eng boy tili bo'lg'an turkchamiz yolg'uz arabcha qumruqlar[22] bilan emas, forsi(y)cha tepkilari bilan daxi ezilmishdir. Ko'zlarimizni to'rt ochib qarayliq, dunyoning eng buyuk hakimi bo'lg'an Ibn Sino turkdir. Ikinchi Arastu atalg'an Forobiy turkdir. Arab tilini mangulik tirg'izib kelgan Javhariy[23] turkdir. «Vahdati vujud»[24] falsafasining imomlaridan bo'lg'an Jaloliddin Rumiy turkdir. Forsiy adabiyotining payg'ambarlaridan bo'lg'an Nizomiy daxi turkdir. Shu yerlarda otlari yozilg'an kimsalar-da yolg'uz turk ulusini emas, butun dunyoning ulug' kishilarindan erurlar. Iki turk ulusi[25] bunlarning asarlaridan osug'lanolmay qolmish, balki o'zlarini ham yaxshig'ina taniyolmay qolmishdir. Bunlar o'z bitiklarini turkcha yozsalar edi, bukun turk ulusining holi, ehtimolki, boshqa turli bo'lur edi. Baxtsizliq bundan-da ortiq bo'lurmikin?! Turk o'g'li turk bo'lg'an Mahmud G'aznaviy Firdavsiyni chaqirib, turk ezilishini ko'rsatgan «Shohnoma»ni yozdirsun-da, har yo'liga bir oltun bersun. Shul baxtsizliqdirkim, turk o'g'li bo'lg'an usmonli xoqonlari o'z tuyg'ularini forsi(y)cha she'r bilan

so‘ylatmishdir[26]. Yana shul baxtsizliqdirkim: Kafkaziya turklarining yoqalarin tutmish-da forsiy tilining hurmati uchun sakson yerinda hashtot dedirmishdir.

Turkcha baxtsizdir. Ming yildan beri ezila kelmishdir, lekin bitmamishdir. Bitmas, yashamishdir – yashar. Negakim boydir. Turkcha yashamishdir. Yashar, lekin o‘zini arab, fors tillarindan qutqara olurmi, yo‘qmi? So‘zni bu yerga yetirgach, barmog‘imni yaraning o‘zagina bosmish bo‘ldim. Bu so‘rdig‘imga iki turli javob kelar, bilgilidir: ha, yo‘q. Emdi shu «yo‘q» deganlar bilan yurishaylik. Bunlar deylarkim, turkcha arab, fors tillarindan qutulolmas! Nechun? Mana dalillari: chunki arab, fors tillari boydir. Buni javobini berdikkim, turkcha ham boydir. Chunki bukungi turk dunyosining bilimli ulug‘ yozuvchilari shu yo‘lga kirmishdir. Bunga javob beramizkim: turk dunyosining ulug‘ hakimlari bo‘lg‘an Forobiy bilan Abu Ali o‘z asarlarini arabcha yozarg‘a qo‘l qo‘yg‘an edilar. Siz nechun ularning ichidan chiqdingiz? Siz Abu Alining izidan chiqqanda, biz-da sizning izingizdan chiqa olsaq kerak. Chunki tilimizda ko‘b narsaning oti yo‘qdir. Javobimiz: bu so‘zdan tilagingiz nimadir? Shul choqda tilingizdag‘i arab, fors so‘zlarining turkchasi topilmaydir, demakchi bo‘lsangiz so‘zingiz yanglishdir. Turkchani bilmas ekansiz. O‘rganing. Hozirgi so‘zlarimizdag‘i arabcha, forsi(y)-chalardan bir nechasi uchun turkcha topilmaydir, desangiz to‘g‘ridir. Biz ham ularni chiqarmoqchi emasmiz. Unlarni olurmiz, lekin o‘zimizniki qilurmiz. Turkchalashtirurmiz. *Qoida*ning turkchasi yo‘qdur. *Sarf*ning-da turkchasini topolmadik. Ikisin daxi olurmiz. Lekin, siz kabi *qavoyidi sarfiya* demasdan *sarf qoidalari* dermiz. Chunki ilmiy istilohlarning turkchasi yo‘qdir. Kim dedi buni? Shamsning turkchasi *quyosh*dir. *Kavokib*ning turkchasi *yulduzlar*dir. *Manor*ning turkchasi *olov, o‘t*dir. *Sahobi munavvar – yorug‘ bulut; handasa – o‘lchov xat, chiziq, zoviya – burchak, puchmoq*dir. *Kavokibi sobita – turg‘uchi yulduz*dir. *Kavokibi zu zanb – quyruqli yulduz*dir. Tuzuk, bir necha istilohlarning turkchasini bukungacha topolmag‘anmiz, ularni saqlarmiz. Chunki, turkchamiz qabodir[27], daqqidir[28], adabiyot tili emasdir.

So‘z bu yerga keldimi? Chidamoq qo‘ldan kelmas! Qaboliq, daqqiliq ko‘rsatmakchi bo‘lib deymizki: siz ulusingizni sevmaysiz. Shuning uchun turk ulusi va turk tilining siz bilan

ishi yo'qdur. Qarshingizdag'i kishilar bu so'zni eshitib o'tirmaslar, qilarini qilarlar. Men ulusimni jonimdan ortiq sevaman derlar. Bunlarning mana shu so'zlari qumuchdir[29]. Tushingizda siz bir xotunni sevgansiz, tirishib, jon chekishib, kuch bilan uyig'a kiribsiz, yonig'a suqulg'andan keyin yuzig'a qarab: «Men sizni ko'b sevaman, siz ko'b chiroyliksiz, lekin shu ko'zingiz ko'b daqqidir, shuni chiqarib tashlang. Burning yomon is beradir, shuni kesib oting», — desangiz sevgilingiz bo'lg'an xotun iki-uch tayoq urub, sizni quvmasmi? Albatta, quvar. Turk ulusini sevamiz, lekin tili qabodir, musiqasi totsizdir, tarixi qorong'udir deganlarning ham bir-iki tayoq yeb quvilmoqlari kerakdir. Lekin turk tili baxtsizdir.

TILIMIZ

II

Tilimizning boylig'i to'g'rusida «Ishtirokiyun»ning bilmam qaysi sonida[1] bir maqola yozg'an edim. Bunda tilimizning boylig'i, tugalligi, kengligi to'g'rusindag'i tonuq[2]-larimni ko'rsatkandan keyin tilimizg'a kirib qolg'an arabcha, forsi(y)cha so'zlar va istiloh(lar)ni chiqarmoq teyishlikni so'ylag'an edim. Bu tushunchag'a qarshu bo'lg'an kishilar ham, albatta, bordirlar. Biroq bunlarning qarshuliqlari o'zig'a g'azab-la singdirgan tushunchalarining bizga qarshulug'ini shu yerda yozib qaytarmoqdan burun o'z tushunchalarimizni ochiq qilib qatorlab yozayin:

a) men turk tilining asir tushgani va bo'yla tutqun holini o'rganganimdan ...[3] turkchaning boylig'i, kengligi, to'-lug'lig'i uchundir;

b) men turk ulusig'a o'z boshli (mustaqil) bir til va shu tilda yozilgan «ilm» istayman. Turkchaning boylig'i, kengligi va to'lg'unlig'ini bilganim uchun bu ishni qulay deb ishonaman;

j) tilimizning o'z boyligi (mustaqil) bo'lib turushi uchun gaplarga va yozuvlarimiz aro kirib qolg'an yot so'zlarning o'zbekchalarini ilkimizdan kelgancha oxtarib topib ishlay(l)ik. Tilimizdag'i yozilg'an «bilim»ni ko'rmak uchun «ilmiy istilohlar» dedigimiz «bilim so'zlari»ning ham ilkimizdan kelgancha turkchalarini topib olmoq yo'linda tirishmakni har bir turk yozuvchisi uchun «vojib» deb bilaman;

d) turkchasi topilmagan so'zlar va istilohlar bor esa, unlarni chiqarib tashlab, o'runlarini bo'sh qo'yaliq demayman. Turkchasi topilmag'an so'zlar va istilohlar qolsun, biroq turkchaning buyrug'i ostinda kirib qolsun; boshqacha turli aytkanda, Fransa[4]da yashag'an bir turk kabi bo'lundig'i[5] turkchaning qonunlarig'a bo'yunsunib yashasun; turkchada turg'an bir fransuzdek «kapitulasion» asrori ostida turmasun.

Mana menim o'ylarim... ochiq ko'ruladirkim: men o'z istaklari bo'yicha emas, muntafiy[6] bir tushunchaning qisuvi bilan bu yo'lg'a kirganman. Turk ulusig'a o'z boshli (mustaqil) bir til kerak. Turkchaning o'z boshli (mustaqil) bo'luvi uchun yot so'zlardan qutulish teyish. O'z tushunchalarimizni shu yo'lda ochib ko'rsatkandan keyin bunga qarshu bo'lg'an o'ylarni ham ko'rib o'tmak kerak. Burunroq shuni aytaykim: bu kun g'azab-la to'ldurg'usi ishlarimizni eng ulug' va eng soyillig'[7]lardan biri ul til istamaymiz.

Deylarkim: bizga qarshu turg'an olimlarimiz o'z qilag'onlaridan[8] o'zg'a bilurmadilar. Biz mas'alaning u tushunchalarini mutlaq bir yo'sunda ko'rib osug'lanolmaymiz, unlardan bizg'a erishkan so'zlar ko'chada til uchun o'ylanmag'an o'tirishlarda aytilib o'tkan so'zlardir.

Bunlarning so'zlarini tinglaymiz:

1) biz turkchani odmi bir tilda yozarg'a tirishamiz, shuning uchun turkchadan odmi so'zlarni chiqarmasg'a teyish;

2) turkchaga kirib qolg'an arabcha, forsi(y)chaning turkchalari yo'qdur;

3) ilmiy istilohlarning turkchalari yo'qdur;

4) ilmiy istilohlarni turklashdirmak uchun tirishmak vaqtimizni bo'shg'a o'tkargan bo'larmiz;

5) chig'atoy tilida bilim o'qumoqchi emas, iki yuz yil kutib turayliq;

6) arabcha ilmiy-adabiy bir tildir: arabcha ilmiy istilohlarni o'zgartmak to'g'ri emas, biz bilim bitiklarimiz (ilmiy kitoblarimiz)dan ilmiy so'zlarni chiqarib, arobachilar so'zini kirguza olmaymiz (shul so'ng so'zni saboq berib turdigim bir maktabning o'qutuchilari o'rtasidan bir kishi aytkan edi).

Mana bizga qarshu aytilgan «gap»lar. Bunlarga ayri-ayri javoblarimni bermakdan burun shuni aytaykim: shu so'zlarning hammasindan ko'runaturgan narsa – o'zimizni suymaslik, o'zimizg'a ishonmasliq, o'zimizning borlig'imizni

onglay olmasliqdan boshqa narsa emasdir. So'zlarning o'zagi, holi shudir: «qila olmaymiz», «bizniki yaramaydir». To'g'risini aytkanda, o'ziga shunday xo'r boqg'an bir el, o'ziga shuncha ishonmag'an bir ulusning kurash maydoni bo'lg'an tiriklik ochuninda tizlanmakiga, yiqilmay tururig'a men ham ishona olmayman!

«Biz qila olmay ekanmiz»... – Nechun?!

«O'zlig'i yaralmay ekan»... – Nechun?!

Yuksalish yo'lig'a kirgan qaysi bir el shunday ishonchsizliq bilan ishga kirishadi?! Shunday ishonchsizliq bilan ishga kirishgan bir el yuksaladimi? Shul so'rog'larg'a javob istarmiz ... ... Emdi bizga qarshu yurg'anlar(ning) so'zlarig'a silay-la[9] javob beraylik.

Deylarkim: turkchadan adabiy so'zlarni chiqarmasg'a teyish. Buni biz ham qabul qilamiz. Adabiy so'zlarni turkchadan chiqaringiz demaymiz. Bizning tilagimiz adabiy so'zlarni emas, arabiy so'zlarni chiqarmoqdir. Onglashiladirkim, bizga qarshu turg'an og'alar «arabiy» bilan «adabiy»ni ayirmasdan gapuralar. Bularning aytkanicha, turkchamizda kirib qolg'an yot so'zlar adabiy, ularni chiqarsoq tilimiz adabiylikdan chiqar. Mana shu so'zlar o'zimizni sevmaslik emasmi? O'zimizg'a xo'r boqmoq emasmi? O'zimizg'a ishonmasliq emasmi?

Yer yuzida bizdan boshqa urug' yo'qmi? Qaysi bir urug' o'z tilini «adabiy» qilmoq uchun yot tillardan tilanchilik qiladi? «Adabiy» degan so'z, torroq bir ma'noda aytkanda, tilning qoidalaridan chiqmay yozilg'an onglashurliq so'zdir. Arabcha va forsi(y)chaning bu o'rtadoshlari yo'qdir.

Deylarkim: tilimizdag'i yot so'zlar bilan «ilmiy istiloh»larning turkchalari yo'qdir. Buning javobi ko'bdan berildi. Yot so'zlar va ilmiy istilohlarning turkchalarini tirishsak toparmiz, topa olmag'anlarimizni turkcha buyrug'ina yozdira olarmiz. Siz tilimizdag'i yot so'zlar, ilmiy istilohlarni o'zgartmak teyishlig'ini qabul eting, unlarning turkchalari so'ngra topilar. Yo'q, siz bu yo'lda tirishmasangiz, amringiz boshqa yo'l ekan. Buni men bajaraman! Menim tushuncham shudir: turk ulusining ilmiy, ijtimoiy ko'b dardlari, ko'b yuksak o'rinlari bordir. Shul dardlarni bilmamak, shul yuksak turumlar[10]ni to'ldirmoq qamug'larimizg'a teyishdir. Bir yo'lg'a tushkan kimsaning torroqday amri bo'shg'a o'tkan bo'lmaydir.

Deylarkim: chig'atoycha bilim o'qumoqchi esak, iki yuz yil kutaylik. «Yetti kunda butun nomlarni chig'atoychada yozib, «lablunday»[11] qilib qo'lingizg'a topshuraman» degan kim?! Biz-da bilamiz, bu ish qulay emasdir, ko'b vaqt istar. Shuning uchundirkim: hozirdan ishka kirishkali oshuqub turamiz. Biz arobachilar tili bilan bilim o'qiyolmas ekanbiz. So'zmi bu?! Bu qora ishlarning «huyon hu»[12]larig'a o'xshatib, ilmiy, adabiy tarixiga qaramoq yaxshi bo'lmas edimi?!

Hikmat, handasa bilimlari arablarg'a ko'kdan inmadi[13]. Unlar bu ilmlarni yunonlilardan oldilar; arablarda bu bilimlar yo'q chog'da ilmiy istilohlar ham yo'q edi. Biroq shu «istilohi ilmiyya» deb olg'an so'zlarning o'zi bor edi.

Aytakim: hayot bilimi yo'q ekan, *hisob*, «*h*» degan istiloh yo'q bo'lsa, *hisob* bilan «*h*» so'zi bor edi. Arabning shoiri, boyi, arobachisi, tuyachisi – barisi bulutni *sahob*, bildirg'uchi narsani *madi* der edi. Arabda handasa ilmi yo'q ekan, *zoviton, doxlton* degan istiloh bo'lmasa, ilmi arabiyning mullasindan tortib avliyosig'acha hammasi *puchmoq*ni *zoviya, ichkari*ni *doxil* der edi.

Nasroniy hayot madrasasinda *quyosh*g'a *shams* deganlari kabi tuyachilar uyushmasinda ham *shams* derlar. Arablar yunon bilimlarini o'z tillarig'a aylantirgach, shul tuyachilar so'zlarini olib «ilmiy istiloh» qildilar. Biz nechun shunday qilmay ekanbiz?! Turk so'zini arobachilar so'zi deb tashlag'andan so'ng arab tuyachilaridan olg'an istilohlarni qabul etaylik. – So'zmi bu?!

TILIMIZNING ADABIYLIGI...

(1921-yil Til va imlo quriltoyida so'zlangan nutq)

Sharq adabiyotining hashamatli, rangli bir tarixi bor. Bu dabdabali tarixning oldidan o'tkanda bu kungi Ovro'pa adabiyoti ham shapkasini olib salom berib o'tadir. Shunga o'zini majbur kabi ko'radir.

Sharq tarixi adabiyasi butun dunyo adabiyoti orasida singirsiz, misli yo'q bir bog'chadir. Bu go'zal bog'chadag'i gullarni saralab ko'rmakchi bo'lsak, birinchi sirada, qatorda arab ham eron gullarini, ikinchi sirada esa, urdu ham turk chechaklarini ko'ramiz. Sharq tarixi adabiyasida birinchilik arab-eron adabiyotig'a, ikinchilik esa urdu va turk adabiyotig'a berilg'andir.

Sharq tarixi adabiyasida o'rin tutqon turk adabiyotining eng muhimi, eng ko'bi, eng qimmatlisi chig'atoy shevasindag'i adabiyotdir. Chig'atoy tarixi adabiyasi xalq adabiyotig'agina bog'lanib qolmag'an. Unda yuksak, oliy san'atkor adabiyot bor. Chig'atoy tarixi adabiyasida Boyqaro, Navoyi, Lutfiy, Umarxon, Fazliy[1] kabi san'at dunyosida mo'jiza-ko'rsatib to'fonlar qilg'an qahramonlarg'a ko'b uchraymiz. So'zning qisqasi, chig'atoy adabiyoti turli shevali turk adabiyoti orasinda eng yuksak, eng muhim o'rinni tutg'andir. Boshqa shevadag'i turk adabiyoti bunga o'xshashliqlar, buning shogirdliklari bilan maxtanib yuradir.

Adabiyot bezangan, ziynatlangan bir shakldir. Chig'atoy adabiyoti turk adabiyoti orasida yuksak, yuqori, oliy bo'lg'andan keyin chig'atoy tilining ham turk tillari orasida yuksak, yuqori, oliy o'lg'anlig'ini qabul etmak mutlaqo lozimdir. Bezanib, ziynatlanib chiqg'andan so'ng yuqori darajaga chiroyliq ko'rungan bir qizning aslan chiroyliq bo'luvi lozimdir. Asli chiroyliq bo'lmag'an bir qiz bezanmak bilan yuqori darajada chiroyliq ko'runmas. Menim bu da'vom yolg'uzgina mantiqiy bir da'vo bo'lsa edi. Lekin menim bu da'vom mantiqiy bir muhokamadangina iborat bo'lub qolmaydir. Buning boshqa tonuqlari, shohidlari bordir.

Chig'atoycha sarf bilan totor sarflarini saralab qarag'anda chig'atoychaning sarfda, ya'ni ishtiqoqda boylig'ini ko'ramiz. Tilimizning so'zda boylig'ini ko'rsatmak uchun eskidan beri vujudga chiqarilg'an «Muhokamat ul-lug'atayn», «Lug'ati Chig'atoy»[2], «Lug'ati Navoyi»[3], «Lug'ati Xorazmshohiy»[4] kabi milliy xazinalarimiz bor. Bulardan boshqa turk tili, adabiyoti to'g'risida yozilg'an asarlarning har birini o'qug'anda «chig'atoy adabiyoti – turk adabiyotining onasi, bobosidir» deg'an so'zlarg'a uchramoq mumkindir.

Adabiyotimizning turk adabiyotlari orasida eng yuqori o'rinda turg'anidan tilimizning turk tillari orasida yuqori bir mavqe' tutg'anini chiqarg'an kabi bo'ldim. Bundan ikinchi bir mas'ala tug'uladir: adabiyotimiz arab, fors adabiyotig'a qarag'anda ikinchi sirada ekan, tilimiz arab, fors tillarig'a qarag'anda ikinchi siradami qolur? Bunga javob beramiz: «Yo'q! Tilimizdag'i so'z boylig'i, ishtiqoq kengligi, qoida tugallig'i, sarf-nahv ingichlari[5]» boshqa sharq tillaridan qolishmas, bu to'g'rularida fors tilini butunlay keyinga

qoldiradir. Ish shunday ekan, adabiyotimizning keyinga qolishiga sabab shoirlar va yozg'uchilarimizning onglashilmas holati ruhiyalaridir. Yozuvchilar o'z asarlarini butunlay arabcha yozg'anlar. Turkiston turklaridan Abu Ali Sino butun asarlarini arabcha yozg'an ekan, umrida birgina she'r aytkan, u ham bo'lsa eroncha.

Fors adabiyotida mo'jizalar ko'rsatkan bir shoir – Zahiriddin Foryobiydir[6]. Turkistonlidir.

Sizga yana bir shoir ko'rsatayin: bu kishi Sharqning birinchi shoiridir ham birinchi olimi, birinchi faylasufidir. O'zi turkistonli. Ota-bobosi Hindustong'a borib qolg'an bu shoir shunda tug'ulib, shunda yashag'an. Hindustonda yashag'an bir turkistonli bo'lg'ani uchun o'z asarlarining turkcha yo urducha yozilishi mantiqiy emasmi? Bu odam turkchada, urduchada yozmag'an, tutqunda eroncha yozg'an bu kishi mashhur Mirzo Abdulqodir Bedildir.

Tilimiz sharq tillarining birinchisi ekan, adabiyotimizning ikinchisi bo'lishig'a sabab shu hollardir. Tilning bu o'rtada gunohi yo'q. Bu holning bir dard hamda bitirg'uchi, o'ldurg'uchi bir dard bo'lg'anini ilgarirak onglag'an Navoyidir. Navoyi turk shoirlarining forsi(y)cha yozishlarig'a ochiqdan ochiq yog'iqdi[7], isyon etdi. Chig'atoychaning adabiy ham boy ekanini bildirmak uchun o'zining «Muhokamat ul-lug'atayn» degan asarini yozib chiqardi. Navoyi zamoni chig'atoy adabiyotining, chig'atoy tilining eng ko'b yuksalgan, yuqori bosg'an zamoni bo'lib qoldi. Esizdirkim, adabiyotimizning tarixida ikinchi bir Navoyig'a uchramadik. Navoyi asridan keyin adabiyotimiz yana eski holig'a qayta boshladi. Yana arabchiliq, yana forsi(y)chilik til va adabiyotimizni bo'g'di. Forsi(y)chilik va arabchiliq yuklari ostida ezilgan til va adabiyotimiz Xo'qanddag'i Umarxon davri adabiyasig'acha kasal, oqsoq bir suvratda davom etdi. Yonib bitayozg'an chirog' eng so'ng davomida yalt etib birdan ko'taradir-da, so'ngra o'chib qoladir. Bizning til va adabiyotimiz ham Umarxon zamonida yalt etib bir ko'tarilg'ach, o'chib qoldi. Undan keyin maydong'a kelgan shoirlarimiz ham ularning asarlari adabiyotg'a yangi bir ruh bergudek bir kuchli bo'la olmadilar.

Shuni-da aytib o'tayin: tarixi adabiyasida «xalqqa to'g'ri» degan bir fikrni yana Navoyi davri adabiyasida ko'ramiz. Bu

paytning eng birinchi shoiri bo'lg'an Lutfiy butunlay ochiq va onglarliq bir tilda yozg'an. Navoyi har bir asarni turk xalqini foydalantirmak, turk xalqig'a ruhiy ozuq bermak tilagi bilan yozg'anin so'ylar. Umarxon davri adabiyasi esa saroy adabiyotidang'ina iborat bo'lg'an, xalq bilan tuzukrak munosabat yasay olmag'andir.

Yana biroz vaqt bersangiz, tilimizning boshig'a kelganlarni ham arz etib o'tayin: mana shunday bo'lub Umarxon davri adabiyasidan keyin adabiyotimizning janozasi o'qulg'ach, tilimiz g'arib qoldi, til qoidalarini bilg'anlar qo'lg'a tushdi...

Mana shu paytlarda edikim, fikrimiz uyg'ona boshladi. Boshqa turk ellari tomonidan chiqarilg'an gazetlar va kitoblarni o'qudik. Usuli jadid maktablari ham ochdik. Ilgarirak bosub gazet ham chiqardik. Maktab uchun, gazet uchun tilimiz kerak bo'lub qoldi. Unga yangidan qayg'ura boshladiq, tushuna boshladiq. Bu ishlarni qilg'anlar – bizning ochiq fikrlilarimiz, ziyolilarimiz edilar. Bunlarning sonlari oz, ishlari ko'b edi. Muallimimiz, murshidimiz, muharririmiz, adibimiz, shoirimiz, siyosiyimiz, faylasufimiz hammamiz shunlar edilar. Bunlar shuncha ishlari bilan birga til va adabiyotimizni chuqurroq, teranroq tekshira olmadilar. Tilimizni tushunar ekan, «kep qopsiz» kabi buzuq so'zlar, yozuvimizni oxtarar ekan, haligi madrasa maktublarig'a uchradilar. Bunlar albatta, yovuq edi, yaramas edi.

Holbuki, bir yoqdan tili oz-ko'b tuzalgan totor gazetlari ham yozilg'an kitoblari tura(r) edi. Mana shunday kulunch bir holda qolg'an burung'i ziyolilarmiz: «tilimiz ilmiy, adabiy bir til emas ekan» degan kulunch bir qarashg'a ham keldilar. Mana shuning bilan maktablarimiz, yozuvlarimiz usmonlicha ta'siri ostida qoldilar. Matbuotimizg'a biroz totorcha ham qatnashib qoldi. Toshkentda ochilg'an kurslarda ona tili saboqlari uchun berilgan soatlarning ko'bragi usmonlichag'a berildi. Samarqandda ochilg'an birinchi muallimlar kursinda esa, ona tili degan narsa kiritilmadi. 18 inchi yildagi Maorif sho'rosining bir majlisida[8] ham o'tkan yildagi muallimlarning qurultoyida shunday bir qaror berilg'an edi: «Maktablarimizning ibtidoyi uch yilida ona tili – o'zbekcha o'qitilsin, ondan so'ng adabiy umumiy turk tili o'qitilsin!» Bunlarning adabiy umumiy turk tili deganlari arabcha qatnashg'an usmonlicha edi.

Tilning adabiyligi uchun «arabiyligi shart» gapi qabul qilindi. Men shunday kishilarni taniymanki, «yozuvimizni

nega arabcha bilan to'ldurasiz» deganimda, «arabiy bo'lg'ani yaxshi emasmi?» – deganlar. Kurslarga o'zbekcha saboqlari uchun kirgan muallimlarimiz usmonli turklaridan Shayx Vasfiyning arabchadan ko'tarilgan «Qavoyidi lisoni usmoniy»sindan izofai lamiya, izofai bayoniya, izofai tashbehiyadan bahs qilar edilar. Mana shu ishlarning hammasi tilimizni tahqir etish, tilimizga hurmatsizliq ko'rsatish edi. Bunlarning hammasi til, adabiyotimizning yaxshig'ina tanimasliqdan kelgan edi. Mana shunlarning hammasig'a yog'iqmoq, isyon etmak, shunlarning hammasi bilan kurashmak uchun yosh va yigit bir kuch 18 inchi yilda maydonga keldi.

Bu «Chig'atoy gurungi» edi. «Chig'atoy gurungi» atrofiga to'plangan kishilarning ilgari surgan fikrlari shunday edi:

– tilimizning tugal, yuksak, san'atkor bir adabiyoti bor. Tilimizning adabiyligi arabiylikda emas, o'zidadir. Shuni tirgizmak kerak;

– adabiyotimizni yuksaltmak uchun burung'i san'atkor shoirlarimizning o'lmag'an va o'lmas narsalarindan foydalanmoq ham taraqqiy qilg'an uluslar tomonidan orag'a solingan umumiy asoslarg'a erishmak kerakdir;

– tilimizning qoidalarini totorcha yoxud usmonlicha qoida kitoblaridan emas, tilimizning o'zidan olmoq kerak.

Shuning uchun xalq og'zida yurgan so'zlarni, xalq adabiyoti bo'lg'an ertaklar, maqollar, laparlarni yig'ib tekshirmak lozim;

– adabiyot yozuchiliq bo'lg'ani uchun yozu(v) qoidalarini, imloni ham tuzatmak kerak.

Mana shu besh asos, chiziq imlodan shul majlisda gapurishib o'tdik. Tilimizning qoidalarini tuzmak, eski adabiyotimizdan foydalanmoq uchun ulug' adiblarimizni yig'moq, xalq adabiyotimizni ham xalq so'zlarini to'plamoq kerak. Bu moddiy vositalarg'a muhtoj bo'lg'an «Chig'atoy gurungi» emas, tilimizdir. Mana qurultoyimiz shu to'g'rularda bir qarorg'a kelsun.

MUQADDIMAT UL-ADAB

«Muqaddimat ul-adab» arab til(i), adabiyotining eng mashhur olimlaridan Zamaxshariy (Abul Qosim Mahmud binni Umar az-Zamaxshariy hijriy 538 da[1] o'lg'an) tomonidan yozilgan arab lug'ati bo'lub, (uning muallifi) arab

olimlari orasida juda katta e'tibor topgan bir kishidir. «Kashf uz-zunun» egasi Kotib Chalabiy[2] bu kitob to'g'rusida yozganida buning Zamaxshariy tomonidan yozilib, xorazmshohiylardan Sulton Otsizg'a tortuq qiling'anini so'ylab ismlar[3], fe'llar, harflar[4], ism o'zgarishlari[5], fe'l o'zgarishlari[6] unvonlari bilan besh qismg'a ajralganini bildiradir.

Bu kitob har qayda «Muqaddimat ul-adab» atalg'an; «Lug'ati Xorazmshohiy» atalg'aniga oid «Kashf uz-zunun»-da-da, boshqa manbalarda-da hech bir qayd yo'qdir. Biroq Zamaxshariyning o'zi kitobning bosh tomonida «Abul Muzaffar Otsiz* ibni Xorazmshohning amri bilan uning boy kutubxonasi uchun shu kitobni uning oti bilan atadim» deydir. Demak, bu kitobning asl oti «Lug'ati Xorazmshohiy» bo'lsa ham ilm egalari orasida «Muqaddimat ul-adab» deb shuhrat chiqarg'an. Bu kitobni Olmoniyaning qaysi bir shahrida mustashriqlar tomonidan bosilg'anini burung'i «Sho'ro» jurnalida o'qug'an edim[7].

Zamaxshariy bu kitobini arabchada yozg'an, forsi(y)cha yo turkchaga tarjima qilg'anini ko'rsatmagan. «Kashf uz-zunun»da-da, boshqa manbalarda-da buning Zamaxshariy tomonidan forsi(y)cha yo turkchaga ko'chirgani ko'rsatilmaydir. «Kashf uz-zunun»da buning hijriy 1120 nchi yilda usmonli turkchasiga Xo'ja Is'hoq afandi tomonidan ko'chirilgani ko'rsatilgandir[8]. Buxorodagi Ibn Sino kutubxonasida bundan iki nusxa bor. Bir nusxasi hijriy 705 nchi yilda[9] Hamid Hofiz degan bir kotib tomonidan yozilg'an, kitobning besh qismi ham tamom mavjuddir. Ismlar, fe'llar qismlari arabcha ostida forsi(y)cha tarjima etilgan, qolg'an uch qismi esa tarjimasiz davom etgan. Ikinchisi hijriy 898 da[10] Darvish Muhammad degan bir kotib tomonidan yozilgan, hoshiyasida vaqflig'ini ko'rsatkuchi tamg'alar (muhrlar) bor. Tamg'alarda forsi(y)cha:

Vaqfi in nusxa az bahri rizoya musta'on
Xast Qulboboi Ko'kaltoshi Abdullohxon[11]

bayti yozilib, ust tomonidan 977 raqamlari qo'yilg'an. Bundan onglashiladirkim, bu kitob mashhur o'zbek xoni Abdullohxon (940–1006)ning ulug' beklaridan Qulbobo

* Abul Muzaffar Otsiz binni Qutbiddin xorazmshohiylardan bo'lib, hijriy 551 da o'lg'andir.

Ko'kaltosh tomonidan 977 nchida qaysi bir kutubxonasida bo'lg'ani, ovro'pali mustashriqlarg'a ma'lum bo'lg'ani kabi o'zbek ilmiy kishilariga ham ma'lumdir[12]. 21 nchi yillarida Toshkentdan Buxoroga kelgan ilmiy hay'at tomonidan bu kitobdan bir nusxa yozdirilib, Toshkentga yuborilgan edi. Biroq bu kungacha shu kitob to'g'rusida jiddiy tekshirish yasab, ilmiy bir maqola yozg'uchi kishi bo'lmadi. Men o'zimning kuchsizligimga qaramasdan mana shu maqolani yozub maydong'a chiqarmoqchi bo'ldim. Mening bu maqolam ilmiy kishilarning diqqatlarini bu kitobga tortishga sabab bo'lur, deb umid etaman.

Kitobning ismlar, fe'llar, harflar, ism o'zgarishlari, fe'l o'zgarishlari unvonlari bilan besh qismdan iborat bo'lg'anini yuqorida yozg'an edim. Bizning qo'limizdag'i bu nusxada yolg'uz ismlar, fe'llar qismlari olingan, qolg'an uch qismi tashlangan. Mazkur uch qism kitobdan tushib qolg'an emas; maxsusan shu iki qism olinib, qolg'an uch qism kerak topilmag'an-da, kitobning ismi bilan kitobat tarixi yozilib kitob bitirilgan.

Kitobdagi arabcha har bir so'z forsi(y)cha, chig'atoycha, yana uchinchi bir tilga tarjima etilgan. Har so'zning boshda arabchasi, uning ostida forsi(y)chasi, uning ostida chig'atoychasi, ondan tuban[13] mana shu bilmaganimiz tilda yozilgan. Mana shu tartibda:

vaqt	*(arabcha)*
hangom	*(forsi(y)cha)*
choq	*(chig'atoycha)*
joq	*(?)*

Bundan so'ng *vaqt*ning jam'i bo'lg'an *avqot* so'zi yozilgan; buning birligi boshqa tillarda(n) o'tkani uchun bunga ayricha ma'no bermaganda jam' bo'lg'anini bildirgali (j) ishorati qo'yulg'an. Mana shunday:

vaqt	*avqot*	*(arabcha)*
hangom	*j*	*(forsi(y)cha)*
choq	*j*	*(chig'atoycha)*
joq	*j*	*(?)*

Ondan keyin *vaqt* so'zi bilan bir ma'noda yurgan *zamon* so'zi olingan. Bunga ham boshqa tillarda ayrim-ayrim ma'no bermasdan *vaqt* so'zining misli demak uchun (m) ishorati yozilgan. Arabcha *xurj* so'zining ostida forsi(y)chasida

xurjin yozilganda, qolg'an iki tilda ham shul xurjin so'zining ma'lum, tanilmish ekanini ko'rsatmak uchun *ma'ruf* so'zidan «f» harfi qo'yilg'an. Demak, bu kitobda *j – jam', m – misl, f – ma'ruf* ishoratlari bordir.

Bu kitobdagi chig'atoy lug'atlarining navoyilar zamonidan yo undan burung'i zamonlardan qolg'an bir manba bo'lg'ani uchun bizga yararliq ekaniga shubha yo'qdir. Biroq mas'ala buning haligi bilmag'animiz lug'atidadir, bu qaysi til? Qanday lug'at?

Boshlab bu kitobni Buxoroda ko'rib, menga yozg'an (men Toshkentda edim) Bo'lot Soliyev buning mo'g'ulcha bo'lmoq ehtimolini so'ylagan edi. Toshkentdagi ba'zi mustashriqlarning buning mo'g'ulcha ekaniga ishonmay yurganlarini kimdandir eshitkanim bor. Men o'zim mo'g'ulcha bilmaganim uchun bu to'g'ruda qat'iy bir narsa ayta olmayman[14]. Shuning uchun haligi bilmag'animiz tildan ba'zi so'zlarini chig'atoycha muqobillari bilan yozib, «Maorif va o'qitg'uchi» jurnali vositasi-la ilm egalariga arz qilishdan boshqa choram yo'qdir.

?	*Zulqa'da oyi*
soro	*oy*
Oro-soro	*chig'atoycha*

bu oyning bukun ham bizdagi ismi «oro»dir[15].

Shilon choq	*Quyosh chiqqandan biroz so'nggi zamon bizning «nonushta» deganimiz choq. Bu so'z xonlarning rasmiy ziyofati bo'lg'an shilon-shulon so'zining xuddi o'zidir.*
suni	*kecha*
suni du	*kechada*
ki	*yel, shamol*
quyun	*girdibod,* buning chig'atoycha-o'zbekchasi ham quyundir.
g'ojor	*yer*
shiva	*tuproq*
o'nkur	*o'nkur, mag'ora*[16]
avlo	*tog'*
avzun	*suv*
tuvqon	*qozon*
qora tuvqon	*qora qozon*
boyon	*boy*

g'ol	*olov*
g'ulumton	*o'choq.* Bundagi «-ton» forsi(y)cha «otashdon» so'zidagi «-don» ga o'xshaydir.
bir avvan juvan	*o'ng, so'l.* Mo'g'ulcha askariy taqsimotda *o'ng, so'l qo'llarg'a «bir anfar, juvanvar»* deyiladir.
tuban	*bek, amir.* Buning mo'g'ulcha ekani ma'lum.
josoq	*solug'*
soyinliq	*yaxshiliq*
mulk	*yomonliq*

O'tkan zamon fe'llarning qo'shimchasi turk tillarida «-di», «-ti» dir, bunda esa «ba»dir:

unoba	*tushti.* Buning «emak» so'zi bilan munosabati bor ekan.
bo'lba	*bo'ldi*
jado'lba	*teshti*

Emdi sonlari ko'raylik:

tikon	*bir*
quryo	*iki*
qurbon	*3*
durbon	*4*
tobun	*5*
jirg'uon	*6*
do'lon	*7*
naymon	*8*
yusun	*9*
harbon	*10*
harbon tikon	*11*
qurin	*20*
qurin tikon	*21*
g'ubin	*30*
darujin	*40*
tobin	*50*
jiron	*60*
dolon	*70*
noyon	*80*

yiron	*90*
xovvan	*100*
minqon	*1000*

Shuning bilan birga kitobimizdan bir betning suratini ham o'quvchilarimizg'a taqdim qilib, so'zni bitiraman[17].

O'ZBEK TILI QOIDALARI TO'G'RUSIDA BIR TAJRIBA

Birinchi kitob: SARF

Bir-iki so'z

Bizning til, adabiyotimizning eng so'ng kunlari farg'onali Umarxon zamonida edi. Til, adabiyotimiz Umarxon paytida birdan yashnab ko'tarildi-da, undan keyin sekin-sekin pasaya boshladi. Bora, bora yiqilishning, yo'qolishning eng og'ir, eng qora daqiqalarini o'tkazdi. Ozg'ina paytdan so'ng Turkistonda yetishgan yarim shoirlar, yarim yozg'uchilarni esa eski adabiyotimizning so'ng so'lishlari deb ko'rsatmak yanglish bir ish bo'lmaydir. Bularning qalamlari uchidan to'kulgan jumlalar buzuq, so'zlar siniq, fe'llar qarangliq[1] bo'lib chiqa boshladi.

Melodiy 19 nchi mo'lchalarning (asrning) so'nglarida bizda yanglilashmoq (tajaddud) fikri o'yg'andi. Yangi maktablar ochmoq, yangi kitoblar yozmoq, gazetalar, xatlar chiqarmoq istadik: ochdiq, yozdiq, biroq hanuz – til, imlo masalalariga ochiq belgili bir yo'l bera olmag'an edik. Butun turk dunyosi uchun «bir yalpi til» qabul etmak xayollari bilan ovora bo'ldiq. Tilimizni shunga to'g'ri yurg'uzmoq uchun unumsiz tirishdik. Bu xayollarning ishka oshmag'anin bilgandan keyin o'z tilimizni, o'z imlomizni tushuna boshladiq. Bu yo'lda birinchi odimni qo'qonliq Ashurali Zohiriy otdi. Imlo bitik so'zini yozib chiqardi[2]. Undan so'ngra Toshkentda «Chig'atoy gurungi» ochildi. «Gurung» til, imlo masalalari bilan teranroq mashg'ul bo'ldi. Turkiyali Shayx Vasfiy tomonidan arabcha, forsi(y)chag'a ergashib yozilg'an eski usmonli Sarf, Nahv kitobini maktablarimizdan surib chiqardi-da, o'z tilimizning qoidalarini kirgizdi. Turkiston o'qutuchilarining ikinchi, uchinchi qurultoylarida[3] eski imlog'a qarshi keng suvratda kurash ochib o'z fikrlarini o'tkazdi. Eski imlo o'rnig'a yangi imloni yetkazmak bilangina bog'lanib qolmadi. Bir yoqdan o'lkada lotin harflarini qabul etmakni yoqlovchilar tayyorladi. Til, imlo fikrlarining teg-

rasiga yig'ilishg'anlar, mana shunday qilib, birinchi galdagi ishlarni bitirdilar. Butun turk tillarini birlashtirmak xayoli xayolg'ina bo'lib qoldi. Eski imloning izlari ko'kka uchirildi.

Biroq yuqorida aytkanim kabi bu ishlar birinchi galdagi ishlardir. Hali ko'rilajak bir ko'b ishlarimiz bordir va u bizni kutib turadir. Eski imloni yengdik, ko'b yaxshi. Yangi imlomizning-da vaqtlig'ina bir narsa ekanini bilayik. Bukun har tomonda lotinchiliq oqimi kuchlanib boradir. Yaqin, juda yaqin bir zamonda arab harflarini (eski, yangi imlolari bilan birga) tomiridan uzib tashlasa kerak. Bu ko'zga ko'rinib turadir, aniqdir; *lotin harflarini qabul etmak, qabul ettirmak* uchun bukundan boshlab tayyorliq ko'rishimiz lozim. Tilimizdagi tovushlarning sonlarini, cho'zg'i o'runlarini[4] ilmiy suvratda yaxshig'ina bilib aniqlab qo'yayiq. Tilimizning iste'dodli, boy bir til bo'lg'anini qichqirib so'yladiq; «bu til daqqidir (qo'poldir), buning o'rnig'a turkchaning adabiy bir shevasini olayiq» degan til bilmaslar bilan kurashdik – unlarni yengdik. Biroq hanuz tilimizning belgili qoidalarini maydong'a qo'ya olmadiq. Yozuvlarimizning shakliga «birlik», yangi yozg'uchilarimizg'a qulayliq bermak uchun tilimizning qat'iy qoidalarini bildirish kerak. Hamadan burun u qoidalarni o'zimizning-da bilishimiz lozimdir. Ilmiy axtarishlar- bo'lmag'uncha bunlarning birtasi ham bo'lajaq emasdir. Bilamizki, bizning shaharlarimiz yuzlab yillardan biri arab, forsi(y) adabiyotining hukmi ostida yashaydir. Shuning uchun bizda shahar tili buzilg'andir.

Tilimizning sof shaklini daladag'i el-aymoqlarimizda ko'ra olamiz. Dalada yashag'an el-aymoqlarimiz orasida unlarning jon ozug'i bo'lib turg'an dostonlar, ertaklar, matallar, laparlar, ashulalar, qo'shiqlar bor. Shunlarning hamasini buyuk bir diqqat bilan xalq og'zidan chiqqani kabi yozib olish kerak, el-ulus orasida yozuv doyirasig'a kirgan Zufunun, Sayqali(y), Yusufbek kabi dostonlar bor. Ahmad Yassaviy, Qul Sulaymon hikmatlari, Rabg'uziy «Qisas ul-anbiyo»si, Mashrab, Huvaydo g'azallari, Durbek, Navoyi, Bobur, Boyqaro, Lutfiy, Mir Haydar[5], Munis, Umarxon, Fazliy, Qulxoniy[6] kabi aristo'krat shoirlarimizning asarlari bor. «Qutadg'u bilig», «Hibat ul-haqoyiq», «Devoni lug'atit-turk», «Muqaddimat ul-adab» kabi eski vasiqalar bor. Shunlarning hamasini qilni qirq yorib tekshirayik; bir-biriga solishtirib, kelishtirib, tekli[7], tubli natija-

lar olayiq. Mana shu yo'lda, shu shaklda yaraqlanib maydong'a chiqg'animizda ko'rilgan ishlar, olingan natijalar – ilmiy bo'lib chiqadir. Kimsaning-da lom-mim deyishiga yo'l qolmaydir.

Bu ishlarning qulay bo'lmag'ani belgili. Bunlar bir kishining qo'lidan kelmaydir. Bu yo'lda tirishmak yangi chiqg'an yigit yozg'uchilarimizning hamalariga tushadir. Yangi o'zbek adabiyotig'a ilmiy bir asos bermak, unga zamoniy, madaniy bir borliq bag'ishlamaq uchun mana shu yo'llarg'a bot kirishmak hamamizga lozimdir. Bu ishlarning tugal natijasini kutib turish ham yaramaydir. Bu ulug' binoning, bu adabiyot madrasasining birinchi toshini tezlik bilan qo'ymoq lozim, mana shu fikrlarga berildim-da, men til qoidalari to'g'rusida qo'lda bo'lg'an narsalarni tuzib, terib shu bilikchani chiqardim. U bir saboq bitigi emas, mutolaa kitobidir. Tilimiz to'g'rusida tugal bir narsa emas, boshlang'ichdir; ta'lif[8] emas, tajribadir. Buni saralamoq, tuzatmak, kengaytmak yumishlari yigit kuchlarimizning jonli tebranishlarini kutadir.

Unli va unsiz tovishlar

1. **b, p, t, ch, j, x, d, r, z, s, sh, g', f, q, k, g, n(g), l, m, n, v, h, y.**

2. **o, a, u – u, o' – o', e, i – y.**

Yuqorida birinchi raqam bilan ko'rsatilgan 23 harf unsiz tovishlardir. Ikinchi raqam bilan ko'rsatilgan to'qquz harf esa unli tovishlardir.

Yuqorida yigirma uch unsiz tovishlardan uchtasi bo'lgan «h, x, f» tovishlarini turkchada ko'b uchratib bo'lmaydir. Shuning uchun bunlarning tub turkcha tovishlardan bo'lmag'ani aytiladir. Bunlarning yot tillardan turkchaga kirib qolg'ani da'vo qilinadir[1]).

Yo'g'onliq, ingichkalik

Bizning tilimiz yalpi turk tilining keng bir tarmog'idir. Turk tilida bo'lg'an asosiy hollarning bizning tilda bo'lishi tabiiydir.

Turk tilining butun tarmoqlarida bo'lg'ani kabi bizning tilda ham so'zlar ohang e'tibori bilan yo'g'on, ingichka bo'lib ikiga ayriladir.

---

[1]) «Devoni lug'at»da ham «h» tovishining turkchada bo'lmag'ani, yotlardan kirganligi yozilib «f, x» tovishlarining asli turkchada borlig'i aytilgan bo'lsa ham butun kitobda «f, x»li so'zlarga uchrash menga oz nasib bo'ldi – *F.*

Bu ohang mas'alasini eski yozma asarlarda ko'b ko'ra olg'animiz kabi dalada yashag'anlar orasida ham ko'brak uchratmak mumkundir. Fors adabiyoti, madrasa tajvidi[9] ta'siri bilan buzilgan shahar shevalarida bu holni oz ko'rganimiz bilan bizning shevada yo'g'onliq, ingichkalik ohangi yo'qdir deb bo'lmaydir.

Yo'g'on so'zlar bilan ingichka so'zlarning ayirmasi shundaydir:

Bu yil baxtimiz gullagan yil ekan .

Mana shu jumlada – *baxtimiz, yil, bu* so'zlari yo'g'on bo'lib, – *gullagan, ekan* so'zlari ingichka so'zlardir.

«Sin!» so'zi yo'g'on bo'lg'ani uchun bundan yasalg'an «sinmoq, sing'an, siniq» so'zlari ham yo'g'ondir. «Min!» so'zi ingichka bo'lg'ani uchun bundan yasalgan «minmak, mingan, minik» so'zlari ingichkadir[1]).

Tovish o'zgarishlari

1. *O'qul, uzun, ko'ngul, buyur* so'zlaridan har biri iki bo'g'unli (iki hijoli)dir. Har qayu bo'g'uni utruli bo'lib, ikinchi bo'g'unlari uch tovishlardir. Mana shunlarning so'ng tovishlarig'a yana bir oltinchi tovush qo'shg'anda *o'-qu-lim, o'-runim, ko'-ngu-lim, bu-yu-ruq* shaklida, ya'ni uch bo'g'unli so'zlar bo'lishi kerak ekan, shunday bo'lmaydir; bunlar oralaridag'i bir cho'zg'ini yo'qotib *o'g'lim, ko'nglim, o'rnim, buyruq* shaklida, ya'ni yana iki bo'g'unli so'zlar bo'lib qoladir.

Bu, albatta, tilimizning yengillik istaganidan chiqib qolg'an bir hol. Bu hol yozularimizda bor. Yuqoridag'ilarg'a o'xshag'an ko'b so'zlarni yozg'uchilarimiz hech narsa sezmasdan shu yo'lda to'g'ru keltirib yozalar. Biroq bu hol umumiy qoida bo'lib qabul etilmagan. Shuning uchun har so'zda yurgizilmaydir.

2. **p, t, ch, x, l, k, s, sh.**

Bu sakkiz tovish «turg'un» (cho'zg'isiz) bo'lg'anda bularg'a yapishg'uchi **d-t** ga, **g'-q** ga, **g-k** ga aylanib eshitiladir.

---

[1]) Biroq -k, -ku o(l)g'an, -ak qo'shimchalari tomirning yo'g'onliq, ingichkaligiga tobe' bo'lmaydir – *g'ijjak, bilag'on, chopag'on, yozdim-ku, aytadi-ku* kabi.

Burundan tilimizga kirib qolg'an va o'zlashkan chet so'zlar tilimizning xususiyatlaridan bo'lg'an yo'g'onliq, ingichkalikga tobe tutiladir; *qalam, xabar, haqiqat* kabi.

Kitob, hakim kabi so'zlarda yo'g'onliq, ingichkalik so'ngg'i bo'g'ung'a qaraydir.

Oldim, qoldim, yozdi, o'qudilar so'zlaridag'i «**d**» *toshtim, ochtim, taqtim, bostilar, ektilar, topti* so'zlarida «**t**» bo'lib eshitiladi, biroq «**d**» harfi yoziladi.

Bozorg'a, olg'a, borg'an, yozg'an, olg'uchi so'zlaridagi «**g'**» tovishi, *boqqa, otqan, osquchi, ochquchi* so'zlarida «**g'-q**» ga aylanib eshitiladi.

Bilgan, bergan, uyga, elga so'zlaridagi «**g**» tovishi *eshitkan, teshkan, ichkan, ishkom* so'zlarida «**k**» bo'lib aytilgani kabi. Biroq bularda ham «**g', g**» yoziladi.

3. Bir «**q**» bilan bir «**g'**» yo iki «**g'**» tovishi bir so'zda bo'lsa, ikisi ham «**q**» ga aylanib eshitiladi. Biroq sarfiy birlikni saqlash uchun bunda ham «**g'a**» ning o'zi yoziladi. *Bog' + g'a = boqqa, ayag' + g'a = ayaqqa* kabi.

4. Bir bo'g'u(n)dan ortiq bo'lg'an so'zning birinchi bo'g'unidan so'ngra kelgan turg'un (sokin) «**q**» bilan «**k**» ketidan boshqa bir harfg'a qo'shilg'anda «**g'**», «**g**» bo'ladir. *Tuproq – tuprog'im, ayaq – ayag'im, tilak – tilagim* kabi.

5. *Nima* so'zining yengillashkani bo'lg'an *ne* so'zi *uchun, etmak* so'zlariga qo'shilg'anda oradag'i «**n**» tovishi ketadir. *Ne – uchun = nechun, ne – etay = netay* bo'ladir.

So'z va uning turlari

Biz tushunamiz, o'ylaymiz, miyamizda bir-bir o'y tug'adir. Shu o'yimizni boshqalarning ham miyalariga o'tkarmak, ularga o'yimizni bildirmak istagach, unlar bilan gapirishka to'g'ri keladir.

Demak: miyalarimizda tuqqan «o'y»ni bir-birimizga bildirmak uchun eng buyuk qurolimiz «gap»dir.

O'zingizni o'ylasangiz, hayvonlardan birini (otni) o'ylasangiz, bizda u hayvon ustiga yerlashmak uchun bo'lg'an, tebranishingizni o'ylasangiz, uch ma'no o'ylag'an bo'lursiz. Bu uch ma'noni birlashtirib, bir-biriga bog'lab, o'zingizni otqa minganingizni o'ylag'anda miyangizda bir «o'y» tuqqondir. Shu o'yni bir kishiga bildirmakchi bo'lg'ach *men ot mindim* deb qo'yasizkim, bu aytkaningiz bir gapdir. Ko'rinadirkim, yuqoridag'i o'yda uch ma'no bo'lg'ani kabi u o'yni bildirguchi gapda ham uch so'z bor: *men, ot, mindim.*

Demak, so'z ma'no bildirgan tovishlar to'dasidir. Ohang esa, bizning tilimizning xususiyatlaridan bo'lg'an tovish ohangi, ya'ni yo'g'onliq, ingichkalikdir. Haqiqatan, asli

o'zbekcha so'zlar yo yo'g'on, yo ingichka bo'ladir. Va o'ziga qo'shilg'an qo'shimchalarni ham yo'g'onliq-ingichkalikda o'ziga ergashtiradir.

Bosim so'zining bir bo'g'unini qattiqroq uzub aytilishidan iboratdir. Bu bizning tilda ko'brak so'zning oxirida voqe' bo'lsa ham hali qat'iy suvratda tekshirilgani yo'q.

Bizning tilda har so'zda bir bosim bor va qo'shilg'an qo'shmachalar yo shu bosimni o'zlariga tortalar yoki bosimsiz qoladilar (*uyush, uyushmadi*) kabi[1].

So'zning so'z bo'lishi uchun ma'no bildirish(i), ohang va bosim egasi bo'lishi lozim, shunday bo'lg'ach, qo'shimchalar so'z bo'la olmaylar. Chunki ularda mustaqil ma'no va ohang va bosim yo'q.

So'z bir ma'noni bildirgan, o'ziga maxsus ohangi va bosimi bo'lg'an tovushlar to'dasidir. So'z: **ot, sufat, fe'l, olmosh, ko'makchi so'zlari** kabi qisimlarg'a ajraladir.

«*Quyosh, bulut, yog'och, temir, Ahmat*» deganda shu so'zlarning har biri birga bir narsani eslatadi. Boshqacha aytkanda, bu so'zlarning har biri, birga eslatkani narsaning otidir. Bildirgani ma'nog'a ot bo'lib taqalg'an so'z – «ot»dir.

Ot ma'nosining tutash ko'zga ko'rinarlik narsa bo'lishi lozim emas. *Jon, es, tun, qayg'i, zulm* kabi. Ma'nosi ko'zga ko'rinmas otlar ham bordir.

Qizil olma, qora taxta, uzun yog'och, yiroq kent deganda *olma, taxta, yog'och, kent* so'zlarining biror ot ekanini bilamiz. Shu otlarning «nuchuklik»[10] larini onglatmoq uchun *qizil, qora, uzun, yiroq* so'zlari unlarg'a qo'shilg'andir. Bir otning «nuchuklik»ini onglatmoq uchun uning bosh tomonig'a keltirilgan so'ziga «sufat» va shu otning o'ziga «sufatli» deyiladir.

* * *

Yozdim, o'qudim, borarmiz, kelarmiz.

Yuqoridag'i to'rt so'zning har birini olib, bo'laklab ko'raylik:

Yoz-d-im, o'qu-d-im, bor-ar-miz, kel-ar-miz. Ko'ramizkim, har bir so'zimiz uchka bo'lindi. Bunlarning birinchi bo'laklari biror ishni, uchinchi bo'laklari shu ishni ishlaganning so'ylaguchiga nisbatini, ikinchi bo'laklari esa shu

[1] Kichkina alomatlari bosim o'rnini ko'rsatadir.

ishning qaysi zamonda bo‘lganini bildirmak uchun aytilgandir. Mana shunday so‘zlar «fe’l» deb ataladir.

Bir ishni, bir zamonni, ishlaguchining so‘ylaguchiga nisbatini bildirgan so‘z fe’ldir. Har fe’lning birinchi bo‘lagi «o‘zak», ikinchi bo‘lagi «zamon belgisi», uchinchi bo‘lagi esa «ishlovchi» belgisidir. «Ot, fe’l, sufat» bo‘lmag‘an so‘zlar «ko‘-makchi so‘z» bo‘ladir. Ko‘makchi so‘z bir gapdan, bir jumladan onglashilg‘an «o‘y»g‘a boshqacharoq bir shakl bermak uchun ishlatiladir: **nechun? chunki, juda, sira, hech, ham** kabi.

So‘zlarning tubligi, yasamalig‘i

Tillarning boyimoqlarini, kengaymaklarini qulaylashtirg‘an «so‘z yasash» yo‘li (arabcha aytkanda, *ishtiqoq* yo‘li)dir.

Bir ma’noni onglatg‘uchi birgina «tub» so‘zni olib, unga turli qo‘shimchalar qo‘shmoq bilan u ma’no tegrasidagi o‘n-o‘n besh ma’noni onglata olmoq «so‘z yasash» yo‘li bilan bo‘ladir. Biz tilimizdagi so‘z yasash yo‘lining kengligini ko‘zda tutib kelajakda bu shevaning ilmiy, adabiy, eng boy, eng keng bir til bo‘lishig‘a ishonamiz.

Yozmoq so‘zining o‘zagi *yoz*dir. Shu o‘zakka turli qo‘shimchalar qo‘shib *yozish, yozma, yozdim, yozajaq, yozg‘uchi, yozmoqchi, yozg‘an, yozg‘ich* kabi so‘zlar yasamoq «so‘z yasash» (ya’ni, ishtiqoq)dir. Bunda *yoz* so‘zig‘a «tub so‘z», boshqalarig‘a «yasama so‘z» deymiz. Demak, so‘z bir o‘zakka qo‘shimcha qo‘shib yasalg‘an bo‘lsa, «yasama so‘z» bo‘ladir, yasalmag‘an, o‘zining tub holida qolg‘an esa «tub so‘z» bo‘ladir.

Yuqorida so‘zning turlarini bilgan edik. Mana shu so‘z turidan:

Fe’llar butunlay yasama.

Otlarning ozi yasama, ko‘bi tub.

Sufatlarning ko‘bi yasama, ozi tub so‘zdir.

Ko‘makchi so‘zning hamasi tub so‘z sanaladir. Yasama so‘zlar turli o‘zakdan yasaladir; **birinchi o‘zak buyruq** so‘zidir.

Buyruq bir kishiga bir ishni buyurg‘anda aytilaturg‘an so‘zdir: *yoz, bor, kel* kabi.

Ikinchi so‘z **o‘zak ot** yo **sufat** bo‘ladir: *qoralandi, oqlandi, ko‘kardi, ishladi, kuchaydi* so‘zlarida *qora, oq, ko‘k, ish, kuch* kabi.

Ko‘brak yasama so‘zlar birinchi o‘zakdan yasalib, ikinchi o‘zakdan yasalg‘anlar unga qarag‘anda ozdir.

I. Yasama otlar

Qo'y, sigir, Ergash, O'ktam. Bu otlarning har biri tub otdir. Negakim: bir o'zakka qo'shimcha qo'shib yasalmag'ani ko'rinib turadir.

Yasama otlar esa shunlardir:

O'run oti – bir narsaning o'rnini bildirmak uchun shu narsaning otig'a «loq» qo'shiladir: *ovloq, toshloq, qishloq, o'tloq* kabi.

Xo'jandning ovloq qishlog'i ko'bdir («Bobirnoma»).

Bir ishning bo'laturg'an o'rnin bildirmak uchun shu ishning o'zagiga (buyruqqa) «oq» qo'shimchasi qo'shiladir: *yotoq, yaloq, botqoq* kabi.

Qurol oti – bir ishni qilmoq uchun qurol bo'lg'uchi narsani bildirgali o'zakka *g'ich, qich, gich, kich* qo'shiladir: *ochqich, uchgich, savag'ich, suzgich* kabi.

O'zakka «qi – gi» qo'shilg'anda ham qurol oti bo'ladir: *sipirgi, uzangi, cholg'i* kabi.

O'zakka «oq – ak» qo'shilg'anda ham qurol oti bo'ladir: *pichoq, tayoq, o'roq, qayroq, qurshoq, kurak, elak, emchak* kabi.

So'zga «choq – chak» qo'shilg'anda ham qurol oti bo'ladir: *yorg'uchoq, o'yunchoq, qo'g'urchoq, belanchak* kabi.

Sufatga «liq – lik» qo'shilg'anda ismga aylanadir: *shodliq, yaxshiliq, qizilliq, kattalik, bilimsizlik* kabi.

Ish oti – 1) *yozdim, kelding* kabi so'zlarning fe'l ekanliklarini, har fe'lda ish ishlag'uchi hamda zamon ma'nolari borlig'ini yuqorida ko'rgan edik.

Yozdim fe'lida bo'lg'an ishning oti *yozmoq, keldim* fe'lidagi ishning oti *kelmak*dir. Ko'riladirkim, bu turliy[11] ish oti yasamoq uchun «moq – mak» qo'shiladir.

Buyruqqa «maslik – masliq» qo'shilsa, yuqoridag'i ish otining bo'lishsizlari hosil bo'ladir: *yozmasliq, kelmaslik, o'qumasliq* kabi.

2) Buyruqqa «sh» qo'shib ikinchi turliy ish oti yasaladir: *bilish, o'qush, yozish, chopish* kabi.

3) Buyruqqa «im» qo'shib uchunchi turliy «ish oti» yasaladir: *bilim, unim, chiqim, terim* kabi.

4) Buyruqqa «uv – uv» qo'shilib, to'rtinchi turli ish oti yasaladir: *yozg'u, kelu(v), kulgu, olu(v), beru(v)* kabi. Buyruqning ketida cho'zg'i bo'lsa, yolg'iz «v» qo'shiladir: *say-*

lov, onglov, tilav kabi. Oxirida «i – i» bo'lg'an so'zlarda «uv – uv» qo'shimchasi qo'shilg'anda, «i – i» tushib qoladir: *tashi – tashuv* kabi.

5) Buyruqqa «nch» qo'shilib, beshinchi turli ish oti yasaladir: *ishonch, qo'rqunch, quvonch, o'kunch* kabi. Bu turliy ish otini har so'zdan yasab bo'lmaydir. Eshitilgan so'zlarga maxsus bo'lib, yangidan yasalmaydir.

6) Buyruqqa «qin – g'in» qo'shib, oltinchi turliy ish oti yasaladir: *toshqin, bosqin, chopqin, shovqin, yong'in, buzg'in, qochqin* kabi. Bu turliy ish otlarini ma'nosini-da qo'rqunch (dahshat) bo'lg'an fe'llardan yasamoq mumkundir.

Oliq, sotiq, soliq, yoziq, toniq kabi buyruqqa «q – g'» qo'shilib yasalg'anlar ish oti bo'lib emas, «soda ot» bo'lib ishlatiladir.

* * *

Kichiklangan otlar bir narsani, yo bir kishini siylamak, yo uning kichikligini ko'rsatmak uchun uni berilgan otg'a «kichiklangan ot» deyiladir. Kichiklangan otlar yasamoq uchun otg'a «cho – cha; gina – g'ina; gina – kina» qo'shiladir: *og'acho, kitobcha, kelicha, qizgina, qushqina* kabi.

«Chiq, choq, chak, loq» bilan yasalmish kichraygan otlar bo'lsa ham ozdir: *chaqaloq, qizaloq, kelinchak, qopchiq* kabi.

* * *

Qo'shma otlar – iki ot yo bir sufat bilan bir ot qo'shulib bir narsaning oti bo'lg'anda «qo'shma ot» deyiladir. Qo'shma otdag'i iki so'z yozilg'anda birlashtiriladir: *Oybolta, oqsoqol* kabi.

* * *

Yana bir turli(y) «qo'shma ot» bo'ladirkim, iki-uch so'zdan yasaladir. Biroq bu iki-uch so'zdan har biri o'zining burung'i ma'nosini yo'qotmaydir. Bunday qo'shma otlardag'i so'zlarni ayrim-ayrim yozmoq kerakdir: *Maorif idorasi, Markaz ijroiya kamitati* kabi.

* * *

Birlik-ko'plik: yuqorida ko'rganimiz tub, yasama otlarning hamasi birlik otlaridir. Bunlarni ko'plik otlari qilmoq uchun so'zlarni ayrim-ayrim yozmoq kerakdir: *qog'ozlar, uchqichlar, bilimlar, keluchilar, yong'inlar* kabi.

II. Sufatlar

Oq, qora, yaxshi, yomon, katta, qisqa.

Yuqoridag'i sufatlar «tub sufatlar»dir. Negakim, bir o'zakga qo'shimcha qo'shib yasalmag'andir. Iki turli(y) o'zakning har biriga qo'shimcha qo'shib yasalg'an sufatlar, ya'ni «yasama sufatlar» tubandagilardir:

1. *Bilimli, otli, oqchali, enli* kabi otg'a «li» qo'shilib yasalg'an sufatlar, bir kishida, bir narsada bir holning, bir narsaning «borliq»ini ko'rsatadir.

2. *Oqchasiz, bilimsiz, otsiz, bo'yovsiz, adabsiz* kabi otg'a «siz» qo'shilib yasalg'an sufatlar bir kishida, bir narsada bir holning, bir narsaning «yo'qliq»ini ko'rsatadir.

3. *Kechagi, shahardagi, keyingi, burung'i, tashqi, qishqi* kabi otg'a «g'i – qi – gi» qo'shilib yasalg'an sufatlar bir vaqtda yoki bir mahalda «bo'lg'anliq»ni bildiradir: *kechagi so'z* «kecha bo'lgan so'z» demakdir.

4. *Sarg'imtil, oqimtil, qizg'imtil, qo'kimtil, yashimtil* kabi sufatlar bo'yovning kuchsizcha bo'lg'anini bildirguchi sufatlardir.

5. *Sarg'ish, qizg'ish, ko'kish, oqish*; bunlar ham yuqoridag'i ma'nodag'i sufatlardir.

6. *Op-poq, qop-qora, ko'm-ko'k, qip-qizil, tip-tin(iq), yap-yalang'och* kabi bir narsaning sufatiga kuch berib aytilgan so'zlar ham «yasama sufatlar»dan sanaladir.

7. *Tarixiy so'z, adabiy jurnal, fanniy maqola, iqtisodiy sho'roda* bo'lg'an *tarixiy, adabiy, fanniy, iqtisodiy* so'zlari kabi arabcha otlarg'a «iy – iy» qo'shilg'an so'zlar «nisbat sufati» bo'ladir.

8. *Yo'ldosh, qo'ldosh, mungdosh* kabi otlarg'a «dosh – dash» qo'shilib alohida yasalg'anlar «o'rtoqliq sufati» bo'ladir.

9. *Kumish pichoq, temir sovit, oltin yuzuk, qamish qalam, tosh taxta* kabi iki otdan birinchisi ikinchisining nimadan yasalg'anini bildirsa «jins sufati» bo'ladir.

10. Otg'a «chi – chi» qo'shilib, bir kishining shu otning ma'nosi bilan mashg'ul bo'lg'anini, uni ishlaganini bildiradir. *Temirchi, ko'mirchi, yozuchi, boruchi, bosuchi, chopqunchi* kabi.

11. *Yozmoqchi, ketmakchi, o'qumoqchi, o'turmoqchi* kabi buyruqqa «moqchi – makchi» qo'shilib yasalg'an so'zlar bir kishining bir ish qilmoq istagini bildiradir. Bu turli sufat-

dan «chi» qo'shimchasi tushirilib ham ishlatilgani bordir. *Men senga bu kun* ***uchramak*** *bo'lib turg'an edim* kabi.

12. *Yozma, bosma, qo'shma, borma, terma* kabi buyruqg'a «ma – ma» qo'shilib bir narsaning bir turli ishlatilganligini bildirarlik sufat yasaladir: *yozma kitob* (yozilg'an kitob), *bosma kitob* (bosilg'an kitob), *qo'shma ot* (qo'shilg'an ot[1]).

13. *Ochiq, ortiq* kabi buyruqqa «q – k» qo'shilib-da yuqoridag'i ma'noda sufat bo'ladir.

14. Bir narsaning bir sufatining ikinchi narsadagi shu sufatdan ortiq bo'lmag'anini bildirmak uchun shu sufatka «roq – rak» qo'shiladir: *Karim yaxshi, Juma yaxshiroq; pichoq keskin, qilich keskinroq; ongliroq, bilimsizrak* kabi.

15. Bir kishida yo bir narsa va sufatning oshiq bo'lg'anini bildirmak uchun buyruqning ketiga bir ust cho'zg'idin so'ng «g'an» qo'shilib «oshirma sufat» yasaladir: *uchag'on, chopag'on, bilag'on* kabi. Bu «g'an» qo'shimchasi yo'g'onliq, ingichkalikka tobe' bo'lmaydir.

16. *Ozg'in, keskin, qizg'in, olg'ur, yig'lag'ur, o'lmagur, to'ymag'ur, o'tkur* kabi buyruqg'a «g'in – g'ir», «gur – kur» qo'shilib yasalg'an sufatlar ham «oshirma sufat» bo'ladir.

17. Sufatlarning ketlariga «qina – g'ina, kina – gina» qo'shilib «kichiklangan sufat» yasaladir. Kichiklangan sufat bir kishini siylamak, yo undag'i shu sufatning ozlig'ini bildirmak istagan chog'larda ishlatiladir: *yaxshig'ina, kattagina.*

18. Buyruqg'a «r» harfi qo'shilib yasalg'an sufatlar shu sufatning «doyim»lig'ini bildiradir: *uchar qush, oqar suv, ko'rar ko'z, chopar ot* kabi.

Eskartish: bu sufat kelajak zamon fe'li ham bo'ladir. Uchunchi turli olmosh izlariga (11 inchi betga qarangiz) qo'shilg'anda ish oti bo'ladir.

Sart qilsin «ketari»ga mundan
(«Shayboniynoma»)

Takallum «aylari»da til bilan tishiy labi,
Biri aqiyq-u, bir inju-yu, biri marjon (Bobir)

Barchin bu yerdan «ko'chari»ni bildi
(«Alpomish»)

[1] «Kitobni yozma» deganda «yozma» so'zi fe'ldir. «Yozma kitob» deganda, yozma so'zi sufatdir. Bu ikisi orasida ayirma bosim (udarennost)dadir. Sufat bo'lg'anda bosim «ma – ma»ning o'zida bo'ladir. Fe'l bo'lg'anda «ma – ma»dan burung'i bo'g'unda bo'ladir.

19. Buyruqg'a «qon – g'an, gan – kan» qo'shilg'anda ham sufat bo'ladir: *o'qug'an yigit, yozilg'an kitob, toshqin suv, ketkan kishi, kelgan kishi* kabi (Bu ham olishma izlariga qo'shilg'ach ish oti bo'ladir: *ketkanim, borg'aning* kabi).

20. Doyimliq sufatiga «liq – lik» qo'shilg'ach «yararliq sufat»ka aylanadir: *o'qurliq kitob, yozarliq so'z, ko'rarlik bog', o'turarliq yer*da bo'lg'an *o'qurliq, yozarliq, ko'rarlik, o'turarliq* sufatlari kabi.

Bu turli sufatning «bo'lishsizi» ham bo'ladir: *unutmasliq so'z, o'qumasliq xat* kabi.

III. Sonlar

Bir kishi, iki ot, uch yog'och.
Birinchi oy, ikinchi oy, uchunchi oy.
Biror tanga, ikishar tanga, uchar tanga.

Shunda yozilg'an *bir, iki, uch; birinchi, ikinchi, uchunchi; biror, ikishar, uchar* so'zlaridan har biri «son» bo'lib: *kishi, ot, yog'och, oy, tanga* so'zlari «sanalmish» bo'ladir.

Sonlar bir narsaning – bir kishining (qandaylig'ini emas) **nechaligini-qanchalig'ini** ko'rsatsalar ham so'zlar aro turishlari sufatdan ayirmasizdir. Shuning uchun bularni ham sufatlardan sanamoq mumkindir. Sonlar ham **tub son, yasama son** bo'lib ikiga ajraladir.

Bizda ishlatkan sonlar shunlardir.

Tub son

Narsalarni, kishilarni sanamoq uchun aytilaturg'an sonlar *bir, iki, uch, to'rt, o'n, yigirma, qirq besh...* kabi. Bunlarg'a «sanoq son» deymiz.

Yasama sonlar

1. Saralangan narsalar – kishilardan har birining sarada tutgan o'rnini belgilatmak uchun aytilaturg'an sonlar *birinchi, ikinchi, uchunchi, to'rtinchi...* kabi. Bunlarg'a «sara son» deymiz.

2. Ko'brak narsani baravar ulashkanda aytilaturg'an (so'zlar) *biror tangadan, ikishar qalamdan, uchar daftar, beshar kitob...* kabi. Bunga «ulush son» deymiz. Ko'rinadirkim «ulush son»ning sanalmishg'a «dan – dan» ham qo'shmoq mumkin bo'ladir.

3. *Birtadan kitob, beshtadan daftar, yigirmatadan oltin*

deganimizda bo'lg'an *birtadan, beshtadan, yigirmatadan* sonlari «ulush son» bo'ladir.

4. Ko'b narsa – ko'b kishining chin sonlarin onglatmay chamalabg'ina aytmakchi bo'lg'anda «chama son» ishlatiladir: *o'nlab kitob, yuzlab kishi, yigirmalab bola* kabi.

5. Iki «sanoq»ni birga qo'shib aytganda ham «chama son» bo'ladir: *iki-uch talaba, o'n-o'n besh shahar, yigirma-o'ttiz o'y* kabi. Bu turli chama sondag'i iki sanoqning orasig'a chiziq qo'ymoq kerakdir.

6. Sanoqlarning ketlariga «ov – av» qo'shilib yasalg'an sonlarg'a «sanalmishsiz» son deymiz. Chunki bu turli sonlardan keyin sanalmishlari aytilmay qoladir: *birov keldi, unlar uchov bordilar, bolalarning oltovini ko'rdim* kabi. *Iki, olti* kabi oxirida «i – i» bo'lg'an sonlarg'a «ov – av» qo'shilg'anda «i – i» tovishlari tushub qoladir: *ikav, oltov* kabi. «Sanalmishsiz son»larni sufatlar qatorida emas, otlar qatorida sanamoq tuzukroq bo'lar.

7. *Biz ikalamiz keldik, unlar uchalasi qoldi* deganda ko'rilgan *ikala, uchala* sonlari bir ishni birdan ortiq kishilarning o'rtoqlashib qilg'anlarini bildiradir. Bunlarg'a «o'rtoqliq son» deymiz. O'rtoqliq son birdan ortiq sonlarda bo'ladir. Hamda juda oz ishlatiladir. Buni ham «sanalmishsiz son» kabi ismlar qatorida sanamoq yaxshidir.

8. Sanalmishlarni oshiribroq ko'rsatmak uchun ishlatilgan *yuzlarcha, minglarcha, o'n minglarcha* degan so'zlariga «oshirma son» deymiz.

9. *Bir yutum suv, o'n qop arpa, bir chekim tamaki, iki qadaq uzum* deganda sanoqlardan so'ngra kelgan *yutum, qop, chekim, qadaq* so'zlari «o'lchov otlari»dir. Sanoqlar otlarg'a qo'shilib «o'lchov soni» bo'ladir. Unlardan keyin kelgan *suv, arpa, tamaki, uzum* kabi otlar esa o'lchov sonlarining sanalmishlari bo'ladir.

* * *

Birinchidan yettinchigacha raqamlar bilan ko'rsatilgan sonlarning o'zlariga-da, sanalmishlarig'a-da ko'blik belgisi bo'lg'an «lar – lar» qo'shilmaydir. Yettinchi, sakkizinchi raqamlar bilan ko'rsatilg'an sonlarg'a ham «lar – lar» qo'shilsa ham bo'ladir: *Bolalarning uchovini ko'rdim* deganimiz kabi, *Bolalarning uchovlarini ko'rdim* demak mumkundir. *Unlarning uchalasi keldi* deganimiz kabi, *Unlarning uchalalari keldilar* demak ham mumkundir.

To‘quzinchi raqam bilan ko‘rsatilgan «oshirma son»ning sanalmishig‘a «lar – lar» qo‘shilsa ham bo‘ladir: *yuz minglarcha odam, yuz minglarcha odamlar* deganda ikisi birdir.

O‘ninchi raqam bilan ko‘rsatilgan «o‘lchov soni»ning o‘ziga-da «sanalmish»g‘a-da «lar – lar» qo‘shilmaydir.

O‘xshash sufatlari «kabi, o‘xshash, -dek, day–day, yang‘lig‘, singari» kabi o‘xshatg‘ichlar o‘zlaridan burun kelgan ot bilan birga o‘zlaridan keyin kelgan otning sufati bo‘ladirlar. Bu turli sufatlarga «o‘xshash sufatlar» deymiz: *quyosh kabi yuzi, tongg‘a o‘xshash gavdasi, arslonday qichqirishi, olovday ko‘zi, o‘q yang‘lig‘ so‘zi, tamug‘ singari azobi bordir* deganimizda ko‘rilgani kabi.

Sufatlardan so‘ng kelgan otning «sufatli» atalg‘anini yuqorida ko‘rgan edik. Sufat bo‘lg‘an so‘z o‘zining «sufatli»si bilan birga kelganda ko‘blik belgisi bo‘lg‘an «lar–lar» yolg‘iz «sufatli»ga qo‘shiladi. *Qizil bayroqlar, otli askarlar, o‘qutuchi kimsalar* kabi.

Sufat bo‘lg‘an so‘z «sufatli»dan ayrim kelganda ot o‘rnig‘a o‘tgan sanaladir-da unga «lar–lar» qo‘shiladir: *otlilar keladilar, o‘qutuchilarni ko‘rdim, birinchilar o‘tdilar* kabi.

Otdan burun emas, fe’ldan burun kelgan sufatlar sufat emas, «hol» deb ataladir. Fe’ldan burun kelgan sufatlarning shu fe’lg‘a hol bo‘lishi uchun «qanday?» so‘rog‘ig‘a javob bo‘la olmog‘i shartdir.

Qanday yozdi? Qanday o‘qudi? Qanday chiqdi?.. so‘rog‘larig‘a javob: *u yaxshi yozdi, u yomon o‘qudi, u birinchi chiqdi, u o‘lgudek qiynaldi, u shoshqin gapirdi, u ko‘m-ko‘k chiqdi, qo‘shun otli keldi, u farg‘onali ko‘rindi...* kabi.

Ochar, chopar, to‘kma, qiyma kabi tubda sufat bo‘lg‘an, so‘ngra ishlatila-ishlatila ot bo‘lib qolg‘an so‘zlarga «otlashqan sufat» deyiladir.

IV. Fe’llar

Keldim	*O‘qudim*	*Yozdim*
Kelsang	*O‘qusang*	*Yozsang*
Kelmadi	*O‘qumadi*	*Yozmadi*

Yuqorida yozilgan so‘zlarning har biri bir fe’ldir. Har bir fe’l, bir ish bilan uning ishlovchisi hamda bir zamonni bildiradir deb yuqorida ko‘rgan edik.

Bir fe’l o‘z ma’nosida bo‘lg‘an shu uch butoqning o‘z-

garishiga qarab o'zgarishlarga uchraydir. Fe'lning ma'nosida bo'lg'an «ish» so'ylovchi tomonidan ishlansa, *men yozdim* deyiladir. Eshituchi tomonidan ishlansa, *sen yozding* deyiladir. Ikisidan boshqasi tomonidan ishlansa, *u yozdi* deyiladir. So'ylovchi ko'blik esa *biz yozdiq* deyiladir. Eshituchi ko'blik esa *siz yozdingiz* deyiladir. Boshqasi ko'blik esa *ular yozdilar* deyiladir.

Demak, fe'lning ishlovchi o'zgarishiga qarab o'zgarganidan olti shakl hosil bo'ladir. Bu fe'lning olti shaklini **so'ylovchi, eshituchi** demay olti raqam bilan ko'rsatuvni muvofiq ko'ramiz:

Birlik	**Ko'plik**
1. Yozdi	*4. Yozdingiz*
2. Yozdim	*5. Yozdiq*
3. Yozding	*6. Yozdilar*

Fe'lning ma'nosida bo'lg'an ish yo bo'luchi bir ishdir, yo bo'lmovchi bir ishdir. Fe'l ham shunga qarab iki turli bo'ladir: *bo'lishli fe'l, bo'lishsiz fe'l.*

Bo'lishli	**Bo'lishsiz**
1. Keldi	*Kelmadi*
2. Keldim	*Kelmadim*
3. Kelding	*Kelmading*
4. Keldilar	*Kelmadilar*
5. Keldik	*Kelmadik*
6. Keldingiz	*Kelmadingiz*

* * *

Fe'lning ma'nosida bo'lg'an zamon esa «o'tkan zamon, hozirgi zamon, so'ngg'i zamon» bo'lib uchka bo'linadir. Fe'llarni ham shu bo'lishka qaratib uch ko'maga ajratamiz-da: «so'ngg'i zamon, hozirg'i zamon, o'tkan zamon fe'llari» deymiz.

Birinchi ko'ma

So'ngg'i zamon fe'llari

Bu ko'mada **buyruq, kelajak, shart, o'tinch, qo'zg'atish** fe'llari bordir.

Buyruq

Bir ishning bo'lishli yo bo'lmaslig'ini istab aytilg'an so'z «buyruq»dir. Buyruq bir fe'l bo'lg'ach, ishlovchining o'zgarishiga qarab olti shaklda bo'ladir.

Tub shaklning bo'lishlig'i *yoz, kel, o'qu, ket* kabi so'zlardir.

Shunga «ma–ma» qo'shilg'anda bo'lishsiz buyruqning tub shakli yasalg'an bo'ladir: *yozma, kelma, o'quma, ketma* kabi.

Butun bo'lishliq fe'llar bo'lishliq buyruqning tub shaklidan yasalg'an kabi, butun bo'lishsiz fe'llar ham bo'lishsiz buyruqning tub shaklidan yasaladir.

Buyruqning tub shakliga «-sak, ay–ay, -ngiz, -sinlar-sinlar, ayiq–ayik» qo'shimchalarini qo'shib qolg'an shakllari yasaladir:

Bo'lishliq buyruq	*Yoz, yozsin, yozay, yozingiz, yozsinlar, yozayiq; kel, kelsin, kelay, kelingiz, kelsinlar, kelayik.*
Bo'lishsiz buyruq	*Yozma, yozmasin, yozmay, yozmangiz, yozmasinlar, yozmayiq; kelma, kelmasin, kelmay, kelmangiz, kelmasinlar, kelmayik.*

Buyruqning ma'nosida bo'lg'an talabga kuch bermak uchun buyruqning tub shaklida «g'il–gil» qo'shiladir: *yozg'il, o'qug'il, borg'il, ko'rmagil, kelmagil, ketmagil* kabi. Yana shu tilak uchun yozay, yozmay shakllariga «n» qo'shiladir: *yozayin, ishlayin, kelmayin, o'qumayin, ko'rayin* kabi[1].

Kelajak fe'llar

Bizda kelajak fe'llar iki turlidir;

Buyruqqa[2] «ar–ar» qo'shilib bu fe'lning birinchi shakli, yolg'iz «as–as» qo'shilib bo'lishsiz birinchi shakli yasaladir. Shunday qilib, yasalg'an birinchi shaklga ishlovchi belgilari bo'lg'an olmosh izlarining ikinchi turlari qo'shilsa, bu fe'lning qolg'an shakllari bo'lar.

Buyruq

1

Yoz	*Yozma*	*Kel*	*Kelma*
1. Yozar	*Yozmas*	*Kelar*	*Kelmas*
2. Yozarsan	*Yozmaskan*	*Kelarman*	*Kelmasman*

[1] Buyruqning so'ylovchi ko'bligining bizning adabiyotda turli shakllari bor. *Borayliq, kelaylik, borali, kelali, borayiq, kelayik.*

Bulardan bizga bukungacha *borayliq, kelaylik* shakli ishlatiladi. 1925 nchi yil may oyida Samarqandda chaqirilg'an ilmiy kanferensiya esa «yig', yik» qo'shimchalarini «ayliq–aylik» o'rnig'a qabul qildi: *borayiq, kelayik.*

[2] Bundan keyin «buyruq» deganda bo'lishli, bo'lishsiz buyruqlarning tub shakllari, ya'ni «o'zak»lar onglashilsin.

3.	*Yozarman*	*Yozmassan*	*Kelarsan*	*Kelmassan*
4.	*Yozarlar*	*Yozmaslar*	*Kelarlar*	*Kelmaslar*
5.	*Yozarmiz*	*Yozmasmiz*	*Kelarmiz*	*Kelmasmiz*
6.	*Yozarsiz*	*Yozmassiz*	*Kelarsiz*	*Kelmassiz*

2

Buyruqqa «ajaq—ajak» qo'shimchalari qo'shilib bu fe'lning birinchi shakli yasaladi. Unga ishlovchi belgilaridan birinchi turlilari qo'shilg'ach, qolg'an besh shakli yasalg'an bo'ladir.

Yo'g'an so'zdan

Yoz	*Yozma*
1. Yozajaq	*Yozmayajaq*
2. Yozajaqman	*Yozmayajaqman*
3. Yozajaqsan	*Yozmayajaqsan*
4. Yozajaqlar	*Yozmayajaqlar*
5. Yozajaqmiz	*Yozmayajaqmiz*
6. Yozajaqsiz	*Yozmayajaqsiz*

Ingichka so'zdan

Kel	*Kelma*
1. Kelajak[1)]	*Kelmayajak*
2. Kelajakman	*Kelmayajakman*
3. Kelajaksan	*Kelmayajaksan*
4. Kelajaklar	*Kelmayajaklar*
5. Kelajakmiz	*Kelmayajakmiz*
6. Kelajaklar	*Kelmayajaksiz*

O'tinch fe'l

Bu fe'lning yasalishi shundaydir: buyruqg'a «g'ay—gay» qo'shimchasi qo'shilib birinchi shakli yasaladir.

Birinchi shaklga ishlovchi belgilarning ikinchi turi qo'shilib, qolg'an besh shakli tuziladi.

	Yoz	*Yozma*	*Kel*	*Kelma*
1.	*Yozg'ay*	*Yozmag'ay*	*Kelgay*	*Kelmagay*
2.	*Yozg'ayman*	*Yozmag'ayman*	*Kelgayman*	*Kelmagayman*

[1)] Bu fe'l shu birinchi shakl sufat bo'lib ham ishlatiladir. Kelajak zamon kabi.

3.	*Yozg'aysan*	*Yozmag'aysan*	*Kelgaysan*	*Kelmagaysan*
4.	*Yozg'aylar*	*Yozmag'aylar*	*Kelgaylar*	*Kelmagaylar*
5.	*Yozg'aymiz*	*Yozmag'aymiz*	*Kelgaymiz*	*Kelmagaymiz*
6.	*Yozg'aysiz*	*Yozmag'aysiz*	*Kelgaysiz*	*Kelmagaysiz*

Shart fe'l

Ishlasang, tishlarsan.
Izlasang, toparsan.
Qor yog'masa to'y bo'lar.

Yuqorida yozilg'an gaplarda *tishlamak (yemak)*ning *ishlash*ka, *topmoq*ning *izlash*ka, *to'y*ning-da *qor yog'masliq*g'a bog'li bo'lg'ani ko'rinib turadir.

O'z ma'nosidag'i ishka boshqa ishning bog'lang'anlig'ini bildirgan fe'llar «shart fe'l» bo'ladir. Shart fe'l shunday yasaladir: buyruqg'a «sa–sang» qo'shimchasi qo'shib shart fe'lning birinchi shakli yasaladir.

Bu birinchi shaklga ishlovchi belgilari qo'shilib qolg'an shakllari tuziladir.

	Yoz	*Yozma*	*Kel*	*Kelma*
1.	*Yozsa*	*Yozmasa*	*Kelsa*	*Kelmasa*
2.	*Yozsam*	*Yozmasam*	*Kelsam*	*Kelmasam*
3.	*Yozsang*	*Yozmasang*	*Kelsang*	*Kelmasang*
4.	*Yozsalar*	*Yozmasalar*	*Kelsalar*	*Kelmasalar*
5.	*Yozsoq*	*Yozmasoq*	*Kelsak*	*Kelmasak*
6.	*Yozsangiz*	*Yozmasangiz*	*Kelsangiz*	*Kelmasangiz*

Shart fe'lining 5 inchi «shakli» *yozsoq-yozmasoq* bo'lsa ham Toshkent o'zbeklari buning joyida *yozsamiz, kelmasamiz, yozmasamiz, kelsamiz* deylar. Bu mahalliy ozchiliqda bir ishlatish bo'lsa ham tarixiy, eski bir ishlatishdir. So'ngroqda bundan so'z ochamiz.

Shart fe'lning oltinchi shakli *yozsangiz, yozmasangiz* bo'lsa-da, bizda *yozsanglar, kelsanglar* shaklida ham ishlatish bordir.

Shart fe'l boshqa bir ishning o'ziga bog'li ekanini bildirmasdan, soda o'zi ishlatilsa, «umid-armon» ma'nosini beradir.

Ko'ngli tilagan murodg'a yetsa kishi,
Yo borcha murodlarni tark etsa kishi.
Bu iki muyassar o'lmasa olamda,
Boshini olib bir sorig'a ketsa kishi.

(Bobir)

Qo‘zg‘atish fe’l

Shart fe’llarga «chi—chi» qo‘shilg‘anda «qo‘zg‘atish fe’l» bo‘ladir:

1. Yozsa-chi	*Yozmasa-chi*
2. Yozsam-chi	*Yozmasam-chi*
3. Yozsang-chi	*Yozmasang-chi*
4. Yozsalar-chi	*Yozmasalar-chi*
5. Yozsoq-chi	*Yozmasoq-chi*
6. Yozsang(iz)-chi	*Yozmasang(iz)-chi*

Ikinchi ko‘ma

Hozirg‘i fe’llar

Hozirg‘i fe’llarning bizda uch shakli bordir.

1

Ketida cho‘zg‘i harfi bo‘lg‘an buyruqqa «ydir—ydir» ketida qo‘shilib, cho‘zg‘i harfi bo‘lmag‘an buyruqqa «adir—adir» qo‘shilib bu fe’lning birinchi shakli tuziladir.

Bu birinchi shaklga ishlovchi belgilarning turlari qo‘shilib, bu fe’llarning qolg‘an besh shakli yasaladir. Biroq bu fe’lning birinchi, to‘rtinchi shaklidan boshqalarda «dir—dir» qo‘shimchasi tushib qoladir.

Keti cho‘zg‘isiz buyruqdan

Yoz	*Yozma*
1. Yozadir	*Yozmaydir*
2. Yozaman	*Yozmayman*
3. Yozasan	*Yozmaysan*
4. Yozadirlar	*Yozmaydirlar — yozmaylar*
5. Yozamiz	*Yozmaymiz*
6. Yozasiz	*Yozmaysiz*

Keti cho‘zg‘ili buyruqdan

O‘qu	*O‘quma*
1. O‘quydir	*O‘qumaydir*
2. O‘quyman	*O‘qumayman*
3. O‘quysan	*O‘qumaysan*
4. O‘quydirlar — o‘quylar	*O‘qumaydirlar — o‘qumaylar*
5. O‘quymiz	*O‘qumaymiz*
6. O‘quysiz	*O‘qumaysiz*

Yana umidga oshyon quradir. *(Cho‘lpon)*

Azizbek osonliq bilan jon beradirgan ko'rinmaydir.
(Julqunboy)

Bu fe'lning birinchi, to'rtinchi shakllaridagi «dir–dir» qo'shimchasida bo'lg'an «r» harfi xalq tilida ko'brak «i–i» harfiga aylantiriladir:

Yozadir o'rnida *yozadi*
Yozmaydir o'rnida *yozmaydi*
Yozadirlar o'rnida *yozadilar*
Yozmaydirlar o'rnida *yozmaydilar* deyiladir.

2

Buyruqqa bir ust cho'zg'isi bergandan so'ng «yotir» qo'shilib birinchi shakli yasaladir, qolg'an besh shaklini yasamoq uchun ishlovchi belgilarining ikinchi turlarini shul birinchi shakliga qo'shmoq kerak:

Yoz	*Kelma*
1. Yozayotir	*Kelmayotir*
2. Yozayotirman	*Kelmayotirman*
3. Yozayotirsan	*Kelmayotirsan*
4. Yozayotirlar	*Kelmayotirlar*
5. Yozayotirmiz	*Kelmayotirmiz*
6. Yozayotirsiz	*Kelmayotirsiz*

3

Yozmoq – ketmak kabi ish otlarig'a «da–da» qo'shilib bu fe'lning birinchi shakli yasaladir. Qolg'an besh shaklni tuzmak uchun ishlovchi belgilarining ikinchi turlarini shu birinchi shaklga qo'shmoq kerakdir.

Yozmoq (yo'g'on so'zdan)	*Kelmak (ingichka so'zdan)*
1. Yozmoqda(dir)	*Kelmakda(dir)*
2. Yozmoqdaman	*Kelmakdaman*
3. Yozmoqdasan	*Kelmakdasan*
4. Yozmoqdalar	*Kelmakdalar*
5. Yozmoqdamiz	*Kelmakdamiz*
6. Yozmoqdasiz	*Kelmakdasiz*

Bu fe'lning birinchi shakliga «dir – dir» ham qo'shiladir.

Tubdan bu fe'l bizning shevada yo'qdir. Boshqa shevadagi turk matbuotidan so'ng zamonda bizga o'tib qolg'andir.

Bu fe'lning bo'lishsizi bizda ishlatilmaydir.

Uchinchi ko‘ma

O‘tkan fe’l

O‘tkan fe’llar ko‘masin-da uch turli fe’l bordir: ko‘rilgan fe’l, eshitilgan fe’l, hikoya fe’li.

Ko‘rilgan fe’l

Bu fe’l bir ishning o‘tkan zamonda bo‘lib-bo‘lmag‘anini bildiradir. Buyruqqa «di—di» qo‘shilg‘ach, «ko‘rilgan fe’l»-ning birinchi shakli tuziladir. Shu birinchi shakliga birinchi turli ishlovchi belgilarini qo‘shib bu fe’lning qolg‘an besh shakli yasaladir:

	Yoz	*Yozma*	*Kel*	*Kelma*
1.	*Yozdi*	*Yozmadi*	*Keldi*	*Kelmadi*
2.	*Yozdim*	*Yozmadim*	*Keldim*	*Kelmadim*
3.	*Yozding*	*Yozmading*	*Kelding*	*Kelmading*
4.	*Yozdilar*	*Yozmadilar*	*Keldilar*	*Kelmadilar*
5.	*Yozdiq*	*Yozmadiq*	*Keldik*	*Kelmadik*
6.	*Yozdingiz*	*Yozmadinglar*	*Keldingiz*	*Kelmadingiz*

Bu fe’lning oltinchi shakli *yozdinglar, keldinglar, yozmadinglar, kelmadinglar* deb ham ishlatiladir. Bu fe’lning beshinchi shakli Toshkent shevasida (yozdiq o‘rnida) *yozdimiz, yozmadimiz* deb...

Eshitilgan fe’l

Bu fe’l bir ishning ko‘bdan beri bo‘lg‘an yo bo‘lmag‘anin xabar beradi. Eshitilgan fe’lning bizda iki turlisi bordir:

1

Buyruqg‘a «g‘an—gan» qo‘shiladir.

Bu bilan hosil bo‘lg‘an birinchi shaklga ishlovchi belgilaridan ikinchi turlisini qo‘shmoq bilan bu fe’lning qolg‘an besh shakli yasaladir:

	Yoz	*Yozma*	*Kel*	*Kelma*
1.	*Yozg‘an*	*Yozmag‘an*	*Kelgan*	*Kelmagan*
2.	*Yozg‘anman*	*Yozmag‘anman*	*Kelganman*	*Kelmaganman*
3.	*Yozg‘ansan*	*Yozmag‘ansan*	*Kelgansan*	*Kelmagansan*

4. Yozg'anlar	*Yozmag'anlar*	*Kelganlar*	*Kelmaganlar*
5. Yozg'anmiz	*Yozmag'anmiz*	*Kelganmiz*	*Kelmaganmiz*
6. Yozg'ansiz	*Yozmag'ansiz*	*Kelgansiz*	*Kelmagansiz.*

2

Buyruqqa «mish–mish» qo'shilib, bu fe'lning birinchi shakli tuzilgandan keyin ishlovchi belgilari bilan qolg'on besh shakli yasaladir:

Yoz[1)]	*Yozma*
1. Yozmish	*Yozmamish*
2. Yozmishman	*Yozmamishman*
3. Yozmishsan	*Yozmamishsan*
4. Yozmishlar	*Yozmamishlar*
5. Yozmishmiz	*Yozmamishmiz*
6. Yozmishsiz	*Yozmamishsiz*

Hikoya fe'li

Bu fe'l bir ishning yaqindag'ina bo'lib-bo'lmag'anidan xabar bermak uchun ishlatiladir. Buyruqg'a «-pdir» qo'shimchasi qo'shilib bu fe'lning birinchi shakli yasaladir.

Shu birinchi shakliga ishlovchi belgilari qo'shilib qolg'an besh shakli tuziladir:

Yoz	*Yozma*
1. Yozipdir	*Yozmapdir*
2. Yozipman	*Yozmapman*
3. Yozipsan	*Yozmapsan*
4. Yoziplar — yozipdirlar — yozipdilar	*Yozmaplar — yozmapdirlar — yozmapdilar*
5. Yozipmiz	*Yozmapmiz*
6. Yozipsiz	*Yozmapsiz*

Qo'shma fe'llar

Yozdim, boshladim.

Bizda yuqoridag'i iki fe'l bir-biriga qo'shilib, ikisining ma'nolaridan aralash «bir ma'no» beraturg'an bir fe'l bo'ladir: *yoza boshladim, kela boshladim* kabi.

[1)] Eng burung'i turk tili namunalarida bu shaklni uchratish mumkun. «Devonu lug'atit-turk»da «kechtimiz» kabi shakllariga uchrash mumkun bo'lg'ani kabi O'rxun yozuvlaridan «Kultakin bitik toshi»da ham «soladimiz, qo'ndurtimiz» shakllari bordir.

Bunga bir «qo'shma fe'l» deymiz. Qo'shma fe'lda ma'noning og'irlig'i birinchi fe'lda bo'lib, ikinchi fe'lning ma'nosi unga «qayd» bo'lib qoladir.

Qo'shma fe'l yasamoq uchun birinchi fe'lning buyrug'i, keti cho'zg'ili bo'lsa «y», keti cho'zg'isiz bo'lsa «a–a» qo'shiladir-da, ikinchi fe'l o'z holicha qoladir: *yoza boshladi, o'qiy berdim, yiqila qol, o'layozding, so'ylayturg'an* kabi.

Qo'shma fe'lning zamon bilan, ishlovchi bilan, bo'lishliq-bo'lishsizliq bilan o'zgarishlari hamasi ikinchi fe'lda bo'ladir.

Birinchi fe'l o'zgarmay qoladir: *yoza boshladim, yozmay boshladim* deganda bu iki fe'lning ikalasi bo'lishliq fe'ldir; negakim, ikisida ikinchi fe'l bo'lishlidir: *yoza boshlamadim, ko'ra olmading* deganda bu iki qo'shma fe'lning ikalasi ham bo'lishsiz fe'ldir. Negakim, ikisining ham ikinchi fe'llari bo'lishsizdir.

Ayrim fe'lning zamon bilan, ishlovchi bilan, bo'lish-(sizliq)-bo'lmasliq bilan qanchalar o'zgarib turg'anini ko'rdik. Mana qo'shma fe'lning ham xuddi shuncha o'zgarishlari bo'ladir. Qisqacha aytkanda, ayrim fe'lning to'rt ko'masi bo'lg'ani kabi buning ham shunday to'rt ko'masi bordir.

Qo'shma fe'llar bildirganlari ma'nog'a ko'ra necha turli bo'ladir.

1. Boshlov fe'li: yoza-boshla, yoza-boshlama, yozmay-boshla, ko'ra-boshlamadim, tusha-boshlading, bora-boshla, kela-boshlag'an...

2. Yaqinlash fe'li: o'la-yozdilar, kira-yozmadim, kira-yozding, yiqila-yozg'ansan, ko'rmay-yozdingiz...

3. Oshiqma fe'li: yoza-qol, yozmay-qol, ayta-qoldi, eshita-qolmas, bora-qolajaq, ura-qoldi, aylana-qolay, bera-qoldilar...

4. Dovom fe'li: yoza-berdi, gapura-berma, o'quy-berasan, ayta-ber, keta-bering, ura-bergan, socha-berdim, to'kila berdilar, ola-berma...

5. Bo'ldirish fe'li: bora-olarman, tura-olmaysan, ko'ra-olajakman, olol-mayman, keta-olarmiz, kelolmaymiz, berolmaysan, qo'yolmaysiz...

6. Bo'lmoq, qilmoq, etmak kabi fe'llar; arabcha, turkcha sufat yo otg'a qo'shilib bir fe'l bo'ladirlar. *Mumkun bo'ldi, yaxshi etding, men uni kulgi qildim, men seni do'st tutdim* kabi.

Xat yozdim, shahar bordim, o'g'ri tutdim, ish qildi deganda bu so'zlarimizdan hech biri qo'shma fe'l bo'lmaydir. Negakim, bunlardag'i ot bilan fe'l orasida «ni–ni» yo «ga–g'a» qo'shimchasi keltirib aytkanda ma'nolari buzilmaydir. *Xat yozdim – xatni yozdim, shahar bordim – shaharga bordim, o'g'ri tutdim – o'g'rini tutdim, ish qildim – ishni qildim* kabi. Yuqoridag'i qo'shma fe'llarda esa fe'l bilan ot orasida «ni–ni», «g'a–ga»ni keltirgach ma'nolari buziladir.

Mumkun bo'ldi o'rnida *mumkunni bo'ldi,*

Yaxshi etding o'rnida *yaxshini etding,*

Do'st tutdim o'rnida *do'stni tutdim* deb bo'lmaydir.

Bir fe'l yo bir ot ko'makchi fe'lga qo'shilib ham qo'shma fe'l bo'ladir. Bu turli qo'shma fe'lni bilmak uchun boshqa ko'makchi fe'lni bilishimiz lozimdir.

Ko'makchi fe'lning o'zagi, buyrug'i *er* ish oti *ermak*dir. Biroq bunlarning ikisi ham ishlatilmaydir. Bu o'zakdan yasag'an fe'llarning ishlatilgan ba'zilari shunlardir:

1. Edi, edim, eding, edilar, edi, edingiz.

2. Erir, erirman, erirsan, erirlar, erirmiz, erirsiz.

3. Ekan (dir-dir), ekanman, ekansan, ekanlar, ekanmiz, ekansiz.

4. Emish, emishman, emishsan, emishlar, emishmiz, emishsiz.

5. Esa, esam, esang, esalar, esak, esangiz.

6. Emas, emasman, emassan, emaslar, emasmiz, emassiz (bunlar aslida *erdi, erkan, ermish, ersa* bo'lib so'ngralarda «r» harfi tushib qolg'an). Yuqorida olti raqam bilan ko'rsatilgan ko'makchi fe'llardan beshtasining bo'lishsizini yasamoq uchun unda burun «emas» fe'lini keltirmak kerak:

1. Emas edi, emas edim...

2. Emas erir, emas erirman...

3. Emas ekan, emas ekanman...

4. Emas emish, emas emishman...

5. Emas esa, emas esam...

Ko'makchi fe'lning ishlatilishi

Bu ko'makchi fe'li o'tkan fe'llar ko'masidan «ko'rilgan fe'lga» qo'shilmaydir; so'ngg'i zamon fe'llar ko'masidan qo'zg'atish fe'liga ham qo'shilmaydir. Boshqa hamalariga qo'shilib ulardag'i «xabar» ma'nosini «hikoya» ma'nosig'a aylandiradir:

1. Men kelib edim, u kelmab edi, sen ko'rib eding.

2. Men kelmish edim (kelmishdim), u kelmas edi (kelmamishdi)...

3. Men kelgan edim (kelgandim), u kelmagan edi (kelmagandi – kelgan emasdi)...

4. Sen yozmoqda eding, unlar yozmoqda edilar...

5. Men yoza edim.

6. Sen yoza eding, sen yozmay eding...

7. Yozsa edi, yozsang edi, yozsa edi, yozsang eding...

8. O'qutg'ay edim, ko'rmagay eding, o'qutmag'ay edingiz...

9. Yozajaq edi, kelmayajak edi, yozajaq edi(m), yozmayajaq edim.

10. Yozar edim, yozmas edim (yozmas-dim), o'qur edim.

11. Kelayotir edi (kelayotir-di), kelayotirman...

Ko'makchi fe'llardan *edi, ekan, emish* shakllari «di–di, kan, mish» shakllarida qisqartirilg'anda tomirdan chiziq (-) bilan ajratiladir: *kelmish-dim, yozar-kan.*

Ko'makchi fe'llar sufatga, otg'a ham qo'shilib qo'shma fe'l yasaydir: *u kun kelgan kishi Ahmat edi; bizning bayroq qizil edi; men ichkan suv ekan; u bizda o'qitg'uch(i) emish* kabi.

Fe'llarning boblarg'a ayrilishi

Ahmat sabog'ini o'qudi; Muallim talabani chaqirg'an; Cho'lpon she'rini yubormaydir.

Yuqoridag'i gaplarda *o'qudi, chaqirg'an, yubormaydir* so'zlari fe'llar bo'lib *Ahmat, muallim, Cho'lpon* shu fe'llarning ishlovchilaridir. Biz bu fe'llarni ishlovchilari bilangina:

Ahmat o'qudi;
Muallim chaqirg'an;
Cho'lpon yubormaydir

deganda so'zimizni tinglag'an kishi «nimani? kimni?» deb, albatta, so'raydir. Biz shu so'roqlarg'a javob bo'lsin deb *sabog'ini, talabani, she'rini* degan bo'lamiz.

Demak: bu fe'llar, o'z ishlovchilaridan sodir bo'lg'ach ta'sirlari boshqa bir kimsa yo boshqa bir narsaga tushadir; u ham *saboq, talaba, she'r*dan iboratdir.

Ishlovchidan sodir bo'lg'ach ta'sirlari boshqa bir narsa yo kimsaga tushkan fe'lga birinchi bob «o'tish fe'l» deymiz – bu bir.

Yog'mur yog'maydir;
Bulutlar ketkan;
Quyosh chiqdi.

Bu gaplardagi *yog'maydir, ketkan, chiqdi* so'zlaridan keyin «nimani? kimni?» degan so'rashlar boshlaydir. Demak: bu fe'llar o'z ishlovchilaridan sodir bo'lg'ach, ta'sirlari boshqag'a tushmaydir, bunday fe'lga ikinchi bob «salt fe'l» deymiz – bu iki.

* * *

Sharif Tursun bilan so'zlashdi.
Tursun bilan Sharif so'zlashdilar.
Iki o'rtoq so'zlashdilar.

Bu gaplarda ko'rganimiz *so'zlashdi, so'zlashdilar* fe'llari bir ishning iki ishlovchi tomonidan bir-birlariga qaratib ishlanganligini bildiradir. Bunday fe'lga uchinchi bob «o'rtoqliq fe'l» deymiz.

O'rtoqliq fe'lni yasamoq uchun bo'lishliq buyruqg'a «ish – ish» qo'shiladir: *yozishadir; yozisharmiz; kelishkanmiz* kabi. Bularni bo'lishsiz qilmoq uchun «ish – ish»dan so'ng «ma – ma» qo'shiladir: *yozishmaydir, yozishmaymiz, kelishmagansiz* kabi – bu uch.

* * *

Bu boblarning har biridan boshqa boblar yasash

Bu uch fe'lning (boblari) tub boblaridir. Bunlarning har biridan boshqa boblar tuzmak uchun ayrim qoidalar bor.

1

O'tim fe'llarining bo'lishliq buyruqlarig'a «tir – dir» qo'shilib ikinchi daraja «o'tim fe'l» yasaladir. Buni bo'lishsiz qilmoq uchun «tir – dir»dan so'ng ,«ma – ma» qo'shiladir:

«-tir» qo'shilg'ani: *ochtir, ochtirma, chektirma, chektir, chektiradir.* «-dir» qo'shilg'ani: *yozdir, yozdirma, bildir, bildirma, bildirgan.* Bir xil fe'llarga «-tir» qo'shilmasidan yolg'iz «-t» bir xilda yolg'iz «-r»gina qoladir:

«-r» qolg'ani: *uchir, oshirdilar, pishirganlar.*

«-t» qolg'ani: *yiqit, o'qut, bezat, yasatmading, o'qutmadim.*

2

«Salt fe'l»lardan ham yuqoridag'i qoidag'a qarab o'tim fe'llar yasaladir. Biroq bunlar ma'no e'tibori bilan birinchi daraja o'tim fe'l bo'ladirlar[1]:

[1] Chunki bunlar o'tim fe'lidan emas, salt fe'lidan tuzilgandir.

«-tir» qo'shilg'ani: *keltir, keltirmaydir, keltirgan, keltirmayajak.*

«-dir» qo'shilg'ani: *sindir, qondirma, mindirding, mindirdilar.*

«-t» qo'shilg'ani: *yasatg'anlar, o'ynatingiz, o'lturtmadim, o'ynat.*

«-r» qo'shilg'ani: *tushirsa, tushirmasa, chiqarg'il, botirma.*

Yuqoridag'i qoidalardan tashqari har iki bobdan ham ba'zi o'tim fe'llar yasalg'andir. *Ko'rgach, ko'rsat, to'yg'ur, turg'ur, yetkingiz* kabi.

3

O'rtoqliq fe'llar yolg'iz «-tir» qo'shimchasi bilangina o'tim fe'lga aylanadir:

Kelishtirdim, kelishtirmadim, buzishtirdilar, irishtirg'anlar, aytishtirmadim, alishtirsa, alishtirmasa kabilar.

Yuqorida ko'rganimiz o'tim fe'llarni yanadan ortirmoq uchun «tir-t» qo'shimchasi qo'shiladir;

«Tir-dir-r» bilan tuzilganiga «t» qo'shilg'ani	*Bildirt, sindirt, yozdirt, bildirma, chektirting, ottirttilar, keltirtmadilar, pishirt, ichirtma, chiqartib, botirtqan edim.*
«t» tuzilganiga «tir» qo'shilg'ani	*O'quttir, yashattir, o'quttirmadilar, yasattiramiz, bezattirmagan, ko'rsattirmagan edim, tinglattirma.*

4

Sen kitobni ochding – kitob ochildi.

Muallim meni chaqirdi – men chaqirildim.

Shogird sabog'ini yozg'andir – saboq yozilg'andir.

Birinchi qatordag'i *ochding, chaqirdi, yozg'andir* fe'llari o'tim fe'llardir. Bu fe'llarning ishlovchilari *sen, muallim, shogird*dir, shu ishlovchilarni gapdan chiqaramiz-da joylarida *kitob, men, saboq* so'zlarini qo'shib yuqoridag'i fe'llarini shularg'a nisbat berib aytamiz: *kitob ochildi, men chaqirildim, saboq yozildi.*

Bunday qilg'anda *ochding, chaqirdi, yozg'an* fe'llarini

biroz o‘zgarib qolg‘anini, buyruqlarig‘a «il – il» qo‘shimchalarining qo‘shilg‘anini ko‘ramiz.

Bu fe’llarga «majhul» (belgisiz) fe’llar deyiladir, bu yuqoridag‘i uch bobning to‘rtinchisidir.

O‘rtoqliq, o‘tim, salt boblarining hamasidan, buyruqg‘a «il–il» qo‘shmoq bilan majhul (belgisiz) fe’l yasaladir. Bu fe’lning bo‘lishsizidag‘i «ma–ma» qo‘shimchalari «il–il»dan so‘ng keladir: *yozildi, yozilmadim, o‘qulg‘an, o‘qulmag‘an, beriladir.*

O‘tim fe’llardan majhul fe’l

Yozdirildi, o‘qutilmaydir, o‘quttirilsa, yasattirilg‘an, kelishtirilsin, yig‘ishtirilg‘an, irishtirilmaydir, kelishtirilmaydir.

O‘rtoqliq fe’ldan

Yorishildi, kelishilgan, so‘zlashilgay, yiroqlashilg‘ay, yozilishmaydir, kelish(il)magay, so‘zlashilmagan, yiroqlashilmag‘an.

Salt fe’ldan

Borildi, chiqildi, yurildi, charchaldi, etildi, borilmadi, chiqilmadi, yurilmadi, yetilmagan.

Bil, qol, kel kabi keti «-l» bo‘lg‘an buyruqlardan «majhul» fe’l yasamoq uchun yana «il–il» qo‘shimchasi qo‘shilmaydir. Bunlarning majhullari «in–in» qo‘shimchasi bilan tuziladir.

Bilindi, kelindi, kelinadir, shilingandir, qilinadir, oling‘andir, ilinmish kabi.

5

Keti «-l» bo‘lmag‘an buyruqlarg‘a ham «il–il» qo‘shilib tuzilgan bir turli fe’l bor; *ko‘rinadir, o‘yg‘andi* kabi. Bu turli fe’lni majhul fe’llar qatorida sanay olmaymiz. Chunki bunlarning majhullari *ko‘riladir, yo‘qotildi* fe’llaridir. *Ko‘rinmak, o‘yg‘atmoq, ko‘rilmak, o‘yg‘atilmoq* orasidagi ayirma buyukdir. Bular «o‘zlik fe’l» bo‘ladir, biz bu «o‘zlik» fe’llarini majhullari bilan birga yozib ko‘rsatamiz:

Majhullar	*O‘zliklar*
Ko‘rildi	*Ko‘rindi*
Yuvildi	*Yuvindi*
Sevildi	*Sevindi*
Tortildi	*Tortindi*

Bezaldi	*Bezandi*
Yasaldi	*Yasandi*
O'rgatildi	*O'rgandi*
Ovutildi	*Ovundi*

Bilinmak, shilinmak, qolinmoq kabi iki «-l»ni bir yerda keltirmaslik uchungina «in–in» bilan tuzilgan «majhul» fe'llar ham «majhul» ham «o'zlik» fe'li bo'lib ishlatiladir.

Ikinchi o'rindan yasalg'an fe'llar

Buyruqg'a emas, ot-sufatka qo'shimchalar qo'shib tuzilgan fe'llarga «ikinchi o'zakdan yasalgan fe'llar» deymiz, bu turli fe'llar ot yo sufatka, ko'brak «la–la» qo'shib yoziladir:

Kuchlamak	*Majbur etmak*
Ulug'lamoq	*Ta'zim, hurmat qilmoq*
Oqlamoq	*Gunohsiz topmoq*
Qoralamoq	*Gunohli topmoq*
Tishlamak	*Tish bilan olmoq*
Qishlamoq	*Qishda turmoq*
Tayoqlamoq	*Tayoq bilan urmoq*

«Lash–lash», «lan–lan», «ay–ay» bilan yasaladir:

So'llashmoq, qizillashmoq, o'klashmak, qizarmoq, ko'chirmak, oqarmoq, otlanmoq, sarg'aytmoq, ko'paytmak, ozaymoq kabi.

6

1. Temirni ko'rdim, Temir menga daftar berdi.

2. O'rtog'img'a bordim, o'rtog'imdan kitob oldim.

Yuqoridag'i gaplardan *Temir* bilan *o'rtoq* so'zlari ikishar yo'la aytilgan. Bu qoidag'a ko'ra buzuq emas bo'lmasa ham eshitilishda sovuqdir. Bu gaplarni yengillatmak hamda bir so'zni iki yo'la qaytarib aytishdan qutulmoq uchun ikinchi yo'la aytilgan *Temir* ham *o'rtoq* so'zlarini «u» so'zi bilan almashtiramiz-da, *Temirni ko'rdim, u menga daftar berdi. O'rtog'img'a bordim, undan kitob oldim* deymiz.

Bir kishiga *yozding*! demakchi bo'lg'anda uning otini aytib *Ahmat yozding* demaymiz-da, *sen yozding* deymiz. Ko'bga qarab *yozdingiz* demakchi bo'lg'anda hamasining otini aytib turmaymiz-da *siz yozdingiz* deymiz. Bir kishi o'z otini «men»

so‘zi bilan ko‘b kishilar o‘z otlarini «biz» so‘zi bilan almashtiradirlar. Bir yoki bir necha otlarg‘a olishtirilib keltirilgan shu qisqa so‘zlarg‘a «ot olishmalari», ya’ni yolg‘uzcha «olmosh»lar deymiz. Olishmalar shulardir:

Ot olishmalari

Birlikda	*Ko‘plikda*
1. U	*4. Ular – unlar*
2. Men	*5. Biz – bizlar*
3. Sen	*6. Siz – sizlar*

Ko‘rsatkich olmoshlari

Yaqin ko‘rsatkichlar

Bu – bul	*Bular – bunlar*
Shu – shul	*Shular*
Ushbu	*Ushbular*
Mana	*Manavlar*
Mana bu	*Mana bular*
Mana u	*Mana ular*
U – ul	*Ular – unlar*
O‘sha – o‘shal	*O‘shalar*
Ana	*Anavlar*
Ana u (anu)	*Ana ular*

So‘rash olishmalari

Nechun? nuchuk? nega? nenday? qanday? qalay? qachon? qayda? qayoq? kim? nima? qancha? necha?

Bulardan «kim» – kimsalardan, «nima» – narsalardan, «qachon» – chog‘dan, «qayda, qayoq» – o‘rundan, «qancha» – o‘lchovdan, «necha» – sondan, «qanday, nuchuk» – holdan, «nechun, nega» – sababdan so‘rashqa ishlatiladir.

7

Ko‘makchi so‘zlar

So‘zning yetinchi turi «ko‘makchi so‘zlar»dir. Ko‘makchi so‘zlarning besh turli so‘zdan ayirmasi shundaydir.

Bular ot, fe’l, sufatlarg‘a qo‘shilaturgan qo‘shimchalarning hech birtasini qabul qilmaydir: *aslaga, sirag‘a, engdan* deyilmaydir.

1. Kuchaytish ko'makchilari: *asru, juda, hech, albatta, asla, sira, eng, butkul, xuddi.*

Bunlar bir gapning yo bir so'zning ma'nosini kuzatmak uchun ishlatiladir. Ishlatilishlari shundaydir:

Biz seni «asla» ko'rmadik. Bu «asru» uzundir.
Sen meni «hech» ko'rmading. U «juda» qisqadir.
Bu kitob «sira» bitmaydir. Erta «albatta» boramiz.
«Eng» yaxshi bir kitob ber! «Chindan» ko'b gaplashding.

2. O'run ko'makchilari: *ora, ichra, o'zaro, o'zra.*

Shahar «ora» kirdim.
Uy «ichra» o'tirdiq. Bosh «o'zra» qo'ydim.

Tag'in, daxi, bilan, -ala, -la, yana, ham, da – da so'zlari iki ma'noni yig'ib, qabatlov ko'makchi bo'ladir.

Mana «tag'in» keldi; bu «daxi» keldi. Sharif ila Karim keldi. Yana yoz! Sen «ham» yoz! Ahmat, Sharif «ham» Karimni ko'rdim. Sharif kelgan edi, Ahmat-da keldi.

Yo'qsa, agar, agarcha bunlar shart ko'makchilaridir. Bunlardan *agar* bilan *agarcha* so'zlari forsi(y)chadir. Bizda ishlatilishlari sira lozim emasdir. Chunki *Agarcha sen kelmading men keldim* degan gapning turkcha-o'zbekchasi *Sen kelmasang-da men keldim*dir. *Agar kelsang* deganda ham *agar* ortiqchadir. *Kelsang*ning o'zidan *agar* onglashiladir.

Balkim, yo, yoki, yoxud so'zlari aniqsizliqni bildiradir. *Koshki, shoyad* orzu ko'makchisidir.

Essiz, afsus, attang, a, xay attang armon ko'makchilaridir.

Sayin – sayi nisbat ko'makchisidir. Iki fe'lning ma'nolari orasidag'i bog'lanishlarini ko'rsatadir: *U borg'an «sayin» biz qochdiq, Quyosh ko'tarilgan «sayin» havo isina bordi.*

«g'ina – gina, qina – kina, faqat» – bunlar cheklash ko'makchisidir. *Faqat biz keldik, birgina kelmay qoldiq.*

«Kim, ki» tafsir, izoh ko'makchisidir. *Bildiramankim, e'lon qilinadirki...*

Biroq, lekin so'zlari aytilgan bir gapdan bir narsani «chiqarish» ko'makchisidir. *Hama oldilar, «biroq» men qoldim.*

Uchun, chunki – sabab ko'makchisidir.

«Cha – cha» – chama ko'makchilaridir: *yigirmacha, yuzcha, minglarcha.*

Nisbat ko'makchisi ham bo'ladir: *Ruscha, turkcha, arabcha gapuradir, insonlarcha ishlaydir.*

Zamon ko'makchisi ham bo'ladir: *men kelgancha o'tir.*

Dovur – bir ishning so'ngrasini ko'rsatmak uchun ishlatiladir: *Shaharga dovur boramiz, yuz yilg'a dovur kutamiz.* *Dovur* o'rnida «*cha – cha*» ham ishlatiladir.

Oh, uf, ax – bunlar qayg'i, tuyg'i ko'makchilaridir.

8

Belgilar

«*-mi*» so'rov belgisidir.

«*-ning*» bir narsaning kimga, nimaga qarashlig'ini ko'rsatadir – qarash belgisidir: *Uning bog'chasi, bog'chaning eshigi, Sharifning kitobi, Elbekning she'ri.* Qarash belgisi bir otqa qo'shilg'ach, undan keyin kelgan bir otqa uchinchi turli «olmosh izlari» qo'shiladir. *Barchasi, qopchasi, mening qalamim, sening qog'ozing, ularning she'rlari, sizning ishingiz, bizning turishimiz* kabi.

«*niqi – niki*» bu ham qarash belgisidir. *Bu kitob Ahmatniki, bu she'r Botuniqi.*

«*g'a – ga, dan – dan, da – da, ni*» bunlar bir fe'lning ishlovchidan boshqa kimga, nimaga nisbat bo'lg'anini ko'rsatadir.

«*ni – ni*» tushma belgisidir. *Men kitobni yozdim* deganda *yozmoq* ishi ta'sirining kitobga tushkani bilinadir.

«*g'a – qa, ga – ka*» borish belgisidir: *Maktabka bordim, shaharga qochdim, talabaga kitob berdim* deganda bundag'i fe'llardan *maktab, shahar, talabaga* qaratg'an bir harakat borlig'i onglashiladir.

«*dan – dan*» chiqish belgisidir. *Uydan keldim, kitobdan ongladim* deganday fe'llardan onglashilg'an harakatning *uy*dan, *kitob*dan boshlang'ani onglashiladir.

«*da – da*» o'run belgisidir. *Uyda o'turdim, maktabda yozdim* deganda fe'llarning o'runlari bilinadir.

IMLO – ISTILOH KOMISIYASIDAN

Imloda, istilohda bo'lg'an chatoqliqlarning tomirig'a bolta urush maqsadi bilan O'zbekiston maorif komisarligi yonidag'i ilmiy sho'ro tomonidan maxsus «Imlo va istiloh» komisiyasi tashkil qilinib ishka boshladi. Komisiya imlo masalasida lotin alifbosi uchun qabul qiling'an asosni hozirdan boshlab arab harflari bilan yozilg'an kitoblarda ham amalga qo'ya boshlashqa

qaror berdi. Lekin katta o'zgarishlar yasalmasin uchun lotin alifbosig'a kirmay qolg'an ba'zi bir harflarni (ڇ, ع kabilarni) arab alifbosi bilan yozilg'an kitoblarda saqlashqa qaror berdi. Ba'zi so'zlarning yozilishi to'g'risida ham maxsus qarorlar chiqardi. Bu qarorlarning hammasi «Maorif va o'qitg'uchi» jurnalida e'lon etilg'usidir. Shu qarorg'a ko'ra Fitratning «Sarf»i hali yangidan qaralib chiqib, imlosi tuzatildi. Ba'zi istilohlari ham o'zgartirilib boshqa istilohlar qabul qilindi. Komisiya tomonidan qabul qiling'an istilohlar qat'iy bo'lib, boshqa maktab kitoblarida ham istilohlar amalg'a qo'yilg'usidir. Komisiyada ba'zi bir istilohlar ustida boshqaliqlar bo'ldi. Shuning uchun buning kabi vaqtlarda har iki tomonning ilgari surgan istilohini yozishqa (bittasini pastka, bet oxirig'a) qaror berildi; Sufat – turiq, fe'l – qiliq kabilar. Tajriba natijasida unisi yo bunisi qabul qilinib, vaqti bilan bittasi yo'qolur. Bu yo'lda muallimlarimizning fikr va yordamlarini kutib qolamiz.

Komisiya nomidan: **Amir Najib** («Sarf»ning beshinchi nashriga kirishso'z, 1927).

TILIMIZNING TARIXIY OQIMI

O'ruslar Turkistonga kelmasdan bir-iki mulchar (asr) burunroqdan olib so'ng kunlargacha bizning yalpi (umumiy) bir otimiz yo'q edi.

O'zbeklar Turkistonga kelib Chig'atoy hukumati sanalg'an temuriylarni quvg'andan so'ng unsiz ham xalq orasig'a tuzuk kengashmag'an *chig'atoyliq* unvoni oradan chiqarila boshladi. Buning joyig'a qabila unvonlari – xonlig', beklik unvonlari birlashdi. O'ruslar kelgandan so'ng *sart* unvoni umumiylasha boshladi. Biroq «sart» so'zi (arablarning ajam so'ziga o'xshab) turk bo'lmag'anlarg'a taqila kelgan edi. Milliy uyg'onishimizning boshida turg'anlar bu unvonni qabul etmadilar. «Sart» so'zi yo'qdir, deb qichqira boshladilar. *Turk, musulmon, turkistonli* kabi unvonlarni saqlamoqchi bo'ldilar.

Buyuk inqilobdan keyin bu unvonsizliqdan qutulmoq ehtiyoji butun kuchi bilan o'zini ko'rsatdi. Har kim «Biz kim bo'lamiz?» deb o'z-o'zidan so'ray boshladi, *o'zbek* unvoni yararliq ko'rildi, qabul etildi, turli e'tirozlarg'a qaramasdan bu kun bu unvon hayotg'a aralashib qoldi.

Biz mana shunday unvondan unvong'a og'dirila turg'anda

burung'i unvonimiz bo'lg'an «chig'atoy» so'zi adabiyotimizdagina o'z kuchini saqlab keldi, o'zimiz turkistonli, movarounnahrli, musulmon, sart bo'laturg'an paytlarda tilimiz «Chig'atoy tili», adabiyotimiz «Chig'atoy adabiyoti» bo'libg'ina qoldi. Bu «Chig'atoy tili» qanday tildir? Turkchaning qaysi shevasiga kiradi? Tarixi nuchukdir? Shuni ko'rib o'tishimiz kerak.

Hijriy 466-(yil)da qashqarli Mahmud ibni Husayn tomonidan yozilg'an «Devonu lug'atit-turk»[1]ning ko'rsatishiga qarag'anda, hijriy 5 mulcharda (asrda) turk tili iki buyuk tarmoqqa ayrilg'an. Oralarida sarfchada, lug'atchada anchagina ayirma bo'lg'an. Bu iki tarmoqning bir «Devoni lug'at»-ning aytkaniga ko'ra, «O'g'uz turkchasi», biri esa «xoqoniy turkchasi» yo sodacha «turkchadir». Umumiy turk tilini *sharq turkchasi; g'arb turkchasi* deb ayirmoqning-da asosi «Devoni lug'at»ning shu so'zlariga borib tiraladir. Bu kun *sharq turkchasi* deganimiz turkcha «O'g'uz turkchasi»ga muqobil, unga «yondosh» bo'lg'an shu xoqoniy turkchasidir.

«Devoni lug'at»ning so'ziga ko'ra bu xoqoniy turkchasi turklarning rasmiy, adabiy tillari emish, turk tillarining eng «fasih»i ham shu emish. Xoqoniy turkchasi «Jikil—chegil», «Taxsi—tuxsi» (ya'ni, qorluq) turklarning shevasi emish. Bolasog'un, Taroz, Madinat ul-baizada yashag'uchilar sug'dcha gapirsalar ham, xoqoniy turkchasini bilar emishlar.

«Azpijob»[2]dan Bolasog'ungacha yoyilib «Org'u» o'lkasi sanalg'an joylarda ham, xoqoniy turkchasining biroz buzilg'an shakli ishlatilar emish, Qashqarning shahar tili ham, shu xoqoniy turkchasi emish. Uyg'urlar ham xoqoniy turkchasi bilan so'ylashar ekanlar, biroq unlarning o'zlariga maxsus shevalari ham bor emish.

Hijriy 426-(yil)da, ya'ni «Devoni lug'at»dan to'rt yilg'ina burun Qashqarda yozilg'an «Qutadg'u bilig» bilan, qashqar tilida yozilg'ani ma'lum bo'lg'an «Hibat ul-haqoyiq»ning shu xoqoniy turkchasining bu yuqorida yozilg'an so'zlaridan ochiq anglashiladir. «Devoni lug'at»da Org'u o'lkasidan sanalg'an Sayramdan chiqqan Ahmat Yassaviy hikmatlarini ham shu doiraning biroz buzuq shevasiga kirgizishka to'g'ri keladir.

---

[1] 1333 Istanbulda Maorif nazorati tomonidan bosilg'an bu muhim kitobning bosma bir nusxasi Toshkentda «Turon» kutubxonasida bordir.

[2] Taroz (Tiroz), bu kungi Avliyoota shaharidir. «Azpijob» bilan «Madinat ul-baiza» bu kungi «Sayram»dir. «Bolasog'un» Avliyootaning sharqiy shimolida eski bir shahar ekan, bu kun izi qolmag'andir.

Sharq turkchasining butun qabila shevalari ustida umumiy adabiy, rasmiy bir shevasi borlig'i ham u shevada anchagina shevalar yozilg'ani yuqoridagi izohdan ma'lum bo'ladi. Bu shevani *xoqoniy turkchasi* deb atamoqqa eski bir zamonda Qashqarda chiqqan til olimi Mahmudning so'zlariga tayanib o'zimizni haqli topamiz.

Yolg'iz turk dunyosig'ina emas, Osiyoni qo'rqunch bir sur'atda qaynatib, titratib yuborg'an Chingiz istilosidan so'ng O'rta Osiyoda xon bo'lg'an Chig'atoyg'a nisbat berilib, O'rta Osiyo adabiy tiliga chig'atoy tili va u shevada yozilg'an narsalarg'a, umuman, chig'atoy adabiyotining bir-biriga chog'ishtirib qarasoq, xoqoniy turkchasining Chingiz chiqishi bilan boshqa shevalarga aralashib islom-eron ta'siri ostig'a ham anchagina kira qolib *chig'atoy* unvonini olg'anini ko'rmak mumkundir.

Xoqoniy turkchasida qabila shevalarining ustig'a turg'an adabiyotlik holi bor. «Devoni lug'at»ni yozg'an qashqarli Mahmud bu shevani xoqoniy turkchasi degani kabi ora-sira yolg'iz «turkcha» deb ham qo'yadir. Bu hollarni biz chig'atoy turkchasida ham ko'ramiz. *Chig'atoycha* O'rta Osiyoda yashag'an turkiy qabila shevalarining hammasidan yuqori turg'an adabiy, rasmiy, baynal qabilaviy bir tildir. Navoyi kabi Chig'atoy shoirlari o'zlarining bu adabiy shevalarig'a sodacha «turkcha» otini berganlar.

Chig'atoy adabiyotining eng birinchi asari sanalg'an Rabg'uziy «Qisas ul-anbiyo»sining shevasi «Qutadg'u bilik», «Hibat ul-haqoyiq» kabi xoqoniy turkchasida yozilg'an kitoblarning shevasini eslatadir. Zotan, chig'atoy turkchasi o'zidan yuzlab yil burun hukm surgan bir adabiy shevani oz vaqtda tubdan yo'qotib, uning joyini o'zi ololmas edi.

Mana shu dalillarga tayanib ayta olamizkim: chig'atoy turkchasi, chig'atoy adabiyoti; xoqoniy adabiyotning (Qashqardan Hirotg'acha bo'lg'an) yo'li uzun yili ko'p bir safar natijasida o'zgarib, islom-eron ta'siri ostida qolg'an ikinchi bir shakldir.

Mana shunday bo'lib maydong'a chiqqan chig'atoy tili kun sayin eron, arab ta'sirlariga berilib musulmonlasha bordi. Navoyi zamonlarida esa emdi arab, fors so'zlarig'a to'lib qolg'an edi. Shunday bo'lsa ham eski nufuzini, eski kuchini yo'qotmadi. Arab-fors adabiyotidan qolishmoq istamay yuraberdi. Yolg'iz

O‘rta Osiyoda emas, butun turk dunyosig‘a yoyildi. Totor tiliga bir ko‘p yillar jon ozug‘i bo‘la keldi[1].

Usmonli va Ozarboyjon turklari ham bu adabiyot bilan mashg‘ul bo‘ldilar. Bu shevada she’rlar yozdilar, chig‘atoy lug‘atlari yasadilar[2].

Chig‘atoy adabiyotining «Oltun davri» sanalg‘an Navoyilar paytining so‘nggi kunlarida o‘zbek xoni Shayboniy Turkistong‘a yurish etdi, chig‘atoy xonlarini, shunlar qatorida mashhur Bobir Mirzoni yengib, Turkistondan quvdi. Turkistonda o‘zbek idorasi qurdi. O‘zbek xonliqlari zamonida ham O‘rta Osiyo adabiyoti chig‘atoy adabiyoti bo‘lib qoldi. Shayboniyxonning urush dostoni atog‘liq chig‘atoy shoiri Muhammad Solih tomonidan yozildi, Qo‘qon xoni Umarxon tegrasida yig‘ilg‘an shoirlarning hamalari Navoyining sodiq shogirdlari bo‘lib qoldilar. Bu hol zamonamizg‘acha davom etdi.

So‘nggi kunlarda har tomondan o‘zbek adabiyoti atalg‘an, ishqilib, o‘zini borliq dunyosig‘a chiqarmoq istag‘an bizning yosh, yangi adabiyotimizga kelganida bu ham o‘zining asoslarini, kerakli moddalarini yana chig‘atoy adabiyotidan oldi hamda oladir. Shuning uchun biz bu kungi o‘zbek adabiyotini; chig‘atoychaning madaniylashib bu kunning so‘rog‘larig‘a javob bermak istagan, arab, fors so‘zlaridan uzoqlashib elga yaqinlashmoq istagan boshqa bir shaklidir, demak haqiqatdan aytilg‘an bo‘lmaymiz[3].

O‘ZBEK TILI QOIDALARI TO‘G‘RUSIDA BIR TAJRIBA

Ikinchi kitob: NAHV

O‘qug‘uchilarg‘a

Qo‘ling‘izdag‘i bu kitobcha o‘zbekcha «Nahv», to‘g‘rusi, o‘zbek nahvi to‘g‘rusida mening bir tajribamdir. «O‘zbek tili qoidalari to‘g‘rusida bir tajriba» mening ikinchi kitobimdir. Biz til qoidalari ham uning atamalari (istilohlar) to‘g‘rusida ishlashning ham birinchi paytidamiz. Shuning uchun tilimizning qoidalarini bu maydonga qo‘yib, atamalarini sobit

[1] A. Aziz, A. Azimiylar tomonidan yozilg‘an «Totor adabiyoti tarixi»ning birinchi jild, burung‘i davr, ikinchi bo‘lagini o‘qiymiz.

[2] «Abushqa», «Shayx Sulaymon» lug‘atlari usmonli tilida yozilg‘andir.

[3] Ushbu maqola «Sarf»ning 1927-yilgi 4-nashridagina e’lon qilingan.

bir holg'a keltirib olg'animiz yo'q. Bu to'g'ruda til muallimlarimiz ora birlashkan bir yo'l hanuz yo'qdir. Yoki boshlang'an ishlarning hamasida ham shu holni ko'rmay chora yo'qdir. Tilimizning butun qoidalarini aniqlab, atamalarini maydong'a qo'ymoq uchun yana biroz tirishmagimiz, bir-birimizga ko'mak qilishimiz lozim.

Men bu tajribamni yozg'anda ham Toshkent til muallimlingi bilan mashhur bo'lg'an o'rtoqlarim bilan anglashmoqqa, kelishmakka tirishdim. Shunday bo'lsa ham, shu tajribamda «ularning fikrlariga to'g'ri kelmagan o'runlar» yo'qdir deb da'vo qila olmayman, ehtimol bordir, ehtimol ko'pdirda, biz yana tajribamizni davom etdirarmiz, yana ishlaymiz. Butun o'zbek muallimlariga til tekshirish uchun rahbar bo'larliq kitoblarimiz endi borliqqa chiqqan. Hay'at tomonidan yozilg'an «Til saboqliqlari», Shorasulning «Til qoidalari»[1], yaqindag'i kichik tajribalarim[2]. Ishonamanki, butun o'zbek muallim, muharrirlari[3] bundan keyin tilimizni tekshirarlar. Bizning kitoblarimizni muhokama qilib o'qurlar. Bunlarda qoidalar, atamalar, usullar to'g'rusida fikr yurgizilar; fikrlarini bizlarga ham yozarlar. Bizlar ularning fikrlari uzra yana ishlarmiz; yana tirishamiz. Mana shundan keyin tilimizning qoidalari, atamalari to'g'rusida foydali bir «ish» ko'rinilgan bo'ladir. Mana undan keyin tilimizning qoidalari, atamalari sobit bir holg'a qo'yilgan bo'ladir.

(Fitrat)

Gap

So'zning nima ekani, necha turli bo'lg'ani, qanday qo'shimchalar olib, qanday o'zgarishlarga uchraganini sarfda ko'rdik. Bir fikrni bir kishiga bildirmak uchun so'zlarni yig'ib bir-biriga bog'lab aytamiz. Bu aytkanimiz «gap» bo'ladir. *Men kitob oldim* deganda gapimiz uch so'zdan yasalg'an. *Sen bu kun tez kelding* deganda besh so'zdan yasalg'andir.

Demak: bir fikr, bir o'y anglatg'uchi so'z qo'shimi bir gap bo'ladir. Bir tilda bo'lgan gapning turlari, yasalishi, ham gapdagi so'zlar to'g'rusida ma'lumot shu tilning nahvida ko'riladir.

Qimirlag'an qir oshar.
Bo'zchi belboqqa yolchimas.

Mulla bilganin o'qur.
Iki qo'chqor kallasi bir qozonda qaynamas.
O'lgan kelmas.
O'chgan yonmas

deganimizdagi olti so'z qo'shimining har biri bir gapdir.

Turish belgilari[4]

So'zlarni to'plab, bir-biriga baylab gap tuzishda «o'y» qulay anglashilsin deb turli belgilar ishlatiladir. Bunlarning hamasig'a birdan «turish belgilari» yo sodacha «turishlar» deyiladir. Turish belgilaridan qaysi birtasini gapning qaysi bo'lagidan so'ng qo'yilishi to'g'rusida har birining o'z o'rnida ma'lumot berilgusidir. Bunda hamasini bir qatordan ko'rib o'tishimiz kerak:

1- «Nuqta» (.)dir. Bunga kelgach o'qug'uchining to'xtashi lozim.

2- «Bir tinish» belgisi (;)dir. Bunga kelgach o'qug'uchi to'xtamaydir; biroq gapdagi so'zlarning munosabatlari uzilmasin uchun bir nafas tolish (bir tinish) vaqti turib o'tadir.

3- «Yarim tinish» belgisi (,)dir. Bunga kelgach o'qug'uchi yarim tinish vaqti turib o'tadir.

4-So'rash belgisi (?)dir.

5-Undash belgisi (!)dir.

6-Qo'sh nuqta (:)dir.

7-Tirnoqlar (« »)dir.

8-Yoylar ( )dir.

9-To'rtkul[5] yoylari [ ]dir.

10-Ulkan yoylar { }dir.

11-Chiziq (—)dir.

12-Nuqtalar (...)dir.

Bosh so'zlar

Kesim, ega

1. *Qushga bog'chada ertalab...*
2. *Cho'lpon yaqinda yaxshi bir she'r...*

Yuqoridag'i iki so'z qo'shimidan hech birtasi gap bo'la olmaydir, bulardan tugal «o'y» anglashilmaydir. Bu tubandaki so'z qo'shimidan qay birini eshitgach so'z kesildi, gap bitdi deb o'ylamaymiz. Gapning so'ngini kutamiz. Bu-

larni tugatmak, gap qilmoq uchun birinchisiga *sayraydir*, ikinchisiga *yozdi* so'zlarini qo'shib:

1. *Qushlar bog'chada ertalab sayraydir.*
2. *Cho'lpon yaqinda yaxshi bir she'r yozdi*

deymiz, anglatmoqchi bo'lganimiz o'yni tugallatamiz. Gap tugaladir, so'z kesiladir. Gapning tamomlanib so'zning kesilgani shu *sayraydir* ham *yozdi* so'zlari bilan bo'ldi. Shuning uchun yuqoridag'i iki gapning oxiridag'i *yozdi*, *sayraydir* so'zlariga «gapning kesim so'zlari» yo sodacha «kesim» deymiz.

Gapdagi so'zlarning oxirig'a kelgan, o'z kelishi bilan so'z qo'shimini gapka aylantirgan so'z – «kesim» so'zdir.

Bolali uy bozor;
Bolasiz uy mozor.
Oldamag'an oldanmaydir.
Ayrilganni ayiq yer. *(El so'zlari)*

Shu chog'da, shu bog'da har narsa yumshoqdir,
Har narsa ko'kargan, har narsa yashnaydir.

(Cho'lpon)

Tong otdi, jahon zulmati bitdi,
Mungli kecha ming dard ila o'tdi. *(Botu)*

Yuqoridag'i gaplarning oxirlarida bo'lg'an *bozor, mozor, oldanmaydir, yer, ko'kargan, yumshoq, oppoqdir, otdi, bitdi, o'tdi* so'zlari shu gaplarning kesim so'zlaridir.

Kesim so'zlariga «dir» qo'shimchasi qo'shiladir; «dir» qo'shilmag'ani ham bo'ladir. Yuqoridag'i gaplarda ikoviga ham misol bor.

Kesim so'zidan so'ng, gapning bitganini ko'rsatmak uchun «nuqta» qo'yiladir.

Ahmat menga xat yubordi.
Bu kitobni Karim yozg'an.
Bugun bizga oqcha berildi.

Bu uch gapning kesimlari *yubordi, yozg'an* ham *berildi* so'zlaridir. Shu kesim so'zlardan har birtasini «kim? – nima?» so'zlari bilan aytkanda gapdagi qaysi so'z bilan javob berilsa shu so'z gapning «ega so'zi» yoki sodacha «ega»si bo'ladir.

– Kim yubordi? – Ahmat.
– Kim yozdi? – Karim.
– Nima berildi? – Oqcha.

Mana shu *Ahmat, Karim, oqcha* so'zlari yuqoridag'i gaplarga «ega so'zi» bo'lib kirgandir.

Demak, bir gapdagi kesim so'zi «kim-nima» to'g'risida aytilgan bo'lsa ega so'zi shudir. Kesim so'zining-da, ega so'zining-da bir gapda birdan ortiq bo'lishlari mumkindir.

Kesim yoki ega so'zi birdan ortiq bo'lganda oralarida (,) shakli qo'yiladir; eng so'ngida (,) shakli o'rnida «ham, va» qaydi ketirmak-da bo'ladir:

Uylar,
Qo'noqlar,
Saroylar
Ayrildi butun dabdabasindan. *(Fitrat)*

O'ynadi, kuldi, qarg'adi, tindi. *(Botu)*

Bu turmish, bu hokimiyat, cheki ko'rinmagan bu qorong'uliq uning uchun sira qiziqarliq emas.

(A. Qodiriy)

Amu ko'purmishdir, toshmishdir.

(Cho'lpon)

Bizning maktabda talabalarga qalam, daftar, kitob, kiyim, tomoq ham oqcha beriladir.

Bizning shaharga o'zbek shoirlaridan Cho'lpon, Botu, Elbek va Oybeklar keldilar.

Ishchilar harakati qonuniy harakat, majburiy harakat, ma'noli harakat.

(Hanif Burnash)

Bu harakatning o'ziga maxsus sharoiti, o'zgaliklari, nazariyasi, xatt-u harakati, siyosati va piragramasi bordir.

(H. B.)[6]

Gapdan anglashilg'an o'y mantiq(chi)larcha[7] aytkanda, «hukm» yoki «tasdiq»dir. O'y yoki hukm zehni(y) bir gapdir. Uning-da bo'laklari bo'ladir. Uning birinchi bo'lagiga eski mantiqchilarimiz **mavzu'**; ikinchi bo'lagiga **mahmul**[8] der edilar. Buning birinchi bo'lagi bo'lgan «mavzu'» gapning ega so'ziga, «mahmul» esa kesim bo'lagiga ko'prak to'g'ri keladir. Lekin tutash to'g'ri kelmaydir. Gap «kim-

nima» to'g'rusida aytilsa, shu «kim-nima» har vaqt zehni(y) gapimizning (ayni fikrimizning) mavzu'i bo'ladir, biroq har vaqt tildagi gapning «ega» so'zi bo'lmaydir.

Bola ketadir degan o'yni so'ylaganimizda o'y bola to'g'risidadir. *Qush uchmasin* degan o'yni o'ylaganimizda o'y qush to'g'rusidadir. Shuning uchun yuqoridag'i iki «o'y»ning mavzu'lari *bola* bilan *qush*ning ma'nolaridir. *Ketadir* bilan *uchmasin* ma'nolari esa shu iki o'ylarning «mahmul»lari bo'ladir. Endi shu iki o'yni til bilan ifoda qilg'anda uning bo'laklari bilan gapning bo'laklari bir-birlariga mos keladirlar-da *bola, qush* so'zlari gapning «ega» so'zi, *ketadir* bilan *uchmasin* esa, gaplarning «kesim» so'zlari bo'ladir. Bizga bir kitob beriladir, shuni kim yozg'an? deb so'radilar. *Biz oxtara-oxtara uning Mir Ali nomidan yozilg'anini angladik.* Shu chog'da bizning miyada hosil bo'lgan o'y *bu kitob Mir Ali nomidan yozilg'an* shaklidadir. Mana shu o'ydag'i bu kitob ma'nosi mavzu'dir. Chunki o'y uning to'g'rusidadir. *Mir Ali nomidan yozilg'an* ma'nosi esa mahmuldir. Biroq biz shu o'yni til bilan bildirganda *Bu kitobni Mir Ali yozg'an* desak, ko'ramizkim, o'yimizning bo'laklari bilan gapimizning bo'laklari bir-birlariga mos kelmagan: o'yimizda mavzu' bo'lgan narsa gapimizda ega bo'lgan. O'yimizda mavzu' *bu kitob* edi. Gapimizda esa ega *Mir Ali*dir. Shu misolda o'y *kitob* to'g'rusida, gap ham *kitob* to'g'rusidadir. Biroq *kitob* so'zi gapda ega bo'lmag'andir.

Demak: nahv kitoblarida ko'rganimiz «gap (jumla) «kim-nima» to'g'rusida aytilsa shu «ega» bo'ladir» degan ta'riflar o'ylovga (ya'ni zehni(y) gaplarga) ko'ra to'g'ri bo'lsa ham, tildagi gaplarga ko'ra yanglishdir. Chunki gap kimning, nimaning to'g'rusida aytilsa, shu «kim-nima» o'yning (mantiqcha aytkanda, hukmning) mavzu'i bo'ladir. Biroq har vaqt tildagi gapning ega so'zi bo'lmaydir.

Biz mana shunga tayanib ega, kesim so'zlarini ta'rif qilg'anda yangiliq yasadiq. Boshda egani emas, kesimni ta'rif etdik. So'ngra «kesim kim-nima to'g'risida aytilsa shu egadir» dedik. Yuqoridag'i misolda *Bu kitobni Mir Ali yozg'an* deganimizda, gap *kitob* to'g'rusida aytilgan bo'lsa ham, kesim so'zi bo'lg'an *yozg'an* so'zi *Mir Ali* to'g'rusida aytiladir. Shuning uchun bu gapning ega so'zi *Mir Ali*dir.

To‘ldirg‘ich so‘zlar

Gapning bosh so‘zlari ega bilan kesimdir. Ega bilan kesim so‘zlari aytilgach eshituchi bir o‘y anglag‘an bo‘ladir: *Quyosh chiqdi. Oy botdi. Bahor keldi. Yerlar ko‘kardi* kabi.

Ega bilan kesimdangina tuzilgan gapdan anglashilg‘an o‘yning-da chiqmay qolgani ham bo‘ladir.

Ahmat oldi deganda anglaymizki, *Ahmat* bir narsani olgan. Bu bir o‘ydir. Biroq u narsaning nima ekanin bilmaymiz. Shuning uchun o‘y to‘la emas deymiz. *Karim topshirgan* deganda ham anglaymizkim, *Karim* bir narsani bir kimsaga topshirgan. Bu-da bir o‘ydir. Biroq u narsaning va u kimsaning o‘zini bilmaymiz.

Ega bilan kesimdangina anglashilg‘an o‘yning kamchiliklarini to‘ldirmoq uchun gapka turli so‘zlar qo‘shiladir. Bu qo‘shilg‘an so‘zlar ham ega bilan kesimga o‘xshab gapning bo‘laklari bo‘ladir.

Ahmat kitobni oldi. Sharif qog‘ozni Karimga topshirdi. Mana shu gaplarda ko‘rganimiz *kitob, qog‘oz, Karim* so‘zlaridan har biri gapning bir bo‘lagidir. Ega bilan kesimdan anglashilg‘an o‘yning kamchiliklarini to‘ldirmoq uchun keltirilgan to‘ldirg‘ichlaridir. «Ni, ga» esa ularning belgilaridir. Gapka kirguchi to‘ldirg‘ichlar shulardir:

1) tushim, 2) borish, 3) chiqish, 4) o‘run, 5) birgalik, 6) chog‘, 7) nechunlik, 8) nechuklik to‘ldirg‘ichlari.

Endi shularni birtadan ko‘rib chiqamiz.

I. Tushim to‘ldirg‘ichi

Ahmat oldi. Karim ko‘rdi. Quyosh isitdi deganimizda anglashilg‘an o‘ylar to‘la emas. Bu gaplarni eshitkan kishi to‘la bir o‘y anglamoq uchun «kimni? nimani?» deb so‘raydir. Mana shu so‘rashlarga javob berish uchun *kitobni, Ergashni, yerni* degan so‘zlarni yuqoridagi gaplarga qo‘shamiz-da:

Ahmat kitobni oldi.
Karim Ergashni ko‘rdi.
Quyosh yerni isitdi deymiz.

Bu gaplardagi *olmoq, ko‘rmak, isitmoq* ishlarining *Ahmatdan, Karimdan, quyoshdan* sodir bo‘lib, *kitobka, Ergashga, yerga* tushgani bilinadir. Shuning uchun bu gaplardagi *ki-*

tob, Ergash ham *yer* so'zlariga «tushim to'ldirg'ichi» deymiz. Tushim to'ldirg'ichining belgisi «ni»dir.

Dunyoni el buzar, odamni so'z buzar. Ayrilganni ayiq yer. Chumchuqni qassob so'ysin kabi. Tushim to'ldirg'ichiga «ni» belgisining qo'shilmay qolg'ani ham bo'ladir. Biroq «ni» qo'shmag'anda tushim to'ldirg'ichlarining ma'nolarida aniqliq qolmaydir: *Ahmat kitobni oldi* degandagi *kitob* aniq bilganimiz bir kitobdir. *Ahmat kitob oldi* deganda *Ahmat*ning bizga ma'lum bo'lmagan qanday bo'lsa-da bir yo birdan ortiq *kitob olgani* anglashiladi.

Qosh qo'yaman deb ko'z chiqarar.
Yosh yo'llar, yosh gullar izlayman. *(Botu)*

Yiqilg'an uylarda sirli tun ko'rdim,
Buzilgan yerlardan ko'p narsa tuydim. *(Botu)*

Kasa ushlab qo'lim toldi.
(«Alpomish» dostoni)

II. Borish to'ldirg'ichi

Ahmat kitobni berdi.
Karim suvni to'kdi.
Temir ketdi

deganimizda bu gaplarning har bittasida kesim, ega ham tushim so'zlari bordir. Biroq bulardan anglashilg'an o'ylar yana to'la bo'lmag'an. Eshitkuchi kishi bularni eshitkach, «kimga? nimaga? qayoqqa?» deb so'raydir. Mana shu so'roqlarg'a javob uchun yuqoridag'i gaplarga *Sharifka, yerga, maktabka* so'zlarini qo'shamiz-da:

Ahmat kitobni Sharifka berdi.
Karim suvni yerga to'kdi.
Temir maktabka ketdi deymiz.

Bu gaplardan *kitob, suv* ham *Temir*ning *Sharif, yer* ham *maktab* sari jo'naganlari bilinadir. Shuning uchun *Sharif, yer* ham *maktab* so'zlariga «borish to'ldirg'ichi» deymiz.

Borish to'ldirg'ichi gapning shunday bir bo'lagidirkim, gapning boshqa bir bo'lagidan o'ziga tomon bir harakat, bir uzanish borlig'ini bildiradir. Buning belgisi «g'a –qa – ga – ka»dir. Borish to'ldirg'ichidan belgisining tushirib qol-

g‘ani ham bo‘ladir: *Bozor bordim – bozorg‘a bordim.* Borish to‘ldirg‘ichiga «g‘a – ga, davur – dovur» qo‘shilg‘anda harakat va uzanishning so‘ng o‘zi bo‘ladir. *Buzoqning yugurgani og‘ilg‘acha. Bozorg‘acha bordim. Bu yil qishqacha dalada qoldim. Bu ish qiyomatqa dovur bo‘lmaydir. Shaharga davur aylanib keldim.*

Borish to‘ldirg‘ichig‘a «g‘a – ga» qo‘shilg‘anda borish belgisi bo‘lg‘an «g‘a – qa – ga – ka»ning tushib qolg‘ani ham bo‘ladir:

O‘lgancha urdim – o‘lgangacha urdim.
Tong otg‘ancha o‘qudim.

Usbanga yo‘ldoshdirkim, o‘lgancha tashlamas.

(Elbek)

O‘ychi o‘ylag‘ancha tavakkalchi ishini bitirar.

(El so‘zi)

III. Chiqish to‘ldirg‘ichi

Sharif chiqdi.
Karim bizga keldi.
Men kitobni oldim.

Yuqoridag‘i gaplardan birinchisida ega bilan kesim; ikinchisida kesim ham borish to‘ldirg‘ichi bor; uchinchisida esa ega, kesim ham tushim to‘ldirg‘ichi bor. Biroq bulardan anglashilgan o‘y yana to‘la emas. Bularni eshitkan kishi «kimdan? nimadan?» deb so‘raydir. Mana shunga javob uchun yuqoridag‘i gaplarga *maktabdan, bozordan, Ahmatdan* so‘zlarini qo‘shamiz-da:

Sharif maktabdan chiqdi.
Karim bozordan bizga keldi.
Men kitobni Ahmatdan oldim deymiz.

Bu gaplarda *Ahmatdan, bozordan, maktabdan* bir harakat, bir uzanish boshlang‘ani anglashiladir. Shuning uchun bu gaplardagi *maktab, bozor, Ahmat* so‘zlariga chiqish to‘ldirg‘ichi deyiladir: Chiqish to‘ldirg‘ichi gapning shunday bir bo‘lagidirkim, o‘zidan bir harakat, bir uzanishning boshlang‘anini bildiradir, buning belgisi «dan–din»dir. Chiqish to‘ldirg‘ichi o‘zining belgisidan sira ayrilmaydir:

O'zi bilmaydir, kishidan so'ramaydir.
Bir ot orqasidan ming ot suv ichadir.
Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqadir; yomon so'z bilan qilich qinidan chiqadir.
Yomondan har kim bezadir. *(El so'zlari)*

Chiqish to'ldirg'ichig'a «beri – buyon» so'zlari qo'shilg'anda harakat, uzanishning bosh uchi anglashiladir.

Bir yildan beri tinishlig'imiz bor.
Maktabdan buyon chopib kelamiz.
Uch oydan buyon kasalman.
Jannat, u go'zal jozibali yer,
Ko'pdan beri yer ustida xoqon. *(Botu)*

Uch kundan beri to'xtamasdan yog'ib turg'an yog'mur...
(M. Shermuhammad)

Eskartma: yuqoridag'i gaplardan «beri» so'zidan qolg'ani ham bo'ladir: *Qo'shinlar ko'bdan turdilar. – Ko'bdan beri turdilar.*

(Botu)

«Dan – din» belgilari 1) sabab, vosita ma'nolarida ham keladir: *Tomg'a shotudan chiqdim. Otam tifdan o'ldi* kabi; 2) arabcha «ba'z» bir qism ma'nosida ham keladir: *Kitobdan uch bet o'qudum. Olmadan yuzta oldim. Puldan bizga ham berdilar. Ko'k choydan bering* kabi; 3) sarfda sufatlar qatorida, 15-raqam ostida «ortiqliq sufati» deb ko'rsatilgan *yaxshiroq, keskinrak* kabi sufatlar bor, shul sufatlarga baylanib kelgan otlarg'a ham «dan – din» qo'shiladir.

Buning so'zi qilichdan keskinrakdir.
Sharif Ahmatdan bilimlirakdir.
Dunyoda toshdan qattiqroq yuraklar bor.

Keskinrak, yaqinroq kabi ortiqliq sufatlarining ma'nolaridag'i «ortiqliq»ni yana bir daraja orttirmoq uchun shularga boylang'an so'zlarga «dan – din» belgisidan so'ng «ham, -da» qaydi qo'shiladir:

Sharif Karimdan tuzukrak.
Yo'ldosh Sharifdan ham tuzukrak.

Temir toshdan qattig'roq,
Po'lat temirdan-da qattig'roq.
Uning so'zi qilichdan ham keskinrakdir.
Dunyoda toshdan-da qattig'roq yuraklar bor kabi.

Ortiqliq sufati gapka kirgach, uning belgisi bo'lgan «roq – rak»ning tushib qolg'ani ham bo'ladir:

Uning so'zi qilichdan ham keskindir.
Sharif Ahmatdan bilimlidir.
Dunyoda toshdan qattiq yuraklar bor kabi.

Yuqorida ko'rsatilgan, turli ma'nolardagi «dan – din» belgilarining hammasini «chiqish» belgisi deb shularga qo'shilg'an so'zlarning hammasini «chiqish to'ldirg'ichi» sanamoq munosibdir.

Bungacha ko'rib kelganimiz uch to'ldirg'ich (tushim, borish, chiqish to'ldirg'ichlari)ning gapka kirib-kirmasligiga oid kesim so'zi bo'lgan fe'lning ma'nosig'a bog'liqdir. Shul fe'lning ma'nosi istasagina to'ldirg'ichlarning birta-ikitasi gapka kiradilar; yo'qsa kirmaydir. *Qush uchdi* deganimizda *uchish* fe'li chiqish ham borish to'ldirg'ichlari bilan kelishadir: *Qush yog'ochdan uchdi, ko'kka uchdi* deya olamiz. Biroq *uchish* fe'li «tushim to'ldirg'ichi» bilan sira kelishmagani uchun *Qush tomni uchdi, ko'kni uchdi* demaymiz. *Men palov yedim* deganimizdek *yemak* fe'li tushim ham chiqish to'ldirg'ichlari bilan kelishadir. Shuning uchun *Men palovni yedim, men palovni tovoqdan yedim* deymiz. Biroq bu fe'l borish to'ldirg'ichi bilan kelishmaydir. Shuning uchun yuqoridag'i gaplarga borish to'ldirg'ichi kirgiza olmaymiz.

Bundan keyin ko'rilaturgan to'ldirg'ichlarda bu hol yo'qdir. Bularni har qanday gapka kirgizmak mumkindir.

IV. O'run to'ldirg'ichi

Karim sabog'ini uyda yozadir.
Biz ishimizni qishloqda ko'ramiz.

Yuqoridag'i gaplarda *Karim sabog'ini yozadir, biz ishimizni ko'ramiz* degan o'ylarning o'runlarini ko'rsatkan *uyda, qishloqda* so'zlari gapning «o'run to'ldirg'ichi» bo'ladir.

O'run to'ldirg'ichi gapning shunday bir bo'lagidirkim, gapdan anglashilg'an o'yning o'rnini bildiradir. Buning belgisi «da – da»dir. O'run to'ldirg'ichi o'z belgisidan sira ayrilmaydir.

Oldingda oqqan suvning qadri yo'q.

(El so'zi)

O'n olti Qo'ng'irot elida Dovonbiy degan o'tdi.

(«Alpomish»)

Ko'm-ko'k go'zal o'tloqlaring bosilg'an,
Ustlarida na poda bor, na yilqi.

(Cho'lpon)

V. Chog' to'ldirg'ichi

Karim sabog'ini kechasi yozadir.
Erta bizning maktabda saboq boshlanadir.
Men tunakun sizni izlagan edim.

Yuqoridag'i gaplardan anglashilg'an o'ylarning zamonlarini bildirgan *kecha, erta, tunakun* so'zlari «chog' to'ldirg'ichi» bo'ladir.

O'yning zamonini bildirgan gap bo'laklariga «chog' to'ldirg'ichi» deymiz. Buning ham belgisi «da – da»dir. Chog' to'ldirg'ichi *endi, erta, kecha, kun, oqshom...* so'zlariga o'xshagan chog' otlari bo'lg'anda unga «da – da» belgilari qo'shilsa-da, qo'shilmasa-da bo'ladir:

O'zbek qizi erkli «kunda» bo'shalmay. *(Cho'lpon)*

Haybatli «maydonda» biz javlon «qilg'anda»,
Qilichlar o'ynatib har yon «surganda»,
Qarshidan maydong'a qahramon «surg'anda»,
Sichqondan joy so'rgan eski kuch unutma!

(Botu)

Yana «bir kun» qizlar kabi tabiat
Qulog'iga oltin halqa «toqqanda». *(Fitrat)*

«Ko'b kunlar» boshdag'i kuchni
Sezgingning oldiga to'kding. *(Botu)*

«Erta-indin» erking qo'ldan ketadir,
Erkalanib «bir-iki kun» quvnab qol. *(Botu)*

«O'roqda» yo'q, «moshoqda» yo'q, «xirmonda» hozir.

(El so'zi)

Sarfda zamon fe'li deb ko'rsatilgan *chiqqach, yozg'ach, ko'rgach* kabi fe'llar ham gapka chog' to'ldirg'ichi bo'lib kiradir: *Karim quyosh chiqqach o'rnidan turdi. Bolasining ko'z yoshlarini ko'rgach chidayolmadi* kabi.

VI. Birgalik to'ldirg'ichi

Men senga qalam bilan qog'oz ketirdim.
Ahmat bilan Karim bizga qo'ndilar.
Siz bu ishni o'z ko'zingiz bilan ko'rdingiz.
Biz uydan erta bilan chiqdiq.

Yuqoridagi gaplarda «bilan» qo'shilg'an otlarning gapning bir bo'lagiga (o'rtoqlik shaklida, yo qurolliq shaklida, yo zamondoshliq shaklida) yo'ldosh bo'lg'anlari bilinadir. Bunga «birgalik to'ldirg'ichi» deymiz. Birgalik to'ldirg'ichi gapning shunday bir bo'lagidirkim: uning gapning boshqa bir bo'lagi bilan yo'ldoshlig'i, birgaligi anglashiladir. Buning belgisi «bilan, bila»dir. Orasida «ila» ham ishlatiladir. «Ila»dan «i»ni tushirib yolg'izg'ina «la»ning o'zini ham ishlatadirlar:

O'ylagan o'ylarga ko'ngil yupanmas,
Ko'ngilning istagi o'y bilan qonmas. *(Cho'lpon)*

So'z ila qat[9] bo'lur kishvarlar,
So'z bilan jam' bo'lur lashkarlar.

(«Shayboniynoma»)

Mungli kecha ming dard ila o'tdi. *(Botu)*

«Bilan – ila»ning bildirgani «birgalik» ma'nosi juda kengdir: a) O'rtoqliq shaklida bir birgalikni bildiradir:

Azizbek sipohi(y)lar bilan Samarqand qopqasig'a tomon harakat qildi.
Hamidning Otabek bilan tanishligi bo'lmasa ham...
Aziza xotin bilan Rustam akaning xotini...

(«O'tkan kunlar», A. Q.)

b) Qurollik shaklida birgalikni bildiradir:

Tabiat chechaklar bilan bezanadir.

(«Tabiatda bahor», Saidali)

Tepalar, tog'lar o'simlik-la urtilgan.

(V. Mahmudiy)

Toyimning yolini qamchi sopi bilan tozalab tura berdim.

(«Uloqda», A. Q.)

j) Sabablik shaklida birgalikni bildiradir:

Bo'g'iq, qisiq bu ko'ngil kuchli o't bilan yonadir.

(Cho'lpon)

Dard birla kuchlar yig'lar zor.

(«Shayboniynoma»)

Turli chechaklar quyoshqa qarab quvonch bilan lablarini jilmaytiradirlar.

(«Tabiatda bahor», Said Ali).

Mashq boshlanishi bilan butun borlig'imizg'a issiqlik yugirdi.

(«Jinlar bazmi», A. Q.)

d) Zamondoshliq shaklida birgalikni bildiradir:

Erta bilan senga uchradim.
Seni ko'rish bilan yo'ldan qaytdim.
Qizlar qiy-chuv bilan to'pni ushlab oldilar.

(Cho'lpon)

Eskartma: Eski yozuvchilarimiz «bilan – bila»ni «birlan – birla» shaklida ishlatar ekanlar, bu kun bu shakl ishlatilmaydir.

VII. Nechunlik to'ldirg'ichi

Men bu kitobni o'qumoq uchun oldim.
Yolg'on botur qochmoq uchun otqa minadir.
Biroz havo olmoq uchun dalaga chiqdik.

Yuqoridag'i gaplarda *kitob olmoq*ning sababi *o'qumoq, otqa minmak*ning sababi *qochmoq, dalag'a chiqmoq*ning sababi *havo olmoq*dir. Mana shul *o'qumoq, yozmoq, qochmoq, havo olmoq* so'zlaridan har biri gapning nechunlik to'ldirg'ichidir. Nechunlik to'ldirg'ichi gapning shunday bir bo'lagidirkim, undan anglashilg'an ishning sababi (nechukligini) ko'rsatadir. Uning belgisi «uchun»dir. Sarfda (birinchi

bosma, 32-bet) birinchi ko‘ma fe’llar qatorida ko‘rsatilgan iki turli kelgusi fe’l bor. Shuning birini turlisi bo‘lg‘an *yozar, o‘qur* kabi fe’llarg‘a ham «g‘a – ga» qo‘shilg‘anda nechunlik to‘ldirg‘ichi bo‘ladir.

Xat yozarg‘a qog‘oz oldim. Seni ko‘rarga keldim kabi. Yana sarfda to‘rtinchi ko‘mada ko‘rsatilgan zamonsiz fe’llarning birinchisi bo‘lg‘an *yozg‘ali, o‘qug‘ali, ko‘rgali* kabi fe’llar ham gapda nechunlik to‘ldirg‘ichi bo‘ladir.

Xat yozg‘ali qog‘oz oldim.
Seni ko‘rgali kelgan edim.
Katta-kichik barcha birdan qirlarg‘a
Ketadirmiz ekinlarni ekarga. *(Elbek)*

Jang maydonida javlon etkali. *(Botu)*

VIII. Nuchuklik (hol) to‘ldirg‘ichi

Shogird qichqirib o‘qudi.
Muallim kulib tingladi.

Shul gaplardagi qichqirib, kulib so‘zlari o‘ydan anglashilg‘an «ish»ning nuchuk bo‘lg‘anini bildiradir. Nuchuklik to‘ldirg‘ichi uch shaklda bo‘ladir: 1) sarfda to‘rtinchi ko‘ma fe’llari qatorida ko‘rsatilgan *qichqirib, chopib* kabi fe’llar gap orasida nuchuklik to‘ldirg‘ichi bo‘ladir (yuqoridag‘i misollarda ko‘rsatilgani kabi); 2) sufatning bir ot bilan kelishini, shul otning shul sufatka «sufatli» bo‘lg‘anini sarfda ko‘rgan edik. Sufat otqa emas, fe’lga baylanib kelganda nuchuklik to‘ldirg‘ichi bo‘ladir (sonlar ham shul qatordadir):

Men xatni yaxshi yozdim.
Sen bu kun uzoq so‘ylading.
Botir arslon kabi qichqirdi.
Sharif maktabdan birinchi chiqdi.

3) *Ruscha, tatarcha, insoncha* kabi nisbat ko‘makchisi qo‘shilg‘an otlar ham gapda nuchuklik to‘ldirg‘ichi bo‘ladir:

Ruscha gapirdim.
Insoncha ishlading kabi.

Bu sakkiz to‘ldirg‘ichdan har birining ham gapda birdan ortiq bo‘lishlari mumkindir. Gapda to‘ldirg‘ichlarning birtasi birdan ortiq bo‘lg‘anda oralarida « , » shakli qo‘yila-

dir; ikidan ortiq bo'lg'anda eng so'nggisi uchun « , » shakli o'rnida «ham – hamda – va» qaydi ketirmakda bo'ladir.

Bu kun maktabdan menga qalam, qog'oz, daftar ham kitob berdilar.

Quyosh, sen har kun jilmayibgina ko'tarilasan. Tog'ni, toshni, shaharni, dalani yoritasan!

Tunakun shaharda Karimni, Sharifni, Ahmatni va Sulaymonni ko'rdim. (Yoki) Tunakun shaharda Karim, Sharif va Sulaymonni ko'rdim.

Qonunga, tartibga bo'ysunsunmasdan bu kuni jamiyat ora yashaymiz.

Oy o'zining jilmayish nurini tog'larg'a, toshlarg'a, og'ochlarg'a, yaprog'larg'a sochib turar edi.

Men bu kun akamdan, o'rtog'imdan xatlar oldim.

Shaharda, dalada, cho'lda, tog'da o'qumag'an bir kishimiz qolmasin.

Dushmanlarimizning jazolarini qilichlar bilan, miltiqlar bilan, to'plar bilan, qamoqlar bilan berarga tirisharmiz.

Bu kun, erta, indin ishlayman; undan so'ng bo'sh bo'laman.

Bolalar, kuchinglar bor ekan, o'qumoq uchun, bilmak uchun, o'rganmak uchun, yashamoq uchun tirishingiz!

Yo'ldosh bilan Ali qiziqib, qaynashib, so'kishib gapirishdilar.

Eskartma: Bunday o'runlarda to'ldirg'ich belgilari bo'lg'an «-ni, -g'a, -da, -dan, bilan, uchun»ni eng so'ngg'isidag'ina aytib, boshqalarg'a aytmaslik ham mumkindir: *Dushmanlarimizning jazolarini qilichlar, miltiqlar, to'plar, qamoqlar bilan berarg'a tirishamiz. Men bu kun akam, o'rtog'imdan xat oldim* kabi.

To'ldirg'ich belgilarining ko'makchi so'zlari bilan olishmasi

O'zbekchada to'ldirg'ich belgilaridan ba'zilarining ko'makchi so'zlar bilan olmashtirilg'ani bo'ladir:

a) Borish to'ldirg'ichining belgisi «g'a – ga»dir. Biroq uning o'rnig'a «sari» ko'makchisi ham keladir.

Bozorg'a bordim – Bozor sari bordim.
Maktabga jo'nadim – Maktab sari jo'nadim.

Bozor sari bordim bilan *Bozorg'a bordim*ning ayrilmasi

shul: *Bozor sari bormoq* bozorning o'ziga emas, u bo'lg'an tomong'a bormoqdir.

Tushdi andin guzari Marv sari.

(«Shayboniynoma»)

Tun oqshom keldi kulbam sori ul gulrux shitob aylab.

(Amiriy)[10]

b) Borish to'ldirg'ichi bilan o'run to'ldirg'ichining belgilari ba'zan «aro» so'zi bilan olmashtiriladir:

Maktabga kirdim – Maktab aro kirdim.
Kitobga ko'z soldim – Kitob aro ko'z soldim.
Shaharda ko'rdim – Shahar aro ko'rdim.
Kitobda o'qudim – Kitob aro o'qudim.
Yana jon keldi Samarqandaro (Samarkentka.)
Barcha olam aro (olamda) andin g'ovg'a.

(«Shayboniynoma»)

Jismim aro pech-u tob[11] *dirmen, ne qildi?*
Jonimda ko'p iztirobdirmen, ne qildi?

(Bobir)

j) Borish ham turish to'ldirg'ichlarining belgilari «uza» bilan olishtiriladi:

Karim tomg'a chiqdi – tom uza chiqdi.
Qush yog'ochqa qo'ndi – yog'och uza qo'ndi.
To'ppi boshda turadir – bosh uza turadir.
Qushlar yog'ochlarda uxlaylar – yog'ochlar uza uxlaylar.

Borish ham o'run belgilarini «uza» bilan olishtirmoq ustdalik ma'nosini ifoda qilmoq uchungina bo'ladir. «Uza»-ning ikinchi shakli «uzra»dir.

d) O'run to'ldirg'ichining belgisi bo'lgan «da – da» «ichra» so'zi bilan olmashtiriladir:

Biz bukun to'y ichra yotqon edik.
Olam eli ichra orsiz qildi meni.

(Bobir)

Xalq ichra yomonliq bila men afsona.

(Bobir)

Qanday so‘zlar gapning qaysi bo‘lagi bo‘lishig‘a yaraydir?

Sarfda so‘zni to‘rt turli (ot, fe’l, sufat, ko‘makchi) deb edik. Endi shul to‘rt turli so‘zdan qay birining gapning qaysi bo‘lagi bo‘lishig‘a yararlig‘ini ko‘ramiz:

Fe’l. Sarfda fe’llarni to‘rt ko‘maga ajratgan edik: so‘nggi, hozirg‘i, o‘tkan ham zamonsiz fe’llar; shulardan uch ko‘masi (so‘nggi, hozirg‘i, o‘tkan fe’llar) gapda kesim bo‘ladir.

Endi sen mening qizim bo‘lding. Endi senga sira ozor bermayman. Yig‘i uydan eshitilar edi.

(«Oydin kechalarda», Cho‘lpon)

Boshqada qanot bor, ko‘kka uchadir,
Shoxlarg‘a qo‘nadir, bog‘da sayraydir.
(Cho‘lpon)

Iki qo‘chqor boshi bir qozonda qaynamas.
Og‘zi qiyshiq bo‘lsa-da boy bolasi so‘ylasin.
(El so‘zlari)

To‘rtinchi ko‘ma fe’llar (zamonsiz fe’llar)da sabab fe’li nechunlik to‘ldirg‘ichi, vaqt fe’li choq to‘ldirg‘ichi bo‘ladir:

Biz inqilobni «yashatqali» o‘quymiz.
Inqilobni yashatmoq «istagach» maktabka yuzlandik.
Biz inqilobni yashatibqina taraqqiy qilamiz.

Ot. Otlarning hammasi (zot, olmosh, ish otlari) gapning kesim, ega ham butun to‘ldirg‘ichlari bo‘la oladir:

Iki tarviz bir qo‘ltiqqa sig‘mas.
Mulla bilganin o‘qur, tovuq ko‘rganin cho‘qur.
Onaliq yetim – gul yetim, otaliq yetim – shum yetim.
Ko‘ngul yosh, ruhim yosh, kuchim yosh,
Ortqa tortqang‘a hadyam tosh.
(Botu)

Ul o‘qug‘an edi turli bilimlarni.
Muni bilgach ular tushundilar. *(Elbek)*

Sufat. Sufat ham sufat qatorida sanalg‘an sonlar, ko‘rsatkichlar ko‘brak biror otqa boylanib keladir (sufat sufatliga, son sanalmishg‘a, ko‘rsatkich ko‘rsatilmishka boylanadir).

Qora bulit, yigirma kitob, bu kishi kabi. Bular bir otg'a boylanib kelganda o'z boshlarida gapning bir bo'lagi sanalmaydirlar. Boylang'anlari otqa ergashibgina qoladilar. Biroq sufat sufatlidan, sanalmishdan, ko'rsatkich ko'rsatilmishdan ayrim kelganda nahvda ot holini oladir. Gapning kesim, ega ham butun to'ldirg'ichlari bo'lishqa yaraydir:

Qimirlag'an qir oshar.
Yaxshilar topib so'ylar, yomonlar qopib so'ylar.
Qo'rqqan oldin musht ko'tarar.
Hunarli qul bo'lmas.
Ishlikka kun yo'q, ishsizga o'lim yo'q.

(El so'zlari)

Asli qoshing qoradir: o'sma qo'yg'aning yolg'on.

Ko'makchi so'zlar. Ko'makchi so'zlar o'z otlaridan anglashilg'ani kabi gapning asosli bo'laklaridan bo'la olmaydir. Bular gapdan anglashilg'an o'yning shaklini o'zgartish uchun ko'maklashmak uchungina gapka kiradirlar. Shunday bo'lsa ham oralaridan ba'zilari gapning asosli bo'laklari bo'lishqa yaraydirlar.

Hamma: *Hamma keldi. Hammaga pul berildi. Hammadan pul olinadir.*

Endi: *Endi o'qushqa vaqt. Endigacha kelmadilar. Endidan ishka kirishdim.*

Hali: *Haligacha yozmadim.*

Kim, nima: *Kim keladir? Kimga topshirdingiz? Nima bo'ladir? Nima olinadi?*

Gap bo'laklarining tushib qolishi

Bir gapda iki bosh so'z bilan sakkiz to'ldirg'ich so'z bo'lmoq mumkindir. Buni yuqorida ko'rdik. Gapning mana shul o'n asosli bo'lagidan – yarimtasining ma'nosi qulog', ko'z kabi vositalarning yordami bilan anglashilib qolsa, gapning shul bo'lagi aytilmay qoladir.

1. Kesim so'zi ora-sira gapdan tushib qoladir: *Kim keldi?* deb so'rag'anda – *Karim* deymiz. *Nima tushdi?* deb so'ralsa – *Tosh* deb javob qaytaramiz. Mana shul javoblar aslida *Karim ketdi, tosh tushdi* bo'ladir. Biroq so'rag'anda *kelmak* bilan *tushmak*dan so'z bo'lg'ani uchun javobda bular aytil-

may qolar. Shuning bilan gapdan kesim so'zlari aytilmagan bo'lar.

Yaxshi otqa bir qamchi, yomon otqa ming qamchi deganimizda *Yaxshi otqa, yomon otqa* so'zlari borish to'ldirg'ichidir. *Bir qamchi, ming qamchi* so'zlari «ega so'zi»dir. Kesim so'zi aytilmay qolg'andir.

Ahmat bu kun uyda, erta qishloqda. Kitob menda. Sharif maktabda deganimizdagi gaplarda ham kesim so'zi aytilmay qolg'an. Uning joyig'a o'run to'ldirg'ichi o'tkan. *Ish sendan, pul mendan. Sendan harakat, mendan barakat* kabi gaplarda ham kesim so'zi aytilmay uning joyig'a chiqish to'ldirg'ichi o'tkarilgandir. Mana shunday o'runlarda «kesim so'zi» turadir, bo'ladir, kerak, bor, yo'q kabi ma'nosi umumiy ham ma'lum so'zlar bo'lsa aytilmay qoladir.

2. Ega so'zi ham ora-sira gapdan tushib qoladir:

a) *Ahmat keldimi?* deb so'raganda – *Keladir* deymiz. *Yog'mur yog'dimi?* deb so'raganda – *Yog'adi* deymiz. Bu javoblarning asli *Ahmat keladir, Yog'mur yog'adir.* Biroq *Ahmat* bilan *yog'mur* so'zlari so'roq tomonida aytilgani uchun javob tomonida aytilmaydir. Gapning «ega» bo'lagi tushib qolg'an bo'ladir.

b) Bir bolaning yugurib borg'anini ko'rib uning nima bo'lurini o'ylab turg'an iki-uch kishidan birtasi shul bolaning yiqilg'anini ko'rgach *yiqildi* deydir. Buning asli *Bola yiqildi*dir.

Biroq bola ma'nosi haligi kishilarga ko'z vositasi bilan ma'lumdir. Shuning uchun bu gapda ega bo'lagi aytilmay qoladir. *Ke(l)ma, qoch, keldim* fe'llaridan har biri egasi aytilmagan biror gapdir. *Ke(l)ma, qoch* deganda buyirilgan kishiga qarab aytkanimiz uchun: «kimlar» deganda «m» harfidan anglashilg'ani uchun egani aytishga o'rin qolmaydir.

j) *Bukun Karimni ketirdilar. Sharifni qamoqdan qochirg'anlar. Bizda choyni ko'p ichadirlar* deganimizda maqsad *Karimning keltirilgani, Sharifning qochirilg'ani, choyning ko'p ichilganidir.* «Kimlar qochirg'an? Kimlar ichkan? Kimlar ketirgan?» buni bilmak kerak emasdir. Shuning uchun ega so'zi aytilmay qoladir;

d) *Bu kitobni o'qub bo'lmaydir. Karimni ko'rib bo'ladir. Bu uyda o'tirib bo'lmaydir. Gapirib bo'lmaydir* degan gaplarda ega so'zi hech yo'qdir: aytib-da bo'lmaydir.

Bundagi *o'qub bo'lmaydir, ko'rib bo'lmaydir, o'tirib bo'lmaydir* degan fe'llar: *qochib chiqdi, yugurib bordi* deganimiz kabi ayrim-ayrim fe'llar emas: egasi birlashkan birgina fe'l qo'shma fe'ldir. Ochibroq aytilganda: *Qochib chiqdim* deganimizda *chiqdim* so'zi «ko'rilgan fe'l», *qochib* so'zi zamonsiz fe'llardan biri. *O'qub bo'lmadi* deganimizda *bo'lmadi* ayrim fe'l, *o'qub* ayrim fe'l emasdir: egasi bir «qo'shma fe'l»dir. Chunki:

1) *Men uydan qochib chiqdim* degan gapdagi *qochib* fe'lini ko'rilgan fe'liga aylantirib *Men uydan qochdim* desak o'y, asosan, buzilmaydir. *Bu kitobni o'qub bo'lmaydi* degan gapda esa *o'qub* so'zini ko'rilgan fe'lga aylantirib *bu kitobni o'qudi, bo'ldi* desak o'y butunlay boshqa shaklga kirgan bo'ladir;

2) *Qochib chiqdim*da *chiqdim* ishi kim tomonidan ishlangan esa, qochish ishi ham shuning tomonidan ishlangandir. *O'qub bo'lmadi* so'zida esa bunday emasdir;

3) *Qochib chiqdi, yugurib keldi*da bo'lgan *chiqdi, keldi* fe'llari ishlovchilar o'zgarishga ko'ra o'zgarib olti shaklga kiradir:

1. *Ul qochib chiqdi.*
2. *Men qochib chiqdim.*
3. *Sen qochib chiqding.*
4. *Ular qochib chiqdilar.*
5. *Biz qochib chiqdik.*
6. *Siz qochib chiqdingiz.*

Biroq *o'qub bo'ldi, ko'rib bo'lmaydir* degandagi *bo'lmaydir, bo'ldi* fe'llari hech o'zgarmaydir. Tutash birinchi shaklda qoladir.

1. *Kitobni ko'rib bo'lmadi.*
2. *Meni ko'rib bo'lmadi.*
3. *Seni ko'rib bo'lmadi.*
4. *Kitoblarni ko'rib bo'lmadi.*
5. *Bizni ko'rib bo'lmadi.*
6. *Sizni ko'rib bo'lmadi.*

Men sarfni yozg'anda bunday qiziq bir fe'lga uchramagan edim. Nahvni tekshirganda buni ko'rib qoldim. *O'quy oldim; o'quyolmadim* fe'llarining qo'shma fe'llardan «bo'ldirish fe'li» bo'lg'anini sarfda ko'rgan edik (Sarf, birinchi bosma, 42-bet). *O'quldi, yozildi, o'qulmadi* fe'llarining

«majhul fe'l» ekanini ham bilamiz (Sarf, birinchi bosma, 48-bet). Bizning *o'qub bo'ldi; ko'rib bo'lmadi* degan fe'llarimiz qo'shma fe'llardan «bo'ldirish fe'li»ning «majhuli»dir. *«Men* – ega, *kitobni* – tushim to'ldirg'ichi, *o'qudim* – kesim so'zidir. Endi shul gapdagi *o'qudim* fe'lini «majhul» shakliga aylantirib *kitob o'quldi* desak ko'ramizkim, birinchi gapda «tushim to'ldirg'ichi» bo'lg'an *kitobni* so'zi o'zining «ni» belgisini tashlab ikinchi gapda ega so'zi bo'libdir. Shu ishni bo'ldirish fe'liga ham qilib ko'riladir: *Men kitobni o'quyolmadim* deganimiz gapda: *Men* – ega, *kitobni* – tushim to'ldirg'ichi, *o'quyolmadim* – kesim so'zlaridir. Endi shul gapdagi *o'quyolmadim* fe'lini majhulga aylantirganda tushim to'ldirg'ichi bo'lg'an *kitobni* so'zidan «ni» belgisini tashlab, o'zini gapning ega so'zi qilishimiz ba'zan *kitob o'qub bo'lmadi* deyishimiz lozim bo'lg'an. Biroq bunday qilmaymiz, *kitobni* so'zini «ni» belgisidan ajratmay *kitobni o'qub bo'lmadi* deymiz. Demak, bu gapning mantiqqa ko'ra ega so'zi *kitob*dir. Lekin *kitob* so'zi «ni» belgisi bilan kelgani uchun nahv qoidasig'a ko'ra ega bo'la olmaydir. Bu gap ham nahvga ko'ra egasiz bir gap bo'lib qoladir.

Kelishkanlik[12]

Ega bilan kesim so'zlari orasida birlik, ko'plikda kelishkanlik, barobarlik kerakmi, yo'qmi? Bu so'roqqa javob bermak uchun shunday deyish mumkin: gapda ega so'zi birlik bo'lganda «kesim» so'zining ham birlik bo'lishi, albatta, lozimdir.

Qo'y so'yildi.
Quyosh chiqdi.
Bu tosh og'irdir kabi.

Biroq ega so'zi hurmatli bir kishining oti bo'lsa, hurmatlab, tuban bir kishining oti bo'lsa, uchirik qilib kesim so'zi ko'blik shaklida aytiladir: *Mudir keldilar. Muallim aytdilar. Ergashboy ham gapirdilar* kabi.

Ega ko'blik bo'lganda kesim so'zi ot yo sufat bo'lsa oralarida kelishkanlik juda zarur emas: *Bular yog'och; bular yog'ochdir. Bizlar yaxshi; bizlar yaxshilar. Bolalar o'qug'an; bolalar o'qug'anlar* kabi.

Kesim so'zi fe'l bo'lsa: olti shakl fe'ldan birinchi shakli

(o‘zga-g‘oyib so‘zi) bilan ega orasida kelishkanlik yana juda zarur emas. *Bolalar maktabdan chiqdilar* deganimiz kabi. *Bolalar maktabdan chiqdi* ham deya olarmiz. Kesim so‘zi fe’lning qolg‘an besh shaklidan biri bo‘lg‘anda ega bilan kesim orasida kelishkanlik, albatta, lozimdir: *Men keldim* o‘rnida *Men kelding; Siz keldingiz* o‘rnida *Siz kelding* deya olmaymiz.

Gapning uyushg‘an bo‘laklari

Bir gapda ikita bosh so‘z bilan sakkizgacha to‘ldurg‘ich borlig‘ini ko‘rdik. Mana shul o‘n bo‘lak gapning asosiy bo‘laklari sanaladir. Shul asosiy bo‘laklar gapda yolg‘iz-yolg‘iz kelgani kabi ko‘prak boshqa so‘zlar bilan uyushib ham keladir. Biz mana shunday uyushib kelgan bo‘laklarga gapning «uyushg‘an bo‘laklari» yo soddacha «uyushmalar» deymiz. Gapning uyushg‘an bo‘laklari, soddacha aytkanda, «uyushmalar»i turli bo‘ladir: 1) Har vaqt emas; belgili shartlar ostida xususiy o‘runlardag‘ina bo‘lg‘uchi uyushmalar, biz bunga «xususiy uyushma» deymiz. 2) Har vaqt bo‘lg‘uchi uyushmalar, biz bunga «umumiy uyushma» deymiz. Umumiy uyushmalar shulardan:

Aniqlov uyushmasi. *Bog‘ sotildi d*egan gap ikita bosh so‘zdan (ega bilan kesimdan) iboratdir. Sizga belgili bir o‘y beradir, biroq biz shul sotilg‘an bog‘ning kimniki, kimga qarashliq bo‘lg‘anini bildirmaymiz. Shuni sizga bildirmak, aniqlamoq uchun bog‘ kimga qarashliq esa shuning otini bog‘ so‘zidan burun keltiraman (Sarf: Birinchi bosma, 53-bet). «Aniqlov belgisi» atalg‘an «ning» belgisini shul otqa qo‘shaman. Bog‘ so‘ziga esa uchinchi turli olmosh izlarida (Sarf: Birinchi bosma, 21-betdan) birtasini qo‘shaman. Bog‘ Rustamniki bo‘lsa *Rustamning bog‘i sotildi* deyman, sizniki bo‘lsa *Sizning bog‘ingiz sotildi* deyman. Mana shu gaplardaki *Rustamning bog‘i, Sizning bog‘ingiz* degan bo‘laklar «aniqlov uyushmasi» bo‘ladir. Aniqlov uyushmasi uyushma holida turib gapning bir bo‘lagi bo‘ladir:

Sen maktabning bog‘ig‘a chiq.
Kecha kelgan sening onang.
Men bu xatni o‘rtog‘imning qalami bilan yozdim.
Bu kitobning boshi yirtilg‘an.

Uning uyi sotildi.
Uning otasi o'ldi.
Sening bolang o'qug'an kabi.

Har aniqlov uyushmasida iki ot yo sufat bo'ladir. Birinchisiga «aniqlovchi», ikinchisiga «aniqlangan»[13] deymiz. Aniqlov belgisi «aniqlovchi»g'a, olmosh izi[14] esa «aniqlangan»g'a qo'shiladir. «Aniqlangan» bo'lg'an so'zning oxirida cho'zg'i bo'lsa, unga olmosh izlaridan «i» harfini qo'shg'anda «i»dan burun «s» harfi qo'shiladir: *Ahmatning otasi, Karimning bolasi, maktabning bog'chasi* kabi.

Aniqlovchi uyushmasidan «ning» belgisining tushib qolg'ani ham bo'ladir. «Ning» belgisining tushib qolishi aniqlov uyushmasining ma'nosig'a bir turli aniqsizliq, qorong'iliq beradir: *Insonning bolasi, bog'chaning qopqasi* deganda ma'no aniqdir. Belgini *bir insonning bolasi*, belgili *bir bog'chaning qopqasi* demakdir. Biroq *inson bolasi, bog'cha qopqasi* deganda buncha aniqliq yo'qdir. Shuning uchun fors adabiyotida «majoz» yo'li bilan yasalg'an *dasti adolat, panjayi zulum, dunyoyi beshariat, olami adabiyot* kabi aniqlov uyushmalarini turkchaga aylantirganda «ning»siz aylantirish kerakdir. Chunki «majoz» aniqliqni ko'b-da istamaydir.

Qayg'ilar oldig'a cho'kding.
Umid buyrug'in ijro etaman,
Tilak yurtig'a tezdan yetaman,
Ko'z qorasidan madad topaman.

(Botu)

Dushman so'ziga kirma, eshit do'st so'zin.

(Bobir)

Aniqlov uyushmasi gapning qaysi bo'lagi bo'lsa, shul bo'lakning belgisini hech o'zgartmay o'z oxirig'a oladir:

Biz uning bog'ini ko'rdik.
Ular mening bog'imga bordilar.
Sening bog'ingda nimalar bor? kabi.

Biroq tushim to'ldirg'ichi bo'lg'anda «ni» belgisidan «i» harfming tushib qolg'ani ham bo'ladir:

Mulla bilganin (bilganini) o'qur, tovuq ko'rganin (ko'rganini) cho'qur.

Ko'r tutg'anin qo'ymas, kar eshitganin qo'ymas.
Qari bilganin pari bilmas.
Ko'r hassasin bir yo'qotar.
Birovning yaxshilig'in unutma.

(El so'zlari)

Dushman so'ziga kirma, eshit do'st so'zin.
Bu yanglig' bilsam erdi hajrning muhlik qora shomin,
Berarmu erdim o'lguncha ilikdan vasl ayyomin.

(Bobir)

Yor aksin mayda ko'r deb jomdin chiqdi sado.

(Navoyi)

Ohi eli tufrog'i uchirsa,
Ashki suyin o'tin o'churma.

(Navoyi)

Aniqlov uyushmasidan aniqlovchining-da, aniqlang'anning-da bo'lishi mumkindir. Birdan ortiq bo'lg'anlarining oralarida «,» shakli qo'yiladir. Ikidan ortiq bo'lg'anda eng so'nggisidan burun «,» shakli o'rnida «ham – hamda – va» qo'yilsa-da bo'ladir. *Bu kitobning boblari, qismlari, xususiy otlari oltin suvi bilan yozilg'andir. Tog' etagidagi uylarning, bog'larning, gullarning bir-biriga aralashqan tuslari ko'ngilni shu tomong'a tortar edi.* Buning joyida *boblari, qismlari* ham *xususiy otlari* kabi va *xususiy otlari* yo hamda *xususiy* deyish ham mumkindir.

Aniqlovchi uyushmasidan «aniqlovchi» birdan ortiq bo'lg'anda aniqlovchi belgisini(ng) hammasi emas, eng oxirg'isig'a borish ham mumkindir. Yuqoridag'i misolni tog' etagidagi o'tlar, yog'ochlar, gullarning deganda ham bo'ladir.

«Aniqlangan» ham birdan ortiq bo'lg'anda olmosh izini eng so'ngg'isig'a berish bo'ladir; yuqoridag'i misolda boblar, fe'llar, ham xususiy otlari deyilsa mumkindir.

Sufat uyushmasi. Sufat (ham sufat qatorida sanalg'an so'zlar, ko'rsatkichlar) nahvda bir otqa baylanib kelsa, shul ot u sufatning sufatlisi bo'ladir. Sufat bilan sufatli birgalashib «sufat uyushmasi» bo'ladir. Uyushma holida turub gapning o'n bo'lagidan birtasi bo'ladir.

Yoshli ko'zlar oriq bo'yig'a tushkan, nozik oyoqlar oriq bo'yi tomong'a harakatlana boshlag'an edi.

(«O'tkan kunlar», A.Q.)

Haybatli maydong'a biz javob etkanda.

(Botu)

Mungli kechaning mungli chog'inda.

(Fitrat)

Ozdiradir tuyg'u yo'lidan.

(Botu)

Yiqilg'an uylarda sirli o't ko'rdim,
Buzulg'an yerlardan ko'b narsa tuydim.

(Botu)

Yo'qsa unga mangulikmi qora tun?

(Cho'lpon)

O'tli nafas bilan o'quyturg'an hofizlar keldilar. Eshoni muborak boshlarini quyi solib «sukut»ka ketkanlar.

(Cho'lpon)

Chol titroq qo'llarini aravaga uzatib...

(Cho'lpon)

Nega yuz yil kishanlar-da entikkan.

(Cho'lpon)

Titrab, titrab qora yer uzra tushar.

(Fitrat)

Sufat o'zining sufatlisidan burun keladir. Biroq sufatli kimsa oti bo'lsa, sufat uning laqabi, amali bo'lsa sufatli sufatdan burun keladir: *Hasan tog'a, To'ra mingboshi, Eshmat qo'rboshi, Ziyo shohichi* kabi.

Sufat uyushmasida sufatning birdan ortiq bo'lishi mumkindir. Sufat birdan ortiq bo'lg'anda oralarida «,» shakli qo'yiladir. Ikidan ortiq bo'lg'anda eng so'ngg'isidan burun «,» shakli o'rnida «ham – hamda – va» qo'yish ham bo'ladir:

So'lg'in, qora, turg'un dema, ko'r,
Mungli kechaning mungli chog'inda...

Kichkina, chiroylik, nozli hamda o'ynoq qushchalar inlaridan uchishib sayrasha boshladilar.

Xususiy uyushmalar: a) Ish otlaridan birinchi turlari *(yozmoq, bilmak, bormoq)* ham ikinchi turlari (*yozish, bilish, borish, kelish*) gapning bir bo'lagi bo'lg'anda o'zlariga tegishli to'ldirg'ichlari bilan uyushadilar, ham shul uyushma holida gapning bir bo'lagi sanaladir.

Men kitob o'qumoqni sevaman.
Sen xat yozishdan qochasan.
Saboqg'a kirmaslik yomondir.
Men seni tanimoqdan mamnun bo'ldim.
Men kechalari uy poylash uchun kelin bo'ldimmi?

(Cho'lpon)

Bu so'zni eshitish bilan Samandar akaning ko'zlari chaxchayib ketdi.

(Cho'lpon)

Men shunday mashqni eshitishdan bezgan edim.

b) Sarfda 11, 12, 16, 20, 21, 22 raqamlar bilan ko'rsatgan *borg'uchi, bormoqchi, borar, borg'an, borarliq, borg'uliq* shaklida bo'lg'an sufatlar ham gapning bir bo'lagi bo'lg'anda o'zlariga tegishli to'ldirg'ichlar bilan uyushadirlar ham shul uyushma holida gapning bir bo'lagi sanaladirlar.

Jurnalg'a maqola berg'uchilar yig'ildilar.
Gazetaga maqola yozmoqchi yigit idorag'a chaqirildi.
Biz sen kabi ishbuzar odamlar bilan hisoblashamiz.
Bizga kulganlarga biz ham kulamiz.
Ahmat bukun o'qushqa yararliq bir kitob ololmadi.
Sen kecha tarixda yozg'uliq bir so'z so'ylading.
Zikrga boshqa shaharlardan ham o'tli nafas bilan o'quyturg'an hofizlar keladirlar.

(Cho'lpon)

Hasratli ko'ngil buzaturg'an bir yig'i eshitilar edi.

(Cho'lpon)

Boshqa muridlar bera olmag'an bir narsa bermakchi edi.

(Cho'lpon)

Barchin bu yerdan ko'charini bildi.

(«Alpomish» dostoni)

j) Sarfda (birinchi bosma 40–41nchi betlarda) zamonsiz fe'llardan deb ko'rsatilgan *yozg'ali, yozg'ach, yozib* shak-

lidagi fe'llar ham gapka kirgach o'zlariga tegishli to'ldirg'ichlar bilan uyushadirlar.

Bu kecha kitobimni yozib bitirgali o'tirg'an edim, kitobimni bitira olmag'ach, kayfim qochdi.

Domlamizning esi o'ziga kelgach ukazni buka boshladi.

(A. Q.)

Darchani ochib u hovliga kirdi.

(Cho'lpon)

Gapning turlari

Gap o'zining tugallik-tugalsizligi bildirgani uning shakli e'tibori bilan bir necha turli bo'ladir:

1. O'yning butun bo'laklari gapdagi so'zlardan anglashilsa, ya'ni gapdagi so'zlar o'ydag'i ma'nolarning hammasini ifoda qila olsa, shul gap «tugal gap» bo'ladir.

Mungli kecha ming dard ila o'tdi.
Har yon yugurish fursati yetdi.
O'ng, so'lni hayot to'lquni tutdi.

Botuning mana shu yuqoridag'i uch misra'idan har biri tugal bir gapdir.

2. O'yning bo'laklari bo'lg'an ma'nolarning bir-ikitasi; gapdagi so'zlardan emas, boshqa vositalar bilan anglashilsa, shuning uchun shu ma'nolarni ifoda qilg'uchi so'zlar gapda aytilmay qolsa, shunday gap «eksik gap»[15] bo'ladir.

Kel, ketma, o'tir, bordim kabi so'zlar yolg'izg'ina aytkanda eksik gap bo'ladirlar. *Ahmat keldimi?* deganda – *Keldi; Kelgan kim?* deganda – *Ahmat* so'zlari ham eksik gaplardandirlar (Bu to'g'rida 29-betka qarangiz).

3. Gapdan maqsad bir o'yni bildirmak emas, bir o'yni so'rab anglamoq esa shul gap «so'rash gapi» bo'ladir:

«Kim? nima? -mi?» so'zlari so'rash gapining bir bo'lagi bo'ladir:

Kim keldi? Nima bo'ldi? Sharif kimga bordi?
Yo'ldosh nima ko'rdi? kabi.

«Qayda? qanday? qayer? nenday? nuchuk? qalay? nechun? nega? nedan? qancha? qaysi? qayon? qayoq?» so'zlari so'rash gapining bir bo'lagi, yoki bo'laklaridan birtasining sufati bo'ladir. «Qayda? qayer? qayon? qayoq?»

so‘zlari o‘rundan, «qanday? nenday? nuchuk? qalay?» so‘zlari holdan, sufatdan; «nimadan? nedan? (yoki nima sababdan?) ne sababdan, nechun? nega?» so‘zlari sababdan; «qancha?» o‘lchovdan; «necha?» sondan; «qachon?» zamondan; «qaysi?» zotdan so‘rashqa ishlatiladir.

Yuqoridag‘i so‘zlardan boshqa, so‘rash belgisi atalg‘an «-mi?» bor. So‘rash gapining qaysi bo‘lagiga yo‘nalgan esa «-mi?» belgisi shul bo‘lakka yopishib keladir:

Karim bukun o‘z choponini bozorg‘a yubordimi?
Karim bukun o‘z choponini bozorg‘ami yubordi?
Karim bukun o‘z choponinimi bozorg‘a yubordi?
Karim bukunmi o‘z choponini bozorg‘a yubordi?
Karimmi bukun o‘z choponini bozorg‘a yubordi?

Mana shul misollarning har birida so‘rash qaysi bo‘lakka yo‘nalgan esa «-mi?»ning ham shunga qo‘shilg‘ani ko‘rinib turadir. Biroq bu juda lozim bir qoida emas: so‘rash gapining qaysi bo‘lakiga yo‘nalgan bo‘lsa-da, «-mi?» belgisini gapning oxirig‘a ketirmak mumkindir. Yuqoridag‘i misollarning hammasi o‘rnida birinchisinigina aytib qo‘yish bo‘ladir. Biroq bunday bo‘lg‘an so‘rash: gapning qaysi bo‘lakiga yo‘nalsa, shul bo‘lagining oxirig‘a tovishning qattiqroq urilib chiqishi lozimdir.

So‘rash gapi iki turli bo‘ladir: 1) chindan-da bir narsa to‘g‘risida so‘rab aytiladir: *Karim keldimi? Sharif nechun kelmaydir?* kabi. Yuqorida ko‘rsatilgan misollarning hammasi shu turli so‘rash gaplaridandir; 2) bir narsa to‘g‘risida so‘ramog‘dan maqsad shul narsani bilmak emas, shu narsadan tonib (munkir bilan) uning teskarisini aniqlamoq bo‘ladir:

Sizning shaharda maktabmi bor?

Bir narsani ko‘rmasdan qanday aytasiz? desak buning ma’nosi *Sizning shaharda, albatta maktab yo‘q. Bir narsani ko‘rmasdan, albatta aytib bermang* demakdir. Bu iki turli so‘rash gapdan birinchisiga so(d)dacha «so‘rash gapi», ikinchisiga esa «so‘rovli tonish» gapi deyiladir.

4. Gapdan maqsad bizga bir o‘yni bildirmak, bir narsadan xabar bermak esa unga «xabar gapi» deyiladir:

Navoyi yigirmadan ortiq kitob yozg‘an.

Men Navoyi kitoblarini o‘qumag‘an kabi. Xabar gapi ham iki turli bo‘ladir: aniq xabar, aniqsiz xabar. Yuqoridag‘i

misollar aniq xabardir. Aniqsiz xabarda gapka «balkim, ehtimol, ehtimolki» qaydlaridan birtasi qo'shiladir:

Balkim, Navoyi yigirma bir kitob yozg'an.
Ehtimol, men Navoyi kitoblarini o'qumag'an kabi.

Aniqsiz xabar gaplarni aniqsizliq qaydlaridan yordamchi aytmak mumkindir. Biroq bunday vaqtlarda kesim so'zining so'ng bo'g'inida tovish juda pasayib qoladir. (aniq) *Ahmat kelgandir.* (balkim) *Ahmat kelgandir.*

5[16]. Gapdan maqsad bir o'yni bildirmakgina emas, bir ishning bo'lib-bo'lmaslig'ini istamak esa unga «tilak gapi» deyiladir. Kesim so'zlari buyruq, o'tinch, qo'zg'anish fe'llari bo'lg'an gaplar «tilak gapi» bo'ladirlar.

Sinamag'an otning sirtidan o'tma.
Otang bolasi bo'lma, odam bolasi bo'l!
Shu xatni o'qub bersangiz-chi! kabi.

Shart fe'lining «umid-armon» uchun ishlatilgan shakli ham (Sarf, birinchi bosma, 35 inchi bet) gapning kesim so'zi bo'lg'anda gap «tilak gapi» bo'ladir.

Ko'ngli tilagan murodg'a yetsa kishi!

(Bobir)

Forsiycha «koshki, shoyad» so'zlari bilan boshlang'an gaplar ham «tilak gapi» bo'ladir:

Koshki menim so'zimni tinglasa.
Shoyatkim qolsangiz kabi.

6. «Esiz, afsus, oh, uq, uh, attang, hay attang» kabi hasrat-armon ko'makchilari bilan boshlang'an gaplarga «qayg'urishli gap» deyiladir:

Esizkim, sizdan ayrildiq!
Afsuskim, bu ishning chorasi qolmag'an!
Attang, nega kelmay qoldim!
Ohkim, charx jafo qildi menga! kabi.

Hasrat-armon ko'makchilari gapning bosh tomonig'a kelganda bulardan «oh, esiz, afsus»dan keyin «kim» so'zi keltiriladir. Keltirilmasa ham bo'ladir. Hasrat-armon ko'makchilari gapning bosh tomonig'a «kim»siz kelganda ulardan keyin «,» shakli qo'yiladir.

Hasrat-armon ko'makchilari gapning oxirig'a ham keladir.

Unda «kim» so‘zining keraklisi qolmaydir. Biroq bu ko‘makchilar gapning oxirig‘a kelgach, o‘zlaridan burung‘i so‘zlardan «,» shakli bilan ajraladirlar: *Kitob yozilmay qoldi, afsus!* qayg‘urishli gaplarning oxirida «!» shakli yoziladir.

7. **Kinoya gap**: «Go‘yo, emish» bilan boshlang‘an gaplarga «kinoya gap» deyiladir:

Go‘yo, biz anglamag‘an!
Emish, uning aytkani to‘g‘ri chiqqan!

Kinoya gaplardagi «go‘yo, emish»dan keyin «,» shakli qo‘yiladir, ham gapdan keyin «!» shakli bo‘ladir.

8. **Kuchaytma gap**. Gapdagi so‘zlarning birtasidan anglashilg‘an ma’nog‘a kuch bermak uchun shul so‘zning o‘zini yo shuning o‘rnida bir olmosh izini qaytarib aytkanda shul gap «kuchaytma gap» bo‘ladir. Bizda necha turli kuchaytma gap bordir.

a) asil so‘z bilan uning qaytarmasi yon-yonig‘a keladir:

Kel, kel karam ayla do‘stlarga.
Ket, ket sira men bilan gapirma.

b) qaytarma so‘zi gapning qaysi bo‘lagiga baylansa ham, o‘zi gapning oxirig‘a keladir:

Seni bu kun zindonda ko‘rarmiz, zindonda.
Bizni tunakun Karim bilan ko‘rdilar, Karim bilan.

j) gapda bir so‘zning qaytarmasi o‘zi bilan emas, olmosh bilan ham bo‘ladir. Bu ham gapning oxirida aytiladir:

Sharif juda yaxshi bola, ul.
Sen kim bilan o‘ynaysan, sen.
Men Maskovda o‘qudim, men.

Kuchaytma gapdagi qaytarmalar o‘zlaridan burung‘i so‘zdan «,» shakli bilan ajraladirlar;

d) kuchaytma etilaturg‘an so‘zning yonida «uq», «uk» so‘zini ketirmak bilan ham kuchaytma gap yasaladir.

Ko‘rgach uq ko‘zima surtib o‘pdim,
O‘pkach uq boshima qo‘yib qo‘pdim.

(Bobir)

9. **Undashli gap.** Gap kimgadir qaratib aytilgan bo‘lsa, shuning oti gapning bosh tomonida yo orasida, yo oxirida aytilsa, ana shunday gapka «undashli gap» deyiladir.

Shul otning o'zi «undash oti» bo'ladir:

Yigitlar, qo'lingizdan kelgancha bilimingizni ortdiringiz!
– Ha boy aka, Nazirdan darak bormi?!
– Bo'lib qolar, So'fi!

(Cho'lpon)

Biz borliq bag'rida, qarshi kuch, unutma!

(Botu)

Mana shul gaplardagi *yigitlar, boy aka, so'fi, qarshi kuch* so'zlari undash otlari bo'lib, shul gaplar esa undashli gaplardir.

Undash oti gapning bosh tomonida bo'lsa undan keyin, oxirida bo'lsa undan burun, gapning orasida bo'lsa iki tomonida «,» shakli yoziladir (yuqoridag'i misollarg'a qarangiz). Undashli gapning oxirida undash belgisi «!» qo'yiladir. Undashka kuch bermak, qaynab qichqirib undamakni ko'rsatmak uchun undash otidan burun «ey» so'zi, undash otidan keyin ham undash belgisi «!» qo'yiladir.

Bolaliq chog'imda
Qiblani menga yanglish ko'rsatgan
Ey azamatlar!

Undash oti, yolg'iz o'zigina emas, uzun-uzun sufatlari bilan birgalashib ham keladir:

Kechasi oysiz, kundizi kunsiz,
Yovuzliqlarg'a chidagan unsiz,
O'lkadan kelgan azamat yigit,
To'suq uchratmay tilagingg'a yet! *(Botu)*

10. **Shartli gap.** Bir gap ikiga bo'linsa, bir bo'lagiga shart fe'li qo'shilsa, shart fe'li qo'shilg'an bo'lak ikinchi bo'lakni o'zining natijasi emish kabi ko'rsatsa, shunday gapka «shartli gap» deyiladir.

Tirishsang – toparsan.
Ishlasang – tishlarsan.
Yursam – borarman kabi.

Shartli gap iki bo'lak bo'ladir. Bir bo'lakka shart fe'li qo'shiladir. Shartli gapdaki iki bo'lagi orasig'a «yarim tinish» belgisi «,» qo'yiladir.

Shartli gapning shart fe'li qo'shilg'an bo'lagi odatda

birinchi bo'lak bo'ladir. Yuqoridag'i misollarda ko'rilgani kabi. Shart fe'li qo'shilg'an bo'lakning ikinchi bo'lak bo'lishi ham mumkindir. Yuqoridag'i misollarning teskarisi aytilsa ham bo'ladir. «Shartli gap»da shart fe'li qo'shilmag'an bo'lakning shart fe'li qo'shilg'an bo'lakka chindan-da natija bo'lishi lozim emas. Natija bo'lg'ani-da bor, bo'lmag'ani-da bordir:

Uyumda(n) unga yaxshi donlar bersam, balki ul yaxshi-g'ina foyda bergay.

(Elbek)

Yig'lasa, juda qiziq bo'lar emish!

(Cho'lpon)

Ko'p silliq qilsangiz kuyov olib ketib qoladir.

(Cho'lpon)

Miyani ishlatsangiz, sira bir kimsaga zulm qilmag'an bo'lursiz.

(Saidali)

Bular kelsa uloq qizimay qolmas.

(A. Q.)

Umri boqiy bo'lsa, hech gap emas.

(A. Q.)

Mana bu ko'rganimiz gaplarda shart fe'li qo'shilg'an bo'lakka bu birtasi natija bo'lib chiqqan.

Ko'zimni ochib qarasam, orada na kishilar, na cholg'ular, na boshqalar!

(A.Q.)

Yulduzlar esa ketib mo'ldirashib boqar turar.

(Saidali)

Bo'lmasa, boshqa narsadan xafa bo'ldingizmi?
Har qancha ish qilinsa maydon ochiq.

(Julqunboy)

Bo'lmasa opang bizga aytib berar.

(Cho'lpon)

Mana bu ko'rganimiz gaplarda esa ma'nocha shartlik, natijalik shartlik yo'qdir. Shartli gapda ba'zan birinchi bo'lak; ba'zan ikinchi bo'lak aytilmay-da qoladir:

Yurabering, erisharsiz, yashay bering, tuyarsiz deganimizda birinchi bo'lak tushib qolg'andir. Asilda:

Yurabering, yursangiz erisharsiz.

Yashaybering, yashasangiz tuyarsiz demakdir.

Nima qildi? Senga gapirib bo'lmasa... bunda nima yoziq? Buning joni bo'lmasa...

(Cho'lpon)

Dinni bilmasa, boy va ulamoni yer bilan teng qilmoq istasa, mol va mulkni mushtarak deb bilsa...

(Julqunboy)

Mana bu yuqoridag'i gaplarda ikinchi bo'lak aytilmay qoladir. Bunday vaqtlarda aytilmay qolg'an ikinchi bo'lakning joyig'a ko'b nuqtalar qo'yiladir.

11. **Teskari shartli gap**. Shartli gapning shart fe'lidan keyin «da – da – ham» qo'shilsa «teskari shartli gap» bo'ladir.

Aytmasang ham bilaman.

Quvsangiz-da boraman deganimizdan anglashilg'an o'y *Aytmasang bilmayman, Quvsang bormayman* degan gaplardan anglashilg'an o'yning teskarisidir. Buning uchun u gaplarga «teskari shartli gap» dedik. Bu gapda ham iki bo'lak orasida «yarim tinish» belgisi «,» qo'yiladir.

Domullamiz bu xabarlarg'a ko'p-da ishonmasa ham, keyinrak o'ylay boshladi.

(Julqunboy)

Qancha bag'ritosh bo'lsang-da, shu holda kulmaging yarashmaydir.

(Saidali)

Qancha siqib quritmoqchi bo'lsoq-da, ho'l tub chiqmaydir.

(Cho'lpon)

O'zim uzoqlashg'an bo'lsam-da, ko'nglim shunda.

(V. M.)

«Teskari shartli gap»da «ham – da – da»dan keyin «biroq, lekin» so'zlari keltirmak mumkindir. Yuqoridag'i misollarning har birtasini «biroq, lekin» bilan aytmak bo'ladir.

Kirish so‘z

Gap orasida shul gapning bo‘laklari bilan «nahvi(y)» bir munosabati bo‘lmag‘an bir so‘z yo bir gap kirgiziladir. Mana shul yot bo‘lib kirgan so‘z yo gapka «kirish so‘z» deyiladir. «Kirish so‘z» arablarning «mu’tariza»[17], ruslarning «vvodnoye slovo» degan so‘zlariga to‘g‘ri keladi:

Bizning maktabda, Karimning aytkaniga ko‘ra, bu kun dars bo‘lmaydir, dars bo‘lmag‘ach, tabiiy, bizning borishimiz ham kerak emas deganimizda *Karimning aytkaniga ko‘ra* ham *tabiiy* so‘zlari kirish so‘z bo‘ladir. Bularning «kirish so‘z» ekanliklarini shundan bilamizkim: bularni gapdan chiqarib qo‘yg‘anda gapdan anglashilg‘uvchi o‘yg‘a sira zarar bo‘lmaydir.

Kirish so‘zlar, yuqoridag‘i misollarda ko‘rganimiz kabi gapning borishig‘a zarar bermayturg‘an bo‘lsalar iki tomonlarida iki «,» shakli qo‘yiladir. Gapning borishig‘a zarar beraturg‘an bo‘lsalar iki tomonlaridan iki yoy yo iki chiziq qo‘yiladir:

Qo‘zg‘ol, ortiq yetar, ey qayg‘uli ohlar chekan.

(Elbek)

Yigirma besh — o‘ttiz yilni madrasa tuprog‘i yalab o‘tkazgan bir kishini, tabiiy, ulamo qatorig‘a kirgizmay hol yo‘q.

(Julqunboy)

O‘zimizning yaqin qironlardan, masalan, Xitoy, Turkiya to‘g‘risida yetti yoshliq chog‘idan beri ma’lumoti bor.

(Julqunboy)

Mana shul yuqoridag‘i gaplarda *ortiq yetar, tabiiy, masalan* so‘zlari kirish so‘zlaridir.

Boshlang‘ich tarbiyasining buzuqlig‘i, ma’lumotining cheklanganligi (to‘g‘risi, juda ozlig‘i) ota-onadan o‘ksuz bo‘lib bilimsiz bir og‘asining qo‘lida qolg‘ani...

(Mirmulla)

Samarkentni olmoqqa qo‘shun tortqanda yo‘l o‘rtasida — Nil daryosimi, Jayhunmi degan bir daryoga to‘g‘ri kelar ekan.

(Julqunboy)

Mana bu gaplarda yoylar, chiziqlar orasida yozilg‘an so‘zlar kirish so‘zlaridir.

Uyushqon gaplar

Bir necha gap ma'no jihatidan bir-biriga baylangan bo'ladir:

Ota ko'ngli bolada; bola ko'ngli dalada.
Mulla bilganin o'qur; tovuq ko'rganin cho'qur.
Ularga yordam kerak; Alamlar bilan to'lg'an yuraklarga tasalli kerak kabi.

Yo bir necha gapning egalari bir bo'ladir:

Chol demadilar; kampir demadilar; chaqaloq bola demadilar; butun bir qishloqni tekis qilib tashladilar kabi.

Yo ikinchi gap birinchi gapning sababi, dalili bo'ladir:

Bu kun yog'mur bor; men ko'chaga chiqolmadim.
Bu kitobning yozilari ketkan; hech o'quyolmadim kabi.

Yo bir gapdan anglashilg'an o'yning ostidan ba'zi narsalarni chiqarmoq kerak bo'ladir:

Hammalari keldilar; biroq Karim kelmadi.
Men har kun kelardim; lekin shu kun kelmadim kabi.

Mana shul gaplarning hammasiga uyushqon gaplar deyiladir. Bularning orasida «bir tinish» belgisi (;) qo'yiladir. Bu gaplar orasida «bir tinish» belgisi qo'ymoq yozg'uvchining ixtiyoridadir. Istasa «bir tinish» belgisi joyig'a nuqta ham qo'ya oladir.

Turish belgilari

Kitobning boshida turish belgilari ko'rsatilgan edi. Kitob orasida o'rni kelganda har birining qo'yilish joylari ham bildirildi. Endi yana bir yo'li yozib misollari bilan ko'rsataylik:

1. (.) **nuqta** – to'qtash belgisidir. Gaplarning oxirlarig'a qo'yiladir. To'qtash belgisi qaysi gapning oxirig'a kelsa, shul gapda o'yning tamom bo'lg'anini, o'zidan keyingi gap bilan hech baylanishi qolmag'anini bildiradir. Shuning uchun bunga kelgach o'quvchining to'qtashi, undan keyingi gapni yangidan boshlashi lozimdir.

Uyqusi o'chib ketkanligidan endi ko'ziga uyqu kelmay o'z boshig'a, o'z davriga munosib bo'lg'an xayollar ichiga ko'mildi.

(Cho'lpon)

Tong chog'i; hali quyosh chiqmag'an; oy yerga qarab hanuz to'ymag'an, qushlar va qurtlar hamda odamlar kunduz hayotin kutib yotalar.

(Elbek)

2. (;) **bir tinish belgisidir.** Bir-birlariga baylanishli bo'lg'anlari uchun nuqta bilan ajralishlari istanilmagan gaplar orasig'a qo'yiladir:

Ota ko'ngli bolada; bola ko'ngli dalada.
Mulla bilganin o'qur; tovuq ko'rganin cho'qur.
Yaxshi otg'a bir qamchi; yomon otg'a ming qamchi.

(El so'zlari)

Chol demadilar; kampir demadilar; chaqaloq bola demadilar; butun bir qishloqni tekis qilib tashladilar. Ularga yordam kerak; alamlar bilan to'lg'an yuraklarga tasalli kerak.

(«Qizil O'zbekiston»dan)

3. (,) **yarim tinish belgisidir.** Gapning qaysi bo'lagi birdan ortiq bo'lsa, gapning uyushqon bo'laklaridan birtasi juda uzun bo'lsa, gap orasida «kirish so'z» bo'lsa, gapda undash so'zi bo'lsa, mana shularni boshqalaridan ajratmoq uchun «,» belgisi qo'yiladir, bunga kelgach o'quchining yarim nafas olg'ancha turib o'tishi lozim:

Qop-qora tuban tim-tin yerlarni
Qo'ydi-da, oldin ko'klarga oshdi. *(Elbek)*

Otajon, men kechalari uy poylash uchun kelin bo'lib keldimmi?

(Cho'lpon)

O'ng, so'l uni tepkan, uni urg'an,
Inson-da yotib uyqug'a toldi.
So'lg'un, qora, turg'un dema ko'rdim,
Mungli kechaning mungli chog'inda...

(Fitrat)

4. (?) **so'rash belgisidir.** So'rash gaplaridan keyin qo'yiladir:

Ona uchun bu ish mumkinmi? Sen bularning holini bilmaysanmi? O'z quchog'ingdag'i hollardan xabarsizmisan?

(Saidali)

5. (!) **undash belgisidir.** Undashli gaplardan keyin qo'yiladir:

Sharif, sen kel! Karim, sen ket!

Qayg'uli gaplardan keyin qo'yiladir:

Esiz, seni ko'rmadim!

Xotin ko'zini ochqach bolasining o'lim bilan tortishib yotqonini ko'rdi!

Hayronliq bildirgan gaplardan keyin ham qo'yiladir:

Voy, Sharifjon kelibdir!
Bu juda qiziq bir ish!

Karim ota, otasi ko'rmak uchun quvonib uyga keldi; eshikni ochib qarasa, uyda hech kim yo'q!

«So'rashli gap» qizg'inliq yo hayronliq bilan aytilsa so'rash belgisidan keyin yana undash belgisi qo'yiladir:

Nechun meni o'ldiralar?! Menim gunohim nima?!

6[18]. (:) **qo'sh nuqta.** Bu sharh, izoh belgisidir. Undan keyin kelaturg'an gap bundan burung'i gapning izoh ham sharhi bo'ladir:

Bu kun uch kishi bilan ko'rishdim: Sharif, Karim, Ahmat.

7. («») **tirnoqlar.** Bir yozg'uchi tomonidan muhim sanalsa, yozg'uchi o'z-o'zlari orasida boshqa bir kishining so'zlarini hikoya qilsa, anglashilishi yengil bo'lmag'an otlar, atamalar bo'lsa, shular tirnoqlar ichra olinadir:

«Samarkent»ni olmoqqa qo'shin tortqanda yo'l o'rtasida Nil daryosimi, Jayhunmi degan bir daryoga to'g'ri kelar ekan.

Mudarrislikka «ukaz» berilgach oq podshohning yashamog'ig'a qo'l ko'tarib...

Podshohliq «nisf[19] nubuvvat» deganlar; koflr bo'lsa ham «nubuvvat», ya'ni payg'ambarlikning yarim kuchi bor...

Orada urush boshlanib Turkistonda «rabo'chi» mas'alasi qo'zg'alg'anda «podshohning amri vojib; ma'noyi vojib farzligida ozg'ina shubha bor; ma'noyi farz amri ilohiy»[20] deb elni shov-shuvliqdan to'qtatmoqqa tirishar edi.

(A. Q.)

8. () **yoylar.** «Kirish so'z»larning hammasi yoylar orasida yoziladir. Kirish so'zlarning iki tomonida, iki yoy o'rnida ikki «,» belgisi qo'ymoq ham bo'ladir:

Bu zot Amrika, Olmoniyo (Girmaniya), Angliya, Yapo'niya, Fransiya, Bilgiya va shuning kabi har davlatlarni yodlab bilar edi.
(A. Q.)

Bizda o'zlarini ulamo atag'anlar (Bizda haqiqiy ulamo yo'qdir) butun taraqqiy ishlariga qarshi turdilar.

Kirish so'zlarining iki tomonida, yoylar joyig'a chiziqlar qo'yilsa-da bo'ladir:

Bu kichkina, o'ksuz, oppoq bilaklar –
Ucha, ucha yetmay qolg'an tilaklar –
Eskan yelning qo'llarig'a o'zini
Tashlab qo'yar borlig'ini unitar. *(Fitrat)*

9. (–) **chiziq.** Iki-uch kishining bir-biriga gapirishlarini yozg'anda har birining gapidan burun chiziq yoziladir:

Yana xalq churillashib ketdi:
– Barakalla taqsir, barakalla!
– Bo'sh kelmadilar taqsirim!
– Hali bellari baquvvat ekan taqsirimning!
(Cho'lpon)

Yaxshi-yomon, kata-kichik, bola-chaqa, qo'zi-echki kabi bir-biriga qarshi bo'lg'an yo bir turli munosabati bo'lg'an so'zlar orasig'a chiziq qo'yiladir.

10. (...) **nuqtalar.** Gapning bir bo'lagi qanday bir sabab bilan aytilmay qolsa uning joyig'a nuqtalar qo'yiladir:

Bosqon izin ko'rmay o'tkan tuyoqlar
Toptab-toptab... Oh, aytolmam ketini! *(Fitrat)*

Bir gapni bitirgan so'ng yana mavzu'da davom etmakning kerakligi sezilib turg'anda so'z kesilib qolsa, yana nuqtalar qo'yiladir.

Qani otajonima? – dedi va «gup» etib abrizg'a yiqildi...
(Cho'lpon)

Qisqa gaplarni qizib, qaynab aytganda ham oralarig'a nuqtalar qo'yiladir:

Toshaman... toshaman... ketaman...
Tez kunda tilagim yurtig'a yetaman...
(Botu)

Bitdi

*OILA YOKI OILA BOSHQARISH TARTIBLARI**

MUALLIFDAN

Bismillohir rahmonir rohiym

Odamlarning madaniy toifa ekanliklari, ya'ni tabiat hukmi ila bir qabila yoki bir qavm suvratida jam bo'lib, bir-birlariga yordam berib yashashlari ma'lum. Kimki ana shu tabiat qonunining doirasidan chiqsa, ya'ni jamiyatdan chetlashsa, shubhasiz, mahv va nobud bo'lg'ay. Tarixchi olimlarning fikriga qaraganda, odamlar xalq bo'lishlaridan oldin jamoa bo'lib yashash zarur ekanligini bilmaganlar. Binobarin, vahshiy hayvonlarga o'xshab yolg'iz, yakka-yakka bo'lib yashaganlar. Shu bois ular tabiiy mushkulotlar ostida azob chekib, hayvonlar hujumlaridan halok bo'lganlar. Vaqt o'tishi bilan odamlar jamoa bo'lib yashash lozimligini tushundilar. Ularning birinchi jamoalari «oila», ya'ni «ahli bayt» bo'lgan. Ahli bayt jamoalari asta-sekin rivojlanib qavm va qabila jamoasiga aylangan.

Bu muqaddimadan ma'no shuki, oilaning shakllanishi, ya'ni ahli bayt jamoasi, boshqacha aytganda oila boshqarishga asos solish bani Odam madaniyatining asosi ekan.

Bizga ma'lumki, odamlar qayerda qavm yoki qabila bo'lib yashasalar, tinchliklarini saqlash uchun va bir-birlarining huquqlarini muhofaza qilish uchun bir nizom (tartib) va qonun joriy etib, shu qonunlar asosida baxt va saodatga erishganlar. Aks holda o'rtalarida tartibsizlik ro'y bergan zahoti nizom-u qoida yo'qolib, darhol nobud bo'ladilar yoki e'tiborsiz va xor bo'ladilar. Aslida bu tabiiy va zarur bir hodisadir, chunki odam tabiatan manfaatparast va g'arazli bo'ladi. Bir nechta odam jam bo'lib qolsa, har biri o'z manfaatlariga asir bo'lib, boshqalarning huquqiga tajovuz qilib uni poymol qilmoqchi bo'ladi. Buning natijasi notinchlik va intizomsizlik bo'lib, oqibati yana o'sha nest-nobudlikdir.

* Tarjimon va izohlar muallifi tarix fanlari doktori **Sh. Vohidov.** Nashrga tayyorlashda **X. Rashidova** va **G. Muzaffar** qizi ishtirok etdi.

Albatta, bu tajovuz va bosqinchilikning oldini olish uchun qonun lozim.

Ushbu risolaning asosiy mavzuyi «oila»dir. Oila er-xotin va farzandlardan iborat. Boshqacha qilib aytganda, oila bir shaxs boshchiligida bir uyda yashovchilardir. Shu ta'riflardan ma'lum bo'ladiki, oila ham bir necha odamlardan iborat bo'lgan jamoa ekan. Ularning har biri insonga xos narsaga, ya'ni o'z manfaatlariga asir bo'ladi. Biri ikkinchisining huquqini tasarruf qilib bosib olishi mumkin. Ana shu tajovuz oldini olish uchun oila a'zolari o'rtasida ham bir qonun lozim. O'tgan olimlar-u hakimlar shu masalada sa'y-harakat qilib qonunlar ishlab chiqqanlarkim, ularning umumiy hay'atini «manzil tadbiri» (ro'zg'or tebratish tadbiri) deb ataydilar.

Dunyoda izzat va saodat tolibi bo'lmagan birorta qavm yo'q. Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizom va tartibga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarini zaiflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'l qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi. Hozirgi Farang (Ovro'po) olimlari ham o'z xalqlari intizomi va oilalarining rohati uchun harakat qilib yuzlab kitoblarni yozib nashr qilmoqdalar. Imonim komilki, oila saodati va baxti uchun qabul qilingan eng maqbul qonun islomiy qonunlar bo'ladi. Lekin olamda eng badbaxt oilalar ham biz musulmonlarning o'rtasida bo'ladi, chunki biz ilohiy qonunlarning birontasiga rioya qilmaymiz. Baxtsizligimizning sababi oiladorlik xususidagi har bir harakatimiz, sarob orzularimiz va xato fikrlarimizning natijasi bo'lib, aksariyati Qur'on hukmlariga ziddir. Shuning uchun zulm va tajovuz ko'rmagan oilalar bizda nihoyatda kam ko'rinadi. Hozirda taraqqiy etayotgan islomiy o'lkalarda turk, arab, fors olimlari o'z millatlarining kimligini anglab yetib, oila nizomi va tinchligi haqida ancha kitob yozdilar. Bu kitoblarda ular diniy va dunyoviy hukmlarga tayanib oilaviy masalalarga izoh berganlar. Lekin turkistonliklar, xususan, biz buxoroliklar, bu ne'matdan mahrum bo'ldik. Yaqinda muhtaram do'stim va hamfikrim Abdulvohid Afandi Munzim[1] (hamisha

buxoroliklar saodatlari fikrida yuradilar) menga oila boshqarish bobida bir kitob yozishni ishorat qildi.

Baski, do'stimning niyati xolis va maqsadi oliy ekan, men inkor qilolmay shu risolani tuzdim. Mening niyatim bu risolani millatimiz tili, ya'ni turkiy chig'atoyida yozish bo'lsa ham, ammo muhtaram do'stimning istagini inobatga oldim.

Alloh taolo amiri oliy Sayid Mir Olimxon izzat-u iqboli, adli va tavfiqini ziyoda etsin, chunki risola ularning davrlarida yozildi. Alloh taolo Buxoro aholisini ularning marhamatlari va adolatlari soyasida baxtiyor etsin.

BIRINCHI QISM

UYLANISH VA UYLANMASLIK XUSUSIDA

Ba'zi odamlar o'ylaydilarki, uylanish va farzand orttirish kishini Haq xizmatidan va Allohga yaqin bo'lishdan chetlashtiradi. Binobarin, uylanmaslik inson kamoloti jumlasidandir. Oldingi dinlarning tobelari orasida tarkidunyo qilib, xotin va farzand orzusidan ko'z yumgan odamlar ham mavjud bo'lgan. Lekin bu fikr tabiat qonuniga zidligidan rivojlanmadi va hayotda o'z tatbiqini topmadi. Men bu jamoa fikrini inkor etish xayolida emasman, ammo ko'pchilik bu jamoa fikrlarini, ya'ni tarkidunyochilikni islom hukmlariga muvofiq deb biladilar.

Ana shu xato va shubhalar xatarini millat boshiga tushmasligi uchun izdivoj (uylanish) foydalarini tushuntirib, shu masalaga oid nozil bo'lgan oyatlar va aytilgan hadislarni bu risola o'quvchilariga bayon etaman. Birinchidan, shuni bilish lozimki, odamda ikki xil mavjudlik bor. Biri shaxsiy borlig', ikkinchisi ijtimoiy mavjudlik. Odamning shaxsiy mavjudligi falon va pismadon (narsa)ning muayyan vaqtda mavjudligiga o'xshaydi va bayon etishga ham arzimaydi. Ammo odamning ijtimoiy borlig'i insoniyat borlig'ini tashkil qiladi, dunyo oxirigacha boqiy va ahamiyati ham kattadir. Hazrati hakimi mutlaq – Alloh taolo bani Odam borlig'ining ana shu ikkala jihatini saqlashi uchun ba'zi bir sabablarni tayin qilgan. Masalan, yeyish, ichish, uxlash, nafas olish odamlarning shaxsan mavjudliklarini ta'minlash uchun sabab qilgan, ya'ni odamlarning har biri shu bilan tirikdir. Yuqorida-

gilarning birontasini tark etsa, o'lishi aniq. Lekin odam o'rtasida jinsiy munosabat bani Odamning ijtimoiy borlig'ini ta'minlaydigan sababdir. Agar u tamoman dunyodan ko'tarilsa, bashariyat inqirozga duch kelishi aniq.

Odamlarga shu ham ma'lumki, uylanishning ko'p qiyinchiliklari va zahmatlari bor. Odamlarning tabiatiga esa rohat yoqadi. Agar odamning ixtiyori o'z qo'lida bo'lsa edi, bo'ydoqlik rohati va ozodligini uylanish azobi va mehnatiga aslo qurbon qilmasdi. Binobarin, hazrati hakimi Qodir erkag-u ayol mijoziga shahvatni qo'shib bergan. Ular shahvat taqozosi bilan birga bo'lishni istab uylanadilar. Oqibatda farzand sohibi bo'ladilar. Ana shunday sabablarga ko'ra, bashariyat nasli Iloh irodasi bilan oxiratgacha boqiy qoladi.

Faraz qilaylik, siz yeringizni biron-bir dehqonga berdingiz. Ish asbob-anjomlarini ham berib bug'doy ekishni buyurasiz. Agarda o'sha dehqon yerni olib, ekish asboblarini ham egallab o'z uyida bemalol o'tirsa, bug'doy ekmasa, bir yil yeringizni o'z holiga tashlasa, uning bu harakatini siz xiyonatdan boshqa narsa deb bilmaysiz, albatta. Uylanmaydigan odam ham jinsiy aloqa uchun berilgan kuch-quvvatidan foydalanmasa yoki Lut qavmining amalini qilsa[2], nafsini o'zi qondirsa[3], bilib qo'ysinki, Alloh qonuniga xiyonat qilibdi.

«Xotinlaringiz sizlarning ekinzor yerlaringiz bo'ladi. Ziroat yerlari urug' sepganda samara beradi. Xotin ham ekinzordir va hosili – farzand. Bas o'z xotinlaringiz bilan farzand niyatida aloqa qiling va kelajakda o'zlaringiz uchun farzand tarbiyalang. Xudodan qo'rqing, uning nazariga ilinmangiz. Bas, tug'ilish va visol uchun bergan quvvatni bekor qoldirmang va zoye qilmang. Ey, Muhammad saodat mujdasini (ham xabarini) iymonlilarga bergin»[4].

Anas raziyallohu anhudan[5] shunday hadis bor: «Nabiy (s. a. v.) dedilar: «Xudo haqqi men sizlardan ham ko'proq parhezkor va Xudodan qo'rqadigan odamman, lekin ro'za tutaman, iftor qilaman, namoz o'qiyman, uxlayman va uylanaman. Kim bu sunnatdan yuz o'girsa, u mening ummatim emas».

Abu Hurayra (r. a.)dan[6]:

«Nabiy (s. a. v.) dedilar: «Sizlarning eng yomonlaringiz xotin olmagan kishidir».

Shunday qilib Payg'ambar hazratlari shu sharif hadis-

lari bilan xotin olmaganlar haqida shunday qattiq hukm chiqarganliklarining sababi ularning ilohiy qonunlarga qarshi ish tutganlaridandir.

Ikkinchidan, oldinroq aytgan edikki, hazrati hakimi Qodir uylanish mehnatidan qochib izdivojini tark etmasliklari uchun odamlarga shahvatni berib, ularning mijozlariga uni singdirgan, toki shahvat talabi bilan ular bir-birlarini xohlab uylansinlar. Majburan uylanmaganlar, albatta, shahvat talablarini daf qilolmay quyidagi uchta yomon amalga giriftor bo'lishlari mumkin: zino[7], Lut qavmi amali, shahvatini o'z-o'zi qondirishi. Zino avlodni yo'q qiladi. Chunki ayol qornida paydo bo'lgan bola otasiz va murabbiysiz qolib nobud bo'ladi. Lut qavmining amali va shahvatini o'z-o'zi qondirishi – bu urug'ni yo'q qilish demakdir. Zero, shu ikkala hayosiz amal natijasida farzand urug'i o'z joyi va maqomiga tushmay behuda sarf bo'ladi. Shu ikkala amal ham ilohiy qonunlarga qarshi va tabiat taqozolariga ziddir. Hatto, biror hayvon bu amallarni qilmaydi. Alloh saqlasin, bu johillar qanday pasttabiat odamlarki, hayvon ibo qiladigan ishlarni qiladilar. Bunday tashqari zino, Lut qavmi amali, shahvatni o'zi qondirishi ilojsiz kasalliklarga mubtalo qiladi. Bu kasalliklarning aksari yuqumlidir. Qaysi millatning a'zolari ana shu uchta baloga chalingan bo'lsa, erta yo kech nest-nobud bo'lishi muqarrardir.

Faraz qildikki, shu marazlardan birontasiga odam giriftor bo'lmadi, ya'ni o'zining shahvoniy kuchini saqlab, uylanmasdan taqvo yo'lini mahkam tutib, hech qanday fahsh ishlarga mayl qilmadi. Lekin bilib qo'yinglarki, tabiat bunday odamlarni aqliy va jismoniy marazlarga chalintiradi. Masalan, soatda sakkiz yoki o'nta charx bor. Soat ustasi shu charxlarning har birini biror xizmatni bajarish uchun yasagan. Agar birorta charxni o'z vazifasini bajarishidan to'xtatsangiz soatning buzilishiga shubha qolmaydi. Yaratuvchi Alloh odam jismini ham bir mashinaga o'xshatib yasagan. Uning har bir uzvi va a'zosi biror vazifa va xizmatni bajarishi uchun yaratilgan. Masalan, ana shu urug' ota kamarida paydo bo'lib, hozir bo'lishi uchun, u yerdan ona qorniga o'tib o'sishi uchun erkak va ayol jismlarida qancha a'zolarni yaratgan. Bas, kimki, shu asboblarni o'z vazifasini bajarishdan to'x-

tatsa, uning tanasi ham o'sha soatga o'xshab vayron bo'ladi va ishdan chiqadi, ya'ni kasal bo'ladi. Bu masala ayollarda ko'proq ma'lumdir. Erga tegishdan voz kechgan ayollar savdoyilik va bachadon kasalliklariga mubtalo bo'ladilar.

Bandaning so'zlaridan ma'lum bo'ldikim, bu balolarning oldini olish uchun faqat uylanish lozim ekan. Quyida keladigan oyati karima va bir hadisi sharif shu ma'noning dalilidir: «... ya'ni Alloh taolo qodirdir, siz erkaklarni bir jinsdan yaratdi va ayollarni ham shunday jinsdan xalq qildi, toki erkak ayol bilan birga tinch bo'lsinlar».

Abdullo ibn Mas'ud[8] rivoyat qiladi:

«Nabiy (s. a. v.) marhamat qildilar: «Ey yoshlar, har birlaring nikohga kuchlaringiz yetsa uylaninglar, zero uylanish erkakni fahsh ishlardan saqlaydi va kimni nikohga kuchi yetmasa, u ro'za tutmog'i darkor, chunki ro'za shahvatni fahshga yaqinlashtirmaydi».

Uchinchidan, har qanday qavm va millat qayerda bo'lmasin jon-u dili bilan saodat talab bo'ladilar. Bunga hech shak-shubha yo'qdir. Ular doim shon-shavkatlari, e'tibor va izzatlarining ziyoda bo'lishini orzu qiladilar, kecha-yu kunduz shu maqsad sari intiladilar. Albatta, biz musulmonlarda ham shunday bo'lishi shart. Xususan, biz musulmonlarga Xudo buyuradi: «Alloh va Rasuli (s. a. v.)dan keyin izzatga loyiq faqat mo'minlar bo'ladilar».

Qaysi millatning umumiy sa'y-harakati va amali ko'p bo'lsa, kuch-qudrati va izzati ham shuncha salmoqli va buyuk bo'ladi. Masalan, belgiyaliklar va inglizlarni olamiz. Har ikkala millat a'zolari ishchan va harakatchandir. Lekin ko'z oldimizga ularni keltirib muhokama qilsak, ko'ramizki, ingliz millati Belgiya xalqidan yuz barobar ko'proq kuch va shavkat-u e'tiborga egadir. Qizig'i shundaki, ingliz va belgiyalik millatlari o'rtasida ilm-u amal va sa'y-harakatda farq yo'q. Unda shavkat-u shon va izzat bobida shuncha farq qayerdan? Bu savolning javobini har ikkala millatning umumiy sonidan topsa bo'ladi, ya'ni ingliz millatining aholisi 44 mln va belgiyaliklar esa 7,5 mlnga yetadi. Shuning uchun ham ingliz millatining umumiy sa'y-harakati va amali belgiyaliklarning sa'y-harakatlaridan bir necha marotaba unumlidir. Ingliz millatining kuchi va izzat-e'tibori ham ana shu sa'y va

amallarning natijasidir. Shundan kelib chiqib Ovro'po hukmdorlari o'z millatlarining sonini ko'paytirishga harakat qiladilar. Ovro'po olimi o'z xalqining nufuziga putur yetsa: «Ey! Mamlakatimizning sharafi va e'tibori qolmayapti. Millatimiz nest-nobud bo'ladi. Sharafimizni, vatan va millatimizni himoya qilish uchun arzanda farzand yetishtiringlar», – deya dod soladi.

Fransiyaning Pol Demar[9] degan olimi fransuz aholisining oxirgi yuz yil davomidagi sonini tadqiq qilib hisoblabdi. Uning xulosasiga ko'ra, faqat oxirgi ellik yil mobaynida fransuz millatining soni ingliz va olmon aholisidan oshmabdi. Pol Demar yozadiki, XIX asrning boshlarida, ya'ni 1810-yili Fransiya aholisi 28 mln, Angliya aholisi 10 mln, Olmon aholisining soni 18 mln edi. Bugunga kelib Olmon aholisi 59 mlnga, Angliya aholisi 62 mlnga yetibdi, ammo Fransiya aholisi 39 mlnga yetibdi, xolos. Ya'ni, 80 yoki 90 yil davomida olmonliklar 41 mln, inglizlar 52 mln, biroq Fransiya aholisi 11 mln oshibdi. Pol Demar bu hisobni ko'rib: «Agar ahvol shunday davom etaversa, nafaqat biz vatan muhofazasidan, balki hayot orzusida ham mahrum bo'lamiz, – deya qayg'uradi. – Bugun biz fransuzlarning mamlakati va millati jar labiga kelib qolgan. Bu chuqurga tushib ketishimizga oz qolibdi. Lekin hali ham kech emas, millat va vatanni bu halokatdan qutqarish uchun himmatimiz va sa'y-harakatimiz kerak». Ovro'po olimlari millatlarining kamayishidan shu darajada qo'rqadilar.

Olamning eng buyuk oqillaridan hazrati Payg'ambar uylanishni sunnat deb bilib, bizni shunga tashviq va targ'ib etganlar.

Said Abu Hilol[10] (r. a.) rivoyat qilishlaricha: «Nabiy (s. a. v.): «Uylaninglar va o'z nufuzlaringizni ziyoda qilinglarkim, qiyomat kuni men sizlarning ko'pligingiz bilan faxrlanaman», – deganlar.

Ayoz ibn G'anim[11] dan: «Payg'ambar (s. a. v.) dedilar: «Tug'maydigan qari ayollarga uylanmang. Qiyomat kuni men boshqa ummatlarga nisbatan sizlarning ko'pligingiz bilan faxr qilaman».

To'rtinchidan, dunyo hamma uchun bir umumiy sinov

maydonidir. Odam ota-ona tarbiyasi doirasidan chiqar ekan, hayotini davom ettirib, izzat va sharafga ega bo'lish uchun majburan shu maydonga kiradi, sa'y-harakat qiladi, yo o'z maqsadiga erishadi, yoki sharafsiz va xor bo'lib qoladi. Qaysi millatning namoyandalari sa'y-harakat egasi bo'lsalar, qo'l-oyog'i kuchli va chaqqon, hamma a'zolari sog' va faol, izzat va e'tibor sohibi bo'ladilar. Qaysi qavmning namoyandalari harakat va intilishdan mahrum bo'lsa, qo'l-oyog'i dardmand kishiga o'xshab zaif va nozik bo'ladi. Uylanish sunnatini qabul qilgan kishi xotin va bola-chaqasini tarbiyalab, boqish uchun o'zini kasb-korga uradi, harakat va amal yo'liga qadam qo'yadi. O'zini va oilasining tinchligi va farovonligini ta'minlash uchun harakat qiladi. Shu yo'l bilan mo'min odam o'zini xorlik va pastlik jarligidan qutqaradi. Qaysi millatning namoyandalari shu yo'l bilan tinchlik va totuvlikka erishgan bo'lsalar, o'sha millat hurmat va xotirjamlikda bo'ladi.

Beshinchidan, erkak hamisha tirikchilik bilan banddir. U o'z holiga qarab harakat qiladi va aksar vaqt, hayot qiyinchiliklaridan qayg'urib tushkunlikka tushadi. Agarda uylangan bo'lsa, kechasi uyiga kelib umr yo'ldoshi bo'lmish xotini va turmush samarasi bo'lgan farzandlari bilan uchrashadi, suhbat qiladi va har qanday kulfat va kundalik tashvishlarini unutadi. Shuning uchun ham Xudovandi karim xotin va farzandlarni o'zining ne'matlari qatoridan biladi: «Alloh sizlar uchun o'z jinslaringizdan juftlaringizni yaratdi va ulardan sizlarga farzand ato qildikim, ular sizlarga madadkordirlar va sizlarga pok va yaxshi rizq berdi. Bas, sizlar ilohiy ne'matlarga kufr keltirib, yolg'onga imon keltirasizmi?»

Abdulloh ibn Amru[12] hazratlarida shunday hadis bor: «Nabiy (s. a. v.) dedilar: «Dunyo manfaatdir (ya'ni dunyodagi har bir narsaning bir nafi bordir) va dunyoning eng yaxshi manfaati (ne'mati) bu yaxshilik qiladigan va soliha ayoldir».

Xulosa shulkim, uylanish odamlarning zaruriy va tabiiy amridir va unda ko'p axloqiy, xususiy va umumiy foydalar bor. Lekin biz uchun shu kifoya. Demak, uylanish zarur ekanini shu muqaddimadan angladik.

NECHTA XOTINGA UYLANISH MUMKIN?

Albatta, ba'zi hurmatli o'quvchilarimiz darrov bittadan to'rttagacha xotin olish shariat bo'yicha joyiz deb javob beradilar. Biroz sabr qilinglar, deyman ularga. Bu savolning javobi unchalik ham oson emas.

Yuqorida zikr etgan edimki, odamlar avval oila shaklida jam bo'ladilar va bir necha oiladan bir qavm paydo bo'ladi. Ma'lumki, bir qavmning har bir oilasi saodatli va baxtli bo'lmasalar, o'sha qavmni baxtiyor va baxtli deyish xatodir. Hamda oila a'zosidan birortasi baxtli bo'lmasa, o'sha oilani baxtiyor deyish ham noto'g'ri bo'ladi. Modomiki, qavm oilalardan va oila alohida odamlardan tarkib topgan ekan, «ozdan ko'pga» degandek aytish mumkinki, har qavmning saodati shu qavm oilalarining baxtiyorligidan va har bir oilaning saodati shu oila a'zolarining baxtiyorligi va baxtliligi bilan bog'liq.

Necha ayolga uylanish masalasini shu nuqtayi nazardan muhokama qilamiz. Bir necha xotinga uylanish oilalarni baxtli qiladimi yoki baxtsiz? Shu oila a'zolariga shodonlik keltiradimi yoki baxtsizlik? Agarda biz o'lkamizdagi ikki xotinlik kishilarning umumiy ahvolini ko'zimiz oldiga keltirsak, osonlik bilan hukm chiqaramizki, ko'p xotinlilik naqadar jabr va zulm, zulm-u jafo esa badbaxtlik va achchiq hayotning sababi ekan. Baxtsizlik va og'ir hayotga olib keltiradigan ishni hech qachon qilish kerak emas.

Ko'p xotinlilik fikriga oid bo'lgan masalani ikki muqaddimada sharhlab bermoqchiman. Avval siz falon qizni nikohingizga olasiz. Ya'ni ul bechoraga saodat va baxtiyorlik va'da qilib hayotining boyligi, ya'ni yoshligini o'z tasarrufingizga olasiz. Ikki-uch yil yaxshi yashaysiz. Uylanishdan maqsad bo'lgan ikki-uch farzand vujudga keladi. Ayolning tarovati va yoshligi sizning muhabbatingiz va mehringiz yo'lida sarf bo'lgandan so'ng sizning hayvonlik shahvatingiz uyg'onib harakatga keladi. Nafsingiz orom topishi uchun u xotin sizga kifoya qilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, saodat va baxtiyorlik umidi bilan yoshlik ayyomini sizning orzu-havaslaringizni ado qilib, ikki-uch farzand ko'rgan xotinni qo'yib yuborib, «so'fi» nomini olib yangi xotin olasiz. Bu va'daga xiloflik va xiyonatdir.

Yangi xotinga butunlay berilib ketasiz, birinchi xotinni va hayotingiz mevalari bo'lgan farzandlaringizni shuuringizdan chetlashtirasiz. Tabiiyki, o'sha xotin farzandlari bilan birga sizga bo'lgan muhabbatini yo'qotadi. Sizdan va yangi xotiningizdan nafratlanadi. Vaqt o'tishi bilan yangi xotindan ham bir-ikki farzand tug'ilgach, bu o'zaro nafrat yanada kuchayadi. Vaholanki, koinotda qaysi ikkita jins birga bo'lsa, muhabbat natijasi ekanligi ma'lum. Shunday ekan, oila a'zolari orasida muhabbat ko'tarilsa, vayronlik, tarqoqlik va intizomsizlik kelib chiqadi. Shuning uchun ham birinchi va ikkinchi xotin va ularning bolalari o'rtasida kun sayin nafrat oshib boradi, yoqalashish yuzaga keladi, siz baxtsiz va farzandlaringiz xulqi yomon bo'ladi. Siz har kuni tirikchilik yuzasidan ko'chaga chiqib ketasiz va kechgacha harakatda bo'lasiz. Kechqurun dam olish umidida uyga qaytasiz va ko'pincha ana shu yoqa ushlashish va haqoratlar ustidan chiqib qolasiz. Ko'pincha bunga siz birinchi xotin va uning bolalarini ayblab (gunohsiz bo'lsalar ham) ularni yomonlab, so'kib, hatto insofsizlikka ham o'tishingiz mumkin, oxiri dard-u alam bilan uxlashga yotasiz. Ammo qani uyqu?.. Ertasi kuni yana parishonlik bilan ishga ketasiz. Xotinlaringiz esa tinchimaydilar. Bir-birlariga qarshi turib, uy anjomlarini sotib bo'lsa ham duoxon, yolg'iz eshonlarga borib xushparast ko'nglingizni o'zlariga isitmoqchi bo'ladilar. Bu duoxonlikdan ham foyda ko'rmaydilar. Yanada o'zaro nafrat va gina ko'payib boradi. Yangi xotin birinchi ayolingiz bolalariga, eski xotin yangi ayolingiz farzandlariga dushmanlik qilib jonlariga azob beradilar. Hatto, fursat topib, bir-birlarining bolalarini hiyla bilan nobud qilish payiga tushadilar. Bu buzg'unchilik, urush va janjallarga bardosh bermay majbur bo'lib, ikki ishdan birini tanlaysiz: yo xotinlarni bir-biridan ajratasiz, ya'ni birini boshqa uyga ko'chirib sadaqa, deb biror narsa berasiz, yoki talog'ini berib, boshqa kishining soyasiga yuborasiz. Shu bahona bilan farzandlaringiz ota mehridan mahrum bo'ladilar. Yomon tarbiya olib boshingizga balo bo'lishlari ham ehtimoldan xoli emas. Har ikkala yo'l ham barchangiz uchun zulm va insofsizlikdan boshqa narsa emas.

Bu muqaddimadan ko'p xotinlilik, ya'ni ikkita xotinga uylanish bevafolik, adovat, vayronalik, fasod-u zulm va

insofsizlikka olib kelishi ma'lum bo'lgan bo'lsa kerak. Shariat hukmiga ham, aql va vijdon hukmiga ham bu to'g'ri kelmaydi. Shunday ekan, shuncha behudagarchilikka olib keladigan ko'p xotinlilik to'g'rimi yoki yo'q?

Ikkinchi muqaddima. Bu savolga javob berishdan oldin bu masalani boshqa yo'l bilan tadqiq qilamiz. Umid qilamizki, hurmatli o'quvchilarimiz sabrsizlik qilmaslar. Aytgan edikki, hazrati hakimi Qodir (Alloh) inson nasli boqiy bo'lishi uchun uylanishni amr etgan. Modomiki, uylanish maqsadi farzand ekan va farzandning ko'pligi millat a'zolarining bisyorligidan darak berar ekan, nima uchun ko'p xotinlilik man etiladi? Yana yozgan edikki, Tangri taolo odamlar bola-chaqani boqish yuki va uylanishdan qochmasliklari uchun «shahvat» hissini ularning tabiatiga kirgizdi. Shahvat taqozosi bilan ular birga bo'lishni istab turmush quradilar. Tib fanidan ma'lumki, shahvat ishtiyoqi erkaklarda ko'proq. Hayz, uzluksiz qon ketish, bola tug'ilish vaqtlarida er-u xotinning birga bo'lishi zarar. Shunday vaqtlarda er xotiniga yaqinlik qilmaydi. Lekin u harom yo'l bilan shahvat hissini yo'q qilishi mumkin. Ikkinchi xotini bo'lganda, u bilan hojatini chiqargan bo'lardi va haromga chalinmasdi. Bu masalalarni o'z joyida bayon qilamiz.

Uylanishning asosiy maqsadi farzand ekani ma'lum. Ba'zi erkaklar bir xotin bilan uzoq yillar yashab farzandlik bo'la olmaydilar. Majbur bo'lib bu dunyodan nishonsiz o'tmaslik uchun boshqasiga uylanadilar. Yozganlarimizdan ma'lum bo'ladiki, ikki xotinlilikning ham foydasi bo'lib, hatto, ba'zan zarur ham ekan. Bas, qanday hukm chiqarish kerak? Salbiymi yoki ijobiy? Javob: birinchi muqaddimada ikki xotinlilikning zararli, ikkinchi muqaddimada foydali tomonlarini bayon qildik. Agarda shu ikkala muqaddimani aql mezoniga solsak shunday hukm chiqadiki, ikki xotinlilik (ko'p xotinlilik) zarar keltiradigan hamma yo'llari yopilsa to'g'ridur, ya'ni shunday tartib o'rnatilsinki, ko'p xotinlilikka ijozat bo'lib, birinchi muqaddimada zikr etilgan zararlar oldi olinsin. Bunday tartib yo qonunni bizlarga kim tayin etadi? Islom dini. Haqiqatda ham, islom dini bisyor barkamol din bo'lib, tabiat qonuniga muvofiqdir. Foydani zarardan adolat bilan kam-ko'stsiz ajratadi. Odam-

larga nimaiki foyda keltirsa ijozat berib, zarar keltiradigan narsalarni man qiladi. Shuning uchun ham islom dini mo'minlarni bu dunyo va oxirat saodatiga yetkazadi.

Biz bu dunyo saodatiga yetishdikmi? Yo'q. Nima uchun? Chunki islom hukmlariga rioya qilmaymiz, chunki jamiyatimiz qonuni va hayotimiz rahbari bo'lgan Qur'onni faqat o'liklar arvohiga hadya qilamiz...

To'g'ri, islom dini har xususda adolat kamolini muhofaza etib, ko'p xotinlilik masalasida ham shunday odililkka yo'l bergan. Ko'p xotinlilikning zararlariga qaramasdan islom uni man etmaydi, chunki foydasi ham bor. Zulm xavfi mavjud bo'lmasa, ko'p xotinlilik joiz deb buyuradi.

Qur'onda kelgan: «Agar yetimlar haqqiga xiyonat qilishdan qo'rqsangiz, ularni o'z nikohingizga olmang, balki nikohlari shar'an to'g'ri bo'lgan ayollarni bittadan to'rttagacha o'z nikohlaringizga oling va ikki-uch ayol haqqiga zulm yetgudek bo'lsa, bir xotin sizga kifoya qiladi. Agarda bir ayol haqqiga ham adolat qilolmasangiz o'z cho'rilaringiz bilan qanoat qiling, shu yo'l zulmdan yiroqdir»[13]. Shu oyati karimadan ma'lum bo'ladiki, uylangan erkakning xayoliga ikkinchi xotin olish kelgan bo'lsa, adolat qilish yoki qilolmasligini bilmog'i darkor. Agarda adolat qila olmaslik ehtimoli ko'proq bo'lsa, ikkinchi xotinga uylanish xayolidan voz kechmog'i lozim. Ammo ikki xotin o'rtasida adolat va insof o'rnata olsa, ularning og'irligidan cho'chimasa, u holda ikkita xotinga uylansa zarar qilmaydi. Ikki-uch xotin olishga shart shu adolat va insofdir. Ikki-uch xotinga uylangan er shu oyati karima hukmi (va vijdon hukmi) ila farz bo'lgan adolatni xotinlari o'rtasida o'rnatishi lozim[14]. Ya'ni yebichish, kiyim-kechak, uy-joy, erkak majburiyatida ham bir xil munosabatda bo'lishi kerak. Hatto, xotinlaridan biri kundoshiga pul berib, uning navbatini sotib olsa yoki erning o'zi bir xotiniga hadya berib, boshqa ayoli oldiga borsa ham islom faqihlari qabul qilmay, pulni o'z egalariga qaytarishni lozim bilganlar. Adolatning bajarilishi vojib bo'lsa, er bo'ynida abadiy qoladi. Nabiy akram (s. a. v.) buyurganlar: «Agarda erning ikki xotini bo'lsa va ularning oralarida adolat qilmasa, qiyomatda tanasi yarimta bo'lgay» («Al-jome' us-sag'ir»dan[15]).

Shu o'rinda yana bir savol xotirga keladi. Er-xotinlikning

asosi muhabbatdir. Ikkita xotini bor erkak, albatta, yosh va go'zal xotinini birinchi va yoshi katta xotinidan ko'proq sevadi. Muhabbatda adolatni o'rnatish qiyin, hamma xotinlarini er bir xil seva olmaydi. Alloh taolo esa, ayollar o'rtasida adl va insof o'rnatinglar deb buyuradi[16]. Bas, bu holatda nima qilish lozim? Bayon qilaman. Ko'nglingiz xotirjam bo'lsin. Islom dini tabiiy va ijtimoiy dindir. Bu hukmni bayon qilgandan so'ng uni hamma tomonlama qamrab oladi. Bu savolga Qur'oni karim juda yaxshi javob beradi: «Haqiqatda insof yuzasidan hamma xotinlaringizni bir xil sevmoqchi bo'lasizlar. Lekin muhabbatda adolat o'rnatmoq sizlarning iqtidoringiz doirasidan chiqadi. Shunday ekan, ko'proq sevadigan xotiningizga kamroq mayl qiling, toki boshqa xotin xafa bo'lmasin. Sevmaydigan xotinni muhabbat va hurmat chegarasida tutib turingiz, aslida sevmasangiz ham zohirda shunday muomala qilingki, u ham sevadi deb o'ylasin».

Hazrati Rasulimizning fe'llari ham shunday edi. Ma'lumki, hazrati Payg'ambar Oysha onamiz (r. a.)[17] ni boshqa xotinlaridan ko'proq sevardilar. Ammo xotinlari o'rtasida navbatni rioya qilib, adolat o'rnatib aytardilar: «Yo Allohim, iqtidorim boricha xotinlarim o'rtasida adolat qilurmen. Ammo sening qo'lingda bo'lib, ixtiyorimda bo'lmagan narsaga meni giriftor etmagin, ya'ni hammalarini bir xil seva olmayman, meni afv etgin, chunki dilim mening qo'limda emas»[18]. Payg'ambarning Oysha (r. a.)ga bo'lgan muhabbatini bilib, erkaklar o'z xotinlariga qay darajada adolat qilishlari lozimligini bilish uchun shu hadis yetarlidir. Imom Buxoriy rivoyat qiladilar: «Oysha (r. a.) dedilar: «Payg'ambarning ahvollari og'ir bo'lganda, ular meni xonamda qolishlari uchun boshqa xotinlaridan izn so'radilar. Ular rozi bo'ldilar». Islom dini ko'p xotinlilikka shunday og'ir shartlar bilan ijozat bergan. Shunday shartlarga ahamiyat bermay ikki-uch xotinga uylanadigan erkaklar bilib qo'ysinlarki, ularning ishlari Qur'on va hadisga xilofdir. Birinchi muqaddimada bayon qilingan balo va zararlar boshlariga tushishini xayollaridan chiqarmasinlar. Bu qiyinchiliklardan tashqari yana hisob-kitob kuni ham oldinda. Shu narsa ham ma'lum bo'lsinki, agar erkak qalbida adolat o'rnatish kuchini yetarli deb bilmasa, bitta xotinga kifoyat qilsin.

UYLANMOQ ZARUR BO'LGANDA QANDAY XOTINNI TANLASH LOZIM?

Biz uylanmoqchi bo'lsak, onamizga yo bo'lmasa biron-bir ayolga sovchilik majburiyatini yuklaymiz. Sovchilarimiz biz ko'rmagan va ahvolidan xabarimiz bo'lmagan qizi bo'lgan biror hovliga boradilar. Uy egalari bu sovchilarni izzat-hurmat qilmasalar, qizlariga mingta ayb qo'yib boshqa hovliga kirib boradilar. Agarda shu xonadonda ularni yaxshi kutib olsalar, yeb-ichish orasida qizni ming madh-u sanolar bilan maqtab chiqadilar. Ko'zi ola bo'lsa – shahlo ko'zli, yuzida chipqon izi bo'lsa – ruhi harir, burni pachoq bo'lsa – chimchilagandek deb maqtab, bechora kuyovni bu xayoliy va shoirona tashbehlar bilan maftun qiladilar. Kuyov ham majbur bo'lib qizga rasmiy sovchilarni yuboradi. Qizning onasi va qarindoshlari «kuyov ko'rishga» keladilar. Ammo ular kuyovni emas, balki uning uy-joyini va mol-mulkini ko'rish uchun keladilar. Ular yigitning uy-joyini yoqtirar ekan, katta hadya va sarpolarni olgandan so'ng bah-bah... olamni kuyov maqtovi bilan to'ldiradilar. Kuyov badbashara va yomon xulqli bo'lsa ham o'ylamasdan: «Bu kuyov farishtaga o'xshaydi, Xudo uni shu qizimiz uchun osmondan tushirgan», – deb maqtab hukm chiqaradilar. Bechora qizni shu xonadon va sarpolar uchun qurbon qiladilar.

Uylanish uchun tanlangan yo'l mamlakatimizda, asosan, shundan iborat. Shunday rasm-rusum yaxshi natija beradimi? Aslo yo'q! Bu ma'lum qoidaning natijasi shulkim, ko'pincha fotihadan keyin va nikohdan oldin kelin va kuyov o'rtalarida janjal bo'ladi. Bu o'zaro dushmanlik kelin va kuyov munosabatlariga ta'sir etmasdan qolmaydi. Bunday xatardan so'ng nikoh ham o'tadi. Birinchi kechani chimildiq ostida o'tkazib, birinchi marta muloqotda bo'ladilar. Shu narsa aniqki, er-xotinlikning asosi bo'lgan muhabbat ularning o'rtalarida paydo bo'lmaydi. Balki ularning o'rtalarida mana shu uch holatdan biri majburan sodir bo'ladi. Bir-birlariga mehr-muhabbat ham, nafrat ham tuymaydilar, ya'ni birinchi muloqotlari ikki begona odamning munosabatlariga o'xshab ketadi. Ma'lumki, bu munosabat ham halokatlidir. Ikkinchisi, kelin kuyovdan yoki kuyov kelindan nafratla-

nadilar. Agarda shu birinchi muloqot begona odamlarning munosabatiga o'xshab ketsa, hayotlari xavfli bo'ladi. Bir hafta, bir oy yoki bir yildan so'ng ularning fe'l-atvorlari bir-birlariga mos tushmay o'rtalarida nafrat paydo bo'lsa, qolgan umrlari nihoyatda azobda o'tishi mumkin. Ba'zan er arzimas bahona bilan, masalan, oshga yog'ni ko'p solding yoki go'shtni kuydirding, deb xotinini urib mayib qiladi. Ba'zi ayollar ham arzimaydigan sabab bilan erlarini xaloyiq o'rtasida sharmanda qiladilar. Har kuni, har hafta, hech bo'lmasa bir yilda bir marta oilada katta janjal bo'lishi bizning mamlakatimizda rasm bo'lgan. Er-xotin o'rtasida hurmatsizlik shu darajaga yetgandan keyin xotin ham, er ham bir-birlarining haq-huquqlariga rioya qilish xotiriga kelmaydi. Xotin erining boyligini ataylab isrof qiladi, eri ham xotinining boshiga tushgan balolarni bila turib, o'zini ko'rmaganga soladi. Oilalarimiz o'rtasidagi bunday yomon ishlar muhabbatsizlik natijasidir. Agarda birinchi kechada qiz kuyovdan nafratlansa ilojsiz qoladi, chunki u asiradir va uning nazarida harakatlari devga o'xshagan eri bilan yashashi lozim bo'ladi. Bunday hayotning oldida ikkita yomon natija bor. Agarda xotin o'z eridan rozi va mamnun bo'lmasa va qalbida muhabbatni orzu qilsa, o'zining pokligi va iffatini erining obro'si va nomusi bilan birga boshqa bir erkakning oyog'i ostiga tashlaydi, o'zini va erini bu dunyo-yu u dunyo rasvo qiladi. Yoki bunday xotin ming orzu va hasratlar bilan kasalliklarga chalinib, oqibatda dunyodan ko'z yumishi mumkin.

Birinchi muloqotdan so'ng kuyov qizni yoqtirmay qolsa-chi? Unda gapirib o'tirishning foydasi ham yo'q. «Yomg'irdan qutulib, qorga tutilibdi» deganlaridek, kuyov quyidagi balolardan biriga mubtalo bo'ladi:

1. Shu kechada qizga taloq berib, qilgan hamma mehnat va xarajatlarni yo'qqa chiqaradi va qizning kelajagiga g'ov qo'yadi.

2. Yoki nima bo'lsa bo'ldi, deb, kelinni uyga olib kelib, qiz haqqiga noinsoflik qiladi. Boshqa tomondan o'zini g'ayri shar'iy ishlarga asir qilib, oilaviy hayotini ham, o'zining axloqiy fazilatlarini ham fisq-u fujur va noshoyista ishlar bilan to'ldiradi.

3. Axloqiy fazilatlari g'ayri shar'iy ishlarga to'sqinlik qilsa ham olti oy yoki bir yildan keyin boshqa xotinga uylanadi.

Ikkinchi xotinga uylanish sovchilik va kuyovni ko'rish avvaldagidek bo'ladi. Xatolar qayta takrorlanadi. Bunga qo'shimcha yigit boshiga ikki xotinlilikning balo-yu kulfatlari tushadi. Bu haqda esa yuqorida zikr qilganmiz.

4. Yoki hech bir iloj topmay, olgan xotini bilan achchiq hayot kechiradi, oxirgi nafasigacha uylangani va bebaxtligiga la'nat o'qib jon beradi. Bu urf-odatning yomon tomoni shu bilan tamom bo'lmaydi, ko'pincha kuyov va qiz tajribasizlikdan yuqumli kasalliklarga chalinadilar. Vaqt o'tishi bilan bu kasallik bir-birlariga o'tib, bolalariga va oila a'zolariga ham yuqishi mumkin. Bu bemorlig-u motamlar hayotlarini zaharlaydi. Ba'zan kuyov yoki kelin farzandsizlikka olib keladigan kasallikka giriftor bo'ladilar. Nikohdan so'ng bu kasallik oila a'zolarining hayotlarini nursiz qilib, uylanishning birdan bir maqsadi bo'lgan farzandni yo'qqa chiqaradi. Shuning uchun ham biz turkistonliklar orasida haqiqiy baxtiyor va saodatli oilalar juda kam, balki yo'qdir. Agarda g'ayrat qilib ahvolimizni birma-bir tadqiq qilsangiz, men arz qilgan badbaxtliklarni o'zingiz ko'rasiz. Aksar oilalarimizning ahvoli shunday ekan, ya'ni oilalarimiz orasida intizomsizlik, muhabbatsizlik va baxtsizlik so'nggi darajaga yetgan ekan, millatimiz ham intizom, birlik va ittifoqlik yuzini ko'rmaydi. Shunday ekan, nima qilish kerak?

Javobi shunday: uylanish bir erkak va bir ayolning ittifoqidir. Alalxusus, muhabbat va mehr bilan hayotda sherik bo'lish demakdir. Odamlar bir so'mlik tijoratlari yoki bir oylik safarlari uchun sherik va yo'lda hamroh topish uchun taxminan yigirma nafar tanish va oshnolarini xayolan ko'z oldilariga keltiradilar. Ularning har birlarining yaxshi va yomonliklarini eslab mulohaza qiladilar. Ulardan bir kishini ajratib tijorat yoki safarlariga sherik qiladilar. Er-xotin mushkulotdan iborat bo'lgan hayot safarida birga bo'lib, jismoniy va ruhiy osoyishtalikka sherik, insoniy vazifalarni bajarishda dastyor, qayg'u va umidsizlik damlarida g'amxo'r, saodat va baxtiyorlik chog'ida bir-birlariga hamdam bo'lishlari lozim. Shunday ekan, ular, albatta, eng avvalo, bir-birlarini kamoli diqqat va tajriba yuzasidan imtihon qilishlari zarur. Xotin erkak holidan va yigit qiz ahvolidan yaxshigina xabardor bo'lib, keyin turmush qurishlari lozim.

BO'LAJAK ER-XOTIN BIRINCHI NAVBATDA NIMALARGA AHAMIYAT BERSIN?

Uylanish uchun to'rt narsaga e'tibor berish lozim: mol, nasab, husn va imon-u e'tiqod. Uylanish orzusida bo'lgan er bilan xotinning mol (boylik)lari va nasablari taqriban bir xil bo'lishi lozim. Aks holda er bilan xotin bir-birlariga teng bo'lmay, biri boy va kalonzoda bo'lsa, ikkinchi tomonni faqirlik va zoti pastlikda ayblab, hayotini mudom azobga qo'yadi. Xususan, islomiy tarbiya doirasidan chetda qolgan mamlakatimiz xalqi boylik va kalonzodalik bilan ortiqcha faxrlanadilar. Bunday izdivojning natijasi, albatta, yaxshi bo'lmaydi. Jamol (husn) bu ko'rinish demakdir, ya'ni qarayotgan kishi nazariga chiroyli ko'rinib, uning qalbini o'ziga moyil qilish demakdir. Qalbda paydo bo'lgan bu moyillikni muhabbat deyish mumkin. Hayotda do'st, baxt va baxtsizlikda sherik, g'am-qayg'u vaqtida hamdam, xushnud damlarda bir-birlariga yor bo'lishni istagan erkak va ayol shaxsiy va ijtimoiy vazifalarini birgalikda bajarishlari kerak. Ularning o'rtalarida ana shu qalbiy moyillik va muhabbat bo'lmasa uylanish o'z-o'zidan zararga aylanadi.

Shu narsa ma'lum bo'ldiki, qalbiy moyillik jamol mushohadasining (ya'ni kelin-kuyovning bir-birlarini ko'rgandan so'ng paydo bo'lgan moyillikning) natijasidir. Bas, to'ydan oldin kelin-kuyov bir-birlarini ko'rishlari zarur. Agarda bani Odam tabiati har xil bo'lmaganda yoki husn va jamol muayyan mezonga ega bo'lganda edi, er-xotinning husn-jamollarini bilmoq va baho bermoq sovchilar orqali bo'lardi. Lekin odam tabiati har xil, husn va jamolning ham ma'lum chegarasi bo'lmaydi. Masalan, sizning nazaringizda xunuk ko'ringan surat menga yoqishi, dilimni zabt etishi mumkin. Aksincha, menga hech qachon manzur bo'lmaydigan surat sizni bir qarashda lol va hayron etishi mumkin. Shu mushkulotni hal qilish uchun kuyov va kelin fotihadan oldin bir-birlarini ko'rib yoqtirishlari lozim.

Mazkur bo'lgan to'rtinchi sifat shulkim, har bir erkak va ayol dindor bo'lishi lozim. Yuqorida zikr etilgan go'zallik (jamol) haqidagi so'zlarimiz zohiriy (tashqi) jamoldir. Agarda u botiniy (ichki) jamol bilan, ya'ni yaxshi xulq

bilan bog'liq bo'lmasa, bir tiyinga qimmat. Kimki o'z ixtiyori tizginini hayvoniy shahvat qo'liga bermagan ekan, doimo ichki jamolini tashqi go'zalligi bilan, ya'ni husni axloqini qora ko'zlar va kamon qoshlari bilan ziynatlaydi. Dindorlik bu Xudoni tanish, bilish va Haqdan qo'rqishdir. Shunday qilib, husni axloqning asosi va mezoni Xudodan qo'rqish va Haqni bilishda, ya'ni dindorlikdadir. Dindorlik, ya'ni xushaxloq bo'lmoq har bobda, xususan, uylanish bobida nihoyatda zarurdir. Chunki yuqorida bayon qilganimizdek, uylanish bu hayotda sheriklikning ahd-u paymonidir. Er-xotin birga bo'lib turib, hayot yo'lida birgalikda bo'lmoq va bir-birlariga yordam bermoq uchun ahd qiladilar. Bir-birlarining haqqiga zulm-jafo va xiyonatni ravo ko'rmaydilar. Tabiiyki, er-xotin agarda dindor, diyonatli va axloqi hamidaga ega bo'lsalar, shu ahd-u paymonlariga bir umr sobit qoladilar. Shu narsa aniqki, va'daga xilof qo'yilgan har bir qadam shu ahd-u paymonning buzilishiga olib kelib, badbaxtlik va tinchsizlikni oilalar boshiga keltiradi. Buning ustiga, men bu haqda hali yozaman, farzand tarbiyasi, ya'ni farzandni aqlan, axloqan va jisman kamolga yetishtirish ota-ona bo'yniga tushadi. Avvalroq arz qilgan edikki, uylanishning birinchi maqsadi farzanddir. Avlodni tarbiyalash insoniyatning xizmatidir. Qachonki biz yaxshi axloq egasi bo'lgan farzandlarni tarbiyalasak, shundagina bo'ynimizdagi bu xizmat majburiyati soqit bo'ladi. Kimki badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi. Jamiyat ularning farzandlaridan bezor bo'ladi. Xush va yaxshi axloqqa ega bo'lgan farzand xushaxloq iymon sohibi bo'lgan ota-onadan bo'ladi, agarda ota-ona axloqsiz bo'lsalar, ularning tarbiyalari soyasida o'sgan farzand ham badaxloq bo'ladi. Binobarin, kuyov va kelin xushaxloq bo'lishlari eng yaxshi fazilatdir.

Endi yaxshi axloqqa ega bo'lgan yoki bo'lmaganlikni kim tekshiradi? Mahalla xodimlari bu ishning uddasidan chiqadilarmi? Hech qachon. Bu ishni qiz va kuyov zimmalariga tashlashdan boshqa iloj yo'q. Mol va nasabni tashqaridan tadqiq qilsa bo'ladi. Lekin jamol va axloqni bilish uchun qiz va yigitning muloqotlari lozim bo'ladi. Sog'lom aql egalari nazarida shu ishlarning zarurligi har narsadan ham muhimdir.

Shu joyda yana bir savol tug'iladi. Bu taklifni islom shariati qabul qiladimi-yo'qmi?

Al-Mag'irat binni Sha'ba[19] «Mishkot al-maloih»da rivoyat qiladi: «Men bir ayolga sovchilarimni yubordim. Hazrat Payg'ambar eshitib so'radilar: «Sen uni ko'rdingmi?» Men: «Yo'q», – deb javob berdim. Hazrat buyurdilar: «Uni ko'rgin, orangizda bu muhabbatga sabab bo'lajak».

Sahl binni Sa'd[20] (r.a) naql qiladilar: «Bir ayol Payg'ambar oldiga kelib dedi: «Yo Rasulullo, nafsimni senga baxshida etish uchun keldim». Payg'ambar shu xotinni (avval) ko'rdilar». Shunday qilib, ikkala hadisi sharif nikohdan oldin kelin va kuyovning muloqoti joizligiga ochiqdan ochiq dalolat qiladi. Imom G'azzoliy[21] esa shu muloqotni mustahab (ma'qul) deydilar.

Uylanishni orzu qilgan er va xotin o'zaro ahvollarini tekshirgandan so'ng, nasab va boyliklari muvofiq kelganda, ichki va tashqi jamollarini yoqtirib, uylanishga rozi bo'lgandan keyin ularni nikoh qilish kerak. Ulardan biri rozi bo'lmasa, nikohdan voz kechish lozim, chunki rizosiz nikoh yaxshilikka olib kelmaydi.

Abu Hurayra (r. a.) rivoyat qiladilar: «Payg'ambar (s. a. v.) dedilar: «Beva to amr qilmasa va qiz rozilik bermasa, nikoh qilmanglar». As'hob so'radilar: «Qiz hayodan rozilik bera olmaydi, qizning roziligi qandaydir?» Hazrat buyurdilarki: «Qizning sukut saqlashi uning roziligidir».

Sahoba Xansadan (r. a.) rivoyat qiladilarki, Xansa tul qolganida otasi uni bir kishiga nikoh qilmoqchi bo'ldi, Xansa uni xohlamadi va Payg'ambar huzuriga keldi. Payg'ambar ham otasining nikohini bekor qildilar.

Said bin al-Musayib[22] (r. a.) rivoyat qiladilar: «Payg'ambar (s. a. v.) dedilar: «Qizlarning otasi bor yoki yo'qligidan qat'i nazar, nikoh payti o'zlaridan roziliklarini olmoq zarurdir». Shu hadislardan yuqorida bayon etilgan muloqotning shartligi ma'lum bo'ladi. Ayolning rozilik berishi kuyovni ko'rib yoqtirishiga bog'liq. Ammo ko'rmasdan sevib qolish qandayligini men bilmadim.

Endi yana bir masala qoldi. Qaytarsak ham aytamizki, uylanishning buyuk maqsadi va foydasi farzanddir. Shuning

uchun ham har bir erkak tug'ishga qodir bo'lgan xotinga uylanishi lozim. Tug'mas xotinga uylangan er sho'r bosgan yerga ekin ekmoqchi bo'lgan dehqonga o'xshaydi. Shu sababdan ham Payg'ambarimiz o'z ummatlarini tug'ishga qodir bo'lmagan ayollarga uylanishni man qilganlar.

Sahoba Muaqqal binni Isor (r. a.) Abu Dovud[23] dan rivoyat qiladi: «Bir kishi Payg'ambar huzuriga kelib arz qildiki: «Men bir boy va nasabi toza ayolni uchratdim, lekin tug'maydi. Unga uylansam bo'ladimi?» Payg'ambar: «Yo'q», – dedilar. Yana kelib so'ragan edi, hazrat man qildilar. Uchinchi marta kelganda Rasuli akram: «Oxiratda men sizlarning ko'pligingiz bilan iftixor qilurman», – deb javob berdilar». Shunday qilib, Rasuli hakim buyruqlariga binoan, har bir erkak va ayol birga bo'lishni istagan bo'lsalar, bu jihatga ham ahamiyat bermoqlari lozim. Biz Turkiston musulmonlari Payg'ambarimiz ta'kidlagan bo'lsalar ham shu masalani kalta o'ylaymiz, bu buyruqni bajarmasak, natijasini bu dunyo va oxiratda ko'ramiz. Masalan, mamlakatimizda bir erkak va ayol turmush quradilar. Jaholatimiz sabab ko'p pul sarf qilamiz, nikoh ham bo'lib o'tadi. Bir oy, ikki oy intizor bo'lgandan keyin ma'lum bo'ladiki, kuyovning beli bog'langan va iqtidori yo'q. Zudlik bilan mahallaning xodima xotinlari jam bo'lib, kuyovning belini dushmanlar bog'lab qo'yganlar, deb fatvo beradilar. Shu zamonda kuyovbola janoblari ham bosh yalang, oyoq yalang afsungar va folbinlarga qarab yuguradilar, bir qism davlatini ularning firib va makrlari yo'lida sarflab, o'zlarini rasvo va sharmanda qiladilar. Bu hayosizliklarni bayon qilishga qalam ham uyaladi. Albatta, bu ahmoqgarchiliklarning birontasi foyda bermaydi. Majbur qilib xotinga taloq xatini beradilar va fojia o'z yechimini topadi. Yoki aksincha, kuyov yana uylanadi, nikoh to'y va boshqa rasm-u rusumlar ham yaxshi o'tadi. Kuyov kuchsizligidan hech nishon ham ko'rinmaydi. Bir yil, ikki yil o'tadi, farzand yo'q. Ma'lum bo'ladiki, er va xotindan biri kasaldir. Lekin qaysi biri dardga mubtalo bo'lgan? Hech kim bilmaydi. Ular bilar-bilmas yana ikki yil umrlarini duoxonlar orqasida yurib sarf qiladilar, bu gal ham natija chiqmagach, nochor qolgan er yana boshqa xotinga uylanadi. Agarda bu ayoldan ham farzand bo'lmasa,

illat er janoblarida bo'lgani aniq bo'ladi. Lekin bu haqiqat ikki xotinning hayotlari behuda zoye bo'lganidan so'ng ma'lum bo'ladi, ya'ni tug'ishga qodir bo'lgan ikki ayol bitta er qo'lida qurbon bo'ladilar.

Bu dardga iloj bormi? Shuni bilish kerakki, jinsiy ojizlik va aqim bo'lmoq (aqim, ya'ni nasl berishga mone'lik degani, bu dardga mubtalo bo'lgan ayol yoki erkakni aqim deydilar) insonga xos bo'lgan dardlardan hisoblanadi. Fol ochish va duoxonlik bu dardni davolamaydi. Jinsiy ojizlik va aqim kasalligi turlicha bo'ladi. Ba'zilarining iloji bo'lmasa ham aksarini davolasa bo'ladi. Hozirgi vaqtda o'tkir do'xtirlar ularni zudlik bilan tabobat qiladilar. Shunday ekan, uylanmoqchi bo'lgan har bir yigit va qiz oldindan o'zlarini biron-bir bilimdon do'xtirga ko'rsatishlari lozim. Mabodo birontalari shu dardlarning biriga mubtalo bo'lsalar, unda ilojini oldindan qilishlari joizdir. Shundan so'ng nikoh qilsalar bo'ladi. Agarda dardlariga iloj bo'lmasa, uylanishdan voz kechish lozim bo'ladi.

Er va xotin uylanish uchun bayon etilgan bu shartlarni bajarish mamlakatimizda mushkul va xalqimiz nazarida juda ajib va g'aroyib ko'rinadi. Lekin nachora, boshqa iloj yo'qdir. Oilasining saodati va rohatini o'ylagan odam bu shartlarga rioya etishi shartdir. Agarda tijorat bilan shug'ullanayotgan sheriklar o'rtasida nizo va nafrat paydo bo'lsa, albatta ishlariga zarar va ziyon tegadi. Biz aytdikki, er-xotin hayot yo'lida bir-birlariga umr yo'ldosh bo'ladilar. Umr yo'ldoshlari o'rtasida janjal va nafrat paydo bo'lsa, faqat baxtsizlik va falokat keltiradi. Buning ustiga, bayon qilgan shartlarimiz hazrati Payg'ambarning sahih farmoyishlariga muvofiq keladi. Yuqorida bayon etilgan shartlarni bajarib, keyin mahrni aniqlab to'y qilamiz.

MAHR VA TO'Y QANDAY BO'LISHI LOZIM

Turmush qurmoqchi bo'lgan erkak va ayol hayotda bir-birlariga sherik bo'lar ekanlar, bu sheriklikning boshlanish rasmi fotihadir. Kelin va kuyov o'zlarining fotiha to'ylarini xursandchilik bilan nishonlashlari kerak. Er nikoh vaqtida albatta xursand bo'ladi. Alalxusus, kelin uning orzu va

istaklariga muvofiq kelsa. Ammo kelinlar bunaqa emas. Ayol zotining qalbi nozik va hassos bo'ladi. Har narsadan va har bir ishdan ular tez-tez ta'sirlanib qoladilar, g'am-g'ussa va qayg'uga qarshi sabr-u sabotlari kamdir. Binobarin, hatto kuyov ularning orzu va ta'blariga muvofiq bo'lsa ham ota tarbiyasi soyasidan va ona shafqati quchog'idan uzoqlashganda mahzun va g'amnok bo'lmasliklarining iloji yo'q. Shu holatda kuyov ba'zan-ba'zan xotiniga hadya va tuhfa berib, uning ko'nglini ko'tarishi lozim. Kelinning mehri va ishtiyoqini o'ziga jalb etishi lozim. Ana shu hadyani «mahr» deydilar. Xudoyi taolo oyati karimasida buyuradi: «Xotinlaringizga mahrlarini hadya kabi (ya'ni chin ko'ngildan, mamnun bo'lib) beringlar! Agar o'zlari sizlar uchun u mahrdan biron narsani ixtiyoriy ravishda kechsalar, sizlar uni pok va muborak bilib yeyaveringlar»[24].

Shayx ul-mufassir[25] ibni imom Abu Ja'far Muhammad bin Jariri Tabariy «Jome' ul-bayon»[26] tafsirida shu oyati karimani uch rivoyat bilan izoh va tafsir qilgan.

Birinchidan, bu oyati karima erkakka bo'lgan xitobdir. Oyat ma'nosi quyidagicha: «Ey uylanadigan erkaklar, ayollar mahrini o'zlariga berish sizlar uchun lozim va vojibdir. Agarda ular o'shal mahrdan ixtiyorlari bilan biror narsa sizlarga bersalar, uni olinglar».

Ikkinchi rivoyat. Johiliyat davrida ba'zi odamlar qizlarini yoki yetimlarni tarbiya qilib, erga berib, ularning mahrlarini o'zlari olardilar. Shu oyati karima ularga xitob qilinur.

Uchinchidan. Johiliyat davrida ba'zi kishilar o'z singillarini erga berib, ularning mahri evaziga u kuyovning singlisi yoki qizlariga uylanardilar. Bu oyati karima ularga xitobdir.

Ikkala holatda oyati karimaning ma'nosi shunday: «Qizlarning otalari va yetimlarning murabbiylari! Qizlarni erga berganda, erlari bergan mahrlarini o'zlariga beringlar. Ularning roziligisiz uni tasarruf etmang. Agarda o'zlari rozi bo'lib bir narsa bersalar, uni qabul qilinglar». Mufassir hazratlari mahr kalimasini «vojib va lozim» so'zi bilan tafsir qilib, o'sha uchta rivoyatni keltirib, o'zi birinchi rivoyatni tanlaydi. Lekin qozi Bayzaviy[27] aytadiki, «lug'atda «naziat» («mahr») yurakdan chiqarib tama qilmay beriladigan hadyadir». Biz qozi Bayzaviy janoblarining fikrini qabul qilib,

Ibn Jariri Tabariy rivoyatiga kelsak ham qabul qilamiz. Ya'ni uchala rivoyatning mazmunidan kelib chiqib aytamizki, oyati karima hamma erkaklarga qaratib aytilgan. Har bir kishi o'ziga tegishli xulosani olishi kerak. Uylanayotgan erkaklarga oyati karima: «Ayollar mahri ularning hadyalaridir, qalb istagi bilan tama qilmay beringlar», – deya amr qiladi. Yetimlarni yoki qizlarini erga uzatayotgan kishilar, singillarini erga berayotgan va ularning mahri evaziga uylanmoqchi bo'lgan erkaklarga oyati karima xitob qiladi: «Mahr kuyovning xotiniga beradigan do'stona hadyasidir. Ularning roziligisiz mahrini olmanglar».

Oyati karimaning ma'nosi shulkim: «Ey islom ahli! Sizlardan kimki uylanar ekan, xotin mahrini dil roziligi bilan, evaziga mukofot kutmay bersin. Kimki qizini erga berar ekan, mahrini o'ziga berib, unga da'vo va daxl qilmasin». Endi ma'lum bo'ldiki, mahr xotin ko'nglini shod qiladigan hadya ekan. Bu zaruriy hadyadir. Biz turkistonliklar ana shu shar'iy vositani ham suiiste'mol qilamiz. Mamlakatimizda mahr berish qoidasi ko'p tashvish va og'irliklarga olib keladi. Birinchidan, ko'p go'zal yigitlar yaxshi axloq va komil iste'dod sohibi bo'la turib, kambag'allik dastidan og'ir mahrlarni qizlarga bera olmaydilar. Natijada ular uylanmasdan umrlari bo'ydoqlik va yolg'izlikda o'tadi. Nochor bo'lib g'ayri shar'iy ishlarga qo'l uradilar-da, dunyo va oxiratlari kuyib ketadi. Ikkinchidan, ba'zi kamdaromad odamlar nima bo'lsa bo'lsin deb, bir necha ming tanga pul qarz olib, toy-toy paxta va qop-qop guruch, yana allanimalar berib biror qizga uylanadilar. Lekin nikohdan so'ng batamom faqir va qash-shoq bo'lib hovli-yu joylarini sotib qarzlariga beradilar va ahli oilalari bilan darbadar-u sarson bo'ladilar.

Uchinchidan, ba'zi badbashara, xulqi yomon va qari kishilar yosh va sohibjamol qizlarni katta pul evaziga olib, ularning umrlarini motamga aylantiradilar. Mamlakatimizda bu qoidaning kasofati shu bilangina tugamaydi. Musofirligim (Turkiyada – *Sh. V.*) chog'ida bir hamshaharim bilan suhbat qurib, mamlakatimizda erkaklarning xotinlariga nisbatan qo'llaydigan zulmlari haqida shikoyat qildim. Ul muhtaram zot menga: «Xotinlarimiz bizga turmush o'rtog'imiz emas, balki kanizak, cho'rilarimiz bo'ladi. Chunki biz ularni besh

yo o'n ming tanga badaliga sotib olamiz», – dedi. Diqqat qiling, bir hurmatli odam o'z xotiniga nisbatan shunday tushunchada bo'lsa, ularning oralarida qanaqa do'stlik va muhabbat bo'lsin? Bunday holat mamlakatimizda joriy bo'lgan mahrni og'ir shartlari natijasida rasm bo'lib qolganligidir.

Kelin va kuyov bir-birlarini moli, husn-u jamoli va axloqlarini yoqtirib, uylanishga rozi bo'lganlaridan keyin mahr ularning nikohlariga daxli bo'lmaganligi va ta'sir qilmasligi lozim. Kuyov nimaiki munosib topsa shuni «mahr» deb kelinga berib nikoh marosimini bajarishi kerak.

Imom Buxoriy[28] va Imom Muslim[29] sahoba Sahla binni Suhbadan bir xil rivoyat qiladilar: «Bir odam Payg'ambar huzurida bir ayolga sovchi yubordi. Hazrat so'radilar: «Uning mahri uchun biron mulking bormi?» Ul kishi: «Yo'q», – dedi. Hazrat buyuradilar: «Uyingga borib qara-chi, biron narsang bo'lsa kerak», – deb. Ul shaxs borib qaytgach: «Narsam yo'q», – dedi. Hazrat yana: «Borib qidirib ko'r-chi, bironta temir uzuk chiqar», – dedilar. Ul kishi borib qaytib keldi-da: «Yo'q ekan», – deb javob berdi. Hazrat: «Qur'ondan biror narsa yod olganmisan?» – deb so'radilar. «Falon va falon suralarni yod bilaman», – dedi. Hazrat buyurdilar: «Borgin, men bu ayolni senga o'sha bilgan suralaring evaziga baxshida etdim, ya'ni sening beradigan mahring shulkim, o'sha suralarni bu xotinga ham o'rgatasan». Shu hadisi sharifdan ma'lum bo'ladiki, uylanishga rozi bo'lgan erkakning ayolga beradigan mahrlarini hazrat Payg'ambar ham e'tibordan chetda qoldirmagan ekanlar. Bitta temir uzuk yoki bir-ikki sura ta'limi kifoya qilibdi. Bas shunday ekan, «agarda (kuyov) ming so'm bermasa qizimni bermayman» deyish, Payg'ambari hakim ummatlariga loyiq emas.

Mahr masalasi mamlakatimizda juda muhimdir. Yuqorida zikr etganimizdek, mahr miqdorining ko'pligidan ko'p erkaklarimiz kambag'allikdan xotinsiz yuradilar.

Bu illatni yo'qotish lozim. Hukumatimiz ham mahr bobida qonun qabul qilib, uning chegarasini aniqlab, kim hukumat qaroridan bir qadam chetga chiqsa, unga jazo tayinlashi kerak. Mahrning og'irligi (ko'pligi) shar'an ham to'g'ri emas. Hazrati Umar (r. a.)[30] deydilar: «Ey musul-

monlar, yodingizda bo'lsin. Xotinlar mahrini ko'p qilmanglar. Agarda ko'p mahrning bu dunyo va oxiratda foydasi bo'lganda edi, hazrat Payg'ambar bu ishlarni sizlardan yaxshiroq bilgan bo'lardi. Ul hazrat har bir xotin olganlarida va qizlarini erga berganda o'n ikki uqiya[31] dan ortiqcha mahr tayin qilmaganlar».

Nikoh er-xotinning hayotda sheriklik qilishlarining ahd-u paymon bitimi ekanligini, uni shodonlik va xursandchilik bilan o'tkazish lozimligini aytgan edik. Buning uchun to'y qilish zarurligi o'z-o'zidan ma'lum bo'ladi. Agarda to'y munosabati bilan bir qator dindosh va vatandosh yor-birodarlar bir joyda yig'ilib xursandchilik qilib, samimiy suhbat qilsalar, albatta, bir millat a'zolari o'rtasida bo'lgan muhabbat va mehribonlik ziyoda bo'ladi. Ba'zilar orasidagi oldingi kek va kudurat shu bahonada yo'qoladi. Buning ustiga, qancha miskin va muhtoj odamlar shu mavrid bilan to'y ne'matlaridan bahramand bo'ladilar. Shuning uchun ham to'y foydali marosimdir. Imom Buxoriy va Imom Muslim sahoba Anas bin Molik[32] dan bir xil rivoyat keltiradilar: «Abdurahmon ibn Avvor uylanmoqchi bo'lganini Payg'ambarga xabar berganida shunday deb buyurdilar: «Muborak bo'lsin. Bitta qo'y sarf bo'lsa ham to'y qil. Lekin har bir ishning muayyan haddi va chegarasi bo'ladi. To'y foydali bo'lsa ham chegaradan o'tsa, zarardan boshqa narsa bo'lmaydi».

Bizning mamlakatimizda to'y ko'p zararlarga sabab bo'lgan hollari mavjud. Buxoroda shunday odamlar borki, o'n-o'n ikki yil davomida besh-olti ming so'm mablag'ni zo'r berib yig'adilar. Bir hafta ichida hammasini «to'y» nomi bilan nobud qiladilar, yana qarzdor va kambag'al bo'lib qoladilar. To'y kunlari sarpo kiygan, yeb-ichgan odamlar to'y egasining ahvolini ko'rib masxara qiladilar. Hatto, kelib ahvolini so'ramaydilar ham. Agarda bu beandishadan: «Shuncha mol-holni nimaga behudaga sarf va xarj qilib, bu qora kunga tushding? Qaysi din, qaysi mazhab, qaysi hukumat va qanday qonun sizlarni bu ahmoqona ishga majbur qildi?» – deb so'rasangiz, albatta, javob bera olmaydilar. Bunday to'ylar islom shariatida yo'q, chunki bu isrofgarchilikdir, isrof esa shariatda haromdir. Ibn Ma'sud (r. a.)[33] rivoyat qiladilar: «Payg'ambar (s. a. v.) dedilar: «To'yda

birinchi kunning taomi haq, ikkinchi kunning taomi sunnatdir, lekin uchinchi kunning taomi riyodir. Kim riyokorlik qilsa, Xudo uning ikkiyuzlamachiligini xaloyiq ichida fosh qiladi». Abu Hurayra (r. a.) rivoyat qiladilar: «Nabiy alayhissalom deganlarki: «Eng yomon odam boylarni chaqirib, bechoralarni mahrum qilib, taom bergan kuyov bo'ladi». Hayron qolarligi shuki, bunday to'ylarning ishqibozlari va isrofgarchilik sababchilari o'zlarining behuda va zararli ishlarini biladilar. Hatto, ulardan ba'zilari bu to'ylarning zararlari haqida o'zlari so'zlab yuradilar. Agarda ularga: «Yaxshi, bunday to'ylardan foyda yo'q ekan, unda nima uchun bu zararli ishga mashg'ul bo'lasizlar?» – deb so'rasangiz, shubhasiz ikkita javobdan birini olasiz. Yo: «Falon, pismadon va ularga o'xshaganlar shunday to'y qildilar. Men ham ulardan kam emasman-ku. Men ham ularga shunday xarajat qilishim kerak». Ya'ni, «Eshak eshakdan qolsa qulog'i kesilar». Yoki: «Haqiqatda ham bunday to'ylarning zarari bor, lekin zamonamizning odat va rusumlari shunday. Ilojimiz yo'q», – deydilar. Birinchi javobni berganlardan ma'lum bo'ladiki, ular to'yni bir-birlaridan qolmaslik uchun qilar ekanlar. Qaysi to'y shu niyat bilan qilinsa, hazrat Payg'ambar o'z ummatlariga bunday to'yga borishni man qilganlar.

Abu Hurayra (r. a.) rivoyat qiladilar: «Nabiy alayhissalom dedilar: «Ikki odam bir-birlaridan o'tish uchun to'y va ziyofat qilsalar, birontasinikiga bormanglar, ularning taomlaridan yemanglar».

Ammo so'raganlarimiz ikkinchi javobni berganlarga: «Axir bu isrofgarchilik-ku», – deymiz. Odam va hayvon o'rtasidagi farq shundaki, odam qilmoqchi bo'lgan ishini o'zining aql kuchi bilan har tomonlama o'ylab, oqibatini andisha va mulohaza qiladi. Hayvonlar bundan mustasno. Endi siz bir odat va rasmning zarari yo foydasini o'ylamay, uni urf-odat deb joriy qilsangiz, hayvondan qanday farqingiz qoladi?

Ma'lumki, to'ydan keyin kelinni nikoh qilib eri uyiga olib keladi. Shu kundan boshlab kelin-kuyov er-xotin bo'lib yashashni boshlaydilar. Endi ularning qanday yashashlari kerakligi haqida ozgina suhbat qurishimiz lozim bo'ladi.

ER-XOTINNING QANDAY YASHAMOQLIKLARI XUSUSIDA

Mamlakatimizdagi xotinlar har daqiqada qanchadan qancha tahqir va jafolarga duchor bo'lib yashamoqdalar. Biz turkistonliklar o'z xotinlarimizni odamiyat doirasidan tashqarida deb o'ylaymiz va u bechoralarga odamga qilgandek muomala qilmaymiz. Ko'p holatda hayvonlarning holiga yuragimiz achishadi. Ammo ayollarning parishon hollariga muruvvatimiz yetmaydi. Xotinlarimizni marhamatga sazovor, insofga loyiq va shafqatga haqli deb bilmaymiz. Bizda xotinlarni so'kish faxr va g'urur sanaladi, urib mayib qilishni esa erkakchilikning fazilati deb bilamiz. Alloh ayolni faqat shahvoniy orzularimiz va hayvoniy ehtiroslarimizni qondirish uchun yaratgan deb o'ylaymiz. Go'yo, Alloh ularga huquq, e'tibor va fikrlash fazilatini bermagandek. Ko'cha va bozorlarda bizga yetgan alam va zararni uyga qaytib xotindan olamiz. Ichimizdagi bu odat eski va keng tarqalgan bo'lgani uchun uning qabih va yomonligi ko'zimizga ko'rinmaydi. Hatto, bechora xotinlarimiz baxt va saodatlaridan batamom noumid bo'lib, shunday xulosaga kelganlarki, Alloh odamzotning hamma fazilatlarini erkaklarga berib, ayollarni ularning jabr-u zulmlariga asir va giriftor qilgan, toki Xudo dargohining bu shakkoklari har kuni ayollari orqali hayvoniy shahvatlariga orom berib, qolgan vaqt bu bechoralarni so'kib, tahqirlab xizmat buyursinlar. Ana shu zaif e'tiqod xotinlarimiz tabiatlaridan joy olgan. Ular haqiqatda ham bashariyat fazilatlarining aksaridan mahrum bo'lganlar. Saodat mayli va taraqqiy orzusi ularning qalbidan tamoman chiqqan. Shijoat va jasorat batamom yo'q bo'lib, tabiatlaridan tanballik va zaiflik joy olgan. Izzat talabi, sharafi va huquqlarini himoya etishlari zarurligini tushuntirib berganda ham fahmlamaydilar. Ya'ni hurmatsizlik va izzatsizlikni o'zlarining xislatlaridan deb biladilar. Iffat va imonliligini erlarining oyog'i va kaltagidan himoya qilmaydilar. Ya'ni axloqiy tafakkur va vijdoniy hukm eslaridan chiqqan. Muhokama tafakkurni batamom tark qilib, bir mashinaga o'xshab erlarining ishoratiga tobe bo'lib qolganlar. Xulosa qilib aytganda, baxtsizligimiz va qoloqligimizning eng muhim sabablari ham shundadir.

Ma'lumki, odam birinchi tarbiyani onasining bag'rida oladi. Shu narsa muqarrarki, birinchi tarbiya (oila tarbiyasi) tarbiyaning eng muhimi hisoblanadi. Uning ta'siri odam tabiatiga mustahkam o'rnashadi. Shaxs ruhiyati, axloq javhari va odatlari bolaligidanoq shakllanadi. Endi o'zingiz bir o'ylang, biz boshlang'ich tarbiyani shu onalarimizdan olar ekanmiz, nega biz ham bu ahvolga tushmas ekanmiz? Bugun qo'rqoqlik va beparvolik tabiatimizni o'rab, sustlik va tanballik qonimizga singib, aqlimiz ko'zini qora parda yopib tashlagan. Ko'rib va tushunib turib bu tubanlikka bo'yin egar ekanmiz, huquqimizni muhofaza qila olmaymiz va saodat tarafiga qadam bosolmaymiz. Bugun aqlning harakatimiz va amalimizga hech qanday ta'siri qolmagan. Hozir vijdon va axloq haqidagi fikrlar batamom esimizdan chiqib ketgan, mazlumlikning eng past jariga tushib, zolimlikning eng oliy darajasiga chiqqanmiz. Kim bizdan zaifroq bo'lsa, unga o'ylamasdan ozor beramiz. Bizdan kuchli bo'lgan kishining esa, otining tuyog'i naqshiga sajda qilamiz. Shak-shubhasiz, bular shunday onalar tarbiyalarining natijasidir. Yana takror va takror aytaman: agar rohat orzusi va hayot kechirish fikrida bo'lsak, agar «madaniy va baxtli millatlar bizni ham odam qatorida bilsin», – deya xohlasak va bizlar bilan umumbashariy qoidalar asosida muomala qilishlarini istasak, agar musulmonlarni xorlikdan va islomni e'tiborsizlikdan qutqarmoqchi bo'lsak, bitta yo'li – barcha ishlarimizni Qur'on hukmlari asosida to'g'rilashimiz lozim. Xudo ko'rsatmasin-u, shunday oson va yengil yo'ldan ham bo'yin tortsak holimiz na bo'lur?!

Eng avvalo, isloh va adolat bilan tartibga solinishi lozim bo'lgan qoida bu er-xotinning muomalalari sanaladi. Bu munosabatlarni qanday isloh qilsa bo'ladi? Aytganimizdek, Qur'on hukmlari asosida.

Qur'oni karim er-u xotin munosabatini bir asosiy qoida sifatida bayon qiladi. «Erning xotiniga nisbatan qanday huquqi bo'lsa, xotinning ham eriga nisbatan shunday haqqi bor», – deyilgan «Baqara» surasida[34]. Shu oyati karimadan ma'lum bo'ladiki, Xudovandi karim ayollarni erlariga qul qilmay, balki erkaklarga qancha huquq bergan bo'lsa, shuni ayollarga ham ato qilgan. Shunday qilib, biz ham shu oyati karimani

asos qilib, oila qurish davomida er-xotinga lozim bo'lgan ishlarni bir-bir zikr qilamiz.

Muhabbat. Hozirgi olimlar va donishmandlarimiz bilittifoq shunday fikrga kelganlarki, koinotdagi barcha zarra va zurriyotlar muhabbatsiz birga bo'lmaydilar. Odamzod va hayvonlar a'zolari o'rtasida bo'lgan munosabat muhabbat qoidasiga asoslangan. Agarda er-xotinlik mehr-muhabbatsizlik asosida bo'lsa, albatta, poydevori zaif bo'lib, hayoti lazzatsiz bo'ladi. Zero bu tabiat qonuniga xilof va xilqat qoidasiga ziddir. «Rum» surasida keltirilganki, bu ham Alloh taolo dalillari jumlasidandir: «Sizlarga o'z jinslaringizdan juft yaratdi, toki siz o'z juftingiz bilan orom topingiz. Xotinlar va erlaringiz o'rtasida muhabbat va mehribonchilik ehson qildi»[35].

Shu narsa ham ma'lumki, muhabbat odamning ixtiyorida emas. Bizning mamlakatimizda er-xotin o'rtalarida muhabbat paydo bo'lishi uchun uylanish qoidalari kifoya qilmaydi. Men bu masalani ham bayon qilgan edim. Lekin hozirgi vaqtda uylanish qoidasi shunday ekan, er-xotinning bir-birlariga nisbatan do'stligi ishq-u muhabbat darajasiga yetmasa ham, shunday iloj topish lozimki, aqallan bir-birlaridan nafrat qilmasinlar. Agarda diqqat bilan o'qisangiz bu choralar nimadan iboratligini oldingi sahifalardan bilishingiz mumkin edi. Shunga ham qanoatlanmay bu nozik masalani ehtiyotlik bilan tushuntiraman. Aytgan edimki, muhabbat moyillik bo'lib, husnga ishqibozlik natijasidir. Husn ham ko'rgan odam dilini o'z sohibi tomoniga moyil qilishi lozim. Agarda mana shu muqaddimaga yaxshigina ahamiyat bersak, ma'lum bo'ladiki, kelin va kuyov bir-birlarini ko'rmasdan nikoh qilingan bo'lsalar-da, o'rtalarida mehr va muhabbat paydo bo'lishi ham mumkin, hech bo'lmasa ba'zi vosita va odob rioyati bila nafrat paydo bo'lmasligi lozim. Bir-birlariga odobsizlik va hurmatsizlik bilan suhbat qurmasliklari kerak. Kim o'z eridan hurmat va mehr ko'rmasa, unga muhabbat va ko'ngil ham qo'ymaydi. Bizning mamlakatimizda bu shartlarga ko'pincha erkaklar qarshi chiqadilar. Bechora xotinlarimizga odobsizlik va hurmatsizlik bilan murojaat qilamiz. Ko'rganimizda ahvolini so'ramay darrov haqoratlaymiz. Ozgina bahona bilan urib a'zoi

badanini ko'kartiramiz. Yana ulardan mehr-u muhabbat ham kutamiz?!

Shuni yaxshi bilish lozimki, odam shukur qiluvchi va o'ch oluvchi bir maxluqdir. Odamning o'ch olishga bo'lgan mayli shukur qilishligidan ko'proqdir. Yaxshilikni eslaymiz. Lekin yaxshilikni qaytarish izidan tushmaymiz. Biroq yomonlik esimizdan chiqmaydi. Doim o'ch olish uchun chora va tadbir qidiramiz. Shuning uchun hurmatsizlik va insofsizlik ko'rgan xotin hech qachon o'z erini yaxshi ko'rmaydi.

Darvoqe, mamlakatimizda ayollar shuncha zulm ko'rsalar ham o'z erlariga itoat qilib bo'ysunadilar. Lekin ularning bu harakatlari mehr va muhabbatda emas, balki chorasizlik va mazlumlikdandir. Bu kabi qabih va xunuk ishlar faqat bizning mamlakatimizda emas, balki aksar ibtidoiy millatlar ham bu baloga oldin chalinganlar. Shuning uchun ham islom dini ko'proq erkaklarga murojaat qilib, oilada muomala va munosabat xususida ularga ta'lim beradi. Masalan, Qur'on («Niso» surasi)da shunday oyat nozildir: «Ayollarga yaxshi muomalada bo'linglar»[36].

Oysha (r. a.)dan rivoyat bor: «Nabiy (s. a. v.) dedilar: «Sizlardan eng yaxshilaringiz o'z ahli ayoli bilan muomala qilgan kishidir. Men o'z ayollarimga sizlarga bo'lganimdan ham ko'ra xushmuomaladaman».

Oysha (r. a.) rivoyat qiladilar: «Nabiy alayhissalom dedilar: «Eng komil mo'minlar xushxulq va oilasi bilan lutf ila munosabat qiladiganlardir. O'z xotinlariga tanti kishi yaxshilik qiladi va nomardi yomonlik».

Sahoba Ayos bin Abdullohdan hadis: «Nabiy alayhissalom dedilar: «Alloh bandalari bo'lsmish ayollarni urmanglar».

Xotin-qizlar haqiga yaxshilik qilish uchun tashviq va targ'ibotiga mana shu hadisi sharif kifoya qiladi.

Ibn Umar (r. a.) rivoyat qiladilar: «Hazrati Usmon[37] nikohida bo'lgan Payg'ambarning bir qizi Badr urushi[38] vaqtida kasal edi. Shu sabab bilan hazrati Usmon g'azotga bormadilar. Hazrati Payg'ambar buni eshitib dedilar: «Ey Usmon, senga ham Badr urushiga ishtirok etganlar qatori g'animat va o'lja beriladi».

Ko'rinib turibdiki, as'hoblarning sardorlaridan bo'lgan Usmon xotinining xastaligidan musulmonlarning birinchi

g'azotidan qoldi, lekin g'azotning savobi va g'animatidan bir g'oziy sifatida bahramand bo'ldi. Xotinlar haqiga yaxshilik qilishning darajasi bundan ham yuqori bo'ladimi?

OILANING MAISHATI VA IDORASI

Modomiki er-xotin bir-birlariga hayot sheriklari va yo'ldoshi ekanlar, bas, ular tirikchilikning ba'zi ishlari va mas'uliyatini o'z zimmalariga olib, shularni bajarishlari lozim. Ma'lumki, yashash uchun pul va pul topish uchun sa'y va amal lozim. Ayollar erkaklarga o'xshab hayot mushkulotlariga tob bermay, turmush tahliliga qodir emaslar. Tajribasizlik va zaif mijozlari ustiga ayol zoti ba'zi yillari to'qqiz oy «homiladorlik» yukini ko'tarib yuradi, bola tug'ilishidan boshlab tarbiyasi bilan mashg'ul bo'ladi. Yana borib ishlab pul topish esa ularga mushkuldir. Ishlab, sa'y-harakat qilib pul topish bu erkaklar burchidir. Erkaklar bor kuch-qudratlarini ishga solib, pul topib bir qismini ahli ayollari ehtiyojlari uchun sarf qilishlari lozim. Puli va boyligi bor kishilar bola-chaqalari va ahli ayollarining nafaqalari xususida ziqnalik qilsalar, yo nafaqalarini berib minnat qilsalar, yoki oila a'zolarining o'lmasligi uchun bosh-ko'zdan sadaqa berib, o'zlari boshqa joylarda aysh-ishrat bilan mashg'ul bo'lsalar, zulm va insofsizlik qilishlariga shubha yo'qdir. Zulm va insofsizlik esa islomda kufr va haromdir. Bas, erkaklarning bu harakatlari ham haromdir. Biz musulmonlarning diniy ta'limotimiz ham shuni ta'kidlaydi.

Umar (r. a.)dan rivoyat bor: «Payg'ambar odatlari Bani Nazir qabilasining xurmolarini sotib olib ahli ayollarining bir yillik ozuqalari sifatida olib qo'yish edi».

Ibn Mas'ud (r. a.) rivoyat qiladi: «Nabiy alayhissalom dedilar: «Er ahli ayoliga savob niyati bilan nafaqa bersa, ana shu nafaqasi er uchun sadaqa savobini beradi».

Suhbon (r. a.) bayon qiladi: «Nabiy alayhissalom aytdilarki: «O'z hamjinslarining madadi uchun sarflangan erkakning eng yaxshi xarajatlari bu ahli ayollari uchun sarflangan puldir».

Abdullo ibn Umar (r. a.)dan shunday naql bor: «Nabiy alayhissalom aytdilar: «O'z ahli ayoli baytidan nafaqani darig' tutgan erkak katta gunoh qiladi».

Bundan tashqari, mamlakatimizda shunday kishilar borki, o'zlarining yolg'on mulohaza va xato fikrlarini pesh qilib, xotin va bola-chaqalarini tashlab ketadilar, hatto, o'zlaridan keyin ularga hech bir narsa qoldirmaslik uchun hamma mol va boyliklarini vaqf qiladilar. Aslida esa ularning bu harakatlarini islom dini qabul qilmaydi, balki qoralaydi. Sa'd bin Abu Vaqqos[39] hikoyat qiladilar: «Makkada men kasal bo'ldim. Payg'ambar meni ko'rishga keldilar. Men: «Yo Rasulullo, mening o'limimdan so'ng hamma boyligimni Xudo yo'lida sarf qilsinlar, deb vasiyat qilaman», – dedim. Hazrat qabul qilmadilar. «Unda yarmini vasiyat qilayin», – desam ham Hazrat qabul qilmadilar. Dedim: «Uchdan bir qismini vasiyat qilsam bo'ladimi?» Shunda Hazrat buyurdilar: «Sadaqa qilish uchun boylikning uchdan bir qismi ham ko'pdir. Sen bu sirlarni bilasan, boyligingni uchdan birini vasiyat etgin. Ey Sa'd! Merosxo'rlaringni ta'minlab ketish ularni faqir va muhtoj etishdan yaxshiroqdir. Ahli ayolingga nafaqa deb bergan har narsa, hatto, o'z xotiningning og'ziga soladigan bir luqma ham sadaqa savobiga egadir».

Mamlakatimizdagi yana bir odatlardan biri shuki, qizlarmizni ilm olish sharafidan bebahra qoldiramiz. Shuning uchun ham ayollarimiz na e'tiqoddan, na ibodatdan va na dini islom axloqidan xabarlar bordir. Erga tekkandan so'ng ular uy ishlari va bola tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lib, diniy qoidalarni bilish uchun harakat qilmaydilar. Binobarin, er dini islom asoslarini, xususan, islom axloqini qo'llaridan kelguncha munosib muomala bilan tushuntirib berishi lozim. Qur'oni karim hukmi bu vazifani erlar bajarishi lozimligini uqtirib deydi: «Ey mo'minlar, o'zlaringiz va ahlingizni do'zax olovidan muhofizat qilinglar»[40].

Ma'lumki, musulmon to islomiy aqidalarni bilmasa, dini islom axloqiyotiga amal qilmasa, o'zini hech bir zararlardan qutqara olmaydi. Hujjat ul-islom imom G'azzoliy aytadiki, ayol diniy asoslarni bilmasa va eri ham unga ta'lim bermasa, unda din arkonlarini bilmog'i uchun din ulamolariga murojaat etsin. Agarda eri uni bu ishdan man etsa gunohkor bo'ladi.

Shunday qilib, kitobimizning bu faslidan ma'lum bo'ladiki, ahli ayoliga nafaqa berish va islom asoslaridan ularga ta'lim berish erlarning vazifalaridan ekan.

Erkaklar vazifalari qatorida xotinlarning ham vazifa va burchlari bormi? Albatta, bordir. Bu vazifa nimadan iborat? Bolalar tarbliyasi va xona idorasidan. Xotin erining zavjasi, uyning idorasi va bolalar tarbiyachisi, farzandini mehr bilan o'stirish majburiyatining bir qismi uning bo'yniga tushadi. Lekin yuqorida arz qilgan edimki, er-xotinlikning eng buyuk maqsadi farzanddir. Shuning uchun ham aytamizki, ayolning eng muhim vazifasi bu farzand tarbiyasidir. Men farzand tarbiyasi haqida, inshoolloh, shu risolaning bir qismida maxsus to'xtalaman. Bu yerda esa oila idorasi va ro'zg'or tebratish haqida bahs qilamiz. Bular xotinning ikkinchi vazifasi hisoblanadi.

Modomiki, er xotinning yeb-ichish, kiyinish, umuman, hamma ehtiyojini o'z zimmasiga olar ekan va ertadan kechaga hayotning issiq-sovug'iga qaramay, shu vazifasini bajarish payidan yurar ekan, albatta, xotini ham erini uy tashvishlaridan tamoman forig' va xotirjam etishi lozim. Uyni shunday intizom va tartibda tutishi lozimki, eri ko'rganda shodmon va xursand bo'lsin. Eri xizmatdan uyiga qaytsa, yaxshi va xushmuomala qilib mehribonligini ko'rsatsin, toki bozorning og'irlik yuki erining yelkasidan tushsin. Erining mollari va narsalarini o'zining mol va ashyolaridan ham yaxshiroq ehtiyot va saranjom qilishi lozim. O'z erining pullarini behuda yo'llarga: duoxon, folbin, Bibi seshanba marosimi va mushkulkushod uchun sarf va isrof qilmasligi kerak. Chunki bularning bittasidan ham foyda yo'q. Shuning uchun ham islom shariatida bu narsalar noto'g'ri. O'z erlariga shu tariqa mehribonlik ko'rsatib, yordam beradigan xotinlarni Qur'oni karim: «Yaxshi ayollar o'z erlariga itoat qilgan xotinlar. Erlarining mollarini va o'z nomuslarini nobudlik va begonalar qo'lidan himoya qiladiganlar»[41],– deb madh etadi.

Abu Hurayra (r.a.) rivoyat qiladilar: «Nabiy alayhissalom dedilar: «Xotinlarning eng yaxshilari, istasang – seni shod qiladiganlari, amr qilsang – itoat qiladiganlari va oldilaridan uzoqlashsang – mollaringni va o'z nafslarini saqlay oladiganlari bo'ladi».

Xotin haqiqatda erining himoyasida bo'lsa, albatta erining qadriga yetishi lozim. Uning yaxshiliklarini xotiridan chiqarmasdan, arzimas aybi uchun o'zidan xafa qilmog'i

to‘g‘ri emas. Qaysi xotin shunday xatti-harakat qilsa, erining muhabbati unga ziyoda bo‘lib, umri xursandlikda o‘tadi, bu dunyo va oxiratda mamnun bo‘ladi. Ibn Abbos (r. a.) dedilar: «Nabiy alayhissalom dedilar: Menga do‘zax olovini ko‘rsatdilar, u yerdagilarning aksari noshukur ayollar edilar. As’hob so‘radilarki: «Yo Rasulullo, bu ayollar Xudoga nisbatan noshukurlik qildilarmi?» Hazrat javob berdiar: «Ular o‘z erlariga noshukurlik qilganlar. Agarda ularga bir yil yaxshilik ko‘rsatsang-u, arzimas ayb sendan o‘tsa, noshukur xotin: «Men sendan hech bir yaxshilik ko‘rmadim», – deb aytadi». Payg‘ambar (s. a. v.) dedilar: «Qaysi bir ayol o‘lsa, eri undan rozi bo‘lgandagina jannatga tushadi».

Er ham xotinga mushkul va og‘ir ishlarni taklif qilmasligi lozim. Ayol toifasining zaifligi va nozikligini e’tiborga olishi va shunga ko‘ra muomala qilishi kerak, imkon qadar uy ishlarida xotiniga yordam berishi joiz.

Oysha (r. a.) dan rivoyat qiladilar: «Oyshadan so‘radilar: «Payg‘ambar uyida nima qilardilar?» Oysha javob berdilar: «Uyda o‘z ahlining xizmatlariga mashg‘ul bo‘lib, qachon azonni eshitsa chiqar edilar». Imom Buxoriy va Imom Muslim Anas ibn Molikdan bir xil rivoyat qiladilar: «Payg‘ambar safarlarining birida Anjama ismli qora qul ayollari mingan tuyani haydardi. Hazrat buyurdilarki: «Ey Anjama, ehtiyot bo‘lgin, sekin haydaginki, ayolning nozikligi shishaga o‘xshaydi».

IFFAT VA MO‘MINLIK

Mo‘minlik va iffat – ya’ni diyonat va nomus bir oilaning saodati va intizomi uchungina emas, balki bir mamlakatning saodati va barqarorligi uchun ham lozim va zarurdir. Bugungi kunlarda Ovro‘po millatlari hamma tabiiy kuchlarni qo‘lga olib, ilm va san’atlarini hayratga keltiradigan darajaga ko‘targanlar. Ular o‘zlarining buyukligi va qudratlari himoyasi uchun ajoyib maktablar, tog‘dek qal’alar qurib, misli ko‘rilmagan to‘p-u kemalar yasaganlar. Biroq ularning ko‘ngillariga xavf soladigan narsa ana shu iffatsizlik va nopoklikdir. Agarda shu iffatsizlik va chirkinlik ularda shu tariqada davom etsa, bir kuni yo‘q va nest-nobud bo‘lishlariga

shubha yo'qdir. Agarda ana shu behayolik va iffatsizlik bir qavmning mahv bo'lishiga va bir davlatning nobud bo'lishiga katta ta'sir etsa, bas, oila a'zolari o'rtasida ham nosozlik paydo bo'lib, albatta, oila tinchlik va intizom doirasidan chiqib ketadi. Iffat va nomusning himoyasi erga ham, xotinga ham lozim. Chunki ayol eriga o'z iffatini himoya qilish uchun ahd-u paymon qilgan. Er ham ana shunday ahdni o'z bo'yniga oladi.

Qur'oni karim ham bu vazifani erkak va ayollarga barobar amr qiladi. Hatto, avval erkaklarga, keyin ayollarga xitob qilgan: «Ey, Muhammad! Ahli islom erkaklariga aytgin: oshkor va yashirin ko'zlarini haromdan yopsinlar va nafslarini haromdan tiysinlar. Bu harakat ularning o'zlariga pokizaroq, yaxshiroq ko'rinadi. Xudovandi olam qilgan har bir ishdan xabardordir. Ayollarga ham aytgin: ko'zlarini va o'z nafslarini haromdan saqlasinlar»[42]. Shu oyati karimadan ma'lum bo'ladiki, mo'minlik va nomus himoyasi avvalan erkaklarga, keyin ayollarga vojib bo'lgan. O'z xotinlarini nomus va iffatlarini begona ayollar oldida oyoq osti qiladiganlar bilib qo'ysinlarki, birovga zulm qilib aldasalar, o'zlari ham aldanib qoladilar.

G'AYRAT

Modomiki, iffat va nomusning himoyasi erkak va xotinlar bo'ynida farz ekan, bas, ulardan har qaysilari ikkinchi tomonni haromdan qayirish huquqlari bordir. Ularning ana shu ishlarini g'ayrat deydilar. Lekin ko'p erkaklar g'ayratni faqat o'zlarining huquqlari deb biladilar. Kecha-yu kunduz harom ishlarining ketidan yuguradilar, xotinlari bu harakatlaridan xabardor bo'lib qolsa, ularni urushib-urib, bechora xotinni jazoga loyiq deb biladilar. Bu esa zulm va insofsizlikdan boshqa narsa emas. Iffat va mo'minlik erkak va ayollarning vazifalari bo'lgani kabi g'ayrat ham ayol va erkaklarning haqlari sanaladi. Ba'zi erlar rashk va g'ayrat bahonasi bilan xotinlarining ahvolini shu qadar og'irlashtiradilarki, bechoralarning ovozi ham chiqmay qoladi. Ularni, umuman, uydan tashqariga qo'ymaydilar. Hatto, ba'zi johillar «xotinlarini arqon bilan bog'lab qo'yib», hech bir sababsiz xotinlariga tuhmat qilib, ularga azob beradilar. Bu ishlarning

birontasi dini islom ta'limotiga muvofiq kelmaydi. Ayollarga nisbatan hech bir dalil va sababsiz bo'hton qilish quyidagi oyati karima hukmiga binoan man etiladi: «Kimki iffatli va mo'mina ayollarga tuhmat qilsa va u ayol bo'htondan xabari bo'lmasa, tuhmatchi uchun ham bu dunyoda, ham oxiratda jazo bor va ularga qattiq azob belgilangandir».

Xotinlarni g'ayrat bahonasi bilan uydan chiqarmaslik va hatto, so'zlashga qo'ymaslik haqiqiy zulmdir, agar g'ayratni shu darajada xato tushunish shar'an to'g'ri bo'lganda, hazrati Oysha (islomning eng buyuk faqihlaridan sanaladi) hijriy 30-yili[43] bir guruh lashkarga sardor bo'lib, hazrati Usmon qonini talab qilib Makkadan Kufaga kelmas edi va hazrati Payg'ambar ham har bir g'azotdan oldin o'z xotinlarining biri nomiga qur'a tashlab, ularni o'zlari bilan olib ketmasdilar. Payg'ambarimizning. xotinlari bilan qanday munosabatda bo'lgani, uning murosasoz va mehribonchiligini bilish uchun quyidagi hadisi sahihani o'qishimiz lozim.

Oysha (r. a.)dan: «Mening ikkita sozanda kanizagim huzurimda o'tirib kuy chalardilar. Payg'ambar kirib kelib yotdilar. Abu Bakr kelib holimizni ko'rib, jahli chiqib bizni urushdilar. Payg'ambar: «Qo'y ularni», – deb aytdilar. Hayit kuni edi. Masjidda habashiylar urush o'yinini ko'rsatardilar. Payg'ambar mendan: «O'yinni tomosha qilishni istaysanmi», – deb so'radilar. Men: «Ha, yo Rasullulloh», – dedim. Payg'ambar meni masjidga olib bordilar. Habashlarni o'yinga tashviq qildilar. Men Payg'ambar orqalarida turib xohlaganimcha tomosha qildim».

Ibn Molik rivoyatidan: «Hazrat Payg'ambar bir guruh ayollar va go'daklarni to'ydan qaytishlarida ko'rdilar. Mamnun bo'lib joylaridan turib, aytdilar: «Xudo haqqi, sizlar mening huzurimda odamlarning eng azizlaridan bo'lasizlar!»

VISOL

Men arz qilgan edimki, er-xotinlikning birinchi maqsadi farzanddir. Bu maqsadga erishishning vositasi va sababi visoldir. Lekin sog'liqni saqlash qoidalarini bilmagan ba'zi odamlar visol jarayonini shunday o'tkazadilarki, farzandsizlikka olib

keladi. Shuning uchun fursati kelganda shu xususda zamonamiz olimlari va hakimlarining fikrlarini arz qilmoqchiman.

Hakimlar inson umrini sakkiz davrga taqsim qilganlar:

1. Go'daklik davri.
2. Bolalik davri.
3. Balog'at davri.
4. Rivojlanish davri.
5. Kamolot davri.
6. Nihoyat davri.
7. Birinchi qarilik davri.
8. Ikkinchi qarilik davri.

Go'daklik davri tug'ilishdan sakkiz yoshgacha davom etadi. Bu davrda odam a'zolari rivojlanadi va shahvoniy his ma'lum bo'lmaydi.

Bolalik davri sakkiz yoshdan o'n to'rt yoshgachadir. Bu davrning so'ngiga kelib shahvoniy his ko'rina boshlaydi.

Balog'at davri o'n to'rt yoshdan yigirma yoshgacha. Bu davrda urug' hosil bo'lganidan shahvoniy his ziyoda bo'ladi. Lekin tanosil a'zolari va nutfa moddasi kamol darajasiga yetmaydi. Shuning uchun bu yoshda uylanganda, natija yo samara bermaydi, yoki olamga kelgan farzand nogiron, zaif va kamquvvat bo'ladi. Binobarin, hakimlar erkaklarga 23 va qizlarga 18 yoshdan oldin uylanmaslikni maslahat beradilar. Aytishlaricha, bu yoshdan oldin uylanishda bir necha zarar bor. Birinchidan, erkakning aql-u zakovati kamol darajasiga yetmagan, maishat ishlari va oila tebratishda ojizlik qiladi. Ikkinchidan, bu yoshda yosh er-u xotinning aql-u irodalari komil bo'lmaganidan aksar shahvoniy hisga berilib, visolning suiiste'moliga berilib, umrlarining asosini nobud qiladilar. Uchinchidan, bu yoshda badan a'zolari va urug' moddasi hali yetilmagani uchun farzand ko'rmaydilar. To'rtinchidan, farzand olamga kelsa ham zaif va kamquvvat bo'ladi, uzoq yashamasligi mumkin. Beshinchidan, bu yoshda ayol homilador bo'lib qolsa, yoshligi tufayli kuchsizlanib qoladi, jismi rivojlanishdan to'xtashi mumkin.

Rivojlanish davri yigirma yoshdan o'ttiz yoshgachadir. Bu davrda jinsiy a'zolar batamom kuchga kirib faoliyat

ko'rsatadi. Farzand tug'ilishi uchun lozim bo'lgan urug'-ning hamma xosiyat va sifatlari paydo bo'ladi. Shuning uchun ham bu davr inson tuxumining ziroati davri, ya'ni uylanish davridir. Shu davrda er-u xotinning visolga bo'lgan ishtiyoqlari ko'proq bo'ladi. Hakimlar bu davrda er-u xotinga haftada uch marotaba birga bo'lishni maslahat beradilar. Uch martadan ko'p bo'lsa, uni visol ko'pligi deb man qiladilar. Hakimlarning man etish fikrlari xususida pastda arz qilamiz.

Kamolot davri o'ttiz yoshdan ellik yoshgacha davom etadi. Bu davrda odamning hamma a'zolari va kuchlari ka-molga yetadi. Rivojlanish davriga qaraganda kamolot ayomida viqor-u salobat va vazminlik namoyon bo'ladi. Shu davr haqiqatan ham odamning kamolot davri bo'lib, insonning aql-zakovati oldingi tartibsizlikdan xalos bo'ladi. Umrning shu davriga kirgan odamlarga hakimlar haftada ikki marta visolni kifoya deb maslahat beradilar. Nima uchun hakimlar va tabiblar visol ko'pligini man qiladilar? Chunki visol ko'pligi odamning aqlini va sog'lig'ini zaif qiladi, a'zolarining harakatini buzadi, tanasi ko'p kasallarga chalinuvchan bo'lib qoladi. Buning ustiga tanosil a'zolarining qobiliyati ham zaif bo'ladi, ya'ni erkak bora-bora farzandsizlik illatiga giriftor bo'ladi.

Ellik yoshdan boshlab navbat bilan umrning nihoyasi, ya'ni qarilikning birinchi va ikkinchi davri boshlanadi. Bu davrlarda odamning shahvoniy kuchi tadrijan kam bo'ladi va bora-bora barham topadi. Shu davrda ham ko'p visol oldingidek man etiladi. Hayz va uzluksiz qon ketishi vaqtida ham jimo taqiqlanadi. Chunki ba'zi a'zolarda qon qotib qoladi va yomon hidlanadi. Agarda shu vaqtda er xotiniga yaqinlash-sa, tanosil kasalligiga duchor bo'lishi mumkin. Zotan Qur'on-ning muqaddas hukmi ham hakimlar fikriga to'g'ri keladi. «Ey, Muhammad! Sendan hayz hukmin so'raydilar. Aytgin, hayz zarar va ranj keltirar. Bas, hayz vaqtida xotiningizdan chetlaningiz va hayzdan pok bo'lgunlaricha ularga yaqin-lashmangiz»[44]. Islom olimlari kasal jinsiy a'zolarni ham hayz bilan tenglashtirib, Qur'onning shu hukmiga kiritganlar. Hakimlar homiladorlik vaqtida ham jimoni man qilganlar. Bu masalani Xudo xohlasa o'z joyida bayon qilamiz.

MUROSA-YU MADORA

Er-xotin uzoq yillar birga bo'lib shodlik va g'amni birga baham ko'radilar, hayotiy qiyinchiliklarni birgalikda yengadilar. Ba'zan shunday ham bo'ladiki, bu ikkala hayot sheriklari ikkinchi tomonni bir xato harakati yoki qattiq muomalasi bilan xafa qiladi. Bu holatda agarda qarshi tomon o'ch olish fikriga tushib o'sha tariqada harakat va muomala qilmoqchi bo'lsa, bu qarshilik haqoratga va janjalga aylanishiga shubha qolmaydi. Oqibat bu ikkala yo'ldosh bir-birlaridan ajralib ketadilar, shu bahona ularning saodat binosi baxtsizlik va norozilik bilan yerga yakson bo'ladi. Bunday hodisa biz turkistonliklar o'rtasida axloqiy fazilat va islomiy tarbiyadan mahrum bo'lganimiz sababli juda ko'p sodir bo'ladi. Darvoqe, bizning mamlakatimizda odat bo'lgani sababli, bu urush va janjallar er-u xotinni ajralishga olib keladi. Lekin bu hol har bir oila ahlini g'amgin etishi va turmushlarini notinch etishiga shubha yo'qdir. Shu tariqa qaysi xonadonda haftada bir necha marta bunday janjal va xafalikka olib keladigan voqealar bo'lsa, saodat va baxt, albatta, bu uyda bo'lmaydi. Er-xotin bir-birini xafa qilib qattiq muomala qilsa, bir tomon o'zini eshitmaganga olsin va jahlini ichiga yutsin. Boshqa kuni esa shirin so'z va halimlik bilan qallig'iga: «Kecha qilgan harakating nomunosib edi, bunday harakatlarni boshqa qilmagin», – deb tushuntirsin. Ana shu yaxshi muomalani murosa-yu madora deydilar. Islom dini, xususan, erkaklarni murosa-yu madoraga da'vat qiladi: «Ey ahli islom kishilari! O'z xotinlaringiz bilan yaxshi muomala qiling. Agar ularga nisbatan mehringiz bo'lmasa ham (sabr qiling va yaxshi muomalani tark qilmang). Zero, Alloh taolo sizlar yomon ko'rgan narsada ko'p yaxshiliklarni qilib qo'ygan bo'lishi mumkin»[45].

Ibn Umar (r. a.) rivoyat qiladilar: «Nabiy alayhissalom dedilar: «Ayollar haqida vasiyatimni qabul qilinglar va ular bilan murosa qilinglar (chunki ayol erkakning qovurg'asidan yaratilgan), ya'ni ularning xulqi ham qovurg'a suyagiga o'xshab egilgan. To'g'rilamoqchi bo'lsang sinib ketadi. O'z holiga qo'ysang, shu egriligicha qoladi. Bas, ayollar haqiga qilgan vasiyatimni qabul qilib, ular bilan murosa-yu madora

qilinglar». Abu Hurayra (r. a.)dan rivoyat: «Ayollarning xulqi tabiatan yon qovurg'aga o'xshab egri bo'ladi. Agarda ularning xulqini kuch va zo'rlik bilan to'g'rilamoqchi bo'lsang sindirasan (ya'ni sendan ajraladi) va shu holatlaridan foydalanmoqchi bo'lsang foyda ko'rasan».

Foyda. «Xudo Momo Havoni Odamning chap qovurg'asidan yasagan», – degan so'z yahudiy xurofotidan kelib chiqqan. Islomning aksar olimlari ham shu bema'ni rivoyatga qo'l-oyoqlari bilan yopishib olganlar. Har xil kitoblar sahifalarida yozib qo'yganlar. Ba'zan tafsir arboblari ham Qur'onning ba'zi oyatlarini shu hikoya orqali sharh berganlar. Agarda ularga e'tiroz qilsak, yuqoridagi hadislarni keltiradilar. Birinchi hadisda, ya'ni Abdulloh bin Umar rivoyatida, «ayol yon suyagidan yaratilgan» degan. Ammo ozgina diqqat qilsak ko'ramizki, Abdulloh bin Umar hadisi ularga dalil bo'la olmaydi. Chunki ikkinchi hadis Abu Hurayra hadisi bo'lib, Payg'ambar tilidan aytilgan, ya'ni «ayol qovurg'a suyagiga o'xshaydi» degan. Birinchi hadis ham, payg'ambar so'zlari ham tashbeh va mubolag'adir. Payg'ambarning maqsadlari shulkim, ayollar tabiatida noto'g'ri xulq shunday joylashganki, qiyshiq yon qovurg'aga o'xshaydi. Masalan, «Xudo falonchining qalbini toshdan yaratgan», – deb aytganimizdek, bu kabi mubolag'alar, o'xshatishlar hayotimizda ko'p uchraydi.

TALOQ

Ikkita tijoratchi bir-birlariga sherik bo'lib ishga kirsalar, do'st bo'lib g'araz va tamasiz ish tutsalar, do'stliklari va shirkatlari boqiy qoladi. Ammo o'rtalarida yomon fe'l g'oliblik qilsa, o'zaro nafratlari ko'payadi va bir-birlaridan ko'ngillari qoladi. Bu holatda ularning yagona bir yo'li – sheriklikdan voz kechishlari bo'ladi.

Yuqorida arz qilgan edikki, er-xotin ham hayotda bir-birlarining sheriklari bo'lib, nikoh ularning ahd-paymonlaridir. Hayot yo'ldoshlari orasida nafrat va ko'ngilsizlik paydo bo'lib, muhabbat va mehr yo'li berkinib qolsa, albatta ular ajralib ketishdan boshqa choralari qolmaydi. Ana shu bitimga chek qo'yishni shariat tilida «taloq» deb aytadilar.

Haqiqatda ham ba'zan er-u xotin o'rtalarida nafrat va bezorilik to'xtamaydigan darajaga yetadi. Bu suratda taloq bo'lmasa, er-u xotinning umri g'am va qayg'uga sarf bo'lib qoladi. Shuning uchun ham islom dinida taloqni ana shunday kunlardan xalos bo'lish uchun qo'llaydilar. Mamlakatimizda taloq fojiaviy bir holatga tushib, u haqda gapirish ham qiyindir. Masalan, bir kishi bo'lgan va bo'lmagan narsalarni sarf qilib, ming mushkulotlar bilan uylanadi. Hayotda esa bu ikkala sherikning tabiatlari muvofiq kelib yaxshilik va shodmonlik bilan yashaydilar. Bir necha yil o'tib ikki-uch farzandning sohibi ham bo'ladilar. Hayot boshidagi qiyinchiliklardan o'tib, er ikki-uch tanga qo'lga kiritadi, xotin ham uy ishlarida usta bo'lib qoladi. Yoshlik davrlarini ham vafo yo'lida sarf qiladilar. Xullas, bechora hayot hamrohlariga rohat va tinchlik davri kelib, yoshlik ayyomining sa'y va harakatlari samarasini ko'rmoq kunlari yaqinlashadi. Shu vaqtda jahl ustida mastlik holatda, hatto, ba'zan hazil qilib er tilidan shu «taloq» so'zi chiqib ketadi. Tamom! Qilgan-qilmagan ishi bir pul! Xotini va bola-chaqalari yorilgan qalblari ila yosh to'la ko'zlari bilan uydan chiqib ketadilar. Hayotlari kuyib ketadi. Qilgan sa'y-harakatlari nobud bo'ladi. O'zi yolg'iz qolib ketadi, farzandlari yetim qolib, umr yo'ldoshi darbadar yuradi... Er: «Yomon ish qilganim yo'q», – deb o'ylaydi. Dunyoda zarari bo'lgan ishni, odamlar hayotiga vayronalik keltiradigan amalni nozil bo'lgan kitoblar va haq din qabul qilmaydi. Vaholanki, haq din bani Odam saodatining sabablarini to'g'ri va ochiq bayon qilgan dindir. Odamlarni halokat jarligiga soladigan din – haq din va baxtsizlikka hidoyat qiladigan kitob – samoviy kitob bo'lmaydi!

Xudo haqqi ayting! Shu haqda sizning fikringiz qanday? Siz ham islom dinining haqligi va Qur'oni karim osmoniy kitob ekanligiga imonlaringiz komilmi yoki yo'q? Xudo ko'rsatmasin, imoningiz komil bo'lmasa, uni kamolga yetkazing va agar ishonsangiz, darrov mening da'vatimni qabul qiling! Ha, islom dini taloqqa ruxsat bergan, lekin zarur bo'lgan holatlarda ijozat bergan. Boshqa holatlarda bu hukmdan foydalanish to'g'ri emas, gunohdir. Xotinning niyati yaxshi bo'lsa-yu, nodonlik va tajribasizlik yoki qaysarligi

bilan uy ishlarida, bola tarbiyasida, eriga bo'lgan munosabatlarida bir xatoga yo'l qo'ysa, unga afv ko'zi bilan qarash, marhamat ko'rsatib, murosa qilib yashash lozim va zarurdir. Bu so'zlarni men yuqorida aytib o'tgan edim. Ammo xotin o'z niyatlaridan qaytsa, eriga adovat va xusumat ko'rsatsa (yomonlik va dushmanlik qilsa), bilib va ko'rib turib erining hayotini buzsa, ul holda er munosib ravishda xotiniga nasihat qilib, to'g'ri yo'lga da'vat etishi lozimdur. Ayollarning ko'ngillari yumshoq va ehtirosli bo'ladi. Ko'pincha ma'qul so'zlar va do'stona o'gitlardan ayollar ta'sirlanib yomon ishlardan va amallardan qaytadilar. Agarda va'z va nasihat ham foyda bermasa, unda er ikki-uch kecha undan uzoqlashib o'rnini alohida qilsin, ya'ni u bilan yotmasin. Bu harakat ham ayollarning tabiatlariga ta'sir etish uchun yaxshi vositadir. Bu vosita ham foyda bermasa, u vaqtda xotinni urishi ham joyizdir, faqat hech joyini ko'kartirmasdan, qattiq ozor bermasdan jazo bersin.

Payg'ambar (s.a.v.) dan hadisdirki: «Agarda xotinlaringiz shar'iy va savob ishlarda sizlarga bo'ysunmasalar, ularni majruh qilmasdan va ko'kartirmasdan, qattiq ozor bermasdan uringlar» («Tafsiri Tabariy»dan).

Bu bilan ham bo'lmasa, shariat hakimi ikki tomondan bir vakil tayinlaydi. Ular kelib ahvolni tekshiradilar va islohi uchun harakat qiladilar. Vaziyat o'zgarmasa taloqqa ijozat bor, zarar qilmaydi. «Ul xotinlaringizkim, sizlarni haqir deb biladilar, sizlarga adovatlari bor, xiyonat va itoatsizlik qiladilar va ularning bu harakatlarini bilganingizda va'da va nasihat qilib Xudoni eslariga solinglar va bu nomunosib ishlardan man qilinglar. Agarda shunga ham bo'ysunmasalar, o'rinlaringizni alohida qiling. Bu bilan ham bo'lmasa, ularni (ko'p ozor bermaslik sharti bilan) uringlar. Shundan keyin ular bema'ni harakatlardan qaytsalar, boshqa bahona qidirmasdan haddingizdan oshmanglar, ya'ni so'zlaringizni qabul qilsalar ulardan uzoqlashmanglar, urmanglar. Erkak bo'lganingizdan mag'rur bo'lib, asossiz gumonlarga borib, ayollarga zulm va jafo qilmanglar. Alloh hamma mavjudotlardan oliy va buyukdir, sizlardan ularning o'chini oladi. Ey mo'minlar, agarda er-xotinning ishlarini mushkul

holatga tushganini ko'rsangiz, er va xotin tomonidan bittadan ishbilarmon vakilni tayin qilib, er-xotin ishlarini tekshirish uchun yuboringlar. Agarda bu ikki vakil chin qalbdan er-xotin ishlarini isloh qilmoqchi bo'lsalar, Xudo ularga madad beradi. Alloh bilguvchi va xabardor zotdir. Ammo bu vakillarning boshlarida fitna va buzg'unchilik bo'lsa jazolarini ko'radilar»[46].

Foyda. Shu oyatni yozib tarjima va izohi bilan mashg'ul bo'lib o'tirganimda bir do'stim muloqot uchun keldi. Men shu mavzuda suhbat qurmoqni orziqib kutar edim. Shu masalani uning huzurida bayon qilib, oyatni o'qib berdim. U kulib aytdi: «Ey Abdurauf, xotinlarni urish va haqoratlash biz buxoroliklarni umumiy odatlarimizdir. Lekin bugungacha bu yaramas harakatimiz shariatga muvofiq ekanini bilmasdik. Shukurkim, bugun sen bu ish mumkin ekanini tushuntirding. Inshoolloh, bundan keyin xotinlarimizni ko'proq va yaxshiroq uramiz». Dedim: «Azizim! Masalani to'g'ri tushuntira olmadim shekilli! Islom dini ayollarni urishni man qiladi, balki erkakrlarga xotinlaringizga marhamat va murosa-yu madora qilib, hurmat qilinglar deb amr qilgan. Yuqorida men bu masalani bayon qilgan edim. Lekin senga bayon qilgan bu masala alohidadir. Faraz qilaylikki, bir yomon xislatili va badaxloq ayol bor. Bechora er xotinining unga adovati borligini bilib, uning halovatini buzayotganini tushuntiradi. Xotin quloq solmaydi. Ikki-uch kun xotinidan uzoqlashadi. Xotin shundan ham xulosa chiqara olmaydi. Shunda siz ham bilasizki, erning xotiniga taloq berishdan boshqa iloji qolmaydi. Biroq islom dini taloqni man qilmoqchi bo'lib, erga: «Taloq berishga shoshilmagin», – deb amr qiladi. Xotinning a'zolarini mayib qilmay va lat bermay uni ozgina urgin, zora yomon ishdan tavba qilsa va munosabati o'zgarsa.

Mening izohimdan bildingki, Qur'on hukmi maslahat yuzasidan bo'lib, ahli islom oilalari uchun, xususan, musulmon ayollariga buyuk marhamatdir».

Men bu shaxsiy suhbatni shu uchun yozdimki, boshqalar ham mening bayonotimni shu do'stimga o'xshab tushunib, xotinlarini urish uchun bahona qilib olmasinlar.

Endi asl maqsadimga qaytaman. Shunday qilib, islom dini er-xotinga har xil bahona bilan ajramasliklari uchun shunday choralarni ko'rsatadi. Shu chora-tadbirlar foyda bermagandagina taloqqa ruxsat beradi. Biroq, bu amr taloqqa e'ribor nazari bilan qarab, ajrashgan er-xotin ko'ngillariga taskin beradi. «Agarda er-xotin tinchlik va rozilik bilan ajrashsalar, Alloh keng marhamati va karami bilan ularni bir-biridan behojat qiladi»[47]. Ammo zaruratsiz, balki nafs havosining taqozosi bilan taloq berilsa, albatta, gunoh va haromdir, albatta, gunohkor jazosini oladi.

Ibn Umar (r. a.)dan rivoyat: «Nabiy (s.a.v.) deganlarki: «Alloh oldida eng yomon halol bu taloqdir».

Sahoba Muharrib (r.a.)dan hadis: «Nabiy (s.a.v.) dedilar: «Alloh o'z oldida taloqdan ham yomon bo'lgan narsani halol qilmagan».

Sahoba Suhbon (r.a.) rivoyat qiladilar: «Nabiy (s.a.v.) aytganlarki: «Qaysi xotin bezarurat va ehtiyojsiz eridan taloq talab qilsa, jannat va Alloh rahmati unga tegmaydi».

Ibn Hurayra (r.a.) hadis keltiradi: «Nabiy alayhissalom dedilar: «Hech bir mo'min o'z xotinidan nafrat qilishi to'g'ri emas, zero xotinining ba'zi odat va atvori uning nazarida yomon ko'rinsa ham, ba'zi odatlaridan rozi bo'ladi. Bas, uning yomonliklarini yaxshiliklariga baxshida etsin».

Er-xotin munosabatlarini batafsil yozsam, so'z cho'zilib ketadi. Bu yerda faqat lozim bo'lgan narsalarnigina yozdim. Bundan ortiqchasini bu risola ko'tarmaydi. Shu kitob haqida o'ylab yurganimda, yozish uchun maxsus reja tuzgan edim. Uylanishdan oldingi masalalardan boshlab lozim narsalarni tartib bilan yozmoqchi edim. Kitobning boshidan shu tartib bilan tahrir qilib keldim. Kitob boblarining nomi ham shunga munosib. Lekin taloq masalasi rejamga to'g'ri kelmadi, tanlagan ixtiyorimga xalal berdi. Aslida o'ylamasdan aytilgan so'z faqat hayotning nizomini emas, balki mening ish tartibim va kitobim rejasini buzgani ham ajablanarli hol emas. Chunki taloq natijasi vayronalikdir. Hech bir oilaga bu amri mash'um tushmasligini Xudodan tilaymiz. Har bir er-u xotinga Alloh kerakli darajada aql-u insof ato etsin, toki ular umrlarini yaxshilik, muhabbat va murosa bilan rohatda

o'tkazsinlar. Men kitobim asosiga shu umidli orzularni qo'yganim va taloqni bo'lmag'ur narsa deb, suhbatimni murosa-yu madoradan boshlaganman.

Oldin arz qilgan bayonotimdan ma'lum bo'ldiki, er-xotin munosabatlarining bir odobi murosa ekan. Bu ikkala hayot yo'ldoshlari va hamrohlari muhabbat va murosa bilan yashab, xotin homilador bo'lganigacha ro'zg'orlarini yaxshilik va shodonlik bilan kechiradilar. Xotin homilador bo'lgandan keyin er-xotinning mushkulotlari yana og'irroq bo'ladi. Chunki homiladan oldin er-xotin bir-birlarining oldidagi vazifalari tirikchiliklarining ta'mini va qalblarining taskinidan iborat edi, xolos. Ammo shu daqiqadan boshlab ular ota va ona bo'ladilar. Ularning zimmalariga bola hayotini ta'min etish burchi tushadi. Ularning birlik va ittifoqlarining daraxti hosil berdi. Endi ular hayotning natija va mushkulotlarini birga ko'radilar. Shu borada ular qancha shukur qilsalar ham kamdir. Lekin quruq shukur qilishning ilm va hikmat oldida e'tibori bo'lmaydi. Olamga kelgan go'dak hayot sharbatidan endi bahramand bo'la turib, yo'ldan qaytmasligini ota-onalar ta'min qilishlari lozim. Biz ham endi ota-onaning vazifalari haqida bahs qilamiz.

HOMILADORLIK DAVRI

Shu risolaning boshida arz qilgan edimki, taraqqiy qilgan madaniy millatlar doimo e'tibor va shuhratlarining rivojini o'ylab, bu uchun aholi sonining ko'payishini asosiy sabab deb biladilar. Qaysi qavmning soni yildan yilga kamayaversa, bora-bora dunyoda nom-nishoni qolmasligiga shubha yo'qdir. Shunday ekan, qaysi qavm yo'q bo'lishni xohlamasa, aholi sonining ko'payishi uchun harakat qilishi va bu muddao hosil bo'lishi uchun avval ona qornidagi bolani saqlashga, go'daklarni esa turli kasalliklarga chalinishiga yo'l qo'ymasligi lozim. Zotan, islom dini nazarida nikohning birinchi maqsadi ham odam naslining ko'payishidadir. Binobarin, musulmonlar hamma kuch-quvvatlarini avlodlarining himoyasiga qaratishlari kerak. Chunki hech bir ota-ona farzandini bila turib nobud bo'lishini xohlamaydi. Ona qornida bola paydo bo'lgandan so'ng uning hayot-mamoti ota-onaga bog'liq.

Shuning uchun ham ular bolaning nobud bo'lishiga olib keladigan ishlarni qilmasliklari shart. Masalan, homiladorlikning ikkinchi oyidan to'rtinchi oyigacha ko'p onalar bola tushiradilar. Buning sabablari qo'rquv, kamquvvatlik, og'ir ishlarni bajarish, birga bo'lish va ko'p qayg'urish bo'ladi. Shu og'iroyoqlik vaqtida ayollarni xonada yolg'iz qoldirish, og'ir ishlarni buyurish, umuman, to'g'ri emas. Homilador bo'lgan xotinlarni yolg'iz qoldiradigan yoki og'ir ishlarni buyurib, ularga yordam bermaydigan erkaklar o'z farzandlarining joniga qasd qilgan bo'ladilar. Homiladorlikning ikkinchi oyidan boshlab er xotiniga yaqinlashmasligi lozim. Bu masalada hayvonlar bizlardan yaxshiroq. Ularning ehtiyotliklari bizlardan ko'proq. Ular homiladorlik vaqtida o'z juftlariga yaqinlashmaydilar. Lekin biz odamlar shahvatparastlik darajasida hayvonlardan o'tib ketamiz. Sabrsizligimiz shu darajaga yetganki, homiladorlik vaqtida ham xotinlarimizga tinchlik yo'q. Yarim soatlik bema'ni lazzatimiz uchun aziz farzandimizni ham ayamaymiz. Ikki oylikdan to'rt oygacha jimo vaqtida bola tushirish xavfi ko'p bo'ladi, to'rt oydan keyin bu xatar kamroq bo'lsa ham yo'qolmaydi. To'rtinchi oydan bola ancha katta bo'ladi. Visol vaqtida bola mayib bo'lishi mumkin. Bas, ikkinchi oyligidan xotinga yaqinlashmaslikni maslahat beramiz. Agarda erkaklar shahvatlari tufayli bu qoidaga rioya qilmasdan o'z farzandlarini nobud qilmoqchi bo'lsalar ham, xotinlari bunga yo'l bermasliklari lozim.

Homilador ayollar shu vaqtda juda nozik bo'ladilar. Har xil bahonalar bilan xafalanib g'amgin bo'ladilar. Bu qayg'urish haddidan ziyod bo'lsa, bola tushirishga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham homiladorlik vaqtida erkaklar o'z xotinlarini ayab-ardoqlab, ra'ylariga qarashlari lozim, hech bir bahona bilan ularni xafa qilishlari mumkin emas. Kamquvvatlik ham bola yo'qotishga sabab bo'ladi. Buning oldini olish uchun ona ko'proq bahavo joylarda bo'lib, tez hazm bo'ladigan kuchli, masalan, sut, parranda go'shti, tuxum iste'mol qilishlari zarur. Palov, quruq non kabi badhazm ovqatlardan parhez qilishlari lozim. Kasal bo'lgan holda o'tkir do'xtirlarga murojaat qilib, o'zlarini davo

qilishlari zarur. Bola tug'ilish vaqti ota-ona uchun ajoyib va mas'uliyatli vaqtdir. Shu holat ularga otalik va onalik lazzatini beradi. Ota-ona hayotlarining mevasidan bahramand bo'lish ishtiyoqida intizor turadilar. Ana shu vaqtda yosh ota-onalarga biroz maslahat berishni o'zimning burchim deb bilaman.

Arz qilamanki, bola tug'ilishi vaqti ota-ona umidvorliklarining oxirgi daqiqalari bo'lib, ulardan hushyorlik va ehtiyotlik talab qilinadi. Toki intizorlikning oxirgi daqiqalari qayg'uning birinchi domiga aylanmasin. Albatta, har bir ota-ona bu qora kunlardan qo'rqadi va bu xususda ba'zi chora-tadbirlarni ham ko'radi. Biroq bu ehtiyotliklar va tadbirlar ilm-u hikmatdan uzoq bo'lganida foyda bermaydi. Shuning uchun ham olamga kelgan aksar go'daklar tez nobud bo'ladilar. Mamlakatimizda ota-onalar bolalarining sog'lig'ini himoya qilish uchun quyidagi ishlarni qiladilar:

Birinchidan, bola tug'ilish oldidan xotinlarni biron mozor ziyoratiga yuborib, kushoyish tilaydilar. Mozorlardan hojat tilash, yordam so'rash haromdir.

Ikkinchidan, bolani biron mozorga nazr qiladilar. Buning ham foydasi yo'q, chunki nazr ham to'g'ri emas.

Abu Hurayra (r.a.)dan hadis: «Nabiy (s.a.v.) aytganlarki: «Nazr qilmanglar. Nazringiz sizlarni ilohiy qonunlarning birontasidan beniyoz va xalos qilmaydi».

Uchinchidan, falon va pismadon duoxondan duo olib, ezib iste'mol qiladilar.

Ota-onaning farzandlari haqida qiladigan tadbirlari shulardan iborat. Mening vazifam xalqqa xizmat qilishdir. Shuning uchun ba'zi ilmiy va tabiiy tadbirlarni bayon qilishni shart deb bildim.

Shuni bilish kerakki, bola tug'ilishining vaqti og'ir va xatarli soat sanaladi. Ko'p holatlarda hayotining samarasini ko'rmoq uchun ochilgan volidaning intizorlik ko'zi oldida bola nobud bo'ladi. Ota esa umidvorlikning oxirgi soatlarida ham farzandi, ham rafiqasidan mahrum bo'lishi mumkin. Bola olamga kelish soatlarida er boshini mahalla kampirlarining johilona mashvaratlari bilan band etmasdan, shaharning eng johillaridan bo'lgan doyalariga ishonmasdan,

tezlik bilan o'tkir do'xtirlarning birontasini doyalik uchun da'vat etsin. Shahar doyalari dedim-u, bir hodisa xotiramga keldi. Kecha menga iltifoti bo'lgan shahrimiz a'yonlarining uyida mehmon edim. Suhbat chog'ida ul muhtaram zot bir voqeani bayon qildi. Agarda biz buxoroliklarni ibrat oluvchi ko'zlarimiz bo'lsa, bu hikoyatdan, albatta, biror foyda olamiz. Xudovandi karim shu yaqinlarda ul zoti muhtaramga bir farzand ato qilgan ekan. Bu shaxs uyida bo'lmaganida xotinini dard tutibdi. Ikki-uch ayol jam bo'lib, o'zaro maslahatlashib falon «momodoya»ni olib kelibdilar. O'sha nodon kampir homilaning vaziyatini yengillatish o'rniga ancha noma'qul ishlarni qilib, 20 tanga va ham bir liboslik bo'zni olib ketibdi. Eri qaytib kelib, xotinining ahvolini ko'rib, do'xtir olib kelibdi. Do'xtir bemorni tekshirib shunday debdi: «Qaysi bir nodon aralashib bolaning joylashishini o'zgartiribdi. Yo'ldoshi bo'yniga o'ralib bola o'libdi. Onasining hayoti ham xatarda». Do'xtir dori berib ketibdi. Dori iste'molidan so'ng jonsiz bola olamga kelibdi, lekin...Onasi esa bemor. Ana shunday qilib nodon ayollar mahalla kampirlari orqali farzandlarini o'ldiradilar.

Biz maqsadimizga qaytsak. Do'xtir nazorati ostida ona o'z yukidan ozod bo'lgandan so'ng sog' va salomat bola dunyoga qadam qo'yadi. Do'xtir farmoyishi bilan ona bolani cho'miltirib, yo'rgak qilib, jon-u dili bilan uning tarbiyasiga mashg'ul bo'ladi.

IKKINCHI QISM

FARZAND TARBIYASI

Bola otasining pushti kamaridan ona rahmiga o'tmagunca, er-xotin bir-birlariga faqat hayot sheriklari bo'ladilar. Shu muddatda ularning ishlari bir-birlarining og'irligini yengillashtirishdan iborat bo'lib, boshqa vazifalari bo'lmaydi. Biroq bola ona rahmidan joy olgan zahoti, er-xotin bolani nobud bo'lishiga olib keladigan har qanday xatti-harakatlardan voz kechishlari lozim. Bu vazifa uncha mushkul emas. Oiladagi eng og'ir vazifa bola tug'ilgandan keyingi farzand tarbiyasidir. Farzand tarbiyasi aslida ikki kalimadan

iborat. Shuning uchun ham nazaringizda juda mayda muammodek ko'rinadi. Lekin dono odamlar biladilarki, bani Odamning siyosiy, diniy, ijtimoiy inqiloblarining asosi ana shu ikki so'z – «bola tarbiyasi»dan iborat birikmaga bog'liq. Bu xalqning harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e'tibordan qolishi, o'zgalarga tobe, qul va asir bo'lishi, bolalikdan o'z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog'liq.

Bir hakim aytgan ekan: «Bani Odam bolalarining tarbiyasini menga qoldirsalar, odamlarning ahvolini butunlay o'zgartirib yuborar edim».

Jahon xalqlarining ahvolini bugun mulohaza qilsangiz, shu hakimning so'zlari tasdiqlanadi. Hozirda 40 million ingliz 400 million hindiy va afrikaliklar ustidan hokimdir. Chin hukumati 400 million aholisi bilan 40 million yaponning hiyla va nayrangi o'yinchog'iga aylangan. 60 million olmonlar ikkita zaif davlat (Avstriya va Turkiya)ni yonlariga olib, aholisi 750 millionga teng keladigan yetti davlat bilan urush qilyapti. Kishining nazarida ajib va g'aroyib ko'rinadigan bu voqealar tarbiya ta'siridandir, zero bolalarning tarbiyasi bu farzandni jismonan, fikran va axloqan tarbiya qilib, kamolga yetishtirish demakdir. Ya'ni ularni urinish va tirishish sahrosiga, ya'ni hayot-mamot maydoniga kuchli badan, sog'lom fikr va yaxshi axloq bilan qurollantirib yuborish demakdir. Ma'lumki, inglizlar hind va misrliklardan, yaponlar Chin xalqidan jismonan, fikran va axloqan ancha komildirlar. Ularning bu kamolotlari tarbiya natijasidir.

Endi kelinglar, ko'raylik-chi, biz musulmonlar, xususan, turkistonliklar o'z farzandlarimizga tarbiya beryapmizmi yoki yo'qmi? Savolning oxiridagi so'z bunga javob bo'la oladi, ya'ni «yo'q!» Men buni shunday isbot qilaman. Biz turkistonliklar bolalarimizdan ko'ra mollarimizga yaxshiroq qaraymiz. Eshak va qo'ylarimizni farzandlarimizdan ham ko'proq yaxshi ko'ramiz deb aytmayapman. Yo'q-yo'q, bolalarimiz jonimizdan ham aziz. Ular nazarimizda hammadan suyukli va aziz. Lekin baxtimizga qarshi shuni e'tirof qilish lozimki, shuncha muhabbat va mehrga qaramasdan,

eshak va qo'ylarimizdan kamroq tarbiyalaymiz! Mening bu so'zlarimdan hayron bo'lmang, sabr qiling, da'vomini isbotlayman. Falon narsani tarbiyalash, ya'ni uni asta-sekin kamolga yetishtirishdir. Nazarimizda qo'yning kamoli uning semizligi va sog'lomligidadir. Eshakning kamoli uning kuchi, oyoqlarining baquvvatligi va yaxshi yurishidadir. Faraz qiling, qo'zi yoki xo'tik sotib olib uyga keltirasiz. Diqqat bilan ularga qarab, bir muddatdan keyin qo'yni semirtirib, eshakni baquvvat va yo'rg'a qilasiz, ya'ni ularni tarbiyalab, kamolga yetishtirasiz. Ammo aziz farzandlaringizga shunday diqqat bilan tarbiya bermaysiz. Bahona qilasizki, bolangiz ham kamolga yetishgan. E'tiroz qilishingiz mumkinki, biz mollarimizni boqishga qancha harakat qilsak, farzandimiz tarbiyasiga ulardan yuz barobar ko'proq harakat qilamiz deb.

Bu da'voingiz ma'lum bo'lsa-da, ammo to'g'ri emas. Dalil shulkim, kimning uyida moli bo'lsa, tekshirsa ko'radiki, yil davomida uning mollaridan bittasi ham kasal bo'lmagan, ammo farzandi hech bo'lmasa, uch marta xastalikka chalingan. Bas, ma'lum bo'ladiki, u kishi molining kasal bo'lmasligiga ko'proq e'tibor berar ekan. So'zingiz to'g'ri bo'lsa ham mening da'voimga hech zarari yo'q, chunki bolaning sog'lig'iga e'tibor berish ham farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishni bildirmaydi. Haqiqatan, agar odam qo'y va eshakka o'xshab kamol topishi sog'liq, bilaklarining kuchliligi bilan chegaralanib qolganda edi, biz ham farzand sog'lig'i uchun bo'lgan harakatni, farzand tarbiyasi deb atardik. Tan-u to'shli va sog'lom bolani kamolga yetishgan deb qabul qilardik.

Odamning kamoli faqat sog'liq va kuchdan iborat bo'lmay, balki jismonan, aqlan va axloqan yuksalishdan iborat. Odamning jismi, aqli va axloqi turli kasallik va nuqsonlardan uzoq bo'lishi lozim. Odam ham o'z manfaatini o'ylab, ham yaqinlarini baxtiyor qilishga qodir bo'lib o'sishi lozim. Zotan, bu mantiqiy olishuvlarga nima hojat bor? Agarda ko'zingizni xurofot va manmanlik pardasi to'smagan bo'lsa, Buxoro va Buxoro ahliga nazar tashlang! Hamma narsa kundek ravshandir. O'rningizdan turingda, hikmat kamarini belingizga bog'lab, aql va hikmat mezoni

bilan jismoniy, fikriy va axloqiy ahvollaringizni tekshiring. Aksar bunga hafsalamiz yetmaydi. Shunday bo'lsa menga hamrohlik qilsangiz, men shu xususda ham sizga yordam beraman.

Bismilloh! Uydan chiqib katta yo'l bilan Devonbegi hovuzining labiga borib, boshqa yo'l bilan uyga qaytib keldik. Bu sayohatimiz bir soat davom etdi. Ana shu sayohatimiz davomida diqqat qilgan bo'lsangiz, yo'l-yo'lakay o'ttiz-qirqta sil kasal, yigirma-o'ttizta tepakal, o'n-o'n bitta ko'r, soqov, shuncha oqsoq, kamida to'rt-besh shol va pesni uchratdik. Qolganlar sizningcha sog'-salomat edilar, ya'ni har qanday xastalikdan ozod edilar. Lekin mening nazarimda ular ham har xil kasalliklarga chalingan edilar. Ranglari o'chgan, qomatlari egik. Tanalari notavon, ikki yuz qadam yo'lni oh-voh bilan bosardilar. Uzoqqa bormaylik, ikkalamiz ham bir soatlik sayohatimiz chog'ida ancha charchadik. Hozir a'zoi badanlarimiz og'rimoqda. Xullas, xalqimizning sog'lig'i shu darajada.

Endi ularning fikriy ahvollarini tadqiq etaylik. Buxoro aholisi turli toifa va guruhlardan iborat. Ba'zilari mulla, ba'zilari sipohi. Bir guruh tijoratchi, bir toifa kosiblar va to'da dehqonlardan iborat. Ana shu guruhlarning fikriy ahvolini birma-bir tadqiq qilishimizga to'g'ri keladi. Boshida bu toifalar orasida mullalarning fikriy tarbiyalari yaxshidek ko'rinadi, ya'ni ularning aqliy qobiliyatlari boshqalarnikidan o'tkirroq va fikrlari boshqalarnikidan sog'lomroqdir. Vaholanki, ularning har biri yigirma-o'ttiz yil umrlarini mudrasalarda tahsil bilan o'tkazadilar, lekin o'qiganlarini sizlarga tushuntirib bera olmaydilar. Mabodo biror narsani tushuntirmoqchi bo'lsalar ham arabcha so'zlardan nutqlarini shunday to'ldirib tashlaydilarki, omma bu nutqni tushunmaydi. Ularning so'zlarini rad etsangiz, darrov tahqir va haqoratga o'tadilar, johil va kofirlikda ayblaydilar. Bu janoblarning ishlari muddaolarini isbotlashdan nariga o'tmaydi, vaholanki, umrlarinning yarmi mantiq ilmini o'rganishda o'tadi.

Ma'lumki, da'voni isbotlash uchun aql va mantiqdan boshqa vosita yo'q. Ularning qo'llaridan kelganda edi, o'z muddaolarini aql va mantiq yordamida tushuntirib berardi-

lar. Lekin bu ish qo'llaridan kelmaydi, ya'ni ular aqlli tarbiya qila olmaydilar. Aql va mantiq o'rniga esa johillikda ayblab, tahqir va so'kishni ushga soladilar. Bu jamoaning kazo-kazolari dunyoviy va maishiy ishlardan hech xabarlari yo'qdir. Ular bu jaholatni fazilat deb biladilar.

Avom toifasining xoh tijoratchi bo'lsin, xoh sipohi, yo kosib, dehqon bo'lsin o'z kasb-korlari haqida maslaklari haqida bir fikr va ma'lumotlari yo'q. Qilayotgan ishlaridan maqsad nimaligini bilmaydilar. Qaysi vosita va usullar foyda keltirishini tushuntirmaydilar. Aksarlari hali ham Yaponiya imperatorini Buxoro amirining amakivachchasi deb biladilar. Mavqeini yo'qotgan Chin davlatini jahongir bir davlat deb biladilar. O'tmish va hozirni solishtirib, xarob bo'lgan bo'lsa, sababini izlab topib bartaraf qilish, obod va rivoj topgan bo'lsa, negizini yana ravojlantirish birontasining qo'lidan kelmaydi, miyalariga bunday fikrning o'zi kelmaydi.

Rus va farang (Ovro'po) mamlakatida har bir sipoh o'z amal va mansabiga muvofiq ilm sohibidir va foydasini ham biladi. O'zining martaba va darajasini ilmining natijasi va iqtidoridan deb biladi. Shu ham aniqki, agar o'z mulki va davlatiga xiyonat etsa, mansabi va unvonidan mahrum bo'ladi. Sababi u o'z mansabi va martabasini ilmning barakati va iqtidori tufayli qo'lga kiritgandir. Shunday qilib, rivojlangan mamlakatlarning sipohlari shu ishonch va shu fikr bilan ish ko'rib, xolisona amal qilib taraqqiy topadilar va o'zlari xohlagan vaqtda vazifalarini tark etadilar.

Ammo bizning sipohilarimiz-chi? Ular biron narsani bilmaydilar, o'z mansab va martabalariga ishonch va e'tiborlari yo'q. Zotan hukumatimizning mansab va unvonlarida bir muayyan shart (va tartib) ham yo'qdir. Bu jamoa qaysi mansabga ko'tarilsalar va qaysi mansabdan tushsalar ilm-u iqtidorlarining bunga daxli yo'q, balki hammasini tasodifdan, omaddan va taqdirdan deb biladilar. Binobarin, ularning aksari bir-ikki duoxon-u jodugarlar bilan hamkorlik qilib, ularga sig'inib yuradilar. Ulardan eng kattalari va kazo-kazolari ham mansab umidida bir dasta chirkin, pashsha bosgan ezib ichki qog'ozni ichadilar. Qaysilarining uylariga kirsangiz, ustun va ayvonlarida duolar osilganini ko'rasiz.

Mubolag'asiz aytamanki, Buxoro hukumatining yarim mablag'i shunday bema'ni ishlarga sarf bo'ladi. Mansabni amirdan oladilar, vazirdan mehribonlik ko'radilar, nonlarini rais beradi, pullarini esa duoxonga beradilar, bu ishlarining ma'nosiz va befoydaligi haqida, umuman, o'ylab ham ko'rmaydilar.

Tijoratchilarimiz va kosiblarimiz ham qaysi bir ishga qo'l urmasinlar, uning foydasi va zararlari haqida fikr qilimaydilar. Natijada raqobat maydonida ajnabiy savdogar va hunarmandlardan mag'lub bo'ladilar. Tijoratchilikning eng buyuk martabalaridan to eng past do'kondorlik darajasigacha olib tadqiq qilsangiz, ko'rasizki, bir armani, bir yahudiy yoki ovro'polik va o'rus savdogari bizdan yaxshiroq ishlab, ko'proq foyda oladi. Bitta yahudiy savdogar qancha turkistonlik savdogarlarning ko'zini boylab qo'yadi yoki bir armani duradgori qancha buxorolik duradgorni qoyil yilib qo'yadi. Nimaga shunday? Chunki ular bilag'on; muhokama, mulohaza va tafakkur qiladiganlardir. Bular esa na biladilar, na muhokama qiladilar va na o'ylashga qodirlar. Hamma ishni falak gardishiga, taqdir taqozosiga havola etib, chordona qurib o'tira beradilar. Har bir ishni tole va falak gardishidan deb bilish zaiflik va nodonlikdan bo'ladi. Chunki odamzot manfaatga chanqoqdir. Inson har bir foydali ishni o'zi bajarmoqchi bo'ladi, boshqaga ishonib topshira olmaydi. Ammo biron ishdan xabar topsa, uni boshqaga topshirib, u bergan foydani (kam yoki ko'p) olib shukur qiladi. Shunday qilib, har bir ishni falakka havola etish zaiflik va ish bilmaslik sababidan bo'ladi. Alhosil, ana shu ojizlik va ishbilmasligimizdan aksar ishlar ham qo'limizdan ketdi.

Endi mamlakatimizda milliy sanoat va tijoratdan asar qolmasligi aniqdir. Lekin tijoratchi va kosiblarimiz haligacha halokat keltiruvchi bu xatarni ko'rmayaptilar. Ba'zilari bu ahvolni ko'rsalar ham bu xatarni yo'qotish uchun biror-bir chora qilmaydilar. Agar birov chora topmoqchi bo'lsa ham harakatlari bir kunga yetadi, xolos. Buning hammasi aqlsizlik, fikriy tarbiyasizlikning oqibatidir. Bu xalqning axloqiy ahvollarini men bu yerda yozmayman, chunki qalam va qog'ozdan uyalaman.

Endi ayting-chi, shu kabi jismoniy, aqliy va axloqiy nuqsonlarimiz bilan qanday xayollardamiz? Nimani orzu qilamiz?

Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog'lom jism-u tan, aql va axloqdir. Lekin ana shu qurol-aslahamiz sinib, zang bosib, chirib ketgan. Shunday qurollar bilan bu dunyoda bizga na saodat va na rohat bor. Balki... Ha, bizga ana shu quruq hayotga ham yo'l bermaydilar. Agar saodat, izzat, osoyishtalik , rohat, sharaf, nomus va e'tibor kerak bo'lsa, tezroq avlod tarbiyasi usullarini bilib olib, bolalarimizni shu usul va qoidalar asosida tarbiya etishimiz lozim.

Bu yerda bir eski e'tiroz bor. Uni odamlarimiz xotiralaridan hech ham chiqarmoqchi emaslar. Qayerda bir isloh etuvchi odamni ko'rsalar, shu e'tirozlarini bayon qiladilar. «Sizlarinng bunday usul va tarbiyalaringiz o'tmish zamonida yo'q edi», – deb aytadilar. Ular ota-bobolarimizdan dalil keltiradilar.

Ajib! Ularning qadim zamonlari qaysi davr va ota-onalari qaysi ajdod ekan. Agar ularning qadim zamonidan murod – islom taraqqiy topgan davr, ota-bobolardan maqsad – o'sha zamondagi musulmonlar bo'lsa, javob beramizki, ularga behuda tuhmat qilmang. Hech qachon ular sizlarga o'xshamaganlar. Ular o'z farzandlariga zamona talablaridan ham ko'ra ko'proq tarbiya berardilar. Bugungi kunda ularning mingdan bir hissa tarbiyasi ham sizlarda yo'q. O'sha zamondagi musulmonlarning o'rtalarida minglab ijodkor, yuzlab alloma va mutafakkir, guruh-guruh ahli san'at, jamoa-jamoa mulkdorlar yetishib chiqqanlar. Har bir muallif yuztadan ortiq kitob yozganki, bugun ularning soyalari ham bizning o'rtamizda topilmaydi.

Hozirgi holatingizga nazar tashlang-u, ozgina ularning holatini mulohaza qiling. Ular bilan o'zlarinigizni solishtirmang! Tarbiyangiz darajasini ularniki bilan tenglashtirmang! Bunday tenglashtirishdan uyaling! Ular urinib va intilib fidokorlik kamoli bilan saodatimiz asbobini hozir qilib ketganlar. Biz esa qobiliyatsizligimizdan ulardan qolgan merosni zoye qildik, qaroqchilarga topshirdik. Qaysi yuz bilan o'zimizni ularga tenglashtiramiz?

Ammo «qadim zamon» deganda biz yuz yil oldin o'tgan ota-bobolarni nazarda tutgan bo'lsak, javob beramizki, ha yuz yil, balki ikki yuz yil oldin ota-bobolarimiz o'z farzandlarini shu tariqa tarbiyat qilardilar. O'sha tarbiyaning natijasi siz bilan biz bo'lamizki, jismonan, aqlan va axloqan kamchilik daryosida g'arq bo'lganimiz va yuqorida sharhlab berganimizdek hech qachon saodatga loyiq va hayotga mustahiq emasmiz.

Ularning tarbiyalari yaxshi bo'lganda edi, bizlar bunday ojizlik va nobudlik maqomiga tushmasdik. Ha, bugungi kundagi tarbiya usullarimiz yuz yil oldingi tarbiyadan farqi yo'q. Lekin bunday tarbiya usuli bizni hayot mushkulotiga hozir qilib qurollantira olmaydi, bizga madad va osoyishtalik saodatini ta'minlay olmaydi. Chunki, hozirgacha amalga oshmagan bugungi holatimizni «saodat va osoyishtalik davri» deganlar aqliy va axloqiy tarbiyadan mahrum qolganlardir.

Saodat va baxtsizlik, ranj va rohatni bir-biridan farq qilish, biriga erishib ikkinchisidan qochish qo'llaridan kelmaydi. Shunday beaqllik va axloqsizlik darajasiga tushganlarga gapirish, ularning e'tiroziga ahamiyat berish behuda azob tortish demakdir. Agarda otalarimiz farzandlarini zamona talablariga muvofiq tarbiya qilganlarida edi, bugun shunday qiyin ahvolga tushmas edik. Bu ahvolga tushgan ekanmiz, uning sababi o'sha tarbiyadadir, ya'ni ota-onamizdan olgan tarbiyamiz yoki tarbiyasizligimizdir. Shunday ekan choramiz nimada?

Bu savolning javobi ma'lumdir. Modomiki, dunyo kurash maydoni ekan, modomiki, millatimiz boshqa millatlar bilan birga hayotining himoyasi va saodatiga erishish uchun kurashar ekan, bu maydonda g'alabaga erishgan va zafar topgan millatlarga ahamiyat berishimiz lozim ekan. Qanday qurol bilan ular g'olib bo'lib, saodatga erishgan bo'lsalar, biz ham harakat qilib va intilib, o'z farzandlarimizni shunday qurollar bilan qurollantirib, maydonga tushirishimiz kerak. Bundan boshqa chora yo'qdir va bo'lmaydi ham.

Men yuqorida arz qildimki, ovro'poliklar o'z farzandlarini yaxshi tarbiya qilganlar va shunday shavkat va darajaga yetganlar. Yana shuni ham aytardimki, farzandni jisman,

aqlan va axloqan kamolga yetishtirib hayot maydoniga kuchli, aqlli va yaxshi axloq bilan chiqarish zarur. Shuni e'tiborga olib, olimlar tarbiyani uch qismdan iborat deb biladilar. Bular: badan tarbiyasi, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiya. Lekin bu uch qismni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Ular bir-birlariga shunday bog'liq va yaqinki, biriga zarar tegsa, boshqalarida ham nuqson paydo bo'ladi. Biriga foyda tegsa, boshqalari ham undan bahramand bo'ladilar. Masalan, birovning badani bemorlik natijasida zaif bo'lsa, aksaran fikri ham zaif bo'ladi, har ishda chuqur andishaga bora olmaydi, biror chora qilmoqchi bo'lsa ham darrov ko'ngli soviydi. Axloqan ham o'zgarib o'z fazilatlarini yo'qotadi, tez ranjiydigan murosasiz va ayb qidiruvchi bo'ladi. Fikri zaif bo'lgan odam o'z ishlari ustida o'ylamaydi, zarar va foydasini andisha nazaridan o'tkaza olmaydi, hissiyotga asir va shahvoniy lazzatga tobe bo'lib, jismi zaif va axloqi vayron bo'ladi. Axloqi buzuq bo'lgan odam badaniga va fikriga zarar keltiradigan ishlarga qo'l uradi. Binobarin, uning jimi va fikri ham tezda ishdan chiqadi. Kimki o'z avlodining tarbiyasi ustida o'ylayotgan bo'lsa, farzandlarining jismi, aqli va axloqini bir darajada tarbiyalaydi. Intizom va tartibga rioya qiladi.

Tarbiyaning har bir qismi tug'ilishdan yetti yoshgacha avval ota-ona zimmasiga tushadi. Sakkiz yoshdan yigirma yoshgacha maktab va madrasa zimmasiga, keyin umrining oxirigacha odamning o'z boshiga tushadi.

Endi biz tarbiyaning shu uch xili ustida imkon qadar suhbat qilamiz.

BADAN TARBIYASI

Bolaning badan tarbiyasi yetti yoshgacha ota-onaning vazifasi sanalali. Yuqorida aytganimizdek, bunday tarbiyaning ma'nosi go'dakning jismini har xil odatlardan saqlab, asta-sekin kamolotga yetishtirish demakdir. Bola sog'lig'ining qanchalik nozik ekanini bilgan mamlakatlarda yangi tug'ilgan bolaning sog'lig'ini saqlash uchun ilm va tibbiy qoidalarni amalda qo'llaydilar. Shunday mamlakatlarning odamlari bolaning yuvintirilishi, yo'rgaklanishi, yeyish-ichishi va uxlashiga katta e'tibor beradilar. Lekin bizning bu narsalardan

hech xabarimiz yo'q. Hatto, bu qoidalarni bajarish uchun bizda imkoniyat ham topilmaydi, chunki uning asboblari bizda yo'q. Shundan kelib chiqib, men bu yerda sog'liqni saqlash qoidalari haqida muxtasar ma'lumot beraman.

Bola olamga kelgan zahotiyoq kindigi kesiladi. Undan keyin bola toza tog'orada qaynatilgan issiq suvda mayin sovun bilan yuviladi. Birinchi cho'miltirish muddati bir-ikki daqiqa bo'ladi. Keyin asta-sekin vaqt ko'paytirib boriladi. Bola cho'milib bo'lgach, juda ham mayin, patli toza sochiq bilan badanini artadilar. Sochiqning pokizaligiga va tog'oraning tozaligiga juda katta ahamiyat berish kerak, chunki har qanday marazning onasi o'sha chirk va kir sanaladi. Qaynamagan suv ham toza emas. Uning tarkibida har xil kasalliklarning tuxumi mavjud. Binobarin, qaynagan suvdan foydalanish lozim. Qaynatilgandan so'ng iliq holatida ishlatish yaxshi. Sovuq suv bolani kasal qiladi, terisini quritadi. Bolaning badani hamisha issiq va quruq bo'lishi shart.

Ma'lumki, suv issiqlikda va shamolda bug'lanadi va tabiiyki, bug'lanish jarayonida atrofini salqin qiladi. Cho'miltirgandan so'ng bolaning badani ho'l bo'lsa, namlik qolsa shamol tekkanda bolaga sovuq tegadi va tumov bo'lishi aniq. Bolani artib badanini qurutgandan keyin uni yo'rgaklaydilar. Lekin bolani qattiq bog'lamaydilar, qo'llarini yo'rgak ichida qoldirish ham to'g'ri emas, balki bolani sustroq bog'lash lozim, toki badani tarbiiy harakatdan qolmasin. Ma'lumki, nafas olish jarayonida odamning ko'kragi ko'tarilib tushadi. Agar shu harakatni man etsak, nafas olishi qiyin bo'ladi. Shuning uchun bolani yo'rgakda qattiq bog'lasak, bolaning nafas olib chiqarishi qiyin bo'ladi, ko'kragi siqiladi.

Boshqa tomondan yangi olamga kelgan bola niholga o'xshaydi. Qattiq bog'lashda biron a'zosi ozor topib, mayib bo'lishi mumkin. Yo'rgakni qattiq bog'lash go'dakning qornini siqadi va hazm a'zolariga o'z vazifalarini bajarish, uchun xalal beradi. Binobarin, bechora go'dak emgan sutini hazm qila olmay, ichketar kasalligiga mubtalo bo'lishi mumkin. Ich ketish, xususan, bolalar uchun xatarlidir. Bugungi kunda tib ilmi isbotlaganki, odam hayotining asosini qon va qon

harakati tashkil qiladi. Agarda qon harakati katta va kichik tomirlar orqali yetarli darajada bo'lmasa, yashash uchun xavflidir. Go'dakni qattiq bog'lash, ana shu qon harakatini qiyinlashtiradi. Shu sababdan bola ba'zi kasalliklarga chalinadi.

Dunyoga endi qadam qo'ygan begunoh go'dakning qo'l-oyog'ini bog'lash va shu bilan azob berish insofsizlikdir. Tabiiyki, ushbu parvarishga go'dak toqat qila olmaydi. Nochor, kuchi boricha yig'laydi. Bizning nodon va be'mani ayollarimiz esa bolaning azobidan bexabar duoxon va folbin oldiga yuguradilar. Duoxon ham holatni Xudodan tilab tumtaroq qilib: «Bu bolaga «Um us-sibyon» ta'sir qilgan», – deb aytadi. «Um us-sibyon» go'dakka ta'sir qilganmish. Dunyoda bunday maxluq yo'q...

«Um us-sibyon» arabcha so'z bo'lib, ma'nosi «bolalar onasi (parisi)» demakdir. Boshqa tarafdan qarasa, duoxonning so'zi to'g'ri, chunki bolaning yig'lashi onasining qo'lidandir. Lekin bu yig'lashning iloji duo va jodu emas. Balki yo'rgakni qattiq bog'lamasdan go'dak qo'llarini ochib qo'yish lozim. Beshiklari ham zindondan qolishmaydi. Beshikda bolaning qo'l-oyog'ini shunday bog'laymizki, bechora go'dak qimirlay olmaydi. So'ngra ustini qalin govrapo'shlar bilan yopamiz. Xulosa: jigarporamizni harakat, yorug'lik va havodan, ya'ni inson hayoti uchun zarur bo'lgan uchta asosiy narsadan mahrum qilamiz. Harakat badanga rohat beradi, hazm a'zolariga kuch bag'ishlaydi. Harakatsiz odamlar, ko'p o'tirib ishlaydigan shaxslar zaif bo'lib, hazm a'zolari ham yaxshi ishlamaydi. Ular kamqon bo'ladilar.

Yer atrofini bir qavat havo qatlami o'rab olgan. Hamma hayvonot va o'simlik ana shu qatlam ichida yashaydi. Havoning bir qismi muvallid ul-humuz (kislorod) dan iborat. U odam va aksar hayvonot uchun eng zarur bo'lgan narsadir. Qaysi havoda shu kislorod bo'lmasa u yerda yashab bo'lmaydi. Nafas olganimizda biz havoni ichimizga tortamiz. O'pka kislorodni sarflaydi-da o'rniga karbon gazini chiqaradiki, u zararli bir gazdir. Nafas chiqarishimiz bilan shu gaz tashqariga chiqib havoda aralashib ketadi. Faraz qilingki, siz bir xonada o'tiribsiz. Uning eshiklari va hamma teshiklarini berkitdilar.

Boshida yaxshi nafas olasiz. Lekin yuqorida aytganimizdek, kisloroddan nafas olib karbon gazi chiqargandan so‘ng xonada zaharli gaz ko‘payib bir muddatdan keyin uy havosi og‘irlashib, boshingiz og‘riydi. Yana ko‘proq qolib ketsangiz, albatta, bemor bo‘lasiz. Shuni ham e’tiborga olmasangiz, zaharli havo sizni halokatga keltiradi. Ziyo, ya’ni yorug‘lik, quyosh nuri ham har bir jonzotga zarurdir. Yorug‘ joylarda yashayotgan odamlarning rang-ro‘ylari toza, kuch-quvvatlari joyida bo‘ladi. Qorong‘i joylarda o‘tirgan odamlar kuchsiz va ranglari siniqqan. Ular keyinchalik xafaqon xastaligiga chalinib nobud bo‘ladilar.

Shu muqaddimadan ma’lum bo‘ldiki, odamga harakat, havo va ziyo, yorug‘lik kerak ekan. Ular bo‘lmasa inson nobud bo‘lar ekan. Yangi tug‘ilgan bola esa kattalardan ming marotaba nozikdir va har xil kasalliklarga chalinishi osondir. Ularning qo‘l-oyoqlarini bog‘lash, beshiklari ustini qalin govrapo‘shlar bilan yopish, ya’ni ularni harakat, havo va nurdan mahrum etish, albatta, zarar.

Beshik ustini ochib qo‘yish ham yaxshimas, chunki chivin va pashsha go‘dakka tinchlik bermaydi. Binobarin, onalarimiz bola ustini to‘r va harir bilan yopishlari lozim. Agarda bolaga qorong‘i yoki issiqlik zarur bo‘lsa, beshikni emas, uyni qorong‘i qilish va isitish lozim. Ba’zi nodon onalar bolalarini beshikka mahkam bog‘lab, qalin govrapo‘shlar bian yopib qo‘yadilar. Begunoh go‘dakning tili yo‘q, faryod chekib onasini bu ishdan qaytara olmaydi. Uxlay olmaydi, isib ketib terlaydi, badani qichiydi. Majbur – yig‘laydi. Ona janoblari ham uyqudan qoladilar. Xayollariga kelgan yagona bir choralari ko‘knor bo‘ladi. Hech mulohaza va andisha qilmay himmatlari yetgancha yangi tug‘ilgan bolaga ko‘knor beradilar.

Axir insof qiling! Ko‘knor zahar-ku! Katta odamniyam yiqitadi! Go‘dak onasi qo‘lidan zahar ichib, qanday tirik qolishi mumkin?

Go‘daklarga ko‘p zarar yetkazadigan kasalliklardan biri chechakdir. Bu yuqumli kasallik bashariyat boshiga tushgan eng og‘ir balolardan hisoblanadi. Kasalni yo o‘ldiradi, yo ko‘r qiladi, yo yuz-chehrasini o‘zgartiradi. Bu esa, xususan,

qizlar uchun katta baxtsizlikdir. Bir joyda paydo bo'lsa, sonsanoqsiz go'daklarni yo'q qiladi. Chechakka chalingan bola bilan qirq kungacha davolovchidan bo'lak hech kim muloqotda bo'lmasligi kerak. Lekin hakimlar bu marazga qarshi yaxshi chora topganlar. Buning chorasi emlashdir. Emlash usulini islomning buyuk tabibi Abu Bakr Roziy (hijriy 321-yili vafot qilgan)[48] kashf qilib bashariyatga hadya etgan. Abu Bakr Roziyning emlash usuli quyidagicha: chechakka chalingan bolaning chechak suvidan, agar ahvoli juda og'ir bo'lmasa, olib sog'lom bolaning terisi ostiga yuboradilar. Emlangan bola kasal bo'lsa ham, uni yengil, zararsiz o'tkazadi. Lekin bu usul ham xavf-u xatardan butunlay xoli emas, bu bola ham halok bo'lishi mumkin.

Milodiy 1797-yili Janner[49] degan ingliz do'xtiri yangi usulni kashf qildi. Sigirlarning yelini atrofida husnbuzarga o'xshab donachalar chiqadi. Uni «sigir chechaklari» deydilar. Sigir sog'adigan odamlarga sog'ish vaqtida o'tib, qo'llariga shunday donachalar chiqadi. Masalaning mohiyati shundaki, qo'llariga sigirdan donachalar o'tgan shaxs boshqa chechakka chalinmaydi. Janner bunga ahamiyat berib, tajribadan o'tkazib, «kimning terisiga sigir chechagining suvidan emlasa, u odam chechakka mubtalo bo'lmaydi», – deb e'lon qildi. Bu usul tezlik bilan har tomonga mashhur bo'lib ketdi va ma'qul tushdi. Bu usulning hech qanday zarari yo'q. O'z jigarporalari sog'lig'ini o'ylayotganlar hech istihola qilmasdan bolaning birinchi yilidayoq chechakka qarshi emlashlari lozim. Shu bilan ular ko'z qorachiqlarini o'limdan, ko'r bo'lishdan, hech bo'lmasa cho'tirlikdan xalos qilgan bo'ladilar. Shuni ham aytish zarurki, emlash bir marta emas, balki besh yil davomida bir martadan bo'lishi kerak.

Har bir jonzot yashashi uchun kundalik oziq-ovqatga muhtoj. Yangi tug'ilgan bola uchun eng yaxshi ovqat sutdir. Go'dak birinchi kunlari faqat sutni hazm qiladi, xolos. Ba'zi nodon kampirlarimiz birinchi kundanoq qand, yog', arpabodiyon va yana qandaydir narsalarni aralashtirib, chirkin barmoqlari bilan bolaga yalatadilar. Shu sababdan go'dakning me'dasi ishdan chiqib, ichketar kasalligiga chalinadi. Jigarporam kasal bo'lmasin degan ota-onalar bunday

noshoyista ishlardan hazar qilishlari lozim va go'daklariga sutdan boshqa narsa bermasliklari kerak.

Bolaga uch xil sut beriladi: ona, suti, doya suti, sigir suti. Tabiat taqozosi bilan bo'lgan har bir ishdan, ya'ni ilohiy iroda bilan bo'lgan yumushdan yaxshisi yo'q. Modomiki, ilohiy hikmat ila ona ko'kragida sut paydo bo'lar ekan, bola uchun ona sutidan yaxshiroq taom bo'lmaydi. Ona sutining tarkibi va sifati go'dak mijoziga muvofiqdir. Shuning uchun ona sutini emayotgan bola tez va yaxshi o'sadi. Ona suti faqat bolaga emas, balki onaning o'ziga ham foydalidir. Emizish jarayonida ona ko'p kasalliklardan xalos bo'ladi. Emizishdan oldin ona ko'kragini qaynagan suv bilan yuvib, keyin bolaga berishi lozim. Bolaga bir tartib va nizom bilan sut beriladi, aks holda bolaning me'dasi ishdan chiqadi. Birinchi oydan to'rtinchi oygacha kunduzi sakkiz marta, kechasi ikki marta sut emizish yaxshi. Ko'p yeyish kattalarning ham me'dasini buzadi-ku, mijozlari nozik bo'lgan go'daklar haqida gapirmasa ham bo'ladi. Bola me'yoridan ortiq yeb kasal bo'lmasligi uchun ovqatlanish vaqti va ovqat miqdorini belgilash zarurligi, onalar uchun ovqatlanish me'yori va miqdorini bilish uchun men quyidagi jadvalni tuzdim:

Bir sutkada beradigan hajmi	**Necha marta**	**Qanchadan**	**Sut berish davri**
5 qoshiq	10 marta	yarim qoshiq	birinchi kun
15 qoshiq	10 marta	1,5 qoshiq	ikkinchi kun
40 qoshiq	10 marta	4 qoshiq	uchunchi kun
55 qoshiq	10 marta	5,5 qoshiq	to'rtinchi va beshinchi kun
60 qoshiq	10 marta	6 qoshiq	oltinchi kundan ikkinchi oygacha
70 qoshiq	10 marta	7 qoshiq	ikkinchi oydan to'rtinchi oygacha
80 qoshiq	8 marta	10 qoshiq	to'rtinchi oydan 5,6 nchi oygacha
90 qoshiq	6 marta	15 qoshiq	yettinchi oydan o'ninchi oygacha

Jadvalda temir qoshiqning hajmi nazarda tutiladi. Sho'rva ichadigan, katta yog'och qoshiq emas.

Sutni ko'krakdan sog'ib qoshiq bilan o'lchash ham to'g'rimas, balki taxminan olsa bo'ladi. Emizgandan so'ng ham ona ko'kragini qaynagan suv bilan yuvishlari lozim. Bolaning lablarini ham yumshoq va pokiza sochiq bilan artish kerak.

Yuqorida aytganimizdek, yosh go'dak uchun ona sutidan yaxshi va muvofiq ovqat yo'q. Lekin ona biror yuqumli kasalga chalingan bo'lsagina bu hukm noto'g'ridir. Bolaning onasi emizikli vaqtida kasal bo'lib qolsa, darrov o'tkir do'xtirlarga ko'rsatish lozim. Bu ishda, umuman, sustlikka yo'l qo'yish mumkin emas. Qaysi ona shu mavriddan kasal bo'lsa-yu, tabib huzuriga bormasa, o'zini ham, farzandini ham xatarga qo'yadi. Lekin do'xtirga borib, uning maslahatini olib kasali sut orqali bolasiga o'tishini bilsa, darrov farzandi uchun doya topishi zarur bo'ladi.

Bolani doyaga berish ikki tartibda bo'ladi: yo doyani uyga chaqiradilar yoki bolani doyaning uyiga yuboradilar. Imkon bo'lsa bolani boshqa joyga yubormasdan doyani uyga olb kelish yaxshiroqdir. Bolalariga doya olayotgan ota-ona uning quyidagi sifatlariga ahamiyat berishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchidan, doyaning yoshi o'ttizdan oshmasligi lozim, chunki o'ttizdan o'tgan ayolning suti kam bo'lishi va bolaga yetmasligi, natijada ota-ona ham qiyin ahvolda qolishlari mumkin. Ikkinchidan, doya hech qanday yuqumli kasalliklarga giriftor bo'lmagan bo'lishi kerak. Buni bilish uchun doyani do'xtirlarga ko'rsatish lozim. Uchinchidan, doya endi birinchi farzand ko'rgan ayol bo'lmasin, chunki bunday onalar sut emizish va tarbiya ishlarida ancha tajribasiz va ko'p narsadan bexabar bo'ladilar. Binobarin, bolani nodonlik bilan tarbiya qilib, go'dakka zarar yetkazishlari mumkin. To'rtinchidan, doya yaxshi xulq va axloq egasi bo'lishi lozim. Badaxloq va noinsof doyalar ba'zan bola tarbiyasiga va o'sishiga salbiy ta'sir qiladilar. Ammo doyani uyga olib kelishning iloji bo'lmasa, bolani doya uyiga yuboradilar.

Bu holatda yuqorida bayon etgan doya sifatlarining oxirgisiga maxsus ahamiyat berish lozim. Agarda shu shartlar bilan doya topilmasa, u holatda bolani hayvon suti bilan

o'stiradilar. Lekin birorta hayvonning suti ona sutiga o'xshamaydi. Shunga qaramasdan olimlar ona sutiga yaqinroq keladigan ba'zi hayvonlar sutini bayon qilganlar. Ona sutiga yaqini avval eshak suti, keyin sigir, keyin echki va qo'yning suti turar ekan. Bulardan eng yaxshisi eshak suti bo'lsa ham juda kamyob va qimmatdir. Shu uchun ham sigir sutini bolaga munosib deb qabul qilganlar. Men ham shu risolada boshqa sutlardan qat'i nazar sigir suti haqida so'zlayman.

Boshqa hayvonlarga ko'ra sigir ko'proq o'pka kasalligi, ya'ni sil kasalligiga mubtalo bo'ladi. Xususan, shahar ichida tor va qorong'i molxonalarda boqilayotgan mollar aksar silga chalinadi. Shunday sigirlarning sutini ichish odam uchun xavflidir. Bu xatarlardan xalos bo'lish uchun sutni qaynatish lozim. Sutni bir toza idishga solib o'n daqiqa qaynatiladi. Keyin bir toza shishaga qo'yadilar. Emizish vaqtida emizgichni qaynagan suvda yuvib go'dakka beradilar. Bola to'ygandan keyin qolgan sutni to'kib tashlab, emizgichni qaynatilgan suv bilan yana yuvib qo'yiladi.

Sigirning suti ona sutiga qaraganda kamshakar va hazm bo'lishi qiyindir. Shuning uchun ozgina qand solib bolaga berish lozim, toki ona sutidek lazzatli bo'lib go'dak og'ziga yoqsin. Go'dak me'dasida sut yaxshi hazm bo'lishi uchun unga kam-kam suv quyish kerak. Hakimlar sutga suv qo'shish me'yorini belgilaganlar. Agarda yana bolaning me'dasiga sut og'irlik qilsa, suv miqdorini ko'paytirish kerak. Sutga qo'shiladigan suv qaynatilgan bo'lishi lozim. Qaynamagan suvni ichganda suvdagi mikrob odam ichiga tushib, rivojlanib, odamni turli kasalliklarga giriftor etadi. Xususan, go'daklar har xil xastalikka darrov chalinishlari mumkin. Qaynamagan suvdan ehtiyot etish lozim.

Tabiblar go'dakni emizishdan qachon chiqarish masalasida bir qarorga kelmaganlar. Ba'zilar sakkiz oyligida, ba'zilari o'n oylikda, ba'zilari o'n sakkiz oyligida emizishdan ajratishni munosib ko'radilar. Haqiqatan, bolani emizishdan ajratish haqida bir muayyan vaqt bo'lmaydi va bu bolaning sog'lig'iga qarab cho'zilishi yoki to'xtashi mumkin. Bolani emizishdan ajratgandan so'ng bolaga hazm qilinishi og'ir bo'lgan narsalar berilmaydi. Balki sigir suti va tuxumning

sarig'i, shunga o'xshash yengil taomlar beradilar. Toki me'-dasi buzilib bola qiynalmasin. Bola ikki yoshga to'lmaguncha, shu qoidaga rioya etish maqsadga muvofiqdir. Bola yig'lasa darrov qo'liga bir burda non yoki holva berish ham to'g'ri emas.

Bolaning me'dasi kasal bo'lishi mumkin. Bola uchun harakat va toza havoda bo'lish foydalidir. Buni yuqorida ham aytdik. Bolalarni toza va havosi yaxshi joylarda olib yurish lozimdir. Lekin yozda chaqaloq o'n besh kunlik bo'lmaguncha, qishda esa ellik kunlik bo'lmaguncha uydan chiqarmaslik zarur. Yangi tug'ilgan bola havodan tez ta'sirlanadi. Tozalik ham odamning eng muhim vazifalaridandir.

Temir yo'li qurilmaguncha odamlar dunyoning ko'p ishlaridan bexabar edilar. O'z mamlakatlaridan bo'lak boshqa shahar va millatni ko'rmagandilar. Hatto, ba'zilar dunyo faqat ularning yurtlaridan iborat deb o'ylardilar. Xudoga shukur, jaholat va nodonlik davri o'tdi. Yo'llar yaqinlashdi. Endi oramizdan odamlar har tomonga borib kelyaptilar. Ular ozoda shahar, ko'cha, uylarni, odamlarni ko'rib bunday shaharlarda kasalliklar ham kam ekanligini bilmoqdalar. Aksincha, qaysi iflos va aholisining tabiati yaramas bo'lsa, u yerda kasallik ko'proqdir. Turkistonimizda, xususan, yoz paytlarida kasalliklar avj oladi. Buning sababi ifloslikdir.

Kimki salomat yashashni xohlasa, o'zini va ahli oilasini doim toza tutmog'i zarur. Musulmonlar uchun poklik diniy amrlardan sanaladi. Shu bobda ko'p oyat va hadislar mavjud. Bu masalani biz «Rahbari najot»[50] nomli kitobimizda mufassal yozganmiz. Aziz o'quvchilarga ikkinchi marta aziyat bermasdan aytamizki, ifloslik va befarosatlik kishini turli kasalliklarga giriftor qiladi va yosh bolalarga ko'proq ta'sir qiladi. O'sha begunoh navnihollarni, hayotimiz mevalarini chirk, ifloslik va beparvolikdan muhofaza qilish bizning burchimizdir.

Bolaning badanini, yo'rgak-u kiyimlarini siydik va axlatlari bilan iflos qilgan bo'lsa, sovun bilan yuvib tozalashimiz lozim. Ba'zi onalar farzandlari kiyimiga siygan bo'lsa, yuvmay, qayta quritib yana kiydiradilar. Siydik va axlat

zahardir. Shuning uchun ham zaharni bola badaniga kiydirish, albatta, zararlidir. Bunday holatlarda ham kiyimni, ham bolani yuvib tozalash zarurdir. Yo'rgak, qo'lbog', bolaning kiyimlari doim pok bo'lib, umuman, chirk va ifloslik tushmasligi kerak. Ba'zi odamlar kiyimning pokizaligi va tozaligi uning qimmatiga bog'liq deb o'ylaydilar. Shuning uchun ular farzandlariga qimmatbaho kiyim kiydirib qo'yadilar. Buning natijasi bolalar bora-bora o'zbilarmon, molparast va mag'rur bo'lib o'sadilar. Pokizalikdan maqsad bu emas. Go'dak libosi qanday matodan bo'lmasin, toza va pok bo'lsa bo'ladi.

Ma'lumki, inson nafas olish bilan tirik. Odam jami a'zolari bilan nafas oladi. Bunday nafas olishni tabiblar va hakimlarimiz biladilar. Inson terisida zarrachadek teshiklar mavjud. Bu teshiklarni «masomat» deydilar. Odam ana shu terisining teshiklaridan ham nafas oladi. Agarda bu teshiklar chirkdan yopilib qolsa, o'sha joy odamning nafasi qaytganiga o'xshab nafas ololmaydi va halok bo'ladi. Lekin bunday havo yo'llarining siqilishi va o'lishi doimiy bo'lmay, balki vaqtincha bo'ladi. Yegan va ichgan narsalarimizning hammasi badanimizda turmaydi, balki bir qismi qon va go'shtga aylanib, bir qismi zaharli va zararli bo'lganidan chiqib ketadi. Chiqarish yo'llari ham yopilib qolsa, odam halok bo'ladi. Bizing tabiatimiz zararli narsalarni siydik va chiqarish yo'llari bilan daf qiladi deb o'ylamang. Bu chiqindilarning bir qismi o'sha terimizning teshiklaridan ter orqali chiqib ketadi. Shuning uchun chang-u g'ubor badanimizga yopishib qotib qolsa, terimiz nafas ololmay qoladi. Zaharli narsa bo'lgan ter ham badandan chiqmaydi. Bu holat odamni tez ishdan chiqarib halok qiladi. Xususan, juda nozik bo'lgan bola nobud bo'ladi. Bu baloni daf etish chorasi badanni yuvmoqlikdan iborat. Onalar o'z bolalarini tez-tez cho'miltirishlari, bola badanini iflos qoldirmasliklari lozim.

Mamlakatimizda chaqaloqning boshidan juda qo'rqadilar. Bunday qo'rquvda ma'no va asos ham yo'q. Yangi tug'ilgan bolaning boshiga bodom yog'ini surtib, keyin tozalab yuvish foydali, moy bolaning boshidagi qazg'oq va chirkni yo'q qiladi. Faqat bolani to'qlik paytida cho'miltirmaydilar.

Ovqatlanishdan bir-ikki soat keyin cho'miltirish yaxshiroq. Cho'milib bo'lgach, bolani shamollamasligiga va tumov bo'lmasligiga harakat qilish lozim.

Yuqorida arz qilgan edimki, tarbiya uch xil bo'ladi deb: badan tarbiyasi, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiya. Bolaning tug'ilgan vaqtidan to emizishdan chiqqunicha badan tarbiyasining davri bo'ladi. Bu davrda aqliy va axloqiy tarbiya birinchi darajali emas. Ammo emizish davri tomom bo'lgandan so'ng har qanday tarbiyaning davri boshlanadi. Ota-ona emizishdan chiqqan davrdan boshlab ham badan, ham aql, ham axloq tarbiyasi bilan mashg'ul bo'ladilar.

Bu qismda bolaning tug'ilishidan sutdan ajratishgacha bo'lgan davrda lozim bo'lgan qoidalarni baqadri hol yozdik. Endi emizish davridan chiqqandan keyingi davr haqida suhbat qilamiz.

Emizish davridan keyin bola sakkiz yoshga kirgunga qadar uning tarbiyasi ota-onaning vazifalari hisoblanadi. Shu davrda ota-ona ahamiyat beradgan jihatlar bu – ovqatlanish, uxlash, poklik, harakat, muhokama va axloq sanaladi.

Ovqatlanish. Yuqorida aytganimizdek, bola sutdan ajragach, unga tez hazm bo'ladigan ovqat beramiz. Ikki yoshga to'lmaguncha unga go'sht bermaymiz. Aytishingiz mumkin:

– Ajabo! Shuncha ehtiyot va ta'kidlashning boisi nima?

– Go'dakni har xil kasallikdan muhofaza etish.

– Agar biz sening nasihatlaringga quloq solsak, bolalarimiz kasalliklardan xalos bo'ladilarmi yoki yo'q?

– Ham ha, ham yo'q.

Bu savolning javobi ham ijobiy, ham salbiydir. Ya'ni shuncha ehtiyotkorlikdan so'ng bolangiz kasalliklardan bir darajada xalos bo'ladi, lekin boshqa bir ishlar tufayli kasallikka duch keladi.

– Juda yaxshi, farzandimizni kasal qiladigan ishlar nima ekan? – deb so'rarsiz.

– Eng asosiy sabablardan biri, sizlarga aytsam, bu ovqatdir.

– Ajabo, hozir aytdingki, ovqat odamning tirik qolishi uchun lozim, endi kasallikning sababi deysan. Sening qaysi so'zlaringni qabul qilaylik?

– Mening aytganlarimga diqqat bilan quloq soling. Aql-u hikmatga nimaiki muvofiq bo'lmasa, uni qo'yib, foydali tomonni qabul qiling. Haqiqatda ham ovqat odam uchun zarur, ovqat yemaslik o'limga olib keladi. Lekin ovqatlanishda tarbiya va maxsus intizom bo'lmasa, buning oqibati yomon bo'ladi. Zotan hamma narsada shunday. Koinotda faqat zarari bo'lgan narsa yo'q. Nimada bir foyda bo'lsa-yu, bilmasdan uni iste'mol qilsangiz, albatta zarar ko'rasiz. Ovqat ham shu tarzdagi narsalardan bo'ladi. Ovqatlanish zarur, foydasi ko'pdir. Yaxshi iste'mol qilish sharti bilan bo'lsa, hech zarari bo'lmaydi. Ovqatlanishning yaxshi tartibi qanday?

Bolangizni ovqtalantirishda ikki jihatni esingizdan chiqarmang. Avval intizom va ikkinchisi kifoya. Xudovandi karim odam jismini bir ulkan fabrikaga o'xshatib yaratgan, har bir ish uchun bir qancha mashina va g'ildiraklarni yasagan. Masalan, bahsimizning mavzusi bo'lgan ovqatlanishni olamiz. Bolangiz bir luqmani idishdan olib og'ziga solishi bilan, birinchidan tishlari xizmatni boshlab luqmani maydalab tashlaydi. Luqmani chaynash jarayonida og'izdagi bezlardan biridan suv chiqib, luqmaga aralashadi va kimyo qoidalariga binoan uni hal bo'lishiga yordam beradi. Bu dorini luob yoki tupuk deysizlar. Til bu luqmani yig'ib olib oshqozonga yuboradi. Oshqozonda ham uning devorlaridan boshqacha suv chiqib aralashadi. Bu suvni tibbiy tilda oshqozon ishqori deydilar. Bu suv taomni kimyo qoidasiga binoan batamom o'zgartiradi. Keyin oshqozondan taom ichaklarga o'tadi. Badanga kerak bo'lmagan bir qism taom chiqish yo'llari bilan badandan chiqib ketadi. Badanga zarur bo'lgan bir qism taom qonga o'tadi. Nafas yo'llari bilan kirgan havoga aralashib haroratni tashkil qiladi. Toza bo'lib ingichka tomirlar bilan go'shtlar tarkibiga o'tadi va go'shtga aylanadi. Shu tafsilot sizlarga ovqatning foydasi haqida ma'lumot berdi, ya'ni ovqat ko'p o'zgarish va hazm bo'lishi natijasida qonga aralashib yashashga lozim bo'lgan energiyani hosil qiladi va ham go'shtga aylanadi. Taomning maydalanishiga tish, til, so'lak bezlari, so'lak, balg'am, oshqozon, me'da va ichak ishtirok etib, xizmat qilar ekan. Shularning hammasi hazm asboblari deb aytiladi.

Tartib va intizomsiz ovqat yeyish, bir ovqat hazm bo'lmay ketidan boshqa ovqatni iste'mol qilish hazm asboblarining harakat tartibini buzadi. Bir ovqat hazm bo'lmasdan bu asboblar ustiga ketma-ket vazifalar tushadi. Shu sababdan hazm asboblari intizom va tinchlik yuzini ko'rmay, bora-bora charchab qoladilar va vazifa hamda xizmatlarini hal qilolmay ojiz qoladilar. Binobarin, farzandingiz astasekin ovqatlanishdan qoladi, taomni hazm qilolmay ishtahasiz bo'ladi. Ko'ngli hech narsa tusamaydi. Zo'rlab ovqat bersangiz hazm qilolmaydi. Borib-borib kam yeyishdan badanidagi yog'ni sarflaydi-da, kuch-quvvati kamayib kasal bo'ladi. Bunday xastalikning oldini olish uchun ovqatlanishdagi intizom va tartib lozimdir.

Bolangiz iste'mol qiladigan bir sutkalik ovqatni to'rtga bo'linglar: bir qismini ertalab unga bering, ya'ni quyosh chiqqandan so'ng jigarporangizga bir burda non bilan sut yoki choy bering. Ikki bo'lagini kunduz kuni bering. Kunduzgi ovqat kechki ovqatdan kuchli bo'lishi lozim, ya'ni yog'li kabob, palov yoki boshqa tansiq taom bo'lishi yaxshi. Tunda ham yengilgina ovqat berish mumkin. Imkon bo'lsa suyuq ovqat, meva, non bilan choy kifoya qiladi. Shu yerda shuni ham aytayki, jigarporangiz kam yeyishga ham, ko'p yeyishga ham odat qilmasin. Hamma ovqatning kam yoki haddan ko'p bo'lishiga yo'l bermang, bunga diqqat qiling, ovqat kifoya qiladigan darajada bo'lsin. Ovro'po tabiblari bir xil xulosaga kelganlar: kam yeyish odamni kuchsiz qilsa, ko'p yeyish kishini zaif va tanbal qiladi. Bolaning taom vaqtida, taomdan keyin suv ichishga mayli ko'p bo'ladi. Bola qancha suv ichsa bering, lekin unga zarar yetkazmaslikni ham o'ylang.

– Ajoyib-ku! Qanday zarar qiladi? – dersiz.

– Ana xolos! Yana so'zimni esingizdan chiqardingizmi? Noto'g'ri iste'mol qilingan narsa, albatta, zarar qiladi, xususan, suv... Hozirgi tabobat ilmi har bir kasalning urug'i mavjudligini isbot qilgan, bu tuxumlarni mikroskopsiz ko'rib bo'lmaydi. Ana shu zarralarni tabiblar tilida «mikrob» deydilar. Bu mikroblarning aksari suvda yashaydi. Agarda shunday mikrobli suvni farzandingizga bersangiz uni kasal qiladi. Bu masalani men «Rahbari najot» nomli kitobimda yozgan edim.

Bu yerda shuni eslatib o'tmoqchimanki, bu baloning iloji suvni qaynatishdadir. Men qayta-qayta shuni takrorlaymanki, mamlakatimizning suvlari ichishga yaramaydi, chunki ular mikrob bilan to'la. Qabriston va hojatxonalardan uzoqda bo'lgan suvlardan yoki quduqlardan suv olib, avval uni qaynatib, keyin iste'mol qiling. Bu qaynatilgan suvni ham eskirtirmasdan har kungisini shu kuni ishlatish lozim.

Uyqu. Yuqorida aytganimizdek, insonning tanasi bir fabrikaga o'xshaydi. Har tomonida mashina va charxlarga o'xshagan a'zolari bor. Bu a'zolarning har biri muayyan vazifa va xizmatlarni bajaradi. Shuning uchun ham bir kecha-kunduzda shu a'zolar bir muddat dam olmasalar, sekin-asta ishdan chiqadi. Ular uchun eng yaxshi istirohat turi uyqudir. Insonning aqli, miyasi, asosan, uxlaganda dam oladilar. Uyqusizlik va kam uxlash odamni zaif va ishtahasiz qiladi. Miyani holsizlantirib jinnilikka giriftor qiladi. Farzandingiz to'qqiz yoki to'qqiz yarim soat uxlashi shart. Shunga diqqat qilingki, kechani uyqusizlik va kunduzni uyqu bilan o'tkazmasin. Bola vaqtli uxlab, barvaqt turishi lozim.

Poklik. Dunyoda hech bir din islom dinidek tozalikka amr qilmagan. Islom tozalikni imonning bir qismi deb qaraydi. «An-nazofatu min al-imoni» – «Poklik imondandir» degan oyat bunga dalildir. Tib ilmining odamlari tozalikka da'vat etadi. Yuqorida aytilgan mikroblar chirkin va iflos joylarda jam bo'lib yashaydilar. Agarda ularni mikroskop orqali ko'rsangiz, aynan iflos joyda mikroblarni ko'rasiz. Bola kiyim-kechaklarining tozaligiga ahamiyat bering, yuvilmagan va iflos idishlarda ularga ovqat bermang. Kasal joyga ularni olib kirmang. Bola bemorning piyola va kosalaridan ovqat yemasin. Xususan, qizamiq, chechak, difteriya, sil kasalliklariga chalingan bemorlar oldiga olib bormang. Bola kasallansa, tezlik bilan do'xtirga ko'rsatib davolang. Payg'ambar hazratlari buyuradilarki: «Haftada bir marotaba g'usul qilish har bir musulmon uchun farzdur», – deb. Siz musulmonsiz, farzandingizning ham Alloh tomonidan farz bo'lgan amrini bajarishiga harakat qiling, ya'ni haftada bir marta hammomga yuboring yoki uyda cho'miltiring. Agarda bola yoshligidan bunday ishlarga o'rganib qolsa, ulg'ay-

gandan keyin ham ozodaligi va pokligi bilan odamlar ichida e'tibori oshadi.

Harakat. Ba'zilar farzandlarini zo'rlik bilan, jahl-u haqorat bilan uydan ko'chaga, hatto, o'ynashga ham chiqarmaydilar. Bola bu amrga itoat qilib, uydan chiqmay yursa, «odobli bola» deydilar. Bunday odamlarning harakati xatodir. Havosi og'ir bo'lgan uylarda uzoq vaqt bo'lish, harakat qilmaslik, hatto, o'ynamaslik ko'p kasalliklarga sabab bo'ladi. Bola dangasa va ishbilmas bo'lib o'sadi. Xilvatga o'rgangan bola ulg'aygandan keyin ham xonadan chiqmaydi, odamlarga qo'shila olmaydi. Bir joyda kamharakat bo'lib o'tirsh odamni ham zaiflashtiradi. Vaholanki, badanning rohati harakat sanaladi. Diqqat qilgan bo'lsangiz, sahroda o'sgan odamlar sizlardan kuchli, temirchining ko'kragi siznikidan katta va baquvvatdir. Ularning a'zolari sizlarnikidan ko'p harakat qiladi. Bolaning yugur-yugurishida, o'ynashida hech qanday zarar yo'q. Bir joyda harakat qilmaslikda ko'proq zarar bor. Harakat vaqtida tanada qon yuguradi, ishtaha ochiladi, badanga quvvat kirib qalbni ochadi. Ovro'po maktablarida bolalarning harakati darslardan kam emas. Binobarin, Ovro'po odamlari biz musulmonlardan ancha chaqqon va ishga yaroqliroqdirlar.

Shu yergacha men ota-onalarning vazifalariga kirgan farzand badan tarbiyasi haqida muxtasar bayon qildim. Darhaqiqat, agarda odamzotning aksar hayvondan farqi bo'lmaganida, uning kamol topishi faqat badantarbiyasi bilan chegaralanib qolardi. Men ham bola tarbiyasi haqidagi bahsni shu yerda tugatardim. Lekin odam aqli va fikrlashi bilan boshqa jonzotlardan ajralib turadi. Odamning kamol topishi uchun badantarbiya bilan bir qatorda aqliy va axloqiy tarbiya ham shartdir.

AQLIY TARBIYA

Aqliy tarbiya, ya'ni odam aqlini tarbiyalash bu odam zehni, aql-idrokini kamolga yetkazishdir. Odam aqlining kamoli nimada? Yaxshi bilmoq, yaxshi o'rganmoq va mukammal fikr qilmoqdir. Odam ish qilishdan oldin uni xayoliga keltiradi, o'ylaydi, fikr etib keyin amal qiladi. Ana

shu tafakkurni, zehn harakatini «muhokama» deydilar. Odam aqlining kuchi va zakovati bilan to muhokama etib qaror qilmasa, bir ishni boshlab yoki biror ishni to'xtata olmaydi.

Bu masalani bir-ikki misol bilan tushuntirb beraman. Mana hozirgacha men joyimda o'tirib yozish bilan mashg'ul edim. Lekin birdan turib dasturxon ustiga keldim. Nima uchun? Mening ichimda bir mayl paydo bo'ldi. Bu holatning «ochlik» ekanligi menga oldindan tanish edi. Miyamda «men ochman» degan fikr keldi. «Har bir och odam ovqatlanishi lozim», – degan qarordan so'ng «men biron narsa yeyishim darkor», – degan xulosaga kelaman.

Ikkinchi misol. Falon do'stimning uyiga borib suhbat qilmoqchi bo'ldim. Borsam eshigi ochiq. Kirib do'stimni uxlagan holatda ko'rdim. Uni chaqirsam turmadi. Yaqinlashib qarasam, rangi ro'yi oqargan, nafas olmayapti, qon tomiri harakatsiz. Oldindan menga bu holatning o'lim holatligi ma'lum edi. Men ham shunday xulosaga kelaman, ya'ni do'stim o'lgan ekan.

Uchunchi misol. Yarim kechada uyda kitob mutolaasi bilan mashg'ul edingiz. Birdan «o'g'ri keldi» deb, to'pponchani olib chiqasiz. Shunda tom ustida bir begona odamni ko'rib unga hamla qilasiz, u kimsa qochib ketadi. Siz uyda o'tirgan edingiz. Hech kimni ko'rmadingiz-ku, qanday qilib «o'g'ri keldi» degan qarorga keldingiz? Chunki qulog'ingizga tomdan bir ovoz eshitildi. Sizga odamning qadam tashlash ovozi ma'lum edi. Bu tovush shunga o'xshaganidan «tomda odam yuribdi» degan qaror keldi. Shuningdek, yarim tunda faqat o'g'rining tomda yurishi sizga ma'lum edi. Binobarin, siz darrov, «bu odam o'g'ri» deb qurolingizni olib tashqariga chiqasiz.

Ana shu uch misol xayolimizda muhokama bo'ldi. Shu uchala muhokamani mantiq asosida qismlarga ajratib tadqiq qilamiz. 1. «Men ochman». «Har bir och qolgan odam taom yeyishi kerak». «Men ovqatlanishim lozim». 2. «Bu do'stimning rangi o'chgan, nafas olmaydi, harakati yo'q». «Kim shunday holatda bo'lsa, u o'lgandir». «Bu do'stim o'libdi». 3. «Bir odam tomda oyoq uchida yuribdi». «Kimki shunday yursa o'g'ridir». «Bu odam o'g'ri ekan».

Ko'ryapsizki, bu uch misolning har biri uch gapdan iborat. Bu gaplarning har biri hukm deyiladi. Bir qarorga kelishdan oldin birinchi va ikkinchi hukm bizga ma'lum edi. Endi qarorga kelishimiz uchun ongimiz birinchi va ikkinchi hukmni maxsus tartibga solib, keyin uchunchi qarorga o'tadi. Ana shu uchinchi xulosa bizning qarorimizdir. To'g'ri hukm chiqarish uchun uchta shart mavjud. Birinchisi – ikkita to'g'ri hukm, ikkinchisi – tartib, uchinchisi ikkala ma'lum hukmdan uchinchi to'g'ri qarorga o'tish. Birinchi shart isbot, ikkinchisi fikrning to'g'ri kelishi va uchinchisi qaror deyiladi.

Tashqi ma'lumot manbalari. Mening bayonotimdan shu ma'lum bo'ldiki, isbot, ya'ni ma'lum va to'g'ri hukmlarni bilmoq demakdir. Odam o'z ma'lumotlarini qayerdan va qaysi vositalar bilan oladi? Eng ko'p ma'lumotlarni odam tashqaridan o'zining beshta asosiy a'zolari orqali oladi. Bularni besh his a'zolari deb aytiladi. Ular: ko'z, quloq, til, burun va teri. Narsaning ranglarini, hajmini, yaqin-uzoqligini, yaxshi-yomonligini ko'z bilan ko'rib bilamiz. Ovozning past va balandligi, yo'g'on va mayinligini quloq bilan, hidni burun, mazani til orqali, qattiq, yumshoq, issiq, sovuqni teri a'zolarimiz orqali bilib olamiz.

Lekin bu hissiy a'zolarimiz bir qism ma'lumotni bizga bersa ham, har doim to'g'ri va aniq ma'lumot bermaydi. Ba'zan hissiy organlarimizning biri kasallik natijasida o'z xizmatini bajara olmay qoladi yoki xato qiladi. Masalan, ko'z ko'r bo'ladi yoki narsani ikkita ko'rsatadi va hokazo. Binobarin, ana shu beshta hissiy a'zolarni yaxshi tarbiya etib, ularni har xil kasalliklardan saqlab kamolga yetkazish lozim. Bola ko'zlarini har xil chang-u g'ubordan tozalashi, ularni kuchli yorug'lardan ehtiyot qilishi lozim. Ba'zan bolalar o'yin uchun ko'zlarining milkini teskari qilib qayiltiradilar, bunga yo'l bermaslik kerak. Ba'zi o'yinlar esa bolaning ko'rish qobiliyatini oshiradi (nishonga olish va boshqa o'yinlar). Bola qulog'ini ham yuvib, tozalab turishi kerak. Ba'zan sho'xlik qilaman deb bolaning qulog'iga baqirish zarar. Bunday ishlarni ularga man etish shart. Bolaning ta'm hissining sog'lig'i uchun tamaki chekishni qat'iyan man etish zarur. Shunday qilib, bolaning har bir hissiy a'zolarini sog'lom

saqlash lozim. Lekin shu a'zolarni kamolga yetishtirish maktabning vazifasidir. Binobarin, bu risolada men bu haqda yozishni munosib ko'rmadim.

Endi yana bir masala qoldi. Demak, odam bir qism ma'lumotni tashqaridan o'zining beshta hissiy a'zolari orqali olar ekan. Lekin qanday kayfiyat bilan olishimizni bilmaymiz. Men ana shu haqda bayon qilaman. Xudovandi karim odam jismida shunday tomirlarni yaratganki, ularni asab tolalalari deb ataydilar. Bu asab tolalari ko'zdan, quloqdan, og'iz va burundan, terilarimizdan hissiyotimizning markazi, ya'ni miyaga boradi. Bir joydan ovoz chiqsa, havo orqali u kelib o'sha hissiyotimizning tolalariga ta'sir qiladi. Bu sado ta'siri asab tolalari orqali miyaga yetib unga ham ta'sir qiladi. Natijada sadoni eshitamiz. Endi keling, «choynak» degan so'zni olib bu ma'noni sharhlaymiz. Masalan, sizga birov «choynak» degan so'zni aytdi. Shu ovoz qulog'ingizga chalinganda ta'siri miyaga ham yetib boradi. Birinchidan, siz bu odam «choynak» degan so'zni aytganini bildingiz. Lekin sizning bilimingiz bu bilan chegaralanib qolmaydi. Choynak so'zini eshitgandanoq, uning nimaligini ham tasavvur qilasiz. O'sha zahoti, «doira shakl dastasi bo'lgan va jo'mrakli narsa, ichiga choy solib ichadigan idish» ko'z oldingizga keladi. Bu xulosaga qanday kelasiz? O'sha sadodan bildingizmi? Yo'q, balki bu ma'no sizga boshqa joydan ma'lum edi, siz choynakni ko'rgan edingiz. Siz shu idishni ko'rganda, uning surati ko'z tomirlari orqali miyangizga yetib boradi. Qo'l bilan ham choynakni ushlasangiz qattiqligi haqida ham miyangizda ma'lumot bor. Shu so'zning sadosi qulog'ingizga chalinar ekan, uning surati, qattiqligi, talaffuzi bir vaqtning o'zida miyangizga yetib boradi. Uchala ma'lumotni bir vaqtning o'zida olasiz.

Shunday qilib, bu ma'no uchta hissiy a'zolaringizga takror ta'sir qiladiki, endi bittasini eshitsangiz qolgan ikkalasi ham sizga ayon bo'ladi. Shuning uchun choynak nomini eshitganda uning shakl-u shamoyili ham ko'zingiz oldiga keladi. Lekin odam shu yerda ham xato qiladi. Masalan, siz bir do'stingizning kelishini bilib, uni uyingizda kutib o'tiribsiz. Tashqaridan kelgan har qanday tovush go'yoki do's-

tingizning tovushidek tuyuladi. Biroz o'tmasdan bu sado boshqaning ovozi ekanini bilib olasiz. Yoki birov kechasi cho'ldan o'tayotir. Uning xayoliga ko'proq o'g'rilar keladi. Bu holda daraxtning soyasi ham uning nazarida qurollangan qaroqchidek ko'rinadi.

Boshqa kishi esa, kechasi uyqusidan uyg'onib tepasida bir oq va junli narsani ko'radi-da, uni jin yoki pari deb gumon qiladi. Agarda jur'atsiz bo'lmasa, joyidan turib, aql-u hushini yig'ib, u narsaning g'oyib bo'lishini ko'radi, ya'ni hech narsa yo'qligi unga ma'lum bo'ladi. Ammo jur'atsiz odam bo'lsa, qo'rqib kasal bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas. Ana shu uchta hodisada bayon qilgan xato ma'lumotlar «xatoi husn» (ya'ni suratning xato ko'rinishi)dir. Men uchunchi misoldagi xatoni tushuntirsam-da, birinchi va ikkinchi gumonlarni o'zingiz qiyos qilib bilib olasiz. Kishi uyqudan uyg'onib bir oq narsani ko'radi. U oldin ham ba'zan kechalari jin va parilar odam ko'ziga shu shaklda namoyon bo'lishini eshitgan edi. Uyqudan uyg'ongan odam devor soyasi yoki shaklni, oy shu'lasi ta'siridagi suratlarni darrov payqay olmaydi. Natijada uning zehnida xato tasavvur paydo bo'ladi. Nima narsa ekanini bilolmay jin va pari deb qabul qiladi. Agarda aql-u hushini yig'ib ahamiyat bersa, hech narsa bo'lmaganini ko'radi. Bolangizning aqli shunday xatolardan xoli bo'lishi uchun ularning diqqatlari va zehnlarini chuqur va jiddiy bo'lishiga o'rgating. Ya'ni bolalarga shunday tarbiya beringki, ko'rgan, eshitgan narsalari ustidan tez xulosa chiqarmay, balki biroz aql yurgizib va diqqat qilsinlar. Shunday qilib, hissiy a'zolaringiz orqali atrofdan oladigan ma'lumotlarni tashqi ma'lumotlar der ekanmiz.

Ichki ma'lumotlar. Bizning ma'lumotlarimiz faqat tashqaridan bo'lmay, balki ichkaridan oladigan ma'lumotlardan ham iborat. Masalan, biz och qolamiz, g'amgin bo'lamiz va hokazo. Lekin bu holatlarni biz ko'rib, eshitmaymiz. Ularni ichdan his va idrok qilamiz. Har bir tashqi ma'lumotga bir ichki ma'lumot, ya'ni idrok lozimdir, bo'lmasa tashqi ma'lumotdan hech qanday foyda bo'lmaydi. Masalan, siz ovozingizni baland qilib menga bir narsa deysiz. Ovoz mening qulog'imdagi tomirlarga ta'sir qilganda miyaga

boradi. Men bu sadoni eshitganimda o'zimni idrok qilib, borlig'imni his qilaman. Ammo o'zimni idrok etmasam, sizning so'zingiz menga bir pul! Bu masalani bir-ikki misol bilan sharhlab beraman.

Ba'zi kotiblar yozish vaqtida qalamni og'izlarida tishlab olib boshqa ish bilan mashg'ul bo'ladilar-da, keyin yana yozmoqchi bo'lganda, qalam qidirishga tushadilar, joylaridan turib hamma tomonga qarab qalamni topolmay jahllari chiqadi... Bir vaqt og'izlaridan qalam yerga tushadi... Qalam tishlanganda qalam lablaridagi hissiy tomirlarga ta'sir qilib, miyaga ham yetib borgan edi. Lekin bu ta'sirni kotib idrok qilmasdi. Shuning uchun ham qalamning ta'sirida foyda yo'q edi. Ajabo, nima uchun bunday? Chunki qalamni og'ziga olganda diqqat qilmagan edilar.

Bozor o'rtasdan biror xayol bilan o'tsangiz, u yerdagi hamma narsani ko'rasiz. Lekin qaytib kelib o'ylab ko'rsangiz, biron narsa yoki biror kishini eslolmaysiz. Nimaga shunday? Chunki bozordan o'tayotganda nazaringiz diqqatsiz edi, atrofga diqqat va ahamiyat bermasdan kelgansiz.

Ana shunday ichki ma'lumot «g'ayriixtiyoriy diqqat» deb aytiladi, ya'ni bu ma'lumot bo'lsa ham idrok doirasiga kirmagan sanaladi. Ma'lumot idrok doirasiga kirishi uchun ma'lumot olish jarayonida diqqat qilish lozim. Oldinroq aytganimdek, bola eshitgan va ko'rgan narsalariga diqqat qilishga ahamiyat berish lozim. Ammo g'ayriixtiyoriy idrokni batamom yo'q qilib bo'lmaydi.

Bunday xususiyat har bir odamda har xil darajada mavjud bo'lib, uning fe'l-u atvoriga katta ta'sir qiladi. Masalan, siz birovning muruvvatsizligi, insofsizligi va xiyonatlari haqida ko'p eshitasiz. Bu odam haqidagi salbiy xabarlar, albatta, xotiringizda bir iz qoldiradi. Endi uning nomini eshitsangiz yoki o'zini ko'rsangiz, nafratlanib uning yomonligi haqida hukm chiqarasiz. Ko'pincha bunday xulosaning sababini bilmaysiz, chunki u haqda eshitgan hikoyalar esingizdan chiqqan bo'ladi. Lekin ularning ta'siri (ya'ni g'ayriixtiyoriy idrok) miyangizda qolgan bo'lib, shunday hukm chiqarishga sababchi bo'ladi.

Bola tarbiyasi jarayonida shu xususiyatni hisobga olib,

ertak orqali bo'lsa ham ularga doim fidokor odamlar haqida, muruvvatli shaxslarning fe'llari haqida, mo'min va Allohdan qo'rquvchi odamlar haqida hikoya qilib, yaxshi amallarning foydasini eslatib o'tish lozim. Dev-u pari, jin va cho'l-u biyobon alvastilari haqidagi qissalarni bolalarga aytmanglar. Yomon xulq va ishyoqmaslikning zararlari haqida bolalarga aytib berish va zehniga buni joylash ota-ona uchun vojibdur. Bunday qissa va hikoyalar vaqt o'tishi bilan eslaridan chiqsa, ta'siri zehnlarida qoladi va hayotlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

Maktab bolalariga ishqiy va mayni maqtaydigan kitoblarni tavsiya qilmaslik to'g'ridir. Modomiki, g'ayriixtiyoriy idrok sizning harakat va xulq-atvoringizga ta'sir qilar ekan, ba'zan sizni xato yo'lga solib zarar yetkazishi mumkin.

Bu masalani bir misol bilan tushuntiraman. Padari buzrukvoringiz paxta tijoratining zarari haqida siz bilan suhbat qilib, har zamon falon nodon, pismadon ahmoq bo'lib bor-yo'g'ini paxta savdosi yo'lida yo'q qildi, degan. Albatta, otangizning so'zlari zehningizga ta'sir qilardi. Bugungi kunda bu hikoyalar esingizdan chiqqandir. Men qat'iy dalillar bilan bu yili paxta savdosi sizga foyda keltiradi desam, rad qilmaysiz ham, qabul ham qilmaysiz. Buning sababini so'rasam, aytolmaysiz va shu fikr bilan paxta tijoratidan qolib, katta daromaddan mahrum bo'lasiz. Ammo nafs va zehningizga biroz ahamiyat berib tadqiq qilsangiz, bu ishingizning sababi o'sha qiblagohingizning so'zlaridan kelib chiqishini bilib olasiz. Shu bilan gaplar endi qolib ketganiga ishonib, paxta tijoratiga o'tasiz va foyda ham olasiz.

Bolani ham yoshligidan o'zining shaxsiyati va zehniga diqqat berishga o'rgatish kerak. Bola qanday ish qilmasin «nima ish qilding?», «qaysi maqsadda qilding?», «qaysi maqsad uchun qilasan?» deb shirin so'zlar va ochiq chehra bilan so'rash ularni nafs tadqiqiga o'rgatadi.

Esda saqlash va xotira. Ma'lumotlarimiz xoh tashqi, xoh ichki bo'lsin miyamizga ta'sir qilgandan so'ng ancha muddat saqlanib qoladi. Masalan, men kecha sizning so'zlaringizni eshitgan edim. Ya'ni, gap qulog'im va ko'zim orqali miyamga ta'sir qilgan edi. Bugun sizni ko'rmasam va so'zlaringizni eshitmasam ham, kechagi ta'siridan uni idrok qilaman.

Ko'rinadiki, miyam sizning so'zlaringizni yodlab olgan ekan. Bugun esa men ularni xotiramga, xayolimga keltiraman. Odamning ana shu ikkala qobiliyatini «esda saqlash» va «xotira» deb ataydilar. Esda saqlash va xotira odam hayotida o'ta zarurdir. Shohdan gadogacha, olimdan bir maktab bolasigacha esda saqlash va xotiraga muhtojdirlar va ularning yordamida ishlarini bajaradilar. Agar men kecha o'qigan kitobim, qilgan ishlarim, ko'rgan narsalarim, ertalab qilgan muomalalarimni, bir muddat oldin eshitgan so'zlarni hozir eslay olmasam aniqki, holim voydir!

Xotiraning qay darajada muhim ekanini shu bayonimdan bildingiz. Lekin ana shu qobiliyat – esda saqlash va xotirlash qobiliyati har doim bir xil darajada zohir bo'lmaydi, ba'zan nuqsonli bo'ladi. Ba'zi odamlarga ish buyurib, ming ta'kid qilsangiz ham, bajarish ikki soat o'tmasdan xotiralaridan ko'tariladi. Ularning shu holatlari xotiralarining nuqsonidandir. Bolalar hofizalari va xotiralarini yoshligidan tarbiyalash, ularni kamolotga yetkazish juda ham zarurdir. Lekin bu vazifa, asosan, maktab muallimlari zimmasiga tushadi. Ota-onalar bolalarga kayf beradigan narsalarni tamoman man etishlari, bolalar turgan xonalarni nazorat qilishlari lozim. Bundan tashqari odam ruhini tarbiyalash uchun ko'p imkoniyatlar mavjud. Uni ham tarbiyalash lozim. Lekin bularning hammasi maktab va o'qituvchilar vazifasi bo'lgani uchun bu yerda zikr qilinmadi.

Muhokama. Odam tashqi, ichki ma'lumotlarni yig'ib olib, yod olib, xotirasiga keltirishga qodir bo'ladi, ya'ni boshlang'ich ma'lumotga ega bo'ladi. Uni biz hukm chiqarish uchun lozim bo'lgan birinchi shartning sohibi deb aytamiz. U xohlagan vaqtda ma'lumotini muayyan tartibga solib, yangi ma'lumotni qo'lga kiritadi. Masalani imkon qadar tushuntirib beray. Bir odam tarix ilmiga juda mayli bor va tarixiy kitoblarni ko'p mutolaa qiladi. Shu sababdan u falon va falon millat bir muddat saodat va baxtga erishib, jaholat va o'zaro adovat sabablaridan tarqalib ketganlarini ko'radi. Ammo falon va falon xalq va millat ilm va birlik bilan inqiroz va tarqoqlikdan najot topganlar. Shu bilimlardan u ikki asosiy xulosaga keladi: birinchisi, «qaysi millat jaholat va adovatga mubtalo bo'lsa,

o'lib nest-nobud bo'ladi». Ikkinchisi, «qaysi millat halokat va tarqoqlikdan xalos bo'lmoqchi bo'lsa, unga ilm va birlik lozim». Shundan so'ng u bizning millatimiz ahvolini tekshirib ko'radiki, «millat jaholat va o'zaro adovatga mubtalo bo'lgan». Bu hukmini yuqoridagi xulosalari bilan solishtirib, jamlab: «Millatimiz jaholat-u nifoqqa giriftor bo'lgan», – degan qarorga keladi. Qaysi millat jaholatga mubtalo bo'lsa, tarqoqlikka uchrab halok bo'ladi. Bu ikkala hukmdan oldin bilmagan xulosaga keladi: «millatimiz tarqoq va halok bo'layotir». Va bunday hukmdan tarixchi juda xafa bo'lib, agar millatparvar bo'lsa, jasorati yetsa, millatiga najot berish choralarini qidiradi. U, «millatimiz najotga talabgor», degan xulosaga keladi.

Bu hukmni xulosaga qo'shib, «millatimiz najotga talabgor», «qaysi millat najot istasa, unga ilm va birlik lozim», degan hukmga keladi. Ko'rganingizdek, ikkita ma'lum hukmni tartib bilan joylashtirib yangi hukm chiqaramiz. Ana shu muhokama deyiladi. Oldinroq aytganimdek, shu muhokamani bexato va benuqson bo'lishi uchun uchta shart bajarilishi lozim. Bular: isbot, muhokama va qaror. Isbot qanday hosil bo'lishini hali bayon etdim, ya'ni bolaning to'g'ri muhokama va qarorga ega bo'lishi uchun nima qilish kerak, ularni qanday tarbiyalash lozim? Bu muhim vazifalar, tamoman, maktab va o'qituvchilar zimmalarida bo'lsa-da, ota-onalar ham bunga aralashishlari zarur. Ota-ona bolaga bir ishda to'g'ri yo'l ko'rsatmoqchi bo'lsalar ham, bir ishni man qilsalar ham dalil va sabablar bilan tushuntirsinlar.

AXLOQIY TARBIYA

Zikr qilingan uchta tarbiyaning eng muhimi axloqiy tarbiya hisoblanadi. O'zingiz xohlaganingizcha bolangizning aqliy va badan tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lishingiz mumkin va qo'lingizdan kelguncha uni dono va baquvvat qiling. Lekin axloqiy tarbiya talab darajasida bo'lmasa, aqli hamda jismoniy kuchini o'zi yoki atrofdagilar zarariga ishlatadi. Binobarin, bolaning aqliy va jismoniy tarbiyasi samarasiz qolmasligi uchun farzandning axloqiy tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanib ko'p harakat qilish lozim.

Axloqiy tarbiya – odam axloqini kamolga yetkazish

demakdir, ya'ni odamni shunday tarbiya qilish kerakki, fe'li va amali o'ziga ham, boshqalarga ham foydali va manfaat keltiradigan bo'lsin.

Boshqacha aytganda, odamning fe'l-u xo'yi va harakatida yaxshi fazilatlarni tarbiyalash demakdir.

Ixtiyoriy fe'l va harakatlar. Odam tomonidan sodir bo'ladigan amal va harakat ikki qismga bo'linadi: ixtiyoriy va g'ayriixtiyoriy. Masalan, g'azablangan holda birovni so'ksangiz, urib mayib qilsangiz, keyin jahldan tushib, qilgan yomon ishingizni tushunib: «Nima qilay? Beixtiyor men shu ishni qildim?!» – deysiz. Lekin bu tariqa ishlar ham ixtiyoriy bo'ladi va ularni hissiyotga asoslangan amallar deb ataydilar. Tabiiy amallar degan g'ayriixtiyoriy amallar ham mavjud, lekin u bizning mavzuyimizga aloqasi yo'q.

Ixtiyoriy amal va harakatlar shunday ishlarki, ularni qilishga ixtiyorimiz va iqtidorimiz yetadi, foyda yoki zararini bilib qilamiz yoki qilmaymiz. Biz qilayotgan ko'p ishlar va harakatlar, mening nazarimda, hatto, o'sha ehtirosli amallar ham oz bo'lsa-da ixtiyordan xoli emas (bunga hali men keyinroq izoh beraman). Ana shu ixtiyoriy fe'llarimiz sabab ba'zilarimiz salohiyatlilik safatiga, ba'zilarimiz buzg'unchilik sifatlariga ega bo'lib qolamiz. Har tomondan boshimizga tushadigan jazo, mukofot, tahsin va tanbeh ixtiyoriy ishlarimizning natijasidir. Falon odam yaxshi odam, ya'ni o'ziga va o'zgaga foyda keltiradigan ishlarni ixtiyoriy ravishda qiladi. Pismadon esa yomondir, chunki o'ziga va boshqalarga zarar keltiradigan amallarni qiladi. Odamni yaxshi odam qilib tarbiyalash, ya'ni uni yaxshi axloq egasiga aylantirish ixtiyoriy fe'llarini tuzatib foyda keltirishga aylantirish demakdir.

Men endi ixtiyoriy amallarni tuzatish sabablari va yo'llarini tadqiq etib bayon qilaman. Har qanday ixtiyoriy harakatimizni avval tasavvur qilamiz, foyda va zararlarini o'ylab qilish yoki qilmaslik qaroriga kelamiz. Agarda foydasi zararidan ko'p bo'lsa, qilishga, lekin zarari foydasidan oshsa qilmaslikka qat'iy qaror qilamiz. Demak, irodamiz va ixtiyorimiz besh holatning natijasidir: tasavvur, muhokama, solishtirish, qaror va ijro. Shunday qilib, odamning fe'li va

harakatini bir yaxshi shakl va mazmunga keltirish uchun ruhimizning besh holati mavjud va biz ularni tarbiyalashimiz lozim ekan. Bularni qanday tarbiyalashimiz kerak? Men buni tushuntiraman.

Fe'llarning tamoyillari va tarbiyasi. Ba'zi odamlar hamisha o'zlariga va boshqalarga foyda va manfaat keltiradigan ishlar (masalan, ilm olish, yordam berish)ni tasavvur qilib o'ylab yuradilar. Miyalari zararli ishlardan ham xoli emas. Lekin zehnlarida bu ishlar xususida muhokama qilib, zararli va foydali ishlarni solishtirib zararligini qilmaydilar. Ba'zilar butunlay aksincha harakat qiladilar. Ular hamisha yomon va zararli ishlarni tasavvur qilib, muhokama jarayonida foydali ishlar zararli, zararli ishlar foydali bo'lib tuyuladi-da va yaxshi ishlarni qilmay, yomon ishni qilishga qaror qiladilar. Ajabo, ikkala guruhda ham tasavvur, muhokama va solishtirish holatlari mavjud, biroq negadir biri yaxshi ishlarni, boshqasi yomon ishlarni qilishga qaror qiladilar? Masalan, ikki kishidan biri sharob ichadi, ikkinchisi ichmaydi. Shubha yo'qki, bular sharob ichmoqning amalini tasavvur qilib, muhokama qilib, biri ichishga, ikkinchisi ichmaslikka qaror qilgan. Ikkalasining ruhiy holatlarini his qilsangiz, biri «yoqutrang sharob tomchilarini obi hayotdan ham foydali va yaxshiroq, odamni bir necha soat bo'lsa ham kulfatlardan qutqaradi» deya ishonishini bilib olasiz. Shuning uchun ham uning xotirida may ichmoq uchun mayl paydo bo'ladi. Ammo ikkinchi shaxsning tasavvur etishicha, sharob bir zaharli suvdir, odamzotning Haqni aql bilan idrok etishi, ma'rifatga monelik qiladi, hissiyotga xalal berib tanani ishdan chiqaradi. Shuning uchun bu odamning ko'ngli sharob ichmaslikka mayl qilgan. Lekin ana shu mayllar taqozosi bilan biri ichkilikka, ikkinchisi ichmaslikka qaror qiladi. Shu mayl va istakning tasavvurda, muhokamada qaror qilib amal etishda katta ta'siri mavjud. Faqat uch ixtiyoriy fe'lgina emas, balki e'tiroziy fe'l ham shu mayllarning ko'payishi va g'alayonning natijasidir. Masalan, odamning bir mayli xudbinlikdir. Kimning xudbinligi kuchli va yuqori darajada bo'lsa, agar birov uning nomus va sharafiga tajovuz qilsa, shu nafs g'alaba qiladi-da, o'sha tajovuzkor kishidan qasd

olmoqchi bo'ladi. Ongining muhokamasi ham o'ch olishning zararlarini emas, foydasini ko'rsatadi. Natijada o'rtada jinoyat sodir bo'ladi.

Yuqorida, ehtirosiy fe'l ham biroz bo'lsa-da, ixtiyordan xoli emas deb aytgan edim, modomiki, mayl ixtiyoriy fe'lga ta'sir etar ekan, ehtirosiy fe'lga ham ta'siri o'tadir. Bas, axloqiy tarbiya uchun mayl va istaklarining tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lish lozim. Olimlar odam ruhining mayllarini uch qismga bo'lganlar: shaxsiy mayl, ijtimoiy mayl va oliy mayl. Shaxsiy mayl ham uch qismdir: baxt mayli, faoliyat mayli, izzat mayli.

Baxt mayli. O'ziga taalluqli bo'lgan ishlar natijasida odam yo mamnun bo'ladi, yo g'amgin. Shu mamnuniyatni «baxt» va g'amginlikni «alam» deydilar. Kishi qaysi ishi natijasidan mamnun bo'lsa, baxt ko'rgan bo'ladi va shu ishni qayta takrorlanishini istaydi. Ana shu istak «baxtga mayl» bo'ladi. Baxtli bo'lishga har kimning haqqi va mayli bor. Qaysi ishni boshlasak, sababi shu mamnunlik mayli bo'ladi. Ruhning shu holatini yana bir holat quvib yuradi. Bu – «alamga nafrat» mayli. Har bir odamning baxtga mayli qancha bo'lsa, alamga ham narafrati shuncha bo'ladi. Bolalarni shunday tarbiya etish lozimki, baxtga bo'lgan intilishlari hech qachon xazon bo'lmasin, so'nmasin, balki ko'karsin. Ota-ona bolaga mamnunlik va xursandchilik qilishni man etmasliklari, balki axloqqa zid bo'lmagan ishlar bilan mamnun va xursand bo'lishini qo'llab-quvvatlashlari kerak. Boladan biror yaxshi ish sodir bo'lsa uni maqtashlari, maqtab mukofot berishlari yaxshi. Farzand ham ishning natijasini ko'rib, shunday baxtli va mamnunlik ishlarini orzu qiladi. Agarda farzand yomon ish qilsa, shu qilmishning qabohati va alamini unga tushuntirish lozim, toki u bu ishdan nafratlanib o'zini keyingi safar tiysin. Lekin ba'zan «baxt mayli» odamni zararli va halokat keltiruvchi jarlikka olib kelishi ham mumkin. Masalan, qimor o'ynash, sharob ichish, axloqsiz o'yinlarini qilish va kayf beruvchi narsalarni iste'mol etish o'z egalariga bir qisqa muddat baxt va bahra keltirsa ham, borib-borib ko'p qayg'u-alamlarga sabab bo'ladi. Ota-ona bolalariga bunday tez «baxt keltiruvchi» amallar yo'lini to'sib, uning

zararlarini yaqqol misollar va shirin so'zlar bilan tushuntirib berishlari zarur. Bugun mashaqqat, lekin kelajakda baxt keltiradigan ishlar (masalan, dars va ilm mutolaasi)ni bolalarga buyurishlari, bu ishda ularga chidam, g'ayrat va jur'at talab etilishini, ertaga baxtga erishgandan so'ng, bu baxt kechagi zahmat va mashaqqat natijasida yuzaga kelganligini tushuntirishlari lozim, shunda bolalar baxt siridan xabardor bo'ladilar.

Faoliyat mayli. Bu istak bolalarda tavallud topganlaridan paydo bo'ladi. Go'dak shu chog'dan harakat va faoliyat orzusida bo'ladi. Qo'l-oyoq silkitadi, «meni ko'tarib yurgin», deb otasining yelkasiga o'zini tashlaydi. Yurib ketgandan so'ng xursand bo'lib to'rt tomonga yuguradi va imkon bo'lsa, umuman tinchimaydi. Agarda boladagi shu istakka qarshi chiqib, uni «qimirlamay o'tirishga» o'rgatsangiz, katta bo'lib hafsalasiz, dangasa, ishbilmas bo'lib voyaga yetadi.

Izzat-nafs. Har bir odam ozmi-ko'pmi o'zini sevib manfaatini o'ylaydi. Shu holat izzat-nafs deyiladi. Bu tabiiy holat bolalarda ham mavjud. Siz bozordan bironta surat yoki soat sotib olib, uni farzandlaringizning biriga berasiz. Shunda boshqa bolangiz murosasiz yig'i-sig'ini boshlaydi. Chunki u ham o'zini yaxshi ko'radi va sizning hadyangizdan mahrum bo'lmaslikni xohlaydi. Izzat-nafsni so'ndirmay uni rivojlantirish kerak. Kimda shu nafs bo'lmasa, ya'ni o'z manfaatini o'ylamasa, o'ziga ishonmaydi, izzat-nafsining talabida bo'lmaydi. Bunday odamdan biror-bir yaxshilik foyda, fazilat kutib bo'lmaydi. Bolalarga «ahmoq», «eshak», «juvonmarg», «noma'qul qilibsan», «b... yebsan», «o'ldiraman seni», «senga gapirishni kim qo'yibdi?» deb qarg'ash, do'pposlash, ko'cha-ko'yda bolani urish izzat-nafsiga tegib, uni yo'q qiladi. Go'dak shunday tahqir ko'rib, yaxshi-yomon odamlar oldida haqorat eshitib, o'ziga mehr va ishonchini yo'qotadi, nafsoniyati xor bo'lib, beizzat va e'tiborsiz bo'lib qoladi. Bunday odamlarni axloq ulamolari «eshak halimligi egalari» deb atab, ulardan g'ayrat, or-nomus, hamiyat kutmaydilar. Baxtga qarshi bugun biz buxoroliklar shunday holatga tushganmizki, manfaatimizni yo'qotsak ham payidan bo'lmaymiz, nimaiki bo'lsa qanoat qilamiz. Ikki-uchta odam

oldida so'zlolmaymiz, da'voimiz isbotida ojiz qolamiz, g'animlardan bizga yetadigan zulm-u sitamlariga toqat qilamiz, qutulishimiz va najotimiz haqida o'ylaymiz. Bularning sababi, bolaligimizdan ota-ona, muallimlarimizdan haqorat eshitib, tahqir ko'rganimizdandir. Bola ba'zan noo'rin harakat qilsa, «Qadr-qimmating, izzat-nafsing bormi? Xayf senga, nomunosib ish qilding!» – deb nasihat qilsalar bo'lardi-ku?! Urib, haqorat qilish shartmi?! Oqibat odamning izzat-nafsi bir zararli shaklga kiradi, o'z egasini yomon ishlarga boshlaydi. Masalan, ba'zi odamlar zaif va past xislatlarga mubtalo bo'ladilar. Bu yo'lda boshqalarning mol-u jonini, nomusini ham qurbon qilishga haqliman deb biladilar. Ba'zi odamlarda intiqom – o'ch olish mayli, izzat-nafsining bir bo'lagi bo'lib singib ketganki, afv etish va rahm qilishni unutganlar. Hatto, o'ch olganda ham adolat, insof doirasidan chiqib ketadilar. Bir guruh odamlarning esa, izzat-nafslari takabburlik va g'urur darajasiga shunchalik ko'tarilganki, boshqalar bilan muomalada ularni odam o'rnida ko'rmaydilar. Bular hech kim bilan maslahatlashmaydilar, o'zlarini shunga loyiq deb biladilar. Izzat-nafsni bu darajaga yetkazmaslik lozim. Oqibat shunday bo'lmasligi uchun bolaga xasislik, baxillik, kibr-u g'urur zararlarini tushuntirish zarur. Bunday xislatlarning zararini tasvir va bayon etib, fazilatning doimiy xayrli manfaatlarini tushuntirish, boshqalarning izzat-nafsiga tegmaslikni, odamlarga diqqat-e'tiborda bo'lishni, ishlarning asl mohiyatini, bilimga rag'batli bo'lishni o'rgatish kerakki, bolalarning ijtimoiy va oliy mayllarini tarbiya etish muhim ahamiyat kasb etsin. Bu tarbiya qanaqa bo'ladi?

Ijtimoiy mayllar ham uch xil: aloqa mayli, o'zgalarga nisbatan mehr-muhabbat mayli va ibrat olib e'tiborda bo'lish mayli.

Aloqa mayli. Odam o'z yaqinlariga qalban bog'langan va ularning o'z shodligi va qayg'ulariga sherik bo'lishlarini xohlaydi. Agarda odam g'amginlik vaqtida yana yaqinlaridan ikki-uch kishini o'ziga hamdard ko'rsa, ancha tasalli topadi, shodlik va xursandchiligida ham sheriklari bo'lsa, shodligi ancha oshadi. O'zi ham boshqalarning g'ami va xursandchi-

ligiga sherik bo'ladi. Odamda bu holat tabiiydir. Go'dak hali til chiqarmasdan, fikrlash va muhokamaga kuchi yetmay turib atrofidagi kulgi va xursandchilikka qo'shilmoqchi bo'ladi. Sabablarini bilmay, u ham kulib xursand bo'ladi. Atrofidagi ikki-uch odamni yig'laganini ko'rsa, bola ham yig'laydi. Shu holat aloqa mayli deyiladi. Shafqat, marhamat, ko'ngil ovlash, tasalli berish, birovning dodiga yetish shu mayl natijasidir. Buning ustiga kimning shu mayli kuchayib borsa, uning atvori va fe'li boshqalarga og'ir botmasa, unga ta'na qilmasalar, u doimo yaxshi ishlarga qo'l uradi. Bolalarga mazlumlar, hech kimi yo'q bechora va bevalar ahvolini tushuntirish, ularga yordam berish fikrini bolalar ongiga singdirish foydalidir. Bola atrofdagilar ahvolidan achinib g'amgin bo'lsa-yu, unga esa «Senga nima? O'zingni o'yla» deyish, undagi aloqaga bo'lgan mayl, intilishga zarba berish demakdir.

Boshqalarga mehr-muhabbat mayli. Aloqa mayli borib-borib atrofdagilarga bo'lgan mehr-muhabbatga aylanadi. Odam boshqalar uning ahvolidan ta'sirlanib ketganlarini bilsa, u ham atrofdagilarning holatlaridan ta'sirlanadi. Bu aloqa keyinchalik mehr-muhabbatga aylanadi. Ba'zan bu mehr-muhabbat shu darajaga yetadiki, odam boshqalarning najoti va saodatlari uchun o'zining hayoti va baxtini qurbon qiladi. Ruhning shu holatini kuchaytirish lozim. Bolalarda o'zgalarga muhabbat avval oilasida, oila a'zolariga nisbatan paydo bo'ladi. Ya'ni go'dak avval ota-onasi, akalari va opalariga mehr qo'yadi. Ota-ona uning bu mayliga to'sqinlik qilmasliklari kerak, ya'ni bola ota-onasi va akalaridan nafratlanmasligi lozim. Farzandni doim so'kish ham ota-onaga obro' va hurmat keltirmaydi. Bir farzandni boshqasidan ko'proq sevmoq, erkalatmoq bolalar o'rtasida adovat uyg'otadi. Bu esa o'zaro mehr-u muhabbatni zaiflashtiradi.

Ibrat olib e'tiborda bo'lish mayli. Odam birovni do'st tutsa va o'zidan ulug'larni hurmat qilsa, ulardan ibrat olib, o'zini ularga o'xshatmoqchi bo'ladi, ulardek sa'y-harakat, yurish-turish qilmoqchi bo'ladi. Bu maylni yo'qotmay, uni kuchaytirib, undan foydalanish lozim. Ajdodlarimiz va diniy rahnamolarimiz himmat-hamiyat, adolat, insof va

odamgarchilikning eng baland pog'onalariga chiqqan edilar. Ana shu ma'qul sifatlar bilan qancha e'tibor, sharaf, izzat va baland martabaga ko'tarilganlar. Ota-ona shularni bolaga munosib til bilan tushuntirib, bolalarini ajdodlaridan ibrat olishga, g'ururlanib ularga o'xshashlikni orzu qilib yashashga da'vat etishlari zarur. Ota-ona o'z farzandlarini yaxshi ko'rsalar, ularni katta deb bilib, o'z qilmishlariga ahamiyat bersinlar. Farzand huzurida axloqqa qarshi ishlarni qilmasinlar. Aks holda bola ko'r-ko'rona taqlidga o'tadi. Bunday maylda katta zarar bor. Saodat rahbari bo'lgan aql-u muhokamani esidan chiqaradi. Go'dakni shunday tarbiya etish lozimki, birovning ishiga bilib-bilmasdan taqlid etmasin, balki har bir ishning sabab va foydalarini avval mulohaza etib, maqbul bo'lsa qilsin, bo'lmasa qilmasin.

Oliy mayl ham uch xil bo'ladi: bilish istagi, go'zallikka mayl, fazilatga muhabbat.

Bilish mayli. Olamga odam sinchkovlik bilan nazar tashlaydi, bilimga intiladi va ba'zan mu'qul narsalarni bilish uchun sa'y-harakat qiladi. Shu holat «bilish mayli» deyiladi. Bu mayl rivojlanishi lozim. Lekin bu mayl ba'zilarda gap terish va sir-asrorni bilishda ko'rinadi va bunday odamlar xalq ichida gap poylab yuradilar. Xabardor bo'lishning bu yo'li juda zararlidir. Ammo ba'zi odamlarda bu mayl haqiqatparastlik va ilm istagi shaklida paydo bo'ladi va ularni har bir narsaning haqiqatini bilishga undaydi. Xabardor bo'lishning bu qismini «haqiqatsevarlik» va «ilmsevarlik» deydilar. Ota-ona bolaning shu maylidan xabardor bo'lishlari shart. Agarda bola gap tashisa, uning zararini tushuntirib, man etishlari zarur. Bu mayl haqiqatni bilmoq, ilm olmoq shaklida paydo bo'lsa, tahsin va maqtovlar bilan shu istakni rivojlantirsinlar.

Go'zallikka mayl. Har bir shaxs tarbiya, intizom va tozalikka intiladi. Bu maylga kuch berish bolaning parishonholligini yo'q qiladi, iflos yurishdan va intizomsizlikdan qutqaradi. Shu mayl rivojlangan bola ulg'aygandan so'ng zimmasiga tushgan ishni yaxshi bajarib tartibsiz va chala qoldirmaydi.

Fazilatga muhabbat. Odam boshqalarning ishini yaxshi-yomonga ajratib, yaxshisiga taqlid, yomonidan nafrat qiladi.

Shu holatni «fazilatga muhabbat» deydilar. Bolalar oldida odamlarning ishlarini yaxshi yoki yomonga ajratish, yaxshi ishlarning foydalarini tushuntirish, yomon ishlarning zararlarini eslatish fazilat muhabbatiga kuch-quvvat beradi. Shunday qilib, mayllar maqsadga muvofiq tarbiyalansa, farzandingiz ham shu mayllar yordamida yaxshi amallarni o'ylab, onglaridagi muhokama paytida foydali ishlarni ko'proq o'ylaydilar va xayrli ish qilishga qaror qiladilar. Shu bilan iroda va ixtiyorning beshta tayanchidan uchtasi yaxshilanib foydali shaklga kiradi.

Iroda va ixtiyor. Arz etgan edimki, iroda va ixtiyorimiz besh holat-tasavvur, muhokama, solishtirish, qaror va ijroning natijasidir. Avvalgi uchta holatni ko'rib chiqqanimizdan so'ng oxirgi ikkita holat: qaror va ijro qoladi. Iroda va ixtiyor shu ikki holatda o'z aksini topadi. Farzandingizning axloqiy tarbiyasini nihoyaga yetkazmoqchi bo'lsak, ana shu ikki holatni tarbiya etib yaxshilashimiz darkor. Endi iroda va ixtiyorning asl sifatini ajratib, uning kamoli va kamchiliklarini ko'rsatamiz, toki, muhtaram o'quvchilarda iroda tarbiyasi xususida ham fikr hosil bo'lsin. Odamning ruhiy mayllari tarbiya ko'rib kamolga yetgandan so'ng xayrli ishlarni tasavvur, muhokama qiladilar va solishtiradilar. Lekin qaror va ijrosiga kelganda, hammalari bir xil natijaga kelmaydilar. Ba'zilari jiddiy ishlarda ham tez qarorga kelib, zudlik bilan ijroga kirishadilar. Ularning irodalari tez va qat'iydir. Ba'zi odamlar juda mayda, kundalik ishlarda ham fikr qilmaydilar. Bularning irodalari bo'sh, qat'iy emasdir. Ba'zilari foydali ishni qilishga qaror qilsalar, bajarishi qiyin bo'lsa ham uni qiladilar. Bular tashabbusli, jasur va shiddatli odamlardir. Irodalarida qattiq shiddat bor. Boshqa guruhdagi odamlar biror ishning foydasiga imonlari komil bo'lsa-yu, lekin tahlikali bo'lsa bajara olmaydilar. Bular qo'rqoq, kamharakat, azmlari bo'sh kishilar bo'ladilar. Yana bir «zaif jamoa» guruhi bordir. Bular mushkul va xavfli ishlarni ham qilishga qaror beradilar, ijrosini ham qonuniy deb bilib qo'l uradilar-u, andak mushkilot va xavf-u xatarga duch kelsalar, darrov o'z qarorlaridan qaytadilar. Bularning saboti yo'q, irodalari zaifdir. Boshqa jamoat esa qaror qabul qilgandan so'ng tahlika va xavf-u xatarga tushsalar ham orqaga qayt-

maydilar. Bular sabotli, irodalari qat'iydir. Bas, irodaning sifatlari oltitadir. Bular: sur'at, ikkilanish, shiddat, zaiflik, matonat va matonatsizlik. Irodaning kamoli uchta, ya'ni sur'at, shiddat, matonat bo'lsa, ikkilanish, zaiflik va matonatsizlik irodaning nuqsonidir. Bolaning irodasini shu nuqsonlardan saqlab, kamolat alomatlariga yetkazish irodaning tarbiyasi bo'ladi. Ota-ona farzandlarini tarbiya etib, bir komil inson qilmoqchi bo'lsalar, mayl tarbiyasidan keyin quyidagilarga ham ahamiyat bersinlar:

1. Bolaning badan va fikriy tarbiyasida hech qanday sustkashlikka yo'l bermasinlar, chunki qaysi inson sog'lom tan va aqldan mahrum bo'lsa, azm va irodasi ham nuqsonlarga g'arq bo'lgan bo'ladi.

2. Bolalarning huzurlarida ota-ona o'z azm-u sabotlarini zaif, irodalarini nuqsonli qilib ko'rsatmasinlar, toki go'dak buni ko'rib ibrat uchun taqlid qilmasin.

3. Bolalarga buyuk va aqlli, irodali insonlar haqida ertak va afsonalarni ibrat uchun ko'proq aytib berish lozim.

4. Farzand o'z iroda va azmiga qarab harakat qilishi zarur. Agarda bola har qanday ishni ota-onasining zo'ri bilan qilsa, irodasi zaif va nuqsonli bo'ladi. Ulg'aygandan keyin ham bola o'zicha iroda bilan biron ishni bajara olmaydi. Haqiqatan, bolaning harakat va fe'lidan xabardor bo'lib turib, behuda ishlardan qaytarish kerak. Lekin buni bolaning azm-u irodasiga zarar yetkazmasdan qilish durust, ya'ni shirin so'zlar va pandlar bilanki, haqorat va urish bilan emas.

Ota-ona vazifasiga kirgan axloq tarbiyasi haqida nimaiki bo'lsa, yozdim. Ammo yuqorida yozganimdek, aqliy va axloqiy tarbiyaning eng muhim va eng mushkul vazifalari maktab va muallimlar zimmalariga tushadi. Lekin bu risolada ular haqida to'liq yozib bo'lmaydi.

MAKTAB

Shunday qilib, yozganlarim asosida ko'z qorachig'ingizni tarbiya qilasiz va inshoolloh, shu oqilona tarbiyatingiz soyasida farzandingiz o'tkir aql va sog'lom badanga sohib bo'lib, yaxshi kamol topib, yetti yoshni ham to'ldiradi. Lekin bu bilan vazifam va burchim tamom bo'ldi deb o'ylamang. Jigarbandingiz sakkiz yoshga kirgandan so'ng bo'yningizga

yana bir katta vazifa tushadi. Biroq bizning mamlakatimizda bu vazifani bajarish mushkuldir. «Bu qanday vazifa ekan?» – dersiz. Bu – bolani maktabga berish. «Bir tovoq is chiqarib, bir lagan holvaytar olib, bolamning qo'lidan yetaklab falon mahallaning maktabiga olib borib qo'yaman, mavridi kelganda bir-bir holvaytar qilaman, yilida to'rt marta «bayram puli», haftada bir marta payshanbalik berib turish qiyinmi?» – deyishingiz mumkin. Albatta, bu yerda hech qanday qiyinchilik yo'q, «bo'yra puli» va «ko'mir puli» berish ham muammo emas.

Menga bularning daxli yo'q. Xohlasangiz yilida to'rt ming marta «bayram puli», har haftada yetmish marta payshanbalik bering, mening nima ishim bor?!

Lekin asli maqsad farzandingiz tarbiyasidir. Bu esa ancha murakkab ish! Tushuntiribroq bayon qilaman. Siz jigarbandingizni tavallud topishi bilan emizishdan ajratgungacha, keyin sakkiz yoshgacha men aytganimdek tarbiya etasiz. Endi, sakkiz yoshga to'lgach, maktabga berib, shunday muallimga topshirmoqchi bo'lasizki, u bolangizni o'zingizga o'xshab, ya'ni men aytgan yo'l bilan tarbiya etsin, hatto, sizdan ham ko'proq zahmat cheksin. Endi yurtimizdagi maktablarni ko'z oldingizga keltirib, insof yuzasidan mulohaza qiling, bu maktablar jigarbandingizning tozaligi, badan va aqliy tarbiyasi hamda axloqi haqida men yozgandimdek harakat qiladilarmi-yo'qmi? Bu maktablar men aytgan vazifalarning birontasini bajara oladimi? Indamaysiz?

Modomiki, savollarimga javob bera olmaysizmi, maktablarimiz ahvolini qalam kuchi bilan tasvirlab beraman, balki shundan keyin savollarimga javob berarsiz. Jigarbandingizni yetti yil tarbiyalab, qo'lidan ushlab maktabga olib borasiz. Maktab degani qanday joy? Bir qorong'i, havosi og'ir bo'lgan joy. Ovro'poliklar va ruslarning otxonalari bunday binolardan pokizaroq va havosi tozaroqdir. Tomi yo'q, devorlari faqat shuvoqlangan. O'tirgan o'ttiztacha bolaning orasida kal ham, ko'r ham, majruh-u sil kasal ham bor. Jigarporangizni shu (odam o'tirish uchun) loyiq bo'lmagan joyga olib kirib muallimga topshirasiz. Xo'sh, bu muallim qayerda tahsil ko'rgan? Ta'lim uslubi qanaqa? Bolalar tarbiyasidan xabari bormi? Bolalarga o'rgatmoqchi

bo'lgan narsalarni o'zi biladimi? Shu savollarning javobi sizga juda zarur bo'lsa ham, xayolingizga ularni keltirmaysiz, ya'ni muallim ahvolini tekshurmaysiz. Shunday qilib, dilbandingiz shu xonada, johil bir muallim qo'lida ertadan kechgacha qolib, alifbe, abjad va haftiyakni navbat bilan o'qiydi. Keyinchalik Qur'on va «Chorkitob»ga o'tadi. Tahsil usuliga ko'ra bolalar ikkita vazifa oladilar. Lekin «Chorkitob» ma'nosini na shogird, na muallim tushunadi. Qur'on qiroatida ham shunday. Qiroat qoidalariga shogird ham, o'qituvchi ham rioya qilmaydilar. Ikki soat davomida bola sabog'ini olib, olti-yetti soatida uxlaydilar, suhbat qiladilar, pashsha tutadilar va uyatli ishlar bilan mashg'ul bo'ladilarki, bayon etishga uyalaman. Sizlar esa uni bilasizlar. «Chorkitob» xatmidan keyin oshiqona va orifona muzmundagi Hofiz, Bedil, Navoiy asarlari, hatto, Yusuf va Zulayhodek kitoblarni o'qib, mazmunini tushunmaydilar. Shuncha vaqtlarini behuda o'tkazishlari ustiga nodon muallimlaridan kaltak ham yeb turadilar. Balki siz, «kaltaklab turishning nima zarari bor», dersiz? «Axir kaltak zarbidan ayiq mulla bo'lgan!» deb aytursiz?! Ba'zan bu misolingizga men ham qo'shilaman, haqiqatda, ayiq kaltak zarbidan mulla bo'ladi. Lekin odam esa ayiqqa aylanadi! Cho'p zarbidan boladagi hamma insoniy fazilat yo'qoladi. Binobarin maktablarda kaltak va «falaq»qa[51] yo'l berish nodonlik va andishasizlik darajasini ko'rsatadi.

So'zlarimga hayron bo'lmang. Bu yangi fikr (ya'ni qoidai jadid) emas. Balki oldingi olimlar ham bu fikrni ta'kidlaganlar. Islom olimi va arab faylasufi Abdurahmon ibn Xaldun (832-yili tavallud topgan)[52] o'zining mashhur «Muqaddima» asarida shu haqda yozgan. Xotirjam bo'lishingiz uchun bu musulmon olimning so'zini arab tilidan tarjima qilib keltirishni ravo ko'rdim. Ibn Xaldun yozadi: «Ta'lim va tarbiya jarayonida siz bolaning harakatlarini qat'iy chegaralamang, ularga jahl va zulm qilmang. Qaysi shogird zulm va qahr bilan tarbiya topsa, xotirasi tarqoq bo'lib, shodligi va sururi yo'qoladi, xotira parishonligi va g'amgin qalbi tufayli bilim miyasiga ham kirmaydi. G'amgin, hafsalasiz odam zaif, sust bo'ladi. O'z muallimidan zarar va jabr ko'rgan shogird yolg'onchi, riyokor, hiylagar va fikri buzuq bo'ladi. Chunki

muallimidan qo'rqib, yuragida alanga qolmaydi. Natijada maktabdan qochadi. Xalos bo'lish uchun ming bahona topadi. Ba'zan maktabga kelsa ham o'qituvchi nazaridan o'zining yomonligini yashirish uchun ikkiyuzlamachilik qiladi. To'g'risini aytmasdan qilmishini yashirish uchun yolg'on ishlatadi. Borib-borib u yolg'oni, nayranglari, riyokorligi tabiatiga singib, bolani axloqiy fazilatlardan mahrum etadi. O'z ustozidan lat yegan, zulm ko'rgan shogird qo'rqoq va jur'atsiz bo'ladi, mazlumlikka o'rganib, o'zini himoya qila olmaydi, odamning oliy fazilatlaridan biri bo'lgan himmat tayanchidan mahrum bo'ladi!» Ana shu purma'no so'zlar alloma Ibn Xaldun farmoyishlaridan bo'ladi. Bunga qo'shimcha qilishni men xohlamayman.

Tarbiyaning qanday bo'lishi, maktablarimizning hozirgi ahvoli qandayligini ma'lum qilganimdan so'ng, sizlardan so'ray: «Ayting-chi, shunday maktablarda bolangiz nima foyda oladi? Siz qanday manfaatdan umid qilasiz?»

Shu yerda bola tarbiyasi haqidagi bahsga nuqta qo'ymoqchi edim, ammo mamlakatimiz uchun muhim bo'lgan masala xayolimga keldi va uni ham aytib o'tishni munosib ko'rdim. Sezgan bo'lsangiz, shu joygacha aytganlarim umumiy tarzda bo'lib, farzandingiz xoh o'g'il, xoh qiz bo'lsin shu tariqa tarbiyat qilib, maktabga qo'yinglar, dedik. Biroq bizlarning odatimiz boshqacha, biz qizlarni o'g'il bolalar qatori tarbiya qilmaymiz, ularga ilm olish zarur deb qaramaymiz. Binobarin, qizlarga ilm berish zarurligi haqida yozib, bu masalani ham sizlarga tushuntirib bermoqchiman.

QIZLAR HAM ILM OLISHLARI KERAKMI?

Bu savolning javobi juda qisqa va osondir. Baxtimizga qarshi biz turkistonliklar, xususan, biz buxoroliklar bu ma'noni tushunishga harakat qilmaymiz. Ma'lumki, odamzot diniy va dunyoviy mehnatlar yuki ostida qoilb ketgan va umr davomida, asosan, dunyoviy ishlarni bajarib yurishga majbur bo'ladi. Dunyoviy ish, masalan, odamning yeb-ichishi, kiyinishi, uy qurishi, uylanishi, bolalik bo'lishi, uning tarbiyasi, uy-ro'zg'orini tartibga keltirishi va hokazolardir. Bu ishlarni bajarish uchun pul kerak bo'ladi. Pul ishlash uchun odam biror kasb-u kor bilan mashg'ul bo'ladi, shu

asnoda boshqalar bilan muomalaga kirishadi, muomala vaqtida aloqa, kengash, suhbat, bahsga kirishib, goh janjal qiladi, goh sulh tuzib murosaga keladi. Shunday qilib, odam bolasi qizmi yoki o'g'ilmi, balog'at yoshiga yetib, shu munosabatlar doirasiga kirgani sari, yuqoridagi muomalalarni qilishga majbur bo'ladi. Faqat bir odam bu ishlarni bajara olmaydi. Shuning uchun odamlar bu ishlarni o'zaro, birlashib bajaradilar. Dunyoning ba'zi bir ishlarini ahli ayol bajarsa, ba'zilarini erkak o'z zimmasiga oladi. Shuning uchun u ko'chaga chiqadi, kasb o'rganadi, odamlar bilan muomalaga kirishadi. Ko'chada bajariladigan ishlarni erkak o'zi qiladi. Bir qism ishlar va majburiyatlar, uy ishlari (oziq-ovqat sarfi va iqtisodi, bolalarni boqish va tarbiyalash) ayol bo'yniga tushadi. Shu muqaddimadan ma'lum bo'ladiki, erkak dunyoviy ishlarning bir qismini bajarishga qanchalik mas'ul bo'lsa, ayol ham bir qism ishlarni bajarishi shunchalik zarur ekan. Boshqacha qilib aytganda, dunyoviy ishlarni bajarishda erkak va ayol o'rtalarida, umuman, farq bo'lmaydi.

Endi masalaning diniy tomonlarini tadqiq qilib, ayol va erkak ahvollarini tahlil qilamiz. Biz musulmonlarning diniy vazifalarimizni Qur'oni karim bayon qiladi. Agarda Qur'oni karimga murojaat qilsangiz, ko'rasizki, ikki-uchta xususiy hukmlardan tashqari barcha ishda ayol-u erkakka bir xil xitob qilingan. Ya'ni diniy hukmlarni bayon qilib, ayol-u erkak farqini ajratmaydi, balki hammani «ayuhallazin» va «ayuhannos» xitobi ostida birlashtiradi. Masalan, «Ey imon keltiringlar, Allohdan qo'rqingiz!», «Ey odamlar, o'z Parvardigoringizga sig'iniglar!» va hokazo. Bas, ma'lum bo'ladiki, diniy majburiyatlar hamma musulmonlarga bir xil va tengdir. Erkag-u ayol bu hukmlarni bir xil qabul qilib ado etishlari lozim ekan. Endi, maktabga borib ilm olish nima uchun lozim ekan? Biz avval savod va hisobni, keyin diniy ilmlarni o'rganamiz. Ilohiy amrlardan mahrum va bexabar qolmasligimiz lozim. Undan keyin oliy ilmlardan birini, ya'ni tabobat, hikmat, handasa (geometriya), tijorat, tarbiya, ziroat, huquq yoki diniy ilmlarni chuqur va yaxshi o'rganib, tabib, tijoratchi, dehqon, murabbiy, mufti yoki ruhoniy (mulla) bo'lamiz. Ya'ni shu ilmlardan birining

soyasida biror kasbni ixtiyor etib hayot kechiramiz. Demak, ilm diniy-dunyoviy ishlarni bajarish uchun zarur ekan. Endi mening so'zlarimga diqqat qilib uni qabul qilgan bo'lsangiz, ayollarning ilm olishlari zarurligi haqida dalillar keltirib isbotlayman. Modomiki, ilm olish har bir odam uchun diniy va dunyoviy majburiyatlariga kirar ekan, ayollar ham ilm o'rganishlari shartdir. Mening bu dalilim shunday qat'iy va mantiqan to'g'riki, aql va insof arboblari hech qachon unga qarshi chiqish uchun jasorat qilolmaydilar. Xotin-qizlar ilm olishlarining yaxshi tomonlarini ham yozib sizga ko'rsatayin. Birinchidan, erkak ahli ayolini boqish uchun har kuni ertadan kechgacha xizmatga boradi. Tanigan-tanimaganlar bilan muloqot qiladi, kun davomida bir necha marta g'amga botadi. U uyiga qaytganda uyining saranjomligini, bolalarining tinchligini, oziq-ovqat tejog'ligini, ovqati muhayyo bo'lishini orzu qiladi. Xotini ochiq ko'ngil bilan uni kutib olib, odamlar muomalasi, ishxonasining ranj-u kulfatidan orttirgan qayg'u-alamini ko'nglidan ko'tarishini kutadi. Zotan, yuqorida aytganimdek, ayolning vazifalaridan biri shudir. Ilmli va tarbiya ko'rgan ayollar bu ishlarni ortig'i bilan bajarib, erlarini mamnun qiladilar. Ammo tarbiya ko'rmagan, bilimsiz ayollarga uylangan erkaklar bunday ilohiy ne'matdan ajrab qoladilar. Ko'pincha er uyga qaytib darvozalaridan kirmasdan, ichkarida dod-voy va janjal ovozini eshitadilar. «Ajabo, nima bo'ldi ekan?» – deya vahima bilan ichkariga kirsalar, xotini bola-chaqa yoki qo'shni ayollar bilan janjallashayotganini ko'radilar. Ba'zan uyini iflos, balalarini kasal, go'shtni esa mushuk olib ketgan, oshxonada biror taom yo'q, uy-hovlini besaranjom ko'radi. Buning ustiga yana xotinlarini qidirib topolmaydilar ham. Bilasizmi, xotin uyni shu ahvolda tashlab qayerga ketgan? Duoxon eshon uyiga ketgan! Ko'pchilik erlar ishdan charchab qaytsalar, tarbiyasiz va johil xotinlari yoqalaridan ushlab: «Nimaga farang ro'mol, zarli paranji olib kelmading?» – deb janjal ko'taradilar.

Ikkinchidan islom olamining hozirgi ahvolini bir necha bor sizlarga bayon qilib aytgan edimki, bu ulkan olam halokatga yaqin kelgan. Agarda ishbilarmon musulmonlar himmat kamarini bellariga bog'lab, millatlari ahvolini isloh

etmasalar, ahli islomning shu qolgan sharaf-u e'tibori islomni va muslmonchilikni nobud qiladi. Islom olami ahvolini isloh etishda bitta yo'l bor. Bu ham islom millatining umumiy axloqini isloh etish. Barchaga ma'lumki, mamlakatimiz holi xarob, istiqbolimiz ham xatarda. Tutgan yo'limiz nobudlikka olib borishini har bir kishi tushunsa kerak. Bugun yo erta biz o'tib ketamiz. Lekin oramizda holimizni isloh qilish uchun himmat kamarini bog'lagan odam yo'qdir. Bu mayliku-ya, «hozir ahvolimizni isloh etsa bo'ladi» degan odam topilmasligi aniq! Nimaga? Chunki. Biz ahli musulmon qalb quvvati, istiqbol umidi, madaniyat jasorati, fidokorlik hissi va diniy g'ayratdan, millat izzati va g'ururidan batamom mahrum bo'lganmiz. Na sabotimiz va azmimiz, na imonimiz va umidimiz bor. Xullas, milliy azm-u jasoratimiz, diniy axloqimiz butunlay xarob bo'lgan.

Ajib, juda ajib! Bu dardning chorasi nimada? Bu dardning iloji bo'lganda ham davosi uncha oson emas, ancha fursat, vaqt talab qiladi. Buning chorasi — biz farznadlarimizni yaxshi xulq egalari etib tarbiyalashimiz lozim, ya'ni shunday qilishimiz lozimki, farzandlarimiz imonli, fidokor, g'ayratli bo'lib, ulg'ayib, o'z bolalarini islom taraqqiyotiga muvofiq tarbiyalab, din va dindoshlarini halokat va xarobalik jarligidan qutqarsinlar.

Bu matlabga erishish uchun xotinlarimiz va qizlarimiz — millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur. Aks holda xotinlarimiz erkaklardan ham qo'rqoqroq, zaifroq va g'ayratsiz bo'lganlaridan bolalarimiz ham ularga o'xshab ketadilar. Mana shu oyati karima ham shu ma'noga ishora qiladi: «Pokiza yerdan toza va foydali o'simlik oson o'sadi va pokiza bo'lmagan yerdan xor-xasdan boshqa narsa chiqmaydi»[53].

Uchinchidan, men yuqorida bolalarni tarbiyalash va o'stirish haqida bir qancha qoidalarni yozdim. Va agarda ona sog'liqni saqlash va bolalar tarbiyasidan xabardor bo'lmasa, bu qoidalarni bajara olmaydi. Bu johillik va nodonlikning natijasida mamlakatimiz bolalarining yarmidan ko'prog'i nobud bo'ladilar, qolganlari esa axloqi yomon va ishyoqmas bo'ladilar. Ba'zi ehtiyotkor zamondoshlarimiz aytadilarki: «Ayollarga xat-u savod berish durustmas, zero ayollar sa-

vodli bo'lib nomahram va begonalarga xat-u xabar yozib, munosabat o'rnatadilar...» Agarda siz «Al-lazina»[54] oyati karima bashoratidan bexabar bo'lsangiz, agar siz bizning hayvonlardan ajratib turadigan fikrlash va aql-u idrok fazilatimizdan bebahra bo'lsangiz va Allohning eng buyuk ne'matlaridan bo'lgan aqlga noshukurlik qilsangiz, uni ishlatmasangiz, albatta, bu dalil va muddaoni qabul qilasiz.

Ammo bu masalani boshqa muammolar qatori sog'lom aql nazaridan o'tkazsangiz, osonlik bilan bu ehtiyotkor jamoaning dalillari qancha zaifligini tushunasiz. Mening dalillarimga esa ular, umuman, tob berolmaydilar. Shunga qaramasdan men bu yerda har bir masalani baholi qudrat, qo'limdan kelganicha tadqiq qilib va shu mavzuni arzimagan va zaif bo'lsa ham javobsiz qoldirmayman. Bu masalaning javobi ikki xil bo'ladi: biri taslimiy, ikkinchisi ma'naviy. Birinchi javob shunday: ha, biz sizning dalillaringizga taslim bo'lib aytamizki, xat-u savod chiqargan ba'zi xotinlar, qizlar o'z bilimlarini suiiste'mol qilib, begonalar bilan yashirin maktublar orqali munosabat o'rnatadilar. Lekin bu dalil da'volaringiz isbotiga kifoya bo'lmaydi. Ikkinchi javob: yuqorida men ayollarni ham ilm olishlari zarurligini qat'iy dalillar bilan isbotlab berdim. Dunyoda shunday buyuk va savobli ishlar borki, ichi qora odamlar doim ularni suiiste'mol qiladilar. Lekin ularning ishlari o'sha amallarning savobiga, umuman, xalal yetkazmaydi. Masalan, fiqh ilmi oliy va buyuk bir ilmdir, uni o'rganish ham zarur, ham savobdir. Lekin ba'zi johil muftiylar va zolim qozilar bu ilmni pora olish va xonadonlarni buzish yo'lida qurbon qiladilar. Ammo ularning bu ishlari fiqh ilmi sharofatiga va o'rganilishi lozimligiga umuman zarar yetkaza olmaydi. Keling, mavzudan uzoqlashmaylik. Siz xat-u savodni erkaklarga zarur ekanini qabul qilasiz. Ammo erkaklar ham o'z xat-u savod va bilimlarini zulm va fisq yo'lida ishlatishlari mumkin. Lekin haligacha men erkaklarni xat-u savod va bilim olishdan man etish lozimligini eshitmadim. Shunday qilib ayollarning ham xat-u savod chiqarishlarini shunga qiyoslasa bo'ladi.

Odamning fe'l va harakatlari ikki qismga bo'linadi. Birinchi

qism, shunday fe'l va harakatlarkim, bir shaxs yoki bir necha odamga (ya'ni millatning bir jamoasiga) foyda va manfaat keltiradi. Shu fe'l-u harakat «savob ish» deyiladi. Samoviy din shunday ishlarni o'z tobelariga ko'rsatib amr qiladi. Xudovandi karim shunday ishlarni ixtiyor etganlarga bu dunyoda va oxiratda ulug' ajr va'dasini berib karomat qilgandir. Ikkinchi qism, bir shaxs yoki bir necha odamga zarar va ziyon keltiradigan ish va harakatlar, ularni «gunoh» deydilar. Xudovandi taolo bunday ishlarni qilganlarga bu dunyoda va oxiratda azob-u uqubat va'da bergandir. Demak, gunoh qilmaslik uchun ikkita asosiy shart lozim ekan, birinchidan, Xudodan qo'rqish va foydani zarardan farq etish.

Endi ko'ramiz bu ikkala asosiy shart olimlarda bormi yoki johillardami? Birinchi shart, ya'ni Xudodan qo'rqish johillarda mavjud emas, olim esa Allohning yagonaligi, adolatliligi, do'stligi va jamolini ilm-u aqli bilan bilib tasdiqlaydi. Xudoning hukmlariga ishonib undan qo'rqadi. Ammo, bularning hammasini bilmaganlar kimdan qo'rqadilar? Nimaga qo'rqishlari lozim? Qur'oni karim ham tasdiqlaydi: «Olim bo'lgan bandalar Xudodan qo'rqadilar».

Ikkinchi shart, foydani zarardan farq etish ham shubhasiz olimlarda mavjud. Zero, tamoman johil bo'lgan odam o'ng qo'lini chap qo'lidan farq qilolmasa, foydasi va zararini qayerdan bilsin? Modomiki, gunoh qilmaslik uchun ikki shart lozim ekan va bu ikkala shart olimlarda mavjud ekan, bas, ayollarni «agarda xat-u savod chiqarib ilm olsalar gunoh qiladilar» deyish, xato va qabul qilib bo'lmaydigan xulosadir.

Shu joygacha ota-ona tarbiyalari haqida baqadri hol qo'limdan kelganicha yozdim. Endi farzandning ota-onasiga nisbatan biror vazifa yoki burchi bormikan yoki yo'q?

OTA-ONANING HAQ-HUQUQLARI

Ahd-paymon qoidasiga binoan har bir haq-huquqning vazifasi va har bir vazifaning burchi mavjud. Olamning intizomi va tartibi shuni taqozo etadi, shu bo'linish bo'lmaganda olamda bironta nizom ham qolmaydi. Shunga qiyosan, ota-ona farzandlariga nisbatan shuncha vazifalarni

bajarib kulfat tortar ekanlar, evaziga farzandlarining bo'yniga haqlari ham tushadi. Masalaning asli mohiyati shundaki, ota-onaning farzandlari ustiga tushadigan huquqlari nimalardan iborat? Haddi va me'yori bormi uning?

Qadim zamonlarda, ya'ni islomdan oldin odamlar orasida ota-onaning haq-huquqlari aniq emas edi. Binobarin, aksar odamlar adolat haddidan oshib, vahshat va jaholat doirasiga kirardilar. Masalan, ota o'z bolalarini o'zining mol-u mulkiga teng bilardi va xohlagan paytida o'z farzandini o'ldirishi mumkin edi. Islom tarixidan xabardor bo'lganlar bilardilarki, islom dini paydo bo'lishidan oldin arablar o'g'il bola tug'ilishiga xursand bo'lib, qiz olamga kelsa, tirik yerga ko'mardilar. Payg'ambarimizning bobolari Abdulmuttalib Zamzam qudug'ining qazilishi munosabati bilan xursandchiligiga farzandlaridan eng suyuklisi Abdulloh (Payg'ambar otasi)ni qurbon qilmoqchi bo'lgan. Ana shunday odatlar ibtidoiy odamlar o'rtasida mavjud bo'lib, o'sha zamonda yaxshi odatlar tusiga kirgan edi. Islom dini shunday berahmlik va xaroblik keltiradigan narsalarni bashariyat olamiga ravo ko'rmay, farzand o'ldirishni man etdi. Qur'onda: «O'z bolalaringizni faqirlik xavfidan o'ldirmangiz»,– deb aytilgan[55]. An'om surasida esa: «Ularkim farzandlarini o'ldiribdilar, albatta zarar ko'radilar», – deb hukm qilingan[56].

Endi farzandning vazifasi Qur'onda ushbu tarzda tayin etilgan: «Xudoga ibodat qiling, o'zgani unga sherik qilmang va ota-ona haqlariga mehribonlik va yaxshilik qiling»[57].

Hazrati Abu Bakr (r. a.) rivoyat qiladilar: Nabiy (s. a. v.) aytganlar: «Sizlarni eng og'ir gunohdan xabardor qilishimni xohlaysizlarmi?» (Sahobalar:) «Ha, ey Xudo payg'ambari», – deya javob berdilar. Payg'ambar buyurdilar: «Eng og'ir gunoh bu Allohga shak keltirish va ota-onaga ozor berish» (Buxoriy va Muslimdan). Shu oyat va hadisdan ma'lum bo'ladiki, ota-ona haqqiga yaxshilik qilish va ularga ozor bermaslik har bir musulmon uchun vojib ekan. Lekin so'zni shu yerda to'xtatib, bahsga nuqta qo'yishga hali erta. Zero, odam tabiatan zolimdir, insofsizlik sari mayli bordir. Payg'ambar aytadilar: «Zulm odamlarning tabiiy odatlaridandir. Odamzot bir fursat topsa yoki birovni qo'l ostida ko'rsa, «inson haqiqatda isyon qilguvchidir» (degan oyati karima) mazmuniga ko'ra,

tortinish yo'lidan chiqadi, adolat va muruvvat maydonini payhon qiladi». Biz odamning zolimona tabiatiga qarab, shu birgina oyat va hadisga ahamiyat bermay, farzandni qo'l-oyog'ini bog'lab, butunlay ota-onaga topshirsak, shubhasiz, olam nizomining asosi bo'lgan adolat va insof binosini buzgan bo'lamiz. Ha, hozirgi davrda farzandlari haqqiga zulm qilmagan ota-ona yo'qdir. Hatto, aksar farzandlar ham aynan ota-ona rizoligini o'ylab, ko'r-ko'rona o'zlarini qurbon qiladilar.

Endi mamlakatimizda har kuni sodir bo'ladigan ikki-uch voqeani arz qilaman. Falon odam foydasi kam bo'lgan bir kasbga mashg'ul. Dastmoyasi kam, oilasining sarf-u xarajati esa uning zimmasidadir. Onasi bu bechorani majbur qilib, falonchining qiziga falon mahr berib nikohiga olishini xohlab, shunga munosib dabdabali nikoh to'y qilishni, qiz uyiga shuncha paxta va guruch, muncha qo'y va allaqancha liboslik matolar yuborishni talab qiladi. Vaholanki, bu bechora, avvalo, uylanish qudratiga ega emas. Ikkinchidan, onasi taklif etayotgan to'y ikki ming so'mdan arzoniga tushmaydi. Shu ikki ming so'm ham yigitda yo'qdir. U chorasiz qolib, bu muammoni hal etish uchun onasiga qayta-qayta uni uylantirish orzusidan voz kechishini so'raydi. Onasi qabul qilmaydi. «Uylanishingni va to'yingni ko'rmay o'lish men uchun baxtsizlikdir. Oq qilaman, oq sutimga rozimasman», — deb o'z farzandini qiynaydi.

Falon kishining ikkita xotini bor edi. Ikkinchi xotinining ig'volari bilan oldingi xotinidan ajrashdi, bolalarini merosdan mahrum etdi. Shuncha insofsizlik bilan bolalarini o'z uyida ushlab, ulardan ovqatlari evaziga o'zi va xotiniga xizmat qilishlarini talab qiladi. Bunga bo'ysunmasalar, ularni «oq» qiladi.

Pismadon kishining onasi, xotini ikki-uch farzandi bor. Xotini pok va yomonliklardan yiroq bo'lib, erining muhabbati va roziligiga muvaffaq bo'lgan. Lekin qaynona janoblari kosalariga sholg'omni kelinlari kam solganini pesh qilib, kelin bilan urushib dushmanlik qiladilar. Farzand holini shunday tang qiladiki, o'g'li xotinini haydab, bolalarini yetim qilib, yana ko'p pul sarflab, falonchining hunarmand, qo'li gul qizini nikohiga olishi lozim bo'ladi. O'sha qiz chiroyli

bo'lmasa ham bir kambag'alning farzandi, qaynona xizmatini yaxshi bajo keltiradi. Agarda o'g'il onasining taklifini qabul qilmasa, ona «bergan sutimga rozi emasman» deb arazlaydi. Xulosa qilib aytganda, ota-ona farzandlarini diniy va dunyoviy ishlarda ham, umumiy va xususiy ishlarlda ham ularga tobe bo'lishlarini hamisha orzu qiladilar. Bu esa zulm va insofsizlikdir!

Ota-onaga ehson etishga amr qiladigan oyat va hadislarni qanday tafsir qilish kerak? Shu savol ancha muddat mening xayolimdan o'tar edi. Men mudarris ustozlardan savollarimga javob berishlarini istadim, lekin ular ham qiynalib qoniqarli javob berolmadilar. Hatto, «bu ishlarning ketidan ovora bo'lma, nimaiki kitoblarda yozilgan bo'lsa o'shani qabul etgin. Zero, sen borayotgan yo'l kulfat keltiradi» deb, meni haqiqat izlashdan man etardilar. Men ham otasining po'stinidan qo'rqqan yosh bolaga o'xshab kulfat nomini eshitganim zahoti jim bo'lib qolardim. Lekin asli fikrim xotiramda qolardi. Chunki tafakkurni islom kuchi va qo'rqitish bilan xotiradan chiqarib bo'lmaydi. Qur'on va hadis mutolaasiga musharraf bo'ldim, naf keltiruvchi ilmlardan bahramand bo'ldim. Haqiqat jaholat qo'li bilan yopilgan zulmat pardasidan ochildi, shu jumladan, ota-onaning haq-huquqlari ham yaxshigina ravshan va aniq bo'ldi. Endi shuni bayon qilaman. «Odamzotga amr qildikki, otangga yaxshilik qil. Agarda ular senga buyursalar va ul ish sening shirk va kufringga sabab bo'lsa, itoat qilmagin. Sizlar men tomon qaytasizlar, o'shanda dunyoda nima ish bilan mashg'ul bo'lganlaringni aytaman»[58]. «Agarda ota-onang seni mushrik bo'lishing uchun harakat qilsalar, ularga itoat etmagin. Shunga qaramasdan bu dunyoda ular bilan yaxshi yashagin»[59]. Mana shu ikkita oyati karima bayon qiladiki, ota-ona farzandlarini shirk va kufrga dalolat etsalar, farzandlar ularga itoat qilmasliklari lozim. Agar farzand ota-onasini xato yo'lida ko'rsa, ularni to'g'ri yo'lga chaqirish mumkinmi? Bu savolga quyidagi oyati karima javob beradi. Qur'onda rost so'zlaguvchi va payg'ambar bo'lgan Ibrohim hikoyati zikr etilgan[60]. U otasiga dedi: «Ey ota, ko'rmaydigan, eshitmaydigan, senga naf bermaydigan bu butlarga nima uchun sig'inasan? Ey ota, menda shunday ilm hosil bo'lganki, u

senda yo‘q. Bas, menga ergashgin, men senga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatayin. Ey ota, shaytonga ibodat qilmagin, u hazrati Rahmonga isyon qilibdir. Ey ota, Alloh tomonidan senga azob tegishidan qo‘rqaman, unda shaytonga do‘st va hamroh bo‘lasan». Ibrohimning otasi dediki: «Ey Ibrohim, agarda bu fikringdan qaytmasang, seni duoyibad qilaman, yo‘qol ko‘zimdan, qahrimga giriftor bo‘lma». Ibrohim dedi: «U (Alloh)ning mening haqqimga lutf-u marhamati bordir». Shubhasiz, Qur’oni karim Xudoning to‘g‘ri yo‘lidir. Uning oyatlari qaysi mavzuda bo‘lmasin, hammasi bandalarga yo‘l ko‘rsatish uchun nozil bo‘lgandir. Jumladan, hazrati Ibrohim qissalari bo‘lgan oyatlar ham bizlarga bir nechta ma’nolarni tushuntiradi. Birinchidan, agarda ota xato yo‘lga kirgan bo‘lsa, farzand otasiga e’tiroz qilib, uni xato yo‘lidan qaytarishi to‘g‘ridir. Lekin farzand ota xatosini iliq so‘zlar bilan va ravshan dalillar bilan tushuntirmog‘i lozim. Masalan, Ibrohim deganki, «Ey ota, shaytonga sig‘inmagin».

Ikkinchidan, agarda o‘g‘il otasi bilmagan narsani bilib olsa va shu ma’noni otasiga tushuntirmog‘i lozim bo‘lsa, o‘ziga ergashtirish uchun uni da’vat qilsin.

Uchinchidan, agarda ota farzandining bu harakatlaridan xafa bo‘lib man etsa, o‘g‘li otasining to‘sqinlik qilishlariga e’tibor qilmasin. Lekin otasiga dag‘al munosabatda bo‘lmasin, balki muloyim va shirin so‘zlar bilan noroziligini bildirsin. Agar farzand zimmasiga tushgan haq va shar’iy bo‘lgan din rivojiga harakat qilish, mulk-u millat uchun xizmat etish, ilm olish kabi ishlardan biriga bel bog‘lamoqchi bo‘lsa va uning ishidan ota-onasiga biror zarar yetadigan bo‘lsa, shu ishlarga ota-onam qarshi deb voz kechishi to‘g‘rimi? Bu savolga ham javobini quyidagi oyati karimadan olamiz: «Ey mo‘minlar, har bir ishning ijrosida adolat qiling, xolisanlilloh shahodat beringlar. Hatto, bu amalingiz o‘zingizga, ota-onangiz yoki urug‘-qarindoshlaringizga zarar keltirsa ham»[61]. Bu oyat shuni dalolat qiladiki, mo‘min odamlar adolat ijrosi va haq izhori uchun doim harakat qilishlari lozim. Bu yo‘lda o‘zlariga yoki ota-onalariga zarar tegishidan andisha qilmasliklari lozim.

Ajabo, agarda ota-ona bizlarni adolat o‘rnatishda har bir musulmon uchun bajarilishi shar’iy bo‘lgan haq so‘zni

aytishni man etsalar, uni qabul qilaylikmi? Bu savolga quyidagi hadisdan javob olamiz. Ali (k. v.)[62] rivoyat qiladiki, «Nabiy (s. a. v.) deganlar: «Yaqinlaring noshar'iy ishga buyursa qilishing noto'g'ridir, shar'iy ishlarga buyursa qilishing to'g'ridir».

Juda yaxshi, bu masala tamom bo'ldi, lekin yana bir muammo qoldi. Masalan, bir odamga otasi shirkka sabab bo'ladigan bir ishni buyuradi, falon odam esa, din rivoji va haq yo'lini ixtiyor etgan, otasi uni bu ishdan man etadi. Pismadon odamga esa onasi xotinini taloq berishga majbur qiladi. Xulosa: ba'zi ota-onalar farzandlariga shar'an to'g'ri bo'lmagan zararli ishlarni taklif qiladilar. Farzandlar esa, shu oyati karima foydasiga amal qilib, bu takliflarni shirin va oqilona so'zlar bilan rad etib, o'z ishlari bilan mashg'ul bo'lsinlar. Agar bolalardan bir xato sodir bo'lsa, ota-ona bu xatodan xafa bo'lib, kechirim va uzrlarini qabul qilmaydilar. Ushbu holatda farzand gunohkor bo'ladimi? Bu savolga quyidagi oyatlar javob beradi: «Parvardigoringiz, yolg'iz Uning o'ziga ibodat qilishlaringizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishlaringizni amr etdi. Agar ularning birovi yoki har ikkisi sening qo'l ostingda keksalik yoshiga yetsalar, ularga qarab «uf» tortma va ularning so'zlarini qaytarma! Ularga doimo yaxshi so'z ayt! Ular uchun mehribonlik bilan xorlik qanotini past tut – xokisor bo'l va «Parvardigorim, meni (ular) go'daklik chog'imdan tarbiyalab o'stirganlaridek, sen ham ularga rahm-shafqat qilgin» deb haqlariga duo qil»[63]. Alloh taolo bu oyati karimada, avvalo, ota-ona haqlarini bizga tushuntirgan.

YETIMLAR HUQUQLARI

Sag'ir (ota-onasiz) bolalarni yetim deydilar. Hamma biladiki, bir bolaning otasi bo'lmasa, shariat hukmi bilan qozilar bu go'dakni bironta qarindoshlariga berishadi. Agarda ul shaxs ishonchli odam bo'lsa, bolaning pulini ham unga beradilar, aks holda o'sha odam o'z hisobidan yetimni ta'min qiladi. Yetimlarning bu masalalari bahsimiz doirasidan chiqadi. Bu risolada men faqat yetimlar tarbiyasining axloqiy jihatlarini bayon etaman. Ma'lumki, yetim tarbiyasini bo'yniga olmoq, uning jismoniy va ruhiy kamolotiga harakat

etmoq, yetimga, umuman va hech qanday zarar yetkazmasdan, ozor bermasdan o'z bolalari qatorida qabul qilib, otasizligini eslatmaslik insoniylik nuqtayi nazaridan har bir kimsaga shartdir. Inson rahmdil va muruvvatli bo'lishi lozim. Rahmdil va muruvvatli odam yetimlar haqqiga yaxshilik qiladi. Lekin haqiqatni yashirish insongarchilik sha'nidan emas, shu bois baland ovoz bilan aytamanki, mamlakatimizda yetimlarning haq-huquqlari bajarilmaydi. Ko'plarimiz biror yetim tarbiyasini o'z zimmamizga olsak, uning pulini zo'ravonlik bilan biror hojatimizga sarf qilamiz. Shu niyat bilan yetimning pulini olish Xudoga aslo xush kelmaydi. «Yetim moliga yaqinlashmang. Agarda yetim uchun eng yaxshi vosita bo'lmasa»[64],— deyiladi Qur'onda. Ya'ni yetim moliga qo'l cho'zayotgan bo'lsangiz, niyatingiz tijorat qilib yetim boyligini ko'paytirish bo'lsa mayli, faqat yetim balog'atga yetguncha. Yetim pullarini qo'lga olib, bir xazina topgan odamga o'xshab, undan foydalanamiz va dovdirab sarf qilamiz, asl egasini xayolimizga ham keltirmaymiz. Ular balog'atga yetgach, ming hisob-kitob bilan haqlarini zo'rg'a oladilar. Xudo homiylar va vasiylarga bunday ishlarni qilmaslikni buyurgan.

«Yetim molini bolaligida o'zlariga sarf qilinglar, ulg'aygandan so'ng o'zlariga (meroslarini) topshiring. Ular molini sarf qilgan bo'lsangiz, yetimlar moli sizga harom bo'ladi, undan xarj qilmang, ularning molini o'zlashtirmang. Bunday ishlaringizni har biri katta gunohdir»[65].

Allohning shunday tanbehini inobatga olmay, o'z qilmishlarini davom ettirayotgan vasiylarga Xudo buyuradi: «Kim yetimlar molini yerkan, ular olov yeyishlariga shubha yo'qdir va yaqinda jahannam (do'zax)ga tushadilar»[66]. Ba'zi odamlar borki (kam bo'lsa ham), haqiqatan, Xudodan qo'rqib, buyurgan amrlariga itoat qilib, na yetimlar moliga va na o'zlariga yaqin keladilar. Ular yetimning moli ularga falokat va baxtsizlik keltiradi deb o'ylaydilar. Yetimlar tarbiyasi va mollarining himoyasini o'z zimmalariga olmaydilar. Men ularning bu harakatlarini yetimlar holiga zarar deb bilaman. Chunki shunday insof egalari yetimlarning mollari va o'zlarini himoyalariga olmasalar, ular beinsoflar qo'lida qolib ketadilar, binobarin, men ularga: «Agarda haqiqatan ham

yetimlarga nisbatan niyatlaringiz pok bo'lsa, adolat fikrida bo'lsangiz hech xavfsiramang. Yetimlar mollarining himoyasi va tarbiyalarini o'z zimmangizga oling. Ularning mollari va poyqadamlari juda sharofatli va muborakdir»,– deyman. Shayx ul-mufassir Muhammad ibn Jarir at-Tabariy ibn Abbosdan rivoyat qiladi: «Va lo taqrabu mol al-yatima[67]...» va «inallazina yakuna amvola al-yatima»[68] oyatlari nozil bo'lganda yetimlarga javobgar va vasiy bo'lganlar qo'rqib qoldilar. Yetimlar ovqatini o'zlarining ovqatlaridan ajratdilar. Hatto, ularning taomlarini alohida qozonda pishirib, alohida laganga solib yedirdilar, qolgan ovqatlarini ertasiga qoldirdilar. Ertasi agar yetimlar iste'mol qilmasalar, olib ketguncha saqlab, keyin to'kib tashladilar. Bu masala arablar uchun mushkul bo'ldi. Voqeani payg'ambarga arz qildilar. Quyidagi oyat nozil bo'ldi: «Ey Muhammad! Sendan yetimlar masalasini so'raydilar. Aytgin ularga, yetimlarning manfaati yo'lida harakat etish ularga ham, sizlarga ham yaxshidir. Agarda ularni o'z uylaringizga olib kelsangiz, ular birodaringiz bo'ladilar. Ulardan qochmang, haqlariga yaxshilik qiling. Xudo buzg'unchi va solihni biladi. Agarda yetimlarga nisbatan niyatingiz yomon bo'lsa, sizlarga azob, aksincha bo'lsa, savob beradi. Agarda Xudo xohlasa edi, sizlarni qiyin ahvolga solardi, ya'ni yetimlar bilan sizlarning muomalangizini oson qilmas edi. Alloh aziz va hakimdir»[69].

Yetimni uyga olib kelsangiz, farzandingiz bilan bir xil ko'ring, farzandingizdek teng muomalada bo'lingiz, bu ham insofdan va ham shariatda lozimdir.

Imom Buxoriy Sahl ibn Sa'd va Imom Muslim Abu Hurayradan rivoyat qiladilar: «Payg'ambarimiz (s. a. v.) ikki barmoqlarini birlashtirib aytadilar: «Kimki yetimlar saodatini o'z zimmasiga olsa, ikkalamiz ana shu ikki barmoqdek u bilan bir-birimizga yaqin bo'lamiz». Nabiy (s. a. v.) aytgan ekanlar: «Qaysi xonada biror-bir yetim hurmatli va aziz bo'lsa. o'sha oilani Xudo sevadi, ammo yetimga xizmatkordek muomala qilib, uni urib, so'kib xor-zor qilganlar ilohiy amr-u farmonga qarshi ish tutadilar».

«Bas, endi inson qachon Parvardigori uni imtihon qilib, aziz qilib qo'ysa va unga ne'mat ato etsa, darhol: «Parvardigorim meni aziz qildi», – der. Endi qachon

(Parvardigori) uni imtihon qilib, rizqini tang qilib qo'ysa darhol: «Parvardigorim meni xor qildi», – der. Yo'q (kambag'alligingiz shundanki), sizlar yetimni izzat-ikrom qilmassizlar! Miskin bechoraga taom berishga ham birbirlaringni targ'ib qilmassizlar», – deyilgan Val-fajr surasida[70]. «Sen dinni, ya'ni ilohiy hukmlarni yolg'onga chiqarganlarni ko'rganmisan? Ul shaxs yetimni g'azab bilan oldidan haydagan va boshqalarni miskinlarga taom berishga da'vat etmayotgan kishidir», – deyiladi Mo'un surasida[71].

XIZMATKORLAR HUQUQLARI

Bir oiladagi oxirgi munosabatlardan biri uy egalarining xizmatkorlar bilan bo'lgan munosabatlari bo'ladi. Xudo rasulidan xizmatkorlarga nisbatan bo'lgan amrlarini yozib, men bu risolamga nuqta qo'yaman. Imom Buxoriy va Imom Muslim Abu Zar G'affariydan[72] ishonchli rivoyat qiladilar: «Abu Zar aytadi: «Bir kuni g'ulomimning onasini so'kdim. Payg'ambar eshitib menga shunday xitob qildilar: «Ey, Abu Zar! Sen g'ulomingning onasini so'kdingmi? Senda johiliyatdan qolgan asar bor ekan. Qullaringiz va xizmatkorlaringiz birodarlaringiz bo'ladilar (chunki ular ham odam) va Xudo ularni sizga tobe etgan. Kimki o'z dindoshiga xizmat etsa, xo'jayini o'zi yeganidan unga yedirishi, o'zi kiyinadigan kiyimdan unga berishi lozimdir. Xizmatkorlarga og'ir xizmat buyursangiz, o'zlaringiz ham ularga madad bering».

Abu Hurayra (r. a.) rivoyat qiladilar: «Payg'ambar (s. a. v.) dedilar: «Qachon xizmatkor olsangiz u bilan birga ovqatlaning, bo'lmasa o'zingiz yeydigan taomdan unga bering».

Tamom.

«SHE'R VA SHOIRLIQ»

Maqola 1919-yilda «Chig'atoy gurungi» dasturi yo'nalishida yozilgan bo'lib, dastlab «Ishtirokiyun» gazetasida (1919-y., 24, 25, 26-oktabr) e'lon qilingan. Qayta nashrlar («Turkiston». 1993, 1-iyul: «Muloqot», 1996, 4-son) ayrim qisqartirishlar bilan amalga oshirilgan. Ushbu kitobda maqolaning ilk nashri asos qilib olindi.

[1] **Navras** – o'spirin.
[2] **Iyaruchiliq** – taqlidchilik.
[3] **Singirlar** – paylar; asab-tolalari.
[4] **Johiliyat shoirlari** – islomgacha o'tgan arab shoirlari.
[5] **Ifrot** – chegaradan chiqish, haddan oshish.
[6] Maqolaning I qismi shu yerda tugaydi (qayta nashrlarda qisqartirish tufayli qismlar o'rtasidagi ayirma buzilgan).
[7] **Ramida** – hurkkan, cho'chigan.
[8] Nemis generali, usmonli turklar orasida uzoq ishlagan Fundirgorevich nazarda tutilgan. Uning sharqshunos sifatida ham ishlari bor.
[9] Taassufki, Fitratning ushbu mavzudagi boshqa maqolalari nashr qilinmagan.

«ADABIYOT QOIDALARI»

Abdurauf Fitratning «Adabiyot qoidalari» qo'llanmasi 1926-yil isloh qilingan arab alifbosi asosidagi o'zbek yozuvida chop etilgan. Muallif til va uslubini to'la saqlash niyatida qo'llanma aslicha qoldirildi. Ayrim o'rinlardagina (so'zning ma'nosiga keskin ta'sir etishi mumkin bo'lgan hollarda) juz'iy o'zgartirishlar kiritildi.

[1] **Toboqchilik** – kulolchilik.
[2] **«Iroq» kuyi** – shashmaqom tizimidagi olti maqomning nomidir. U quyidagi sho'bachalarni o'z ichiga oladi: Muxayyiri safti; Talqin; Qashqarcha; Soqinoma; Ufor; Iroq katta ufori.
[3] **Mug'a harakatlari** – imo, qosh va ko'z harakatlari, mimika: muqom qilmoq shu so'zdan olingan.

[4] Sening aqidang: bo'shlig'-u yorga yaqinlashmoq.

[5] Matndagi tartib sonlarni ifoda etuvchi arab harflari bilan berilgan. «j» harfi 3 raqamini bildiradi.

[6] «ammor uyyoni axbor va noqiloni osor andoq rivoyat qilurlarkim» – an'anaviy Sharq nasrida (asosan, forslarda) hikoya qilishning boshlanmasi. «Xabar beruvchilarning undashi bilan asar rivoyat qiluvchilari (aytuvchilari) shunday aytadilarki...» – deb tarjima qilish mumkin.

[7] **Xusrav** – forsigo'y turk shoiri Amir Xisrav Dehlaviy.

[8] **Tarji'** – qaytarish, takrorlash, qaytariq.

[9] Fitrat «Navoiy» emas, balki «Navoyi» tarzida beradi.

[10] «**Majolis**» – Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» asari nazarda tutilgan.

[11] **Sochim-tizim** – nazm va nasr.

[12] «Hijriy to'rtinchi asr» – milodiy X–XI asrlar.

[13] «Hijriy to'qqizinchi asr» – milodiy XIV asrdir.

[14] Bu misra Navoiy asarlarining keyingi nashrlarida «Qazo farroshi chekti subhning siymin supurgisin» deb berilgan. (Qiyoslash uchun *qarang*: Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. Navodir ush-shabob. Toshkent, 1959, 610-bet; Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 4-jild. Toshkent, 1989, 437-bet). Biroq Fitratda ushbu baytdan keyingi

«Kitoba sun'i qilki suvrai shams tafsirin,
Falak toqi havoshisida zarhaldin raqam chekti»

bayti tushib qolgan.

[15] Keltirilgan bu nasr parchasi Navoiyning «Mahbub ul-qulub» asaridan olingan. *Qarang*: Navoiy. Asarlar. XV jildlik. 13-jild, 23-bet.

[16] Boburning bu g'azali keyingi nashrlar (qiyoslash uchun *qarang*: Bobur. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1958, 120-bet)da ayrim o'zgarishlarga uchragan.

[17] Fitrat keltirgan

Kim: «Senga La'lidin ayru tushkani jon qoldumu?»

misrasi keyingi nashrda (Amiriy, Devon, Toshkent, «Fan», 1972.) shunday berilgan:

«Kim mengo la'lidin ayru tushgali jon qoldumu?»

[18] She'r «Maorif va o'qitg'uvchi» jarnalining 1925-yil, 5–6-sonlarida bosilgan.

[19] Bu nasriy parcha Cho'lponning «Qor qo'ynida lola» hikoyasidan olingandir.

[20] **O'rnaklar** – namunalar.

[21] Bu parcha ham Cho'lponning «Qor qo'ynida lola» hikoyasidan olingan.

[22] Bizningcha, Fitratning bu fikrida biroz yanglish bor. Chunki, har qanday ikki misrani ham bayt deb bo'lmaydi, asarda ularning o'zaro fikriy bog'liqligi, qofiyasi (shaklan) va ritmikasi bo'ladi. Botuning bu she'ri «uchlik» tarzida yozilgan, shuning uchun ham Fitrat domlaning «Olti misrada uch bayt bor» deyishi umuman to'g'ri bo'lsa ham, bu she'rga nisbatan to'g'ri aytilmagan.

[23] **Bosim** – urg'u.

[24] **«Madd»** – cho'ziqlik.

[25] **El so'zi** – maqol yoki hikmatli so'zlar shunday nom bilan ataladi. O'z navbatida xalq og'zaki adabiyotiga ham el adabiyoti, omma adabiyoti nomlari berilgan.

[26] Muallifi noma'lum asarlarga Fitrat shunday belgi qo'ygan.

[27] (F.) belgisi ostida Fitratning o'z she'rlari berilgan. Ayrim parchalarda hech qanday belgi uchramaydi. Bizningcha imzosiz keltirilgan bu satrlar ayrim nazariy tushunchalarning ifodasi uchun shu o'rinda misol tariqasida o'ylab topilgan.

[28] (F.) belgisini biz qo'ydik. Parcha Fitratning «Mirrix yulduziga» she'ridan olingan.

[29] «Adabiyot qoidalari» kitobining nihoyasida yanglish yozilgan so'zlarning jadvali berilgan bo'lib, unga ko'ra, bu so'z «mafo'iylun» deb to'g'rilangan. Biz bu o'rinda muqoyasa uchun (bundan keyin ham) har ikki so'zni keltirishni lozim ko'rdik.

[30] Bu parcha Boburning «Gahi sog'in ne bo'ldi zorlarni...» deb boshlanuvchi g'azalining 2-baytidir. G'azalning to'la matni uchun *qarang*: Bobur. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1958, 51-bet.

[31] Bobur «Yana ikki bahrkim, arid va amiqdur, tavil doirasidan hosil bo'lur, ul ayri mashhurdir. Bu bahrlar bilan jam' bo'lur, yigirma bir bo'lgay» deb, yana ham chuqurroq tushuntiradi. *Qarang*: Bobur. Muxtasar. Toshkent, 1971, 24-bet.

[32] Husayn Boyqaro. Devon, risola. Toshkent, 1968, 17-bet.

[33] Qarang: Bobur. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1958, 58-bet.

[34] G'azalning to'la matni uchun *qarang*: Bobur. Tanlangan asarlar, 18-bet.

[35] Bu parcha Boburning «Olg'ali ko'nglumni ul yuz bila ul gisu» deb boshlanuvchi g'azalining 2-baytidir. 2-misradagi «yuz tutsam» so'zi keyingi nashrlarda «yuzlansam» deb berilgan. *Qarang*: Bobur. Tanlangan asarlar. 122-bet.

[36] Ruboiyning keyingi nashrlarida 3-misradagi «hech» so'zi «oh» deb o'zgartirilgan. Bobur. Tanlangan asarlar, 130-bet; Bobur. Ruboiylar. Toshkent, 1961, 6-bet.

[37] Bu parchaning to'la matni ushbu manbada keltirilgan: Bobur. Tanlangan asarlar. 66-bet.

[38] *Qarang*: Amiriy. Devon. Toshkent, 1972, 303-bet.

[39] Boburning ushbu g'azali Fitratda to'la holda keltirilmagan. «Orzu...» deb boshlanuvchi 4-bayti tushib qolgan. *Qarang:* Bobur. Tanlangan asarlar. 55-bet.

[40] Bu so'zlar radif emas, qofiyadir. Radif «yana» so'zidir.

[41] Navoiydan keltirilgan bu g'azalning davomini ushbu manbadan ko'rish mumkin: Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 5-jild, Toshkent, 1990, 307-bet.

[42] *Qarang*: Bobur. Tanlangan asarlar. 148-bet.

[43] **Tajnis** – hamjins qilish, shakldosh so'zlarni qo'llash.

[44] Musaddasni ushbu manbadan to'la o'qish mumkin: Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami, 5-jild, 453-bet.

[45] Bu muxammasning davomini shu manbada o'qing: Husayn Boyqaro. Devon, risola. Toshkent, 1968, 149-bet.

[46] **Tarji'band** – muayyan baytning bir xilda takrorlanishidir.

[47] *Qarang*: Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami, 3-jild, 513-bet.

[48] **Matlub** – talab qilingan.

[49] Elbek. Go'zal yozg'ichlar. Turkiston davlat nashriyoti, Toshkent, 1924, 75-bet.

[50] **Qarash belgisi** – qaratqich kelishigining qo'shimchasi.

[51] **Ochiqliq** – aniqlik ma'nosida.

[52] Parcha Fitratning «Qor» she'ridan olingan. She'r ilk bor «Uchqun» jurnalining 1923-yil 2-sonida e'lon qilingan.

[53] Fitrat tomonidan noziklik bilan kuzatilgan bu «to'rt unsur» o'zbek adabiyotshunosligida ko'p qo'llanilgan bo'lsa ham mualliflarning hech biri uning Fitrat asaridan olinganini qayd etmagan.

[54] Qarash istiorasi forsiy tilda izofaning vazifalaridan biri – qaratqich bilan qaralmishni o'zaro bog'lashdir. Tilshunoslikdagi vazifasiga ko'ra sifatlovchi-aniqlovchidir.

[55] **Ta'riz** – namoyish etish, ko'rsatishdir.

[56] Bu misra «Shayboniynoma»ning bizga ma'lum nashrida shunday berilgan:

Otlarning semizin sayladilar.

Qarang: Muhammad Solih. Shayboniynoma. Toshkent, 1980, nashrga tayyorlovchi E. Shodiyev, 289–290-betlar.

[57] Bu parcha «Bibixonim madrasasi» she'ridan olingan. Asar dastlab «Maorif va o'qitg'uvchi»ning 1925-yil, 4-sonida bosilgan.

[58] Bu matla'ning davomi uchun *qarang*: Bobur. Tanlangan asarlar. 46-bet.

[59] **Laffu nashr** – so'zma-so'z tarjimasi: o'rab yoymoq.

[60] Amir Umarxondan keltirilgan parcha juz'iy o'zgartirish bilan berilgan. Solishtirish uchun *qarang*: Amiriy. Devon, 149-bet.

[61] Amiriy «Devon»ning debochasidan olingan bu parcha keyingi nashrda xato bosilgan, ya'ni «... muflislar g'ami» birikmasi tushib qolgan (*qarang*: Amiriy. Devon, 19-bet). Holbuki, Fitrat saj'ga misol tariqasida «g'ami» va «kafi» so'zlarini keltirmoqda.

[62] Alisher Navoiyning «Mufradot» asari nazarda tutilyapti.

[63] V. Mahmudning bu va matndagi keyingi so'zlari uning «Navoiygacha bo'lgan turk adabiyoti» maqolasidan olingan. Maqola «V. M.» imzosi bilan «Maorif va o'qitg'uvchi» jurnalining 1926-yil 1-sonida bosilgan.

[64] **Zumra** – to'da, guruh.

[65] She'riy ijod – bu yerda nazm, ma'nosida emas, umuman, poetik ijod ma'nosida ishlatilgan. Fitrat «nazm» o'rniga «tizim» ishlatayotganini unutmang.

[66] «Voqeadagi xayoldan» emas, «xayoldagi voqeadan» desa to'g'riroq bo'ladi.

[67] Yoy ishorati atalg'an ishoratlar orasida – qavs ichida demoqchi.

[68] **Birlik** – yaxlitlik, badiiy butunlik ma'nosida qo'llanilgan.

[69] **Tub tilak** – asardagi asosiy yoki bosh g'oya.

[70] **Haft manzar** – «Sab'ai sayyor».

[71] **Iskandarnoma** – «Saddi Iskandariy».

[72] Arastuning «She'r san'ati» asari nazarda tutilgan.

«O'QUV»

«O'quv» Fitratning ilk darsligi bo'lib, 1917-yili Bokuda nashr etilgan. Kitob muqovasida «Turkiston maktablarinda qabul o'lsa ikinji bo'laki daxi chiqar», deb yozib qo'yilgan.

«O'quv» kitobidan ayrim lavhalar «Vatan» gazetasida qayta nashr (nashrga tayyorlovchi U. Jo'raqulov) etilgan. Ushbu nashrda ilk tayanch nusxa asosida solishtirilib, tuzatildi.

[1] **Qopchiq** – pul saqlash uchun charmdan tikilgan idish.

[2] **O'ram** – ko'cha.

[3] **Ojurg'anmoq** – achinmoq, rahmi kelmoq.

[4] **Oqcha** – pul.
[5] **Burj bermoq** – foydasiz qarz bermoq.
[6] **Sotun olmoq** – sotib olmoq.
[7] **G'o'za** – pilla deyilmoqchi.
[8] **Tamrin** – savol va topshiriqlar.
[9] **Tovushqon** – quyon.
[10] **Kent** – shahar, qishloq.
[11] **Denilgan** – deb tanilgan, degan.
[12] **Og'och** – daraxt.
[13] **Yog'mur** – yomg'ir.
[14] **Daxi** – ham, yana.
[15] **Surmoq** – yer haydamoq.
[16] **Ekinchi** – dehqon.
[17] **Imom G'azzoliy** – «Hujjat ul-islom» nisbasi bilan mashhur mutasavvuf. 1111-yilda vafot etgan.
[18] **Qizub ketmoq** – qizishmoq, jahli chiqmoq.
[19] **Xurus** – xo'roz.
[20] **Yoziq** – gunoh.
[21] **Yavoshgina** – sekingina.
[22] **Lo'nda** – dumaloq.
[23] **Bahri muhit** – Okean.
[24] **Nahr** – daryo.
[25] **Qo'noq** – mehmon.
[26] **Ekinchilik maktabi** – qishloq xo'jaligi o'quv yurti.
[27] **Yer yog'i** – neft.
[28] **Yo'qsuk** – zaif, ayanchlik.
[29] **Uchuk tusli** – rangi oqarib ketgan.
[30] **Ofarin** – «a'lo» baho.
[31] **Po'rtqiz** – Portugaliya.
[32] **Lizbun** – Lissabon.
[33] **Beljiqo** – Belgiya.
[34] **Flamank** – Gollandiya.
[35] **Danimarqo** – Daniya.
[36] **Kupehof** – Kopengagen.
[37] **Isvich** – Shvetsiya.
[38] **Isvichra** – Shveysariya.
[39] **Bikrash** – Buxarest (Ruminiya poytaxti).
[40] **Go'palak** – kapalak, parvona.
[41] **Yozg'uch** – qalam.
[42] **Osig'** – foyda.
[43] **Cho't** – hisob.
[44] **Olday** – ilgarilab, oldin.

[45] **Sinog'** – sinov, imtihon.
[46] **Kuchlik chekmoq** – urinmoq, qiynalmoq.
[47] **Bo'lmamoq** – bo'lmaslik.
[48] **Orqadosh** – o'rtoq.
[49] **Angal** – shaydo.
[50] **Go'zlamoq** – to'plamoq; kutmoq.
[51] **Pinyamoq** – mudramoq.
[52] **O'sondi** – zerikdi; uyaldi.
[53] **Chorak** – og'irlik o'lchovi, bir chorak – 2,5 kg.
[54] **Ujuz** – arzon.
[55] **Yukchi** – hammol.
[56] **Kishilikiz** – baxil; xasis.
[57] **Hurkmoq** – seskanmoq.
[58] **Yoy** – yoz.
[59] **Ko'laga** – soya.
[60] **O'muz** – tizza.
[61] **Boqir** – ruh (metall).
[62] **Ura** – u yer.
[63] **Bilgu** – bilim, ilm.
[64] **Qo'lumb** – Xristofor Kolumb.
[65] **Hay'at ilmi** – astronomiya.
[66] **Qilg'irlik** – o'jar, qaysar.

«ENG ESKI TURK ADABIYOTI NAMUNALARI»

Fitratning «Eng eski turk adabiyoti namunalari» majmuasi 1927-yili (Samarqand – Toshkent) isloh qilingan arab yozuvida chop qilingan. Bunda Fitrat Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk»idagi manzum va mansur parchalarni shunchaki yig'ibgina nashr etmagan, balki ularni mazmun jihatdan o'zaro bog'lagan, adabiy tur va janrlarga ko'ra tasnifini ham bergan edi. Ushbu to'plamda asarning to'la matni emas, balki Fitratning so'zboshisi berilishi lozim ko'rildi.

[1] **Ko'ma** – turkum, guruh.
[2] Bu haqda *qarang*: Radloff W. Phonetik der nordichen turk sprehen.– Leipzig; 1882. – Pp. 8–19.
[3] **Qo'l** – shoxobcha.
[4] **Xoqoniy turkchasi** – Turk xoqonligi davridagi turkiy til nazarda tutilgan.
[5] **Al-Muqtadiy Biamirilloh** – abbosiy xalifalaridan.
[6] Najib Osimbekning bu haqdagi maxsus asarini topa olmadik. Biroq uning fikrlari «Devonu lug'atit-turk»ning Istanbul

nashrida aks etgan. Keyinchalik olimning bu fikridan ushbu manbada ham foydalanilgan: Atalay B. Divanu Lugatit Turk terçimesi. I–III çild. Ankara: 1939–41.

[7] **Ibriq** – ko'za; choynak.

[8] **Yoy** – qavs.

[9] Fitrat ayrim namunalarga o'zi ism bermay matndagi nomni saqlagan. Shunday nomlanishlar qo'shtirnoq bilan berildi.

«TILIMIZ» – I

Ushbu maqola 1919-yili yozilgan bo'lib, Fitratning keyinroq tilshunoslik sohasida yaratilgan tadqiqot va qo'llanmalari uchun o'ziga xos debocha vazifasini ham o'tagan.

«Tilimiz» dastlab «Ishtirokiyun» gazetasining 1919-yil 12-iyul (132) sonida e'lon qilingan. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» haftaligida (1990-yil 4-may), «Yoshlik» jurnali (1990, 5 son, 65–67-betlar)da va «Fitna san'ati» nomli adabiy to'plamda (T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993) qayta nashr qilingan.

[1] **Xud** – yana; o'sha.

[2] Bu o'rinda Fitrat «sovetlar hukumati»ni yoqlamoqchi emas, aksincha, turk tilining tashqi ta'sirlar asoratiga tushishi sovet davrida boshlanmadi demoqchi. Bunga qadar tilimiz arab va fors tillarining asoratida yashaganligi ma'lum.

[3] **Kasrati kalimat** – tilning lug'at qatlami, uning boyligi.

[4] **Vus'ati ishtiqoq** – so'z yasalishi.

[5] **Mukammaliyati qavoyid** – til grammatik qoidalarining mukammalligi.

[6] **Undirilgan** – yasalgan.

[7] **Bo'lishi** – fe'lning bo'lishliligi.

[8] **Holi** – ravishdosh.

[9] **Kelajagi** – fe'lning zamon kategoriyasi nazarda tutilgan.

[10] **Shart** – fe'lning shart mayli.

[11] **Qo'zg'avi** – fe'l nisbati, orttirma nisbat nazarda tutilgan.

[12] **Uft** – holatni ifodalovchi fe'llar.

[13] **Vaqt** – fe'llarda ifodalanadigan davomiylik nazarda tutilgan. Masalan, o'tgan zamon davom fe'li kabi.

[14] **Sabab** – sabab fe'llari, ya'ni sabab hollari o'rnida kelgan fe'l shakllari nazarda tutilgan.

[15] **Ism** – arab grammatikasida ayni shu nomli so'z turkumi ostida nafaqat otlar, balki sifat, olmosh va sonlar ham nazarda tutiladi. Bu yerda «otlashgan» so'zlar, ya'ni ot o'rnida kelgan fe'l shakllari nazarda tutilgan. Masalan, harakat nomi kabi.

[16] **Sifat yozilg'an** – sifat o'rnida kelib, uning qo'shimchalarini qabul qilishi nazarda tutilgan.

[17] **So'z tolug'i** – negiz ma'nosi.

[18] **Sarf** – morfologiya.

[19] Bu yerda yuqorida o'rganganimiz kabi istisno holatlar nazarda tutilgan. Ayni shu nuqtayi nazarda ham turk tilining boyligi, tugalligi isbotlangan.

[20] Eronda dastlab Ummaviylar istilosidan keyin, asosan arab tili rasmiy tilga aylangan edi. Shu davr nazarda tutilgan.

[21] **Emkaydim** – qiynaldim, ranj chekdim.

[22] **Qumruqlar** – zabt etilish, iskanjaga olinish ma'nosida.

[23] **Javhariy** – to'la nomi: Abu Nasr Ismoil ibn Hammar al-Forobiy. X asrning filolog olimi. Bu yerda Fitrat ulug' tilshunos olimning «Toj al-lug'at va sihhat al-arabiy» asarini nazarda tutgan. Bu haqda *qarang*: Xayrullayev M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. T., «Fan» 1994, 56-bet.

[24] **Vahdati vujud** – Allohning yagonaligi haqida ta'limot.

[25] «Iki turk ulusi» deganda usmonli (Turkiya) turklari va Ozarboyjon turklari nazarda tutiladi.

[26] Bu o'rinda Usmonli sultonligida fors tilining nufuzi yuqori bo'lib, saroy majlislari va ayrim nomalari ham forscha bitilishiga ishora. Bu haqda *qarang*: Abdurahmon Go'zal. Devon she'riyati. Anqara, 1989 (Turkiya turkchasida).

[27] **Qabo** – to'mtoq.

[28] **Daqqi** – qo'pol.

[29] **Qumuch** – yolg'on, asossiz.

«TILIMIZ» – II

Fitratning yuqoridagi «Tilimiz» maqolasi bosilgandan keyin «Ishtirokiyun» tahririyatiga qator xatlar, savollar yog'ilgan. Ayrim «tilshunos»lar maqolani noto'g'ri talqin qila boshlaganlar. Shu vaqtda ayni sarlavha bilan «Ishtirokiyun»ning 1919-yil 23-avgustida (144-son) ushbu maqola e'lon qilingan.

[1] «Tilimiz» – I maqolasiga berilgan izoh qismiga qarang.

[2] **Tonuq** – dalil, hujjat.

[3] So'zni o'qib bo'lmadi.

[4] **Fransa** – Fransiya.

[5] **Bo'lundig'i** – bo'lgani holda.

[6] **Muntafiy** – o'chgan, so'ngan.

[7] **Soyillig'** – so'rovchi, tilanchi.

[8] **Qilag'onlari** – qilgan ishlari, qilguliklari.

[9] **Sila** – yaxshilik. *Bu yerda:* yaxshilik bilan.
[10] **Turum** – o'rin.
[11] **Lablunday** – lo'nda qilib yoki qog'ozga o'rab.
[12] **Huyon hu** – to'ppa-to'g'risi, indallosi.
[13] **Inmadi** – o'rnashmadi, qo'nmadi. *Bu yerda*: tushmadi.

«TILIMIZNING ADABIYLIGI...»

Ushbu shartli nom ostida e'lon qilinayotgan bu maqola Fitratning 1921-yilgi Til va imlo qurultoyida so'zlagan nutqidir. Ushbu qurultoy 1921-yilning yanvar oyida o'tkazilgan bo'lib, Fitrat ushbu nutqidan tashqari imlo masalalarining muhokamasida ham so'zga chiqqan. Bu nutq «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetining 1997-yil 24-yanvar sonida «Tilimizning adabiyligi... o'zidadir» sarlavhasi bilan qayta nashr etilgan. Sarlavhaning asosiy qismini biz ham saqladik. Nutqning asl manbasi: 1921-yil Til va imlo quriltoyining chiqarg'an qarorlari. T., 1922, 35–40-betlar.

[1] **Fazliy** – bu va boshqa o'rinlarda «F» tovushi turkiy tillar uchun yot hisoblangani uchun u «P» tovushi bilan almashtirilib nashrga tayyorlangan. Biz aslidagiday «f» shaklini saqladik.
[2] **Lug'ati Chig'atoy** – to'la nomi: «Lug'ati chig'atoyi va turkiyi usmoniy». Lug'at Shayx Sulaymon Buxoriy (1820–1880) tomonidan tuzilgan.
[3] **Lug'ati Navoyi** – «Lug'ati Amir Navoyi» nazarda tutilgan bo'lishi mumkin. U O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 9954 raqami bilan saqlanadi. Bundan tashqari «Dar bayoni lug'ati Navoiy» – o'sha yerda 3324 raqami bilan, «Halli lug'ati chig'atoyi Xamsayi Navoiy» – 5197 raqami bilan, «Halli lug'ati Xamsayi Navoiy» – 6803 raqami bilan saqlanadigan lug'atlar ham bor.
[4] **Lug'ati Xorazmshohiy** – «Muqaddimat ul-adab» («Adab ilmlari muqaddimasi») nomi bilan mashhur. Asar Alouddavla Abdulmuzaffar Otsiz (Xorazm shohi)ga bag'ishlangan bo'lib, 1137-yili Zamaxshariy tomonidan yozib tugallangan.
[5] **Ingichlari** – qonuniyatlari, xususiyatlari.
[6] **Zahiriddin Foryobiy** – Zahiriddin Abu Fazl Foryobiy (1156–1201). Eron manbalarida Nishopur yaqinidagi Faryobdan deb ko'rsatiladi. Ozarboyjonda yashagan bu shoirni Fitrat «turkistonli» deb ataydi.
[7] **Yog'iqdi** – yovlashdi, qarshi chiqdi.
[8] **Maorif sho'rosining bir majlisi** – Turkiston jumhuriyati Xalq Maorif Komissarligi o'zbek maorifchilarining 1918-yil avgustda bo'lib o'tgan Birinchi qurultoy nazarda tutiladi.

«MUQADDIMAT UL-ADAB»

Fitratning bu maqolasi mashhur tilshunos olim Zamaxshariyning shu nomdagi asarini Buxoroda topilishi munosabati bilan yozilgan. Asarning nomlanishini hozirgi o'zbek tiliga «Adabiyotga kirish» (U. Uvatov) va «Nafis adabiyot muqaddimasi» (H. Homidov) deb tarjima qilingan. Fitratning aniqlashicha, bu tarixiy manba «Lug'ati Xorazmshohiy» nomi bilan mashhur bo'lgan to'rt tilli lug'atdir. Shundan kelib chiqqan holda uni «Adab ilmlari muqaddimasi» deb tarjima etsak, kitobning tabiatiga va muallifning ilmiy maqsadiga yaqin kelgan bo'lamiz. Maqola «Maorif va o'qitg'uchi» jurnalining 1925-yil 7–8-sonlarida (38–40-betlar) ilk bor e'lon qilingan.

[1] **Hijriy 538 da...** – milodiy 1144-yil. Abu-l-Qosim binni Umar az-Zamaxshariy 1074-yilda Xorazmda tug'ilgan. Makka, Bag'dod, Damashq shaharlarida bo'lib, arabshunos olim va faylasuflar bilan mubohasalar qilgan. «Al-Kashshof» («Oshkor qiluvchi»), «Al-foyiq fi g'arib il-hadis» («Hadisdagi notanish so'zlarni o'zlashtiruvchi») kabi ilmiy filologik asarlar muallifi. Badiiy adabiyot sohasida «Navobig' ul-kalim» («Hikmatli so'zlar»), «Maqomoti Zamaxshariy», «Atvoq uz-zahab fi mavo'iz va-l-xuttom» («Nasihatlarning oltin munchoqlari») kabi asarlari shuhrat topgan. Bu haqda *qarang*: A. Rustamov, Mahmud Zamaxshariy. T., «Fan», 1971.

[2] **Kotib Chalabiy** – turk olimi va adibi (1609–1657), mashhur izohli lug'at «Kashf uz-zunun» muallifi. Izohli lug'at tarzida arab tilida yozilgan bu kitobda ilm dunyosidagi 15 mingdan ortiq kitoblarga sharh va annotatsiyalar berilgan.

[3] **Ismlar** – arab grammatikasida «ism» nomi ostida fe'ldan boshqa so'z turkumlarining hammasi umumlashtiriladi.

[4] **Harflar** – yordamchi so'zlar.

[5] **Ism o'zgarishlari** – ot, sifat, son, olmoshlarining turlanishi, yasalishi va boshqa xususiyatlari.

[6] **Fe'l o'zgarishlari** – fe'lning zamonda tuslanishi va shaxs-son hamda boshqa qo'shimchalar yordamida o'zgarishi.

[7] Bu o'rinda Fitrat «Muqaddimat ul-adab»ning Parij, Leypsig, Vena, Leyden, Qozon, Norvegiya, Misr va Hindistondagi nashrlari asosida olmon olimi Vatzastayn tomonidan 1850-yilda tanqidiy matni bosib chiqarilganini eslatmoqchi.

[8] Fitrat bu o'rinda Xo'ja Is'hoq Afandini kotib sifatida tilga olgan. Turkiyadagi manbalarda esa, asar 1706-yili ushbu mualliф tomonidan usmonli turk tiliga tarjima qilingani aytiladi.

[9] **Hijriy 705** – 1305–1306-yillar.

[10] **Hijriy 898** – 1492-milodiy sanaga to'g'ri keladi.

[11] Baytning mazmuni: bu nusxa Abdulloxonning begi Qulbobo Ko'kaltosh tomonidan vaqf qilib topshirilgan.

[12] Bu o'rinda Fitrat S. Ayniy tomonidan 1921-yilda Samarqandda chiqadigan «Mehnatkashlar tovushi» gazetida e'lon qilingan maqolani nazarda tutadi.

[13] **Ondan tuban** – undan keyin, quyiroqda.

[14] Fitratning singlisi Mahbuba Rahim qizining xotirlashicha, u bir necha yilda bu notanish tilni o'rganib, 30-yillarning o'rtalarida «Eski mo'g'ul tili lug'ati»ni tuzgan. Bu asar bizgacha yetib kelmagan.

[15] «Oro» dir – hijriy-qamariy yil hisobidagi 11-oyning nomi Zulqa'da bo'lib, u turkiy xalqlar orasida shu kungacha «Ora oyi» yoki qisqacha «Oroyi» deb yuritiladi.

[16] **Mag'ora** – g'or. Bu so'z Fitratning asarlarida ham, jumladan «Hind ixtilochilari»da keng qo'llanilgan.

[17] Maqolaning so'ngida «Muqaddimat ul-adab» asarining bir muqovasi ilova qilingan. Ayni sahifaning fotonusxasi «O'zbek Sovet ensiklopediyasi»ning «Zamaxshariy» maqolasida berilgan. *Qarang*: O'zSE, 4-tom, T., 1973, 427-bet.

«O'ZBEK TILI QOIDALARI TO'G'RUSIDA BIR TAJRIBA

Birinchi kitob: Sarf»

Fitratning olti marta qayta nashr etilgan (1924–1930) til darsligi «O'zbek tili qoidalari to'g'rusida bir tajriba. Birinchi kitob: Sarf» dastlab isloh qilingan arab yozuvida, so'ngra esa lotin yozuvida chop etilgan. Tabiiyki, birinchi va oltinchi nashrlar o'rtasida anchagina farqlar mavjud. Lotin yozuvidagi so'nggi 1930-yil nashrini asos qilib olgan holda avvalgi nashrlar bilan solishtirilib qayta nashrga tayyorlandi.

Asarni nashrga tayyorlashda bugungi matbaa belgilaridan foydalanildi. O'rinsiz qo'shtirnoqlar, ajratishlar o'rniga kursiv va ajratmalarning boshqa turlaridan foydalanildi. Ingichkalik va yo'g'onlik xususiyatlari aks etgan so'zlarga «a-a» tarzida farqlash qabul qilindi. Tilshunoslikka oid istiloh va atamalar muallif talqinicha qoldirildi. Muallif izohlari sahifa ostida beriladi.

[1] **Qarangliq** – tussiz, nursiz.

[2] Taniqli tilshunos olim Ashurali Zohiriyning «Imloga oid» kitobi nazarda tutilgan.

[3] Ikkinchi Til va imlo qurultoyi 1921-yilda Toshkentda, Uchinchi qurultoy esa 1926-yili Bokuda chaqirilgan edi.

[4] **Cho'zg'i** – unli tovush. Bu yerda cho'zg'i o'rinlari – artikulyatsiya o'rni.

[5] **Mir Haydar** – Haydar Xorazmiy nazarda tutilgan.

[6] **Qulxoniy** – Umarxonning o'g'li Xon taxallusi bilan mashhur bo'lgan Muhammad Alixon nazarda tutilgan.

[7] **Tekli** – to'g'ri, aniq.

[8] **Ta'lif** – ijod qilingan, yaratilgan.

[9] **Tajvid** – so'zlarni arab fonetikasiga mos ravishda o'qish yoki talaffuz qilish ilmi.

[10] **Nuchuklik** – otning belgisi, qanday, qanaqa.

[11] **Turliy** – turlik.

«O'ZBEK TILI QOIDALARI TO'G'RUSIDA BIR TAJRIBA

Ikinchi kitob: Nahv»

Fitratning bu asari besh marta qayta nashr etilgan bo'lib, birinchi nashri 1924-yilda amalga oshirilgan. Nisbatan to'la bo'lgan uchinchi bosma (Samarqand – Toshkent. O'zbekiston Davlat nashriyoti, 1927) asosida nashrga tayyorlandi. Ma'lumki, asarning so'nggi beshinchi nashri lotin yozuvida chop etilgan edi. Ba'zi ma'lumot va so'zlarni aniqlashtirish uchun shu so'nggi nashri bilan ham qiyoslab chiqildi.

[1] Tilshunos olim va jurnalist Shorasul Zunnun va uning 1927-yilda nashr etilgan tilshunoslikka doir kitobi nazarda tutiladi.

[2] Fitratning tilshunoslikdagi «kichik tajribalari», bizningcha, 1918-yili Qayum Ramazon va Shokirjon Rahimiy bilan hammualliflikda tartib berilgan «Ona tili» darsligi, 1926-yilgi «Muqaddimat ul-adab», «O'zbekcha til saboqligi» maqolalari va 1927-yildagi «Imlo konferensiyasi munsabati ila» chiqishdir.

[3] **Muharrir** – biz bilgan «redaktor» ma'nosida emas, Fitrat davrida bu so'z «muallif» ma'nosida qo'llanilgan.

[4] **Turish belgilari** – hozirgi istilohga ko'ra «tinish belgilari».

[5] **To'rtkul** – to'rtburchak.

[6] **H. B.** – Hanif Burnash nazarda tutiladi.

[7] **Mantiqlarcha** – bugungi kunda mantiqchilarcha. Bundan keyin qavs ichida asosiy matnda bo'lmagan, biroq bugungi imlo talabidan kelib chiqqan holda nashrga tayyorlovchi tomonidan qo'shilgan so'z, ibora va qo'shimchalar beriladi.

[8] **Mahmul** – tushunarsiz.

[9] **Qat'** – kesish.

[10] **(Amiriy)** – Bu misra' asli Navoiy g'azalidan olingan, Amiriy unga taxmis bog'lagan. Fitrat misolni Amiriy devonidan olgani uchun (Amiriy) deb bergan bo'lishi mumkin.

[11] **Pech-u tob** – «pech»: o'ralish, eshilish; «tob»: qayrilma.

[12] **Kelishkanlik** – bu kategoriya zamonaviy tilshunoslikda «moslashuv» deb yuritiladi.

[13] **Aniqlangan** – hozirgi istilohga ko'ra «aniqlanmish».

[14] **Olmosh izi** – egalik qo'shimchasi.

[15] **Eksik gap** – atov gap.

[16] Matnda 5 dan 9 gacha tartib raqami qo'yilmagan, matbaa xatosi bo'lsa kerak degan gumon bilan tartib raqami o'rniga qo'yildi.

[17] **Mu'tariza** – kiritma.

[18] Matnda 6 va 7 raqamlar qo'yilmaganligi uchun qo'yildi.

[19] **Nisf** – yarim.

[20] **Ma'noi farz amri ilohiy** – farzning ma'nosi ilohiy amr demakdir.

OILA YOKI OILA BOSHQARISH TARTIBLARI

[1] Maorifparvar, shoir va jurnalist, 1877-yili Buxoroda tug'ilgan. 1934-yili 5-mart kuni olamdan o'tgan.

[2] Lut qavmining amali... Lut payg'ambar va qavmining tafsiloti Qur'onda keltirilgan. Lut alayhissalom hukm va ilm sohibi bo'lib, o'z qavmi tomonidan tan olinmagan payg'ambar edi. Lut qavmi bachchabozlik bilan shug'ullanganlar. Lut ularni bu amaldan qaytarmoqchi bo'lganda, uni surgun qilmoqchi bo'ldilar. Alloh ularni shu gunohlari uchun yo'q qilgan. Mufassal qarang: Qur'oni karim, A'rof surasi, 78–80-, 82–84-; Xud surasi, 70–73-, 82–84-; Hijr surasi, 57–77-; Shuaro surasi, 160–173-; Va-z-zoriyot surasi, 33–38-oyatlar va boshqalar.

[3] Nafsini o'zi qondirsa... Hozirgi tib ilmida onanizm.

[4] Qur'oni karim, Baqara surasi, 223-oyat.

[5] Anas raziyallohu anhu... Anas ibn Molik. Muhammad payg'ambarning sahobalaridan, laqabi Abu Hamza. Taxminan 710-yili 100 yoshda vafot etgan.

[6] Abu Hurayra raziyallohu anhu... To'liq ismi Abdurahmon ibn Sahr Azdiy. Sahoba, 676-yilda 78 yoshida vafot etgan.

[7] Zino. Shariat hukmi bo'yicha nikohsiz, nomahram ayol

bilan jinsiy aloqada bo'lish. Islomda zino og'ir gunohlardan hisoblanadi.

[8] Abdullo ibn Mas'ud. Sahoba, 652-yili vafot etgan.

[9] Pol Demar – fransuz sotsiologi va iqtisodchisi.

[10] Said Abu Hilol. Payg'ambar sahobalaridan.

[11] Ayoz ibn G'anim. Payg'ambar sahobalaridan.

[12] Abdulloh ibn Amru. Sahobalardan.

[13] Qur'oni karim, Niso surasi, 3-oyat.

[14] «Tafsiroti Ahmadiya», Bombay, 1876, 226-bet.

[15] «Al-jomi' us-sag'ir». Muhammad at-Termiziy (892-yili vafot etgan)ning «Al-jomi' al-kabir» nomli hadislar to'plamining muxtasar nusxasi.

[16] «Bado'e us-sanoye' fi tartibi-sh-sharoye'», 2-j, 333-bet. Fiqh ilmiga oid asar.

[17] Oysha raziyalloh anho binti Abu Bakr Muhammad payg'ambarning xotinlari. 676-yili 65 yoshda vafot etgan.

[18] «Tafsiri Tabariy», 5-j, 182-bet. Asarning asl nomi «Jomi' ul-bayon an ta'val al-Qur'on» bo'lib, muallifi Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariydir. U 923-yili Bag'dodda vafot etgan. Arabcha matni 1903-yili Qohirada nashr etilgan. Somoniy amiri Solih Mansur binni Nuh farmoni bilan arab tilidagi matni Buxoroda fors tiliga o'girildi. «Tafsiri Tabariy» shu tarjima orqali Markaziy Osiyoda shuhrat topgan. Mufassal qarang: I. A. Stori. Persidskaya literatura, Biobibliograficheskiy obzor, Pererabotano i dopolneno Y. E. Bregel – M., 1972, II tom, 99–102-betlar.

[19] Al-Mag'irat ibn Sha'ba. Sahobalardan, 660-yilda vafot etgan.

[20] Sahl binni Sa'd. Asl nomi Sahl ibn Sa'd as-So'idiy, hijriy 88-yili 96 yoshda vafot etgan.

[21] Imom G'azzoliy. Abu Hamid Muhammad ibn Muhammad at-Tusiy. 1058–1111-yillarda yashagan. Buyuk islom olimi, faylasuf va faqih, Shofi'iy mazhabida bo'lgan.

[22] Said bin al-Musib ibn Musayyib. Mashhur faqih. 712-yil vafot etgan.

[23] Abu Dovud. To'liq nomi Abu Dovud Sulaymon ibn Ash'as as-Sijistoniy. Mashhur muhaddis, 817–888-yillari yashagan.

[24] Qur'oni karim, Niso surasi, 4-oyat.

[25] Shayx ul-mufassir – tafsirchilar piri.

[26] 18-izohga qarang.

[27] Qozi Bayzaviy. Nosiruddin Abu Sa'd Abdulloh ibn Umar al-Bayzaviy. Sherozda qozi bo'lgan, 1286-yili Sheroz-

da vafot etgan. Zamaxshariyning «Kashshof» asariga asoslanib yozilgan «Anvar ut-tanzil va asror ut-ta'vil» nomli asari mavjud.

[28] Imom Buxoriy Muhammad ibn Ismoil Abu Abdulloh al-Ju'fi. 810–870-yillarda yashagan. Mashhur muhaddis. «Jomi' as-Sahih» asarining muallifi.

[29] Imom Muslim. To'liq nomi Muslim ibn al-Hajjoj Abdul Husayn al-Kushayri an-Nisoburiy. 817-yillarda yashagan. Buyuk muhaddis olim. «As-sahih» nomli hadislar to'plamining muallifi.

[30] Hazrati Umar. Umar ibn al-Xattob. Xulafoi roshiddinning ikkinchisi. 634–644-yillarda xalifa bo'lgan.

[31] Uqiya – 12 dirhamga teng pul birligi (14 dirham – 3,12 gr. kumush tanga).

[32] Anas ibn Molik. 5-izohga qarang.

[33] Ibn Ma'sud, ya'ni Abdulloh ibn Mas'ud. 8-izohga qarang.

[34] Qur'oni karim, Baqara surasi, 228-oyat.

[35] Qur'oni karim, Rum surasi, 21-oyat.

[36] Qur'oni karim, Niso surasi, 128-oyat.

[37] Hazrat Usmon. Usmon ibn Affon. Muhammad payg'ambarning chahoryorlaridan. Ulardan keyingi xalifalardan. 655-yili vafot etgan.

[38] Badr urushi (jangi). Muhammad sallallohu alayhivasallam rahbarliklaridagi Madina musulmonlarining Makka mushriklari bilan 624-yili mart oyida qilgan jangi.

[39] Sa'd bin Abu Vaqqos. Sahoba, lashkarboshi. 670-yilda vafot etgan.

[40] Qur'oni karim, An'om surasi, 128-oyat, Xud surasi, 106–107-oyatlarning mazmuni keltirilgan.

[41] Qur'oni karim, Niso surasi, 34-oyat.

[42] Qur'oni karim, Nur surasi, 30–31-oyatlar.

[43] Milodiy 652/53-yil

[44] Qur'oni karim, Baqara surasi, 222-oyat.

[45] Qur'oni karim, Niso surasi, 19-oyat.

[46] Qur'oni karim, Niso surasi, 34–35-oyatlar, Fitrat sharhida kelgan.

[47] Qur'oni karim, Niso surasi, 130-oyat.

[48] Abu Bakr Roziy. Sharqning buyuk tabibi va faylasufi.

[49] Janner. 1796-yili E. Janner chechakka qarshi sigirning virusidan foydalangan.

[50] «Rahbari najot» (Najot rahbari). Fitratning bu asari Buxoroda hijriy 1332-yili sha'bon oyi, milodiy 1914-yili iyun oyida nashr etilgan.

[51] Falaq – o‘rtasiga halqasimon tasma o‘tkazilgan yog‘och. Eski maktablarda bolalarni jazolash quroli.

[52] Abdurahmon ibn Xaldun. Sayyoh va faylasuf. Arab tilida ijod qilgan. Asar va muallif haqida kengroq ma’lumot uchun «O‘zbekistonda ijtimoiy fikr» jurnalining 1998-yil 1-soniga qarang.

[53] Qur’oni karim, A’rof surasi, 58-oyat.

[54] Oyatning to‘la ma’nosi: «Kim so‘zni eshitsa va yaxshi qabul qilsa, ular Haq tomonga yo‘l topganlardandirlar», – Fitrat.

[55] Qur’oni karim, An’om surasi, 151-oyat.

[56] Qur’oni karim, An’om surasi, 140-oyat.

[57] Qur’oni karim, Al-isro surasi, 24-25-oyatlar.

[58] Qur’oni karim, Ankabut surasi, 8-oyat.

[59] Qur’oni karim, Luqmon surasi 15-oyat.

[60] Qur’oni karim, Maryam surasi, 42-49-oyatlar.

[61] Qur’oni karim, Niso surasi, 135-oyat.

[62] Ali karamulloh vajhahu. Ali ibn Abu Tolib. To‘rtinchi xalifai roshiddin. Rasulullohning amakivachchalari, qizlari Fotimaning eri. 656–661-yillarda xalifalik qilgan. 661-yili o‘ldirilgan.

[63] Qur’oni karim, Al-isro surasi, 23–25-oyatlar.

[64] Qur’oni karim, An’om surasi. 152-oyat.

[65] Qur’oni karim, Niso surasi, 6–7-oyatlar.

[66] Qur’oni karim, Niso surasi, 10-oyat.

[67] Qur’oni karim, An’om surasi, 152-oyat.

[68] Qur’oni karim, Niso surasi, 10-oyat.

[69] Qur’oni karim, Baqara surasi, 219–220-oyatlar.

[70] Qur’oni karim, Val-fajr surasi. 15–18-oyatlar.

[71] Qur’oni karim, Mo’un surasi, 1-oyat.

[72] Abu Zar G‘affariy. Islomning ilk targ‘ibotchilaridan. 635-yili vafot etgan.

MUNDARIJA

Adabiyotshunoslik

She'r va shoirliq 5
Adabiyot qoidalari 11
O'quv 88
Eng eski turk adabiyoti namunalari 117

Tilshunoslik

Tilimiz – I 124
Tilimiz – II 128
Tilimizning adabiyligi... 131
Muqaddimat ul-adab 135
O'zbek tili qoidalari to'g'rusida bir tajriba
Birinchi kitob: Sarf 140
O'zbek tili qoidalari to'g'rusida bir tajriba
Ikinchi kitob: Nahv 175
Oila yoki oila bashqarish tartiblari 214
Izohlar 317

Adabiy-badiiy nashr

ABDURAUF FITRAT

TANLANGAN ASARLAR

Toshkent «Ma'naviyat» 2009

Muharrir *U. Qo'chqorov*
Rassom *G. Shoabdurahimova*
Texn. muharrir *T. Zolotilova*
Musahhih *O. Bozorova*
Kompyuterda tayyorlovchi *Sh. Sohibov*

Bosishga 11. 08. 2009-y. da ruxsat etildi. Bichimi $84\times108/_{32}$. Tayms garniturasi. Ofset bosma usulida bosildi. Shartli b. t. 17,64. Nashr t. 15,85. 1800 nusxa. Buyurtma № 674. Narxi shartnoma asosida.

«Ma'naviyat» nashriyoti. Toshkent, Buyuk Turon, 41-uy. Shartnoma 25–09.

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi. 700083. Toshkent, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy. 2009.

F 71

Fitrat, Abdurauf.

Tanlangan asarlar: Darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqola va tadqiqotlar /Abdurauf Fitrat; Mas'ul muharrir B. Qosimov; Nashrga tayyorlovchi va izohlar muallifi H. Boltaboyev. – T.: «Ma'naviyat», 2009. – 336 б.

BBK 83.3(5У)